**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

TAHRIRIYAT HAY’ATI
Bosh muharrir: prof. Nabiyev D.H.
Bosh muharrir o‘rinbosari:
f.-m.f.d. Bekpulatov I.R.
Mas’ul kotib: dots. Ne’matova Y.O.
Tahririyat hay’ati a’zolari:
prof. Bahriddinova B.M.
prof. Bo‘riyev O.B.
prof. Yoziyev L.Y.
prof. Jabborov A.M.
prof. Jabborov X.J.
f.-m.f.d. Imomov A.A.
k.f.d. Kamolov L.S.
prof. Kuchboyev A.E.
prof. Mengliyev B.R.
prof. Normurodov M.T.
prof. Nurillayeva Sh.N.
prof. Nurmanov S.E.
p.f.d.Oripova N.X.
prof. Ochilov A.O.
prof. Tojiyeva G.N.
prof. To‘rayev D.T.
prof. Umirzakov B.Ye.
prof. Xayriddinov B.X.
prof. Xolmurodov A.E.
prof. Choriyev S.A.
prof. Shodiyev R.D.
prof. Shodmonov N.N.
prof. Erkayev A.P.
prof. Ernazarova G.X.
prof. Eshov B.J.
prof. Qurbonov Sh.Q.
prof. Qo‘yliyev B.T.
prof. Bekmurodova G.H.
prof. Imanova G.T.
prof. Bobonazarov G‘.Y.
prof. Shukurov O.M.
prof. Yusupova A.Sh
f.f.d. Imomova G.M.
dots. Ro‘ziyev B.X.
dots. Eshqorayeva N.G‘.
dots. Xolmirzayev N.S.
dots. Hamrayeva Y.N.
dots. Rizayev B.X.
dots. Nashirova Sh.B.
f.f.f.d. Musayeva D.T.

**2025
1(1)**

QarDU xabarlari
Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal

Muassis: Qarshi davlat universiteti
Jurnal Qashqadaryo viloyati Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2010.17.09 da № 14–061 raqamli guvohnoma bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan.
Musahhihlar:
Shodmonova D.E.
Tursunboyev B.N.
Pardayeva D.R.
Sahifalovchi:
Yuldoshev D.N.
Texnik muharrir:
Raxmatov M.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarorlari bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, tarix, falsafa, siyosatshunoslik, filologiya, pedagogika-psixologiya va iqtisod fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2009-yilda tashkil etilgan.

Yiliga 4 marta chop etiladi.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:
Pochta manzili: 180003, Qarshi, Ko‘chabog‘,17.Qarshi davlat universiteti, Filologiya fakulteti binosi, 107-xona.
Telefon: 97-222-10-80
TelegramID:
https://t.me/Qardu_Xabarlari2024
Elektron pochta:qardu_xabarlari@mail.ru
Veb-sayt:
https://qarshidu.uz/oz/page/ilmiy-jurnal-NEW

Ijtimoiy-gumanitar fanlar

Jurnaldan olingan materiallarga “QarDU xabarlari” jurnalidan olindi”, degan havola berilishi shart. Mualliflardan kelgan materiallar egalariga qaytarilmaydi.

MUNDARIJA

TARIX

Ahmadov X.S. O‘zbekiston SSRda kirillashtirish siyosatining majburiy tarzda amalga oshirilishi…… 4

Raximov X.M. IX asr – Abbosiylar davlatida ilm-fan va san’at…….. 9

Rezvonova A.B. Abdullaxon davridagi Buxoro madrasalari tarixiga doir ba’zi mulohazalar..... 15

Xidirova G.S. Buxoro amirligi bilan Qashqadaryo vohasidagi bekliklarning ma’muriy-hududiy tuzilishi, boshqariluvi……... 20

Xoliqulov Sh.B. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshida Rossiya imperiyasida notarial idoralar faoliyati tarixi…… 23

Ostonov U.S. Mang‘itlar sulolasining bosib o‘tgan tarixiy yo‘li…….. 29

Axmedov B.A. Qorako‘lchilik sohasiga mustaqillik yillarida zamonaviy texnikalarning kiritilishi hamda ilmiy tadqiqot ishlari……... 34

Маматова М.Б. Анализ чайной торговли Туркестанского края (вторая половина XIX в. - начало XX в.)…….. 38

FALSAFA

Xojiyev T.N. O‘zbekistondagi ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini tadqiq etishning ijtimoiy-falsafiy asoslari……... 44

Nishonov S.J. Husayn Voiz Koshifiy falsafiy asarlarining umummetodologik ko‘lami….. 51

Sayidova M.G‘. Ma’naviy-madaniy merosni deformatsiyalashuvga olib boruvchi omillar 56

Xolov Sh.A. Iqtisodiy taraqqiyot omillari: ijtimoiy- falsafiy talqin…….. 61

Shadmanov Q.B. O‘rta asr Yevropasi va uyg‘onish davri: borliq, ong va til makon va zamon rakursida……. 65

Toshov X.I. Ongni manipulyatsiyalashning zamonaviy konsepsiyalari……... 70

FILOLOGIYA

Nusurov U.N. Hozirgi o‘zbek she’riyatida metaforalarning o‘rni: tarixiy va ijodiy tahlil... 76

Yo‘ldosheva U.E. Lingvokulturologiya xalq madaniyatining ko‘zgusi…… 80

Bazarova D.B. Variantdosh birliklarning tasinfi……... 84

Narxodjayeva X.Sh. Rasmiy muloqotda xushmuomalalikning o‘rni va uning nutqda takomillashuvi..... 88

Xazratova I.F. The concept of “Justice” in bilingual translation dictionaries…….. 91

Rustamova Sh.N. Dunyo tilshunosligida o‘smir bolalar og‘zaki nutqining o‘rganilishi….. 94

Shodmonova D. Abdulla Oripov she’riyatida qo‘llangan metaforalarning badiiy-estetik vazifalari……..... 98

Abatov D.R. Qashqadaryo xalq dostonlaridagi an’anaviy turg‘un o‘xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlari……..... 101

Неъматова Ю.О. О некоторых этноойконимах, связанных с названиями кипчакских родов (на примере топонимов Наманганской области)……... 105

Хамраева Ё. Тезаурус метаязыка как способ передачи системных связей в лексике.. 110

Muxammedova N.E. Amerika Hindu adiblari ijodida mo‘jizaviy realizm raqslar talqinida…….. 115

Eshmatova Y.B. Istiqlol davri o‘zbek qissachiligida peyzaj tasviriy vositasining o‘rni..... 120

Botirova F. Folklorizmning o‘ziga xos xususiyatlari…… 125

Berdiyeva Z.O. Hikoya janrining badiiy xususiyatlari va hikoyachilikda badiiy xronotopning o‘rni..... 128

Babanazarova G.Y. Qashqadaryo baxshichilik san’atida ijrochilik an’analari..... 132

Kamolova M.U. Alisher Navoiy lirikasida “Xilvat” talqini…….. 136

Yo‘ldoshev D.N. Adabiy tanqidchilik va badiiy ijod qonuniyatlari…….. 140
Yaxshiyeva Z.R., Mamatova D.A. Temuriyzodalar haqida tarixiy haqiqat va badiiy voqelik…… 144
To‘rayev D. Badiiy asar va ijodiy niyat…… 149
Usmonov Sh. Zebo Mirzo ijodida muhabbat mavzusining ask ettrilishi……... 151
Yarmatov I. Qalmoqlar obrazlarining o‘zbek xalq qahramonlik eposidagi badiiy talqini asoslari…… 156
Mo‘minova G. Shavkat Rahmon ijodida Cho‘lpon she’riyati an’analari……. 161
Ernazarova G.H. She’riy kinoya va uning ijtimoiy asoslari…… 164
Kadirova S. O‘zbek folklorida terma janri va uning areal spetsifikasi……. 168
Kamolova N. “Alpomish” dostoni va uning turkiy xalqlar eposi taraqqiyotida tutgan o‘rni….. 171
Rizayev B.X. Sharq va G‘arb adabiyotida hajviyot va mutoyiba…….. 174
Abdullayeva U. Personajli lirika uslubiyati……. 178
Juraeva G.B. Enhancing critical thinking skills in english language learning: strategies and outcomes……... 181
Kodirova F. Thematic classification of terms in the field of fine arts and design…… 183

PSIXOLOGIYA

Jabborov A.M. O‘zbek xalq psixologiyasi (o‘zbek xalq maqollari) yoshlarda irodaviy sifatlarni tarbiyalashning muhim omili sifatida..... 188

SIYOSATSHUNOSLIK

Turdiyev B.S. Ilk Sharq Renessansi davrida siyosiy-huquqiy tafakkur rivoji..... 193

O‘ZBEKISTON SSRDA KIRILLASHTIRISH SIYOSATINING MAJBURIY TARZDA AMALGA OSHIRILISHI

Ahmadov Xurshid San’atovich
Buxoro davlat universiteti, tayanch doktorant
ahmadovxurshid76@gmail.com
ORCID: 0009-0006-3510-2850
UDK:94(575.1):811.512.133:

Annotatsiya. Mazkur maqola O‘zbekiston SSRda XX asrning 30–40-yillarida sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan imlo islohoti siyosati to‘g‘risida bo‘lib, bu siyosat naqadar noto‘g‘ri va majburiy tarzda maorif xodimlarini jalb etganligi maqolada aniq ko‘rsatib o‘tilgan. Bunda tadqiqot muammosi sifatida kirillashtirish siyosatining sovet hukmron mafkurasi bilan bog‘liqlikda amalga oshirilganligini isbotlash hisoblanadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘zbek milliy ziyolilari harakat qilgan lotin imlosiga o‘tildi. Lotin imlosiga asoslangan o‘zbek alifbosi joriy etildi. Kirill imlosiga o‘tilganligi oqibatida maorif sohasi mafkuraga bo‘ysundirilgan edi, Mustaqillik sharofati bilan milliy imlomizga ega bo‘lish oldimizda turgan vazifalardan biri edi. Shu bois kirill alifbosidan lotin alifbosiga o‘tilishi sabab va omillarini yoritish dolzarb masala hisoblanadi. Tadqiqot fikr yuritilayotgan tarixiy davr davriy nashriyotlari materiallari ma’lumotlari bilan boyitilgan. Chunki davriy nashrlardan tarixiy jarayonlarga xolisona baho olishimiz mumkin hisoblanadi. Maqolada qatag‘onga uchragan milliy ziyolilar va mahalliy rahbarlarning lotin imlosini joriy etishda millatchilik, panturkizmda ayblanib qatag‘on sabablariga kirgizilganligi haqida ham ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar. Alifbo, imlo, kirill, maorif, maktab, millatchilik, sovet hukumati, mafkura.

COMPULSORY IMPLEMENTATION OF CYRILLIZATION POLICY IN UZBEKISTAN SSR

Abstract. This article describes the spelling reform policy implemented by the Soviet government in the Uzbek SSR in the 1930s and 1940s. The article clearly shows how wrongly and forcibly this policy involved education workers. In this case, the problem of research is to prove that the Cyrillization policy was implemented in connection with the Soviet ruling ideology. The relevance of the research is that after the independence of Uzbekistan, the Uzbek national intelligentsia tried to use the Latin spelling. The Uzbek alphabet based on Latin spelling was introduced. As a result of the transition to Cyrillic spelling, the field of education was subordinated to ideology. For this reason, the clarification of the reasons and factors for the transition from the Cyrillic alphabet to the Latin alphabet is an urgent issue. The research is enriched with the materials of periodical publications of the historical period under consideration. Because it is possible to get an objective assessment of historical processes from periodicals. The article also mentions that the repressed national intellectuals and local leaders were accused of nationalism and pan-Turkism in the introduction of the Latin spelling.
Key words. Alphabet, spelling, Cyrillic, education, school, nationalism, Soviet government, ideology

Kirish. Sovet davri oxirgi yillardagi tadqiqotlarda XX asrning 30–40- yillarida imloviy islohotlar borasidagi tadqiqotlar ko‘plab munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Shu munosabat bilan bu davrdagi imlo islohotlarini tadqiq etish tadqiqotchidan yuqori bilim va ko‘nikmani talab etadi. Sovet mafkuraviy jarayonlari milliy imloni ham chetlab o‘tmagan, aynan shu davrga kelib Sovet ittifoqi yuritgan madaniy inqilob natijasida sovet respublikalarida kirillashtirish siyosati amalga oshirildi. Xalqlarning o‘zining milliy imlosi ahamiyatiga e’tibor berilmadi. O‘zbekiston SSRda 1929-yil lotin imlosi joriy etilganidan so‘ng, bu imlo 1941- yilgacha amal qildi. 1940- yil 8- mayda O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining III sessiyasida kirill grafikasiga asoslangan o‘zbek alifbosi tasdiqlandi. Azaldan arab alifbosidagi eski o‘zbek yozuviga o‘rgangan o‘zbek xalqi uchun 11 yil ichida 2 marta alifbo o‘zgardi, lotin imlosiga endi maorif sohasi ixtisoslashtirilganligi arafasida, sovet hukumati tomonidan yangi mafkuraviy alifboni majburiy tarzda singdirish siyosati boshlandi [1]. Bu jarayonlar sovet respublikalarida majburiy tarzda amalga oshirildi. Endi yangi alifboga 10 yil bo‘lganda sovet hukumati yana yangi alifboni joriy etish yo‘lini tanladi. Lotin alifbosi targ‘ibot-tashviqot ishlari bilan amalga oshirilgan bo‘lsa, kirillashtirish siyosati majburiy, shafqatsizlik bilan amalga oshirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada XX asrning 30 – 40 – yillaridagi maorif sohasidagi islohotlar ijtimoiy-siyosiy jihatlarini o‘rganishda sintez, kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, kontent analiz, qiyosiy tahlil, dialektik usullaridan foydalanildi.

Natija va muhokama. Mustamlaka o‘lkalarda rus tili va imlosini majburiy tarzda joriy etish 1938-yil Rossiya Kommunistik partiyasi Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining “Milliy respublikalar va o‘lkalardagi maktablarda rus tilini o‘rgatish to‘g‘risida”gi qarori bilan boshlandi. Unga ko‘ra RSFSRdagi maktablarda birinchi til rus tili bo‘lishi kerak edi, maktabdagi o‘quvchilar 5- sinfgacha rus tilini bilishi kerak bo‘lgan [2]. Bu qaror 1938- yil 3-4-aprel kunlari O‘zbekiston SSR Kommunistik partiyasi Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi va Xalq Nozirlar Kengashi tomonidan tasdiqlandi. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun rus tilini bilish majburiy etib belgilandi [3]. Oliy ta’limga qabul qilishda mahalliy talabalar sun’iy ravishda ko‘paytirildi. Bundan ko‘zlangan maqsad chet o‘lka aholisiga rus tilini singdirish hisoblangan, maktablarda rus tili darslarini ko‘paytirish bilan bir qatorda, mahalliy kadrlar salmog‘ini oshirishda rus tilini singdirib borish sovet hukumatining asosiy siyosati bo‘lgan. Masalan 1918-yil 21-aprelda Toshkentda tashkil topgan Turkiston xalq universiteti (Markaziy Osiyo davlat universiteti)da 1927–1928- yillarda mahalliy talabalar salmog‘i 3,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 1931–1932- yillarda 51,4 foizga yetkazildi [4]. Bu siyosat noto‘g‘riligining yana bir isboti oliy ta’lim va texnikaviy maktablarga qabul qilingan mahalliy o‘quvchi va talabalarning ko‘pchiligi rus imlosini bilmas edi.

Fikr yuritilayotgan paytdagi davriy nashrlarga nazar tashlasak, O‘zbekiston SSRda rus alifbosi va tilini majburiy joriy etish bo‘yicha quyidagicha ma’lumotlar mavjud: “Rus tilini bilish SSSR xalqlarini yanada xo‘jalik va madaniy o‘sishlariga, SSSR mudofaa quvvatining o‘suviga va ilm hamda texnika bilimlari sohasidagi millik kadrlarning mukammallashuviga yordam berib, SSSR xalqlari orasidagi aloqa va bog‘lanishning quvvatli vositasi ekanini e’tiborga olib, O‘zbekiston SSR Sovetlar Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Soveti qaror qiladilar:

1. 1938–1939- o‘quv yilining 1- sentyabrdan boshlab O‘zbekiston SSRdagi hamma o‘zbek maktablarida va ruscha bo‘lmagan boshqa maktablarda rus tili majburiy o‘qitaturgan bo‘lsin. Ruscha bo‘lmagan boshlang‘ich maktablarning hammasida rus tili ikkinchi o‘qish yilidan o‘qitaturgan bo‘lsin va to‘liqsiz o‘rta va o‘rta maktablarning hammasida uchinchi o‘qish yilidan rus tili o‘qitaturgan bo‘lsin.

2. O‘zbekiston SSR Maorif Xalq Komissarligiga shunga muvofiq o‘zbek maktablari va ruscha bo‘lmagan boshqa boshlang‘ich, to‘liqsiz o‘rta va o‘rta maktablarning o‘quv planlarini qaytatdan ko‘rib chiqish taklif qilinsin.

O‘zbekiston SSR Maorif Xalq Komissarligi pedagogika yuqori o‘quv yurtlarining o‘qish planlarini ham qaytatdan ko‘rib chiqish ta’minlansin.

O‘zbekiston SSR Sovetlar Markaziy Ijroiya Komitetining raisi: Oxunboboyev.

O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining raisi: Segizboyev.

O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komitetining sekretari vazifasini bajaruvchi: Islomov” [5].

Mazkur qarorning amaliy natijasi sifatida quyidagi ma’lumotlarni to‘liq keltirishni lozim bildik. “O‘zbek maktablarida va ruscha bo‘lmagan maktablarda rus tilini majburiy o‘rganish haqidagi” qonunni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari soveti va O‘zbekiston KP Markaziy Komiteti qaror qiladilar:

1) O‘qish haftasida rus tilini o‘qish uchun quyidagi soatlar berilsin:

Boshlang‘ich maktablarda	
II sinfda	2 soat
III sinfda	4 soat
IV sinfda	4 soat
To‘liqsiz o‘rta va o‘rta maktablarda	
III sinfda	4 soat
IV sinfda	4 soat
V sinfda	5 soat
VI sinfda	5 soat
VII sinfda	5 soat
VIII sinfda	4 soat
IX sinfda	4 soat
X sinfda	4 soat

2) 4 oylik kurslar uchun 2000 ta rus tili o‘qituvchilari tayyorlansin va ularga oyiga 150 so‘mdan berilsin.

3) Shu kurslarni tashkil qilish quyidagi keltirilgan tarzda shaxslarga yuklatilsin.

Toshkent oblastida – o‘rtoq Katanov,
Samarqand oblasti – o‘rtoq Xudoyqulov,
Samarqand shahri – Kluchko,
Andijon shahri – Sharipov,
Qo‘qon shahri – Usmonov,
Farg‘ona shahri – Romanenko,
Buxoro oblasti – Yaxshiboyev,
Xorazm oblastida – Abdurazzoqovlarga.

4) Maorif Xalq Komissarligi barcha maktablarda 15 kunlik tayyorlov kurslarini tashkil qilishi yuklatildi

5) O‘zbekcha va o‘zbek bo‘lmagan maktablarda o‘qituvchilar tayyorlaydigan kurslarni tashkil qilishda xalq maorifi organlariga quyidagi o‘rtoqlar yuborilsin:

- Toshkent oblastiga: Nazarov (rahbar),Tereshxanov, Po‘latov.
- Farg‘ona oblastiga: a) Farg‘ona va Qo‘qon shaharlariga – Saxov (rahbar), Salixov va Artjuxov

b) Andijon shahriga: Rechenskaya (rahbar), Karimov va Elkin

- Buxoro oblastiga: Bogdanovich (rahbar), Shakirjanov va Suvorov
- Samarqand oblastiga: Xudoyqulov (rahbar) va Tashov.

6) 1938-yil 15- iyundan 1- avgustgacha bir yarim oylik kurs ochish haqida O‘zbekiston SSR Maorif Xalq Komissarligining 1938- yil 27- martda chiqargan 1058- buyrug‘i tasdiqlansin.

7) Bir yarim oylik ochilgan kurslarning ish plani tasdiqlansin.

8) Pedagogika yuqori o‘quv yurtlarining o‘qish plani qaytatdan ko‘rilib chiqib rus tilini o‘rganish soatlari ko‘paytirilgani va bu plan SSSR Xalq Komissarlari Soveti qoshidagi yuqori o‘quv yurtlari Komitetining tasdig‘iga taqdim qilingani haqida O‘zbekiston SSR Maorif Xalq Komissari o‘rtoq Abdullayevning arzi axborga aylansin.

9) O‘zbekiston SSR Maorif Xalq Komissarligiga barcha maktablarda rus tili programmasini qayta ko‘rib chiqish topshirilsin.

10) Hamma rayon ijroiya komitetlariga va shahar sovetlariga boshqa ishlarga o‘tib ketgan o‘qituvchilarning ro‘yxatini 15 kun ichida Maorif Xalq Komissarligiga taqdim qilish taklif etilsin!

11) O‘zbek maktablarida va ruscha bo‘lmagan maktablar uchun ruscha darsliklar nashr qilishning tematik plani tasdiqlansin!

12) O‘zbekiston SSR Maorif Xalq Komisarligi o‘zbek maktablari uchun Ruscha tilda quyidagi darsliklarni tuzishga konkurs e’lon qilsin!

1. Boshlang‘ich maktablarning 2- sinfi uchun alifbe;
2. Boshlang‘ich maktablarning 3-4- sinflar uchun darslik;
3. To‘liqsiz o‘rta va o‘rta maktablarni 3-4- sinflar uchun darslik;
4. O‘rta maktabning V – VI sinflari uchun darslik;
5. O‘rta maktabning VII sinfi uchun darslik;
6. O‘rta maktabning VIII – IX sinflari uchun darslik;
7. O‘rta maktabning X sinfi uchun darslik [6].

Yuqoridagi qarorga muvofiq joylardagi maorif markazlariga topshiriq berilgan va topshiriq yuzasidan qattiq nazorat o‘rnatilgan. Tekshirishlar davomida qarorga bo‘ysunmagan o‘qituvchilar qattiq jazolangan, mafkuraga, kommunizm g‘oyalariga qarshi deb soxta ayblovlar qo‘yilgan. Ayniqsa, mazkur davr nashriyotlarida maktab o‘qituvchilarni yomonlab maqolalar chop etishgan. Maqolalarda o‘qituvchining to‘g‘ridan to‘g‘ri ism-familiyasi ham ko‘rsatilib o‘tilgan. Bu bilan 1938–1940- yillarda sovet mafkurasi ta’siri ostida maktab o‘qituvchilariga ham, o‘quvchilariga ham majburan rus alifbosi joriy etilganiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, quyidagi gazeta ma’lumotlariga nazar tashlaymiz: “To‘ychi Xoliqov Kalinin nomli kolxoz yonidagi to‘liqsiz o‘rta maktabning 4-5- sinflarida rus tili o‘qituvchisi.

Lekin uning o‘zi hali rus tili harflarini ham yaxshi bilmaydi. Shuning uchun har vaqt darsga Ruscha – o‘zbekcha lug‘at ko‘tarib kiraveradi. Dars quruq va zerikarli bo‘lganidan o‘quvchilar zerikib qolganlar.

Voroshilov nomli kolxoz boshlang‘ich maktabining 4-sinfdagi 24 ta o‘quvchidan birontasi rus tilida 2–3 bo‘g‘imli so‘zlarni yozolmaydi. Hatto harflarni ham bilmaydiganlar hali ko‘p. Bu sinf o‘qituvchisi G‘aybulla Xo‘jaqulov bo‘lsa: “mening o‘quvchilarim rus tilidan bilishi shart emas” degan zararli gaplarni aytib yuradi.

Karmana rayonining boshqa maktablarida ham rus tili o‘qitilishi yaxshi deb bo‘lmaydi. Lekin rayon maorif bo‘limining rahbarlari bu muhim vazifa bilan durust shug‘ullanmaydilar [7].

1930-yilda Buxoro pedagogika instituti sifatida tashkil topgan, hozirgi Buxoro davlat universitetida prefosser-o‘qituvchilarning ortidan ham tanqid ovozlari eshitilib turgan. “Rus tilini o‘rganish yuzasidan O‘zbekistonning hamma joylarida zo‘r harakat boshlangan bo‘lsa ham, Buxoro institutida, ayniqsa, kechki pedagogika instituti va o‘qituvchilar institutning til va adabiyot bo‘limlarida xotirjamlik hukm suradi. Bu institutda rus tili o‘qitish sistemasi ancha buzilib qolgan” [8].

Sovet hukumati tomonidan majburiy rus imlosi joriy qilish boshlangan bo‘lsa-da, maorif muassasalarida bunga qarshi bo‘lgan o‘qituvchilar mavjud bo‘lgan.

Sovet hukumati nega dastlab lotin imlosini joriy etishni sovet Respublikalariga ruxsat etdi va keyin XX asrning 30-yillarining o‘rtalaridan boshlab yoppasiga kirillashtirish siyosati boshlandi? 1926-yilgi Bokudagi tarixda birinchi marta bo‘lgan Butun dunyo Turkologlar qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Shundan so‘ng Sovet Respublikalarida lotin alifbosiga 1929-yilda to‘liq o‘tildi. Barcha maorif sohasi lotinlashtirildi. O‘zbekiston SSRda milliy ziyolilar va mahalliy rahbarlar bu qurultoydan katta umid kutganlar. Azaldan turmush tarzi, madaniyati bir-biriga yaqin bo‘lgan turkiy xalqlar yana madaniy jihatdan yaqinlashish orzusida edi. Bu esa tabiiyki, kommunizm mafkurasini targ‘ib qilmoqchi bo‘lgan sovet hukumatining siyosatiga zid edi. Shu sababdan bolsheviklar 1938- yilga kelib kirill alifbosini davlat alifbosiga o‘zgartirishni boshladilar. Sovet hukumatining o‘zgargan siyosati natijasida 1937–1938- yillarda qatag‘onlar soni ko‘paydi. Bir vaqtlar sovet hukumatiga xizmat qilgan hukumat rahbarlari tanqid ostiga olindi, qoralandi, burjua millatchi deb soxta ayb qo‘yilib otuvga hukm qilindi.

O‘zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti sekretari Usmon Yusupov gazetaga berilgan nutqida bo‘layotgan “ijobiy” o‘zgarishlar bilan bir qatorda alifbega ham to‘xtalib o‘tib, quyidagilarni bayon etdi: “Madaniyat sohasida bo‘lgan katta kamchiliklar yaqqol ko‘rinadi. Aholining anchagina qismi hali yangi alifbe savodsizligini tugatmadi.

Boshlang‘ich, o‘rta va yuqori maktablarda ham o‘qutushning sifati juda past. Xalq maorifi uchun davlat tomonidan berilayotgan juda katta mablag‘lardan ko‘pincha beraturgan qilib foydalanilmayotir, ko‘p hollarda talon-taroj qiladilar. Maktabdagi eng katta kamchiliklardan biri – o‘zbek va boshqa millat maktablarida rus tilini o‘qutishning butunlay qoniqarsizligidir. Bu muhim madaniy-siyosiy vazifaga xalq maorifi organlarining xodimlari, partiya, sovet va komsomol tashkilotlarining ko‘pchiligi ham yetarlik ahamiyat bermaydilar. Mavjud ma’lumotlarga qaraganda O‘zbekistondagi 3481 ta o‘zbek va boshqa millat maktablaridan 2159 tasida o‘qituvchilar yo‘qligi sababli rus tili butunlay o‘qitilmaydi. Rus tili o‘qitilayotgan maktablarda esa o‘qitishning sifati juda past. Ko‘pincha o‘qitish tizimi juda past. Pedagogika o‘quv yurtlarida, institutlarda va universitetlarda o‘qitish yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan. O‘zbekiston maktablarida rus tilini o‘qitishga mensimaslik bilan qarashga darhol va qat’iy barham berish zarur. Burjua millatchi shaykalarning qoldiqlari tomonidan bo‘laturgan qarshilikni tubdan sindirish va rus tilini o‘qitishni xalq maorifi organlarining, partiya, sovet va komsomol tashkilotlarining jangovar vazifasi qilib qo‘yish kerak.

O‘zbekiston sovet va partiya tashkilotlarining rahbarlik o‘rinlariga suqulib kirib olgan burjua millatchilar, troitskiychilar, buxarinchilar va boshqa kontrrevolyutsion ifloslar shaykasi lenincha-stalincha milliy siyosatni amalga oshirishni buzishga va SSSR xalqlarining birodarligiga putur yetkazishga har taraflama urinib keldilar” deya ma’lumot bergan [9]. Usmon Yusupov 1937–1950- yillarda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasi 1 –

kotibi bo‘lgan yillarda yuqoridagi ma’lumotlar gazetaga nashr etilgan. Mazkur davr nuqtayi nazaridan qaraganda O‘zbekistondagi mahalliy rahbarlar ichida Usmon Yusupov sovet mafkurasiga xizmat qilgan, aks holda qatag‘onga uchrashi tabiiy hol bo‘lgan. Shu sababdan rus imlosini joriy etilishiga markazdan kelgan topshiriqlarni bajargan.

1937–1938- yillarda Fayzulla Xo‘jayev va Akmal Ikromov bilan birgalikda ko‘plab ziyolilar qatag‘on qilinganidan so‘ng ularning ortidan ko‘plab yomon gaplar aytilib badnom qilishda davom etishdi. Bu hattoki, imlo masalasida ham o‘z aksini ko‘rsatdi.

O‘zbekiston SSR Xalq Maorifi komissari Q. Abdullayevning rus tilini o‘rganish haqidagi maqolasi gazetaga chop etildi. Bu maqolada quyidagi ma’lumotlar qayd etilgan: “O‘zbek va boshqa maktablarda rus tilini o‘qitilishi revolyutsiyamizning katta g‘alabasidir. Rus tilining o‘qitilishi Stalincha Konstitutsiya asosida bir tekis huquqqa ega bo‘lgan va ko‘p millatli, ulug‘ va qudratli SSSR xalqlarining sira buzilmas milliy birodarligini, tag‘in ham mustahkamlaydi. Rus tilining o‘qitiluvi joylarda bolalarga Lenin – Stalin partiyasining tarixini tubdan o‘rganish uchun katta yo‘l ochadi, butun dunyoga dong‘i ketgan rus klassik asarlarining nashidalarini tatish uchun o‘z bilim xazinalarini rus adabiyotining qimmatbaho dur-u gavharlari bilan boyitish uchun keng imkoniyat beradi. Lenin – Stalin partiyasining rahbarligi ostida, ulug‘ rus ishchilar sinfining kundalik amaliy yordami bilan gullayotgan, yashnayotgan O‘zbekistonimizni SSRdan ajratmoqchi va unga yana kapitalizm kishanlarini taqmoqchi bo‘lgan natsional fashist Ikromov, Xo‘jayev va ularning gazanda shaykasi, O‘zbekistondagi maktablarda rus tilini o‘qitishni to‘g‘ridan to‘g‘ri barbod qildilar. Burjua millatchilarning Maorif Xalq Komissarligidagi agentlari bo‘lgan Sorokin, Kozuxov va boshqalar har turli pismiq yo‘llar bilan fashist gazandalarning bu planlari amalga oshirish uchun qo‘llaridan kelgan buzg‘unchiliklarni qildilar. O‘zbekistondagi ba’zi maktablarda formal ravishda deyarlik revolutsiyaning birinchi yillaridanoq boshlab rus tili o‘qutilib kelmoqda. Lekin burjua millatchilarning zararkunandaligi orqasida bizda hatto o‘rta maktabni bitirgan o‘quvchilar ham yuqori maktablarda rus tilida deyarlik butunlay savodsiz bo‘lib borar edilar. Maorif Xalq Komissarligi sistemasida rus tili o‘qituvchilari tayyorlash uchun va mavjud o‘qituvchilarning kvalifikatsiyalarini oshirish uchun hech qanday ishlar amaliy ish qilinmadi. Hatto xalq dushmanlari fashist millatchilar tekshirish chog‘ida o‘zbek bolalarining rus tilidan zachot (imtihon) berishi shart emas deb ustanofka berganlar. Yana uning ustiga o‘zbek maktablarida rus tili programmasi, darsligi shunday bo‘tqalashtirilganki, buning natijasida bolalarga rus tilini o‘rganish uchun katta qiyinchilik vujudga kelgan. 4-sinfdan 10-sinfgacha 6-sinf uchun ikkitagina darslik nashr qilingan xolos” [10].

Bu ma’lumotlarda Fayzulla Xo‘jayev, Akmal Ikromov va ularning safdoshlari lotin imlosini joriy etilishi va amalda bo‘lishiga harakat qilishgan, shu sababdan kirill imlosini joriy etishda hech qanday ishlar amalga oshirilmagan bo‘lishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, 1938- yilga kelib maorif sohasida imlo masalasi jiddiy muammoli sohaga aylandi. Kirill alifbosi va rus tilini mahalliy o‘lkalarga majburan singdirish sovet hukumatining madaniy siyosati natijasi bo‘ldi. Bunda mahalliy maorif sohasi xodimlari o‘rtasida ikki tomonga bo‘linish yuz berdi, ba’zi rahbarlar va ziyolilar sovet hukumati ta’siri natijasida rus imlosi va tilini mahalliy aholiga singdirish yo‘lida ko‘plab ma’ruzalar va gazeta, jurnallarga tanqidiy maqolalar berishdan to‘xtamadilar. Hatto sal oldinroq qatag‘onga uchragan, maorif sohasida fidokorlik ko‘rsatgan rahbarlar va ziyolilarni lotinlashtirish ortidan panturkist deb ayb qo‘yishdan ham toymadilar. Vaholanki, lotinlashtirish siyosatiga sovet hukumatining o‘zi ham dastlab qarshilik bildirmagan edi. Bundan ko‘rinadiki, sovet hukumati o‘z mafkuraviy maqsadi yo‘lida mahalliy aholi vakillarini qurbon qilishdan to‘xtamagan, o‘zi yo‘l qo‘ygan siyosatni amalga oshirmoqchi bo‘lgan mahalliy ziyolilar va rahbarlarni soxta ayblovlar bilan qatag‘on qilib yuborgan. Stalin vafotidan so‘ng “shaxsga sig‘inish” qoralandi va taniqli davlat arbobi Nuriddin Akramovich Muhitdinov rahbarligida qatag‘onga uchragan ko‘plab o‘zbek milliy rahbarlari va ziyolilarini oqlash bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X. S Ahmadov. Errors and shortcomings of the soviet government in implementing the cyrillic alphabet in Uzbekistan. VIII International Scientific and Theoretical Conference. Sectoral research XXI: characteristics and features. USA, Chicago, 02.08.2024.
2. Elena Shelestyuk. National in Form, Socialist in Content: USSR National and Language Policies in the Early Period. Web of Conferences 69, 00104 (2019), Cildiah-2019.
3. Lenore A. Grenoble. Language Policy in the Soviet Union. Dartmouth College, Hanover, New Hampshire, U.S.A. Print ©2003 Kluwer Academic Publishers. Dordrecht, page 147.
4. Pravda Vostoka, 28 Fevral, 1933 – yil, 3 – son.
5. O‘zbek maktablarida va ruscha bo‘lmagan boshqa maktablarda rus tilini majburiy o‘rganish haqida // O‘qituvchilar gazetasi. 1938-yil. 31-son. 3-aprel. O‘zbekiston SSR Sovetlar Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari qarori.
6. O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari soveti raisi S. Segizboyev, O‘zbekiston Kommunistik bolsheviklar partiyasi Markaziy Komitetining sekretari U. Yusupov // O‘qituvchilar gazetasi. 1938-yil. 32-son. 5-aprel. O‘zbek maktablarida va rus bo‘lmagan boshqa maktablarda rus tilini majburiy o‘rganishning amaliy tadbirlari haqida. O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari soveti va O‘zbekiston K(b)P Markaziy komitetining qarori.
7. Varaq qishloq soveti. Karmanada rus tilini o‘qitish sust. O‘qituvchi. // O‘qituvchilar gazetasi. 1938-yil. 17-aprel. 35-son.
8. Mirzayev M. Buxoro institutida xotirjamlik // O‘qituvchilar gazetasi. 1938-yil, 28-aprel. 40-son.
9. Usmon Yusupov. Savodsizlikni bitirishga jinoyatkorona e’tiborsizlik // O‘qituvchi gazetasi.1938-yil, 26-sentyabr, 89-son.
10. O‘zbekiston SSR Maorif xalq komissari Q. Abdullayev. Rus tilini o‘qitishni tubdan yaxshilaylik // O‘qituvchi gazetasi.1938-yil, 2-aprel , 31-son.

IX ASR – ABBOSIYLAR DAVLATIDA ILM-FAN VA SAN’AT

Raximov Xolmurod Majitovich,
Buxoro davlat universiteti, tayanch doktoranti
raximovxolmurod697@gmail.com
ORCID 0009-0005-3950-4753
UDK 94:(35):001.3:7(35)

Annotatsiya. Ushbu maqolada IX asrda Abbosiylar davlatida olib borilgan islohotlar, hukmdorlarning ilm-fanga e’tiborlari haqida ma’lumot berilgan. Abbosiylarning eng mashhurlari: Horun ar-Rashid va Ma’mun hukmronligi yillari amalga oshirilgan ishlar ochib berishga harakat qilingan. Bu davrda tibbiyot, matematika, muhandislik, astronomiya, musiqashunoslik, she’riyat kabi fanlarni nechog‘lik taraqqiy etgani haqida so‘z yuritilgan. Bu fanlarning rivojiga hissa qo‘shgan eng katta allomalar ham shu davrda faoliyat yuritgani asoslandi. Abbosiylar poytaxti Bag‘dodda asos solingan “Bayt al-hikmat” ilmiy akademiyasi va unda faoliyat yuritgan olimlar haqida to‘xtab o‘tilgan. IX asrda mavjud madaniyat va Abbosiylar davlatining Fransiya bilan madaniy aloqalari ham yoritilgan. Bu davrda dunyoviy ilmlar qatori islomiy ilmlar ham yuksak darajada rivojlangani tarixiy manbalar asosida ochib berilgan. Tafsir, hadis, fiqh, arab tili grammatikasi kabi fanlar rivojlanib, eng birinchi asarlar va eng katta olimlar faoliyati ham shu davrda yuzaga kelgani manbalar asosida yoritilgan. Bu davrda hukm surgan ilmiy muhitning jamiyat hayotiga ta’siri, insonlarning ilmga bo‘lgan chanqoqligi, mavjud bo‘lgan sivilizatsion taraqqiyot, mamlakatning butun dunyoga madaniy-ilmiy ta’siri haqidagi ma’lumotlar ishonchli manbalar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Abbosiylar, Bag‘dod, ilm-fan, Bayt al-hikma, adabiyot, san’at, falsafa, falakiyot, tibbiyot, riyoziyot, kimyo, taraqqiyot.

IX CENTURY - SCIENCE AND ART IN THE ABBASID STATE

Abstract. This article provides information about the reforms carried out in the Abbasid state in the 9th century, and the rulers' attention to science. The most famous of the Abbasids; An attempt was made to reveal the works carried out during the reigns of Harun al-Rashid and Ma’mun. During this period, it was discussed how much the sciences such as medicine, mathematics, engineering, astronomy, musicology, and poetry were developed. It was proved that the greatest scholars who contributed to the development of these sciences also worked during this period. The scientific academy "Bait al-Hikmat" founded in Baghdad, the capital of the Abbasids, and the scientists who worked in it were discussed. The existing culture in the 9th century and the cultural relations of the Abbasid state with France are also covered. It is revealed on the basis of historical sources that in this period, along with secular sciences, Islamic sciences were also highly developed. It is explained based on the sources that disciplines such as Tafsir, Hadith, Fiqh, and Arabic language grammar were developed, and the first works and the work of the greatest scholars were also

created during this period. Information about the influence of the prevailing scientific environment on the life of the society, people's thirst for knowledge, existing civilizational progress, cultural and scientific influence of the country on the whole world is covered on the basis of reliable sources.

Key words. Abbasids, Baghdad, science, Bayt al-hikma, literature, art, philosophy, catastrophe, medicine, mathematics, chemistry, development.

Kirish. Jahon sahnasida besh asr davr surgan Abbosiylar juda ko‘p olamshumul ishlarni amalga oshirdi. Ayniqsa, VIII–IX asrlardagi hukmdorlar katta ishlarni amalga oshirgan. IX asrda eng kuchli hukmdor Horun ar-Rashid ilm-u fanga katta e’tibor qaratgan. Horun ar-Rashid Abbosiylar xalifaligida ilm davrini boshlab berdi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. U boshlagan ilmiy jonlanish qariyb besh asr davom etdi. Ilm-fan gullab-yashnadi, xalq to‘kin hayot kechirdi. “Baytul hikma” (hikmat uyi) tashkil etilib, unga Hindiston, Yunoniston, Fors yerlaridan kitoblar keltirildi, tarjima ishlari boshlandi. “Baytul hikma” bir necha xona va zallarni o‘z ichiga olgan edi. Ba’zi xonalar kutubxona, ayrimlari ma’ruza zali, boshqalari kitob chop qilishga mo‘ljallangan xonalar edi. Horun ar-Rashid “Baytul hikma”ga nasroniy tabib Masavayhni boshliq qilib qo‘ydi. Anqaradan keltirilgan kitoblarni arab tiliga tarjima qilishga buyurdi. Bu asarlar tibbiyot, falakiyot, falsafaga oid kitoblar edi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu maqolani tayyorlashda tarixiy metodlar – tarixiylik, ilmiylik, qiyosiy tahlil, xolislik, ketma-ketlik uslublaridan va ishonchli manbalardan foydalanildi. IX asrda hukm surgan Abbosiylar va o‘sha davrda vujudga kelgan ilmiy-madaniy yuksalishlar, barcha sohalarda yetishib chiqqan olimlar haqidagi ma’lumotlar va ijtimoiy holatlarni ochib berishga harakat qilindi. Aynan shu davr renessans poydevorini yaratgani uchun bu davrni o‘rganish muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. IX asrda Abbosiylar davlati butun dunyoga katta o‘zgarishlar olib keldi. Mamlakat bo‘ylab ilmga intilish keng tus oldi. Barcha hududlarda renessans yuzaga keldi. Tarix zarvaraqlariga oltin davrni taqdim etgan mazkur asrda quyidagi Abbosiylar hukmronlik qildi:

№	Abbosiy hukmdorlar	Milodiy yil hisobi bilan	Hijriy yil hisobi bilan
1	Horun ar-Rashid	786-809	170-193
2	Amin	809-813	193-198
3	Ma’mun	813-833	198-218
4	Mu’tasim	833-842	218-227
5	Vosiq	842-847	227-232
6	Mutavakkil	847-861	232-247
7	Muntasir	861-862	247-248
8	Musta’in	862-866	248-252
9	Mu’tazz	866-869	252-255
10	Mu’tadiy	869-870	255-256
11	Mu’tamid	870-892	256-279
12	Mu’tazid	892-902	279-289

Horun ar-Rashid davridan boshlab Bag‘dodga talabalar oqib kelar edi, masjidlarda ilm halqalari ko‘p bo‘lar, bir masjid bir institut ishini bajarar edi. Uilyam Dyurant yozadi: “Tarixda qaysi podshoh Horun ar-Rashid kabi atrofiga aqlli olimlarni to‘plaganini bilmayman”. Abu Yusufdek alloma davlatning bosh qozisi edi. Abdulloh ibn Muborak, Fuzayl ibn Iyoz, Imom Molik va Shofe’iy kabi olimlar shu davrda yashagan.

Horun ar-Rashidning ilmga bo‘lgan muhabbati, g‘ayridinlarga bo‘lgan bag‘rikengligi tufayli hayotiy ilmlar ham yaxshi o‘rganildi. U Fransiya qiroli Katta Karlga 807-yilda g‘aroyib soat sovg‘a qiladi. Soat xona devoricha bo‘lib, suv quvvati bilan yuradi. Soatning o‘n ikki eshigi bo‘lib, har bir soat vaqt o‘tganda bir eshigi ochilar edi. Har soatda undan musiqa ohangi taralar edi. Soatdan o‘n ikki otliq haykalcha chiqib, aylanadi, so‘ngra yana joyiga qaytib kirar edi.

Horun ar-Rashid sovg‘a qilgan soat o‘sha zamon innovatsiyasi bo‘lgan va buni yevropaliklar hazm qila olishmagan. Bu innovatsiyalarni tushunish uchun Yevropaga bir necha asrlar kerak bo‘lgan. Bu davrda Sharq G‘arbdan barcha sohada katta ustunlikka ega bo‘lgan.

Horun ar-Rashid davrida olimlar hurmat qilinar edi. Shulardan biri uning xos tabibi

nasroniy bo‘lgan Jabroil ibn Baxtashu’ edi. Xalifa haj qilib yurganda unga: “Haqqingizga ko‘p duolar qildim”, – dedi, so‘ngra o‘g‘illariga qarab: “Sizlarga gapim yoqmadi shekilli, axir bilasizlar, u mening sog‘ligimga qaraydi, men esa musulmonlar uchun ishlayman, musulmonlar men sababli kuchlidir”, dedi. O‘g‘illari: “Rost aytasiz”, – deb javob qilishdi[1].

Abbosiylar davri arablar erishgan yutuqlarning avj nuqtalaridan biri bo‘ldi. Arablar hamma jabhalarda jahon madaniyatining oldingi marrasida bordilar. Ularning hayotga qarashlari, ularning tasodiflarga xayrixohliklari, imkoniyat izlashlari, bilimning barcha sohalarini nozik tushunishlari, turmushga, qulayliklar yaratishga, xatti-harakat tarziga, xalqaro savdoga, boshqalar bilan munosabatlarga nisbatan did-havaslari – bularning barchasi butunlay yangi hayotni anglatar edi. Shu hayotning yuzlab yillari jahon tarixining go‘zal sahifalarini tashkil qiladi. Yunonlardan va boshqa xalqlardan nimalarnidir olganliklari ularning qadriga aslo putur etkazmaydi, chunki bunday oqilona merosxo‘rlik butun insoniyatga xizmat qiladi. Arablar maqbul narsalarning hammasidan zarrama-zarra to‘plab, o‘zlari meros yaratdilar va so‘ngra adabiyotda, falsafada, fan tarixida, jug‘rofiyada, san’at va hunarmandchilik bobida alpona qadamlar bilan buyuk sakrash yasadilar.

Abbosiylar Bag‘dodda dunyo markazini barpo etdilar, ularning g‘oyalari misoli ulkan bir chiroq yog‘dusi singari o‘sha yerdan butun atrofga taralib turardi. Bag‘doddan tarqagan shu’la yer kurrasining g‘arbiy yarim qismidagi barcha burchaklarga kirib borar edi. Arablarning himoya bobidagi yutuqlariga Mahdiy va Ar-Rashid hukmronligi davrida urug‘ sochilgan bo‘lib, undan unib chiqqan hamma narsa Horunning o‘g‘li Ma’mun davrida barq urib gullab-yashnadi.

Abbosiylar zamonida arab dunyosi ko‘rkiga ko‘rk qo‘shgan atigi bir necha shaxsni tilga ola olamiz. Bu kishilarning hammasi o‘z sohasida ko‘p asrlar davomida dunyo aql-idrokini boshqarib turdilar. Falsafa bobida Al-Kindiy va Al-Forobiy eng buyuk allomalar edi. Al-Kindiy IX asrning birinchi yarmida yirik ilm arbobi sifatida maydonga chiqdi, Al-Forobiy esa hozirgacha mashhurdir. Ular donishmandlik va bilimdonlik ramzi bo‘lib qoldilar. O‘rta asrdagi tabobat ilmida Ar-Roziy nomi kuchli jarangladi. Uning yozgan kitoblari sharqda ham, g‘arbda ham hozirgacha o‘qilib kelinmoqda, to XVII asrga qadar ular darslik xizmatini o‘tab keldilar. Falakiyot jadvalini tuzib chiqqan, fanga aljabr va arab raqamlarini ato qilgan Al-Xorazmiy o‘sha davrda va yana yetti asr mobaynida eng buyuk riyoziyotchi bo‘lib keldi. Shu zamonlarda musulmonlar ilmi nujum (astronomiya) sohasida oldingi marralarni egallab turgan edilar. Barcha rasadxonalar musulmoncha uslubda qurilardi, Al-Battoniy va Faraziy singari munajjimlar esa fanning bu sohadagi eng yuksak cho‘qqilari hisoblanardilar. Ulug‘ kimyogar va tahlilchi Jobir ibn Hayyon Abbosiylar davrining ilk davriga mansub alloma bo‘lib, uning amaliy usullari ko‘p asrlar davomida hamma joyda qo‘llanib kelindi. Jug‘rofiya ilmida Al-Ya’qubiy boshqa har qanday olimdan ustun edi. O‘sha davr musulmonlari tarixchilar sifatida hozir ham qadrlanadilar. Ko‘plab kashfiyotlar qilgan Ibn Hishom, At-Tabariy va Al-Mas’udiy xotirasi oldida dunyo qarzdordir. At-Tabariy va Al-Mas’udiy fan tarixida o‘z yo‘nalishlarini ishlab chiqdilar.

Huquq bobida musulmon qonunshunosligi o‘rganilib va amaliy qo‘llanib kelindi. Bilimlarning ushbu jabhasida to‘rtta buyuk nom mashhurdirki, ularning fikrlari, Islom qoidalariga sharhlari butun musulmon qonunshunosligiga asos bo‘lib xizmat qildi. Bular mujtahid olimlar: Imom Abu Hanifa, Imom Molik ibn Anas, Imom ash-Shofe’iy va Imom Ahmad ibn Hanbaldir. Diniy tafakkur peshtalqinlari hisoblanib, juda keng doirada davomchilari bo‘lganligi uchun ham ularni imom deb atashar edi.

Hadis ilmi rivojiga o‘z umrlarini bag‘ishlagan ikki ruhoniy – Imom Muhammad ibn Ismoil Buxoriy va Imom Muslim ibn al-Hajjoj musulmonlar uchun Muhammad payg‘ambar ta’limotlarini targ‘ib qilgan muqaddas kishilar bo‘lib qoldilar. Ular yuz minglab hadislarni to‘plab, so‘ngra puxta aniqlab chiqib, umumlashtirib, to‘plamlar tuzdilar. Sahih al-Buxoriy va Sahih al-Muslim nomi bilan ataladigan bu to‘plamga rivoyatlarning atigi bir nechta mingtasi kiritilgan, xolos. Ularning ikkalasi sahih, ya’ni bir-biriga to‘g‘ri hisoblanib, Qur’on qoidalarini sharhlab berishda asos sifatida qabul qilinadi[2].

Islomni avvalida olimlar ilmlarini evazsiz o‘rgatar edilar. Madrasalar qurilganidan keyin mudarrislarga oylik maosh belgilandi. Xalifa Muqtadir Ibn Durayd Bag‘dodga

kelganidan keyin, unga ellik dinor oylik maosh belgilagan ədi.

Abbosiylar davrida sud-huquq tizimi ham yo‘lga qo‘yilgan. Davlatda Eron sosoniylari boshqaruvi, soliq sistemasi qabul qilinadi. Shuningdek, iqto‘ va vaqf (Iqto‘ va vaqf homiylik uchun ajratilgan mulk turlaridan bo‘lib, bu mulklar masjidu madrasalarga, yoki boshqa xayriya ishlariga doimiy tayin qilib qo‘yilgan) sistemasi ham keng tarqaladi. Vazir mansabi va davlat boshqaruvida devonlar tashkil qilinadi. Viloyatlarni xalifaning voliylari boshqarib, barcha harbiy, fuqaro ishlari ular nazoratida bo‘lgan. Qozilar sud ishiga mas’ul bo‘lib, sud ishlari shariat talablari asosida olib borilgan. Zimmiylar (islomdan boshqa din vakillari) o‘zlarining ruhoniy sudlari xristianlar-yepiskop, yahudiylar-ravvin, zardushtiylar- mobed ishtirokida sud qilinganlar.

Arab falsafasi – arab va arab xalifaligi doirasidagi xalqlarning ijtimoiy-siyosiy fikri. Bu ibora “musulmon falsafasi” deb ham yuritiladi. Arab faylasuf olimlari va burjua sharqshunoslari arab falsafasiga baho berish va falsafa tarixiga yondashishda til va din belgilarini asos qilib, arab falsafasi tushunchasiga O‘rta va Yaqin Sharq xalqlari – Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjon kabi xalqlar falsafiy tarixini ham qo‘shib yuboradilar va xalqlarni o‘z falsafiy merosidan mahrum qiladilar. Arab falsafasi Islomni qabul qilgan butun xalqlar vakillari yaratgan falsafadir.

VII asr oxirida arab tili butun xalifalik uchun davlat tili deb e’lon qilindi. Arab yozma adabiyotining birinchi yirik obidasi Qur’ondir. Qur’on musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi, yirik diniy-falsafiy va huquqiy asar, arab-musulmon va jahon madaniyatining o‘ziga xos nodir va muhim yodgorligidir. Jahon xalqlari ma’naviy va ijtimoiy taraqqiyotiga ko‘rsatgan ta’sirining ko‘lami nuqtayi nazaridan Qur’on butun insoniyatning madaniy merosi bo‘lib hisoblanadi. Arab mumtoz adabiyotining gullagan davri VIII–XII asrlar, ya’ni Abbosiylar sulolasi davri hisoblanadi. Bu davr she’riyatida arablar bosib olgan mamlakatlardan chiqqan shoirlar adabiyot yo‘nalishini belgiladilar. Arablar bosib olgan Andalusiya (Ispaniya)da ham adabiyot taraqqiy etdi. Bu yerda ar-Ramoliy (vafoti 1022 y. atrofi), Ibn Zaydun (1003–1071), Ibn Hamdis (vafoti 1132) kabi shoirlar yetishib chiqdilar. Arab adabiyoti taraqqiyotida Eron, Ozarbayjon, Markaziy Osiyo xalqlari orasida yetishib chiqqan va o‘z asarlarini arab tilida yozgan shoirlar ijodi samarali ta’sir ko‘rsatdi. X va XI asr Markaziy Osiyo va Xurosondagi arab tilida yozilgan she’rlar va shoirlar haqida Abu Mansur Saolibiyning (961–1038) “Yatimat ad-dahr” va “Tatimmat al-yatima” tazkiralarida ma’lumotlar berilgan. VIII–IX asrlar arab nasriy adabiyoti katta yutuqlarga erishdi. Qadimgi rivoyatlar yozma ravishda to‘plandi. Arab nasriy adabiyoti uchun pahlaviy tilidan qilingan tarjimalar ham alohida ahamiyatga ega. Arab nasriy adabiyotida maqom janri yuzaga keldi. Bu xalq og‘zaki ijodiga yaqin bo‘lgan janr bo‘lib, asoschisi eronlik Abulfazl al-Hamadoniydir (969–1007), uning ko‘zga ko‘ringan vakili Haririydir (vafoti 1122 y.). XII asr boshlarida arab adabiyotida yangi nasriy janr – qahramonlik rivoyatlari paydo bo‘ldi. Buning eng yirik yodgorliklaridan ko‘p jildli “Siyrat Antara” (Antara sarguzashtlari) va “Ming bir kecha” ertaklarini ko‘rsatish mumkin. Bu asarlar arab adabiyotiga xos bo‘lsa ham, ularning mundarijasini turli xalqlar og‘zaki ijodi tashkil etadi. X asrdan boshlab arab xalifaligi hududida bir necha mustaqil davlatlar paydo bo‘ldi. Arab adabiyoti endi faqat Bag‘dodda emas, balki Hamadoniylar sulolasi qarorgohi Halab (Aleppo)da shoir va olimlar homiysi Sayfuddavla (915–961) saroyida ham rivojlandi[3].

Al-Ma’munning rahnamoligi ostida Damashqdagi Qasiyun tog‘ida va Bag‘doddagi ash-Shammosiya mintaqasida ikkita rasadxona bunyod etildi. Ularga yig‘ilgan astronomlar Batlimusning “Al-majistiy” asaridagi ma’lumotlarni tekshirishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar. Tajriba va tekshiruv natijalari esa “Al-Ma’munning sinalgan jadvallari” (“Az-ziyj al-Ma’muni al-mumtahan”) nomli mashhur astronomik asarda o‘z aksini topdi. Al-Ma’mun qator tajribalarda shaxsan o‘zi ishtirok etgan, ba’zilarini esa kuzatib borgan. Xalifaning bevosita ishtiroki va kuzatuvi ostida olib borilgan astronomik tajribalardan biri Bag‘dod va Damashq shaharlarida osmon ekvatorining ekliptika bilan kesishish burchagini, ya’ni eng katta og‘ish burchagini aniqlash bo‘lgan. Erishilgan natijalar - 23°35' va 23°34' amalga oshirilgan tadqiqotlarning aniqligidan dalolat beradi.

Al-Ma’mun davrida bajarilgan tajribalardan yana biri 217/833-yili Suriyaning

shimolidagi Sinjar dashtida yer meridiani bir darajasining uzunligini o‘lchash edi. Manbalarda mazkur tajribani, asosan, O‘rta Osiyo olimlari bajargani zikr etiladi. O‘lchov natijalarida bu miqdor 2/3 milya deb topildi. Bu эsa zamonaviy hisoblardan deyarli farq qilmaydi. Umuman, al-Ma’mun davrida yozilgan asarlarda falakiyot fanidagi asosiy tushunchalar, ya’ni yerning sharsimonligi, uning koinotning markazida joylashgani, quyosh, oy va yulduzlarning yer atrofida aylanishi, oyninig yerga eng yaqin samoviy jism ekani, ularning barchasi har kuni yer atrofida to‘liq bir marotaba aylanishi e’tirof etiladi.

Al-Ma’mun huzuridagi “Bayt al-hikma”da faoliyat ko‘rsatgan Muhammad al-Xorazmiy riyoziyot, falakiyot va jug‘rofiyada o‘chmas iz qoldirdi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, bu olim hozirgi zamon riyoziyot fanining bir qancha tarmoq va fundamental konsepsiyalarining asoschisi hisoblanadi. Al-Ma’mun davrida jug‘rofiya va kartografiya sohalarida dastlabki asarlar yozib tugatildi. Jumladan, yuqoridagi Muhammad al-Xorazmiyning “Yerning tasviri” (“Surat al-ard”) kitobi o‘rta asr arab xalifaligida yaratilgan ilk va muhim geografik asarlardan bo‘lgan. Bundan tashqari, adabiyotlarda ta’kidlanishicha, yetmishga yaqin geograflar al-Xorazmiy rahbarligida tadqiqotlar olib borganlar va al-Ma’mun nomi bilan ma’lum bo‘lgan dunyoning birinchi xaritasini yaratganlar[4].

XX asrning yirik mutaxassislaridan biri, ingliz olimi Genri Jorj Farmerning fikricha, Sharq musiqa ilmining to‘rt asosiy tayanchi mavjud. Ularning ikkitasi Abbosiylar hukmronligi davrida yashagan – Abu Nasr al-Forobiy va Abu Ali Ibn Sino va ikkitasi undan keyin o‘tgan Safiuddin Abdulmo‘min ibn Yusuf al-Urmaviy va Xoja Abdulqodir ibn G‘oibiy al-Hofiz al-Marog‘iydir[5].

Birinchi shifoxona qurdirgan shaxs umaviy xalifa Valid ibn Abdulmalik hisoblanadi. Umaviylar davri tabiblari bemorni yuziga, ikki ko‘ziga, tiliga, tirnoqlariga, tomir urishiga va bavlining rangiga qarab tashxis qo‘yishar edi. Umaviylar davrida tabiblar mohir bo‘lsalar ham, arab tabobati hijriy III asrda Abbosiylarning ilm gullab-yashnagan oltin davrida insoniyat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdilar[6].

Abbosiylar davrida barcha olimlar tibbiy ma’lumotlarga va ko‘p bilimga ega bo‘lishdi. Bu davrda tibbiyot madrasalarida ta’lim olayotganlar bosh tabiblar huzurida kasallarga tashxis qo‘yib, dorilarni tayin qilar edilar. Ta’limni tugatib, imtihon topshirar edilar, “Gippokrat qasami” bilan qasamyod qilar edilar va keyin diplomga ega bo‘lar edilar. Ular doimo davlat nazoratida bo‘lardilar. Abbosiylar davrida hujjatga ega bo‘lmagan tabiblar ko‘payib ketdi. 309/921- yilda ulardan biri bir kishini o‘limiga sabab bo‘ldi. Xalifa Muqtadir tabiblarni imtihondan o‘tmasdan turib, insonlarni davolashlarini taqiqladi. Bag‘dod shahrida imtihon olishga Sinon ibn Sobitni tayinladi. Uning bir o‘zi to‘qqiz yuzga yaqin tabibni imtihondan o‘tkazdi[7].

Abbosiylar davrida tibbiyotda malakaviy imtihonlar joriy etilgan bo‘lib, bugungi kundagi imtihonlar ham aynan o‘sha holatning davomidir.

Muhitni o‘rganish juda muhim bo‘lib, olimlar katta hurmatga sazovor edilar. Hijriy IX asrning boshlarida Bag‘dodda 860 nafar litsenziyaga ega shifokorlar va ko‘plab kasalxonalar va maktablar mavjud edi. Islom tibbiyoti tarixidagi muhim davr uchta buyuk doktorni, asosiy matnlar mualliflari va faylasuflarni qamrab oladi: ar-Roziy, al-Majustiy va Ibn Sino. Ar-Roziyning asarlari arab tibbiyotining yetukligini tasdiqladi va uning eng muhim hissasi bu – chechakni qizamiqdan ajratish edi. Uning 200 dan ortiq kitoblari nashr etilgan, ularning yarmi tibbiyotga bag‘ishlangan, shu qatorda yunon tibbiyoti bo‘yicha 10 jildli risola ham yozgan[8].

Abu Ali al-Husayn ibn Sino (Avitsenna) musulmon ulamolari va taniqli o‘rta asr faylasuflari orasida eng taniqli bo‘lgan. Uning faoliyati va tibbiy iste’dodi tufayli musulmon tabobati o‘zining avj pog‘onasiga ko‘tarildi. Ibn Sinoning tibbiyot tarixidagi shuhrati uning G‘arbda’‘Qonun’’ nomi bilan mashhur bo‘lgan “Al-qanun fi at-tibb” (Tibbiyot qonuni) asarining besh jildiga asoslanadi. Ispaniyaning dastlabki asrlarida shifokor bo‘lishga intilgan olimlar Bag‘dod, Qohira, Damashq va Eronga universitetlar va kasalxonalarda bilim va tajriba to‘plash uchun borganlar. Keyinchalik musulmon Ispaniya o‘zlarining tibbiyot va falsafa markazlari bilan o‘z universitetlarini tashkil etdi, bu milodning XII asrida musulmonlar tajribasini butun Yevropaga tarqatishda yordam berdi. Eng mashhur andalusiyalik musulmon

olimi Ibn Rushd yoki Averroes bo‘lgan. U G‘arbga o‘zining falsafasi bilan ta’sir ko‘rsatdi, shuningdek, hakim, shifokor va keng tibbiy ensiklopediya muallifi sifatida ham ajralib turdi. Edvard Braunning yozishicha, arab va arab bo‘lmagan musulmonlar ham yunonlardan kimyo va tibbiyot bo‘yicha meros qilib olgan ilmiy ta’limotga eng katta hissa qo‘shgan. Natijada, musulmonlar kimyo va botanika alohida fanlarga qaraganda giyohvand moddalarni tayyorlashda foydali deb hisoblashdi. Tibbiyot va farmatsevtika bo‘yicha bilimlar butun musulmon olamiga magistrlardan, o‘rganish uchun taniqli tibbiyot maktablarida o‘qiyotgan olimlar orqali tarqaldi[9].

Kimyo, biologiya, meditsina, farmatsevtika kabi sohalarining ham tamal toshlari o‘sha davrda qo‘yilgan va bugungi holatigacha rivojlanib kelgan.

Natija va muhokama. Abbosiylar davri jahon sivilizatsiyasiga oltin davrni taqdim qildi. Ayniqsa, IX asrga kelib Bag‘dod shahri dunyoning ilm va madaniyat markaziga aylandi. Horun ar-Rashid boshlagan ishlarni Ma’mun davom ettirdi. Bulardan keyingi hukmdorlar ham ilm rivojiga e’tibor qaratdilar. Mamlakatda tarjima davri yuzaga keldi. O‘z davrining eng kuchli olimlari Bag‘dod shahriga to‘plandilar. Bag‘dod olimlari yunon, hind va boshqa tillardagi asarlarni arab tiliga tarjima qilishdi.

Ilmga bo‘lgan qiziqish barcha shaharlarda markazlar vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Ilmiy muhit ta’sirida o‘lkaning chekka hududlari ham rivojlandi. Mamlakatda oldin mavjud bo‘lmagan uyg‘onish, ya’ni renessans vujudga keldi. Tafsir, hadis, fiqh, aqoid kabi fanlar bilan bir qatorda arxitektura, musiqa, san’at, tibbiyot, matematika, astronomiya, farmatsevtika kabi fanlar ham yuqori bosqichda rivojlandi. Insoniyatga oltin davrni taqdim qilgan mazkur asr tarixini o‘rganish juda ko‘p foydali ma’lumotlar ochilishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Insoniyat bugungi taraqqiyot bosqichiga yetib kelgunicha boshidan juda ko‘p voqea-hodisalarni o‘tkazdi. Yer yuzida ko‘plab sulolalar hukmronlik qildilar, lekin ularning ko‘pchiligi jahon sivilizatsiyasi rivojiga arzirli hissa qo‘sha olmaganlar. VIII asrda davlat boshqaruviga kelib, besh asr hukm surgan Abbosiylar sulolasi Sharqda birinchi renessansni boshlab berdi. Bu davrda ilmga shunday e’tibor berildiki, shahar-u qishloqlarda barcha ilm bilan shug‘ullanar edi. Shu davrgacha mavjud bo‘lgan boshqa tillardagi ilmiy asarlar arab tiliga tarjima qilindi. Mamlakat poytaxti Bag‘dod ilm markaziga aylandi. Juda katta hududni egallagan davlatda hech qanday to‘siqsiz shaharma-shahar yurib ilm to‘plash imkoni yaratildi. Natijada juda ko‘plab allomalar yetishib chiqdi. Bu davrda bizning yurtdan ham ilm-fanga asos solganlar yetarlicha edi. Bu davrda yaratilgan asarlarni o‘rganish ilm-fanning barcha sohalari rivojiga sabab bo‘ladi. Bugungi kunda minglab asarlar hali o‘rganilmagan. Bu asarlarda ajdodlarimizning tafakkur mahsullari, dil so‘zlari o‘z egalariga yetishini kutib turibdi. Tadqiqotchi olimlar meros asarlarni ko‘proq o‘rganib, undagi motivatsiyalarni xalqimizga taqdim qilsalar, yana shunday renessans vujudga kelishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abbosiylar davrida ilmning ahamiyati. https://aniq.uz/yangiliklar/abbosiylar-davrida-ilmning-ahamiyati.

2. Abbosiylarning turmush tarzi. https://www.islom.uz/maqola/1117

3. Ismatulloh A. Markaziy Osiyoda islom madaniyati. – T.: Sharq, 2005. B.384

4. Abduhalimov B. Bayt ul-hikma va O‘rta Osiyo olimlarining Bag‘doddagi ilmiy faoliyati. – T.: Toshkent islom universiteti, 2004. B. 236

5. Tolibjonova L. Musulmon renessansi va ilmiy musiqa falsafasi. Scientific Journal Inpact Factor (SJIF) 2021: 5,723 b. 155 https://cyberleninka.ru/article/n/musulmon-rennesansi-va-ilmi-musi-a-falsafasi/viewer

6. Ahmed Issa va Usmon Ali. Islom madaniyatini o‘rganish. Uyg‘onish davriga musulmonlarning qo‘shgan

hissalari. – B.: Xalqaro islom tafakkuri, 2022. – b. 29

7. احمد فارس الشدياق. كشف المخبا عن فنون اوربا. مؤسسة هنداوي, المملكة المتحدة. 2014م. 314ص.

8. ابن ابو اصيبعة. كتاب عيون الانباء في طبقات الاطباء. دار المعارف, القاهرة. 1996م. ج1, 422ص.

9. الدكتور خضر احمد عطاءالله. بيت الحكمة في عصر العباسيين. دار الفكر العربي, القاهرة. 518ص. Noor book.com

ABDULLAXON DAVRIDAGI BUXORO MADRASALARI TARIXIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR

Rezvonova Aziza Bahodirovna
O'zbekiston Milliy universiteti
Tarix fakulteti O'zbekiston tarixi kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
rezvonovaaziza@gmail.com
ORCID 0000-0002-0015-3547,
УДК 930 (514)1.4

Annotatsiya. Maqolada Abdullaxon II ning me'morchilik faoliyati, uning davrida o'z nomi ham turli soha vakillari tomonidan qurilgan madrasalar bilan bog'liq ma'lumotlar tahlil qilingan. Shuningdek, XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoroda qurilgan madrasalar hamda ularning me'moriy yechimi, tashqi kompozitsion ko'rinishi tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida o'rganilgan. Unda Abdullaxon tomonidan bunyod etilgan qo'sh madrasa, xonning davlat va jamoat arboblari tomonidan qurilgan bir qator ta'lim muassasalarining qurilish tarixi, shart-sharoitlari, moliyalashtirish manbalari hamda uning me'moriy yechimi tahlil qilindi. Abdullaxon II ning Buxoro islom ilm-fan va ta'lim markazi sifatida yanada mustahkamlanganligi, uning hukmronligi yillari barpo etilgan madrasalari ilmiy muhitni shakllantirishda qo'shgan hissalari bilan bog'liq ma'lumotlar yoritib berilgan. Abdullaxon II ning madrasalari nafaqat ta'lim markazi, balki me'moriy yodgorliklar sifatida hozirgi kun me'morchiligi uchun ham ahamiyatli ekanligi me'moriy yechimlar asosida tahlil qilindi. Shayboniylar davri me'morchiligida temuriylar me'morchiligidan farqli o'laroq peshtoq va koshinlardagi epigrafik yozuvlarda ilk bor turkiy tildagi bitiklardan foydalana boshlaganligi aniqlangan. Abdullaxon II davrida Buxoro madrasalari faqat diniy ta'lim markazi emas, balki keng qamrovli ilmiy-ma'rifiy muassasa sifatida shakllandi va keyingi davr islom madaniyati rivojiga katta ta'sir ko'rsatgani tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Abdullaxon II, shayboniylar, inshoot, ta'lim, ilm-fan, Buxoro shahri, qurilish ashyolari, Qulbobo Ko'kaldosh madrasasi, me'moriy obida, sulola, arxitektura, me'morchilik, qurilish tarixi, bunyodkorlik.

SOME REMARKS ON THE HISTORY OF BUKHARA MADRASAS DURING THE REIGN OF ABDULLAKHAN

Abstract. The article analyzes information related to the architectural activities of Abdullakhan II, the madrasas built during his reign by representatives of various fields, including his own name. Also, the madrasas built in Bukhara in the second half of the 16th century, their architectural solution, external compositional appearance are studied on the basis of historical sources and scientific literature. It analyzes the construction history, conditions, sources of financing, and the architectural solution of the double madrasa built by Abdullakhan, a number of educational institutions built by the khan's state and public figures. Information related to the further strengthening of Bukhara as a center of Islamic science and education by Abdullakhan II, and the contribution of the madrasas built during his reign to the formation of the scientific environment is analyzed. The fact that the madrasas of Abdullakhan II were not only educational centers, but also architectural monuments, were analyzed based on architectural solutions. It was found that in the architecture of the Shaybanid era, unlike the architecture of the Timurids, epigraphic inscriptions on the roofs and tiles were first used in Turkic language. In general, during the reign of Abdullakhan II, the Bukhara madrasas were formed not only as centers of religious education, but also as comprehensive scientific and educational institutions, and their great influence on the development of Islamic culture in the subsequent period was studied based on historical sources and scientific literature.

Key words: Abdullakhan II, Shaybanids, structure, education, science, Bukhara city, construction materials, Kulbabo Kokaldosh, madrasa, architectural monument, dynasty, architecture, architecture, history of construction, creativity.

Kirish. Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixi har tomonlama xolis va ilmiy yoritila boshlandi. Ayniqsa, o'zbek davlatchiligi tarixi va uning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyoti jarayonlarida tutgan o'rnini yoritishga katta e'tibor berilmoqda. Shubhasiz, o'zbek davlatchiligi an'analarining shakllanishida va taraqqiy etishida muhim o'rin tutgan davrlardan biri o'zbek xonliklari davri hisoblanadi. O'zbek davlatchiligi tarixida Shayboniylar sulolasi Buxoroi azimda ham nom va iz qoldirgan sulolalardan biri hisoblanadi. Demak, XVI asr o'rtalaridan boshlab shayboniy hukmdorlar tomonidan Buxoroda markazlashgan va poytaxt shahar sifatida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy madaniy-ma'rifiy rivojlanishlar sodir bo'lgandir. Buxoro shahri qadimiy va me'moriy jihatdan beqiyos shaharlardan biri bo'lib, uning 1997-yilda 2500 yillik yubileyi nishonlandi. Muso Saidjonovning 1927-yilda arab alifbosida yozilgan "Buxoro shahri va uning eski binolari' asari XVI asr Buxoro xonligidagi madaniy jarayonlar va shahardagi bunyodkorlik

ishlari, me’moriy inshootlarning qurilish tarixi haqida qimmatli ma’lumotlar beradi [11]. Bu asar Buxoro shahrida bunyodkorlik ishlari, me’moriy inshootlarning qurilish tarixi haqidagi ma’lumotlarni berishi bilan ajrarib turadi

Shayboniylar davrida Buxoroda ilm-fan va ta’lim sohasini rivojlantirish maqsadida bir qancha ta’lim muassasalari bunyod etilgan. Shayboniylar me’morchilik ishlarida ham qator yodgorliklar va turli maqsadga mo‘ljallangan qurilish ishlarini amalga oshirganlar. Bu borada nafaqat sulola namoyandalari, balki o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan, katta moddiy imkoniyatga ega kishilari ham chetda qolmaganlar. Chunonchi, Buxoroda shahar devorining ta’mirlanishi, Mir Arab, Abdullaxon, Modarixon, Juybori Kalon, Fathulla Qushbegi madrasalari, Xo‘ja Zayniddin, Chorbakir masjidlari va ko‘plab mana shunday madrasa-yu masjidlar, karvonsaroylar, bozorlar va boshqa qurilish ishlari bajarilgan. Ulardan bir qanchalari bizgacha saqlanib qolgan.

Movarounnahrda Amir Temurdan keyin bunyodkor shaxs shayboniylar sulolasi vakili bo‘lgan Abdullaxon (1557–1598) hisoblanadi. Abdullaxon ibn Iskandarxon o‘zining 40 yillik amaldagi va rasmiy hukmronligi davrida (1557–1598) Markaziy Osiyo hududida 1000 dan ortiq hamda 20 dan ortiq turdagi (madrasa, masjid xonaqoh, minora, maqbara, kutubxona, hammom, ko‘prik, to‘g‘on, sardoba, karvonsaroy, rabod, chorbog‘, shifoxona, ombor, tim va h.k.) [5]. Yuqoridagi fikrdan shayboniylar sulolasidan bo‘lgan Abdullaxonning quruvchilik va yaratuvchilik, bunyodkorlik salohiyati yuqori darajada ekanligini ko‘rishimiz mumkinki. Qolaversa u o‘zining bunyodkorlik ishlaridan tashqari o‘zidan oldin yashagan shaxslar, ya’ni temuriy hukmdorlar tamonidan bunyod etilgan keyinchalik buzilib ketgan ayrim inshootlarni qayta qurgan va ta’mirlagan bunyodkor shaxs hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mustaqillik sharofati bilan tarixning har bir davri, shu jumladan, O‘rta Osiyoda hukmronlik qilgan xonliklar davri manbalar, ilmiy asarlar orqali tahlil qilinib, xolisona tarix yoritila boshlandi. O‘zbek xalqi davlatchiligi tarixini o‘rganishda nisbatan kam tadqiq etilgan hamda e’tibordan chetda qolib kelgan shayboniylar sulolasi hukmronligi davri ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Bugungi kunda shayboniylar sulolasi hukmronlik qilgan Buxoro xonligidagi madaniy jarayonlar tarixi bo‘yicha ilmiy tadqiqot natijalari sanoqli. Shunday bo‘lsa-da, Buxoro xonligida shayboniylar hukm surgan davr tarixining turli jihatlarini R.G. Mukminova (1985), B.A. Ahmedov (1985, 1994), G.A. Agzamova (2000, 2017), H.H. To‘rayev (2007), A. Ziyo (1990, 2001), Q.K. Rajabov (2016), A. Jumanazarov (2017), A. Zamonov (2018) kabi mamlakatimiz olimlari tadqiq qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani yozishda tarixiylik, xolislik tamoyillariga amal qilgan holda, tizimlilik, xronologik va qiyosiy tahlil, statistik tadqiqot usullaridan foydalaniligan.

Tahlil va natijalar. Shayboniylar davri me’morchiligini hukmdorlar faoliyatiga bog‘lagan holda uch davrga bo‘lish mumkin: Shayboniyxon davri, Ubaydullaxon davri va Abdullaxon davri me’morchiligi. Uchinchi qurilish davri 1560–1590 yillarni o‘z ichiga olib, u Abdullohon II ning kuchli birlashtiruvchilik hokimyatiga bog‘liq ravishda davlatning barqarorlashuvi tufayli XVI asr qurilishi va me’morchilik maktabi faol shakllandi, diniy binolar – masjid, madrasa, xonaqoh, shuningdek, fuqarolik, inshootlari: tim, toq, karvonsaroy, hammom, hovuz, sardoba, ko‘prik va hokazolarning tiplari mukammallashdi [3]. Qurilishning bu davrida kesishuvchi ravoq tizimida to‘sin konstrukturasi jadal sur’atlarda rivojlangan. Bu davrda to‘rtga kesishuvchi ravoqlar va qalqonsimon qismlarga asoslangan yakka qavat gumbazlaridan keng foydalanilganini ko‘rishimiz mumkin.

Buxoro me’morchiligi maktabida asosan rassomlar sarg‘ish-qizg‘ish – mahalliy tilda “zardor” deb nomlanuvchi rangdan ko‘proq foydalangan. Bu rang Buxorodagi yog‘ochdan tiklangan naqshinkor ustunlarda, g‘ishtin binolarda, qadimiy eshik va darvozalarda, shu bilan birga, hunarmandlarning zargarlik va zardo‘zi buyumlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

XVI asrning ikkinchi yarmida Abdullaxon madrasasi, Qulbobo Ko‘kaldosh madrasasi, Govkushon madrasalari, Fathulla Qushbegi madrasasi, Mirakon madrasasi, Xoja Muhammad Porso madrasalari barpo etilgan. 1558–1559-yillarda Buxoroga tashrif buyurgan ingliz savdogari Antoni Jenkinson o‘z kundaligida shunday yozgan edi: “Buxoro – hashamatli shahar, unda ko‘plab pishiq g‘ishdan qilingan binolar va mahobatli jamoatchilik qurilishlari, ayniqsa, shunday hammomlari borki, dunyoda ularga teng keladigani yo‘q”. Buxoro shahriga o‘sha davrda tashrif buyurgan sayyohlar va savdogarlar ham o‘z esdaliklarida shaharda nechog‘lik bunyonkorlik ishlari amalga oshirilganligini aytib o‘tishgan [6].

Abdullaxon (1557–1598) davri ta’lim muassasalaridan biri Ko‘kaldosh madrasasi 1568–1569-yillar ichida xonning vaziri Qulbobo Ko‘kaldosh tomonidan qurilgan. Abdullaxon hukmronligi davrida Qulbobo Ko‘kaldoshning mamlakat rivojlanishi va obodonlashtirilishida xizmatlari beqiyos bo‘lgan. Abdullaxonning boburiylar hukmdori bo‘lgan Akbarshoh bilan olib borgan muzokaralarida, xon va uning o‘g‘illari o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etishda, mamlakatda amalga oshirilgan taftish ishlarida amir Qulbobo Ko‘kaldoshning xizmati katta bo‘lgan [11]. Qulbobo Ko‘kaldoshning zehni o‘tkirligi, tashabbuskorligi va sadoqati to‘g‘risida o‘sha davr tarixchisi Hofiz Tanish al-Buxoriy Abdullaxon haqida yozayotib, uning Ko‘kaldoshga munosabatini shunday izohlaydi: “Agar Qulboboga o‘xshab ishlarni intizomga qo‘yadigan yana bir kishi bo‘lsa edi, har vaqt qudratli davlatning kuchi bilan olamni jahongir qo‘liga va tadbir qulochiga olardi” [8]

Ko‘kaldosh madrasasi Buxorodagi eng yirik (86x89 metr, 130 taga yaqin hujrasi bor) madrasalardan biridir. Biroq mablag‘ va turar joyni tejash uchun u bo‘ylama o‘q bo‘ylab ikkitagina gumbazli va ayvonli qilib qurilgan. Unda Turon madrasalari ichida ilk bor yalangyon tomoni tashqariga ikkinchi qavatining ravoqli peshayvoni bilan ochilgan. Natijada kesishuvchi ravoqlar devorlarga parallel bo‘ylab joylashgan bo‘lib, kirish guruhidagi (darsxona) burchak zallarining tom to‘sini o‘ziga xos qurilganligini ko‘rishimiz mumkin. Madrasaning qurilishida xom va pishiq g‘isht, loy, yog‘och, maxsus “qir” qotishmasi va shu kabi qurilish ashyolaridan keng foydalanilgan [7]. Ko‘kaldosh madrasasi nafaqat Labi hovuz ansamblidagi katta imoratlardan biri, balki Buxoro shahridagi eng katta imorat hamdir.

Qulbobo Ko‘kaldosh madrasaning uzoqdan ko‘zga tashlanishini nazarda tutib, ikki qavat balandligida qator ravoqlar qurishga ko‘rsatma bergan. Madrasaning bosh fasadi peshtoqli bo‘lib, u ansambl maydoniga qaratilgan. Peshtoqni bezatib turgan koshinlar bizgacha saqlanib qolmagan. Madrasa peshtoqidagi eshikka girih va islimiy naqshlar ishlangan. Mix qoqmay, “tirnoq” qilib mahkamlangan pilakchalardan yasalgan eshik yaxlit taxtadan tayyorlangandek ko‘rinadi. Madrasa hovlisiga bir necha xonadan o‘tib kiriladi. Shu tufayli gumbazlar konstruksiyasi yaqqol ajralib turadi. Madrasa hovlisi uzun. Hovli tomondagi ikki qatorli ravoqlar qatorini yuzma-yuz qilib solingan baland ayvonlar ajratib turadi. Ko‘kaldosh madrasasi ham “chor” uslubda qurilgan bo‘lib, ular eshik va g‘ishtlarining terilishi xotamkori uslubida o‘z aksini topgan. Madrasa hovlisiga 5 gumbazli miyonsaroy orqali kiriladi. Miyonsaroyning ichki gumbazlari va bag‘allari, shipi o‘ziga xos turli shakldagi murakkab to‘rsimon-yulduzsimon, qolibkori va iroqi uslubda pishiq g‘ishtda ganj qorishmasidan terilgan. Madrasa hovlisi uzun (42x37m), o‘rtaga yangi imorat 1929-yilda bunyod etilgan. Hovli tomonda qurilgan imorat 2 qavatli 160 hujra bilan o‘ralgan. Yon tomonidagi hujralarning pastki qavatiga xonani yoritish uchun panjaralar o‘rnatilgan. Yuqori qavatiga esa qator qilib chuqur ravoqlar ishlangan. Ravoqlar tepasini va ba’zi darcha panjaralarini bezatishda koshin ancha tejab ishlatilgan. Qulbobo Ko‘kaldoshning Buxorodagi madrasani qurdirganini tasdiqlovchi 1022 jumod us-soniyda (1594-yil fevral-mart) da tuzilgan vaqf hujjati ma’lum [12].

Madrasa inshooti 2001-yil 30- avgustdagi “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi va 2008-yil 12-sentyabrdagi “Muzeylar to‘grisida”gi qonunlari asosida davlat muhofazasiga olingan

Buxoro me’morchiligining o‘ziga xos namunalaridan biri bo‘lgan bu Qo‘sh madrasa me’moriy ansambli murakkab arxitekturaviy yechimga ega hisoblanadi. Bu inshoot shayboniy hukmdorlardan bo‘lgan Abdullaxon hukmdorligi davrida, 1566–1567-yillar ichida bunyod etilgan. “Buxoroning tashqi qal’asida, shaharning g‘arb tarafida, xiyobon ko‘chasida xon hammomi qarshisida 1566–1567- yilda toqilari baland gumbazlari yuqori va 2 qavatli, ko‘p hujralardan (108) iborat oliy madrasa qurildi”, – deb yozadi o‘sha davr tarixchisi Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullaxon madrasasining tuzilishi odatdagilaridan ancha farq qiladi. Hovli atrofini ikki oshyonli hujralar o‘rab turadi. Har ikki tomonda baland peshtoq joylashgan. Peshtoqlar orqali ichkari xonalar va xonaqohga o‘tiladi. Peshtoq qanotlari va guldastalar sirkor koshinlar bilan pardozlangan. Darvozadan o‘tib, ikki yoqdagi katta xonalar – darsxona va masjidga kiriladi. Madrasani barpo etishda murakkab gumbaz va bezaklar qo‘llanilgan.

Me’moriy inshoot Sharq me’morchiligining “qo‘sh” uslubida bunyod etilgan bo‘lib, u ikkita inshoot Abdullaxon madrasasi (G‘arbiy madrasa) va Modarixon madrasa (Sharqiy madrasa)laridan iboratdir.

XVI asr Buxoro me’morchiligiga xos bo‘lgan, bir o‘q bo‘yicha ro‘para turuvchi qo‘sh madrasa ansambli Modarixon madrasasi (Sharqiy madrasa) 1581–1582-yillarda Abdullaxonning

onasi sharafiga qurilgan. Bosh fasad katta peshtoq, ikki qavatli ayvon va burj-guldastalar bilan bezalgan, 62 ta hujradan iborat bo‘lgan [4]. Peshtoq va burchaklardagi guldastalar sirkor g‘ishtlar bilan pardozlangan. Toqilar orasidagi bag‘allarga koshinlar bilan geometrik shakllar berilgan. Madrasaning boshqa yerlari bezaksiz ishlangan. Modarixon madrasasi devorlarining ikki chekkasi pishiq g‘ishtdan terilgan bo‘lib, o‘rtasi singan g‘isht bo‘laklari bilan to‘ldirilgan. Madrasa 2 qavatli chorsu tarhli 67x45 m. hisoblanadi. Bosh tarzda ulkan peshtoq va uning 2 yoni 2 qavatli bo‘lib, oldi ravoqli 3 qismga ajratilgan va xonalari oldi handasaviy uslubda koshinkori naqshlar bilan bezatilgan. Madrasaning qurilishida yog‘och, xom va pishgan g‘ishtlar va maxsus ishlangan “qir” qotishmasidan keng foydalanilgan. Madrasaning 2 burchagida charxi gumbaz bilan qoplangan xonalar va miyonsaroy, darsxona, masjid ham mavjud bo‘lgan.

Me’moriy obida Buxoro shahrining 2500 yillik yubileyi munosabati bilan qayta rekonstruksiya qilindi. Shu bilan bir qatorda YUNESKO Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritilgan. Davlatimiz tomonidan ham qabul qilinayotgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar me’moriy obidaning muhofazasi uchun xizmat qiladi.

Abdullaxon davri madrasalaridan yana biri – Govkushon madrasasi XVI asr o‘rtalarida, Buxorodagi jo‘ybor shayxlari Muhammad Islom (1493-1563) va Xo‘ja Sa’d (1531\32-1589) tomonidan 1562–1566-yillarda barpo etilgan [9].

Abdullaxon II hukmronligida jo‘ybor xo‘jalarining mamlakatda qudrati va nufuzi baland bo‘lgan. Bu o‘sha davr tarixchisi Hofiz Tanish Buxoriyning quyidagi ma’lumoti “Jo‘ybor xo‘jalaridan biri Xo‘ja Sa’d Buxoro xoni Abdullaxon II ning murabbiysi va maslahatchisi sifatida siyosiy voqealarda shaxsan ishtirok etgan. Hattoki Abdullaxon II Xo‘ja Sa’d ruxsatisiz birorta ham muhim ishni amalga oshirmagan” orqali ham ko‘rishimiz mumkin.

Madrasaning Govkushon deyilishiga sabablardan biri Govkushon mahallasida joylashganligi va uning yaqinida Govkushon – go‘sht bozori ham bo‘lganligi bo‘lishi mumkin.

Govkushon madrasalarida butun binoning bir qavatligida unga muhtashamlik baxsh etish uchun old tomoni ikki qavatli qilib qurildi [2]. Madrasaning sharqiy tarafi ikki qavatli, yon va orqa tomonida bir qavatli hujralar va mezana mavjud. Peshtoqning g‘arbidagi ravoq ustidagi qanosi o‘simliksimon sirkori naqshlar, kitoba qismi esa suls xati bilan bezalgan. Kiraverishda, o‘ngda xonaqoh-masjid (darsxona) bor. O‘rtadagi hovli (25x35 m)ning to‘rt tomoni hujralar bilan o‘ralgan. Xo‘ja masjidi kirish peshtoqi, hovli atrofi g‘ishtin ravoqli ayvonlar, xonaqoh va minoradan tashkil topgan. Minora (19,5 m)ga masjid tomidagi ravoqli ko‘prik orqali chiqilgan. Minora turli shakldagi g‘ishtlardan terilgan. Naqshlar yuqoriga tomon noziklasha borib, fonusning ravoqli darchalari bilan birga minoraga nafislik bag‘ishlaydi. Buxoroda qurilgan madrasalar ta’lim jarayoni tizimi diniy, dunyoviy va milliy an’analarga mo‘ljallangan edi.

1997- yilda Buxoroning 2500 yillik yubileyi munosabati bilan boshqa me’moriy obidalar kabi ta’mirtalab qismlari qayta tiklandi. Bu madrasa YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritilgan.

Madrasalardan yana biri – Fathulla Qushbegi madrasasi XVI asrning so‘nggi choragida, 1585–1586-yillarda bunyod etilgan. Fathulla Qushbegi shayboniylar sulolasi hukmdorlari Iskandarxon va Abdullaxon davrida qushbegi lavozimida faoliyat yuritgan. O‘sha davrda yashagan Hofiz Tanish Buxoriy u to‘g‘risida “Eskidan qushbegilik mansabini egallab kelgan, xon hazratga manzur janob, rif’atli va hashamatli amir Fathullohlar hozir bo‘ldilar” ma’lumot keltirib o‘tgan [10].

Buxoroning eski shahar qismida Xoji Hasan guzarida Abdullaxon II ning buyrug‘iga binoan davlat xazinasi hisobidan 65 hujradan iborat madrasa bunyod ettirildi. Madrasa qurilishida Fathulla Qushbegi faol qatnashgani uchun madrasa xalq orasida uning nomi bilan atalgan. Bu haqida vaqf hujjati ham bor. Unda aytilishicha, hazrat amir Fathulla Qushbegi ibn amir Asadulloh ilm ahli uchun Ma’sudbek guzarida madrasa qurdirgan. Uning ustki va tashqi hovlisi, tahoratxonasi va gumbazlari bo‘lgan. Madrasaning g‘arbida vaqf do‘konlari, shimoli va sharqida yer-mulklar, janubi ko‘cha bilan o‘ralgan [1].

Madrasa, qishki va yozgi masjid, darsxona, kutubxona va hujralardan iborat. Binoning old tomoni 2 qavatli, qolgan tomonlari 1 qavatli. Hovli 44 ta bir qavatli xonalar bilan o‘ralgan. Bino burchaklarida burjlar ishlangan, sirti sirkor parchinlar bilan bezatilgan. Uning umumiy tuzilishi Buxoroning boshqa madrasalaridan biroz farq qiladi. Darsxona atrofidagi 9 ta xonaning usti gumbazlar bilan yopilgan. Tashqi ayvonning ko‘cha tomoni past devor bilan to‘silgan.

Me’moriy obidaning bunyod etilishida har xil o‘lchamdagi xom va pishgan g‘isht, tosh,

loy, yog‘och va shunga o‘xshash mahsulotlardan foydalanilgan. Hujralari ikki qator bo‘lib, bir tarafi hovliga va boshqa tomoni ko‘chaga qaragan. Shu sababli odamlar uni ikki yuzli madrasa deb atagan. Uning ichki dizayni ham o‘ziga xos o‘sha davr me’morchiligiga xos naqshinkor bezaklar bilan bezatilgandir. Madrasa XX asrning o‘rtalarida 1935-yilga kelib, Rossiya imperiyasi mustamlakasi vaqtida batamom buzib tashlangan.

Fayzulloh ibn Ro‘zbehxonning bergan ma’lumotlariga ko‘ra, Buxoro madrasalarida XVI asrda qiroat ilmiga alohida e’tibor qaratilgan va talabadan Qur’onni to‘liq yod olish, ma’nolarini tushunish talab etilgan. Bu yo‘nalish an’anaviy bo‘lsa-da, bu davrga kelib, madrasa talabalarga maxsus darsliklar yaratildi hamda oldingi uslubiy qo‘llanmalar mukammallashtirildi [13].

Shunga o‘xshash Jo‘ybor shayxi Xoja Sa’d tomonidan 1586-yil Buxorodagi Mirzo Ulug‘bek madrasasi butunlay qayta tiklangan va yirik madaniyat va ma’rifat maskani vazifasini o‘tagan.

Abdullaxon va uning otasi Iskandarxon piri murshidlari bo‘lmish Xoja Faxriddin Muhammad Islomning (u 1493 yilda Buxoroda tug‘ilgan) o‘g‘illaridan biri bo‘lgan Nasiriddin Xoja Sa’id hisoblanadi. Xoja Nasiriddin Sa’idning yillik daromadi, 16 lak, ya’ni bir million olti yuz ming tangani tashkil etgan. U boyligining katta qismini ilm-fan va madaniyat rivojiga sarflagan. Xoja Nasiriddin Sa’id turli joylarda, 60 dan ortiq hammom, karvonsarov, masjid, sardoba, xonaqoh va madrasalar qurdirgan. Shu jumladan, Buxoroda katta jome masjidi va uning yaqinida madrasa barpo ettirgan, Sumiton masjidi va madrasasini ham qurdirgan [14]. U olgan yillik daromadlarini o‘zining shaxsiy manfaatlarida sarflash o‘rniga to‘plagan boyligining katta qismini Buxoroning obodonchiligida, ilm-fan va madaniyatning rivoji yo‘lida sarflagandir.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Abdullaxon II davrida Buxoroda ilm-fan, shaharsozlik, me’morchilik va hunarmandchilik, savdo-sotiq kabi sohalarda katta yutuqlarga erishilgan. Bu esa shayboniylar hukmronligi davri o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega davr ekanligini ko‘rsatib turibdi. Shayboniylar davri me’morchiligi tarixini tahlil qilishda Movarounnahrda XVI asrdagi shayboniylar sulolasi hukmdorlari va amaldorlarining bunyodkorlik ishlarida tutgan o‘rni va hissalariga oydinlik kiritish, qo‘llanilgan me’morchilik usullari arxitekturasidagi ishlatilgan yangi kompozitsiyalarni aniqlash, bezaklari va naqshlarida ishlatilgan ranglar uyg‘unligini ko‘rsatish, ularning o‘zbek me’morchiligi tarixida tutgan o‘rnini yanada kengroq o‘rganishga imkon beradi. Shayboniylar ham temuriylardan qolishmagan holda bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan. Buni birgina Abdullaxon misolida ko‘radigan bo‘lsak, u 40 yillik hukmronligi davrida Markaziy Osiyo hududida 1000 dan ortiq hamda 20 dan ortiq turdagi (madrasa, masjid, xonaqoh, minora, maqbara, kutubxona, hammom, hovuz, ko‘prik, to‘g‘on, sardoba, karvonsaroy, rabot, chorbog‘, shifoxona, ombor, tim, toq va h.k.) qurdirganki, ungacha va undan keyingi davrlarda ham Turondagi biror hukmdor bunyodkorlik sohasida bunday natijaga erisha olmagan. Shayboniy hukmronlardan tashqari o‘z davrining yetuk namoyandalari ham madrasalar barpo ettirgan. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, shayboniylar davri me’morchiligi madaniyat va san’at tarixida chuqur o‘rganilishi kerak bo‘lgan eng dolzarb mavzulardan biridir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Абдусаттор Ж. Бухоро таълим тизими тарихи. / [Матн] - Тошкент: Akademnashr, 2017. – 424 б
2. Бухоро – шарқ дурдонаси. –Тошкент: Шарқ, 1997.-В.98.
3. Vaxitov M.M., Mirzayev Sh.R.Me’morchilik (1-qism Me’morchilik tarixi).T., 2010.
4. Жуманазар А. Бухоро таълим тизими тарихи.-Тошкент: Akademnashr,2017.- б.424.
5. Замонов А.Ўрта аср тарихий шахслари ҳаётининг айрим номаълум саҳифалари Матн Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашр/-Тошкент: Bayoz,2020.-б.122.
6. Zamonov A.Buxoro xonligi tarixi. – T.: Bayoz, 2021.
7. Zamonov A.Tarix fanidan olimpiyadaga tayyorlanamiz. – T.: Bayoz, 2012.
8. Мирзақулов Б. Бухоро тарих зарварақларида. –Тошкент: Lesson Press, 2016 б.162.
9. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланома. Форс тилидан С.Мирзаев таржимаси. 1-жилд. – Тошкент: Шарқ,-1999.б-58,61.
10. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланома. Форс тилидан С.Мирзаев таржимаси. 2-жилд. – Т.: Шарқ, 2000.
11. Саиджонов М. Бухоро шаҳри ва унинг эски бинолари. / таржимон Ҳ. Тўраев. –Тошкент: 2005, 58 б.
12. Султонов Ў.А. Тошкент вақф мулклари тарихи:Тарихий ҳужжатлар тадқиқи ва талқини (1507-1917) – Тошкент: Фан, 2021, 179-180 б.

13. Фазлаллах ибн Рузбихан Исфахани. Михман-наме-йи Бухара (Записки бухарского гостя). Пер. Р.П. Джалиловой. М., 1976.Под. Ред. А.К.Арендса – Москва: Наука, 1976. - 28 с.

14. Мирзаев Б. Убайдуллахон: Шайбонийлар давлатининг ҳукмдори; – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2016, –151 б.

BUXORO AMIRLIGI BILAN QASHQADARYO VOHASIDAGI BEKLIKLARNING MA’MURIY-HUDUDIY TUZILISHI, BOSHQARILUVI

Xidirova Go‘zal Suyunjonovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalar universiteti
Qarshi filiali “Axborot ta’lim texnogoyalari va
gumanitar fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
guzalhidirova36@gmail.com
ORCID: 0009-0005-8903-9984
UDK 63.3(2)7

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro amirligi tarixida XVIII asrning o‘rtalarida yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik va ichki kurashlar amirlik hududlarida bir qator o‘zgarishlar, xususan, siyosiy tizimidagi o‘zgarishlar Buxoro xonligida mang‘itlar sulolasi hukmronligining to‘la-to‘kis o‘rnatilganidan keyingi ma’muriy-hududiy, boshqaruvidagi o‘zgarishlar yoritiladi. Ayrim tadqiqotlarda Qashqadaryo vohasidagi ko‘plab qishloqlarga ega bo‘lgan Chiroqchi bekligi, garchi amloklari birmuncha oz bo‘lsa-da, aholi soni jihatdan anchagina ko‘p bo‘lganligi bilan ajralib turishi ta’kidlab o‘tiladi. Shuningdek, yettita amlokka bo‘lingan ushbu beklik tarkibida 125 ta qishloq bo‘lib, ularning asosiy qismini Buxoro amirligi davrida o‘troqlashgan aholi guruhlarini tashkil etadi. Ushbu fikrni har bir amlok tarkibidagi ko‘chmanchi o‘zbeklar bilan bog‘liq o‘nlab qishloq nomlarini tashkil etishi ham tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar. Buxoro xonligi, mang‘itlar sulolasi, beklik, O‘rda, G‘uzor darvozasi, “to‘ra”, devonbegi, zakotchilar.

ADMINISTRATIVE AND TERRITORIAL STRUCTURE AND MANAGEMENT OF BEYLIKS IN THE BUKHARA EMIRATE AND THE KASHKADARYA OASIS

Abstract. This article examines the political instability and internal struggle that arose in the history of the Bukhara Emirate in the middle of the 18th century, a number of changes in the emirate's territories, changes in the political system, and changes in the administrative-territorial and administrative structure of the Bukhara Khanate after the establishment of the Mangyt dynasty. In some studies, it is noted that the Chirakchi Beylik, which had many villages in the Kashkadarya oasis, was distinguished by its population, although its possessions were relatively small. Also, this beylik, divided into seven amlak, consisted of 125 villages, the majority of which were settled groups of the population during the Bukhara Emirate. This opinion is also confirmed by the fact that the names of dozens of villages associated with nomadic Uzbeks are included in each estate.

Key words. Bukhara Khanate, Mangit dynasty, beylik, Horde, Guzar Gate, "tura", the chief of the devan, the zakat collectors.

Kirish. Buxoro amirligi tarixida XVIII asrning o‘rtalarida yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik va ichki kurashlar amirlik hududlarida bir qator o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Ya’ni siyosiy tizimidagi bunday o‘zgarishlar Buxoro xonligida mang‘itlar sulolasi hukmronligining to‘la-to‘kis o‘rnatilishi bilan izohlanadi.

Amirlik hududi XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib salkam 200 ming kvadrat kilometrni tashkil etib, aholisi ikki million kishidan oshgan edi. Ulardan 500 ming nafari Qashqadaryo vodiysida yashagan[1]. Aholining milliy tarkibi ham turli etnik guruhlardan iborat bo‘lib, o‘zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar kabi xalqlar bu hududda yashagan.

XIX asrning 50-yillariga kelib, Buxoro amirligi hududi bir nechta viloyatlarga bo‘lingan edi. Ular Buxoro, Samarqand, Surxondaryo va Qashqadaryo kabi katta markaziy hududlarni o‘z ichiga olgan. Bu viloyatlar o‘z navbatida turli tumanlar va amlokliklarga bo‘lingan va ularning har biri alohida hokimlar yoki beklar tomonidan boshqarilgan. Shuning uchun ham keyinchalik ushbu viloyatlar o‘rniga bekliklar tashkil topib, ularga amir tomonidan tayinlangan beklar boshchilik qilgan. Tadqiqotlarda Buxoro amirligi 27 ta beklik (viloyat)larga bo‘lingan bo‘lib, uning ma’lum qismini Qashqadaryo vohasi tashkil etadi. Lekin ba’zi tadqiqotlarda bu davrda Buxoro amirligida 44 ta beklik mavjud bo‘lganligi qayd etib

o‘tiladi[2]. Bugungi kunda bunday bir-biriga zid statistik ma’lumotlar tez-tez uchrab tursa-da, tadqiqot ishimizda bunday ma’lumotlarga aniqlik kiritib ketishga harakat qildik.

Adabiyotlar tahlili. Qashqadaryo vohasi bekliklar, amlokdorliklar va kentlarga bo‘lib boshqarilgan. Vohadagi Qarshi shahri nafaqat boshqaruv tizimi, balki butun amirlikning iqtisodiy va madaniy hayotida ham katta rol o‘ynagan edi[3]. Qarshi bekligining markazi bo‘lib, Buxoro shahridan janubi-sharqda, Qashqadaryo daryosi quyi oqimining chap qirg‘og‘ida joylashgan. Devorlar bilan o‘rab olingan ushbu shahar nafaqat savdo-iqtisodiy markaz, balki siyosiy va madaniy markaz sifatida ham amirlikda Buxoro va Samarqanddan keyingi o‘rinda turgan. Taxt vorisining qarorgohi ham Qarshi shahrida joylashgan.

Tadqiqotchi J. Berdiyev o‘z ilmiy ishlarida vohadagi eng yirik ma’muriy hududlardan biri bo‘lgan Qarshi (shahar va uning atroflari) bekligi asosan amirning taxt vorisi tomonidan boshqarilganligini qayd etib o‘tadi. U ham bu ma’lumotni D.Logofetning “Бухарское ханство под русским”[4] asariga tayanadi. Bekliklar o‘z navbatida amlokdorlarga bo‘lib idora etilgan. Misol uchun, Qarshi bekligi 15 ta, Kitob bekligi 9 ta, Shahrisabz bekligi 14 ta, Yakkabog‘ bekligi 11 ta, Chiroqchi bekligi 6 ta, G‘uzor bekligi 6 ta amlokdorlikka bo‘lingan[5]. XVIII asrning o‘rtalaridan boshlab shahar O‘rda (ark), qo‘rg‘on va qal’adan iborat bo‘lib, keyingi davrlarda kengayib borgan[6].

Tadqiqot metodologiyasi. Amirlikda nufuzi jihatdan mavqeyi biroz yuqori bo‘lgan G‘uzor bekligi o‘zining iqtisodiy va siyosiy ahamiyati bilan alohida e’tiborga sazovor edi. G‘uzor bekligi hududida istiqomat qilgan aholining asosiy tarmoqlaridan biri qishloq xo‘jaligi bo‘lib, G‘uzor daryosi va Qashqadaryo bu yerlarning suv manbalaridan biri hisoblangan. Tadqiqotchi olim D.N. Logofetning ma’lumotlariga ko‘ra, G‘uzor bekligida yil davomida yuqori hosil olish mumkin bo‘lgan yerlar mavjud edi[7].

G‘uzor bekligining boshqaruv markazi – G‘uzor shahri bo‘lib, u Qarshi, Kunchiqar va Charmgar darvozalari, shuningdek, Xo‘jag‘uzor, Charmgar, Boyg‘uzor va Toshqo‘rg‘on kabi mahallalar bilan o‘ralgan. Bu haqida A.Ernazarovning tadqiqotlarida ayrim ma’lumotlar qayd etib o‘tiladi. Shuningdek, tadqiqotchi shahar qal’asining xarobalari XVIII asrgacha saqlanib qolganligini, XIX asrning boshlarida ular xaroba holga kelib qolganligini qayd etib o‘tadi. Bugungi kunda G‘uzor shahrida yangi ma’muriy inshootlar va boshqa imoratlar qurildi[1]. Qarshi shahri bilan G‘uzorni tutashtiradigan yo‘lning shimoli-sharqiy chekkasidagi Tutan darvozasi “G‘uzor darvozasi” deb ham nomlangan. Shahar aholisining katta qismi turli urug‘larga mansub bo‘lishiga qaramasdan, o‘zlarini “g‘uzorlik” deb atashgan. Ular orasida o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar ko‘p bo‘lsa, tojik tilida so‘zlashuvchilar ham kam emas edi.

Natijalar va muhokama. Qashqadaryo bekliklaridan G‘uzor bekligining tuzilishidagi o‘ziga xosligi, u bir qancha amlokliklardan iborat bo‘lgan. Har bir amloklik o‘zining qishloqlari va aholisiga ega bo‘lib, ularni mahalliy amlokdorlar boshqarishgan. Amlokdorlar o‘z hududlarida turli soliqlarni yig‘ish va ma’muriy ishlarni boshqarish bilan shug‘ullanishgan. Zakot va boshqa soliqlarni yig‘ish uchun beklikda bosh devonbegi boshchiligida zakotchilar faoliyat yuritgan. Ular soliqlarni yig‘ish, ma’muriy va xo‘jalik ishlarini amalga oshirishda katta rol o‘ynagan. Mahalliy boshqaruv tuzilmasida qozilar, ruhoniylar va boshqa mansabdorlar ham muhim o‘rin tutgan. Shuningdek, G‘uzor bekligining diniy boshqaruv tizimi ham ahamiyatli bo‘lgan. Din kishilari, ya’ni qozilar, muftilar, a’lamlar va boshqalar beklikdagi diniy va huquqiy masalalarni boshqarishgan. Ularning asosiy vazifalari shariat qonunlarini talqin qilish, fatvo berish va madrasalarda ta’lim berish edi. Qozilar esa beklikdagi muhim vazifalarni bajarishgan. Ya’ni davlat boshqaruvida sudlov va nazorat ishlarini olib borishgan. Amirlik va G‘uzor bekligidagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizimlar boy yer egaligi (feodal) tuzilishga asoslangan bo‘lib, unda yer egalarining asosini boy savdogar qatlamlari va ruhoniylardan iborat bo‘lgan. G‘uzor bekligida mahalliy boshqaruvni iqtisodiy va huquqiy mansab egalari va amlokdorlar tomonidan amalga oshirilgan. Albatta boshqaruvning bunday tizimi beklikda tashkil etilgan kuchli ijtimoiy tuzilishni va siyosiy barqarorlikni ta’minlab turgan.

Bu davrda G‘uzor bekligining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, beklikning bosh boshqaruvchisi “to‘ra” deb yuritilib, ular Buxoro amirligini boshqargan Mang‘it sulolasiga mansub bo‘lishgan. To‘g‘ri, amirlikdagi Qarshi, Chiroqchi, Yakkabog‘ kabi

bekliklarni ham ushbu sulolaga mansub amaldorlar boshqargan, biroq ularning ayrimlarida bu holat muntazamlik kasb etmagan. Qarshi bekligida Mang‘it sulolasiga mansub valiahd shahzoda boshqaruvda bo‘lib, bu jihatdan G‘uzordagi to‘ralar ulardan farq qilgan. G‘uzor bekligiga Buxoro amiri tayin etgan “to‘ra” rahbarlik qilgan bo‘lsa, qolgan lavozimlarda “rais”, din peshvolari, mingboshi, sadrlar, yuzboshi, mahalla oqsoqollari, to‘raning yaqin kishilari turgan. Aslida bunga o‘xshash holat amirlikka qarashli boshqa bekliklarda ham amal qilgan.

Shunday qilib, G‘uzor bekligi Buxoro amirligi tarkibida muhim siyosiy va iqtisodiy markazlardan biri sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlab borgan. Uning o‘ziga xos boshqaruv tizimi va iqtisodiy infratuzilmasi, xususan, qishloq xo‘jaligi va savdo tarmoqlarining rivojlanishi, beklikning nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy va madaniy hayotida ham ahamiyatli rol o‘ynashiga imkon yaratdi.

Buxoro amirligida Shahrisabz va Kitob bekliklari ham nufuzi jihatdan (XVIII-XIX asrlarda) Qashqadaryo vohasidagi yirik bekliklardan biri bo‘lgan. Shahrisabz shahar mustahkam himoya devorlari bilan o‘ralgan bo‘lib, bu devorlarda 6 ta darvoza mavjud edi: Kunchiqar, Qarshi, Charmgar, Chaqar, Teparlik va Kitob. Shahar markazida qo‘rg‘on bo‘lib, unda Shahrisabz begi (hokimi) va uning yaqinlari istiqomat qilgan. Bu qo‘rg‘on mahalliy xalq orasida “Shahrisabz Afrosiyobi” nomini olgan. Shaharning markazidagi bek qo‘rg‘oni oldida shahar maydoni bo‘lgan va bu maydon registon deb atalgan. Shahrisabz 52 ta guzarga bo‘lingan. Shahar markazida Chorsu bozori joylashgan va shahar darvozalaridan o‘tgan yo‘llar bozorga olib borgan. Shahrisabz bekligining markazi bo‘lgan Shahrisabz shahri o‘zining ahamiyati va kattaligi jihatidan XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligida uchinchi shahar hisoblangan.

H.Kamolova tadqiqiotlarida Buxoroda bo‘lgan rus sayyohi doktor Yavorskiy asarlariga tayanib Shahrisabz bekligi markaziy hokimiyatga taqlid qilib, xuddi amir saroyidagidek o‘z mansab va mansabdorlarini saqlagan. Buxoroda har bir bek o‘zini hududning yakka egasi deb hisoblaydi. Har bir bek o‘zining bir oz kichikroq va kamroq bo‘lsa-da, mansab va vazifalar mavjud saroyiga ega, deb ko‘rsatadi.

Kitob bekligi ham Qashqadaryo vohasining asosiy ma’muriy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lgan. Kitob bekligi asosan tog‘ va tog‘oldi hududlari amlokliklaridan iborat bo‘lib, markazi Kitob shahrida bek qo‘rg‘oni joylashgan. Bu qo‘rg‘on hududida saroy, otxona, masjid, 2 ta qabulxona, hududida hovuzi bo‘lgan ichki hovli, ayvon mavjud edi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoro amiri Kitob begi qarorgohidagi ichki hovlida tez-tez kelib turgan va bu yerda amirning 250 kishilik sarbozlari doimiy yashagan.

Qashqadaryo vohasidagi beklik markazlaridan yana biri bo‘lgan Yakkabog‘ shahri janubda tog‘lar bilan o‘ralgan va shimoli-sharqda Shahrisabz bekligi bilan chegaradosh edi. Beklik markazi Yakkabog‘ (Qizilsuv) daryosi yuqori oqimining har ikkala qirg‘og‘idagi tekislikda joylashgan. Beklik markazining asosiy qismi va bek qarorgohi eski qo‘rg‘on tekislikdan ancha baland bo‘lgan tepalikda qurilgan. Qo‘rg‘onning markazida bek qarorgohi joylashgan va uning atrofi 2-3 qator mudofaa devorlari bilan o‘ralgan. Atrofdagi qalin bog‘lar va chinorlar bugungi kungacha mavjud. Qo‘rg‘on qarshisidagi maydonda shahar madrasasi joylashgan bo‘lib, atrofi bog‘lar, daryolar va boshqa tabiatning chiroyli manzarasidan iborat bo‘lgan. D. Logofetning ta’kidlashicha, Beklik markazining aholisi 5000 kishidan iborat bo‘lgan.

Tadqiqotchi J.Berdiyev amirlik tarkibidagi Qashqadaryo vohasi bekliklaridagi aholi soni va uning milliy tarkibiga doir ma’lumotlarni to‘plab ilmiy va statistik jihatdan aniqlashtirib, quyidagicha xulosalar berib o‘tadi: Qashqadaryo vohasida jami 434.494 nafar aholi istiqomat qiladi, ularning 62.374 nafari shahar aholisi bo‘lib, bu 14,3 foizni tashkil etadi. Qishloq aholisi 372.120 nafarga, ya’ni 85,7 foizga teng. Qishloq mahallalaridagi aholining etnik tarkibiga ko‘ra, o‘zbeklar 80,7 foizni, tojiklar 11 foizni, arablar 4,7 foizni va boshqa millat vakillari 3,6 foizni tashkil etadi. Shahar aholisi orasida esa, o‘zbeklar 95,5 foizni, tojiklar 0,6 foizni, arablar 0,6 foizni, mahalliy yahudiylar 3,3 foizni va boshqa millat vakillari 0,5 foizni tashkil qiladi.

Chiroqchi bekligi ham Buxoro amirligining muhim ma’muriy-hududiy bo‘lagi hisoblangan. Beklik Qashqadaryo vohasida joylashgan bo‘lib, janubda G‘uzor, shimolda Shahrisabz va Kitob bekliklari, sharqda esa Qarshi bekligi bilan chegaradosh bo‘lgan. Beklik aholisining ko‘pchiligi chorvachilik bilan shug‘ullangan va yarim ko‘chmanchi turmush tarziga ega edi. Chiroqchi bekligining ma’muriy tuzilishida har bir amlok mustaqil boshqaruvga ega bo‘lib, ammo ularning barchasi Buxoro amirligiga bog‘langan va amirlik

markaziga soliq to‘lashgan. Shu tariqa, Chiroqchi bekligi aholisining xo‘jalik turmush tarzi va iqtisodiy-maishiy hayotini tahlil qilish orqali, ushbu ma’muriy-siyosiy birlik tarixi haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Chiroqchi bekligi Buxoro amirligining dashtlik hududlaridan biri bo‘lib, aholisi asosan chorvachilik bilan shug‘ullangan. XIX asrning ikkinchi yarmi — XX asr boshlarida, beklik ko‘plab ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlarda ishtirok etgan. Bu davrda beklikda aholining o‘troqlashuvga o‘tishi va ko‘plab qishloqlar paydo bo‘lishiga olib keldi. Aholi sonining oshishi natijasida, XX asr boshlarida Chiroqchi bekligi nafaqat Qashqadaryo vohasida, balki Buxoro amirligidagi o‘nlab bekliklar orasida aholisi ko‘p bo‘lgan hududlardan biriga aylandi.

Xulosa va takliflar. Ayrim tadqiqotlarda Qashqadaryo vohasidagi ko‘plab qishloqlarga ega bo‘lgan Chiroqchi bekligi, garchi amloklari birmuncha oz bo‘lsa-da, aholi soni jihatdan anchagina ko‘p bo‘lganligi bilan ajralib turishi ta’kidlab o‘tiladi. Shuningdek, yettita amlokka bo‘lingan ushbu beklik tarkibida 125 ta qishloq bo‘lib ularning asosiy qismini Buxoro amirligi davrida o‘troqlashgan aholi guruhlarini tashkil etadi. Ushbu fikrni har bir amlok tarkibidagi ko‘chmanchi o‘zbeklar bilan bog‘liq o‘nlab qishloq nomlarini tashkil etishi ham tasdiqlaydi. Misol uchun Chiroqchi bekligining shimoliy qismidagi Besh-chashma amlokida 32 ta qishloq joylashgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligida saroy urug‘iga, Beklamish amlokida uz urug‘iga, Chiyal amlokida qutchi urug‘iga, qolgan amloklarda esa asosan chuyut, saroy va qutchi urug‘iga aloqador aholi vakillari istiqomat qilishgan. Shuningdek, Chiroqchi viloyatidagi ayrim qishloqlarda qipchoq, uyshun, mang‘it, qalmoq, sanchqli, achamayli, qirg‘iz, juz kabi o‘zbek urug‘lari vakillari yashagan. Shu o‘rinda xulosa qilish mumkinki, Chiroqchi viloyatidagi har bir amlokni ushbu urug‘larga mansub amlokdorlar boshqarishgan[9].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ernazarov A. G‘uzor bekligida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). diss. – Qarshi, 2023. – B. 29.
2. Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. –T.: Yang asr avlodi. 2019. -B.95.
3. Ziyayeva D.X. O‘zbekiston shaharlari XIX asrning ..., – B. 7.
4. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторам России. Т.II. –СПб. 1911. – С. 240.
5. Berdiyev J. Janubiy O‘zbekistonda shaharsozlik va urbanizatsiya. (XVIII-XXasr boshlari). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). diss. – Qarshi. 2021. – B. 45-63: Safarov D.T. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Quyi Qashqadaryo aholisi (tarixiy-etnografik ma’lumotlar) // Qadimiy Qarshi. O‘rta Osiyo shaharsozligi va madaniyati tarixi. – Qarshi: Nasaf, 1999. – B.152.
6. Xoliqulov A.B. XIX–XX asr boshlarida Qashqadaryo vohasi bekliklarida savdo-sotiq (Qarshi shahri bozori misolida) // O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolari. Ilmiy to‘plam. – Toshkent: Tafakkur, 2009. – B. 244-245.
7. Логофет Д.Н. Страна бесправия. Бухарское ханство и его современное состояние. – СПб.: Б.И., 1909. – С. 39.
8. Ergashev U. G‘uzor bekligi amloklari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Proceedings of International Educators Conference. ISSN: 2835-396X Date: 25th February, 2024. – Б. 216.
9. Abduraimova S. Buxoro amirligi davrida Chiroqchi aholisining hayoti. Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. Hosted online from Moscow, Russia. 2024. – Б. 21-24.

XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHIDA ROSSIYA IMPERIYASIDA NOTARIAL IDORALAR FAOLIYATI TARIXI

Xoliqulov Sherzod Bozorovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o‘qituvchisi, PhD
sherzod0102@mail.ru
ORCID 0009-0006-4463-762X

UDK 9(575.141)

Annotasiya. Maqolada notarial qismlar haqidagi Nizom loyihasi, loyihaga kiritilgan moddalar sharhi keltirilgan. Shuningdek, notarial organlarda ishlovchi kadrlarga talab va ehtiyojlar o‘rganilgan. Notarial qismlar haqidagi Nizomning ahamiyati, davlat organlari tizimida notarial idoralar o‘rnini aniqlash, notariuslarning davlat xizmatchilari sifatidagi maqomini belgilash, davlat tomonidan notarial idoralar xodimlariga maosh to‘lash masalasini hal qilishga urinishlar masalalari tahlil qilingan. Rossiya imperiyasi qonunchiligida notariuslar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xizmat vazifasini suiiste’mol qilish holati sodir bo‘lgan taqdirda, ular ustidan nazorat o‘rnatilgan. Okrug sudlari o‘z vakolati doirasida ularning hisobida turgan uyezdlarda guvohnomalar berish, notariuslar faoliyati va kitoblarini nazorat qilish kabi vazifalarni sudning uyezd bo‘yicha a’zolaridan biriga yuklatilgan. Notariuslar bo‘lmagan hududda uning vazifalari okrug

sudining uyezd a’zolaridan biriga yoki mirovoy, u ham bo‘lmagan hollarda shahar sudlari zimmasiga yuklatilgan. Shuningdek, notarius lavozimini egallamoqchi bo‘lgan shaxslarga qo‘yiladigan talablar, ularning xizmat vazifalari, notariuslarning huquq va majburiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Notarial qismlar haqidagi Nizom, notarius, notarial hujjatlar, mirovoy sudyalar, shahar sudlari, notarial xatti-harakat, sudlov muassasalari.

HISTORY OF THE ACTIVITY OF NOTARY OFFICES IN THE RUSSIAN EMPIRE IN THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY - THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

Abstract. The article deals with a review of the draft Regulation on notarial divisions, articles included in the draft. As well as, the demand and needs of personnel working in notary bodies were studied. The importance of the Regulation on notarial parts, determining the place of notary offices in the system of state bodies, defining the status of notaries as public servants, and attempts to solve the issue of paying salaries to employees of notary offices by the state were analyzed. In the case of abuse of duty, which is allowed by notaries in the legislation of the Russian Empire, control over them has been established. Within the scope of their authority, district courts are assigned to one of the district members of the court to issue certificates, control the activities and books of notaries in the districts under their jurisdiction. In areas where there are no notaries, his duties are assigned to one of the members of the district court or, in cases where he is absent, to the city courts. Also, the requirements for persons who want to take the position of notary, their duties, the rights and obligations of notaries are explained.

Key words. Status of notarial division, notary, notarial documents, civil court, city court, notarial deed, judicial office.

Kirish. Turkistonda notarial idoralar faoliyati mustamlaka ma’muriyati sud tizimi hamda asrlar davomida shakllanib va muomalada bo‘lib kelgan islom shariati normalari bilan chambarchas bog‘langan holda o‘ziga xos shakllanish va taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tdi. Turkiston o‘lkasida rus ma’muriyati boshqaruvining joriy etilishi, sud tizimida amalga oshirilgan islohotlar, aytish kerakki, bu yerda mavjud bo‘lgan udum va an’ana, qonun-qoidalarni tez fursatlar ichida muomaladan surib chiqarishni nazarda tutgan emas va bunga mahalliy aholi ham yo‘l qo‘ymas edi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, Chor Rossiyasining bosqinchilik harakatlari keyingi bosqichda bu yerda rus ma’muriyatini qaror toptirish, rus ma’murlari yoki ularga xayrixoh amaldorlar boshqaruviga keng yo‘l ochib berish, o‘lka boshqaruvini muvofiqlashtirish nuqtayi nazaridan Turkiston general-gubernatorligi rahbarligi ostidagi butun boshli tizimni shakllantirish ko‘zda tutildi va bu tadbirlarning barchasi bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Shu jumladan, Turkiston o‘lkasining sudlov tizimini qayta ko‘rib chiqish, o‘zgartirish, qo‘shimchalar kiritish, yangi huquqiy tizimlarni shakllantirish yuzasidan qator islohotlar olib borildi. Bu mazkur tadqiqot doirasida o‘rganilgan notarial idoralar faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi, notariuslar va ularning vazifalarini bajaruvchi huquq-tartibot idoralari amaldorlarining faoliyatida ham ko‘rib o‘tiladi. Turkiston o‘lkasida mustamlaka ma’muriyatining qaror topishi va bunda notarial idoralarning alohida institut sifatidagi faoliyatini tartibga solish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar mohiyatini tushuntirish nafaqat vatan, balki jahon tarixida ham muntazam o‘rganishni talab etadigan muammolardan biri sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu mavzu o‘zining ko‘lami jihatidan ko‘plab tadqiqotlar olib borilishi uchun asos bo‘lgan. E’lon qilingan ilmiy tadqiqot natijalarini shartli ravishda vatan va xorijlik mualliflar misolida o‘rganish o‘rinlidir. Markaziy Osiyo mintaqasining podsho Rossiyasi tomonidan bosib olinishining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy oqibatlarini tahlil qilgan vatandosh tarixchilar – T.Sultonova[1], F.Isxakov[2], N.Abdurahimova[3], F.Bakirov[4], B.Ergashev[5], Sh.G‘afforov va boshqalar barcha masalalar qatorida Turkistonda sud idoralari faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi va 1917-yilga qadar bosqichma-bosqich isloh qilinishi tarixiga to‘xtalib o‘tadilar. Xorij, shu jumladan, Turkiston o‘lkasida podsho Rossiyasi sudlov tizimi asoslarining yaratilishi tarixi borasida N.I. Kraft [6], B.N. Kaplun [7], N. Fioletov [8], N. Likoshin[9], N. Mayev[10], V. Nalivkin[11], V. Gessen[12], S.N. Tregubov[13] singari rus ma’murlari, sayyohlari va tarixchilarining qaydlari, esdaliklari va asarlari birlamchi manba vazifasini bajaradi. Ushbu mualliflarning asarlarida Turkistonni boshqarish bo‘yicha qonunchilik aktlarini ishlab chiqish jarayoni, sudlov tizimi asoslari, yangi davlat muassasalari, moliya tizimlarini joriy qilish

to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlar bilan bir qatorda, mualliflar mintaqada an’anaviy bo‘lgan chorizm tomonidan saqlab qolingan ijtimoiy-huquqiy institutlarni har tomonlama tahlil qilishga urinmaydilar. Asosan bu tuzilmalar almisoqdan qolgan va qoloq deb ta’riflanib, ularning o‘lkada vaqtinchalik saqlab qolinishi mahalliy aholi “chorizm afzalliklari”ni qabul qilish darajasiga hali o‘sib yetmagani bilan izohlangan. Bundan tashqari, zamonaviy tarixshunoslikda I.V. Anisimova[14], A. Soliyev[15], D.A. Glazunov[16], L.S. Nesterenko[17], K.L. Vasin, singari MDH davlatlari tarixchilari ushbu masala borasida o‘z qarashlarini bayon qilganlar.

Turkistonda sud organlari va notariuslar faoliyati masalasi boshqa xorijiy mamlakatlar tadqiqotchilaridan D. Brouer[18], R.D. Kryus[19], A. Donelli[20], J.T. Metyu[21], P. Sartori va U. Abdurasulov[22], Sartori Paolo[23] va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Natijalar va muhokama. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasida notarial idoralar faoliyatini muvofiqlashtirishning normativ-huquqiy asosini Rossiya imperiyasining XVI qonunlar to‘plami birinchi jildiga kiritilgan “Notarial qismlar haqidagi Nizom” tashkil etardi. Dastlab mazkur Nizom 217 moddadan iborat bo‘lib, uning 1-41 moddalari notarial qismlarni tashkil etish haqida, 42-56 moddalar notarial arxivlar va bosh notariuslar haqida, 57-64 moddalar notariuslarni nazorat qilish va ularning javobgarligi haqida, 65-192 moddalar kichik va bosh notariusning huquqiy maqomi va harakat doirasi, 192-217 moddalar esa notarial xatti-harakatlar bilan bog‘liq to‘lovlar haqida edi. 1866-yilda notarial qismlar haqidagi Nizom qabul qilinib, birmuncha keyinroq, ya’ni 1875-yilda sobiq Polsha qirolligi, 1889-yilda Boltiqbo‘yi guberniyalariga joriy qilinishi ortidan yuqoridagi 217 moddaga yana 160 ta qo‘shimcha moddalar qo‘shildi[24].

Notarial qismlar haqidagi Nizomning ahamiyati davlat organlari tizimida notarial idoralar o‘rnini aniqlash, notariuslarning davlat xizmatchilari sifatidagi maqomini belgilash, davlat tomonidan notarial idoralar xodimlariga maosh to‘lash masalasini hal qilishga urinish bilan belgilanadi.

Loyiha notariuslarga ko‘chmas mulk bo‘yicha hujjatlarni rasmiylashtirish huquqi berilishi, lekin bu hujjatni tasdiqlashni ko‘chmas mulk joylashgan hududga daxldor sud organlariga taqdim qilish belgilandi. Bu sud organlarini turli ma’lumotlar uchun to‘lovlar undirish majburiyatidan xolos qilishi kerak edi. Biroq sud komissiyalari ushbu masalani o‘zgacha tarzda hal qilishni ma’qul deb topdi: dastlabki sud komissiyasining fikricha notarial faoliyat yetarlicha tushum keltiruvchi soha emas, shu boisdan davlat tomonidan notariuslarda maosh to‘lanishi zarur sanalgan; ikkinchi sud komissiyasi mamlakatda notariuslarning ikki turini tashkil qilish lozim bo‘lib, ular davlat notariuslari hamda ommaviy notariuslar bo‘lib, ular o‘rtasidagi tafovut ularga belgilanadigan mehnat haqqi orqali anglashilishi taklif qilindi. Nizom tomonidan tomonlar kelishuviga ko‘ra notariusning xatti-harakatlari yuzasidan uni mukofotlash tartibining belgilanishi zamondoshlar fikricha mavjud qonunchilikning asosiy kamchiliklaridan biri bo‘lgan[25]. Davlat boji kelishuv bo‘lmagan taqdirda undirilardi. Shuni aytish kerakki, shu davrda xorijiy mamlakatlarda notariuslar mehnati davlat tomonidan belgilangan boj hisobiga rag‘batlantirilgan. Ixtiyoriy kelishuv esa notariuslar tomonidan amalga oshirilgan xatti-harakatlarning noqonuniy deb tan olinishiga ham sabab bo‘lishi mumkin edi. Xalq orasida notariuslik faoliyati, uning oladigan katta miqdordagi daromadi bilan bog‘liq degan tushunchaning tarqalishiga sabab bo‘lgan. Barcha notariuslarni moddiy jihatdan ta’minlash uchun ularni davlat xizmatida turuvchilar safiga kiritish, amaldorlik rutbasini olishiga imkon berish, maosh, nafaqa, bolalar va bevalar uchun beriladigan yordam puli singari huquqlarga ega ekanligini tan olish kerak edi. Tabiiyki, to‘lov qilish haqidagi shartnomaviy kelishuvning mavjudligi notariuslar faoliyatining tijoriy ko‘rinish kasb etishiga va ular o‘rtasida raqobatning kuchayishiga sabab bo‘lardi. Bir so‘z bilan aytganda, notarius yarim amaldor, yarim tijoratchiga aylanardi. Aholi orasida notariuslarga nisbatan ishonchsizlikning paydo bo‘lishi va ularni turli yo‘llar bilan ko‘proq haq undirishga undovchi harakatlarni sodir etishlari, qonundan tashqari holatlarda, ayniqsa kichik aholi punktlarida o‘z xohishlaricha harakat qilishlariga keng yo‘l ochib berardi. Notariuslar o‘zlari hisobda turgan okrug sudlariga qonun-qoidalarning tatbiq qilinishi yuzasidan murojaat qilishlari mumkin bo‘lmagan, bil’aks qo‘rquv va tavakkal qilib, munozarali huquqiy masalalarni hal qilishlari

kerak edi. Uning fikricha agar qonunni sudyalar buzadigan va noto‘g‘ri hukm chiqaradigan bo‘lsalar, yuqori sudlov organlari uni haqiqiy hisoblash mumkin emasligi haqidagi qarorni chiqarishlari mumkin. Agar notarius bunday xatolikka yo‘l qo‘ysa, u ham jinoiy ham moddiy javobgarlikka tortilardi. Nizomda belgilangan tartib qoidalarni va amaliyotda qo‘llanilgan notariuslar xatti-harakatlarini tahlil qilgan olimlar notariuslik darajasini ham qayta ko‘rib chiqishni taklif qilishardi. Ularning fikricha, notariuslarni sudlov organlari oilasidan alohida ajratib ko‘rsatish kerak emas, ular ham boshqa huquqni himoya qiluvchi organ xodimlari va jamoat arbobi sifatida shunday huquqlarning hech bo‘lmaganda bir qismiga ega bo‘lishlari kerak edi[26]. Notarial qismlar haqidagi Nizom loyihasini taqdim qilgan baron M.A. Korfu notarial hujjatning yuridik kuchini ta’minlash masalasini ham alohida o‘rganib chiqishni taklif qiladi. Davlat kengashining birinchi sud komissiyasi ishida ishtirok etganlarning kamchiligi notarial xatti-harakatlar bo‘yicha hujjatning xuddi sud hukmidek yuridik kuchga ega bo‘lishi, ya’ni notariuslar to‘ldirgan hujjat asosida uning bajarilishini ham nazorat qilishlari kerak degan fikrni yoqlab ovoz berdilar. Ikkinchi sud komissiyasida ushbu masala bo‘yicha ovoz berganlar sanoqligina bo‘ldi. M.A. Korfuning o‘rniga tayinlangan V.N. Paninning fikricha, 1864-yilning 20-noyabrida qabul qilingan sud Nizomida har qanday hujjat sud qarorisiz yuridik kuchga ega emasligi to‘g‘risidagi alohida band kiritilganligini hisobga olib, ushbu masalani notarial qismlar haqidagi Nizomda yana bir marotaba ko‘rib chiqishni zarur emas deb hisobladi. Graf Paninning qarashlarini to‘g‘ri deb hisoblagan Davlat Kengashi “Notarial hujjatlar” deb atalgan IV bo‘limni Sud nizomidan chiqarib tashladi. Nizomda notarial hujjatlar 1864-yilgi Fuqarolik sudi nizomida ko‘zda tutilgan tartib asosida yuridik kuchga ega ekanligi haqidagi band qoldirildi .

Shu bilan birga, notarial arxivlar masalasida ham bir-birini inkor etuvchi fikrlar yuzaga chiqdi. Adliya vaziri D.N. Zamyatnin notariuslarga keng imkoniyatlar berish, shu jumladan, har bir notariusga o‘z arxiviga ega bo‘lish borasida kiritgan takliflari kengash a’zolari tomonidan keskin tanqidga uchradi. O‘sha davrda Fransiyada davlat notariuslar mulki sanalgan arxivlarni sotib olib, o‘z mulkiga aylantirishga harakat qilayotgan, biroq arxiv egalari tomonidan ularga katta miqdorda narxning belgilanganligi mazkur arxivlarda saqlanayotgan materiallarni davlat mulkiga aylantirishga imkon bermasdi. V.N. Panin ham bunday muhim hujjatlarning shaxsiy uylarda saqlanishi qonun-qoidaga to‘g‘ri kelmasligi haqida fikr bildirdi. Bahs-munozaralar natijasida Nizomning 42-moddasi quyidagi tartibda o‘zgarishlar bilan qabul qilindi. Krepostnoylik, man qilish va ruxsat berish kitoblari, shuningdek, reyestr, hujjatlar, bayonnomalar, notariuslar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning muhri va imzosi tushirilgan hujjatlarni saqlash maqsadida tashkil qilinadigan arxiv qat’iy ravishda har bir okrug sudi qoshidagi bosh notarius ruxsati bilangina o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yishi mumkin edi. Xorij tajribasidan kelib chiqib, 1863- yilgi notarial qismlar haqidagi Nizom loyihasiga notariuslarning yordamchilarga ega bo‘lish haqidagi bandi kiritildi, biroq yakuniy Nizomda ushbu holat tushirib qoldirildi.

Notarial organlarda ishlovchi kadrlarga talab ham o‘zgardi. Notarius yoki makler bo‘lish istagidagi kishidan esa 1857-yilda qabul qilingan Qonunlar to‘plamida belgilab berilganidek, faqat ilmli shaxs bo‘lishi talab etilardi (shunisi qiziqki, rus qonunlarida ham, qonunosti hujjatlarida ham nomzodlarning ilmli bo‘lishi masalasi aniq ko‘rsatilmagan edi – X.Sh.). 1866-yilgi Notarial qismlar haqidagi Nizomda notarius lavozimini egallamoqchi bo‘lgan shaxsga quyidagi talablar qo‘yilgan:

- rus fuqaroligini olgan bo‘lishi;
- voyaga yetgan shaxs bo‘lishi;
- jinoiy javobgarlikka tortilmagan shaxs bo‘lishi;
- boshqa davlat va jamoat lavozimlarini egallamagan bo‘lishi kerak edi.

Bundan tashqari, 1887-yilning 6-iyunidagi Adliya vaziri chiqargan talabnomaga muvofiq, yahudiylarning notarius vazifasini egallashlari qat’iy ta’qiqlangan[27].

Notariuslarni o‘z mansabiga tayinlash yoki vazifasidan ozod qilish sud palatasi bosh raisi tomonidan okrug sudi raisining taqdimotiga ko‘ra amalga oshirilgan. Notariuslar sud jarayoni va dastlabki tergov vaqtida ham ma’lum muddatga lavozimidan chetlatishi mumkin bo‘lgan. Qonun notariusga davlat nomidan yuridik hujjatlarga guvohnoma yozib berish

huquqini ham taqdim qilgan. 35 yildan yuqori vaqt davomida o‘zini ko‘rsatgan notariuslarni Muqaddas Anna va Vladimir ordeni bilan taqdirlash tartibi belgilangan. U nizomning 8 moddasiga muvofiq sud raisi bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmagan, 19 moddada belgilanganidek advokatlik faoliyatini olib bora olmagan. Notarial idora uchun joy notariusning xohishiga qoldirilgan. Shu bilan birga, ularning tijoriy ishlar bilan shug‘ullanishlariga ham ruxsat berilgan. Notarial qismlar haqidagi Nizomga ko‘ra notariuslar o‘z nomidan yoki turmush o‘rtog‘i va yaqin qarindoshlari nomidan uning vasiyligidagi shaxslar va asrab olingan farzandlari nomidan ham ish ko‘rish huquqiga ega bo‘lmaganlar. Yuqorida nomlari keltirilgan shaxslar ishtirokida tuzilgan shartnomalar va xatti-harakatlarning barchasi noqonuniy hisoblangan. Notariuslarning jinoiy va ma’muriy javobgarlikka tortilishi boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solingan.

Xizmat davomida notarius tomonidan yo‘l qo‘yilgan har qanday xatolik va jinoyat okrug sudi raisi yoki prokuror tomonidan sudga belgilangan tartibda xabar qilingan. Sud ham notariusni eshitgach, uni o‘z mansabida qoldirish yoki qoldirmaslik masalasini hal qilardi. Sud xulosasi sud palatasi raisiga yetkazilishi va u ham notariusning xatti-harakatlarini noqonuniy deb hisoblagan taqdirda ishdan chetlatishi va bu haqda adliya vazirligiga tegishli tartibda axborot berishi talab etilardi. Nizomning 64-moddasida olib borilgan xatti-harakatlar yuzasidan jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar hisoblab chiqilgan va bu masala okrug sudi ixtiyoriga topshirilgan. Korrupsiya bilan bog‘liq holatlar aniqlangan taqdirda bu haqdagi axborot ham dastlab okrug sudiga xabar qilingan va u tomonidan ko‘rib chiqilgan[28].

Notariusning ishi ko‘rib chiqilgan, okrug sud palatasi tomonidan chiqarilgan farmoyish kassatsiya tartibida qayta ko‘rib chiqilishiga yo‘l qo‘yilmagan[29].

Xatolik tufayli yoki ataylab boj undirilmagan holatlarda notariuslarga qat’iy tartibda pullik jarima qo‘llanilgan[30].

Biror bir fuqaroga moddiy zarar yetkazgan notarius sud qilingan va moddiy zararni qoplab berish majburiyati yuklatilgan va boshqalar.

Notariusning xatti-harakatlari ustidan shikoyatlar ham okrug sudiga yetkazilgan. Shikoyat berilgach ikki hafta muddat ichida u ko‘rib chiqilishi yoki inkor etilishi mumkin edi.

Kichik va bosh notariuslar ustidan nazorat qilish sud idorasining vakolatli xizmatchisiga yuklatilgan.

Tijorat ishini yaxshilash maqsadida, jumladan, tijoriy maqsadlarda tezkor va qulay kelishuvlarga erishish uchun Rossiya imperiyasining yirik savdo va port shaharlarida hukumat xayrixohligi bilan birja maklerlari faoliyat yuritgan. Ular ko‘p hollarda kichik notariuslar vakolatiga kirgan ishlarni qilish huquqiga ega bo‘lganlar. Birja maklerlari har yili savdo va manufaktura departamenti tomonidan tikilgan, raqamlangan va muhr bilan tasdiqlangan alohida maklerlik kitobini olganlar. Moliyaviy kapital harakatlari, shuningdek, veksillik majburiyatlariga doir savdo operatsiyalari amalga oshirilgan qaydlar ushbu kitobga kiritilgan va ular yuridik hujjat sanalgan. Birja maklerlari orasidan tayinlangan birja notariuslari savdo va manufaktura departamentidan xorijiy fuqarolar bilan amalga oshirilgan kelishuv va boshqa shu kabi huquqiy hujjatlarni rasmiylashtirishga mo‘ljallangan qaydlar daftarini yuritganlar. Bu qaydlar daftariga 3 tilda (nemis, fransuz va ingliz) notariusning ismi-sharifi, shahar nomi, davlat gerbi va 3 tadan muhr qo‘yilgan. Birja notariuslari xorijiy fuqarolar bilan imzolangan shartnoma, kelishuv uchun to‘lov undirganlar yoki birja maklerlariga belgilangan davlat bojini undirishga haqli bo‘lganlar.

1866-yilda Rossiya imperiyasida qabul qilingan Notarial qismlar haqidagi Nizomning 20-21-moddalariga muvofiq, notariusga faqat o‘zi faoliyat yuritadigan okrug sudi hududida o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishga ruxsat berilgan. Notariuslarga ushbu hududdan tashqaridagi fuqarolarga xizmat ko‘rsatish taqiqlangan. Shunday holatlarda notarial harakatlar qonundan tashqarida deb hisoblangan. Notariusning o‘zi esa javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lgan. Ikkinchi tomondan notarius belgilangan hududda faoliyat olib borish asnosida garchi murojaat qiluvchi shaxslar ushbu notarial okrugdan tashqarida bo‘lgan hududlardan kelib murojaat qiladigan bo‘lsalar-da ularga xizmat ko‘rsatishi majburiy sanalgan. 1866-yilgi Nizom notariuslarning kasbi yuzasidan kelib chiqib, sir saqlash majburiyatini ham olganlar.

1866-yilgi Nizom notarial xatti-harakatlarni amalga oshirish va hujjatlar rasmiylashtirishdagi yagona tartib joriy qilinishini belgilab berdi. Oddiy notariuslar chaqiruvga ko‘ra hujjatlarni rasmiylashtirish, bosh notariuslar esa krepostnoylik holati bilan bog‘liq hujjatlarni rasmiylashtirishi belgilangan. 1866-yilgi Nizom notariuslar ish tartibini ham belgilab berdi. O‘z ish joyida 6 soatdan kam bo‘lmagan muddatda xizmat qilishi belgilangan notarius okrug sudi raisi buyrug‘iga ko‘ra ta’tilga chiqarilgan[31].

1867-yilning 27-iyunida notarial qismlar haqidagi Nizom hamda notariuslar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni mukofotlash haqidagi vaqtinchalik Nizomni amaliyotga joriy qilish tartibi to‘g‘risidagi qoidalar kuchga kirdi.

Xulosa va takliflar. XIX asr notariuslari o‘z harakatlarini qonundan chetga chiqmagan holda amalga oshirishlari lozim bo‘lgan. Notarius XIX asr qonunchiligida ko‘plab xato va kamchiliklar, shuningdek, javobini kutib turgan savollarga to‘lib-toshgan qonun doirasidan chetga chiqmagan holda harakat qilishlari, bir so‘z bilan aytganda, “qonun belgisi” ijrochisi bo‘lishi kerak edi. Rossiya imperiyasi Senatining fuqarolik masalalari bo‘yicha qarorlari juda kam edi. Sud amaliyoti esa tarqoq va tartibga solinmagan, ko‘p hollarda ish ko‘rib chiqilayotgan joy va tomonlar xohish-irodasi ifodasi bo‘lardi.

Sudlov muassasalari qarorining 420-moddasiga muvofiq endilikda notariuslar sud huzuridagi sud pristavlari darajasiga tenglashtirildi. Biroq sud organlari notarial xatti-harakatlarni davlat ishidan ko‘ra ko‘proq tijoratga daxldor deb hisoblaganlar. Nizomning 58 moddasida vaqti-vaqti bilan notarial idoralar faoliyatini tekshirish bo‘yicha ko‘zda tutilgan ishlar ko‘p hollarda nazoratchi sudyalar tomonidan ularning boshqa masalalar bilan bandligi sababli yetarlicha taftish qilinmas edi. Birmuncha keyinroq notariuslar va notarial arxivlar faoliyati okrug sudi nazorati ostidagi idoralarga o‘tkaziladi.

1899-yilning 19-mayida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf qilishning zaruriyati yuzaga kelganligi munosabati bilan notarial qismlar haqidagi Nizomning yangi loyihasini ishlab chiqish belgilandi va ishlab chiqilgan loyihalar keng xalq ommasiga muhokama uchun taqdim qilindi. 1899-yilgi loyihada notariuslar oylik maoshi bilan bog‘liq muammolar hal etilmadi. Bu esa o‘z navbatida nazariy va amaliy tayyorgarlikdan o‘tgan yuqori malakali notariuslarni ushbu sohaga jalb qilishga imkon bermasdi. Shuningdek, notarial xatti-harakatlarning okrug sudi tomonidan nazorat qilish masalasi ham hal etib berilmadi[32].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Султонова Т. Шариат қоидалари ва нотариал ҳаракатлар // Huquq va burch, 2009 йил 2-сон.
2. Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867–1917 гг.). – Т.: Фан, 1997.
3. Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда Чор мустамлака тизими. –Тошкент: Академия, 2002.
4. Бакиров Ф. Чор Туркистонида суд, шариат ва одат. – Т.: Фан, 1967.
5. Эргашев Б. Делопроизводственная деятельность канцелярии Туркестанского генерал-губернаторства. – Т.: Фан, 2015.
6. Крафт И.И. Судебная часть в Туркестанском крае и степных областях 1898 г. - Оренбург: типо-лит. П.Н. Жаринова, 1898. - 215 с.
7. Каплун Б.Н. Положение об управлении Туркестанского края. (Издание неофициальное). - Ташкент, 1903.
8. Фиолетов Н. Судопроизводство в мусульманских судах Средней Азии // Новый Восток. 1928. № 23.
9. Лыкошин Н. Пол жизни в Туркестане. Очерки быта туземного населения. - 1916.
10. Маев Н. А. Туркестанская выставка 1886 года - Ташкент: Типо-литография С. И. Лахтина, 1886.
11. Наливкин В.П. Полвека в Туркестане: биография, документы, труды . В режиме доступа: https://www.litres.ru/book/raznoe-4340152/polveka-v-turkestane-v-p-nalivkin-biografiya-dokumenty-trud-65912562/chitat-onlayn/
12. Гессен И. В. Адвокатура, общество и государство : 1864-20/XI.1914 - 1914.
13. Трегубов С.Н. Прокурорский надзор в народном суде Туркестанского края. Журнал Министерства юстиции. № 11-12. Спб.
14. Анисимова И.В. Проблема реформирования традиционной судебно-правовой системы Туркестана и Степных областей в конце XIX начале XX в.в. // Вестник Томского государственного университета, 2018, № 428. С. 44-53

15. Салиев А. Попытки инкорпорации традиционных судов Туркестана в систему судопроизводства Российской империи // Право и управление. XXI век. 2015. № 2 (35).
16. Глазунов Д.А. Подготовка судебной реформы 1898 г. в Степном генерал-губернаторстве // Социально-экономические и этнокультурные процессы в Верхнем Прииртышье в XVII–XX веках. Новосибирск : Параллель, 2011.
17. Нестеренко Л.С. Распространение судебной реформы 1864 г. в Туркестанском крае // Социально-гуманитарные и юридические науки: современные тренды в изменяющемся мире. - Краснодар: Премьер, 2012.
18. Brower, Daniel R. Turkestan and the Fate of the Russian Empire. London; New York: Routeledge Curzon, 2003.
19. Crews, Robert D. For Prophet and Tsar: Islam and Empire in Russia and Central Asia. Cambridge, Mass: Harvard University Press, 2006.
20. Donnelly, Alton. -The Mobile Steppe Frontier.‖ Russian Colonial Expansion to 1917. ed. Michael Rywkin. London: Mansell, 1988.
21. Thrasher, Matthew J., "How to Make a Colony: Reform and Resistance in Russian Turkestan, 1865-1917" (2010). German and Russian Studies Honors Projects. Paper 5.
22. Paolo Sartori and Ulfat Abdurasulov. Seeking Justice at the Court of the Khans of Khiva. Pages: 1–78, DOI: https://doi.org/10.1163/9789004427907_002, 2020.
23. Sartori Paolo. Sharia and cultural change in Russian Central Asia. Boston : Brill, 2016. | Series: Handbook of oriental studies. Section eight, Uralic and Central Asian studies ; Volume 24 | Includes. bibliographical references and index.
24. Тишкова А.Г. Положение о нотариальной части 1866 г.: историко-правовой источник. - Гуманитарные и социальные науки 2011. № 5. С. 174.
25. Фемелиди А.М. Русский нотариат. История нотариата и действующее нотариальное положение 14 апреля 1866 г. - СПб., 1902.
26. Попович М. Служебные права и материальная обеспеченность нотариусов в России // Нотариальный вестник. 1903. № 4. Электронный ресурс. С.3-4.
27. Черемных И.Г. Российский нотариат: прошлое, настоящее, будущее. - М., 1999. Электронный ресурс.
28. Стус Н.В. Уголовно-судебное право России в XII-XIX вв.: историко-правовое исследование. Дисс. на соиск.учеб.степ.докт.юрид.наук. - Белгород, 2015. - С.244.
29. Решение Сената 1878 г. № 65.
30. Решение Сената 1879 г. № 47.
31. Степанов А.В. Обязанности нотариуса при осуществлении профессиональной деятельности по Положению о нотариальной части. 1866 года. // Вестник Нижегородской академии МВД России, 2012, № 18, С 119-120.
32. Олейнова А.Г. История становления законодательства о нотариате в России. - М., 2004.
33. Андреева Ю.А. История становления российского нотариата // Нотариус. 2007. № 6. С. 14.

MANG‘ITLAR SULOLASINING BOSIB O‘TGAN TARIXIY YO‘LI

Ostonov Utkir Sanaqulovich
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi
ostonovutkir42@gmail.com
ORCID 0009-0004-7336-1867.
UDK 930.9: (390)

Annotatsiya. Mazkur maqola mang‘it sulolasining dastlab qanday paydo bo‘lganligi, ularning shakllanish jarayonlari haqida bayon etadi. Mang‘it so‘zining ma’nosi, sulolaning paydo bo‘lgan davri, mang‘itlardan chiqqan mang‘it xoni Edigay haqida va ularning keyingi faoliyati haqida hikoya qiladi.

Mang‘it. Mang‘itlar – yirik qabilalardan biri. O‘zbekiston hududida, 1923-1926- yillar ma’lumotlariga ko‘ra, mang‘itlarning umumiy soni 130 mingdan ortiq kishi. Shundan Buxoro xonligi hududida (100 ming kishi), Buxoro vohasi va Qarshi atrofida (44 ming kishi) o‘rta oqimda (10 ming kishi), Chorjo‘y tumanida (11 ming kishi), Jizzaxda (2600 kishi), Xorazmda (10 ming kishi) yashagan. Mang‘itlar qoraqalpoqlar va Shimoliy Kavkazdagi no‘g‘aylar tarkibida ham bo‘lgan, bir qismi esa Shimoliy Afg‘onistonda yashagan. O‘zbekistonda yashovchi mang‘itlar bir qancha yirik va mayda urug‘larga bo‘lingan. Eng yiriklari: Oq Mang‘it, Och Mang‘it, Qora Mang‘it, Chala Mang‘it, Boyg‘undi Mang‘it. Bulardan tashqari temirxo‘ja, isoboy, g‘aulak, ko‘sa, toz, qorabayir, baqirchi, kula, tamg‘ali, mang‘it qozoq, o‘n ikki cho‘qay, galabotir, beshkal, chobakchak, uz, uvolay va boshqalar. Mang‘itlar Buxoro xonligining siyosiy hayotida faol qatnashganlar. 1753-1920-yillargacha Buxoroni idora qilib kelgan xonlar Mang‘itlarning to‘q urug‘idan bo‘lgan, shu sababli xonlikda katta imtiyozlarga ega edilar.

Tayanch so‘zlar: Xunn qabilalari, yuechjilar, O‘g‘uzxon, “Shajarayi turk”, mang‘itlar urug‘i, urug‘lar, qabilalar, nog‘ay, Yesugay Bahodir, Temur Qutluqxon.

THE HISTORICAL PATH OF THE MANGITS DYNASTY

Abstract. This article describes how, the Mangit dynasty first appeared and the processes of their formation. It tells about the meaning of the word Mangit, the era of the dynasty, Mangit khan Edigay, who came from the Mangits, and their subsequent activities.

Mangit. Mangits are one of the largest tribes. According to the data of 1923-1926, the total number of Mangits in the territory of Uzbekistan is more than 130 thousand people. Of this, in the territory of the Bukhara Khanate (100 thousand people), around the Bukhara oasis and Karshi (44 thousand people), in the middle stream (10 thousand people), in Chorjoi district (11 thousand people), in Jizzakh (2600 people), in Khorezm (10 thousand person) lived. The Mangits were part of the Karakalpaks and the Nogai of the North Caucasus, and part of them lived in Northern Afghanistan. Mangits living in Uzbekistan are divided into several large and small clans. The largest are: white Mangit, och Mangit, black Mangit, (half) chala Mangit, baygundi Mangit. In addition to these, temirkhoja, isoboy, ghaulak, kosa, toz, karabayr, bakirchi, kula, tamgali, mangit Kazakh, twelve chokai, gala botir, beshkal, chobakchak, uz, uvolay and others. The Mangits took an active part in the political life of the Bukhara Khanate. The khans who ruled Bukhara from 1753 to 1920 were from the clan of the tuq Mangits, so they had great privileges in the khanate.

Key words. Hun tribes, Yuechjis, Oguzkhan, "geniological tree of Turk", clan of Manghits, clans, tribes, "Nogay", Yesugay Bahadir, Temur Qutluqkhan.

Kirish. O‘zbekiston tarixidan ma’lumki, Buxoro tarixida mang‘itlar sulolasi hukmronlik davri o‘z ahamiyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Bu sulolaning shakllanish jarayoni 100 yillarga borib taqaladi. Tarix silsilasida toblanib, turli hukmronlarga xizmat qilgan bu urug‘ vakillari vaqti kelib o‘z hukmronliklarini qo‘lga kiritishdi va O‘zbekiston tarixida o‘zlaridan o‘chmas iz qoldirdilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Mang‘itlar sulolasi tarixini yoritishda ko‘plab o‘rta asr, amirlik, keyingi davrda tadqiqotlar olib borgan ko‘plar manbashunos, tarixchi olim va allomalarning asarlaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. Mang‘itlar urug‘ining paydo bo‘lish tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Ushbu mavzuni yoritish maqsadida xalqlarning paydo bo‘lib shakllana boshlagan qadimgi davriga nazar tashlaymiz.

Urug‘lar, qabilalar eng qadimiy jamoalardir. Qabila sinfsiz jamiyatdagi etnik birlik va ijtimoiy tashkilot tipidir. Qabila a’zolari o‘tmishda bir-biriga qon-qarindosh bo‘lgan holda urug‘ va boshqa mayda bo‘lakchalarga bo‘lingan.

Qadimiy Turkiston serqabila diyor bo‘lib, har qaysining taraqqiyot yo‘li uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Avlodlarimiz bosib o‘tgan ibtidoiy jamiyat taxminan 800 ming yilni o‘z ichiga oladi.

Miloddan avvalgi III asrda Sharqiy Turkistonda va Shimoli-sharqiy Tibetda yashagan katta qabilalar birlashmasi Xitoy manbalarida (“da yuechji”) katta yuechjilar deb atalgan. Qadimiy Xitoyning shimolida tashkil topgan Xunn qabilalari kuchayib ketadi va Xitoyga doimo xavf solib turadi, xunlarning ko‘chmanchi davlati tizimida 24 qabila kiradi. Mazkur davlat o‘z taraqqiyotining eng yuqori cho‘qqisiga O‘g‘uzxon davrida (miloddan avvalgi 209-174-yillar) erishadi. O‘g‘uzxon Xitoy imperiyasini bosib oladi. Mo‘g‘ulistondan Hindistongacha va Kaspiy dengizigacha bo‘lgan yerlar uning imperiyasiga kiradi.

Eronlik mashhur olim, tarixchi, filolog, tabib va yirik davlat arbobi Rashiduddin Fazlulloh ibn Imoduddavla Abdulxayr al-Hamadoniy xunlarning afsonaviy qahramoniga bag‘ishlab “O‘g‘uznoma” asarini yozadi. Ushbu kitobda O‘g‘uzxon davlatiga kirgan uyg‘ur, qang‘li, qipchoq, qorluq, kolach va boshqa qabilalarning shakllanishi haqida qiziqarli ma’lumotlar berilgan [1]. Qadimgi Xitoy tarixchilari turkiy xalqlarni xunnlar deb atagan. Xunnlar davlati keyinchalik ikkiga – sharqiy xunn va g‘arbiy xunnga bo‘linib ketgan.

Abdulg‘oziyning Alankuva haqidagi rivoyati, ayniqsa, xarakterlidir: “Bir kecha yotib erdi, sahar vaqtida uyg‘ondi. To‘nglikdin bir yoruq nimarsa kelib kirdi, kunday ko‘rdikim, yoruqning ichinda bir kishi kelib kirdi, kunday ko‘rdikim, yoruqning ichinda bir kishi shaklli oqsari, ko‘zlari shahlo kelib evning ichiga tushdi. Alankuva qotinda yotqan zaifalarni turguzmoq uchun qichqirayin tedi. Ovozi chiqmadi. Tili tutildi. Turayin tedi, qo‘l va oyoqining joni ketdi. Ammo aqli yerinda. Ul kishi ohista-ohista qatiga keldi. Taqi juft bo‘ldi. Yana to‘nglikdan chiqib ketdi. Bu so‘zni aytsam hech kishi ishonmas teb, aytmadi. Besh-olti kun o‘tkandin so‘ng, yana keldi. Har necha kunda bir kelmakin qo‘ymadi. Ul kelgan kechasi

Alankuva homila bo‘ldi. To‘rt-besh oylik bo‘lgandin qarindoshlari yig‘ilib kelib homila bo‘lganining voqeasini so‘radilar. Alankuva ancha ko‘rganin aytdi. Taqi aytdi: “menga er kerak bo‘lsa bormasmu erdim. Taqi ul kim zaifa ham bo‘lsam ko‘p xalq meni podshoh qilib tururlar. O‘zumni, muncha elni va xalqni va ikki o‘g‘limni sharmanda qilib munday noma’qul ishni hargiz qilurmanmu? Bir necha kecha evimning ”toshinda saqlab yoting, Xudoyi Taolo meni sharmanda qilmas bo‘lsa, sizlarga ham ko‘rsatur. Taqi ul kim meni bu qornimdaki o‘g‘lon to‘qsa, albatta, rasmiy kishiga o‘xshamas, andin ham bilursiz. Xudoyi Taoloning bir hikmati bor turur, mening bu homila bo‘lmoqlikimda”, - tedi[2] .

Xalq kuzatib Alankuvaning aytganlariga ishonch hosil qildi. Shu tariqa u ersiz uch o‘g‘il ko‘rdi. Birinchisi Bakun Qatag‘an. Barcha Qatag‘an eli aning nasli tururlar. Ikkinchisining oti Baskun Chalchi. Chalchut eli aning nasli turur. Uchlanchisining oti Balanjir Munkak. Uni xon etib ko‘tardilar. Budanjirning ikki o‘g‘li – Buka va Tuka bor edi. Otasi o‘lgandan so‘ng Buka xon bo‘ldi. Uning bir o‘g‘li bor edi. Ismi Dutumnan. Otasi o‘lgach, u xon bo‘ldi.

Uning to‘qqiz o‘g‘li bor edi. Ulug‘i Kaydu otasi o‘lgandan so‘ng xon bo‘ldi. Kayduxonning uch o‘g‘li bor. Katta o‘g‘li Boysinqur otasi olamdan o‘tgach xon bo‘ldi. Aqlli va odil podshoh bo‘lib, ko‘p ellarni o‘ziga qo‘shib oldi. Do‘stlarga yaxshilik, dushmanga yomonlik qilib podshohlik qildi. Olamdan o‘tgach o‘rniga o‘g‘li Tumna xon bo‘ldi. Uning to‘qqiz o‘g‘li bor edi. Katta o‘g‘lining ismi Chaksu bo‘lib, uning ham uch o‘g‘li bor edi. “Ulug‘ o‘g‘lining oti Tuyokin. Ikkinchi o‘g‘lining oti Urut. Uchunchi o‘g‘lining oti Mankit. Bu uchusining o‘g‘lonlari uch uruk el bo‘ldilar”. Shundan Mang‘itlar urug‘i boshlanadi. Shu voqea sodir bo‘lgan davrni aniqlash maqsadida Tumanaxon o‘g‘illarini sanashni davom ettiramiz[3].

Ikkinchi o‘g‘li-Yorimsher Bakanchu. Uchinchi o‘g‘lining oti Kachuli. Aning o‘g‘lining oti Erdamchi barlos, barcha barlos eli muning nasli tururlar. Amir Temur ushbu uruqdin erdi. Barlosning ma’nosi sipohsolor temak bo‘lur. Turkiysi chirik boshlab yuriyturgan kishi. To‘rtinchi o‘g‘li – Samkachun. Beshinchi o‘g‘li – Batkulki. Oltinchi o‘g‘li – Kabilxon. Chingizxon va boshqa ko‘p ellar Kabilxonning o‘g‘lonlaridan paydo bo‘lganlar. Yettinchi o‘g‘li – udarbayon, sakkizinchisi – Bo‘ljar duglan. (Mo‘g‘ul oqsoqoli duglan degan). To‘qqizinchi o‘g‘li – Chintoy[4].

Tumnaxon Mo‘g‘ullarning nirun urug‘lariga podsholik qildi. Uning 9 o‘g‘li bor edi. Eng katta o‘g‘li Chaqsu edi. Chaqsuni uch o‘g‘li bor edi: birinchisi Tuyoqin, ikkinchisi Urut, uchinchisi Manqit. Bu uchalasini o‘g‘lonlari uch urug‘ga bosh bo‘ldilar[5].

Tuminaxon Turkiston o‘lkasining ba’zi unga tobe’ bo‘lmagan shaharlarga yurish qildi. Uning ikki xotini bor edi: biridan 7 ta, ikkinchisidan 2 ta farzand[6]. Tumnaxonning eng katta o‘g‘li Choqsuning uchta o‘g‘li bor edi: To‘yokin, Urut va Manqit (mang‘it) bo‘lib, barcha mang‘it urug‘i shu kishining naslidir.

Tumanxon o‘lgandan so‘ng, oltinchi o‘g‘li Kabilxon podshoh bo‘ldi. Uning olti o‘g‘li bor edi. Ikkinchi o‘g‘li Bartan Bahodir, otasi o‘lgach, xon bo‘ldi. Bartan Bahodirning to‘rt o‘g‘li bo‘lib, uchinchisi Yesugay Bahodir xon bo‘ldi.

Yesugay Bahodirning besh nafar o‘g‘li bo‘lib eng kattasi Temuchin – Chingizxon edi. U 1155-yilda tug‘ilgan. Tumna xondan keyin Chingizxonga qadar uch kishi (Kabilxon, Bartan Bahodir, Yesugay Bahodir) xon bo‘ldi. Ularning har qaysisi vafotiga qadar podshohlik qildilar. To‘rt kishining podshohlik davrini o‘rtacha 20 yildan taxmin qilganda ham 80 yil bo‘ladi. Balkim undan ham ko‘proq bo‘lur. To‘rt kishining podshohlik davrini hisobga olib Abdulg‘oziyning “Shajarayi turk” asariga asoslanib xulosa chiqaradigan bo‘lsak, mang‘it urug‘ining shakllanish davri X asr oxiri XI asr boshlariga to‘g‘ri kelishi mumkin.

Abdulg‘oziy “Shajarayi turk”da aytishicha, Chingizxon Urganch shahrini egallagandan so‘ng o‘z yurtiga qaytadi. Jo‘jixon esa Urganchni olgandan so‘ng Qipchoq, rus yerlarini bosib olish bilan band edi. “Jo‘chixon bir kun ko‘chib bora erdi, bir ovli yerga tushdi. O‘zi xasta, beklarina buyurdi kim ovlang! Ovlar ovlab yuriy erdilar kim, bir mang‘it o‘tib Chingizxon qotiga bora erdi. Bularni ko‘rib Jo‘jixonni birga xayol qilib ketdi. Taqi bir necha ko‘ndin so‘ng Chingizxon qatig‘a bordi. Chingizxon Jo‘chining xastalikin so‘radi. Ul manqit aytdi kim, xasta va sog‘ ekanin bilmadim. Falon yerda ov ovlab yuriy erdi”[7] .

O‘zbek Sho‘ro Qomusida ta’kidlanishicha, mang‘itlarning ajdodlari XIII asr boshlarida

Mo‘g‘ulistonda yashab kelgan mo‘g‘ul qabilalari edi. Ular XIII asr davomida Dashti Qipchoqqa kelib o‘rnashganlar. XIII–XIV asrlarda mang‘itlarning katta qismi Volga va Ural daryolari oralig‘iga joylashgan. Shu davr mobaynida qipchoqlar ta’siri ostida o‘z tillarini unutib, turk-qipchoq tilini qabul qilganlar.

XIV asrning oxirida alohida o‘rda (Mang‘it o‘rdasini) tashkil etganlar. XV asrning o‘rtalarida Mang‘itlar “nog‘ay” (no‘g‘ay) deb atalgan, ularning o‘rdasi esa “Nog‘ay o‘rdasi” nomini olgan. XVI asrning o‘rtalarida Nog‘ay o‘rdasi Katta Nog‘ay va Kichik Nog‘ayga bo‘lingan. Keyinchalik Katta Nog‘ay tarkibidagi mang‘itlar o‘zbeklar, qoraqalpoqlar, qisman qozoqlarning etnik tarkibiga kirganlar. Mang‘itlar hozirgi O‘zbekiston territoriyasiga XIV asrda ko‘chib kelganlar. Movarounnahrda qadimdan yashab, dehqonchilik bilan shug‘ullanib keluvchi o‘zbeklarning madaniy ta’ siri ostida mang‘itlarning bir qismi asta-sekin o‘troqlashib borgan, bir qismi esa XIX asr oxiri va XX asrning boshlariga qadar yarim o‘troq holda yashab, chorvachilik bilan shug‘ullanib kelgan.

Qarshi cho‘lida va Buxoro vohasida yashovchi mang‘itlarning ko‘pchiligi qorako‘l qo‘ylarni, Samarqand viloyatining tog‘oldi va tog‘liq tumanlarda yashovchi mang‘itlar esa jaydari qo‘ylarni boqar edilar. Mang‘itlar dehqonchilik ham qilganlar. Qo‘l hunarmandchiligi (gilam, turli rangdagi matolar, bo‘z, alacha, qalami va boshqa tuqish) ham birmuncha rivojlangan edi. Mang‘itlarning uzun patli gilami – julxirs mashhur bo‘lgan[8] .

O‘zbek Sho‘ro Qomusida yozilgan ma’lumotlar hech o‘zgartirmasdan qanday bo‘lsa, o‘sha holicha keltirilgan. Va shu ma’lumotlarning ko‘p qismini to‘ldiradigan, ozmi-ko‘pmi aniqlik kirgizadigan manbalarni navbatdagi mavzuda bayon etishga o‘tamiz. “Mang‘it” so‘zi manbalarda “Mang‘it”, “Manqit”, “Manqut” ko‘rinishlarida berilgan. Yirik muarrix Abulg‘oziy “Manqit” xonining nabirasi deb ko‘rsatganini yuqorida qayd etdik.

Professor To‘ra Nafasov mang‘itlar haqida quyidagi fikrni bildiradi: “Mang‘it” – qadimgi turkiy qabilalardan biri, o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik etnik birlik. A.Ishayev “mang‘it” so‘zining etimologiyasini shunday aniqlagan: Mang‘it+at-minglar, mang‘at – eng qadimiy nom, -t affiksi oltoy tilida jamlik ma’nosini bildiradi. O‘zbek xalqining Ming qabilasi ham bor. Mang‘it, Ming ikki qabila nomi bo‘lsa ham, ma’no va yaratilishi prinsipi bir xil. Aholining miqdoriga nisbatan etilgan. Etnonimlarning toponimga ko‘chishi XVII – XIX asrlarda yuz bergan[9].

Chingizxonning O‘rta Osiyoga bostirib kelgan armiyasining faqatgina ozchilik qismi totar-mo‘g‘ullar bo‘lgan. ko‘pchiligi qipchoqlar, o‘g‘izlar, mang‘it va boshqa qabilaga daxldor kishilar bo‘lgan. Assmilyatsiya jarayoni kuchayishi natijasida mo‘g‘ullar turk tilidan o‘rganganlar. O‘zaro muloqotda turk tili mo‘g‘ul tilidan ustun turgan. XIV asrda Oltin O‘rdada hech kim mo‘g‘ul tilida gaplashmagan. Turk adabiy tili qaror topgan. Ma’lum bo‘lgan xonlikning hujjatlari turk tilida yozilgan.

Mang‘it urug‘i amirlari doimiy ravishda Chig‘atoy, ya’ni Movarounnahr amirlari bilan aloqada bo‘lib kelganlar. Idikubiy-mang‘it Urusxondan (Oq O‘rda va Oltin O‘rdada hukmronlik qilgan 1375–1376-yillarda qochib sohibqiron Amir Temurdan najot so‘rab keladi. Mang‘itlar Amir Temur va temuriylar davrida Shohruh bilan Yedigey mang‘it va Isabeklar o‘rtasida elchilar yuborilib, sovg‘a-salomlar topshirilgan. Hatto Shohruh (Xuroson hukmdori) Yedigeyning qizini o‘g‘li Muhammad Juqiy nikohiga berishini so‘ragan[10].

XV asrning birinchi choragida Oq O‘rdada yashovchi ko‘chmanchi qabilalardan iborat o‘zbek davlati tashkil topgan. Mazkur davlatni Abulxayrxon boshqaradi. Bu xon juda katta hududda yashovchi ko‘chmanchi qabilalarni birlashtiradi. Uning qabilalarni birlashtirish uchun olib borgan kurashlarida mang‘it qavmlari yetakchi rolni o‘ynagan edilar[11].

Oq O‘rdaga Amir Temur yordamida xon bo‘lgan va Oltin O‘rdani bosib olgan To‘xtamish XIV asrning keyingi choragida Sohibqironga bosh raqib bo‘lib chiqadi. Bu haqda Abulg‘oziy shunday yozadi: “Oq manqit qabilasidin Qutluqqiyo tegan bir kishi bor edi. Aning bir o‘g‘li, bir qizi bor erdi. Qizni Temurbek o‘g‘lon oldi. Temur Qutluqxon andin vujudga keldi. O‘g‘lining oti Edigay turur. Ul To‘htamishxonga navkar bo‘ldi. Vaqtiki To‘qtamish O‘risxondin (Oq O‘rda xoni) qochib Temurbiyning yoniga Samarqand keldi. Ortindin Edigay Manqit keldi, aytdi kim O‘risxon ja’mi lashkar qilib bu tarafga mutavvajih bo‘ldi, deb. Temurbiyning madadi birlan To‘xtamishxon O‘risxonni bosib Jo‘jixonning xalqiga ega bo‘lib shahri saroyda xonlik taxtiga o‘ltirdi[12].

Temur Qutluqxon haddi Tamizga yetgandan so‘ng Edigay Manqitning xoharzodasi erdi.

Temur Qutluqning ko‘nglinda podshohlik dag‘dag‘asi bor erdi. Ul sababdan To‘qtamishxon ani o‘lturmoqqa qasd qildi. Temur Qutluqxon andin qochib Temurbiyning yoniga keldi. Edigay Manqit Temur Qutluqdin ayrilib qolib erdi. Olti oydin so‘ng Edigay Manqit Temur Qutluqqa kelib qo‘shildi. Bir necha vaqtdan so‘ng Amir Temur Eron mamlakatiga otlandi. To‘qtamishxon Movarounnahrni xoli topib Samarqandga kelib bir necha musulmonlarni shahid qilib, qatl va g‘orat qilib qaytib ketdi. Amir Temur bu xabarni eshitib qaytib kelib Samarqandda turmay To‘qtamishxonning ustiga otlandi”.

Temur Qutluqxon haddi Tamizga yetgandan so‘ng Edigay Manqitning xoharzodasi erdi. Temur Qutluqning ko‘nglinda podshohlik dag‘dag‘asi bor erdi. Ul sababdan To‘qtamishxon ani o‘lturmoqqa qasd qildi. Temur Qutluqxon andin qochib Temurbiyning yoniga keldi. Edigay Manqit Temur Qutluqdin ayrilib qolib erdi. Olti oydin so‘ng Edigay Manqit Temur Qutluqqa kelib qo‘shildi. Bir necha vaqtdan so‘ng Amir Temur Eron mamlakatiga otlandi. To‘qtamishxon Movaraunnahrni holi topib Samarqandga kelib bir necha musulmonlarni shahid qilib, qatl va g‘orat qilib qaytib ketdi. Amir Temur bu xabarni eshitib qaytib kelib Samarqandda turmay To‘qtamishxonning ustiga otlandi”.

Amir Temur To‘qtamishga qarshi birinchi yurishni 1389-yilda amalga oshirdi. Shu jangda Mang‘it xoni Edigay (manbalarda Iduku, Yedigey ko‘rinishlarida ham keltirilgan) Sohibqiron bilan birgalikda To‘qtamishxonga qarshi kurashdi. Edigayning Amir Temur bilan yaqinlashish jarayonini Ibn Arabshoh ham xarakterli tasvirlagan: Dashti Qipchoq bepoyon podshohlik bo‘lib, keng cho‘llarni o‘z ichiga olar edi. Uning sultoni To‘xtamish Temurga qarshi urushib muxolif bo‘lgan sultonlarning peshvosi, go‘yo bayroqdori, chunki u Temurga adovat bildirib chiqqanlardan eng birinchisi bo‘lib, Turkiston yerlarida u yana qarshi jang qilgan edi.

Shu tariqa Amir Temur hukmronlik qilgan davrda ham mang‘itlardan chiqqan Edigay bahodir kabi kishilar tarix zarvaraqlarida paydo bo‘lib o‘zlaridan munosib nom qoldirganlar.

XVI asrning boshlarida Shayboniyxon qo‘shini safida ham ko‘plab mang‘it urug‘idan bo‘lgan kishilar ishtirok etganlar[13]. XVIII asrning 20-yillarida Qarshi vohasida mang‘itlar hukmronlik qilishga intiladilar. Muhammad Rahimbiy Otaliq (1753–1758 (mang‘it sulolasining birinchi hukmdori bo‘lib Buxoro taxtiga o‘tiradi[14].

Mang‘it va qozoq qabilaviy birikmalari va Shayboniylar davlatining inqirozida keyingi turk-mo‘g‘ul qabilalar tarkibida bir nomdagi turli qabilalar: qipchoqlar, mang‘itlar, qang‘lilar, qo‘ng‘irotlar, naymanlar kabi yirik elatlarning umumiy nomi “o‘zbeklar” deb yuritilgan. Bu to‘g‘rida Ro‘zbehon Isfahoniy “Mehmonnomai Buxoro” da yozib, barcha shayboniylar va hatto qozoq va mang‘itlar umumiy bir nom bilan ”o‘zbek xalqi” deb nomlanadi[15].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytib o‘tish joizki, mang‘itlar sulolasi haqida tariximizda kam tadqiqot ishlari olib borildi. Olib borilganlari ham to‘liq emas, bir tomonlama, ko‘plari qayta-qayta takrorlangan. Shuning uchun O‘zbekiston tarixida katta iz qoldirgan mang‘it urug‘i haqida katta tadqiqot ishlari olib borishni taqozo etadi. Bu urug‘ vakillari Buxoro amirligi tarixida o‘ziga xos salmoqli iz qoldirgan.

Mang‘itlar sulolasini o‘rganish ko‘plab tarixiy manbalar, qo‘lyozmalar, arxiv ma’lumotlarni o‘rganishni talab etadi. Tadqiqot ishlari davom etmoqda.

Foydalangan adabiyotlar

1. Rashiduddin F. Oguznoma (turkman tilida). –Ashgabat. 1990, 118-bet.
2. Abdulg‘oziy. Shajarayi turk. – Toshkent: Cho‘lpon, 1992. 44-bet.
3. Obod Jo‘raqulov. Qashqadaryo mang‘itlari. –Toshkent, 1993. 18-bet.
4. O‘sha asar, 46-bet.
5. Abulg‘oziy. Shajarayi turk. –Toshkent, 1992. 46-b. Abulg‘oziy.
6. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. –Toshkent, 1994. 74-b.
7. O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi. 6-t: Toshkent, 1975. 594-595 betlar.
8. Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. –Toshkent: O‘qituvchi. 1968: 113-114-betlar.
9. Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. –Toshkent: O‘qituvchi. 1968: 113-114-betlar.
10. Norboev N. O‘zbek urug‘lari. –Toshkent, 2001. 37-b.
11. Shoniyozov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. –Toshkent, 2001. 403-b
12. Abulg‘oziy. Shajarayi turk, 99-bet.
13. Norboev N. O‘zbek urug‘lari. –Toshkent. 2001. 38-b.
14. Shoniyozov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. –Toshkent, 2001. 405-b.
15. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. –Toshkent,1994. 78-79-b.

QORAKO‘LCHILIK SOHASIGA MUSTAQILLIK YILLARIDA ZAMONAVIY TEXNIKALARNING KIRITILISHI HAMDA ILMIY TADQIQOT ISHLARI

Axmedov Bekzod Abdiraxmonovich
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
Tarix kafedrasi professori v.b
ORCID 0009-0001-7353-9707

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda mustaqillik yillarida qorako‘lchilik sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va rivojlanish jarayonlari haqida so‘z boradi. Mustaqillik davrida, mamlakatda qishloq xo‘jaligining turli sohalarida, xususan, qorako‘lchilikda ilmiy asoslangan tadqiqotlar va amaliy ishlar olib borildi. Maqolada qorako‘lchilikda seleksiya-naslchilik ishlarini kuchaytirish, yangi zavod tiplarini yaratish va mahsulotlar sifatini yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilgan tadbirlar haqida so‘z yuritilgan. Mustaqillik yillarida, qorako‘lchilik sohasida seleksiya-naslchilik ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va yangi ilmiy texnologiyalarni joriy etish natijasida qorako‘l qo‘ylarining genofondi shakllandi, mahsuldorligi oshdi va eksport salohiyati kengaydi. 2015-yilga qadar qorako‘lchilik zoti sifatini takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan seleksion-genetik dastur asosida seleksiya-naslchilik ishlari samarali amalga oshirildi. Bu jarayonlarni yo‘lga qo‘yishda tizimga zamonaviy texnikalarning kirib kelishi ham sohaga oid ilmiy-tadqiqotlarning jadallashishi samarali ta’sir ko‘rsatdi. Maqolada ushbu jarayonlarning o‘rni va ahamiyati, mamlakatning qorako‘lchilik sohasidagi ilmiy va amaliy yutuqlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. seleksiya-naslchilik ishlari, ilmiy tadqiqotlar, cho‘l yaylovlari, ozuqabop o‘simliklar, qorako‘l terisi, zavod tiplari, eksportbop mahsulotlar, qorako‘l qo‘ylarining genofondi, qorako‘lchilik sanoati, qorako‘l mahsulotlari

INTRODUCTION OF MODERN TECHNOLOGIES AND SCIENTIFIC RESEARCH INTO THE KARAKUL (SHEEP-BREADING) FIELD DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Annotation. This article discusses the scientific research and development processes in the field of Karakul sheep breeding in Uzbekistan during the years of independence. During this period, scientific-based research and practical work were carried out in various sectors of agriculture, especially in Karakul breeding. The article highlights the efforts made to strengthen breeding and genetics work, create new types of Karakul sheep, and improve product quality. As a result of the effective implementation of breeding and genetics programs and the introduction of new scientific technologies, the gene pool of Karakul sheep was developed, their productivity increased, and export potential expanded. The breeding-genetic program aimed at improving the quality of Karakul sheep was successfully implemented until 2015. The introduction of modern technology into the system and the acceleration of scientific research in the field gave good results in the implementation of these processes. The article analyzes the significance and importance of these processes, as well as the scientific and practical achievements in the field of Karakul breeding in the country.

Key words. years of independence, karakul sheep breeding, breeding and genetics, scientific research, desert pastures, forage plants, karakul wool, breeding types, export-quality products

Kirish. Chorvachilik mahsulotlari O‘zbekiston iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. Sanoat va aholi turmush tarzida muhim o‘rin tutadigan chorvachilikdan bir nechta mahsulotlar olinadi. Jumladan, qorako‘lchilik sohasi davlat manfaatlaridan kelib chiqib o‘zgartirib borildi. Xususan, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash uchun mashina va uskunalar yetishmasdi, bundan tashqari, markazdan olib kelinishi shart bo‘lgan texnikadan kichik qismi respublikaga yetib kelgan. Ushbu texnikalardan foydalana oladigan mutaxassislar soni ham cheklangan, bu esa ishlab chiqarishga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Natijada chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash rejalari ko‘p hollarda bajarilmay qoldi. Jumladan, xorij va mahalliy adabiyotlar, arxiv hujjatlari tahlil qilib chiqilganda Qashqadaryoda qorako‘lchilik sohasi yillar kesimida turlicha rivojlanganligini ko‘rish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur muammoni tahlil qilayotganimizda, qorako‘lchilik sohasini rivojlantirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-martdagi PQ-2841-son “Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2018-yil 14-martdagi PQ-3603-son “Qorako‘lchilik sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 16-avgustdagi PQ-4420-son “Qorako‘lchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 2-sentabrdagi PQ-4817-son “O‘zbekiston Respublikasi pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2021-yil 9-fevraldagi PQ-4984-

son “Qorako‘lchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, 2020-yil 2-sentabrdagi PF-6059-son “O‘zbekiston Respublikasida “Pillachilik va qorako‘lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlarining qabul qilinishi mazkur faoliyatga tegishli meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish chorvachilik sohasini yanada rivojlantirish imkonini berdi.

Natijalar va muhokama. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida ilm-fan taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Xususan, qishloq xo‘jaligining turli sohalarini ilmiy asosda yo‘lga qo‘yishda ham qat’iy chora-tadbirlar olib borildi. Ayniqsa, chorvachilikning eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblangan qorako‘lchilik sohasida tadqiqot ishlari keng ko‘lamda olib borildi. Cho‘l yaylovlaridan samarali foydalanish, ozuqabop o‘simlik navlarini yaratish bo‘yicha salmoqli tadqiqotlar bajarildi. Inqirozga uchragan yaylovlarni tiklash, ulardan foydalanish tizimi ishlab chiqilib, shu davrda cho‘l ozuqabop o‘simliklarining yangi turlarini to‘plash, mahalliy sharoitga moslashtirish va seleksiya ishlarini olib borish natijasida 15 ta yangi nav yaratilib, mualliflik guvohnomalari olindi. Navoiy viloyati “Madaniyat”, “O‘zbekiston”, Samarqand viloyati “Sahoba ota” shirkat xo‘jaliklari hududida maxsus urug‘chilik tajriba maydonlari tashkil qilindi[1]. Qorako‘lchilik sohasiga ilm-fan yutuqlarini qo‘llash borasida Samarqand shahrida joylashgan Butunittifoq Qorako‘lchilik ilmiy tadqiqot instituti (O‘zQITI) ilmiy xodimlari katta rol o‘ynadi. Institut tadqiqotchilarining mustaqillik yillarida olib borgan tadqiqotlari natijasida zavod tiplari, usullar, o‘simlik navlari uchun 24 ta patent olindi, 12 ta monografiya, 12 ta ilmiy, o‘quv qo‘llanmalar va darsliklar, 100 dan ortiq texnologiyalar, tavsiyanomalar, uslubiy qo‘llanmalar tayyorlanib, amaliyotga joriy etildi. Ilmiy tadqiqotlardan olingan natijalar institutning ilmiy to‘plamlari va shuningdek, har yili Respublika va xalqaro ilmiy anjumanlar materiallarida doimiy ravishda nashr etib borildi. Mustaqillik yillarida institutda 38 nafar fan nomzodlari va 4 ta fan doktorlari tayyorlandi[2]. Institut qorako‘lchilik mahsulotlarining noyob kolleksiyasi, yaylov o‘simliklari kolleksiyasi, yirik kutubxona fondiga ega bo‘lib, universitetlar va biologiya ixtisosligidagi kollejlarning talabalari, magistr va aspirantlar uchun o‘quv baza sifatida xizmat qildi [3]. Mustaqillik yillarida institutda 13 ta amaliy va 8 ta innovatsion loyihalar doirasida keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Bunda 41 nafar ilmiy xodimlar ishtirok etib, ulardan 4 nafari fan doktori va 17 nafari fan nomzodlari edi [4]. Qorako‘l qo‘ylarining eksportbop mahsulot beruvchi 7 ta yuqori mahsuldor zavod tiplari yaratildi. Qoraqalpoq sur rangli qorako‘l qo‘ylarining “To‘rtko‘l”, zarmallarang qorako‘l qo‘ylarining “Nurota”, sur rangli qalam gul qorako‘l qo‘ylarining “O‘zbekiston”, sur rangli yassigul tipli qorako‘l qo‘ylarining “Saribel”, qora rangli qovurg‘asimon qorako‘l qo‘ylarining “Avazcho‘l”, “Sarjal” va sur rangli yassigul qorako‘l qo‘ylarining “Buxoroi–sharif” zavod tiplari shular jumlasidandir. Masalan, qora rangli qovurg‘asimon tipli qorako‘l qo‘ylarining “Avazcho‘l” zavod tipi Qashqadaryo viloyatining G‘.G‘ulom nomli naslchilik zavodida yaratildi. Zavod tipidan olinadigan qorako‘l mahsuloti yirikligi, gullarining uzunligi, rasmining aniqligi, yengilligi hisobiga 80-85 foiz yuqori sifatli eksportbop mahsulot bo‘ldi. Qora rangli qovurg‘asimon tipli qorako‘l qo‘ylarining “Sarjal” zavod tipi Navoiy viloyatining “Konimex” naslchilik zavodida yaratildi. “Saribel” va “Avazcho‘l” zavod tiplari O‘zbekiston Respublikasi “Eng yaxshi intellektual mulk” respublika tanlovida “Eng yaxshi seleksiya yutug‘i” nominatsiyasi bo‘yicha 1 va 2-o‘rinlarni egallab, tegishli darajadagi diplomlar va pul mukofotlari bilan taqdirlandi [5]. Qorako‘lchilik sohasida qator muammolar o‘z o‘rnida bu sohadagi tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishni talab etdi. Qo‘ylarning irsiy qimmatliligi va mahsuldorligini oshirish bilan eksport mahsulotlari hajmini ko‘paytirish, yaylovlar sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash, kompyuterlar, dasturli va avtomatlashtirilgan texnologiyalardan foydalanishni kuchaytirish tadbirlari olib borildi. Mazkur muammolarni hal etish ko‘p jihatdan sohani ilmiy ta’minlash va ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo‘nalishlarini to‘g‘ri va o‘z vaqtida aniqlashga bog‘liq edi. Keyingi yillarda Ustyurt platasini ilmiy va tashkiliy jihatdan chuqur tadqiq qilib, yaylov zaxirasi sifatida jalb qilish ishlari olib borildi. Qorako‘lchilik sohasi tadqiqotchilari qo‘ylar seleksiyasi, urchitish, oziqlantirish va parvarishlash asoslarini ishlab chiqish yo‘nalishidagi tadqiqotlar zot ichidagi qimmatbaho

rang-baranglikni hamda gul shaklidagi 30 zavod tiplarini yaratib, zot genofondini yaratishga asos bo‘ldi [6]. Natijada bu davrda 8 ta texnologik, standart, ozuqa aralashtirgich 10 ta mashina va uskunalar yaratildi. Bu sohada 8 ta patent va mualliflik guvohnomalari olindi. Qorako‘lchilik fanining nazariy asoslari, qorako‘l terilarining tovar sifatidagi o‘rni O‘zbekistonda ishlab chiqildi. Qorako‘l teri va po‘stinning tovar xususiyatlarini o‘rganish asosida qorako‘lni dastlabki va qayta ishlash, saqlash va mahsulotlar tayyorlash texnologiyalari ishlab chiqilib, hayotga joriy etildi. Kompaniya va birlashmalar, rahbar va mutaxassislar tomonidan sohaning negizi bo‘lgan seleksiya va naslchilik ishlarini takomillashtirish, uni yanada yaxshilash borasida bir qator ishlar bajarildi. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining 1999-yil 28-iyul 179- sonli buyrug‘i bilan qorako‘lchilikda seleksiya-naslchilik ishlarini yanada takomillashtirish, hamda islohotlarni muvofiqlashtirish kengashi tuzildi va uning nizomi tasdiqlandi. Hujjatda mutaxassis va olimlarga seleksiya-naslchilik ishlarini yanada yaxshilash bo‘yicha vazifalar belgilandi. Joriy yilda olimlar bilan hamkorlikda xo‘jaliklardagi qorako‘l qo‘ylar ko‘rikdan o‘tkazilib, ulardan 16 ming boshi alohida ajratib olindi va ulardan samarali foydalanish uchun kuchli ozuqalar berib boqildi. Shuningdek, qo‘zilatish mavsumida qo‘zilardan ranglari, jinslari bo‘yicha yangi suruvlar tashkil etilib, tajribali cho‘ponlarga biriktirildi [7]. 1999-yil 10-sentabrda “Muborak” naslchilik zavodida Qorako‘l zotli qo‘chqorlarning ko‘rgazmali “Kimoshdi” savdosi va Respublika seminar-kengashi o‘tkazildi. Mazkur anjumanga Respublikadagi naslchilik zavod va naslchilik xo‘jaliklaridan 404 bosh naslli qo‘chqorlar keltirilib, yuqori baholarda sotildi. Shuningdek, qorako‘lchilikni rivojlantirish, seleksiya-naslchilik ishlarini yaxshilashda yuksak ko‘rsatkichlarga erishgan naslchilik zavodlari va naslchilik xo‘jaliklari g‘olib deb topildi [8]. Butun dunyoda kabi O‘zbekistonda ham cho‘llanish darajasining oshib borganligi hamda yaylovlardan foydalanish tartibiga rioya qilinmasligi oqibatida inqirozga uchragan yaylovlar salmog‘i ortib bordi. Bu holatlarning oldini olish maqsadida O‘zbekiston qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy tadqiqot instituti olimlari bilan hamkorlikda har bir xo‘jalik hududida 1-2 ming gektar maydonda madaniy yaylovlar va cho‘l o‘simliklarini ko‘paytirish bo‘yicha ilmiy-amaliy ishlar olib borildi [9]. Ishlab chiqarilayotgan qorako‘l mahsulotiga bo‘lgan talabning o‘zgarishi butun respublikada yetishtirilayotgan qorako‘l mahsuloti assortimentini talabga muvofiq qora rang bilan bir qatorda sur, ko‘k rangli yupqa terili, kalta junli qovurg‘asimon hamda yassi guruhlaridagi qimmatli navli qorako‘l mahsuloti ishlab chiqarishni ko‘paytirishni talab qildi. 2010-yili institut olimlari Qashqadaryo viloyatining G‘.G‘ulom nomli naslchilik zavodi mutaxassislari bilan hamkorlikda qora rangli qovurg‘asimon tipli qorako‘l qo‘ylarining “Avazcho‘l” zavod tipini yaratdi. Shuningdek, qorako‘lchilik xo‘jaliklarida sur (Muborak, Nishon), ko‘k (G‘uzor, Pachkamar, M.Ibragimov nomli) rangli terilarni ko‘p miqdorda ishlab chiqarish ustida olimlar va tajribali chorvadorlar hamkorlikda izlanish olib bordi [10]. “O‘zbek qorako‘li” kompaniyasi O‘zQITI bilan birgalikda sohani yanada rivojlantirish maqsadida kompaniya tizimidagi xo‘jaliklarda qo‘ylar sonini 2005-yilga 2450 ming boshga yetkazish 1998-yilga nisbatan 122 foizga o‘stirish, qorako‘l teri yetishtirishni 746 ming donaga yetkazish yoki 151 foizga oshirish kabi tadbirlarni olib bordi. Sohani yanada rivojlantirish uchun “O‘zbek qorako‘li” kompaniyasi va hududiy “Qorako‘l” birlashmalari olimlar bilan birgalikda ish olib borib, yangi zavod tiplarini yaratish va qorako‘l qo‘ylarining qimmatli genofondini saqlab qolish ustidan nazoratni ta’minlash, qorako‘lchilik mahsulotlarini yetishtirish, ishlab chiqarishda ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, korako‘lchilik mahsulotlarini sotish va eksportni ko‘paytirish, iqtisodiy va texnologik aloqalarni mustahkamlash, qorako‘lchilikda iqtisodiy islohotlar jarayonini chuqurlashtirish, cho‘ponlar va ularning oila a’zolarining mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash masalalarini hal qilish va yaylovlar holatini yaxshilash tadbirlarini olib bordi [11]. Qorako‘lchilik sohasida seleksiya-naslchilik ishlarini yuritish tizimli asosda yo‘lga qo‘yilib, 2012-yili 103 qorako‘lchilik shirkat xo‘jaliklarining 20 tasi naslchilik zavodlari, 10 tasi naslchilik xo‘jaliklari sifatida faoliyat olib bordi. Ularning har qaysisi alohida 5 yilga mo‘ljallab tuzilgan seleksiya-naslchilik ishlarini yuritish rejalari asosida ish yuritildi [12]. Qorako‘l mahsulotiga bo‘lgan talabning yarim doira qalamgulli terilaridan yupqa, yengil, yuqori gul va jun tola sifatiga ega bo‘lgan qovurg‘asimon va yassi guruhli turlariga talabning

yuqoriligidan kelib chiqib bu borada seleksiya-naslchilik ishlari ko‘paytirildi. Natijada qorako‘l qo‘ylarining eksportbop mahsulot beruvchi zavod tiplari bilan Qoraqalpoq sur rangli qorako‘l qo‘ylarining “To‘rtko‘l”, zarmallarang qorako‘l qo‘ylarining “Nurota”, sur rangli qalam gul tipli qorako‘l qo‘ylarining “O‘zbekiston”, surrangli yassigul tipli qorako‘l qo‘ylarining “Saribel”, qorarangli qovurg‘asimon tipli qorako‘l qo‘ylarining “Avazcho‘l”, “Sarjal” va surrangli yassigul tipli qorako‘l qo‘ylarining “Buxoroi sharif” zavod tiplari yaratildi [13]. Mustaqillik yillarida sohada seleksiya-naslchilik ishlarini yuritishga e’tiborni kuchaytirish, yaxshilash natijasida qorako‘l qo‘ylarining sifati o‘zgardi. O‘zbekiston qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti “O‘zbekqorako‘l” kompaniyasi, chorvachilikda naslchilik ishlari bosh Davlat inspeksiyasi hamkorligida ishlab chiqilgan “Qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qorako‘l zotini 2015-yilgacha sifatli takomillashtirishning seleksion-genetik dasturi” asosida naslchilik ishlarini yuritish naslli qorako‘l qo‘ylari bosh sonini 22 foizga, elita sinfli qo‘ylari salmog‘ini 2011-yilda 2005- yilga nisbatan 3,0 foizga ko‘paytirish, elita qo‘ylari salmog‘ini zot miqyosida 70,8 foizga yetkazish imkonini yaratdi [14].

Xulosa. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligida, ayniqsa, chorvachilik sohasida katta yutuqlar va rivojlanishlar yuz berdi. Ilm-fan va texnologiyalarning keng joriy etilishi, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar orqali qishloq xo‘jaligining turli tarmoqlari, jumladan, qorako‘lchilik jiddiy rivojlandi. Qorako‘lchilik sohasida muhim yangiliklar kiritilib, yangi zavod tiplarining ishlab chiqilishi, qishloq xo‘jaligiga mos o‘simlik navlarining yaratilib, mavjud resurslar samarali ishlatilishi ta’minlandi. Qorako‘l qo‘ylarining genofondi va mahsuldorligi oshirildi, bu esa eksport imkoniyatlarini kengaytirdi. O‘zbekistonning ilmiy markazlari, xususan, Buxoro, Samarqand va Navoiy viloyatlaridagi ilmiy tadqiqot institutlari tomonidan olib borilgan ishlarda yangi o‘simlik navlari yaratildi. Shuningdek, qorako‘lchilikni rivojlantirishda seleksiya va naslchilik ishlariga katta e’tibor berilib, yangi zavod tiplarining yaratilishi va texnologik yangiliklar joriy qilindi. O‘zbekistonning ilmiy tadqiqotlari, xorijiy tajriba bilan uyg‘unlashgan holda qorako‘lchilik mahsulotlarining sifatini oshirishga xizmat qildi. Yangi ishlab chiqarish metodlari va yuqori sifatli mahsulotlar, ayniqsa, eksportbop mahsulotlar, respublikaning iqtisodiyotini rivojlantirishga sezilarli hissa qo‘shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboqulov N.A. Qorako‘lchilik fanida mustaqillik yillarida erishilgan ilmiy-amaliy yutuqlar va kelajakdagi vazifalar // Cho‘l-yaylov chorvachiligini modernizatsiyalash muammolari. – Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand, 2012. – B. 9-13.
2. O‘zbekiston qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti joriy arxivi. Muassasa kutubxonasida institut tarixiga doir saqlanayotgan ma’lumotnoma papkasidan.
3. “Yaylovlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning institutsional masalalari. – Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2013. – B. 108.
4. Qorako‘lchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ilmiy asoslari. – Samarqand, 1990. – B. 20-23.
5. Rahimov T.B. Respublika qorako‘lchiligining yutuqlari va muammolari // Cho‘l-yaylov chorvachiligini modernizatsiyalash muammolari. – Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Samarqand, 2012. – B. 14-16.
6. Oqboyev F. Qashqadaryo qorako‘lchiligining yutuqlari va kelajak vazifalari // Cho‘l-yaylov chorvachiligini modernizatsiyalash muammolari. – Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Samarqand, 2010, – B. 103-104.
7. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 83-fond, 1-ro‘yxat, 139-ish, 32-varaq.
8. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 184-fond, 1-ro‘yxat, 27-ish, 63-varaq.
9. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 83-fond, 1-ro‘yxat, 139-ish, 32-varaq.
10. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 36-fond, 5-ro‘yxat, 87-ish, 37-varaq.
11. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 182-fond, 1-ro‘yxat, 33-ish, 272-varaq.
12. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 182-fond, 1-ro‘yxat, 35-ish, 26-varaq.
13. O‘zMA, 209-fond, 1-ro‘yxat, 77-ish, 99-108-varaqlar
14. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1965 г. Ташкент: Узбекистан. 1966. с 169.

АНАЛИЗ ЧАЙНОЙ ТОРГОВЛИ ТУРКЕСТАНСКОГО КРАЯ (вторая половина XIX в. - начало XX в.)

Маматова Махфуза Бахриддиновна
д.ф.и.н. (PhD), докторант Каршинского государственного университета
maxfuzamamatova@gmail.com
ORCID 0000-0002-2984-7155
UDK 663.95+950

Аннотация. В данной статье на основе архивных материалов и письменных источников о чайной торговле Туркестанского края проанализированы данные о ввозе и вывозе из русских стран черного, зеленого и кирпичного чая для чайной ярмарки, организованной в Ташкенте во второй половине XIX века.

В статье также исследуется увеличение чайной торговли по транзитному пути через Батуми и Закаспийскую железную дорогу и то, как это повлияло на центры торговли чаем в Центральной Азии, переселение оптового чайного центра из Бухары в Самарканд, один из важнейших городов Туркестанского края. В статье также раскрывается система чайной таможни Центральной Азии, ввозные чайные пошлины, таможенные тарифы на чай и разрешения на беспошлинный транзит чая из Китая и Индии.

Ключевые слова. черный чай, зеленый чай, кирпичный чай, ярмарка, Туркестан, Ташкент, Самарканд, пошлина, таможня, транзит.

TURKISTON O‘KASI CHOY SAVDOSI TAHLILI (XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlari)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turkiston hududining choy savdosi to‘g‘risidagi arxiv materiallari va yozma manbalar asosida XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkentda tashkil etilgan choy yarmarkasi uchun rus mamlakatlaridan qora, yashil va g‘ishtsimon shakldagi choylarni olib kirilishi va olib chiqilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlil qilindi. Maqolada, shuningdek, Batumi va Kaspiy orti temir yo‘li orqali tranzit yo‘li orqali choy savdosining ko‘payishi va bu Markaziy Osiyodagi choy savdo markazlariga qanday ta’sir qilgani, ulgurji choy markazining Buxorodan Turkiston o‘lkasining eng muhim shaharlaridan biri bo‘lgan Samarqandga ko‘chishi o‘rganiladi. Maqolada, shuningdek, Markaziy Osiyo choy bojxona tizimi, import choy bojlari, choy bojxona tariflari va Xitoy va Hindistondan choyni bojsiz tranzit qilishga ruxsat berilgani ochib beriladi.

Kalit so‘zlar. qora choy, ko‘k choy, g‘ishtsimon choy, yarmarka, Turkiston, Toshkent, Samarqand, boj, bojxona, tranzit.

Введение. Чай издавна был одним из самых популярных напитков в Центральной Азии. Караванами его доставляли из Китая, и начиная с XVIII века он получил широкое распространение среди местного населения. Во второй половине XIX века колониальная администрация Российской империи предпринимала меры для активизации торговли чаем в Туркестанском крае.

В данной статье на основе архивных материалов и письменных источников о чайной торговле Туркестанского края проанализированы данные о ввозе и вывозе из русских стран черного, зеленого и кирпичного чая для чайной ярмарки, организованной в Ташкенте во второй половине XIX века. В статье также исследуется увеличение чайной торговли по транзитному пути через Батуми и Закаспийскую железную дорогу и то, как это повлияло на центры торговли чаем в Центральной Азии, переселение оптового чайного центра из Бухары в Самарканд, один из важнейших городов Туркестанского края. В статье также раскрывается система чайной таможни Центральной Азии, ввозные чайные пошлины, таможенные тарифы на чай и разрешения на беспошлинный транзит чая из Китая и Индии.

По своему характеру источники и литература об источниковедческих аспектах истории чайной торговли Туркестанского края классифицированы в соответствии с изучаемым периодом, были разделены на исследования периода правления Российской империи, работы, опубликованные в советское время и научные исследования периода независимости.

Материалы о торговле чаем в данный период в Туркестанском крае можно найти в фондах И-36, И-188, И-189, И-276, И-469 Национального архива Узбекистана. Они содержат сведения о таможенных сборах, открытии чайного транзитного пути, а также о ввозе и вывозе чая в Туркестанский край.

Методология исследования. В раскрытии темы исследования использованы

методы системности, сравнения, проблемно-целевой, исторический, сопоставительный методы, метод логического подхода, социологические и антропологические (эксперимент, наблюдение, количественный и качественный анализ, синтез) а также метод междисциплинарного подхода.

Результаты и обсуждение. Начиная с середины XIX века колониальная администрация Российской империи активизировала торговлю чаем в Туркестанском крае. В 1870 году в Ташкенте был создан Ярмарочный комитет, который занимался организацией ярмарок. Согласно отчётным ведомостям комитета, прибывавшие в Ташкент караваны привозили значительное количество чая, а также вывозили его наряду с мануфактурными и бакалейными товарами.

Согласно данным «Материалов для Туркестанского края», в 1871 году в Ташкент было завезено черного чая на сумму 254 078 рублей 35 копеек. Из русских владений (за исключением Семипалатинска) поставки черного чая составили 181 996 рублей 35 копеек. Кроме того, черный чай поступал в Ташкент из центральноазиатских областей (за исключением Зарафшанской области) на сумму 72 082 рубля. Таким образом, объём поставок чая из русских владений был почти в три раза больше, чем из центральноазиатских регионов (см. таблицу 1).

Привезено черного чая	**Количество**	**Сумма**	**Привезено черного чая**	**Количество**	**Сумма**
Оренбург	49 п. 36 ф.	2274 р.	Сырдар. об.	264 п. 95 шир.	40090 р.
Троицк	468 п. 162 ящ.	45670 р. 80 к.	Семиречин. об.	682 п. 83 ф.	31090 р.
Петропавловск	492 п. 16 ящ.	20442 р. 90 к.	Зарафшан. об		
Семипалатинск			Коканд. влад.	6 п. 22 ф.	370 р.
Россия	1577 п. 156 ящ.	113608 р. 65 к.	Бухарск. влад.	9 п. 20 ф.	532 р.
			Кашгар		
Всего	2586 п. 36 ф. 334 ящ.	181996 р. 35 к.	Всего	961 п. 125 ф. 95 шир.	72082 р.
Привезено зеленого чая	**Количество**	**Сумма**	**Привезено зеленого чая**	**Количество**	**Сумма**
Семипалатинск	75 п. 32 ширы.	15187 р.	Семиречин. об.	125 п. 18 мест.	20914 р. 10 к.
			Бухарск. влад.	3 п. 12 ф.	196 р.
Всего	75 п. 32 ширы.	15187 р.	Всего	128 п. 12 ф. 18 мест.	21110 р. 10 коп
Привезено кирпичного чая	**Количество**	**Сумма**	**Привезено кирпичного чая**	**Количество**	**Сумма**
Петропавловск	на	4000 р.	Семеречин. об.	на	23126 р.
Всего	на	4000 р.	Всего	на	23126 р.
Вывезено черного чая	**Количества**	**Сумма**	**Вывезено зеленого чая**	**Количества**	**Сумма**
Сырдар. об.	на 203 п. 44 ф.	11821 р. 11240 р. 70 к.	Сырдар. об.	105 п. 83 ф. 2 ящ.	7167 р. 20 к.
Зарафшан. об	4 ящ. 90 п. 28 ф.	10887 р. 78 к.	Зарафшан. об.	31 п. 28 ф.	2058 р.
Коканд. влад.	1932 п. 28 ф.	93982 р. 22 к.	Коканд. влад.	1732 п. 2 шир.	112226 р. 95 к.
Всего	на 2226 п. 16 ф. 4ящ	11821 р. 116110 р. 70 к.	Всего	1869 п. 11 ф. 2 ящ. 2 шир.	121452 р. 15 к.

1-таблица. Привоз и вывоз черного, зеленого и кирпичного чая в г. Ташкент в 1871 г. [1: 28-31]

Надо отметить, что привоза черного чая не было из Кашгара [1: 30-31]. Как отмечал Ч.Валиханов, в Кашгаре почти не продавался черный (байховый чай) [2: 464].

В 1871 г. в г. Ташкент привозили также зеленый и кирпичный чай, но их было совсем мало, по сравнению с черным чаем. В «Материалах для Туркестанского края» зафиксировано, что зеленый чай привозят только из Семипалатинска, Семиреченской области и Бухарского владения на сумму 36297 р. 10 к. (1-таблица). Согласно этим данным, объем поставок зеленого чая из Центральной Азии превышал поставки из русских владений.

Кирпичный чай привозили в г. Ташкент только из Петропавловска и Семиреченской области на сумму 27126 р. (1-таблица). Завоз кирпичного чая из областей Центральной Азии был в 6 раз больше, чем из русских владений.

Отметим, что из русских владений только из Семипалатинска не было привезено черного чай, потому что оттуда завозился только зеленый чай. Из Петропавловска привозили черный и кирпичный чай. Из Семиреченской области поступал кирпичный чай.

В 1871 г. черный чай поступил на общую сумму 254078 р. 35 к., а зеленый на 36297 р. 10 к., кирпичный чай был на сумму 27126 р. Черного чая привозили в 7 раз больше, чем зеленого, и в 9 раз больше, чем кирпичного чая.

По информации полученной из'Материалов для Туркестанского края», из Ташкента в 1871 г. черный чай вывозили в Сырдарьинскую, Зарафшанскую области и Кокандское владение на сумму 116110 р. 70 к. (6-таблица). Зеленый чай вывозился из Ташкента в Сырдарьинскую и Зарафшанскую области, а также в Кокандское владение на сумму 221 452 рубля 15 копеек (см. таблицу 1). Следует отметить, что зеленый чай был дороже черного.

Кирпичный чай вывозился из Ташкента в Сырдарьинскую область и Кокандское владение на сумму 13227 р. [1: 28-29] Вывоз кирпичного чая был меньше черного и зеленого почти 9 раз.

Привоз чаев был организован почти из всех центральноазиатских областей в Ташкент, но его не вывозили из Ташкента в Семиреченскую область и Бухарские владения.

Одним из важных мероприятий администрации явилось открытие в конце 1870-начале 1871 г. ярмарки в Ташкенте. На осеннюю ярмарку, состоявшуюся в 1872 г. (с 3 октября по 1 ноября) прибыли купцы из Оренбурга, Троицка, Семипалатинска, Петропавловска, Акмолинска, Коканда, Бухары, Самарканда, Семиреченска, Ходжента и других районов Средней Азии и Казахстана [3: 137].

По данным «Материалов для Туркестанского края», можно увидеть вывоз и привоз чаев в Туркестанский край в 1872 г. В этом году из Туркестанского края вывозился и привозился черный, зеленый и кирпичный чай [1: 41, 48-49].

В 1872 г. черного чая вывезено из Ташкента и Ходжента на сумму 221485 р. 20 к. Но привезено было в Ташкент, Ходжент и Самарканд на сумму 567665 р. 80 к. По этим данным выяснятся, что привоз был в 3 раза больше, чем вывоз [1: 41, 48-49]..

Зеленый чай был вывезен из Ташкента и Аулие-ата на сумму 134879 р. 60 к. Зеленый чай завезен только в Ташкент и Самарканд на сумму 287870 р. 70 к. Привоз зеленого чая был в 2 раза больше, чем вывоз [1: 41, 48-49].

Кирпичный чай был привезен и вывезен из Туркестанского края в 1872 г. только в г. Ташкент. Вывоз кирпичного чая состоял на сумму 125999 р. 60 к. Привоз кирпичного чая был осуществленна сумму 25277 р. 90 к. Надо отметить, что вывоз кирпичного чая был в 5 раз больше, чем завоз [1: 41, 48-49]. По этим данным (вывоз на сумму 430252 р. 40 к. и привоз на сумму 880814 р. 40 к. в 1872 г.) можно отметить, что привоз чаев в Туркестанский край был 2 раза больше, чем вывоз.

В данных «Материалах для Туркестанского края» отражается вывоз и привоз чаев в 1872 г. через г. Ташкент из Коканда и далее в города России и из России в Коканд. В этом году из Коканда чай совсем не вывозился в русские владения и Центральную Азию [1: 61-62].

В 1872 г. всего привоз чая составлял в Коканд 21970 р. 25 к. Из них черный чай привозился из русских владений (только из Троицка) и из городов Сырдарьинского области на сумму в 13342 р. 25 к. [1: 61-62].

Из них зеленый чай привезен из русских владений, в то время как черный, привезен только из Троицка. Но из центральноазиатских владений, зеленый чай был привезен из

Семиреченской области всего на сумму 8628 р. [1: 61-62].

В Коканд из Троицка было привезено зеленого и черного чая на сумму 20940 р. 25 к. Но из них привоз зеленого чая был в 2 раза меньше, чем черного. Из владений Центральной Азии черный чай привозили из Сырдарьинской области, а зеленый чай из городов Семиреченской области. Но привоз зеленого чая был в 33 раза больше, чем черного. Надо отметить, что в Коканд не привозили кирпичный чай.

По данным источников, в 1874 г. из России было привезено товаров в г. Ташкент на сумму 4633498 р. 8 к. Важным из них был чай, (на сумму 180729 р. 53 к.[4: 363], почти 3 % всего товара). Все товары привозились из России четырьмя путями: через Оренбург, Троицк, Петропавловск и Семипалатинск [4: 364].

В ведомости о привозе в г. Ташкент, вывозе из него и привозе через него товаров в 1874 г. упоминается, что привоз чая составлял 76 % (на сумму 180729 р. 53 к.), вывоз чая 28 % (на сумму 79391 р. 20 к.), в привоз 8 % (на сумму 23068 р.) всего чая (2-таблица) [4: 452].

Название чаев	Привоз	Вывоз	Провоз	Всего
Черный	83511 р. 53 к.	39147 р. 40 к.	1818 р.	124476 р. 93 к.
Зеленый	96700 р.	29420 р. 80 к.	21250 р.	147370 р. 80 к.
Кирпичный	518 р.	10823	-	11341
Итого	180729 р. 53 к.	79391 р. 20 к.	23068 р.	283188 р. 73 к.

2-таблица. Ведомость о привозе в г. Ташкент, вывозе из него и провозе через него товаров в 1874 г. [4: 452].

Надо отметить, что процент всего завозного чая составлял: черного чая – 46 %, зеленого чая – 53,7 %, кирпичного чая – 0,3. Вывоз черного чая был 49 %, зеленого – 37 %, кирпичного – 14 %. Привоз черного чая был 8 %, зеленого чая – 92 % из всего объема привозного чая.

Привозимого черного чая было на 13189 р. меньше, чем зеленого. Вывозимого черного чая на 9726 р. больше, чем зеленого. Привозимого черного чая на 19432 р. меньше, чем зеленого. Вывоз кирпичного чая составлял в 20 раз больше, чем привоз. Кирпичный чай не привозился.

Согласно торговому соглашению с Китаем (от 20 сентября 1879 г.) и торговому договору (от 19 февраля 1881 г.) все товары из Китая, кроме чая, водки и серебра пропускались через таможню беспошлинно. Таким образом, царское правительство пыталось проводить протекционистскую политику по отношению к местным производителям чая [5: 6-17; 6: 2-30; 7: 6-19].

О продаже чая в Самарканде и в Самаркандской области в начале 70-х годов XIX в. упоминают Л.Ф.Костенко и А.Хорошхин. Л.Ф.Костенко говорит, что в Самарканде было 50 лавок с русским чаем, 30 лавок с приготовлением чая [10: 24-26], а по словам А.Хорошхина, в Сугутском (Ургут) тумане на базарах в Яканшихе было 6, а в Чукур-Базаре 9 продавцов чая [11: 101].

Открытие чайного транзитного пути от Батуми и Закаспийской железной дороги повлияло и на центры чайной торговли в Центральной Азии. До 1894 г. главную роль в этой торговле удерживала Бухара. В 1896-1898 гг. центр торговли чаем переместился в Самарканд. Здесь оперировали оптовые склады чайных фирм: Братьев Поповых, Кузнецова, Вогау и К^0, Ризаева (персидский купец), Перевалова. В 1897-1898 финансовом году иранские и русские фирмы привезли в Самарканд около 62 % этого товара [12: 62]. Импорт чая из Индии через Бухарскую таможню постепенно уменьшился; в первой половине 1900-1901 г. через Бухарскую таможню ввезли соответственно 29777 и 39657 пудов индийского чая [8: 277].

На Челябинской таможне чаи только развешивались, а потреблялись в Коканде, и, следовательно, в окончательном счете, пошлину за них платил потребитель – житель Ферганской области [13: 27].

В Ашхабадскую таможню пошлина поступала главным образом за чай, потребляемый населением Хивинского оазиса и Амударьинского отдела.

Пошлины на привозные чаи, взимаемые в колониальной период, были весьма умеренные.

Однако только в 1903-1904 гг., поступление пошлинных сборов удвоилось. Девяносто процентов этих пошлинных доходов давал чай [13: 33-34]. Пошлины черных и

зеленых чаев были разными, зеленого чая брался 12 руб. С пуда, так как черного брали 31 руб. 50 коп. с пуда [4: 452].

Чай зеленый по 12 руб. пошлины с пуда							
1903 г.		1904 г.		1905 г.		1906 г.	
Пуды	Рубля	Пуды	Рубля	Пуды	Рубля	Пуды	Рубля
119926	1439112	153302	1839624	143733	1796796	179814	2157768
Чай чёрный по 31 руб. 50 коп. пошлины с пуда							
1903 г.		1904 г.		1905 г.		1906 г.	
Пуды	Рубля	Пуды	Рубля	Пуды	Рубля	Пуды	Рубля
6070	191205	23551	741856	34283	1079914	45179	1423138

3-таблица. Ввоз чаев через Самаркандскую таможню [4: 452]

Цифра около 400000 пудов чая, ввозимого в край, составляла одну пятую 2 млн. пуд. байхового чая, потребляемого всей Российской империи, кроме Туркестана.

Между тем, в Туркестанском Генерал-Губернаторстве, Бухарском и Хивинском ханствах население насчитывало около 9-10 млн., а это меньше населения всей империи в 14 раз. А потребление чая на душу населения в Центральной Азии было почти в три раза больше, чем в России. Такой результат роста потребления чая в Туркестане следует отнести к следующим причинам:

1. умеренному таможенному тарифу, относящемуся как 3:8 к общеевропейскому и делающему цену чая доступной для населения;
2. тому обстоятельству, что контрабанда зеленого чая вовсе не была развита.

Подобный умеренный тариф, вызвавший столь значительное потребление чая, мог бы послужить хорошим примером и для Европейской России, где пошлина составляла иногда 200 % от стоимости продукта, чем тормозилось его потребления [13: 34].

По Центральноазиатской железной дороге всего в 1907 г. в Туркестан было ввезено черного чая в объеме 138448 пудов, а вывезено всего 5473 пудов. Зеленый чай по ввозу составлял 393565 пудов, по вывозу 1998 пудов.

По Ташкентской железной дороге за 1908 г., чая ввезено было 101525 пудов, а вывезено 18019 пудов [13: 23]. Из этих ввезенных чаев, 99949 пудов приходилось на Сырдарьинскую область [13: 64].

Чай составлял главнейший предмет ввоза из Европейской России в Туркестан.

В начале XX в. в г. Ташкенте чай продавался в русской части города на Ирдской улице, где была оптовая торговля «Товарищества Высоцкий и К^0» и на Романовской улице «Торговый дом Дросман».

1904 г. департамент таможенных сборов (Азиатское отделение) разрешил безпошлинный транзит через Батуми и Иркештам в Кашгар (Китай) переотправляемых из Шанхая шкур, чая, серебра, фарфоровых изделий, при условии:

1. чтобы каждая подобная партия товаров сопровождалась консульскими удостоверениями в китайском их происхождении;
2. внесения переотправителями этих товаров во впускную таможню залога в размеры пошлины по тарифам по европейской торговли, а за зеленые чаи – в размере пошлины по льготному центральноазиатскому тарифу, т.е. по 12 р. за пуд, каковой залог возвращался бы не прежде, как по получение впускного таможнею уведомления Кашгарского таможенного пункта о прибытий транспорта в полном сходстве с данными провозного свидетельства;
3. доставки транзитного груза от впускной таможни до места назначения в шестимесячный срок [9: 1].

Заключение/рекомендации. Во второй половине XIX века колониальная администрация царской России предпринимала меры по активизации торговли чаем и шелком в Туркестанском крае. В 1870 году в Ташкенте был создан Ярмарочный комитет, который занимался организацией ярмарок. Согласно его отчетам, караваны, прибывавшие в Ташкент, привозили значительное количество чая, который, наряду с промышленными товарами и продуктами питания, вывозился в южные страны.

Открытие транзитного маршрута из Батуми до Закаспийской железной дороги повлияло на торговые центры, связанные с поставками чая в Центральной Азии. До 1894 года главную роль в этой торговле играла Бухара, однако в 1896–1898 годах центр чайной торговли переместился в Самарканд.

Список использованной литературы

1. Материалы для торговой статистики Туркестанского края. Вып. 1. – Т.: тип. Окружнаго Штаба, 1873.

2. Валиханов Ч.Ч. Сочинения. /Под. ред. Н.И.Веселовского. – СП: тип. Главного управления уделов, 1904.

3. Зияев Х. Экономические связи с Средней Азии с Сибирью в XVI- XIX вв. – Т.: «Фан», 1983.

4. Проект Всеподданнейшнго отчета Ген.-Адъютанта К.П. фонъ-Кауфмана I по гражданскому уравлению и устройству в областях Туркестанского генераль-губернаторства (7 ноября 1867 г. – 25 марта 1881 г.). – СПб., «Военная Типография»,1885.

5. НАУз, ф. И-276, оп. 1, д.892 а, л. 6-17;

6. НАУз, ф. И-469, оп. 1, д. 54, л. 2-30;

7. НАУз, ф. И-36, оп. 1, д. 1707 а, л. 6-19.

8. НАУз, ф. И-188, оп. 1, д. 3, л. 277.

9. НАУз, ф. И-189, оп. 1., д. 17, л. 1.

10. Костенко Л.Ф. Путешествии в Бухару русской миссии в 1870 г. – СПб.: Изд. Борткевского, 1871. – С. 24-26.

11. Хорошхин А. Сугут. Топографическо-этнографический очерк. Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. 12. – СПб., 1873.

12. Сапарова Д.Ч. Влияние Закаспийской железной дороги на развитие русско-иранских торговых связей (90-е гг. XIX в.). – С.И, 1991.

13. Адрес-справочник Туркестанского края с иллюстрациями, календарем на 1910 г. картой края и объявлениями. – Т.: Издание Сырьдарьинск. областн. статистическ. комитета. 1910.

O‘ZBEKISTONDAGI IJTIMOIY RIVOJLANISH JARAYONLARINI TADQIQ ETISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

Xojiyev Tunis Nurkosimovich
O‘zbekiston Milliy universiteti
Huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti (PhD)
karfagen_87@mail.ru
ORCID 0000-0003-3428-7276
UDK 1 (09) (584.4)(100)

Annotatsiya. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng respublikamizda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar va kompleks modernizatsiyalash jarayonlari turli ijtimoiy gumanitar fan sohalari pozitsiyasidan turib o‘rganilgan. Ammo mamlakatimizda kechgan modernizatsiya jarayonlari tarixi xronologik jihatdan davrlashtirish muammosiga yetarlicha diqqat qaratilmagan. Mazkur maqolada respublikamizda kechayotgan kompleks modernizatsiyalashning falsafiy-tarixiy asoslari aniqlangani holda, ular muayyan xronologik bosqichlarga ajratib o‘rganiladi. Maqolada ijtimoiy rivojlanishga oid zamonaviy konsepsiyalar tahlil etiladi. Shuningdek, ijtmoiy rivojlanish zamonaviy konsepsiyalarining eng keng tadqiq etilgan modernizatsiya nazariyalarining darajalari, asosiy xususiyatlari tahlil etiladi. Shuningdek, O‘zbekistondagi modernizatsiya jarayonlari tarixini o‘rganishda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllanib keng tarqalgan ma’rifatparvarlik oqimi hamda jadidchilik harakati g‘oya va faoliyati tahliliga ham e’tibor qaratiladi. Bunda O‘zbekiston Respublikasini isloh etishga qaratilgan keng miqyosli taraqqiyot dasturlari (Taraqqiyotning “O‘zbek modeli”, Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi) determinant sifatida olinadi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida kechgan modernizatsiya jarayonlari bosqichlarining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanib, respublikamiz modernizatsiya modelining transformatsiyasi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: modernizatsiya, ijtimoiy rivojlanish, modernizatsion yondashuv, konvergensiya nazariyasi, postindustrial jamiyat, axborot, kapital, “Harakatlar strategiyasi”, “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi.

SOCIO-PHILOSOPHICAL BASICS OF STUDYING SOCIAL DEVELOPMENT PROCESSES IN UZBEKISTAN

Abstract. The large-scale reforms and complex modernization processes implemented in our republic after gaining independence have been studied from the standpoint of various social and humanitarian sciences. Hovever, the history of modernization processes in our country has not paid enough attention to the problem of chronological periodization. In this article, the philosophical and historical foundations of the complex modernization taking place in our republic are determined, and they are studied by dividing them into certain chronological stages. The article analyzes modern concepts of social development. Also, the levels and main features of the most widely researched modernization theories of modern concepts of social development are analyzed. Also, in the study of the history of the modernization processes in Uzbekistan, attention is paid to the analysis of the ideas and activities of the enlightenment movement and the revolutionary movement, which was formed in the late 19th and early 20th centuries. In this, large-scale development programs aimed at reforming the Republic of Uzbekistan ("Uzbek model of development", the concept of deepening democratic reforms and development of civil society in our country, "Strategy of actions for further development of the Republic of Uzbekistan", "Uzbekistan — 2030" strategy) is taken as a determinant. Accordingly, the specific features of the stages of modernization processes in the Republic of Uzbekistan are determined, and the transformation of the modernization model of our republic is revealed.

Key words. modernization, social development, modernization approach, convergence theory, post-industrial society, information, capital, "Action Strategy", "Uzbekistan - 2030" strategy.

Kirish. Ma’lumki, mustaqilligimizning dastlabki davridan to bugungi kungacha respublikamizda jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Mazkur islohotlarni izchil va samarador ravishda amalga oshirish puxta va chuqur o‘ylangan, ilmiy asoslangan ko‘plab mexanizmlarning ishlab chiqilishini talab qiladi. Ko‘rinib turibdiki, mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida kuchli va fundamental tadqiqotlarga zarurat seziladi. Negaki, modernizatsiya amalga oshayotgan mamlakat o‘z modernizatsiya yoki taraqqiyot yo‘lini tanlashda chuqur ilmiy asoslarga ega bo‘lgan nazariy ishlanmalar ishlab chiqmog‘i lozim. Bunda mamlakatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy shart-sharoit, aholining etnik tarkibi, shunga ko‘ra milliy mental xususiyatlar, jahon tajribasi, xalqaro maydondagi vaziyat hamda tarixiy tajriba tahlillarini o‘zida umumlashtirgan, amaliyot bilan uyg‘un nazariy g‘oyalar, ishlanmalarga ehtiyoj ortadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan to bugungi kunga qadar ayni masalalarni u yoki bu darajada yoritishga urinilgan mamlakatimizni modernizatsiyalashga oid masalalar tahliliga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar yuzaga keldi. Bunday tadqiqotlarda mamlakatimiz modernizatsiya xususiyatlarini belgilash, istiqbolga oid prognozlar berish, bu boradagi jahon tajribasini o‘rganish bilan bir qatorda O‘zbekistonni modernizatsiyalash tarixi va rivojlanish bosqichlarini davrlashtirishga tegishli izlanishlarni ham uchratish mumkin. Albatta, O‘zbekistonda modernizatsiyani amalga oshirish tarixini tadqiq etish, jumladan, mazkur jarayonni xronologik jihatdan bosqichlar yoki davrlarga ajratishga qaratilgan alohida, yirik fundamental tadqiqotlarni ajratib ko‘rsatish qiyin. Ammo mamlakatimiz modernizatsiya modeliga oid tadqiqotlarning aksariyatida ayni masalaga murojaatlarni kuzatish mumkin. O‘zbekistonning yangi tarixi yoki biror bir alohida soha: davlat hokimiyati va boshqaruvi, ijtimoiy himoya, ma’naviy taraqqiyot, huquqiy soha, mulkchilikning shakllanishi, o‘tish davri bosqichlari, iqtisodiy islohotlar va h.k kabi yo‘nalishlardagi tadqiqotlarda bu borada muayyan izlanishlar amalga oshirilgan.

Lekin respublikamizda kechgan keng islohotlar jarayonlarini yaxlit modernizatsiya paradigmalari nuqtayi nazarlaridan bosqichlarga yoki davrlarga ajratib ko‘rsatishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar mavjud emas. Bundan tashqari ijtimoiy rivojlanishning zamonaviy konsepsiyalari nuqtayi nazaridan respublikamizda kechayotgan keng islohotlar jarayonlarini sohalar kesimida klassifikatsiyalab o‘rganishga qaratilgan ishlarni ham uchratish qiyin. Albatta, mazkur muammolarning har biri bir necha alohida tadqiqotlar uchun predmet vazifasini o‘tay oladi.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar sharhi. O‘zbekistonni modernizatsiyalash jarayonlarini davrlashtirish masalasi respublika mustaqillikka erishgan yillarda muayyan darajada tadqiq etilgan. Bunday tadqiqotlarda O‘zbekistonni modernizatsiyalash jarayonlari tarixi yaxlit tarzda emas, balki alohida sohalar kesimida ochib beriladi. Jumladan, Jo‘rayev N.[1], Jakbarov M. [2], Qodirov A.[3], Azizxo‘jayev A.A.[4] Nazarov Q.N.[5] Boboyev H.[6], Jumayev R.[7], Musayev F.A.[8], Otamurotov S.O.[9], Ergashev I.[10], Qirg‘izboyev M.[11], Abdullayeva M.N.[12], Omonov B.[13] larning monografiya, risola va maqolalarida mazkur masala chuqur tahlil etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tarixiylik, obyektivlik, abstraklikdan konkretlikka qarab borish, kauzal, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil singari umumilmiy va umumfalsafiy metodlardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Ijtimoiy rivojlanishga oid zamonaviy konsepsiyalar – bu insoniyat jamiyatining rivojlanishi va taraqqiyotini turli ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy jihatlardan tushuntirib beruvchi nazariyalar va yondashuvlar majmuasidir. Ushbu konsepsiyalar ijtimoiy o‘zgarishlarni o‘rganish va jamiyatlarning taraqqiyoti jarayonlarini tushuntirishga harakat qiladi. Quyida ijtimoiy rivojlanishning ayrim zamonaviy konsepsiyalari bilan tanishish mumkin:

1. Barqaror rivojlanish. Bu yondashuvda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik omillar birgalikda ko‘rib chiqiladi. Barqaror rivojlanishning asosiy tamoyillari kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini cheklamagan holda hozirgi ehtiyojlarni qondirishni o‘z ichiga oladi.

2. Modernizatsiya nazariyalari. Ushbu nazariya industrial va post-industrial jamiyatlarning shakllanishini tushuntirishga qaratilgan nazariya bo‘lib, modernizatsiya nazariyasiga ko‘ra, har bir jamiyat rivojlanish jarayonida an’anaviy jamiyatdan zamonaviy, industrial jamiyatga o‘tadi.

3. Globalizatsiya nazariyasi. Bu konsepsiya dunyoda ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarning tobora kengayishi, texnologiyalar, axborot va madaniyatning global darajada tarqalishini tushuntiradi. Globalizatsiya jamiyatlar o‘rtasidagi chegaralarni yo‘qotib, yangi turdagi ijtimoiy tuzilmalarni yaratadi.

4. Dunyo tizimi nazariyasi. Immanuel Vallerstein tomonidan ishlab chiqilgan bu nazariya butun dunyoni iqtisodiy va siyosiy jihatdan bir tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Unda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar tahlil qilinadi va markaziy (rivojlangan), yarim-periferik va periferik (rivojlanayotgan) davlatlar tushunchalari qo‘llaniladi.

5. Postindustrial jamiyat nazariyasi: Bu konsepsiyaga ko‘ra, zamonaviy jamiyatlar industrial bosqichdan xizmatlar va axborot texnologiyalariga asoslangan jamiyatga o‘tadi. Ushbu nazariya iqtisodiyotdagi mehnat tuzilmasi va texnologik taraqqiyotning ijtimoiy tuzilmalarga ta’sirini o‘rganadi.

6. Ijtimoiy kapital nazariyasi. Bu nazariya ijtimoiy tarmoqlar, ishonch va o‘zaro hamkorlik ijtimoiy rivojlanishga qanday ta’sir qilishini tushuntiradi. Ijtimoiy kapitalning yuqori darajada bo‘lishi jamiyatlar uchun ijtimoiy resurslar va imkoniyatlarni yaxshilash imkonini beradi.

Zamonaviy ijtimoiy rivojlanish konsepsiyalari turli xildagi ijtimoiy jarayonlarni har

tomonlama ko‘rib chiqadi va ularni tushuntirish uchun global, milliy va mahalliy darajalarda yondashuvlarni birlashtiradi[14].

Ushbu tadqiqotda O‘zbekistondagi ijtimoiy rivojlanish jarayonlari modernizatsion paradigma nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Modernizatsion o‘tish kamdan kam holda ravon, bir tekis kechadi; u jamiyatning barcha sohalariga, ijtimoiy institutlarga ta’sir ko‘rsatadi[15], mazkur jarayon jamiyatning barcha sohasidagi tub o‘zgarishlarni nazarda tutadi. Tizimli yondashuvdan foydalangan holda biz modernizatsiyani jamiyatning barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatuvchi ko‘p darajali jarayon sifatida olib qarash zarurligini tavsiya etamiz[16].

Modernizatsiyaning birinchi darajasi jamiyat a’zolarining modernizatsiyaga bo‘lgan munosabati bilan bog‘liq: sanoatlashish, urbanizatsiya, ommaviy ishlab chiqarish, kommersializatsiya o‘z mohiyatiga ko‘ra mazkur jarayonlarda universal ahamiyatga ega.

Modernizatsiyaning ikkinchi darajasida siyosiy tuzimda o‘zgarishlar yuz beradi[17], siyosiy tuzumni modernizatsiyalashishining alohida jihati deb an’anaviy tarzda konstitutsiyaning joriy bo‘lishi, ya’ni hokimiyatning bo‘linishi, jamiyat va hokimiyat organlarining o‘zaro ratsional aloqadorligi mexanizmlarini ishlab chiqish nazarda tutiladi.

Uchinchi daraja – konseptual daraja. Konseptual darajada siyosiy tuzumning asoslari va uning funksiyalari to‘la yaratiladi. Ushbu darajada hududning ijtimoiy madaniy xususiyatlari to‘la tarzda namoyon bo‘ladi[18].

Modernizatsiya butun boshli sotsiumning, avvalambor, inson ongining tizimli yangilanishidir. “Modernizatsiya ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o‘lchamlardan o‘tib inson ongida inqilob qildi, insoniyat qadriyatlari va e’tiqodini ildizlari bilan qo‘porib tashladi, hayotning emotsional strukturasini o‘zgartirdi”[19]. Piter Berger o‘zining “Zamonaviylikni tushunish” asarida zamonaviy jamiyatda o‘zgarib borayotgan jamoatchilik ongining transformatsiyasi haqida yozadi. U bugungi kunda ahamiyatli bo‘lgan beshta dilemmani ajratib ko‘rsatadi, muallifning so‘zlariga qaraganda ushbu dilemmalar fundamental va amaliy ahamiyatga ega.

“Birinchi dilemma abstraksiya natijasida shakllanadi, ushbu hol zamonaviylikning eng muhim xususiyatlaridan biri, jamiyatdagi kichik, jips guruhlarni hisobga olmaganda umumiy ijtimoiy munosabatlarda zaiflashish yuz beradi, zotan inson birlamchi guruhlarda hamjihatlikni his qiladi va hayot ma’nosini topadi. Muallif nazarda tutgan abstrakt ong darajasida inson hayotining barcha sohalariga nisbatan nafrat uyg‘otuvchi emotsional hislar va tafakkur tarzi kuchayadi. Muallif abstraksiyaning ildizini jamiyat asosida turuvchi ijtimoiy institutlarda ko‘radi: bu kapitalizatsiya bozorida va byurokratlashgan davlatda, texnologiyalashgan iqtisodda o‘z ifodasini topadi, bundan tashqari texnologiyaning jamiyatdagi noiqtisodiy sektor ustidan hukmronligida, katta shaharlardagi uning geterogeni bilan kishilar aglomeratsiyasida va nihoyat, ommaviy kommunikatsiya vositalarida aks etadi.

Ikkinchi dilemma bu kelajakda inson idrokidagi temporal strukturalarning keskin o‘zgarishi bo‘lib, bunda kelajak nafaqat tasavvurlarning, balki faoliyatning ham mezoniga aylanadi. Agar modernizatsiya jarayonini inson idrokining vaqt mobaynidagi transformatsiyasi deb baholasak, bu modernizatsiyaga berilgan eng xato ta’riflardan biri bo‘lardi.

Temporal transformatsiya uch darajada namoyon bo‘ladi. Kundalik hayotda buni umumiy dominantga aylanib boradigan stol, devor qo‘l soatiga qiyos qilish mumkin. Jamiyat miqyosida esa, hukumat va yirik tashkilotlar proyektlarni turli rejalar orqali amalga oshiradi, masalan, besh yillik, yetti yillik, ko‘p yillik rejalar yoki “iqtisodiy o‘sishning bosqichlari”, “kommunizmga o‘tish” kabi konsepsiyalarni keltirish mumkin. Har uchala darajada ham yangi temporallik kishilar idrokida keskin ziddiyatli kechadi, bu hol ayniqsa o‘tgan asrdagi tuzumlarga xosdir.

Uchinchi dilemma - individuatsiya. Modernizatsiya individning kollektiv va ijtimoiy jamoadan ajralib borayotgan barcha xususiyatlarini qamrab oladi. Bu ma’noda tarixdan o‘zgarmay kelayotgan jamiyat va individ o‘rtasidagi qarama-qarshilikka urg‘u beriladi. Individuatsiya bu abstraksiyaning qarama-qarshi tomoni bo‘lib, bu ikki tushuncha o‘zaro paradoksal bog‘liq hamdir. Tashqi sotsiostrukturali sabablar ham aynan individga to jamiyat tuzilishigacha tayanch bo‘lgan jamoviy qadriyatlarning zaiflashishi bilan ham namoyon bo‘ladi. Bu masalalarning paradoksalligi ham shundaki, mazkur jamoalar abstrakt megostruktura funksiyasini bajargan, bunda individ o‘zini jamiyat uchun g‘oyat zarur, murakkab, noyob shaxs sifatida his qilgan, abstrakt ijtimoiy institutlarda bu rolning amalga oshirilishi amri mahol edi.

To‘rtinchi dilemma – xalos bo‘lish. Modernizatsiyaning muhim jihati shundaki, inson hayotining ilgarilari taqdiri azalda belgilab qo‘yilgan deyilgan ko‘p tomonlari hozirda, individ

yoki, jamoaning tanloviga bog‘liq jarayon deya qabul qilinadi. Bu ma’noda modernizatsiya tanlovlarning ko‘pligini ham anglatadi. Zamonaviylikning jozibali prinsiplaridan birida shunday qarashlar ilgari suriladi: narsalar avval qanday bo‘lgan bo‘lsa, hozir unday emas. Zamonaviylikning dinamikasi, yangilik va inqiloblarga intilishi ham ana shunda. Endilikda an’analar majburiy emas, status-kvo o‘zgarishi mumkin, kelajak esa yangidan yangi ufqlarni ochadi.

Nihoyat, sekulyarizatsiya dilemmasi. Modernizatsiya diniy e’tiqod va tajribalarga jiddiy xavf tug‘dirishi mumkin. Biroq bu diniy e’tiqod butunlay yo‘q bo‘lib ketadi degani emas. Lekin shuni ham ta’kidlab o‘tish zarurki, sekulyarizatsiya ko‘pchilik ommadagi diniy e’tiqodning zaiflashishiga olib keladi[20].

Mamlakatimizdagi modernizatsiya jarayonlari tarixini o‘rganishda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllanib keng tarqalgan ma’rifatparvarlik oqimi hamda jadidchilik harakati g‘oya va faoliyati tahliliga ham e’tibor qaratiladi. Ammo ko‘p hollarda ma’rifatparvarlik va jadidchilik g‘oyalari modernizatsion paradigma nuqtayi nazaridan tahlil etilmasdan mazkur harakatlar vakillarining avtobiografiyasi, shuningdek, ularning milliy ozodlik harakati borasidagi intilishlari aytib o‘tiladi. Shu ma’noda, ma’rifatparvarlik va jadidchilik oqimlarining islohotchilik harakatlarini modernizatsiya nazariyalari nuqtayi nazaridan tadqiq etishga katta zarurat mavjud.

Albatta, ma’rifatparvarlik va jadidchilik harakati namoyandalarining asarlarida jamiyatni tubdan isloh qilishga qaratilgan g‘oyalar ilgari surilganligiga shubha yo‘q. Xususan, A.Fitrat tomonidan 1917-yilda e’lon qilingan “Islohot va Buxoro” asarida Buxoro amirligini isloh qilishga qaratilgan ko‘plab g‘oyalarni uchratish mumkin. A.Fitratning “Islohot va Buxoro” siyosiy dasturi yoki modernizatsiya loyihasining mohiyatini qisqa qilib quyidagicha ifodalash mumkin:

I bob: Eng bosh masala yer-suv munosabatlarida g‘allakorlarni kafsan (mullalarga to‘lanadigan soliq) dan ozod etish, suv chiqarilgan hukumat yerlarini yersiz aholiga bo‘lib berish ilgari surilgan.

II bob: Vaqf yerlari Buxoroni eng madaniy shaharga aylantirishda katta rol o‘ynashi mumkin, agar yerdan olingan foydaga machitlar, diniy-dunyoviy maktablar ta’minlansa, kutubxonalar, yetimxonalar, kasalxonalar, kambag‘allar uchun oshxonalar qurilsa.

III bob: Buxoroning 22 yoshga yetgan aholisi harbiy xizmatga chaqirilishi kerak, bemorlar va nogironlar bundan ozod qilinadi.

IV bob: Barcha ishlar uchun moliya sohasi kerak. Buning uchun moliya vazirligi tashkil etilib, soliqlar bilan shug‘ullanuvchi bu vazirlikka saroy g‘aznachisi ham hisob berishi lozim.

V bob:Qo‘rg‘onlardagi amaldorlar ichki ishlar vazirligi tomonidan tayinlansin, quyiroqdagi aholi saylovi bilan. Vazirlar va hukmdorlar sud ishlariga aralashmasligi lozim.

VI bob: Sud va huquq tartibot organlari ishini bir-biridan ajratish kerak. Yustitsiya va sud vazirliklari ikki bosqichda joriy etilishi lozim: quyi va yuqori bosqich.

VII bob: Politsiya aholi o‘rtasida tinchlikni saqlashi lozim. Bu davlat mudofaasidagi muhim bo‘limdir.

VIII bob: Bo‘lg‘usi hukumat yo‘l va foydali qazilmalar ishiga e’tibor berishi kerak, yurar yo‘llar tiklanishi, avtomobil yo‘llari va temir yo‘llar qurilishi lozim.

IX bob: Rossiya va boshqa hukumatlar bilan bo‘ladigan aloqalar uchun tashqi ishlar vazirligi tayinlanishi kerak. Bu vazir bir vaqtning o‘zida vazirlar sovetining raisi ham bo‘ladi.

X bob: Vazirlar sovetining raisi amir farmoniga muvofiq tayinlanadi.

XI bob: Davlat va vaqf maktablaridan tashqari istalgan shaxs tomonidan maktab ochilishi mumkin.

XII bob: Aholi punktlarida, ko‘cha va yo‘llarda bozorlar va h.k. qiymat belgilash uchun xalq vakillaridan kommunal sovet organlari tashkil etilishi kerak.

XIII bob: Nazorat organlari ikki bosqichdan iborat bo‘ladi: 1) o‘nta maxsus yuristlardan va o‘nta xalq vakillaridan iborat bosqich; 2) erkin matbuot[21].

Jadidchilik oqimi namoyandalarining islohotchilik harakatlarida inson modernizatsiyasi, aniqrog‘i ta’lim, fan va madaniyatni yangilash g‘oyasi ustuvorlik qilgan. Dastlab, shunchaki nazariy qarashlar darajasida bo‘lgan mazkur g‘oyalar keyinchalik ulkan islohotchilik harakatiga aylanadi. Ayniqsa, A.Fitratning “Islohot va Buxoro” asarini tom ma’nodagi mamlakat modernizatsiyasini amalga oshirishga qaratilgan strategik taraqqiyot loyihasi yoki islom sotsiomadaniy muhitida yuzaga kelgan o‘ziga xos Sharqona modernizatsiya modeli sifatida baholash mumkin. Ammo muayyan ijtimoiy siyosiy to‘siqlar tufayli jadidlar tomonidan

boshlangan Turkistonni modernizatsiyalashga qaratilgan ulkan islohotchilik harakati tugallanmay qoldi.

O‘zbekistonda kechgan modernizatsiya jarayonlari Sobiq Sovet mustamlakachilik davrida ham muayyan ma’noda davom etdi. Sobiq Sovet davridagi mamlakatimizda amalga oshirilgan modernizatsiya umumittifoqda amalga oshgan notekis modernizatsiya jarayonlarining bir qismi sifatida namoyon bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi ham o‘sha davrda Sovet Ittifoqining xomashyo bazalaridan biri bo‘lganligi hech kimga sir emas. Jumladan, Respublika xo‘jalik tizimi asosan paxta xomashyosini yetishtirishga ixtisoslashgan edi. Ushbu davrda mamlakatda bunyod etilgan yo‘llar, omborxonalar, ishlab chiqarish tizimi va boshqa ko‘plab infrastruktura elementlari asosan mustamlakachilar uchun yaratilgan qulayliklardan iborat edi. Bu modernizatsiya yo‘nalishi bir muncha yuzaki bo‘lib, uning aholi turmush darajasi yaxshilanishidagi ta’siri deyarli sezilmaydi. Mahalliy modernizatsiyalashgan elita vakillari istiqomat qiluvchi kvartallar joylashgan zamonaviy anklavlar yuzaga keldi. Bunday jamiyatlarni dualistik jamiyatlar sifatida tavsiflanadi[22].

O‘zbekistonda ushbu davrda ma’lum ma’nodagi texnologik modernizatsiya ham ro‘y berdi. Ammo bu sohadagi modernizatsiya birgina O‘zbekiston iqtisodiyotini yaxshilash maqsadida amalga oshirilgan deyish qiyin. Ishlab chiqarish korxonalarining aksariyati (O‘rta Osiyo respublikalariga evakuatsiya qilingan 308 korxonaning 104 tasi (Leningrad to‘qimachilik mashinalari zavodi, “Qizil-Oqsoy”, “Rosselmash”, Sumsk kompressor va Dnepropetrovsk karborund zavodlari, Moskvadagi “Elektrokabel” va “Podyomnik” zavodlari, Temir yo‘llar xalq komissarligining mashinasozlik zavodi, Chkalov nomidagi aviatsiya zavodi, “Krasniy put” zavodi, Kiyevdagi “Transsignal” zavodi, Stalingrad kimyo kombinati va boshqalar) O‘zbekistonga: ulardan 55 ta korxona Toshkent va Toshkent viloyatiga, 14 ta zavod va fabrika Samarqandga, 22 tasi Farg‘ona vodiysiga, ikkitasi Buxoro viloyatiga joylashtirildi[23]), respublikaga ikkinchi jahon urushi davrida ko‘chirib keltirilgan edi. Mazkur ishlab chiqarish korxonalari mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun emas, balki O‘zbekiston urushdan uzoq hudud sifatida qulay zona bo‘lganligi tufayli olib kelingan. Bundan tashqari sobiq sovet davrida mamlakatda mavjud bo‘lgan aksariyat yirik sanoat korxonalari to‘g‘ridan to‘g‘ri Moskvaga bo‘ysungan bo‘lib, ulardan olinadigan daromad to‘la-to‘kis mahalliy budjetga kelib tushmas edi. Masalan, tabiiy resurslar qazib olish bilan shug‘ullanuvchi yirik zavod va fabrikalarning aksariyati Moskvadan turib boshqarilgan va moliyalashtirilgan. O‘zbekiston metropoliya uchun boy mineral xomashyo bazasi ham bo‘lib kelayotgan edi. Bu yerda ko‘pgina nodir foydali qazilmalar: oltin, mis, qo‘rg‘oshin, rux, volfram, uran, tabiiy gaz, ko‘mir konlari ochildi. Ana shu konlar negizida zavodlar, neft va gaz sanoati korxonalari qurildi, yangi shaharlar va posyolkalar bunyod etildi. O‘tgan asrning 60–70-yillarida respublikada yirik oltin qazib chiqarish sanoati yaratildi va nufuzli tarzda rivojlana boshladi, oltin chiqarish majmualari, fabrikalari, oltin saralash kombinatlari, shuningdek, mis rudasini qayta ishlash kombinatlari foydalanishga topshirildi. Shu bilan birga, jahon andozalariga javob beradigan yuqori sifatli oltin olina boshlandi. Lekin bu boyliklar to‘laligicha Markazga olib ketilar, O‘zbekistonga esa hech qanday nafi tegmas edi. Chunki mustabid tuzumning mustamlakachilik iskanjasida siqib qo‘yilgan O‘zbekiston o‘z zaminidan olinadigan birorta boylikning xo‘jayini emasdi va uning ne’matlaridan mustaqil foydalana olmasdi. O‘zbekistonning hayotiy muhim tarmoqlari va yirik korxonalarining aksariyat qismi (qariyb 70%), shu jumladan, rangli metallurgiya korxonalari bevosita ittifoq vazirliklariga bo‘ysunardi; respublika o‘zi ishlab chiqarayotgan mahsulotning egasi emasdi. Oltin, uran, rangli metallar va boshqa foydali qazilmalarni qazib olish va tashib ketish bilan markaziy organlar O‘zbekiston rahbar organlarining roziligisiz va ularning nazoratisiz o‘zlari shug‘ullanishar va tasarruf qilishardi. Olinadigan foydaning arzimagan ozgina qismigina nomiga respublika budjetiga o‘tkazilardi[24].

Bundan tashqari respublikada sanoat hududlari sifatida tashkil qilingan shaharlar hamda ulardagi infrastruktura qulayliklari asosan mustamlakachi xalq vakillariga xizmat ko‘rsatgan. Bunday anklavlar qatoriga Angren, Zarafshon, Uchquduq, Bekobod, Olmaliq, Marjonbuloq kabilarni kiritish mumkin.

Sovet davrida O‘zbekistonda fan, ta’lim va madaniyat sohasida ham modernizatsiya jarayonlari ro‘y berdi. Ammo mazkur sohalardagi modernizatsiya darajasi birmuncha yuzaki va samarasiz bo‘lganligi barchaga birdek ma’lum. Umuman olganda, sobiq sovet davrida respublikada amalga oshgan modernizatsiya O‘zbekiston aholisining farovonligidan ko‘ra asosan mustamlakachi xalqlar manfaatlariga xizmat qildi.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng mamlakatni tubdan modernizatsiyalashga katta zarurat mavjud edi. Buning uchun esa eng avvalo mamlakatda mavjud iqtisodiy, siyosiy, sotsiomadaniy omillar hamda jahonning yetakchi mamlakatlari tajribasini o‘zida mujassamlashtirgan modernizatsiya modelini ishlab chiqish talab qilindi. Umuman, mustaqillik yillaridagi amalga oshirilgan modernizatsiya jarayonini 4 yirik taraqqiyot dasturlarining (Taraqqiyotning “O‘zbek modeli”, “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”, “Harakatlar strategiyasi”, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi) qabul qilinishi bilan bog‘liq holda shartli ravishda 4 bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich, taraqqiyotning “O‘zbek modeli” qabul qilinishi, davlat qurilishining huquqiy va tashkiliy asoslari yo‘lga qo‘yilishi, xususiy mulkchilikning shakllanishi, uzluksiz ta’lim tizimining ishlab chiqilishi hamda joriy etilishi, yer islohotlarining amalga oshirilishi, milliy qonunchilik tizimining ishlab chiqilishi, bank-moliya tizimining yaratilishi, tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi kabi bir qancha xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Bu davrda 1) iqtisodiyotni mafkuradan xoli qilish; 2) qonun ustuvorligini ta’minlash; 3) davlatning bosh islohotchi sifatidagi boshqaruvchilik rolini tan olish; 4) mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish; 5)siyosiy va iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyillaridan iborat taraqqiyotning “O‘zbek modeli” muhim strategik ahamiyat kasb etdi.

“O‘zbek modeli”ning o‘ziga xos takomillashgan model ekanligi Birinchi Prezident I.A .Karimov tomonidan ilgari surilgan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ning **(**2010-yil 12- noyabr) mazmun-mohiyatidan yanada teranroq anglash mumkin. Unga muvofiq, rivojlanishning “O‘zbek modeli” mustaqillik davrida orttirilgan milliy tajriba va rivojlangan mamlakatlarda sinovlardan o‘tgan farovon jamiyat va huquqiy davlat qurishning nazariy va amaliy jihatlari yanada boyitildi. Mazkur konsepsiya fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning ustuvor maqsad va vazifalarini belgilab berish asnosida bu jarayonning huquqiy asoslar bilan ta’minlashning istiqbolli dasturi sifatida namoyon bo‘ldi.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshayotgan kompleks modernizatsiya jarayonlarining ikkinchi bosqichi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” ning qabul qilinishi bilan boshlanadi. Bu davrda davlat boshqaruvi, qonunchilik, axborot sohasi, iqtisodiyotni liberallashtirish, saylov tizimi, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish kabilar bilan bog‘liq mamlakatni modernizatsiyalashga qaratilgan qator tashkiliy, institutsional-huquqiy tub islohotlar amalga oshirildi. Bu bosqichda “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” strategik taraqqiyot dasturi vazifasini o‘tadi.

O‘zbekistonda kechgan mustaqillik davri modernizatsiyasining uchinchi bosqichi “Harakatlar strategiyasi”ning qabul qilinishi bilan belgilanadi. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston jamiyatini modernizatsiyalash borasidagi ayni maqolada ilgari surilgan mulohazalar tahlilini umumlashtirgan holda bu jarayonni quyidagicha davrlashtirish mumkin:

Respublika hududida kechgan modernizatsiya jarayonlari tarixini shartli uch davrga ajratish mumkin:

1) Jadidchilik harakati bilan yuzaga kelgan modernizatsiya davri bosqichi.
2) Istilo tuzumiga moslashtirishga qaratilgan konstruktiv-modernizatsion loyiha davri.
3) Mustaqillik yillarida amalga oshgan modernizatsiyalash davri bosqichi.

Albatta, bu uch davrning har birida o‘ziga xos alohida ijtimoiy munosabatlar, tashkiliy institutsional tuzilmalar hamda iqtisodiyot va sanoat taraqqiyoti va qadriyatlar tizimi bilan bog‘liq jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lgan.

O‘zbekiston modernizatsiyasi tarixida mustaqillik davri bosqichi muhim o‘rin tutadi. Zero, bu davr modernizatsiyasi xalq va davlatning butkul tubdan yangilanish jarayonlarini o‘zida aks ettiradi. Keng qamrovli ushbu davrda ro‘y bergan kompleks modernizatsiyalash jarayonlarini davrlashtirish muammosi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Albatta, bu borada turli nuqtayi nazarni ilgari suruvchi yondashuvlar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, muayyan bir soha modernizatsiyasi bo‘yicha mustaqillik yillarida ro‘y bergan ma’lum tarixiy voqealarga ko‘ra yoki jiddiy o‘zgarishlarni nazarda tutuvchi qonunlarga asoslangan holda ham mustaqillik yillari modernizatsiyasi tarixini davrlashtirish tasnifi amalga oshirilishi mumkin.

Mazkur tadqiqotda ushbu davr modernizatsiyasini davrlashtirish muammosi umume’tirof etilgan modernizatsion paradigma pozitsiyasidan turib biror hududni isloh qilishga qaratilgan

strategik taraqqiyot dasturlarining qabul qilinishiga ko‘ra hal qilish taklif qilinadi. Ayniqsa, jadallashtirilgan yoki quvib yetuvchi modernizatsiya modelini qo‘llagan mamlakatlarda kechgan modernizatsiya jarayonlari aksariyat tadqiqotlarda ayni strategik taraqqiyot dasturlariga ko‘ra davrlashtiriladi. Zero, vesternizatsion modelga ko‘ra, G‘arbiy YYevropa mamlakatlari va AQShda modernizatsiya tabbiy-tarixiy jarayon sifatida ro‘y berib borgan.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, mustaqillik yillaridagi modernizatsiya jarayonlarini respublikada qabul qilingan maxsus strategik taraqqiyot dasturlarining qabul qilinishi bilan bog‘liq ravishda shartli to‘rt davrga ajratish mumkin.

Birinchi, taraqqiyotning “O‘zbek modeli” qabul qilinishi bilan bog‘liq birinchi davr bosqichi. Bu davrda asosan milliy davlatchilik tuzilmalari, qonunchilik, milliy o‘zlikning anglanilishi, mustamlakachilik asoratlarining bartaraf qilinishi, yangicha iqtisodiy-moliyaviy tuzilmalarning tashkil topishi kabi qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Ikkinchi, “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ning qabul qilinishi bilan bog‘liq ikkinchi davr bosqichi. Bu bosqichda davlat boshqaruvi, qonunchilik, axborot sohasi, iqtisodiyotni liberallashtirish, saylov tizimi, nodavlat notijort tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish kabilar bilan bog‘liq mamlakatimizni modernizatsiyalashga qaratilgan qator tashkiliy institutsional-huquqiy tub islohotlar amalga oshirildi. Birinchi davrda davlatchilik asoslari shakllantirilgan bo‘lsa, ikkinchi davrda demokratik fuqarolik jamiyati tuzilmalarini takomillashtirish bilan bog‘liq fundamental g‘oyalar ilgari surilib, amalga oshirildi.

Uchinchi, “Harakatlar strategiyasi” qabul qilinishi bilan bog‘liq uchinchi davr bosqichi. Bu bosqichda respublikamizda kechayotgan modernizatsiya jarayonlarida mamlakat hududidagi real muammolarni hisobga olgan holda umumjahon standartlari darajasidagi islohotlar davriga qadam qo‘yildi. Ayniqsa, bu davrda respublikamiz modernizatsiya modelida innovatsion modelning ta’siri oshdi. Bundan tashqari jadallashgan modernizatsiyaning muhim shartlaridan bo‘lgan mamlakatning yaqin va uzoq qo‘shnilarga ochiqligi xususiyati ro‘yobga chiqa boshladi.

To‘rtinchi, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilinishi bilan bog‘liq to‘rtinchi davr bosqichi. Bu bosqichda O‘zbekiston jahonnig eng taraqqiy etgan 50 ta davlatlar qatoridan joy olishi, O‘zbekiston Global Innovatsion Indeksda Top-50 talik mamlakatlar ro‘yxatiga kirishini ta’minlash, «Transparency International» xalqaro tashkiloti tomonidan e’lon qilinadigan Korrupsiyani qabul qilish indeksida kamida 50 pog‘onaga ko‘tarilishga erishish kabi ko‘plab maqsadlar belgilangan. Bu davrda mamlakatni modernizatsiya qilishda iqtisodiyotning barcha sohalariga innovatsion ta’sir oshdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жўраев Н. Янгиланишлар концепцияси: яратилиши, эволюцияси ва амалиёти. – Тошкент: Маънавият. 2002. – 214 б.
2. Жакбаров М. Комил инсон ғоясининг тарихий-фалсафий негизлари. – Тошкент.: Тафаккур. 2011. – 256.
3. Қодиров А. Анъанавий жамият ва уни модернизациялаштириш стратегияси. – Тошкент: ТДЮИ. 2006.
4. Азизхўжаев А.А. Давлатчилик ва маънавият. –Т.: Шарқ, 1997;
5. Назаров Қ.Н. Аксиология. Қадриятлар фалсафаси. –Тошкент. 2004;
6. Бобоев Ҳ. Миллий давлатчилик ҳақида. –Тошкент. 1999;
7. Жумаев Р. Давлат ва жамият: демократлаштириш йўлида. – Тошкент. Шарқ, 1998;
8. Мусаев Ф.А. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007;
9. Отамуротов С.О. Ўзбекистонда маънавий-руҳий тикланиш. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003;
10. Эргашев И. Тараққиёт фалсафаси. –Тошкент: Академия, 2000;
11. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. –Тошкент: Шарқ, 1998;
12. Абдуллаева М.Н. Модернизация жараёнининг фалсафий-методологик таҳлили. –Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти. 2010. – 169 б.
13. Омонов Б. Сиёсий модернизациялаш моделлари ва Ўзбекистон тажрибаси. Монография. Тошкент: Фан ва технологиялар. 2012. Б-112.
14. Рубанов А.В. Социальное развитие: традиции и современные подходы к изучению. // Журнал Белорусского государственного университета. Философия. Психология. С-49-59.
15. Кокарев К. К вопросу об эволюции политической реформы в Китае / К. Кокарев // Проблемы Дальнего Востока. - 2004. - № 5. С 91.
16. Балчиндоржиева О.Б. Методологические особенности исследования модернизации // Вестник Восточно-Сибирского университета управления и технологий. -2014, №1 (46). - С 134.
17. Berger P. Facing upto Modernity - New York. - 1977 - P. 127- 128.
18. Berger P. Facing upto Modernity - New York. - 1977 - P. 128- 132.
19. Парсонс Т. Система современных обществ. 1970. // Наименование ресурса: Цифровая библиотека по

философии. Режим доступа: http://filosof.historic.ru/books/item/f00/s01/z0001064/st000.shtml
20. Berger P. Facing upto Modernity - New York. - 1977 - P. 128- 132.
21. Мадаева Ш.О. Ўзбек менталитетида демократик тафаккурнинг шаклланиш хусусиятлари: Фалсафа фанлари доктори … дисс. – Тошкент, 2009. Б-121.
22. Тойганбаева Агина Еркиновна. Опыт модернизации стран Юго-Восточной Азии и его адаптация в условиях современного Казахстана. … Диссертация на соискание ученой степени доктора философии (PhD). С-42.
23. Муаллифлр жамоаси. Ўзбекистоннинг янги тарихи. –Т.: Шарқ НМК. 2000. Б-440-441.
24. Муаллифлар жамоаси. Ўзбекистоннинг янги тарихи. – Т.: Шарқ НМК. 2000. Б-525-526.

HUSAYN VOIZ KOSHIFIY FALSAFIY ASARLARINING UMUMMETODOLOGIK KO‘LAMI

Nishonov Sarvar Jasur o‘g‘li
Toshkent kimyo xalqaro universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsent v.b.,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
sarvar0202pm@gmail.com.
ORCID 0000-0001-6558-3495
UDK 94(575/146-25): 316.6

Annotatsiya. Mazkur maqolada Husayn Voiz Koshifiyning ijtimoiy-falsafiy merosini o‘rganish natijasida shunday fikrga kelish mumkinki, falsafiy fanlar rivojlanishiga katta hissa qo‘shganliklarini, ijtimoiy-axloqiy, diniy-falsafiy qarashlari o‘rta asrlarda Movarounnahr va Xurosonda futuvvat oqimiga bag‘ishlangan ko‘plab risolalar paydo bo‘lgan davrda o‘z aksini topganini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Ushbu asarlar orasida Koshifiyning “Futuvvatnomai Sultoniy yohud javonmardlik tariqati”, “Muxtasar al-javohir”, “Jome’ as-sittiyn yo tafsiri surai Yusuf” risolalari alohida ahamiyat kasb etadi. Asar shu jihati bilan e’tiborliki, unda futuvvatni ijtimoiy oqim sifatida emas, balki tasavvufning bir bo‘lagi sifatida e’tirof etiladi. Bu masalaga professor N. Komilov o‘z tadqiqotida “Tasavvuf yoki komil inson axloqi” asarida tarixiy manbalarni o‘rganish asosida futuvvat bilan tasavvuf o‘rtasida o‘xshashlik, umumiy jihatlar ko‘p ekanligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Futuvvat, tariqat, Eron, qo‘lyozma, toshbosma, alloma, axloq, mard, odil, oliyjanob.

THE GENERAL METHODOLOGICAL SCOPE OF HUSAYN VAIZ KASHIFI’S PHILOSOPHICAL WORKS

Abstract. Based on the study of Hussein Waiz Kashifi's socio-philosophical legacy, it can be concluded that he made a significant contribution to the development of philosophical sciences. His socio-ethical and religious-philosophical views were reflected in numerous treatises dedicated to the Futuvvat movement that emerged in Transoxiana and Khorasan during the Middle Ages. Among these works, Kashifi’s treatises “Futuvvatnomai Sultani or the Path of Chivalry”, “Mukhtassar al-javohir”, and “Jome’ as-sittiyn or Tafsir of Surah Yusuf” are of particular importance. The work is notable for recognizing futuvvat not as a social movement, but as an integral part of Sufism. Professor N. Komilov, in his research “Tasawwuf or the Ethics of a Perfect Human”, reveals many similarities and common aspects between futuvvat and tasawwuf through the study of historical sources.

Key words. Futuvvat, tariqat, Iran, manuscript, lithograph, scholar, morality, brave, just, noble.

Kirish. XV-XVI davrlarda yashagan Xuroson, Eron va Movarounnahr shayxlari o‘z muridlarini mardlik va fidoyilik, saxovat va qanoat ruhida tarbiyalash, javonmardlikni tariqat shioriga aylantirishga intilganlar. Tasavvuf va futuvvat bir-birini to‘ldirgan va bir-biriga madad bergan. Futuvvat va tasavvuf ta’limotlari orasida o‘xshashliklar, xususan, Islom dini qonun qoidalariga e’tiqod qilish, futuvvat ahli yoki muridning pir-u ustozga ega bo‘lishi, insonning poklanishi, xulq-odob qoidalari, saxovat, oliyhimmatlik, fidoyilik, mehr-shafqat, mardlik, halollik, mehnatsevarlik kabi g‘oyalarning uyg‘unligi bilan asoslangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda, O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida Koshifiyning 18 ta nomdagi asari, ularning 212 ta qo‘lyozma va 75 ta toshbosma nusxalari saqlanadi.

Qo‘lyozmalar fondida Koshifiyning “Risola dar ilmi adod” (“Hisob ilmi haqidagi risola”), “Oynayi Iskandariy” (“Iskandar oynasi”), “Ravzati Shuhado” (“Shahidlar bog‘i”) axloqqa va komil insonni tarbiyalashga oid, “Axloqi Muhsiniy”, “Anvari Suxayli”, “Risolai Hotamiya”, “Futuvvatnomai Sultoniy” kabi asarlari saqlanadi.

Tadqiqotimizning asosiy obyektini tashkil etgan Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” kitobi, odob, axloqqa doir fors tilida yozilgan asar sifatida, temuriylardan bo‘lgan Sulton Husayn Boyqaro va uning o‘g‘li bo‘lmish Muhsinga bag‘ishlangan. Koshifiyning ijtimoiy-axloqiy qarashlari

bo‘yicha yirik tadqiqotchilardan biri X. Aliqulov ta’kidlaganidek: “Koshifiyning turli manbalarda qayd etilgan asarlarining ayrimlari Moskva, Leningrad, Toshkent kutubxonalarida, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida hamda bir qancha chet el kutubxona va muzeylarida saqlanmoqda”.

Husayn Voiz Koshifiyning “Risolai Hotamiya” asari 1883-yilda Parijda Sharl Shefer tomonidan nashr qilingan va keyinchalik bu asar Eronda ham chop etilgan.

Risola kirish qismi, ikki bob va xulosadan iborat bo‘lib, unda she’riy tushuncha, nazmning turli janrlari haqida so‘z boradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda tarixiy-falsafiy haqiqat asosida yondashilgan bo‘lib, falsafiy, germenevtika, gipotetik-deduktiv, falsafiy komparativistika, umumlashtirish, tarixiy-mantiqiy tahlil, tizimli yondashuv metodlaridan foydalanilgan.

Muhokama va natijalar. Koshifiyning qator ilmiy, adabiy, diniy, falsafiy asarlari qatorida Sharq xalqlari orasida mashhur bo‘lgan kitobi “Anvari Suxayli”dir.

Ushbu kitob, Eron va Hindiston, jumladan, qator ko‘pgina mamlakatlarda ham chop etilgan.

“Kitobning kirish qismida aytilishicha, Koshifiy A.Nasrulloning “Kalila va Dimna” asarini qayta ishlab, unga ko‘pgina hikoyalar, maqol va matallar, o‘z zamonasi shoirlarining she’rlaridan kiritgan” [1]. Asarda insoniylik yuksak fazilat sifatida ta’riflanadi hamda saxiylik, mehr-muruvvat, xalq g‘ami bilan yashash, kamtarlik kabi fazilatlar ulug‘lanadi. Allomaning ushbu asari axloq ilmi bo‘yicha Eron oliygohlarida talabalarga darslik sifatida ham qo‘llanilgan.

Ayniqsa, bu asar Tehronda tahsil olayotgan talabalarda katta qiziqish uyg‘otib, ular kitobdan asosiy qo‘llanma sifatida foydalanganlar. Hindistonda esa Koshifiyning “Anvari Suxayli” kitobi, davlat muassasalariga ishga kiruvchi insonlar uchun darslik sifatida tavsiya etilgan. Alloma asarlariga xorijiy mamlakatlardagi yuqori qiziqish uning bebaho ilmiy merosini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj juda kuchliligidan dalolat beradi. Koshifiy o‘z asarlarida inson zotini ulug‘laydi va uni jamiki mavjudotlarning sarvari sifatida ta’riflaydi.

Professor X.Aliqulov Koshifiyning asarlari bo‘yicha juda ko‘p tojik olimlari izlanish qilganligini qayd etadi. Xususan, M.Axmedov o‘z izlanishlarida, “Anvari Suxayli” asarining 8-bobini tahlil qilib, undagi voqealarning mazmunini ochib berishga harakat qiladi. Muallif, Koshifiyning “Anvari Suxayli” kitobidagi fikrlarni nafaqat o‘zi yashagan davr uchun, balki bugungi kunimiz uchun ham naqadar katta ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr bildiradi. Koshifiyning “Anvari Suxayli” kitobi afg‘on olimi M.Behruz hamda tojik olimi Z.Vazirovlar tomonidan ham chuqur o‘rganilgan. Mutafakkirning jahonga mashhur “Axloqi Muhsiniy” asarini ilk marotaba filologiya fanlari nomzodi O.R.Usmonova maxsus tadqiqot obyektiga aylantirgan. Ushbu asarni u filologik-tilshunoslik kesimida tahlil qiladi va uni fors tilidan rus tiliga tarjima qiladi.

Koshifiy o‘z asarlarida hayotdan olgan saboqlari, tajribalari asosida insonparvarlik, xalqchillik, adolat, halollik, hayo, to‘g‘rilik, saxovat va o‘zgalarga g‘amxo‘rlik kabi fikrlarini qiziqarli hikoyalar, rivoyatlar yordamida bayon etadi.

Bu asarlar alloma fikri bilan aytganda, “Hikmati amaliy” asosida yozilganligidan, yaxshilik, yomonlik, adolat, vijdon, burch tushunchalari va insonlarnng fe’l-atvori, xulqini tartibga solib turuvchi mezon sifatida qo‘llash mumkin.

Koshifiy axloqiy qadriyatlar majmuasini odamzodning ma’naviy boyligini, ruhiy teranligini, komilligini bilish, halollik va adolat, ezgulik va yaxshilik bilan hayot kechirish kabi oliyjanob umuminsoniy va milliy xislat-fazilat, ong-u tafakkur, xulq-odob, faoliyat, inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning mantiqiy ifodasi sifatida e’tirof etadi. Koshifiy mutolaa madaniyati, ilm saboqlarini nafaqat hayotiy tajribalardan, balki ishonchli va aqlli manbalardan izlash lozimligini uqtiradi. Kitob sizni hech qachon charchatmaydi, aksincha, chinakam zavq beradi. Kitobdan siz bilishni istagan savollaringizga javob topa olasiz, deydi Koshifiy. Koshifiy fikriga ko‘ra, an’analar, o‘tmish haqidagi hikoyatlar, donishmandlar va ulamolar so‘zlari ko‘p foydali narsalarni ochib beradi, ularni yo‘l-yo‘riq sifatida olib, o‘z yo‘nalishlaringizga qarab qo‘llash lozim.

Koshifiy noxushlarga baxtsizlik, davlatga zarar keltiruvchi yetti guruh odamlarini turkumlashtiradi: birinchi, firibgarlar, ikkinchi, noqonuniy va noloyiq xislatlari bilan tanilgan odamlar, uchinchi, past va nopok odamlar, to‘rtinchi, tuhmatchilar, beshinchi sotqin va xiyonatkorlar, oltinchi, yolg‘onchi va ahmoqlar, yettinchi, sovta va ma’nosiz so‘zlovchilar. Ularning barchasi hukmdor xizmatiga loyiq emas, bunday odamlardan ehtiyot bo‘lish zarur,

chunki ular odamga murosali muloqot yoki hukmdorga foydali maslahat bera olmaydilar.

U insonlardagi ijobiy xislatlarni ularda bo‘lishi lozim bo‘lgan, insoniy fazilatlar hushyorlik, diyonatlilik, ahdga vafo, sir saqlay bilish haqidagi fazilatlarni aytib o‘tadi. Koshifiy fikricha axloqli inson, ilm ma’rifatli, adolatparvar, nohaqlikka qarshi adolat uchun kurashuvchi, mard, odil, oliyjanob bo‘ladi.

Husayn Voiz Koshifiy nafaqat shoir, yozuvchi balki u dono siyosatshunos ham bo‘lgan. Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” asarida davlatni odilona boshqarish, siyosat, adolat, odil shoh hamda insonning barkamolligiga xizmat qiluvchi xislatlar haqida qator fikrlari joy olgan. U davlatni odilona boshqarishda siyosatdan foydalanish kerak ekanligini alohida ta’kidlaydi;

“Jahonda pok suv ichmakka bo‘lmas hech kim qodir. Agar shohlar siyosat tig‘in eliga qilmasa zohir” [2].

Ya’ni alloma siyosat mamlakatni boshqarish uchun juda muhim, siyosat adolatga asoslanmog‘i lozim, shunda jamiyat ravnaq topadi, degan fikrlarni bildiradi. Koshifiy asarlarida davlat va uning boshqaruvi, adolatli hukmdorlar haqida ko‘p mulohazalar yuritiladi. Koshifiyning barcha fikr va ta’limotlarining asosini insonning baxt saodati va unga erishmoq yo‘llari tashkil etadi. E’tiborli jihati shundaki, inson baxt va saodatga erishmog‘i uchun u avvalo mukammal aql va bilimga ega bo‘lmoqligi lozimdir, deb ta’kidlaydi Koshifiy.

Koshifiy hukmdorning davlat boshqaruvida, avvalo, aqlga bo‘ysunishi lozimligini, aql his-tuyg‘ularni jilovlay olib, unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsata olishini aytadi. Hukmdor egallashi lozim bo‘lgan sifatlar haqida to‘xtalib, kamtarlik, saxovat, o‘z manfaatini o‘ylamay xalq g‘ami haqida qayg‘urish, hamisha yurt tinchligi, xalq farovonligi va baxt-saodati uchun kurashmog‘i lozimligini uqtiradi.

Kuch bilan emas, aql bilan ish ko‘rmoq kerak degan g‘oyani ilgari suradi.

Alloma hukmdorlarga xos komillik sifatlariga to‘xtalar ekan, avvalo xayrli, ezgu ishlar hech qachon xalq yodidan chiqmasligini, xayrli qilingan ezguliklar kelajak avlod tarbiyasiga ma’naviy zamin bo‘lishini aytadi.

Koshifiy aqlga mo‘ljallangan va bilim uchun belgilangan joylarni aniqlashga imkon beradigan o‘rta yo‘ldan borishga harakat qiladi. Agar birgina ruhiy voqelik, ham aql, ham iymon tomonidan qabul qilinishi rost bo‘lsa, unda har bir aniq vaziyatda qabul qilishning aniq uslubini tanlash zarurati tug‘iladi. Bu holda uslublarning birortasini birini biriga bo‘ysundirish ham mumkin emas va birini biri bilan asoslash ham mumkin emas bo‘lib qoladi. Uning axloqiy ta’limoti e’tirofga asoslanadi.

Mutlaq bo‘lishiga qaramay, shaxsning iroda erkinligi Koshfiyning ilmiy-tadqiqotida tan olingan Allohning irodasi uning harakati uchun javobgardir. Inson aql bilan taqdirlangan mavjudotdir, insonning barcha harakatlari uning nazoratidadir. Insonning ma’naviy kamoloti, uning oliyjanobligi va axloqiy poklikni targ‘ib qilishga Koshifiy katta ahamiyat beradi. Aql egasi hech qachon yovuzlikka yuz o‘girmaydi, u har doim haqiqatni soxtalikdan ajrata oladi, yomon bo‘lgan munosabatni e’tiborsiz qoldirishni, insonni hurmat qilishni, qadrlashni biladi. Prezident Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Albatta, erishayotgan barcha yutuqlarimiz inson qadri ulug‘ bo‘lgan diyor – Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi dastlabki natijalardir.

Biz bunyodkor xalqimiz bilan birga bunday ezgu ishlarni davom ettiramiz va oldimizga qo‘ygan katta-katta marralarga albatta erishamiz. Shu bois, “Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat degan g‘oyani Konstitutsiyamiz va qonunlarimizga ham, kundalik hayotimizga ham chuqur singdirishimiz kerak” [3].

Bilish masalasiga kelsak, olamni bilish jarayonida Koshifiy hissiy bilimlarga alohida urg‘u beradi. Lekin faqatgina hislar orqali tegishli bilimni olib bo‘lmaydi, agar bilim manbayining o‘zi mavjud bo‘lmasa: “Inson bilish qobiliyatining o‘zi kamlik qiladi, bilim obyekti ham mavjud bo‘lishi kerak” [4].

“Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma’rifat, yuksak madaniyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!.. Shu sababli hammamiz uchun ilg‘or bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarni egallashimiz shart va zarur. Bu bizga rivojlanishning eng qisqa yo‘lidan borish imkonini beradi.

Chunki, intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik, nodir iste'dod egalarini tarbiyalab kamolga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q» [5].

Husayn Voiz Koshifiy qator ilmlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda, tafsir ilmining eng oldi olimlaridan biri bo'lgan. Koshifiyning bu sohadagi yutuqlarini e'tirof etgan Xondamir, "Xulosot al-axbor" asarida quyidagicha ta'kidlaydi: "Mavlono Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy, turli xil ma'qul ilmlar va turlicha ... naql etilgan fanlardan tamoma foyda olgan va bahramanddur. Hozirda Xuroson diyorida ul-janobga teng keladigan kishi topilmaydi. Qur'on tafsirini va payg'ambar hadislari ma'nolarini pokiza qilib tushuntirib (ularni) abadiylashtirdi" [6].

Koshifiy o'z davrida ehtirom va muruvvat topgan alloma bo'lgan. Husayn Voiz Koshifiy nafaqat Xurosonda, balki uning dovrug'i Movarounnahrning barcha o'lkalariga yetib borgan.

XV asrning yirik allomasi Davoniyning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar uning zamondoshi, alloma haqidagi ko'plab ma'lumotlar muallifi, mashhur tarixchi Xondamirning "Habib us-siyar" [7] kitobida berilgan. Davoniyning yuksaklikka erishishida Samarqand, Hirot ilmiy muhitining ham katta ta'siri bo'lgan. Xususan Abu Tohir Xo'janing "Axloqi Muzaffariy" [8] nomli, Shamsiddin Somiyning "Qomus ul-allom» [9] nomli tazkirasida Davoniyning mashhur alloma ekanligiga ishora qiluvchi fikrlar va uning risolalari tahlil etilgan. Muhammad Ali Tabriziy "Rayhonat ul-adab» tazkirasida Davoniy haqida batafsil ma'lumot berib, uning yirik olim, faylasuf, mantiqshunos, taniqli shoir, ilm-fanning turli sohalarida, xususan, aqliy fanlar sohasida chuqur bilimga ega bo'lgan shaxs ekanligini qayd etadi.

Davoniyning aqli va iste'dodini ko'rgan Eron hukmdori Sulton Yoqub Oq Qo'yinli uni Sherozga qozi etib tayinlaydi. Davoniy qozilikdan iste'foga chiqqach, madrasada mudarrislik bilan shug'ullanadi. Shuning uchun ham Davoniyning asarlarida tenglik va adolat masalalari nazariy-amaliy ahamiyat kasb etgan. Uning boy diniy-axloqiy, ijtimoiy-falsafiy maktabidan ko'p shogirdlar saboq olishgan.

Uning shogirdi Ali Davoniy o'z ustoziga bag'ishlab, "Jaloliddin Davoniy" [10] nomli asarni ham yozgan. "Jaloliddin Davoniy"da mutafakkirning hayoti va ijodiy faoliyatiga oid barcha ma'lumotlar va manbalar keltirilgan.

Asarning intihosiga Davoniyning "Nur ul-hidoya" nomli risolasi ilova qilingan.

Davoniy hayoti davomida Eron, Iroq, Hindistonning ko'plab shaharlarida bo'ladi. Davoniyning boy dunyoqarashining shakllanishida, yaqin va o'rta Sharq xalqlarining ilmiy merosi muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, alloma Uyg'onish davri mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiylarning insonparvarlik g'oyalariga asoslangan asarlari, tazkira, tarjimalarini chuqur o'rgangan hamda o'zining qarashlarida ularni davom ettirgan. Muhammad Ali Tabriziyning "Rayhon ul-adab" asarida ta'kidlanganidek, Davoniy ilmiy izlanishlarida "Vizantiya, Xuroson, Turkiston olimlari hamda Sulton Abu Said Temuriy davrida yashagan taniqli allomalarning asarlaridan keng foydalangan [11].

Davoniy nafaqat Xuroson mutafakkirlari qarashlarini o'rganibgina qolmay, balki qadimgi yunon donishmandlari: Aristotel, Platon asarlarini o'qigan va ularga sharhlar yozgan. Bu masalada Davoniy hech kim tushuna olmagan murakkab muammolarni tarjima qilgan va sharhlagan, mushkul masalalarni yecha olgan va sodda tilda tushuntirgan. Davoniy tadqiqot ko'lami juda keng bo'lib, falsafa, fiqh, mantiq, riyoziyot, aniq fanlar va axloqshunoslik kabi sohalarni qamrab olgan.

Davoniyning yana "Risolayi isboti vojib" ("Zaruriyatning isboti haqida risola"), "Risolat ul-mufradot" ("Moddalar haqida risola"), "Risolat ul–huruf" ("Harflar haqida risola"), "Risolayi fi tavjih ul tashbih" ("Majoz talqini haqida risola"), "Risola darm elm un-nafs" ("Ruhshunoslik to'g'risida risola"), "Tariqati tarbiyat ul-avlod" ("Bolalarni tarbiyalash usullari haqida"), "Arznoma" ("Harbiy boshqaruv to'g'risidagi risola") va boshqa asarlaridan ma'lum bo'ladiki, allomaning tadqiqot ko'lami juda keng bo'lgan.

"Axloqi Jaloliy risolasining qo'lyozma va toshbosma nusxalari O'zRFA Sharqshunoslik insituti qo'lyozmalar fondida saqlanadi"[12]. Ushbu asar 1839-yilda V.F.Tompson tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan. Asar o'zbek tiliga Eshonjon Ibn Muhammadxo'ja tomonidan 1948-yilda qisqacha tarjima qilingan.

Davoniy ushbu asarni yozishda, Nasriddin Tusiyning "Axloqi Nosiriy", risolasiga murojaat qiladi va undagi fikrlarni o'z asarida sharhlab berishga harakat qilgan.

E'tiborlisi shundaki, Sharq mutafakkirlari Farobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi Davoniy insonning kamolga erishishi uchun jamiyatni asosiy ijtimoiy qurilma sifatida tan oladi. Davoniy bu

qarashlarida Abu Nasr Farobiyning “har bir inson o‘z tabiatiga ko‘ra, kishilar jamoasiga ehtiyoj sezadi”, degan g‘oyalariga tayanadi.

Davoniy “Axloqi Jaloliy”da: “Jamiyatda, ijtimoiy muhitda, boshqalar bilan aloqada shakllanib tarbiya topgan inson va bu jamiyatda adolat hukmron bo‘lsa, unda baxt-saodatga erishish osondir” [13], degan g‘oyani ilgari suradi.

Mutafakkirning falsafiy dunyoqarashiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Davoniy insonning aqliy qobilyatiga yuksak baho berib, inson har bir harakatida, bajargan ishida, aqlga bo‘ysunishi lozim. “Aqlli inson ikkita qarama-qarshi fikrni eshitganda, – deydi u, – har bir gapni o‘z bilimi bilan puxta o‘ylab ko‘rishi, aql tarozusi bilan o‘lchashi lozim. Ana shundan so‘ng esa aql hukmiga to‘g‘ri keladigan va aniq isbotlangan fikrni ma’qullashi zarur” [14].

Ushbu fikrdan har bir inson aqlga bo‘ysunib ish ko‘rishi kerak ekanligini, aql insonni fikrining tiniqligini, zehnining tezligini va tafakkurining boyligini ta’minlaydigan inson uchun juda zarur xislat ekanligini tushunishimiz mumkin.

Qo‘lyozmalardan quyida Koshifiy asarlaridan ba’zilari haqida, ularni fan sohalariga ajratgan holda, qisqacha ma’lumot berishni lozim topdik:

1.Qur’on ilmlariga doir:

Koshifiyning bu sohadagi asarlarini ikki turga bo‘lish mumkin:

a) Tafsirlar:

1. “Javohir at-tafsir li tuhfat al-Amir”, 2. “Muxtasar al-javohir» 3. “Jome as-sittiyn yo tafsiri sakri Yusuf”, 4. “Mavohibi Aliyya”, 5. “Tafsiri oyati faroiz”.

b) Qur’on o‘qish qoidalariga doir risola (tajvid).

1. “Naqovat fi odob at-tilovat”- Koshifiyning ushbu asari tilovat qoidalariga bag‘ishlangan, tarkibiy jihatdan muqaddima va uchta maqoladan iborat yagona qo‘lyozmasi Qohirada saqlanadi.

2. Hadis ilmlariga doir:

1. “Risolat al-oliyya fi axodis an-nabaviyya”- Muhammad (s.a.v) payg‘ambarning diniy marosimlarga tegishli hadislardan 40 tasini o‘z ichiga olgan fors tilidagi risola.

3.Tasavvufga doir:

1. “Futuvvatnomai sultoniy” – javonmardlikka (saxovatpeshalik) oid fors tilida yozilgan risola.

4.Adabiyotga doir:

1. “Anvori Suhayliy”- Temuriylar davrida yozilgan adabiy asarlardan biri bo‘lib, fors tilida yozilgan. Jumladan, birgina O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondida asarning turli davrlarda ko‘chirilgan 32 ta qo‘lyozmasi mavjud.

5.Tilshunoslikka doir:

1. “Manzumai avomil” – tilshunoslik qoidalariga doir risola bo‘lib, fors tilida yozilgan.

6. Astronomiyaga doir:

1. “Alvoh al-qamar” – uning nomi kataloglarda “Sab’ai Koshifiy” va “Lavoyih al-qamar” shakllarida ham uchraydi, bu ham Koshifiyning boshqa asarlari kabi fors tilida.

7. Insho ilmiga doir:

1. “Maxzan al-insho”- – o‘rta asarlar insho san’atiga oid bo‘lib, xatlar majmuasi asosida 1501–1502- yilda yozilgan.

8. Axloqqa doir:

“Axloqi Muhsiniy” – odob-axloqqa doir fors tilida yozilgan asar, temuriylardan Sulton Husayn Boyqaro va uning o‘g‘li Shahzoda Muhsinga bag‘ishlangan.

Husayn Voiz Koshifiy XV asr Xuroson va Movarounnahr diniy-axloqiy qarashlari bilan nafaqat bir tarmoqqa xizmat qildi. Allomaning asarlari o‘sha davr uchun ko‘p fanlarga o‘quv qo‘llanma vazifasini bajargan. Zero Koshifiyning ilmiy merosi tarmoq va fanlar kesimida o‘rganilmagan bo‘lsa-da, lekin qator sohalarning (din, falsafa, axloq, tarjimonlik, siyosat, davlat boshqaruvi va h.k.) rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

Xulosa. Koshifiy o‘z asarlarini, “Hikmati Amaliy” asosida yozilganligidan, yaxshilik, yomonlik, adolat, vijdon, burch tushunchalari va insonlarnng fe’l-atvori, xulqini tartibga solib turuvchi mezon sifatida qo‘llash mumkinligini qayd etgan.

Husayn Voiz Koshifiy nafaqat shoir, yozuvchi balki u dono siyosatshunos ham bo‘lgan. Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” asarida davlatni odilona boshqarish, siyosat, adolat, odil shoh hamda insonning barkamolligiga xizmat qiluvchi xislatlar haqida qator fikrlari joy olgan. U davlatni odilona boshqarishda siyosatdan foydalanish kerak ekanligini alohida ta’kidlagan.

Koshifiy zamondoshi bo‘lgan Davoniy ham juda serqirra ijodkor, yuksak iqtidor sohibi va shoir bo‘lishi qatorida Xuroson ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy, ilmiy-falsafiy g‘oyalariga katta hissa qo‘shgan. Jumladan, risolada inson baxt-saodati uchun eng zarur bo‘lgan axloqiy fazilatlar va unga erishish yo‘llari qayd etiladi.

Sharq xalqlari Islom dini g‘oyalari bilan, iqtisodiy va ma’naviy hayotining barcha jabhalarida qat’iy amal qilganlar. Bu davrda axloqqa oid asarlarning g‘oyaviy asoslarini Islom shariati, Hadis ilmi tashkil etgan. Hatto aksariyat manbalarda bu davrlarni pand-nasihatlar, axloqiy-didaktik asarlar yozilgan davr deb ham baholashadi. Ana shu nuqtayi nazardan Davoniyning “Axloqi Jaloliy” asari XV asr axloqiy tafakkurning yo‘nalishi va darajasini oydinlashtirishda nihoyatda katta ahamiyat kasb etgan.

Husayn Voiz Koshifiy va Jaloliddin Davoniylarning ijtimoiy-falsafiy qarashlarining umummetodologik ko‘lami turli fanlarning, xususan, ilohiyotshunoslik, axloq dasturlari, siyosatshunoslik, davlat boshqaruvi sohasida ko‘pincha yirik va muhim muammolarning ko‘tarilishi va hal qilinishi, ma’lum tor va maxsus ilmiy ahamiyatdan oshib ketadigan natijalarga erishishganligi va umummetodologik, falsafiy ahamiyat kasb etganligi bilan muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.X.Aliqulov. Falsafiy meros va ma’naviy-axloqiy fikr rivoji. Falsafa va huquq insituti. –Toshkent, 2009. –56-b.

2. Ma’naviyat yulduzlari. Abdula Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. 244–b. (https://znanio.ru/media/xusain-voiz-koshifiyning-axloqiy-qarashlari-2551973).

3. president.uz/lists/view/5774

4. Абол Гасеми, Мохсен. Краткая история персидского языка. - Тегеран: Библиотека Тахури, 1999. - С. 22.

5.Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021, B.24.

6.Xondamir. Xulosot al-axbor. O‘zR Fa Sharqshunoslik insitutida saqlanayotgan qo‘lyozmalar fondi. №2209. -488 [b] varaq.

7. http://www.mgimo.ru/fileserver/

8. www.philosophy.nsc.ru

9. Shamsuddin Somiy. Qomus al-a’lom. – Istambul: Mehron matbaasi, 1891. – B.1604.

10. Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil hayot. Tarjimon Domla Xudoybergan ibn Bekmuhammad (XIX asr) / Nashrga tayyorlovchilar M.Hasaniy, B.Umrzoq. – Toshkent: Tibbiyot, 2004. -536 b.

11. Muhammad Ali Tabriziy. Rayxonat ul-adab. –Tehron, 1949, 3-tom, B.26

12. http://www.filosofia.ru.

13. Davoniy. Axloqi Jaloliy. –Tehron, 1470, B.12

14. Jaloliddin Davoniy. Nur ul-hidoya. (Ali Davoniy. Jaloliddin Davoniy. Qum, 1334 hijriy. 3-bet. X.Aliqulov tarjimasi.

MA’NAVIY-MADANIY MEROSNI DEFORMATSIYALASHUVGA OLIB BORUVCHI OMILLAR

Sayidova Muhabbat G‘afforovna

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi

jayronmalika@mail.ru

ORCID 0009-0008-2498-5533

UDK 159.955;366.636

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy ma’naviy qadriyatlarga qaratilgan global tahdidlar, ularning namoyon bo‘lish xususiyatlari, harakatlanish mexanizmlari ko‘rib chiqilib, moddiy-ma’naviy merosni saqlab qolish, urf-odatlarni keyingi avlodga yetkazish imkoniyatlari ijtimoiy-falsafiy tahlil etiladi. Shuningdek, oilaning jamiyat hayotida tutgan o‘rni, mavqeyi borasida diniy va dunyoviy qarashlar, milliy qadriyatlarning davlatchilik tarixi va taraqqiyotida tutgan o‘rni, milliy qadriyatlarni saqlab qolish orqali madaniy-ma’naviy meros, urf-odatlar, millat sifatida shakllanganlik bilan bog‘liq tarixiy o‘tmish namoyon etiladi. Manaviy va madaniy merosda deformatsiyalashuvini yuzaga keltiruvchi omillar, ularning milliy o‘zlikka, millat genofondini saqlab qolishdagi xavfi, harakatlanish lokatsiyasi, ta’sir etish mexanizmi hamda namoyon bo‘lish xususiyatlari o‘rtasidagi integratsion aloqadorlik dinamikasi sistematik klassifikatsiya qilinib, olingan natijalar taqdim etiladi

Kalit so‘zlar. ma’naviy-madaniy qadriyatlar, deformatsiyalashuv, milliy o‘zlikni saqlash zarurati, mehnat migratsiyasi, ma’naviy portlash, globalizatsiya.

FACTORS LEADING TO THE DEFORMATION OF SPIRITUAL AND CULTURAL HERITAGE

Abstract. This article examines global threats to national spiritual values, the specifics of their

manifestation, the mechanisms of movement, and also socio-philosophically analyzes the possibilities of preserving the material and spiritual heritage, passing on traditions to the next generation. Also considered are religious and secular views on the role and position of the family in the life of society, the role of national values in the history and development of statehood, through the preservation of national values. The cultural and spiritual heritage, traditions, historical past, connected with formation as a nation are shown. The factors causing deformation of spiritual and cultural heritage, their danger for national identity, preservation of gene pool of the nation, places of displacement, mechanism of influence and dynamics of integration relations between features of manifestation are systematically considered. The obtained results are classified and presented.

Key words. spiritual and cultural values, deformation, need to preserve national identity, labor migration, spiritual explosion, globalization.

Kirish. XXI asr axborotlashgan jamiyat sifatida tarix sahnasiga chiqib, insoniyatga xos bo‘lgan tushunchalarga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Xususan, millatning genofond belgilari bo‘lgan: milliy ma’naviy, moddiy qadriyatlari, urf-odat va an’analarida “ma’naviy marginallashuv” elementlarining qaror topishiga sabab bo‘lmoqda. Ya’ni “asrlar mobaynida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar, azaliy an’ana va urf-odatlarning qadrsizlanishiga, deideologizatsiyaga yo‘l qo‘yish hollari uchramoqda” ki [1], bu bizni hushyorlikka da’vat etishi kerak. Aks holda, nafaqat milliy davlatchilik uchun, balki butun millat mavjudligiga “soya” soluvchi jiddiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xo‘sh, millat yoki xalq bunday holat yuz berganda nima yo‘qotadi? Zamonaviy qarashlarga mos bo‘lgan yangicha madaniyat, qadriyatlarni qabul qilish kerak. Har ikki holatda ham davlat, xalq degan tushunchalar o‘z mohiyatini saqlab qoladi. Bu kabi qarashlar “yangi avlod yoshlari” dunyoqarashida dominant o‘rinda qolayotganligini ham inkor eta olmaymiz. Ammo milliy davlatchiligimizni mustahkam saqlab qolishni, dunyo hamjamiyatidagi o‘rnimizni yanada oshirishni istar ekanmiz, milliy urf-odatlarni, moddiy va ma’naviy qadriyatlarni nafaqat saqlab qolishimiz, balki kelajak avlodning mentalitetiga ham singdirishimiz zarur va shart. Masalan, “*Milliy qadriyatlarni saqlab qolish nima beradi?”* savoli atrofida mulohaza qilib ko‘raylik:

– jahon hamjamiyati bilan teng huquqli munosabatga kirishish imkonini beradi. Chunki, xalqaro maydonda o‘zga millatlardan ajralib turuvchi milliy belgilaringiz bo‘lmas ekan, shunday xususiyatga ega bo‘lgan xalqlarga tobe bo‘lishingiz uchun birinchi qadam qo‘yilgan hisoblanadi;

– milliy qadriyatlarni saqlab qolish orqali madaniy-ma’naviy meros, urf-odatlar, millat sifatida shakllanganlik bilan bog‘liq tarixiy o‘tmish namoyon etiladi;

– milliy qadriyatlar jamiyatdagi ijtimoiy birlikni mustahkamlab, umuminsoniy maqsadlarga yetaklaydi;

– madaniy turg‘unlikdan saqlab qolib, milliy mustaqillik g‘oyalarini ijtimoiy muomalaga kiritadi, adolatli va inklyuziv bo‘lishga yordam beradi;

– o‘z xalqining tarixini, urf-odatlarini va madaniyatini o‘rganishga da’vat etib, shu orqali ularni (xalqni) milliy o‘zlikka ehtirom ruhida tarbiya topishiga sabab bo‘lish mumkin. Demak, milliy qadriyatlarning davlatchilik tarixi va taraqqiyotida tutgan o‘rni beqiyos bo‘lib, uni bir nechta kriteriyalarda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. P.Urisheva qadriyatlarni: “urf-odatlar, orasta va pokiza kiyinish, kamtarlik, oila, jamiyat orasida o‘zini tutish, do‘st-u birodar, qarindosh-urug‘ oldida o‘zini tuta bilish, xushmuomalalik, hurmatni saqlash va bajo keltirish, ig‘vo va fitnalardan uzoq yurish, o‘zaro muomalada oddiylik, soddalik axloqning ma’lum bir o‘lchovlaridan sanalgan”[2] umuminsoniy qadriyatlarning ijtimoiy hayotda namoyon bo‘lish shakli sifatida ko‘radi.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi axborotlashuv davrida yuqorida nomlari zikr etilgan qadriyatlarning har biri “deformatsiyaga” uchramoqda. Ularni saqlab qolishga qaratilgan sa’y-harakatlar ma’lum darajada natija berayotgan bo‘lsa-da, ammo muammolar ko‘p. Jumladan, “globallashuv va axborot xurujlari, turli buzg‘unchi g‘oyalar ta’sirida milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarimizga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchaymoqda. Ya’ni, faqat o‘zini o‘ylash (xudbinlik), hayotga, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste’molchilik kayfiyati singari illatlar turli yo‘llar bilan aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirilmoqda” desak, bu ham adolatdan bo‘ladi. Masalan, oila – xalqimiz milliy mentalitetiga xos muqaddas fenomen bo‘lib, u orqali ijtimoiy hayotning tadrijiyligi va abadiyligi tushuniladi. Oila – avlodlarning davomiyligini, tarbiya

uzluksizligini ta’minlaydigan dominant maskan hisoblanib, kelajak avlod uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimi shakllnadigan qo‘rg‘ondir.

Oilaning jamiyat hayotida tutgan o‘rni, mavqeyi borasida diniy va dunyoviy qarashlar o‘rtasida umumiylik bo‘lib, har ikki yo‘nalishda bu ijtimoiy kategoriya birdek e’tirof etiladi. Zero, “oila katta jamiyatning kichik bir bo‘lagi hisoblanadi. Jamiyat yomonlik va buzg‘unchilikning barcha turlaridan xoli tinch va obod bo‘lishi, avvalo, ushbu kichik jamiyatning tinchligiga bog‘liq” dir.[3]

Oilaga diniy ilm nuqtai nazaridan qaralganda islom ta’limotiga murojaat etish, masalaning mohiyatini anglashda alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki islomda oila muqaddasligiga alohida e’tibor berilib, Yaratganning roziligini topishning asosiy shartlaridan biri sifatida ko‘riladi. Qur’oni karimning “Nahl” surasi, 72-oyatida “Alloh sizlar uchun o‘zlaringizdan juftlar yaratib, juftlaringizdan sizlar uchun o‘g‘illar va nabiralar paydo qildi va sizlarni pok narsalardan rizqlantiradi...” – deb, inson sog‘lom turmush tarzini olib borishida oilaning naqadar zarurat ekanligi uqtiriladi. Shu o‘rinda keltirib o‘tish kerakki, albatta, oila qurish zarurati islomgacha ham mavjud bo‘lgan, ammo oilaviy munosabatlarning adolatli taqsimoti, er va ayolning huquqlari, ular amal qilishi shart bo‘lgan shaxsiy mas’uliyatlari keng ma’noda Islom dini kirib kelgunga qadar yaxlitlashmagan edi. Bu fikrni asoslovchi ko‘plab manbalar keladi. Masalan, Ubaydulloh ibn Mihsan Ansoriy (r.a.) tomonidan shunday hadis rivoyat qilinadi “Rasulullоh (s.a.v.): “Kimki o‘z oilasi ichida tinch, tani sog‘ bo‘lib tursa va oldida shu kuniga yetarlik taomi bo‘lsa, u odamga go‘yo butun dunyo berilgan hisoblanadi”.[4] Shuningdek, Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qilinadi: Rasulullоh (s.a.v.): “Alloh taolo nazdida sizdan biringizning oila ta’minotini o‘ylab qayg‘urishi Alloh yo‘lida qilich bilan ming zarba urganlikdan xayrliroqdir”, [5] deb marhamat qildilar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadi:

birinchidan, Vatan ichidagi vatan sifatida azaliy qadriyatlarda ko‘rib kelinayotgan oila, avvalo, jamiyatning kichik yacheykasi bo‘lib, bu yerda sog‘lom yoki nosog‘lom ijtimoiy muhit shakllanadi;

ikkinchidan, mutaxassislar keltirib o‘tganidek, inson umri davomida oladigan umumiy ma’lumotning 70 foizini yetti yoshigacha olishiga e’tibor qaratsak, demak, aynan oilada bolaning fundamental dunyoqarashi shakllanadi;

uchinchidan, milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatning birlamchi asosi oilada qo‘yiladi. Agar oilada sog‘lom tarbiya yo‘lga qo‘yilsa, voyaga yetgan farzand – ma’naviy komil inson sifatida jamiyatga kirib boradi. Aksi bo‘lsa, ya’ni ma’naviy qashshoq oilaviy muhit hukm suruvchi “qo‘rg‘on”da o‘sib-ulg‘aygan yoshlarning kelajakdagi o‘rni ham o‘ziga yarasha bo‘ladi;

to‘rtinchidan, inson uchun eng qadrli bo‘lgan tushunchalar (mehr-muruvvat tuyg‘usi, vatanparvarlik hissi, insoniylik belgilari, axloqiylik mezonlari, qadr-qimmatni anglash, oliyjanoblik va hok.) oila muhitida qaror topadi. Bu umuminsoniy qadriyatlar yoshlikdan qalbimizga singdirilmas ekan, umrning butun yo‘li davomida ularga bo‘lgan ma’naviy muhtojlikni nafaqat his etib yashaymiz, balki ijtimoiy munosabatlarda namoyon etib ham boramiz;

beshinchidan, oila degan noyob fenomen haqida fikr yuritilganda, avvalo, farzand va u bilan bog‘liq jarayonlar ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Farzand esa, tarbiyasi bilan azizdir. Shunday ekan, tarbiyali, axloqliy, ma’naviy yetuk farzandni voyaga yetkazishda oila dominant drayver hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma’naviy va madaniy merosda deformatsiyalashuvni yuzaga keltiruvchi omillar, ularning milliy o‘zlikka, millat genofondini saqlab qolishdagi xavfi, harakatlanish lokatsiyasi, ta’sir etish mexanizmi hamda namoyon bo‘lish xususiyatlari o‘rtasidagi integratsion aloqadorlik dinamikasi sistematik klassifikatsiya qilinib, olingan natijalar statistikasi mantiqiy izchillikda analiz va sintez metodi ko‘magida tahlil etilib, muammoni keltirib chiqaruvchi obyektiv va subyektiv sabablar ta’sir kuchi aniqlashtirildi.

Muhokama va natijalar. Umuminsoniy qadriyat shaklida asrlar osha kristallashib kelayotgan “Oila” instituti xalqimizning ijtimoiy hayotida ham muhim o‘rin tutadi. Chunki, yuqorida keltirib o‘tilganidek “Oila bu – Vatan ichidagi vatandir”, uning sofligi oila a’zolari o‘rtasidagi birdamlik, ahillik, o‘zaro tushunishni qanchalik darajada muvofiqligiga bog‘liqdir. Bu borada ilmiy jamoatchilik tomonidan ko‘plab ilmiy dalillar keltiriladi.

Bizning fikrimizcha, bola his-tuyg‘ularni tartibga solishda oilaning o‘rni o‘rtadan past darajada bo‘lishi, ularning tuyg‘ularini tartibga solish mexanizmi sifatida ayrim ko‘nikmalarni beruvchi institut maqomida qolishi kerak, deydi. Aslida oila nafaqat ko‘maklashuv maskani,

yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlovchi dominant bo‘g‘indir. Buni to‘rtta misol bilan izohlash mumkin:

birinchisi, oilaning sog‘lom muhitni vujudga keltiruvchi boshqa muqobil varianti mavjud emas, chunki normal sharoitda tarbiya topayotgan farzandlar uchun oila: odob-axloq beruvchi, el-yurt koriga yaraydigan shaxs sifatida shakllantiruvchi asosiy vositadir;

ikkinchisi, ota-onaning vazifasi farzandni dunyoga keltirishdan iborat emas, balki uni aqlli, es-hushli, jismonan sog‘lom, diyonatli, e’tiqodli, jamiyat va millatga foydasi tegadigan insonlar qilib ulg‘ayishida ham mas’uldir;

uchinchisi, Alloh subhanahu va taolo o‘zining ulug‘ kitobi Qur’oni karimda: “O‘z uylaringizda qaror topingiz” (Ahzob surasi, 33-oyat), deb marhamat qiladi. Bu shuni anglatadiki, farzand tarbiyasida, uning kamolotida oiladan ko‘ra ishonchli maskan yo‘q;

to‘rtinchisi, har qanday oilada farzand u yoki bu shaklda kamol topib, uning qay-darajada kechishi qo‘rg‘onda qaror topgan ijtimoiy muhit bilan belgilanadi. Masalan, bolani oila bag‘ridan oladigan in’omlari quyidagilar bo‘ladi:

1) badan tarbiya. Bolani jismonan sog‘lom qilib tarbiyalash, uni tozalikka, o‘zini pok tutushga o‘rgatishning birlamchi maskani aynan oila hisoblanadi.

Bundan xulosa shuki, B.Paley va N.Hajaloila aytganidek yoshlar kamolotida, ularning erkin harakat qilish ko‘nikmasini shakllanishida oila – o‘rtachadan pastroq vazifada emas, aksincha hal etuvchi muqaddas maskan bo‘lib, u orqali jamiyat barqarorligini ta’minlovchi avlod shakllanadi. Shu o‘rinda bugungi global o‘zgarishlar davrida oila kabi madaniy qadriyatlarni saqlab qolish yanada dolzarblik kasb etib borayotganligini ham unutmaslik zarur. “O‘zbekistonda 2023-yil 12-oyida sodir etilgan 363 ta qotillikning 141 tasi yoki 38,8 foizi oila-turmush doirasidagi nizolar oqibatida kelib chiqqan. Bundan tashqari, yoshlarning muammolarini bartaraf etishga lozim darajada e’tibor qaratilmagani oqibatida 2023-yilda yoshlar va voyaga yetmaganlar o‘rtasida sodir etilgan jinoyatlar 2022-yilga nisbatan 5,3 foizga ortgan (3599)” [6] Bu holatdan xulosa shuki, oiladagi notinchlik ortidan oilaviy jinoyatchilik soni ortib borayotgan bo‘lsa, masalaning ikkinchi jihatida ushbu oilaviy beqarorlik, shu qo‘rg‘onda voyaga yetayotgan farzandlar tarbiyasiga salbiy ta’sir etib, o‘zining negativ natijasini bermoqda, ya’ni yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilik oshmoqda.

– “O‘zbekistonda 202- yil 1-yanvardan 1-iyungacha (6 oy ichida) 20 798 ta oila rasman ajrashdi. Bu 2021- yilga nisbatan 4700 taga ko‘p degani. Ushbu holatni 2024 yilning birinchi olti oyligida 22 467 tani” [7] tashkil etdi. Ko‘rishimiz mumkinki, oilaviy ajrimlar soni muntazam oshib bormoqda. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: nega oila degan muqaddas tuyg‘uni qadrsizlanishi kuzatilmoqda! Statistik raqamlarga e’tibor qaratsak, ajrimlar sonida katta ko‘rsatkich – oila qurish va uni saqlab qolish “ongi” yetarli darajada shakllangan fuqarolar o‘rtasida kechmoqda. Masalan, 2024 yilning birinchi 6 oyligi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi bergan ma’lumotlar:

farzandsiz nikohdan ajralishlar soni 10 479 (46.6%) tani tashkil etgan bo‘lsa, 1 nafar farzand bilan ajralishlar soni 6 616 (29.4%) tani tashkil etmoqda. Ikki va undan ortiq farzand bilan nikohdan ajralishlar soni 5 372 (24.0%) tani tashkil etgan.

nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi erkaklar uchun 37,1 (37.1%) yoshni, ayollar uchun 32,2 (32.2%) yoshni tashkil etdi. Demak, nikohdan ajrashganlarning eng katta ulushi 35 yoshgacha bo‘lgan ayollarga to‘g‘ri keladi. Bu jami nikohdan ajrashganlarning 64,1 %ni [8] tashkil etmoqda. Ushbu raqamlarning keyingi o‘n yillikda kechgan dinamikasi quyidagicha (1-diagrammaga qarang).

1-diagramma



Demak, oila degan muqaddas fenomen ma’naviy deformatsiyaga uchramoqda. Ayniqsa, bu tendensiya keyingi to‘rt yillikda yanada tezlashgan. Ammo muammoning dolzarbligi faqat uni

dinamik o‘sib borayotganligida emas, balki oilalar o‘rtasida kechayotgan “ma’naviy marginal”lashuvda bo‘lib qolmoqda. Ya’ni e’tibor berilsa, yuqorida keltirib o‘tilgan statistikada – nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi erkaklar uchun 37, ayollarda 32 yoshni tashkil etmoqda deyilgan. Bu shuni anglatadiki, oilalarda yuzaga kelayotgan ajrimlar soni ongli ravishda qilingan qarorlar hosilasidir. Chunki 37 yoki 32 yoshga kirgan shaxs o‘zini anglab olgan, erkin va mustaqil qaror qabul qilish potensialiga ega bo‘lib, odatda bunday shaxslarning har bir xatti-harakatini chuqur o‘ylangan holda bajaradi.

Xulosa va takliflar. Bizning xulosamiz bo‘yicha oila bu jamiyatning markaziy bo‘g‘ini bo‘lganligi sababli, uning mustahkamligini ta’minlovchi yacheykalar doimiy e’tiborga olinishi zarur. Ammo ma’naviy qashshoqlik sabab, ko‘plab oilalar quyidagi omillarga bevosita bog‘liq holda buzilib ketmoqda:

birinchisi, oila a’zolari o‘rtasidagi ma’naviy munosabatlarning qadrsizligi, ya’ni ularni bir-birini tushunish va ehtirom ko‘rsatish qobiliyatiga yetarli darajada ega emasligi sabab bo‘lmoqda. Chunki agar oilada bir-birini tushunishga qaratilgan ma’naviy qiymat bo‘lmas ekan, o‘zaro hurmatga ehtiyoj bo‘lmaydi. Shuning uchun nafaqat bugungi yosh oilalar, balki 30-45 yoshgacha bo‘lganlar o‘rtasida ham ajrimlar ko‘payib bormoqda;

ikkinchisi, yangi qurilgan oila a’zolari, ya’ni er va xotinning odob-axloqi o‘rtasidagi keskin farqlanishning mavjudligi. Masalan, yoshlarni dunyoqarashi, madaniyati va axloqiy normalari turlicha bo‘lishi, masala yuzasidan o‘zaro bir qarorga kela-olmasliklariga olib keladi;

uchinchisi, aksariyat oilalarda ruhiy, ma’naviy salohiyat yetarli bo‘lmaganda, arzimas masaladan katta konfliktlarni, o‘zaro kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Chunki xalqimizga xos bo‘lgan “kechirimli bo‘lish” tuyg‘usi ularda mavjud emas, bu ularning ma’naviy to‘g‘ri yo‘lni topa olmasliklarida ko‘rinadi. Ular garchi ruhiy yordamga ehtiyoji bo‘lsa-da, ammo buni o‘zlari ongli ravishda anglamaydilar;

to‘rtinchisi, ajrimga olib boradigan ko‘plab kriteriyalarga: oilaviy munosabatlar, tarixiy voqeliklar, o‘tish davrning ijtimoiy-diniy talablariga moslashmaslik, turmush tarziga kiritilgan o‘zgarishlar, yangi oila a’zolarini o‘ziga yaqin olib qabul qilmaslik kabi omillar ham kiradi.

Bugungi kunda umumgloballashuv tendensiyasi kechayotganligi, hech bir jamiyat o‘zini undan ayro holda tasavvur eta olmayotganligi, bu sharoitda, bir tomondan globallashuv jarayonining afzalliklaridan oqilona foydalanish, ikkinchi tomondan, uning salbiy ta’sirini bartaraf etish borasida pozitiv yo‘lni topish zarurati o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Bunday zamonda “Vatan” degan oliy qadriyatni anglashning optimal varianti – unga muqobil bo‘lgan vatansizlikdan xoli jamiyatni yaratish ekanligi ham barchaga ma’lum haqiqatdir. Zero, “Yangi O‘zbekistonga xalqimizning orzu-intilishlarini teran anglaydigan, unga sadoqat bilan xizmat qilishni muqaddas burch deb biladigan, bilimdon va qat’iyatli shaxslar zarur”, [1] deganda muhtaram Prezident, kelajagimiz poydevori bo‘lgan yoshlarga urg‘uni qaratishida katta ma’no bor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.А. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.: Ўзбекистон, 2021. –Б. 295.
2. Уришева П. Ёшларни миллий қадриятлар руҳида тарбиялашнинг аҳамияти // Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. 2022. –Т. 2. №. 12. –Б. 191-195.
3. Алимов У. Оилада фарзанд тарбияси. –Т.: Моваройннаҳр, 2019. –Б.12.
4. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. –T.: Movarounnahr, 2007 –B.50
5. Imom A’zam Abu Hanifa. Musnad.–T.: Movarounnahr, 2008 –B.62
6. https://kun.uz/kr/30800123Paley
7. https://t.me/Rasmiy_xabarlar_Official/45417B.,
8. https://stat.uz
9. Hajal N. J. Conceptualizing emotion regulation and coregulation as family-level phenomena // Clinical Child and Family Psychology Review. 2022. –T. 25. №. 1. –P. 19-43.
10. Ismatova D.T. Oiladagi ajrimlar psixologik muammosi sifatida // Oriental Art and Culture. 2021. –№. 8. –B. 184-190.
11. Samatova S.S. Oiladagi ajrashishlarning oqibatlari va ularga yechim // GOLDEN BRAIN. 2023. –T. 1. №. 29. –B. 69-73.

IQTISODIY TARAQQIYOT OMILLARI: IJTIMOIY- FALSAFIY TALQIN

Xolov Sherali Ahrorboyevich
Qarshi davlat universiteti falsafa va sotsiologiya kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
Sherali.holov@mail.ru
ORCID 0009-0001-6502-0139
UDK 100:33 (045)

Annotatsiya. Maqolada “iqtisodiy taraqqiyot” tushunchasining ijtimoiy-falsafiy aspektlari tahlil qilinadi. Iqtisodiy islohotlarning maqsadi, iqtisodiy taraqqiyotga erishish masalasi haqidagi konsepsiyalar tahlil qilinadi. Iqtisodiy taraqqiyot innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi bilan bog‘liq o‘zgarishlarni ham o‘z ichiga olishi, innovatsion iqtisodiyot yangi texnologiyalarning iqtisodiyotga tatbiq etilishi bilan bog‘liq jarayonlarni ifodalashi, iqtisodiy o‘sish iqtisodiy taraqqiyotdan darak beruvchi muhim yo‘nalishlardan biri ekanligi haqida ilmiy mulohazalar ilgari suriladi va nazariy xulosalar qilinadi. Ushbu maqolada jahondagi global iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalarining O‘zbekistondagi jarayonlarga turlicha ta’sirlari atroflicha o‘rganilib, unga iqtisodiy, falsafiy jihatdan atroflicha taklif va xuloslar berib o‘tiladi. Maqolada iqtisodiyotda zamonaviy, xaridorgir tovarlar ishlab chiqarishga moslashtirilgan, jiddiy daromad keltiradigan tarmoqlar qancha ko‘p bo‘lsa, iqtisodiyot ravnaqi ham shu qadar jadal bo‘lishi ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar. iqtisodiyot, iqtisodiy soha, iqtisodiy taraqqiyot, innovatsion iqtisodiyot, global iqtisodiy o‘sish, investitsiyalar, an’anaviy iqtisodiyot.

FACTORS OF ECONOMIC DEVELOPMENT: A SOCIO-PHILOSOPHICAL INTERPRETATION

Abstract. The article analyzes the social-philosophical aspects of the concept of "economic development." It examines the goals of economic reforms concerning achieving economic development through various concepts. The article emphasizes that economic development encompasses changes associated with the formation of an innovative economy, which reflects processes related to the application of new technologies in the economy. It presents scientific reflections on the idea that economic growth is one of the critical directions indicating economic development and draws theoretical conclusions. This article provides a comprehensive analysis of the diverse impacts of global economic development trends on processes in Uzbekistan, offering economic and philosophical perspectives, proposals, and conclusions. The article highlights that the more sectors in the economy are aligned with the production of modern, consumer-oriented goods that generate significant revenue, the faster the economic progress.

Key words. economy, economic sector, economic development, innovative economy, global economy, economic growth, investments, traditional economy.

Kirish. “Iqtisodiy taraqqiyot” tushunchasi nafaqat mazmunan boy, balki hajman ham kengdir. Hajman iqtisodiy taraqqiyot deganda bir necha yo‘nalishdagi sifatiy o‘zgarishlar nazarda tutiladi. U avvalo biz yuqorida tilga olib o‘tgan iqtisodiy o‘sishni o‘z ichiga oladi. Iqtisodiy o‘sish mahsulot va xizmatlarning miqdoran ko‘payishi bilan bog‘liqligini aytib o‘tdik. Iqtisodchi olimlar iqtisodiy o‘sishga olib keladigan mexanizmlarni turlicha tavsiflaydilar. Masalan, L.Valras, A.Marshal, M. Fridman kabi olimlar o‘z asarlarida iqtisodiy o‘sishni sof iqtisodiy omillar ta’sirida yuzaga kelgan miqdoriy yuksalish sifatida tasvirlaydilar.[1] J.Tobin kabi iqtisodchi olimlar esa iqtisodiy o‘sish nafaqat iqtisodiy, balki iqtisodiyotga daxldor bo‘lmagan ko‘plab omillar ta’sirida yuzaga kelishini uqdiradilar.[2] R.Nelson va S.Uinter o‘z asarlarida iqtisodiy o‘sishni milliy iqtisodiyot rivojining yorqin natijasi deb ko‘rsatadi.[3] Ko‘rinib turibdiki, iqtisodiy o‘sish tabiati, namoyon bo‘lishi xususiyatlari, omillari va vositalarini turlicha tavsiflash mumkin. Lekin bundan qat’i nazar, u har qanday mamlakatda ham, har qanday holatda ham iqtisodiy taraqqiyotdan darak beruvchi muhim yo‘nalishlardan biri sifatida qolaveradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Iqtisodiy taraqqiyot omillarini o‘rganib tahllil qilgan mutaxassislar G.V. Semeko, I.A.Ugarov, G.V. Ploxotnikova esa iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillari sifatida – ta’lim va fan rivojiga diqqatni qaratadilar.[4, s.41] [5, s.94]

Atoqli davlat arbobi Islom Karimov “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida” nomli kitobida iqtisodiyot tarkibini tubdan o‘zgartirishni, xomashyo yetkazishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o‘tishni, uning sifatini va raqobatga bardoshliligini jahon talablari darajasiga yetkazishni iqtisodiy siyosatning strategik vazifalaridan biri sifatida belgilagan edi.[6, s.301]

Rus olimlari A.V. Loginov va A.O. Yaroslavsevalar siyosiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyot o‘rtasidagi dialektik aloqadorlikning boshqa jihatiga e’tiborni qaratadilar. Ular iqtisodiy

taraqqiyotning o‘zi siyosiy barqarorlikni mustahkamlovchi omil vazifasini o‘tashi, mamlakatda iqtisodiy ravnaq sur’atlari jadallashgani sayin siyosiy barqarorlik ham qat’iylashishini, iqtisodiy tanazzul esa siyosiy vaziyatni izdan chiqarishini qayd etadilar. [7, s.51] , [8, s.109]

Amerikalik iqtisodchilar D.Adjemoglu va J.Robinsonlar iqtisodiy taraqqiyot siyosiy barqarorlikni taqozo qilishiga e’tibor qaratadilar. Ularning fikriga ko‘ra, siyosiy barqarorlik inklyuziv institutlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Bu institutlar aholining katta qismini iqtisodiy masalalar yuzasidan siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb etish imkonini beradi. Natijada iqtisodiy muammolarning o‘z vaqtida bartaraf etilishiga, iqtisodiyotning shiddat bilan rivojlanishiga yo‘l ochiladi. Aksincha, siyosiy beqarorlik ekstraktiv institutlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Mazkur institutlar aholining salmoqli qismini jamiyat iqtisodiy hayotidan uzib qo‘yadiki, buning oqibatida iqtisodiy taraqqiyot sur’atlari sekinlashadi.[9, s.31]

Tahlil va natijalar. “Iqtisodiy taraqqiyot” tushunchasini Y. Shumpeter iqtisodiy ravnaqni oddiy iqtisodiy o‘sishdan tafovutlash maqsadida qo‘llaydi. O‘zining “Iqtisodiy taraqqiyot nazariyasi” nomli kitobida iqtisodiy taraqqiyot oddiy iqtisodiy o‘sishdan tubdan farq qilishini yorqin misol yordamida tasvirlab beradi.

Iqtisodiy taraqqiyot innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi bilan bog‘liq o‘zgarishlarni ham o‘z ichiga oladi. Innovatsion iqtisodiyot yangi texnologiyalarning iqtisodiyotga tatbiq etilishi bilan bog‘liq jarayonlarni ifodalaydi. Bu texnologiyalarning joriy qilinishi nafaqat mahsulotlar va xizmatlar miqdori va sifatiga o‘zgarishlar kiritadi, balki mehnat samaradorliginining tubdan yuksalishiga zamin hozirlaydi. Uning ahamiyati shundaki, innovatsion iqtisodiyot aholi turmush darajasining oshishiga, yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga, eksport salohiyatining yuksalishiga, fan va ta’lim ravnaqiga xizmat qiladi. Iqtisodiy taraqqiyot yo‘nalishlaridan yana biri iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar xarakteri bilan bog‘liq. Sodda tarkibga ega iqtisodiyotlar asosan xomashyo yetkazib berishga moslashgan bo‘ladi. Xomashyo ishlab chiqarish va eksport qilishga asoslangan iqtisodiyot ravnaq topmasligi hammaga ma’lum fikr. Bunday iqtisodiyot turg‘unlikdan nariga o‘tmaydi, unda biror bir rivoj ko‘rinishi bag‘oyat mushkul. Iqtisodiyot ravnaq topishi uchun tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga urg‘u berilmog‘i lozim. Buning uchun esa iqtisodiyot tarkibida tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, ya’ni iqtisodiy subyektlar faoliyatini tubdan yangilash, yangi tarmoqlar va sektorlarni vujudga keltirish, ular o‘rtasidagi aloqadorlikni mustahkamlash lozim bo‘ladi. Ana shu jarayonlarning bo‘y ko‘rsata boshlashi iqtisodiyotning ravnaqqa hozirligidan dalolat beradi. Boshqacha aytganda, tarmoq va sektorlarning turli-tumanligi, zamonaviyligi, davr talablari va aholi ehtiyojlariga mosligi nafaqat milliy iqtisodiyot tarkiban boyligini, balki uning taraqqiyotga yuz tutayotganini ko‘rsatadi. Shu bois atoqli davlat arbobi Iqtisodiy taraqqiyotning navbatdagi yo‘nalishi mehnat samaradorligi bilan bog‘liq. Mehnatning samarali tarzda tashkil etilishi va amalga oshirilishi qisqa muddatda ko‘proq mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish imkonini beradi. Buning natijasida mamlakatdagi ishlab chiqarish hajmi muttasil miqdoran oshib boradi, aholiga taqdim qilinayotgan tayyor mahsulotlarning tannarxi esa pasayadi. Bundan tashqari, unumli va oqilona mehnat turli resurslar sarf-xarajatini kamaytiradi. Mutaxassislar mamlakatdagi inflyatsiya darajasi bilan mehnat samaradorligi o‘rtasida ham muayayn aloqadorlik mavjudligini qayd qiladilar. Xususan, samaradorlik ortgani sayin inflyatsiya miqdori kamayadi, aksincha, mehnatning nooqilonaligi va besamarligi inflyatsiyaning jadal sur’atlar kasb qilishiga sabab bo‘ladi [10,s.60]. Mamlakat korxona va tashkilotlari, firma va kompaniyalarida mehnatning samara kasb qilib borayotgani milliy iqtisodiyotning taraqqiy topayotganidan dalolat beradi.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish zarurki, yuqorida tilga olingan yo‘nalishlarning hech biri boshqalaridan ayri tarzda iqtisodiy taraqqiyot manbai bo‘la olmaydi. Masalan, xomashyo sotish evaziga iqtisodiy o‘sish sur’atlari yuqori bo‘lgan, ayni paytda arxaik tarkibiy tuzilishga ega, innovatsion texnologiyalardan yiroq iqtisodiyotni rivojlanayotgan iqtisodiyot deb atash nihoyatda qiyin. Yangi tarmoqlar va sektorlar vujudga keltirilayotgan, lekin ulardagi mehnat samarasi past darajada qolayotgan yurtlarda ham iqtisodiy taraqqiyot sodir bo‘lmaydi. Iqtisodiyotda sifatiy o‘zgarishlar yuz berishi, uning ravnaq topishi uchun yuqorida ko‘rsatilgan yo‘nalishlarning barchasi uyg‘un va o‘zaro aloqador ravishda, uzoq muddat davomida uzluksiz holda namoyon bo‘la boshlamog‘i lozim.

Iqtisodiy taraqqiyot stixiyali va tasodifiy ravishda sodir bo‘ladigan va bo‘y ko‘rsatadigan jarayon emas. U jamiyatning barcha mavjud resurslarini keng ko‘lamda safarbar qilishni taqozo etadi. Mutaxassislarning ilmiy ishlarida iqtisodiy taraqqiyotga turtki beruvchi ko‘plab omillar

tavsiflanadi. Masalan, amerikalik iqtisodchilar D.Adjemoglu va J.Robinsonlar iqtisodiy taraqqiyot siyosiy barqarorlikni taqozo qilishiga alohida urg‘u beradilar. Ularning fikriga ko‘ra, siyosiy barqarorlik iklyuziv institutlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Bu institutlar aholining katta qismini iqtisodiy masalalar yuzasidan siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb etish imkonini beradi. Natijada iqtisodiy muammolarning o‘z vaqtida bartaraf etilishiga, iqtisodiyotning shiddat bilan rivojlanishiga yo‘l ochiladi. Aksincha, siyosiy beqarorlik ekstraktiv institutlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Mazkur institutlar aholining salmoqli qismini jamiyat iqtisodiy hayotidan uzib qo‘yadiki, buning oqibatida iqtisodiy taraqqiyot sur’atlari sekinlashadi. [10, s.31] Mualliflar inklyuziv institutlar qaror topgan AQSh, Fransiya, Avstraliya kabi mamlakatlardagi iqtisodiy taraqqiyotni, ekstraaktiv institutlar faoliyat ko‘rsatayotgan Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi iqtisodiy vaziyatni misol tariqasida keltiradilar.[9]

G.V. Semeko, I.A.Ugarov, G.V. Ploxotnikova esa iqtisodiy taraqqiyotning boshqa omiliga – ta’lim va fan rivojiga diqqatni qaratadilar. Ularning mulohazalariga ko‘ra, ta’lim va fan iqtisodiy taraqqiyotga erishishda muhim rol o‘ynaydi, chunki aynan fan va ta’lim iqtisodiyotni innovatsiyalar, yangi texnologiyalar va malakali kadrlar bilan ta’minlaydi. Bu vazifalarning samarali ado etilishi esa mehnat unumdorligini yuksaltirish, korxona va tashkilotlar raqobatbardoshligini oshirish, yangi va yangi investitsiyalarni jalb etish uchun imkon yaratadi. Shuningdek, fan va ta’lim sharofati bilan iqtisodiyotning turli sektorlarida mashg‘ul bo‘lgan mutaxassislar muttasil ravishda o‘z mahoratlari va malakalarini oshirib borishga muvaffaq bo‘ladilar, bu esa iqtisodiyotning innovatsion rivojiga yo‘l ochadi.[11,s.94] Ta’lim va fan yuksalishisiz iqtisodiy taraqqiyotga erishish bag‘oyat mushkul. Ushbu sohalarning zamon talablaridan ortda qolishi yoxud inqirozi iqtisodiyot sohalarini malakali kadrlarsiz qoldiradi, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarning vujudga kelishi jarayonlariga putur yetkazadi. Ta’lim va fan inqirozi, shuningdek, jamiyatdagi mehnat unumdorligini zaiflashtiruvchi omil xamdir. Bularning natijasida iqtisodiyot asta-sekinlik bilan turg‘unlikka yo‘liqadi.

Mutaxassislarning yana bir guruhi iqtisodiy taraqqiyotga erishish uchun iqtisodiy infratuzilmani takomil toptirish kerakligini uqdiradilar. Iqtisodiy infratuzilmaning ahamiyati shundaki, u iqtisodiyotning samarali faoliyat yuritishi uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi, iqtisodiy obyektlarning xom ashyo va resurslar bilan uzluksiz ta’minlanishi, mahsulot va xizmatlarning iste’molchilarga yetkazilishi, yangi texnologiyalarning o‘zlashtirilishi va tatbiq etilishi uchun zamin hozirlaydi. Jumladan, transport infratuzilmasi mahsulotlar va odamlarning harakatlanishiga imkon beradi va ularning bozorlarga kirishini ta’minlaydi, bu esa savdo va biznesni rivojlantirishga yordam beradi. Energetika infratuzilmasi sanoatlashtirish va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan energiya ta’minotini amalga oshiradi. Aloqa va axborot infratuzilmasi biznesni rivojlantirish, turi innovatsiyalarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Bank tizimi investitsiyalar va iqtisodiy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslardan foydalanishni ta’minlaydi. Tilga olingan infratuzilmaviy tizimlarning samarali faoliyat ko‘rsatayotgani esa mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotga qadam qo‘yganini ko‘rsatadi.

Olimlar iqtisodiy taraqqiyot innovatsiyalarning ishlab chiqarishga keng miqyosda tatbiq etilishi mahsuli ekanligini ham ta’kidlaydilar. “Har qanday sohaning istiqboli, rivojlanishini ilm-fan yutuqlarisiz tasavvur etish qiyin, – deb yozadi Innovatsion ishlanmalarni joriy etish ilmiy-amaliy markazi direktori Sh.Sharifov. – Hozirgi global rivojlanish davrida, qayerda innovatsion ishlanmalar hayotga izchil tatbiq etilsa, o‘sha joyda o‘sish bo‘ladi”. [12] Darhaqiqat, bizning davrimizga kelib, innovatsiyalarning iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashdagi roli shu qadar yuksaldiki, mutaxassislar innovatsiyalarning o‘rni salmoqli bo‘lmagan iqtisodiyotni innovatsiyalarni tatbiq etishga urg‘u berayotgan iqtisodiyotlardan tafovutlash uchun “an’anaviy iqtisodiyot” va innovatsion iqtisodiyot” tushunchalarini ilmiy muomalaga kiritdilar.[13,s.18] Ularning mulohazalariga ko‘ra, an’anaviy iqtisodiyot mustahkam zaminlarga ega bo‘lishi, konkret davrda aholi ehtiyojlarini qondirish vazifalarini uddalayotgan bo‘lishi mumkin. Biroq innovatsiyalarni tatbiq etish masalasi diqqatdan chetda qolayotgan ekan, bunday iqtisodiyotning o‘sishi uzlukli xarakterga ega bo‘ladi. Faqat innovatsiyalarning ishlab chiqarishga faol tarzda tatbiq etilishigina iqtisodiyotning barqaror ravnaqini ta’minlaydi.[13,s.18]

Qator rivojlanayotgan mamlakatlarning keyngi yillardagi tajribasi ham innovatsiyalarning iqtisodiy taraqqiyotdagi salmoqli rolini ko‘rsatib turibdi. Bu mamlakatlarda innovatsiyalarni iqtisodiy hayotga tatbiq qilish masalasi iqtisodiy siyosatning ustuvor vazifalaridan biriga aylantirildi, turli yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish va iqtisodiyot sektorlariga joriy qilishga

tendensiyaviy tus berildi. Natija o‘laroq, ulardagi iqtisodiy ravnaq sur’atlari sezilarli darajada oshdi. Bu natijalar ko‘plab xalqaro tashkilotlar tomonidan ham qayd qilinmoqda. [14,s.263]

Ilmiy manbalarda iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlovchi muhim omillaridan biri sifatida investitsiyalarning ahamiyati tilga olinadi. Masalan, tadqiqotchi A.R. Karamisheva o‘z maqolasida investitsiyalarning roli va ahamiyatini alohida e’tirof etarkan, u quyidagi imkoniyatlarni vujudga keltirishini ta’kidlaydi: a) u qayta ishlab chiqarish jarayonini kegaytirish siyosatini amalga oshirish imkonini beradi; b) u ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirishga xizmat qiladi hamda mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshiradi; v) u ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonini tarkiban qayta quradi hamda barcha tarmoqlarning uyg‘unlikda rivojlanishiga zamin yaratadi; g) u sanoat uchun zaruriy xom ashyo bazasini shakllantiradi; d) u ta’lim, madaniyat va sog‘liqni saqlash sohalarini ravnaq topishiga poydevor yaratadi; ye) u ishsizlik muammosini imkon qadar bartaraf qilishga hissa qo‘shadi; j) u tabiiy muhitni muhofaza qilish ishlarini yaxshilaydi; z) u harbiy-sanoat majmuini rivojlantiradi va mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlaydi.[15,s.16]

Mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyoti sur’atlari va bu borada erishgan muvaffaqiyatlari qator mezonlar yordamida o‘lchab, aniqlab va ifodalab boriladi. Bu mezonlar turkumida yalpi ichki mahsulot birlamchi o‘rin tutadi. “Yalpi ichki mahsulot deganda, – deb yozadi I.A.Matkarimova, – mazkur mamlakat hududida joylashgan barcha korxonalar (rezidentlar) tomonidan pirovard iste’mol uchun ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar qiymati tushuniladi”. [16,s.16] U iqtisodiyotning ravnaq topib borayotganini aniqlash imkonini beradigan eng aniq mezonlardan biri hisoblanadi. Shu boisdan “mamlakat iqtisodiy ahvolini o‘zida aks ettiruvchi bu ko‘rsatkichni aniqlash, hisoblash, tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Iqtisodiyotchi olimlar iqtisodiy taraqqiyotga erishsh borasida qator uslublarni ilgari suradilarki, ularni qo‘llagan holda nafaqat yalpi ichki mahsulot hajmini mufassal aniqlash, balki iqtisodiy taraqqiyotning kelgusidagi rivoji yo‘nalishlarini ham ifodalash mumkin.

Iqtisodiy taraqqiyot sur’ati va xarakterini mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari tarkibiga, undagi xomashyo yetkazib beruvchi sohalarning ulushiga qarab ham aniqlash mumkin. Masalan, iqtisodiyotda zamonaviy, xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashtirilgan, jiddiy daromad keltiradigan tarmoqlar naqadar ko‘p bo‘lsa, iqtisodiyot ravnaqi ham shu qadar jadal bo‘ladi. Aksincha, uning tarkibida xam ashyo yetkazib berishga moslashgan va innovatsion texnologiyalardan mosuvo sohalar salmoqli bo‘lsa, bunday iqtisodiyotni ravnaqqa yuz tutgan tizim sifatida tan olish mushkul bo‘ladi. Shu sababdan ham iqtisodiy ravnaqni maqsad qilgan barcha mamlakatlarda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, ya’ni uni tarkiban boyitish jarayonlariga katta e’tibor beriladi.

Iqtisodiy taraqqiyot sur’atlarini turli sektorlardagi mehnatning unumdorligini o‘lchash orqali bilsa bo‘ladi. Agar mazkur sektorlarda kamroq mehnat va resurs hisobiga ko‘proq mahsulot ishlab chiqarilayotgan bo‘lsa, ayni paytda mahsulotning yuksak sifatini saqlab qolishga muvaffaq bo‘linayotgan bo‘lsa, bu iqtisodiyotning taraqqiy etib borayotganidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Вальрас Л. Элементы чистой политической экономии. - М.: Изограф, 2000; Маршалл А. Принципы экономической науки.- М.: Прогресс, 1993. Friedman Мю Capitalism and Freedom.- Chicago: University of Chicago Press, 2002.

2 Тобин Дж. Денежная политика и экономический рост.- М.:Литрес, 2010;

3. Нельсон Р. Р., Уинтер С.Дж. Эволюционная теория экономических изменений — М.: Дело, 2002.

4. Семеко Г.В. Образование как фактор экономического роста.// Экономические и социальные проблемы России, 2010, №2. С. 41-83.

5.Угаров И.А., Плохотникова Г.В. Наука и образование как факторы экономического развития современного мира. // Тенденции развития науки и образования, 2021, №11. С. 94-98.

6. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida.// Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Tom 3.- T.:O‘zbekiston, 1996.- B.301.

7.Логинов А.В. Стабильность политической системы и факторы, ее определяющие.// Гуманитарий: актуальные проблемы гуманитарной науки и образования, 2008, №7. – С. 50-55

8.Ярославцева А.О. Экономический рост как фактор политической стабильности.// Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Политология, 2015, №4. -С.109-116.

9. Аджемоглу Д., Робинсон Дж. А. Почему одни страны богатые, а другие бедные. Происхождение власти, процветания и нищеты.- М.: АСТ, 2016.

10. Портнов А.В., Вику К. Н.К. Оценка коинтеграции инфляции и производительности: на примере России и стран Западноафриканского экономического и валютного союза (ЗАЭВС).// Наука Красноярья, 2023, №1.- 60-77-с.

11. Семеко Г.В. Образование как фактор экономического роста.// Экономические и социальные проблемы России, 2010, №2. С. 41-83

12. Угаров И.А., Плохотникова Г.В. Наука и образование как факторы эко-номического развития современного мира.// Тенденции развития науки и образования, 2021, №11. С. 94-98.

12.Шарифов Ш. Инновацион ишланмаларни ҳаётга татбиқ этиш – тараққиёт гарови.// uza.uz, 2021, 24 февраль.

13. Гужина Г.Н., Гужин А.А.Роль инноваций в экономическом развитии.// Инновации и инвестиции, 2020, №1. С.18.

14. Алламырадов М.А. Роль инноваций в экономическом росте.// Молодой ученый, 2022, №45.- 263-265-с.

15. Карамышева А.Р. Инвестиции и их роль в развитии экономики.// Транспортное дело России, 2009, №5. С.16.

16.Matkarimova I.A. Yalpi ichki mahsulot hajmini baholash usullari (milliy hisoblar tizimi asosida).// Молодой ученый, 2017, №16.2.- 16-b.

O‘RTA ASR YYEVROPASI VA UYG‘ONISH DAVRI: BORLIQ, ONG VA TIL MAKON VA ZAMON RAKURSIDA

Q.B.Shadmanov
Falsafa fanlari doktori, professor, Buxoro davlat tibbiyot instituti
shadmanov.qurbon@bsmi.uz
ORCID 0000-0003-2287-0632
УДК 101/715/(410.1)

Annotatsiya. Maqolada muallif o‘rta asrlarda YYevropa jamiyati tubida mehnatning ommaviy tabiati bilan uning natijalarini o‘zlashtirib olishning adolatsiz tabiati o‘rtasida ziddiyatlar vujudga kelganligi, bu esa ma’naviy-huquqiy toifalarni va O‘rta asrlardagi cherkov asoslarini asta-sekin zaiflashtirganini muhokama qiladi. O‘rta asrlarning axloqiy ideallari falsafiy va kognitiv nuqtayi nazardan ham uzoq davom etgan inqiroz davriga tushib qoldi. Haqiqiy mavjudot Xudoga va Muqaddas Bitiklarga e’tibor qaratgan avvalgi ideallarga sodiq qolgan faylasuflarni chetlab o‘tib, asta-sekin yo‘qola boshladi. Bularning barchasi kech O‘rta asrlar ma’naviy hayotining bo‘linishiga olib keldi. Bilish falsafaning markaziy muammosiga aylanadi va uning o‘rganilayotgan moddiy obyektlarga munosabati yangi falsafiy dasturlarning o‘zagiga aylanadi. Shu bilan birga, falsafaga va insonning faol, ijodkor shaxs sifatidagi qiziqishi jamiyat, jamiyat tomon siljimoqda. Asosiy savol insonning jamiyatdagi o‘rni va roli, uning huquqlari, hokimiyatga bo‘lgan munosabati, davlat tizimidagi o‘rni haqida bo‘ladi. Shunday qilib, ikki yadro, ikkita markaz shakllanadi, ular atrofida falsafiy manfaatlar jamlanadi: jamiyat va bilim.

Kalit so‘zlar: borliq, ong, Uyg‘onish davri, o‘rta asrlar, empirizm, mantiq, shakl, usul.

MEDIEVAL EUROPE AND THE RENAISSANCE: BEING, CONSCIOUSNESS AND LANGUAGE IN THE PERSPECTIVE OF SPACE AND TIME

Abstract. In the article, the author discusses that in the Middle Ages, in the depths of European society, the contradictions between the mass nature of labor and the unfair nature of the appropriation of its results matured, they gradually weakened the moral and legal categories, church foundations of the Middle Ages. The moral ideals of the Middle Ages fell into a period of prolonged crisis in a philosophical and cognitive sense. Real life was lost, eluded from those philosophers who adhered to the former, oriented to God and the sacred writing of ideals. All this led to a split in the spiritual life of the late Middle Ages. Cognition becomes the central problem of philosophy, and its relation to the studied material objects – the core of new philosophical programs. At the same time, interest in philosophy and man as an active, creative individual shifts towards society, the social medium. The key question becomes the place and role of man in society, his rights, attitude to power, his place in the state system. Thus, two cores, two centers are formed, around which philosophical interests are grouped: society and cognition.

Key words: being, consciousness, Renaissance, Middle Ages, empiricism, logic, form, method.

Kirish. O‘zbekistonda olg‘a intilayotgan uchinchi Uyg‘onish davrining boshlanishi xalqimiz oldida yangi istiqbollarni ochib berdi: biz o‘z borlig‘imizni, hayotimizni qayta ko‘rib chiqishga kirishdik. Mustaqillik munosabati bilan Respublikamiz ijtimoiy fanlari, jumladan, falsafa namoyandalari oldiga yangi, jiddiy va murakkab vazifalar qo‘yildi va bu juda tushunarli, chunki birinchidan, O‘zbekiston falsafa sohasida eng boy an’analarga ega, ikkinchidan, respublikamizning mustaqil davlat sifatidagi yangi mavqeyi chuqur falsafiy tushunishni taqozo etadi. Ammo bu muammoning uchinchi jihati ham bor, ya’ni: Yangi davr G‘arb klassik falsafasini

tizim sifatida mustahkamlash yo‘llarini o‘rganish va oydinlashtirish ko‘p narsani berishi mumkin, bu, avvalambor, shakllanishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish uchun foydalidir. Hozirgi o‘zbek falsafasining qiyosiy ma’noda, shuningdek, tarixiy adolatni tiklash nuqtayi nazaridan; bu Sharq, xususan, Markaziy Osiyo falsafasining G‘arb falsafasiga, jumladan, ingliz tiliga ta’sirini ochib berish yo‘lidagi jiddiy qadam bo‘ladi. O‘zbekiston falsafasi xalqaro maydonga chiqishi kerak va shu ma’noda ingliz va ingliz tili falsafasini chuqur o‘rganish mamlakatimizni targ‘ib etishning samarali yo‘llaridan biridir. Bu vazifani falsafiy hayotni, uning tarixini o‘rganmasdan, ta’kidlamasdan turib, “bostirib” olmasdan turib, zamonaviy dunyo falsafiy “ulug‘lari”ning shakllanish tarixini chuqur o‘rganishga harakat qilmasdan turib amalga oshirib bo‘lmaydi.

Jahon madaniy-falsafiy tafakkurining o‘tish davrlarida “Mavjud”, “til”, “ong” kabi murakkab kategoriyalarining o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro uzviyligi muammolarini ularning ingliz Uyg‘onish davri va falsafasi dunyoqarashi bilan aloqadorligi bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilish ko‘plab savollarni tug‘diradi. Bu savollarga javob bermasdan, masalaning mohiyatini tushunishga yaqinlashib bo‘lmaydi. Savolning mohiyatiga to‘g‘ri javob berish uchun biz, avvalambor, o‘sha davr obyektiv voqeligi qanday bo‘lgan, o‘sha davrning falsafiy tafakkuri qanday bo‘lgan, bu fikr ingliz tilida, jumladan, faylasuflar asarlarida va falsafiy fikrli mualliflar jihatidan, qanday aks etganligini aniqlashimiz lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Uyg‘onish davrining yetakchi mutaxassislaridan biri V.I. Rutenburg ekspertlarning umumiy fikrini bayon qilib, shunday degan edi: “Uyg‘onish davri insoniyat boshidan kechirgan eng buyuk umumbashariy madaniy inqiloblardan biri bo‘ldi” [3, 5-b.; 1, 135-137-b.], aynan o‘sha paytdan boshlab, tajriba va kuzatish, geometriya va kinematika yuksak hurmatga sazovor bo‘ldi, eksperimental tabiatshunoslik asoslari qo‘yildi va bilim kuchga aylandi. Ammo o‘sha davr ingliz falsafiy tafakkurining mazmuni va o‘ziga xosligini tushunishdan oldin, Uyg‘onish davrining o‘zini tarixiy hodisa, odamlar hayotidagi bosqich sifatida tushunishimiz kerak, ya’ni: nimaning uyg‘onishi, nima uchun aynan antik davri uygo‘nishi va qanday antikliklining uyg‘onishi, bu holda O‘rta asrlar qanday edi va hokazo. Bularning barchasi muhim savollar bo‘lib, ularning mohiyatini tushunmasdan biz aniq tarixiy muhitga ega bo‘la olmaymiz, ya’ni nafaqat ushbu muayyan, balki boshqa biron bir tadqiqotning ham haqiqiy ilmiy xarakterini ta’minlash mumkin emas.

Ingliz falsafasi (ayniqsa, empirizm) tarixiga oid ko‘p adabiyot mavjud. Qaysi falsafa ingliz falsafasi ekanligi, empirizm o‘ziga xos ingliz hodisasimi va u boshqa mamlakatda paydo bo‘lishi mumkin edimi, degan savol-javoblar uzoq vaqtdan beri davom etib kelmoqda. Biz bu butun umumdunyoviy hodisa ekanligiga ishonishga moyilmiz; falsafiy bilim shakli sifatida empirizmning boshlang‘ich kurtaklari Qadimgi Misr, Hindiston va Xitoyda, Qadimgi Yunoniston va Rimda ham bo‘lgan. Biroq empirizm Angliyada mazmunli, yaxlit va sifat jihatidan aniq falsafiy bilimlar tizimiga aylandi. Buning sababi shundaki, bu yerda ilmiy bilishning shakl va usullarini rivojlantirishga, uning haqiqati uchun shart-sharoitlarni ta’minlashga, Rojer Bekon, Tomas Mor, Frensis Bekon, Tomas Xobbs, Jon Lokk, Jorj Berkli va boshqalar kabi buyuk mutafakkirlar ishtirokida insonning atrofidagi voqelikni tushunish qobiliyatini ochib berishga yordam bergan eng qulay omillar rivojlangan [5].

Ma’lumki, empirizm jahon falsafasining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida 17-asrda Angliyada rivojlangan [4, b.797]. Ingliz falsafiy tafakkuri (va, birinchi navbatda, empirizm) nafaqat Angliyada, balki oldingi asrlarda fanning uzoq vaqt davomida shakllanishi natijasidir. Falsafaning butun tarixi, jumladan, falsafa hali o‘zining ilmiy uslubidan ajralmagan bo‘lgan holda uzoq yillar, mohiyatan, insonning nazariy tafakkuri va uning hayot mazmuni haqidagi mulohazalari tarixidir, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi; bu, sodda qilib aytganda, kurash tarixi, his va aql tarixi, tajriba va ratsionallik tarixidir. Bizning bu fikrimiz Uyg‘onish davridan oldingi tarixiy va falsafiy an’analar bilan tasdiqlangan, xoh u qadimgi Misr madhiyalari, xoh qadimgi Xitoy traktatlari yoki qadimgi Hind vedalari bo‘lganidan qat’i nazar.

O‘rta asrlar, Uyg‘onish davri va keyingi davrlar falsafasidagi go‘ya va fikrlar qadimgi yunonlar falsafasida u yoki bu kurtak shaklda mavjud bo‘lgan, deb qabul qilinadi. Qadimgi yunon falsafasining mifologiyadan ajralgani, o‘ta xilmaxilligi hammaga ma’lum: u matematika, astronomiya, mantiq, she’riyat muammolarini o‘rgangan, lekin asosan tabiat va inson muammollarini o‘rgangan. Tarixiy jihatdan falsafaning birinchi shakli naturfalsafa bo‘lgan, ya’ni kunduz va tunning, qish va yozning o‘zgarishi, suvning qaynashi yoki uning bug‘ va muzga aylanishi, momaqaldiroq va chaqmoq kabi qadimgi odam uchun tushunarsiz bo‘lgan hodisalarni

nazariy tafakkur yordamida tushuntirishga urinishlar. Ushbu fonda antik falsafada juda ko‘p sonli maktablar va harakatlar mavjudligining asosiy sababi antik mutafakkirlarning eksperimental usulni (albatta, ommaviy shakldagi johillik umumiy tendensiya sifatida) haqiqiy nodonligi yoki jaholatida ekanligi paradoksal ko‘rinadi; bu esa, keyinchalik ingliz empirizmining o‘ziga xos xususiyatiga ega bo‘lishiga aylandi. Qadimgi yunon falsafasi eng keng va umume’tirof etilgan holda fizika, dialektika va etikaga bo‘lingan. Antik davr falsafiy tafakkurining o‘ziga xos xususiyati uning alohida fanlarga bo‘linmagan yaxlitligi edi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tizimli tahlil, konseptual nazariyalarni qiyoslash va ilmiy bilishning analiz va sintez, umummilliy va xususiylik, vorisiylik, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Qadimgi yunon falsafasida ko‘plab paradokslar mavjud bo‘lib, ulardan ikkitasi an’anaviy bo‘lib qolgan, biz to‘xtalib o‘tmoqchimiz.Qadimgi yunon falsafasida ko‘plab paradokslar mavjud bo‘lib, ulardan ikkitasi an’anaviy bo‘lib qolgan, biz shularga diqqat-e’tiborimizni qaratmoqchimiz. Falsafa odamlar har kuni boshdan kechiradigan tabiat hodisalarini tushunishga urinish sifatida paydo bo‘lganiga qaramay, fanning keyingi evolyutsiyasi uchun muhim bo‘lgan tabaqalanish aynan shu davr falsafasida sodir bo‘ldi: nazariy tafakkur shu darajada rivojlanganki, u hissiy, eksperimental bilimlardan ajratilib ketdi. Bu insoniyat tafakkuri tarixidagi noyob hodisani ifodalovchi Birinchi ustoz – Arastu boshchiligidagi mutafakkirlar yog‘dusining ijodiy natijasi, deb hisoblaymiz. U formal (an’anaviy) mantiqning asoschisi bo‘lib, uning to‘rtta qonunidan uchtasini (o‘ziga xoslik qonuni, qarshilik qilmaslik qonuni va uchinchi inkor qonuni) shakllantirdi (to‘rtinchisi, asos yetarliligi qonuni, faqat 17-asrda paydo bo‘lgan va, ma’lumki, G. Leybnitsga tegishli). Arastu yaratgan ta’limot tufayli u O‘rta asrlarning yetakchi faylasuflarining sig‘inish obyektiga aylandi.

Agar biz bir lahzaga YYevropa o‘rta asrlari qadimgi hayot me’yorlarini rad etgan va unutib yuborgan deb hisoblasak va shu sababli asrlar o‘tib, antik davrni qayta tiklash zaruriyati tug‘ilgan bo‘lsa, unda savol tug‘ilishi mumkin: bu holda qanday qilib eng buyuk mutafakkir va olim, ammo antik davr mutafakkiri va olimi bo‘lmish Arastu o‘rta asrlarga o‘rnak sifatida tan olinadi? Biroq, hamma narsa aynan shunday bo‘lgan edi, va bu bizning tadqiqot obyektimizga xos bo‘lgan ikkinchi paradoks hisoblanadi va shuning uchun biz buni eslatib o‘tmoqdamiz. O‘rta asr matnlarini, kengroq aytganda, o‘sha paytda sodir bo‘lgan madaniy va ma’naviy jarayonlarni sinchkovlik bilan o‘rganilsa, darhol ma’lum bo‘ladiki, Yevropa o‘rta asrlari, garchi ko‘pchilik mutaxassislar tomonidan qora davr sifatida qabul qilingan bo‘lsa-da, aslida insoniyat tarixida O‘rta asrlar bir xil va noaniq hodisadan yiroq edi. O‘rta asrlar mazmuni jihatidan ajoyib davr bo‘lib, inson so‘zlashuvchi hayvon bo‘lishni to‘xtatgan, o‘z uyi, o‘z yeri, o‘z qoramoliga ega bo‘lgan, bu har bir insonga o‘z kuchini, topqirligini va hokazolarni namoyish qilish uchun to‘liq imkoniyat berdi. Aynan o‘rta asrlar o‘sha paytda Magellan, Kolumb va Vasko da Gama qo‘rquvsiz dengizlar va okeanlar bo‘ylab karvonlarda suzib o‘tishlari, Kopernik va Giordano Bruno koinot, galaktikaning haqiqiy holatiga niqobini ochmoq uchun moddiy asos tayyorlagan. Haqiqiy xalq amaliy san’ati o‘rta asr hodisalaridan boshlanadi. Cherkovga kelsak, u o‘z harakatlari bilan odamlarning e’tiborini mehnat va ijodiy faoliyatga qaratdi: “Biz senga jannatdan joy beramiz, faqat biz maslahat bergan narsaga rioya qil” degan fikrni uqtirishda intildi. Bu yerda Uyg‘onish davrining, ingliz falsafiy lug‘atining kelib chiqishi yotadi.

Antik davr o‘limining sabablaridan biri quldorlikning o‘zini tugatganligi edi. Tashqi tomondan, bu ko‘plab mamlakatlar va xalqlarni zabt etgan qadimgi rimliklar boylik, hashamat va buzuqlikka botganida o‘zini namoyon qildi. Bu sharoitda va ayniqsa, nasroniylikning paydo bo‘lishi va birinchi nasroniylarning shafqatsiz ta’qib qilinishi munosabati bilan adolatni, oliy haqiqatni izlash, eng dono, yakuniy hokimiyat sifatida Xudoga murojaat qilish va oxir-oqibat, Qodir Tangrini singdirish tushunarli bo‘ldi. Xudoga sig‘inish, mohiyatan mavhum hodisa sifatida, nafaqat tasavvur yordamida, balki mantiqiy fikrlash, murakkab mantiqiy tuzilmalar yordamida yuzaga kelishi mumkin edi, Arastu esa tarixdagi eng yaxshi mantiqiy risolalarni yaratgan taniqli muallif va ular bo‘yicha beqiyos mutaxassis edi. Shuning uchun u O‘rta asrlar bayrog‘i va Birinchi Muallimiga aylandi.

O‘sha davrdagi diniy-falsafiy matnlarning ham tafakkur tarzini, ham tilini belgilab bergan Yevropa O‘rta asr falsafasining yetakchi turi sxolastika edi. U so‘nggi antik davrlarda vujudga kelgan va jahon falsafasining yetakchi harakati sifatidagi mavqeyini faqat Uyg‘onish davridagina yo‘qotgan va bu rolda ming yildan ko‘proq vaqt davomida mavjud bo‘lgan. Yevropa

sxolastikasining asosiy o‘ziga xos xususiyatlari hayotning barcha sohalarida Xudo va ilohiyotning so‘zsiz ustunligi, mantiqqa eng munosib va jiddiy fan sifatida munosabati, dogmatikani tabiiy va ijtimoiy hodisalarni tushuntirishning spekulyativ-ratsionalistik usullari bilan sintez qilish edi. Oddiy qilib aytganda, sxolastikada Xudo birinchi o‘ringa chiqdi va inson, jamiyat va tabiat esa, uning ijodi sifatida, ikkinchi darajali bo‘lib qoldi, garchi bu davrdan oldin ham ular bilimning yetakchi rollari sifatida ta’minlanmagan bo‘lsalar ham.

Ming yildan ortiq vaqt davomida hamma narsa ilohiyotga – tarix, axloq, estetika, adabiy tanqid, she’riyat va hokazolar, jumladan, fanlarning tan olingan yetakchisi – falsafa ham bo‘ysundi. Cherkov hamma narsani hal qiladigan bo‘ldi va unga zid bo‘lgan narsa haydaldi, ta’qib qilindi va yo‘q qilindi. Xristianlik nafaqat din, balki hayot va fikrlash tarziga aylandi. Kanonik matnlarni va, birinchi navbatda, Injilni fetishlashtirish va ilohiylashtirish amalga oshirildi. Yozuvchilar, shoirlar, faylasuflar va siyosatchilarning ulkan armiyasi uchun bu matnlar ko‘p asrlar davomida chuqur va keng qamrovli, shu jumladan, germenevtik tadqiqot mavzusiga aylandi. Endi, XXI asrning boshlarida, odamlar ba’zan hayron bo‘lishadi: axir, Injil unchalik katta hajmli emas, uning mazmuni deyarli o‘zgarmagan va uni har qanday ko‘proq yoki kamroq qobiliyatli odam yoddan o‘rganishi mumkin. Ha, bu haqiqat. Biroq, o‘rganish, O‘rta asr dinining ustunlari xohlaganidek, muqaddas bitik matnining talqinini, ma’no va qirralarini tushunishni anglatmaydi. Shuning uchun ham talqin va sharh kabi jarayonlar misli ko‘rilmagan miqyosga ega bo‘ldi. Bibliyani to‘g‘ri tushunish kerak edi – bu O‘rta asrlarda ko‘plab sharhlovchilar va sharhlovchi adabiyotlarning paydo bo‘lishining sabablaridan biridir. Ko‘rinib turibdiki, har qanday matnni sharhlashning asosiy vositalaridan biri formal mantiq qonunlarini yaxshi bilish va qo‘llashdir. Sillogizmlar nazariyasi eng to‘liq va har tomonlama Arastu tomonidan ishlab chiqilgan va u o‘z shogirdlariga (va keyingi avlodlarga) yetkazilgan. Shuning uchun O‘rta asrlar uchun Xudo mohiyatga, Arastu esa tom manoda Birinchi Muallimga aylandi. Mutaxassislarning fikricha, sxolastika ma’lum darajada matnni, birinchi navbatda, Muqaddas Yozuvlar va Arastu asarlarini talqin qilish shakllaridagi falsafiylikdir.

Sxolastika fanni ikki turga – mutlaq va nisbiyga ajratdi. Darhaqiqat, O‘rta asrlarga xos bo‘lgan aynan shunday qarama-qarshiliklar XY asrda Kuzalik Nikolayni qarama-qarshiliklar birligi va kurashining dialektik qonunining mohiyatini (lekin shakllantirilishini emas) to‘liq qoniqarli tushuntirishga undadi. Muqaddas Kitob matni mutlaq bilim (“vahiy”), sharh esa nisbiy (lekin ishonch va hurmatga loyiq bo‘lgan holda) deb tan olindi; bunday sharhlar ilmiy obro‘ga ega insonlar tomonidan, birinchi navbatda, diniy apologetlar tomonidan tan olingan katta obro‘ga ega insonlar amalga oshirildi. Barcha davrlarning muammosi bo‘lmish – “haqiqat nima” muammosi O‘rta asrlarda mavjud emas edi, u rasman olib tashlangan edi: Xudo, Muqaddas Kitob va ularning to‘g‘ri talqini haqiqat deb e’lon qilindi va tarjimonlar bu haqiqatni qavm uchun tushunarli, tushuntirib bo‘ladigan va to‘liq tushunarli qilishga intildi.

O‘rta asrlarda antik davr yo‘q bo‘lib ketgan deb aytish mumkin emas, bu noto‘g‘ri. Antik davr Yevropa O‘rta asrlarida qisman saqlanib qolgan, lekin juda cheklangan shaklda va o‘ziga xos shaklda, deyishga jur'at eta olamiz. O‘rta asrlar Yevropasida antik davrning eng yaxshi yutuqlaridan biri mavjud bo‘lgan va gullab-yashnagan – bu formal mantiq edi; u ommaviy ravishda ishlatilgan va hatto g‘ayritabiiy kuchlarga ega bo‘lgan degan fikrlar bo‘lgan, bu esa antik davrning ushbu yutug‘idan Yevropa O‘rta asrlarida foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘ldanligini kelib chiqargan. Bu, asosan, mantiqiy ishontirishning murakkab tabiati edi. Salbiy oqibatlar bilan bir qatorda o‘rta asr mutafakkirlari tomonidan formal mantiqning rivojlanishi muhim ijobiy natija berdi. Formal mantiqning toifalari va qoidalari barcha mualliflarning e’tibori va hurmat markazida edi; ular maktablarda, cherkovlarda va universitetlarda keng o‘rganilgan.

Jamiyat yanada rivojlana boshladi. XIVasrda Pyer Abelyardning “Dialektika” asari paydo bo‘lishi bilan “modernlashtirilgan”, ya’ni aslida mustaqil, nosxolastik mantiq paydo bo‘ldi. Bu ham formal mantiq edi, lekin haqiqatni norasmiy tushunish usulida edi. Boshqacha aytganda, falsafa ikki turga – sxolastik va nosxolastikka bo‘lingan. Shunday sharoitda XIV–XVII asrlarda ingliz empirik falsafasi tizimining shakllanishi va rivojlanishi jahon ijtimoiy tafakkuri tarixida beqiyos rol o‘ynadi.

Fanlar malikasi kabi O‘rta asr mantiqiga bunday katta hurmat bu davr olimlarining antik davrlarda yaratilgan formal mantiqiy tushunchalar va atamalarning butun tizimini to‘liq saqlab qolishlariga (va hatto nozik farqlarda kengaytirilishiga) olib keldi. Boshqacha qilib aytganda, O‘rta

asrlarda mantiqning obyekti va subyekti o‘zgargan bo‘lsa-da, qat’iy ilmiy tafakkur apparatining o‘zi (demak, uni aks ettiruvchi til ham) saqlanib qoldi va hatto takomillashtirildi. Shu sababli, Uyg‘onish davri olimlari inson tafakkuri va nutqining bu eng murakkab bo‘g‘inini tiklashlari shart emas edi, ular uni tayyor shaklda olishga muvaffaq bo‘lishdi.

Bundan tashqari, sxolastiklar nafaqat Uyg‘onish davri, balki keyingi davr olimlari tomonidan qo‘llanilgan ko‘plab tushunchalar va atamalar (shu jumladan falsafiy), leksik vositalarning keng tizimini ishlab chiqdilar. “modda”, “mohiyat”, “shaxs”, “intellektual”, “ratsional”, “irratsional”, “spekulyativ”, “predikativ”, “natural”, “formal”, “temporal”, “suppozitsiya”, “substansiya, “aksidensiya”, “atribut”, “antesedent” va boshqa ko‘plab lotin so‘zlarini talaffuz qilib, ularsiz bizning falsafiy va ilmiy tilimiz uchun tasavvur qilish qiyinligi tufayli, bu atamalarni aynan Boethius tufayli ishlatiladiganligi haqida o‘ylamaymiz ham, u o‘sha uzoq va hozir deyarli unutilgan davrda ushbu kalimalarni qisman o‘zi ixtiro qilgan, qisman birinchi bo‘lib ularni aniqlagan va ularni biz hozir ishlatadigan deyarli bir xil ma’noda adabiy muomalaga kiritgan"[2,b.316]. Bu yerda shuni qo‘shimcha qilish kerakki, O‘rta asrlar boshqa ko‘plab toifalar va tushunchalar, masalan, “erkinlik” va “zarurat” toifalari, umumiy tushunchalarning tabiati (“universallar”) va boshqalarning o‘zaro bog‘liqligini batafsil tushuntirib berdi. Bularning barchasi keyinchalik XIV–XVII asrlardagi ingliz falsafiy lug‘atida asosiy so‘zlarga aylangan so‘zlar zaxirasini jiddiy ravishda to‘ldirdi, bu ularning boshqa milliy falsafa tillarida qo‘llanilishiga asos bo‘ldi.

O‘rta asrlardagi umumiy hayot sharoitlari Yevropa jamiyati tubida mehnatning ommaviy tabiati va uning natijalarini o‘zlashtirishning adolatsiz tabiati o‘rtasidagi ziddiyatlarning kuchayishiga olib keldi; bu sharoitlar O‘rta asrlarning axloqiy-huquqiy kategoriyalari va cherkov asoslarini asta-sekin zaiflashtirdi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni feodal munosabatlari doirasida ushlab turish muammoli bo‘lib qoldi. O‘rta asrlarning axloqiy ideallari falsafiy va kognitiv nuqtayi nazardan ham uzoq davom etgan inqiroz davriga tushib qoldi. Formal mantiq, hatto eng zo‘r shaklda bo‘lsa ham, ilgari surilgan qadriyatlar mazmunining haqiqiy yetishmasligini qoplay olmadi. Xudoga va Muqaddas Yozuvlarga yo‘naltirilgan eski g‘oyalarga sodiq qolgan faylasuflarni chetlab o‘tib, haqiqiy mavjudot yo‘qoldi, natijada ular o‘rtasidagi kelishmovchiliklar kuchaya boshladi. Bularning barchasi kech O‘rta asrlarning ma’naviy hayotida bo‘linishga olib keldi. Uyg‘onish davri falsafiy g‘oyasi va so‘z boyligi (jumladan, ingliz tili so‘z boyligi) shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan bu bo‘linishning eng yorqin ifodasi sxolastikaning ikkita asosiy yo‘nalishi - nominalizm va realizm o‘rtasidagi kurash edi.

Insoniyat tarixida ma’lum bo‘lgan falsafiy oqimlardan biri sifatida nominalizmning yetakchi xususiyati shundaki, u “universallar” deb ataladigan narsaning amaliy mavjudligini inkor etdi, ya’ni borliq va voqelik haqidagi umumiy tushunchalarni. Nominalizm XIV asrda realizmga qarshi kurash davrida mashhurlikka erishdi. Ingliz falsafasi ikkala harakat muammolari faol muhokama qilinadigan maydonlardan biriga aylandi. XVII asrda mashhur ingliz olimlari Xobbs, Lokk hamda Berkli va Yum kabi faylasuflar nominalistik pozitsiyalarga amal qilishdi. To‘g‘ri, Gobbs va Lokk O‘rta asr nominalizmining asosiy g‘oyasini – universallar nazariyasini inkor etdilar. Berkli va Yumga kelsak, ular subyektiv idealizm tomon yo‘l olishdi. Masalan, nominalistlar universallarning real, amaliy xarakterga ega ekanligiga qo‘shilmadilar. Berkli va Yum bundan foydalanib, xususan, “sabab” va “substantsiya” kabi tushunchalar haqiqatda mavjud bo‘lishi mumkin emasligini ta’kidladilar.

O‘rta asr realizmining o‘ziga xos xususiyati shunda ediki, nominalizm bilan (shuningdek, kotseptualizm bilan) bahsda uning vakillari quyidagi g‘oyani himoya qildilar: universallar, ya’ni, voqelik obyektlari haqidagi umumiy tushunchalar, shaxs ulardan xabardor yoki yo‘qligidan qat'i nazar, haqiqatda mavjud. Shunisi e'tiborga loyiqki, bu bahslar davomida falsafa fanining konseptual va terminologik apparati qayta-qayta qo‘llanilgan, ya’ni fundamental falsafiy tushunchalarni ifodalovchi, keyinchalik falsafa tili sifatida shakllangan atamalarning keng doirasi keltirildi va muhokama qilindi. Keyinchalik Uyg‘onish davri mutafakkirlari tomonidan o‘zlashtirilgan yagona ilmiy falsafiy til shunday ishlab chiqilgan. Realizm muammosi, uning tendensiyalari va xususiyatlari XIV-XVII asrlar ingliz falsafasida faol muhokama qilinib, uning konseptual tizimi va lug‘at boyligini jiddiy ravishda boyitdi [5].

Xulosa. Shunday qilib, o‘rta asrlarda ishlab chiqarish va ijtimoiy ongning barqaror rivojlanishi, fan va texnikaning ma’lum yutuqlari o‘stirilgan mafkuraviy postulatlar insoniyatning keyingi taraqqiyotini to‘xtata boshlaganiga olib keldi. O‘rta asr asketizmining turli shakllari o‘zini

oqlamadi. Antik davri borliqning moddiy-jismoniy idealini tiklashga o‘ziga xos yo‘nalishni o‘zgartirish talab qilindi, bu o‘rta asrlarning o‘z-o‘zini o‘zi aks ettiruvchi asketik-kviyetistik g‘oyalarini bosqichma-bosqich rad etish bilan birga keldi; bu esa dunyo arenasiga kirib kelayotgan erta burjua davri – Uyg‘onish davri haqida xabardorlik edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахундов М.Д. Концепции пространства и времени: истоки, эволюция, перспективы. – М.: Наука, 1982. – 222 с.

2. Майоров Г.К. Судьба и дело Боэция //Боэций. Утешение философии. – М., 1990. – С.350-391.

3. Рутенбург В.И. Общество Возрождения// Культура Возрождения и общество. - М., 1986. С. 3-7.

4. Философский энциклопедический словарь. – М., 1983. – 840 с.

5. Шадманов К. Английская духовность и язык. – Дюссельдорф (Германия), 2015. – 264 с.

6. Shadmanov Q.B. Ingliz falsafasining asosiy tushunchalari va leksikonining shakllanishi: ijtimoiy_axloqiy aspektlar. (O‘quv qo‘llanma). – Buxoro, 2023. – 104 b.

7. Kurban B. Shadmanov. Peripatetic philosophical thought of IX-XII centuries Central Asia and the European Renaissance. – Novateur Publication, India, 2024. -106 p.

8. Kurban B. Shadmanov. Reader in late Renaissance Poetry. - Novateur Publication, India, 2024. – 280 p.

9. Shadmanov K. and etc. The integration of computer science in the study of Central Asian scientific-spiritual heritage and Eastern Peripatetic philosophy// First International Conference on Sustainabbility Research 2024, 27-28 September, 2024/Virtual SPAST Reports, vol.1, N7(2024): First SRC 2024(July 2024) https://www.spast.org/ojspast ISNN:3048-5010

10. Shadmanov K. and etc. Main trends of general linguistic evolution of the English literary language. J.World Bulletin o

f Social Sciences (WBSS), Vol.33, April,2024 http://www.scholarexpress.net ISSN:2749-361X/ - pp.69-71.

ONGNI MANIPULYATSIYALASHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARI

Toshov Xurshid Ilxomovich
O‘zMU Falsafa va mantiq kafedrasi
tayanch doktoranti (DSc), dotsent
sujdiniya@mail.ru
ORCID 0009-0004-3958-1022
UDK 1-278.096

Annotatsiya. Ongni manipulyatsiyalash fenomeni sohalararo tadqiqot yondashuvi asosida tadqiq etiladigan murakkab hodisa sanaladi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada Hovening ijtimoiy bilimlar metodologiyasini turlarga ajratish yondashuviga tayanib, ongni manipulyatsiyalash fenomeni mohiyatini ochib berishga qaratilgan yondashuvlar tasniflanadi. Ayni yondashuv asosida funksionalistik, gumanistik, refleksiv va inqilobiy kabi ijtimoiy bilim metodologiyasi turlarini ajratib ko‘rsatish orqali manipulyatsiya fenomenining tavsifiy belgilari ochib beriladi. Bunda nafaqat manipulyatsiya fenomeniga xos xususiyatlar tahlil qilinadi, balki uning ijtimoiy munosabatlar va me’yorlar doirasida namoyon bo‘luvchi jihatlari ham ochib beriladi. Qolaversa, ongi manipulyatsiyalash fenomeni mohiyatini tushuntirib berishga qaratilgan zamonaviy konsepsiyalarni xronologik jihatdan demarkatsiyalab, XX asrda vujudga kelgan va hozirda ham amal qilinayotgan ijtimoiy-gumanitar fan sohalari metodologik yondashuvlari asos qilib olindi. Boshqacharoq qilib aytganda, ongni manipulyatsiyalash fenomeni mohiyatini tushuntirib berishga qaratilgan yuqorida nomi tilga olingan 4 nazariy metodologik yondashuv muayyan ma’noda universallik xarakteri kasb etadi. Negaki, mazkur yondashuvlar ijtimoiy gumanitar fan sohalarining deyarli barcha yo‘nalishlarida konseptual asos sifatida, ba’zan esa paradigmal asos sifatida tatbiq qilinadi. Bu esa mazkur maqolada ongni manipulyatsiyalash fenomenini tushuntirishga qaratilgan turli tadqiqotlar tahlillari natijalarini kompleks tarzda tadqiq etish, shunga ko‘ra mazkur fenomenning yahlit konseptual manzarasini yaratish imkonini beradi.

Tayanch so‘zlar. ijtimoiy bilim metodologiyasi, funksionalistik yondashuv, gumanistik yondashuv, refleksiv yondashuv, inqilobiy yondashuv, moralizatorlik yondashuvi, manipulyativ ta’sir.

MODERN CONCEPTS OF MIND MANIPULATION

Abstract. The phenomenon of mind manipulation is considered a complex phenomenon that is studied based on an interdisciplinary research approach. Based on this, this article, based on Hove's approach of dividing the methodology of social knowledge into types, classifies the approaches aimed at revealing the nature of the phenomenon of mind manipulation. On the basis of this approach, descriptive signs of the phenomenon of manipulation are revealed by distinguishing the types of social knowledge methodology, such as functionalist, humanistic, reflexive and revolutionary. Not only the characteristic

features of the phenomenon of manipulation are analyzed, but also its aspects that appear within the framework of social relations and norms are revealed. In addition, by chronologically demarcating modern concepts aimed at explaining the essence of the phenomenon of mind manipulation, the methodological approaches of the fields of social and humanities that emerged in the 20th century and are still practiced today were taken as a basis. In other words, the 4 theoretical and methodological approaches mentioned above, aimed at explaining the essence of the phenomenon of mind manipulation, acquire the character of universality in a certain sense. After all, these approaches are applied as a conceptual basis and sometimes as a paradigmatic basis in almost all areas of social and humanitarian science. In this article, it is possible to comprehensively analyze the results of various studies aimed at explaining the phenomenon of mind manipulation and, accordingly, to create a holistic conceptual picture of this phenomenon.

Key words. methodology of social knowledge, functionalist approach, humanistic approach, reflexive approach, revolutionary approach, moralizing approach, manipulative influence.

Kirish. Manipulyatsiya fenomenining mohiyatini ochib berishga qaratilgan ko‘plab metodologik yondashuvlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ularda manipulyatsiya turli nuqtayi nazardan tushuntirib berilganligi tufayli uning xilma-xil shakldagi talqinlari yuzaga kelgan.

Ularni muayyan darajada differensiatsiyalash uchun mashhur G‘arb mutafakkiri D. Hovening ijtimoiy bilimlar metodologiyasini turlarga ajratish yondashuvidan foydalanish maqsadga muvofiq[1]. Mazkur turlarga ajratish ikki mezonga (me’yorlarni tan olish yoki tan olmaslik; muvozanatga (gomeostazga) yoki o‘zgarishga (qayta shakllanishga) intilish) asosan amalga oshiriladi.

Mazkur mezonlar asosida funksionalistik, gumanistik, refleksiv va inqilobiy kabi ijtimoiy bilim metodologiyasi turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Ularning har biri ijtimoiy psixologik yordam mezonlarini alohida tarzda belgilaydi. Manipulyatsiya fenomeni misolida ham mazkur yondashuvlarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchi navbatda mazkur metodologik yondashuvlar manipulyativ xulq-atvorning rivojlanish manbayini tushunish borasida muayyan farqlar kasb etadi. Bu esa tabiiy ravishda manipulyativ ustanovkalarning kelib chiqishi va ularga rioya qilinishi borasidagi mas’uliyatning kimga yuklanishiga nisbatan munosabatdagi farqlarni ham yuzaga keltiradi. Funksionalistik va inqilobiy yondashuvga ko‘ra, manipulyatsiya yovuzlik deb qaralsa, gumanistik va refleksiv yondashuv nuqtayi nazardan mazkur kategoriya muayyan e’tibor va muolajani talab qiluvchi kasallik holati hisoblanadi. Mazkur metodologiyalar orasida funksionalistik yondashuv manipulyatsiyaga qarshi kurashish usullarini targ‘ib qilsa, qolgan uchta konsepsiyada har bir insonning manipulyatorga aylanishi zarurligi g‘oyasi ilgari suriladi. Albatta, har uchala yondashuv mazkur savolga turlicha javob bersalarda, ular uchun har bir inson o‘zaro bir-biri uchun manipulyator degan qarash g‘oyaviy asos vazifasini bajaradi. Ammo shuni ham nazarda tutish lozimki, keltirib o‘tilgan har bir yondashuv doirasida manipulyatsiyaning mohiyati hamda unga qarshi kurash usullarini tushuntirishga qaratilgan bir necha konsepsiya va nazariyalar ham uchrashi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ongni manipulyatsiyalash fenomenining mohiyati va uning ijtimoiy-siyosiy, psixoologik, axloqiy va madaniy jihatlarini ochib berishga qaratilgan ko‘plab izlanishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin, ammo ularning ayrimlari g‘oyaviy nuqtayi nazardan muayyan g‘oyaviy yaqinlik kasb etadi. Bu esa ularni tadqiq etishda tasnifiy yondashuvga zarurat tug‘diradi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur fenomenni tadqiq etishga qaratilgan, funksionalistik, gumanistik, refleksiv va inqilobiy singari zamonaviy yondashuvlar asosida shakllangan izlanishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Ongni manipulyatsiya qilish fenomeni sohalararo tadqiqod predmeti sanalib, u falsafa, psixologiya, sotsiologiya, lingvistika, siyosiy fanlar singari yo‘nalishlarda keng o‘rganiladi. Ayni fenomen yaxlit holda to‘laligicha o‘rganilmagan bo‘lsa-da, uning ayrim jihatlari yuqoridagi tadqiqot sohalari nuqtayi nazaridan muayyan darajada tahlil etilgan. Jumladan, E. Shostroma[2] va K. Xorni[3] izlanishlarida manipulyatsiya obyekti va subyekti o‘rtasidagi psixologik farqlar ochib berilgan bo‘lsa, Y.L. Dotsenko[4] ishlarida manipulyatsiya fenomenini tushuntirishga qaratilgan yondashuvlar natijalari hamda ularning psixologik jihatlari sintezlanadi. G. Tard, G.Lebon, S. Moskovich, S. Sigele, V.M. Bexterev, Z Freyd, K.G. Yung asarlarida individual va ommaviy ongga ta’sir ko‘rsatish usullarining o‘ziga xos xususiyatlari tahliliga diqqat qaratiladi. F.Zimbardo, M. Lyayppe, D. Mayers, E. Aronson, E.R .Pratkanis izlanishlarida esa, shaxs kognitiv tuzilmasiga ijtimoiy ta’sir ko‘rsatish jarayonlarining alohida aspektlari tahlil etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv

xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Refleksiv yondashuv manipulyatsiya manbayini tushunish jarayonini ratsionallashtirishga urg‘u beradi: stereotiplar insonga o‘zini erkin tutishga xalaqit beradi, birgina hissiyotlarni o‘rganish yetarli bo‘lmay, kishilar xulq-atvorini qabul qilishda inson o‘zining shaxsiy ustanovkalarini yengib o‘tishi lozim. Refleksiv yondashuv mustaqil tanlovi va hayoti uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga ola oladigan kishilar uchun yo‘naltirilgan bo‘ladi. Mazkur jihat refleksiv yondashuv metodologiyasining ham kuchli, ham zaif tomoni sanaladi. Hamma ham bunday subyektli pozitsiya darajasiga erishishga qodir bo‘lmaganligi bois, hamma ham bunday pozitsiyani egallashni xohlayvermaydi. Refleksiv yondashuv vakillari uchun bunday mustaqillik pozitsiyasini tanlashga intilmaslik manipulyatsiya manbayi bo‘lib xizmat qilsa, gumanistik yondashuv tarafdorlari uni u yoki bu hayot tarzi uchun foyda bo‘ladigan kishilarning erkin tanlovi deb hisoblaydilar.

Gumanistik va funksionalistik yondashuv tarafdorlari manipulyatsiyani bartaraf qilish yoki uning to‘riga tushmasdan yashash imkoni mavjud deb qarasalar, refleksiv yondashuv tarafdorlari esa manipulyatsiya ijtimoiy munosabatlarning ajralmas qismi bo‘lganligi tufayli undan xoli yashash imkonsiz deb hisoblaydilar. Refleksiv yondashuvga ko‘ra, manipulyatsiya yovuzlik emas, fan, madaniyat singari ma’naviy faoliyat me’yorlarida qayd etilgan inson hayotining artefakti sanaladi. Ammo refleksiv yondashuv insonga ijtimoiy munosabatlar paytida vujudga keladigan manipulyatsiya mohiyatini tushunish yoki tushunmaslik, uning to‘riga tushish yoki vaqti-vaqti bilan manipulyativ ta’sir doirasidan chiqishga urinish tanlovini taqdim etish lozim degan g‘oyaga tayanadi.

Bunda qadriyatlarga hamda inson hayotining ma’nosi bilan bog‘liq mo‘ljallarga murojaat qilish manipulyatsiyadan xalos bo‘lishning asosiy yo‘li sifatida ko‘rsatiladi. Bu ma’noda ichki taftish hamda xulq-atvorning axloqiy poydevoriga murojaat qilish manipulyatsiyadan xalos bo‘lishnnig asosini tashkil etadi. Vitalizatsiya, ya’ni hayotning yashash uchun berilganligi, shuningdek, harakat tajribasi, aniqrog‘i, hayotning bir joyda to‘xtab turmasligi hamda o‘z xatolaridan xulosa chiqarib yashash g‘oyalari refleksiv yondashuvda aks etgan manipulyatsiyaga qarshi kurash usulining falsafiy asosi sanaladi. Refleksiv yondashuvga ko‘ra, yakuniy, tugallangan farovonlik va baxtning bo‘lishi mumkin emas. Baxtli bo‘lish doimiy baxt uchun kurashish va unga erishib borish jarayonidan tashkil topadi. Refleksiv yondashuv strategiyasining asosiy g‘oyasi shundan iboratki, manipulyatsiyaga muqobil shakllanishini tushunish uchun muayyan vaqt talab qilinadi.

Refleksiv yondashuvning manipulyatsiyaga nisbatan talqinida erkinlik va qaramlik tushunchalari markaziy o‘rin tutadi. Funksionalistik yondashuvga ko‘ra, qaramlik mikrosotsial miqyos kasb etsa, refleksiv yondashuvga ko‘ra, urush, inqiloblar, tiraniya, iqtisodiy inqirozlar, halokatlar, ommaviy madaniyat kabi makrosotsial hodisalar inson oldiga ichki erkinlik yoki jamiyatda o‘rnatilgan tashqi regulyativ qoidalarga bo‘ysunish o‘rtasidagi tanlovni qo‘yadi.

Bundan kelib chiqqan holda refleksiv yondashuv ijtimoiy munosabatlar hamda siyosiy tartibot oqibatida yuzaga keladigan turli cheklovlar va tabularni tan olgan holda ularni yengib o‘tish usullarini izlab topish zarurligi g‘oyasini ilgari suradi. Refleksiv yondashuvga ko‘ra, inson manipulyativ ta’sirlarni yengib o‘tish uchun jamiyat tomonidan qo‘yilgan taqiqlar asosida shakllanadigan ustanovkalar, stereotiplar, xulq-atvor modellarining mohiyatini chuqur anglash va shunga ko‘ra, hayotiy pozitsiyani yo‘lga qo‘yish lozimligi ta’kidlanadi. Muayyan ma’noda, refleksiv yondashuvning mazkur g‘oyasi yangi davr falsafasida shakllangan “erkinlik bu anglangan zaruratdir” mulohazasi bilan yaqinlik kasb etadi.

Radikal (inqilobiy) yondashuv avtomatik bilim va avtomatik his-tuyg‘ular konsepsiyasiga asoslanib, unga ko‘ra, insonning avtomatik qabul qilish orqali bilim hosil qilishi uning tahliliy qobiliyatini bloklaganligi tufayli ijtimoiy ongni manipulyatsiyalash uchun qulay sharoit yuzaga keladi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, ijtimoiy tengsizlik manipulyatsiyani vujudga keltiruvchi asosiy omil bo‘lganligi sababli uni bartaraf qilish uchun aynan tengsizlikka barham berish lozim. Mazkur yondashuvga ko‘ra, stereotiplar va madaniy me’yorlar hokimiyat institutlari foydasiga ishlaydi. Refleksiv yondashuvga ko‘ra, har qanday hokimiyat noaxloqiy tarzda harakatlanishi ta’kidlansa, inqilobiy yondashuv adolatga bo‘lgan ishonchni saqlab qoladi. Refleksiv yondashuvga ko‘ra, stereotipga asoslangan stereotiplar, aniqrog‘i, sen qanday mavjud bo‘lsang, o‘shandayligingcha qabul qilaman tamoyili manipulyativ ta’sirni yuzaga keltirsa, inqilobiy

yondashuvga koʻra esa, toʻgʻri va notoʻgʻri xulq-atvor qoidalari aniq belgilangan boʻlib, shunga koʻra, manipulyatsiya ta'siridan tashqarida amal qiluvchi ideal dunyo obrazi mavjud ekanligi gʻoyasi ilgari suriladi.

Kurash, aniqrogʻi, odil sud hokimiyatiga murojaat qilish yoki norozilik bildirish instrumenti manipulyatsiyani bartaraf qilish borasidagi inqilobiy yondashuvning asosiy professional texnikasi hisoblanadi. Shu ma'noda, tenglik gʻoyasiga ishonch, ijtimoiy ne'matlarga barchaning erishishi mumkinligi gʻoyasi mazkur yondashuvda manipulyatsiyaga qarshi kurashning falsafiy asosi sifatida koʻrsatiladi. Gumanistik yondashuvga koʻra, tuygʻular bilan ishlay bilish oʻz kechinmalarini tushuna olish, emotsiyalarni boshqarish qobiliyati manipulyatsiyaga qarshi kurashning muhim mexanizmi sanaladi. (jadval 1). Gumanistik yondashuv tarafdorlariga koʻra, kishilar xulq-atvorini oʻzgartirish maqsadida yordam soʻraydilar. Ammo mazkur oʻzgarish, eng avvalo, ularning olamga nisbatan hissiy munosabatlari oʻzgarishidan boshlanishi lozim. Xulq-atvorni faollashtirish tajribasi insonning oʻz his-tuygʻularini namoyon qilish hamda uni erkin ifodalashga toʻsqinlik qiluvchi omillarni chuqur anglashdan boshlanadi. Tuygʻularni erkin ifodalash borasidagi omillarni chuqur anglash hatto murakkab vaziyatlarda ham ularni ifodalay olish mexanizmlarini ishlab chiqishga imkon beradi. Masalan, ijodiy faoliyat tuygʻularni toʻgʻridan toʻgʻri ifoda etish boʻlmagan vaziyatda ham hislarni namoyon qilish uchun qulay sharoit hozirlaydi.

E.Shostrom gumanistik yondashuvning yorqin tarafdorlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy psixologik yordam sohasida namoyon boʻluvchi manipulyativ xulq-atvor bilan ishlashda gumanistik yondashuv samarador hisoblanadi.

Gumanistik yondashuv, avvalo, insonning oʻziga, keyin esa boshqalarga yoʻnalgan boʻladi. Funksionalistik yondashuvdan farqli ravishda gumanistik yondashuv yaqinlarga, xususan, insonning oʻziga nisbatan manipulyatsiyani yengib oʻtishga oid xilma-xil mexanizmlar taklif qiladi. Garchi K. Rodjers, Sh. Byuler, E. Shostrom singari gumanistik yondashuv tarafdorlari tomonidan taklif qilinadigan manipulyatsiyaga qarshi kurashish texnologiyalari funksionalistik yondashuv gʻoyalaridan ta'sirlangan boʻlsa-da, maqsadiga koʻra, oʻzaro farqlanadi. Jumladan, funksionalistik yondashuvga koʻra, shaxs va jamiyat oʻrtasidagi kelishuv muvozanatni ta'minlovchi mexanizm boʻlib xizmat qilsa, gumanistik yondashuvga koʻra, inson oʻz ichki dunyosiga murojaat qilib, ichki potensialini rivojlantirgan holda oʻzligini anglash orqali muvozanatga erishadi.

Funksionalistik paradigma manipulyatsiya mohiyatini tushunishga qaratilgan koʻplab nazariy va amaliy konsepsiyalarni oʻz ichiga qamrab oladi. Manipulyatsiyadan psixologik himoyalanish gʻoyasini ilgari suruvchi ruhiy tahlil, murakkab oilaviy tuzilmalar kategoriyasiga asoslanuvchi tizimli yondashuv kabilar shular jumlasidandir. Mazkur yondashuv doirasida ziddiyatli vaziyatlarda namoyon boʻluvchi 4 ta manipulyativ xulq-atvor modeli ajratib koʻrsatiladi. Ular agressiv reaksiya, gʻamxoʻrlik, manipulyatsiya va oʻz-oʻziga ishonchni ifoda etuvchi xulq-atvordan iborat.

Manipulyatsiya fenomenini tadqiq etishga qaratilgan izlanishlarida N.I. Kozlov uni tushuntirishga qaratilgan ijtimoiy, psixoterapevtik hamda moralizatorlikdan iborat 3 ta zamonaviy yondashuvni ajratib koʻrsatadi.

Psixoterapevtik yondashuv manipulyatsiyadan foydalanish, manipulyator va uning atrofidagilar ruhiy salomatligiga qanday ta'sir koʻrsatishi masalasini tadqiq etadi. Ayni yondashuv tarafdorlaridan biri boʻlgan E. Shostromga koʻra shaxsiy yoki ijtimoiy foyda olish maqsadida oʻzini boricha emas, boʻrttirib yoki ayrim xislatlarini yashirib, oʻziga yarasha ishlov berib, yolgʻon obraz oʻylab topgan holda namoyon qiladigan kishi manipulyator hisoblanadi. Everett L. Shostromdan tashqari Erik Bern ham psixoterapevtik yondashuv tarafdorlaridan biri boʻlib, manipulyatsiya tushunchasi bilan birgalikda "oʻyin" tushunchasini ham qoʻllaydi. U oʻyin deganda "aniq belgilangan va oldindan aytib boʻladigan natijaga ega boʻlgan bir-birini taqozolovchi yashirin qoʻshimcha tranzaksiyalar seriyasini tushungan. Bu oʻz navbatida tuzoqqa tushirishni eslatuvchi xatti-harakatlar seriyasini eslatadi. Bernga koʻra, oʻyin har bir insonning anglanmagan hayot rejasi yoki ssenariysining ajralmas dinamik qismi hisoblanadi. Bern oʻyinni yaqinlikning dastlabki kurtagi sifatida koʻrsatgan boʻlsa-da, insonlararo yaqinlik universal qadriyat sifatida namoyon boʻlishi gʻoyasini ilgari surmagan. Ijtimoiy yondashuv esa, manipulyatsiyaning ijtimoiy mohiyatini tadqiq etib, uning kundalik maishiy ong darajasida qaysi vaziyatda foydali boʻlishi hamda qaysi vaziyatda zarar keltirishi borasidagi masalalarni tadqiq etishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy yondashuv nuqtayi nazaridan manipulyatsiyani tadqiq etgan A.P. Yegidesning talqiniga ko‘ra, insonni boshqaga zarar keltirish va o‘ziga foyda keltirishga yashirin tarzda majburlash manipulyatsiya hisoblanadi[5]. Bunday holda, muallif hech qanday holatda manipulyatsiya odamda ijodkorlikni o‘ldiradi, deb ta’kidlamaydi, aksincha, u ko‘pincha professional manipulyatorlarning ushbu san’atni o‘zlashtirmaganlar bilan qanchalik mohirlik va g‘ayrioddiy ijodiy, quvonch bilan aytish mumkinligini ta’kidlaydi. A.P.Yegides manipulyatsiya hodisasiga har qancha salbiy yondashsa-da, manipulyatorlarga nisbatan, javob manipulyatsiyasini qo‘llash lozimligini qat’iy tarzda ta’kidlaydi. Negaki, uning fikricha, manipulyatorlar manipulyatsiya obyekti bo‘lgan insonlarga axloqsiz tarzda munosabatda bo‘ladilar. Bu esa tabiiy ravishda ularga nisbatan ham munosib javob qaytarish zaruratini yuzaga chiqaradi. Xuddi shunday pozitsiyani V.N. Pankratovning tadqiqotlarida ham uchratish mumkin. Uning fikricha, muloqot jarayonini manipulyatorga qulaylashtirib, manipulyatsiya obyektiga noqulay shaklga keltirishi tufayli har qanday manipulyatsiya usulini tuzoq deb atash mumkin[6].

Moralizatorlik yondashuvida esa, manipulyatsiyaning ish jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi oqibatlari, manipulyatsiya ishtirokchilarining ruhiy salomatligiga ta’siri emas, balki uning axloqiy bahosiga diqqat qaratiladi. Soddaroq qilib aytganda, moralizatorlik yondashuvida har qanday maqsad va vaziyatlarda qo‘llanilgan manipulyatsiya salbiy baholaniladi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, manipulyatsiya axloqiy me’yorlarga nomuvofiq bo‘lganligi tufayli salbiy deb baholaniladi. Shunga muvofiq tarzda qanday maqsadda qo‘llashidan qat’i nazar manipulyativ ta’sir ko‘rsatgan kishi axloqsiz shaxs hisoblanadi. Y.L. Dotsenko tomonidan berilgan ta’rif o‘zida manipulyatsiyaga nisbatan moralizatorlik yondashuvini yaqqol namoyon etadi. Unga ko‘ra, manipulyatsiya yashirin ta’sir turi bo‘lib, uning mohirona ijrosi o‘zga insonda uning faol xohish-istaklariga zid bo‘lgan niyatlarning yashirin tarzda uyg‘onishiga olib keladi[7]. Manipulyatsiyani psixologik zo‘ravonlik sifatida talqin etgan Y N. Volkov esa u kishining ongi va sezgi organlariga boshqa odam yoki jamoa tomonidan o‘tkaziladigan shunday ta’sirki, uning oqibatida qurbon o‘zidan maxfiy tutilgan manipulyator maqsadlariga muvofiq tarzda harakatlana boshlaydi. Manipulyativ ta’sirning mahfiyligi uning dastlabki bosqichlarida o‘ta zaruriy ahamiyatga bo‘ladi. Kozlovning fikriga ko‘ra, bir qarashda mantiqan izchildek tuyulgan Volkovning manipulyatsiyaga nisbatan ta’rifida axloqiy baholash ustunlik qiladi. Negaki, zo‘ravonlik, qurbon, tuzoq kabi tushunchalar chuqur anglanmagan darajada emotsional norozilikni keltirib chiqarishi mumkin. Aniqrog‘i, Volkov badiiy bo‘yoqlarga bo‘yalgan qurbon, zo‘ravonlik kabi tushunchalarga ham bir ma’noli aniq ta’rif berishi lozim[8]. Va nihoyat turli yondashuvlar tahlillarini umumlashtirgan holda Kozlov manipulyatsiyaning natijalarini deyarli bashorat qilish mumkin bo‘lgan sun’iy ta’sir sifatida tushuntirib o‘tadi[9].

Manipulyatsiya fenomenining mohiyatini tushuntirib berishga qaratilgan zamonaviy konsepsiyalar tahlillarini umumlashtirgan holda ularni 3 guruhga tasniflash mumkin. Ular Antonio Gramshining gegemoniya konsepsiyasi, ruhiy tahlil va bixeviorizm natijalariga tayanuvchi psixologik konsepsiya hamda madaniyatning sotsiodinamikasi konsepsiyalaridan iborat[10]. A.Gramshi konsepsiyasida inson kichik guruh va alohida shaxs sifatida emas, balki jamoaviylik nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Uning konsepsiyasida omma, sinf, ijtimoiy qatlamlar, faoliyat sohalari hamda davlat markaziy o‘rin tutadi. Shu ma’noda, manipulyatsiya alohida davlat ichida va global miqyosdagi qahramonlar va omma nazariyasi pozitsiyasidan turib, tahlil qilinadi.

Psixologiya va psixika (shaxs va ijtimoiy psixologiya, psixoanaliz) fanlariga asoslangan ta’limot ongni manipulyatsiya qilish masalasiga turlicha yondashadi. Bu borada shartli reflekslar nazariyasining muallifi I. P. Pavlovning oliy nerv tizimi faoliyati haqidagi qarashlari ham g‘oyaviy asos vazifasini bajaradi. XX asrning 50-yillariga kelib, manipulyatsiyaning mohiyatini tushuntirib berish borasidagi ko‘plab ta’limotlar orasida ruhiy tahlil falsafasi paradigmal ahamiyat kasb etdi. XIX asrning oxirlariga kelib G.Lebon va V.M. Bexterev ijtimoiy jarayonlarga singdirishning ahamiyatiga diqqat qaratdilar. V.M. Bexterev ongni manipulyatsiyalashga qaratilgan tadqiqotlarida uni subyektning bevosita ishtirokisiz ongga tajovuz qilish akti sifatida tushuntiradi. Uning fikricha, ishonch va singdirish o‘rtasidagi farq shunda namoyon bo‘ladi[11].

Bixeviorizm konsepsiyasi oddiy mexanik analogiyalar doirasidan kibernetik mashinalar g‘oyasiga qadar transformatsiyalashdi. Buni B. Skinnerning neobixeviorizm konsepsiyasida yaqqol kuzatish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, E. Fromm Skinner psixologiyasi xulq-atvorni manipulyatsiya qilish fani degan xulosaga keladi. Bu yerda asosiy maqsad “buyurtmachi” uchun zarur bo‘lgan xulq-atvorlarni ta’minlashga yordam beradigan “rag‘batlantirish” mexanizmlarini

aniqlashdan iborat[12]. Bixeviorizm konsepsiyasiga ko‘ra, kibernetik davrda shaxsning mehnat, dam olish, iste’mol qilish kabi ijtimoiy funksiyalari reklama va turli mafkuraviy targ‘ibotlar vositasida manipulyatsiyalanganligi tufayli u doimiy ravishda ana shunday ko‘rinishdagi ta’sir ostida bo‘ladi.

Xulosa va takliflar Ongni manipulyatsiyalash fenomenini tadqiq etishga qaratilgan metodologik yondashuvlarni tasinflashda Hovening ijtimoiy bilimlar metodologiyasini turlarga ajratish yondashuvidan foydalanish maqsadga muvofiq. Mazkur turlarga ajratish ikki mezonga (me’yorlarni tan olish yoki tan olmaslik; muvozanatga (gomeostazga) yoki o‘zgarishga (qayta shakllanishga) intilish) asosan amalga oshiriladi.

Mazkur mezonlar asosida funksionalistik, gumanistik, refleksiv va inqilobiy kabi ijtimoiy bilim metodologiyasi turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Ularning har biri ijtimoiy psixologik yordam mezonlarini alohida tarzda belgilaydi. Manipulyatsiya fenomeni misolida ham mazkur yondashuvlarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin.

Manipulyatsiya fenomenining mohiyatini tushuntirib berishga qaratilgan zamonaviy konsepsiyalar tahlillarini umumlashtirgan holda ularni 3 guruhga tasinflash mumkin. Ular Antonio Gramshining gegemoniya konsepsiyasi, ruhiy tahlil va bixeviorizm natijalariga tayanuvchi psixologik konsepsiya hamda madaniyatning sotsiodinamikasi konsepsiyalaridan iborat.

Funksionalistik paradigma manipulyatsiya mohiyatini tushunishga qaratilgan ko‘plab nazariy va amaliy konsepsiyalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Manipulyatsiyadan psixologik himoyalanish g‘oyasini ilgari suruvchi ruhiy tahlil, murakkab oilaviy tuzilmalar kategoriyasiga asoslanuvchi tizimli yondashuv kabilar shular jumlasidandir. Mazkur yondashuv doirasida ziddiyatli vaziyatlarda namoyon bo‘luvchi 4 ta manipulyativ xulq atvor modeli ajratib ko‘rsatiladi. Ular agressiv reaksiya, g‘amho‘rlik, manipulyatsiya va o‘z-o‘ziga ishonchni ifoda etuvchi xulq-atvordan iborat.

Refleksiv yondashuvning manipulyatsiyaga nisbatan talqinida erkinlik va qaramlik tushunchalari markaziy o‘rin tutadi. Funksionalistik yondashuvga ko‘ra, qaramlik mikrosotsial miqyos kasb etsa, refleksiv yondashuvga ko‘ra, urush, inqiloblar, tiraniya, iqtisodiy inqirozlar, halokatlar, ommaviy madaniyat kabi makrosotsial hodisalar inson oldiga ichki erkinlik yoki jamiyatda o‘rnatilgan tashqi regulyativ qoidalarga bo‘ysinish o‘rtasidagi tanlovni qo‘yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Graham, J.H. Machiavellian project managers: do they perform better? / J.H. Graham // International Journal of project Management. - 1996. - Vol. 14, № 2. - P. 67-74.
2. Шостром Э. «Анти-Карнеги», или Человек-манипулятор . - М .: Попурри, 2004. - 127 с .
3. Хорни К. Невротическая личность нашего времени . - М .: Академический проект, 2006. - 208 с .
4. Доценко Е Л Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита - М : Юрайт, - 44 с
5. Борисов, А.Б. Большой экономический словарь [Текст] / сост. Б. Борисов. - М.: Книжный мир, 2003. - 895 с.
6. Панкратов, В.Н. Психотехнология управления людьми: Практическое руководство [Текст] / В.Н. Панкратов. - М.: Изд-во Института Психотерапии, 2001. - 208 с.
7. Доценко, Е.Л. Механизмы межличностной манипуляции [Текст] / Е.Л. Доценко // Вестник Московского университета. Серия 14. Психология. 1993. - № 4. - С. 61-67.
8. Доценко, Е.Л. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита [Текст] / Е.Л. Доценко - М.: ЧеРо; Издательство МГУ, 1997. - 455 с.
9. Козлов, Н.И. 17 мгновений успеха. Стратегии лидерства [Текст] / Н.И. Козлов. - М.: Изд. АСТ, Астрель, 2004. - 214 с.
10. Бабюк, М.И. О некоторых основаниях манипуляции [Текст] / М.И. Бабюк // Научные труды Московского педагогического государственного университета. Серия: социально-исторические науки: сборник статей. - М.: Прометей, 2004. - С. 492-496.
11. Лебон, Г. Психология народов и масс [Текст] / Г. Лебон. - СПб.: Макет, 1995. - 311 с.
12. Фромм, Э. Бегство от свободы [Текст] / Э. Фромм. - М.: Аст, 2011. - 288 с.

HOZIRGI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA METAFORALARNING O‘RNI

U.N. Nusurov
Qashqadaryo viloyat
Axborot va ommaviy kommunikatsiya
boshqarmasi boshlig‘i
UDK 894.375-1(045)

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi o‘zbek she’riyatida metaforalarning o‘rni va ularning tarixiy va ijodiy tahlili yoritilgan. Maqola o‘zbek she’riyatining zamonaviy bosqichida metafora orqali ijodkorlarning tilni yangicha o‘zgartirish va ifodalanish imkoniyatlarini qanday ishlatganliklari, shuningdek, bu san’at shaklidan qanday maqsadlarda foydalanayotganliklari haqida chuqur tahlil beradi. Tarixiy nuqtayi nazardan, she’riyatdagi metaforalarning rivojlanishi, o‘zbek adabiyotida ularning ildizlari va ulardan foydalanishning usullari muhokama qilinadi. Ijodiy tahlil orqali esa, she’riy ma’no va tasvirlarni yanada chuqurroq anglash imkonini beradigan metaforalarning turi va ularning estetik qiymati ko‘rsatilgan. Maqola, shuningdek, zamonaviy o‘zbek shoirlarining metaforalardan qanday foydalanishini, bu vosita orqali milliy va jahon adabiyotiga qo‘shgan hissalarini o‘rganadi. Metaforalar she’riyatdagi til ifodalarini boyitish, g‘oyaviy va hissiy qatlamlarni chuqurlashtirish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Kalit so‘zlar. o‘zbek she’riyati, metafora, tarixiy tahlil, ijodiy tahlil, she’riy tasvir, estetik qiymat, shoirlar, til ifodasi, g‘oyaviy qatlam, hissiy qatlam, adabiyot, zamonaviy she’riyat, she’riyatda metaforaning roli.

THE ROLE OF METAPHORS IN CONTEMPORARY UZBEK POETRY: HISTORICAL AND CREATIVE ANALYSIS

Abstract. This article describes the role of metaphors in modern Uzbek poetry and their historical and creative analysis. The article provides an in-depth analysis of how creators used metaphors to change the language and express themselves in the modern stage of Uzbek poetry, as well as for what purposes they use this art form. From a historical point of view, the development of metaphors in poetry, their roots and methods of their use in Uzbek literature are discussed. Through creative analysis, the type of metaphors and their aesthetic value are shown, which allow a deeper understanding of poetic meanings and images. The article also studies how modern Uzbek poets use metaphors and their contributions to national and world literature through this tool. Metaphors serve as an important tool for enriching language expressions in poetry, deepening ideological and emotional layers.

Key words: Uzbek poetry, metaphor, historical analysis, creative analysis, poetic image, aesthetic value, poets, linguistic expression, ideological layer, emotional layer, literature, modern poetry, the role of metaphor in poetry.

Kirish. Metafora va metaforik tasvirlarni adabiyotshunoslikda o‘rganish nafaqat badiiy ifodaning sifatini aniqlashga yordam beradi, balki o‘sha davrning madaniy va ijtimoiy holatlarini chuqurroq tushunishga imkoniyat yaratadi. Chunki har bir metafora o‘z davrining g‘oyalari va ijtimoiy va madaniy sharoitlarini o‘zida aks ettiradi. XIX asr romantizmida ishlatilgan metaforalarda insonning ichki dunyosi, erkinlik va tabiiylikni izlash ko‘proq ifodalangan bo‘lsa, XX asr postmodernizmida esa metafora ko‘proq mavhum, injiq va noaniq shakllarda ko‘rinadi, bu esa o‘z navbatida o‘sha davrning noaniq va disonant ijtimoiy holatini aks ettiradi. Shu tarzda, metafora va metaforik tasvirlar adabiyotshunoslikda faqat badiiy vosita sifatida emas, balki ijtimoiy, madaniy fenomen sifatida ham o‘rganila boshlandi. Ular orqali adabiyot va she’riyatdagi chuqur ma’nolarni tushunishga, ularning jamiyat va madaniyat bilan bog‘liqligini tahlil qilishga imkon yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, adabiyotshunoslikning muhim va dolzarb masalalaridan biri sifatida metaforik tasvirlarni o‘rganishning ahamiyatini yanada oshiradi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab o‘zbek she’riyatida ro‘y bergan tubdan o‘zgarishlar nafaqat ijodkorlarning badiiy ifodalariga yangi qirralar qo‘shdi, balki she’rlarni qabul qilish va ularga yondashish usulini ham o‘zgartirdi. Bu davrda she’riyatda ramziy tasvirlar, metaforalar, simvolizm va boshqa badiiy vositalar keng qo‘llanila boshladi. She’riyatning estetikasi va ifoda imkoniyatlari boyidi, she’rlarning ma’nolari yanada chuqurlashdi.

Ramziylik va metaforizm, ayniqsa, adabiyotda inson ruhiyatining, uning ichki dunyosining va tashqi olam bilan bog‘liqligining murakkab qatlamlarini ochish uchun ishlatilgan. Bu vositalar yordamida she’rlar ko‘pincha ko‘p qirrali va ko‘p ma’noli bo‘lib, o‘quvchining tafakkurini jonlantirib, unga yangi fikrlar, his-tuyg‘ularni yetkazish imkonini berdi. Masalan, o‘zbek she’riyatida tabaqalanish (ya’ni, biror narsa yoki tushunchaning bir

nechta qatlamli ma’nolarini anglatishi) va simvolizm (ramzlar orqali chuqur ma’no ifodalash) kabilar tobora ko‘proq uchray boshladi. Bu esa she’riyatni faqat tashqi voqelikni aks ettirishdan ko‘ra, o‘quvchining ichki dunyosiga, uning subyektiv his-tuyg‘ulari va fikrlari bilan bog‘liq bo‘lgan bir san’at shakliga aylantirdi.

Metafora mavzusi barcha sohalarda qiziqish bilan o‘rganilib kelayotgan mavzudir. Metafora so‘zi aslida, qadimgi yunon tilidan olingan bo‘lib, metaphora “majoziy ma’no” deb, tarjima qilinadi. Metofora - bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o‘rtasidagi ma’lum o‘xshashlik asosida ko‘chishidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ko‘tarilgan muammoni ochib berishda tavsifiy, tipologik metodlar, matnda pragmatik, lingvomadaniy tahlil usullari qo‘llanildi.

Adabiyotlar sharhi. Ma’lumki, antik davrdanoq poetikada metafora masalasi tadqiq etib kelinmoqda. Isokrat, Kvintilian, Sitseron va Aristotel kabi qadimgi yunon olimlari o‘z asarlarida u haqidagi dastlabki nazariyalarni yozib qoldirgan[1]. Buyuk yunon olimi Aristotel o‘z qarashlarida metaforani “estetik til birligi hamda poeziya tilining belgilovchi xususiyati sifatida baholaydi va uni narsaga xos bo‘lmagan, jinsdan turga yoki turdan jinsga, yoxud turdan turga ko‘chirilgan, o‘xshatilgan so‘zdir” - deb ta’riflaydi, so‘z qo‘llashda undan o‘rinli foydalanishning ahamiyati kattaligiga to‘xtalib o‘tadi. Ijodkor ijodining badiiy qiymati ijodkorlarning tasvir vositalaridan qay yo‘sinda foydalanishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mumtoz adabiyotda tasviriy vositalardan voqea-hodisalarni obrazli qilib tasvirlash, nutq ifodaliligini oshirish, u yoki bu narsaning xususiyati, xarakteri, ko‘rinishini qisqa, ifodali, obrazli qilib tasvirlash uchun foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. Metafora – bu tasavvurni yoki tushunchani biror boshqa tasavvur yoki tushuncha orqali ifodalashni anglatadigan adabiy va tilshunoslikda ishlatiladigan vosita. Metafora mavzusi ko‘plab sohalarda o‘rganilgan va rivojlantirilgan. Asosan, quyidagi sohalarda faol o‘rganilgan:

1. **Adabiyot**: Metaforalar adabiyotda, ayniqsa she’riyatda keng qo‘llaniladi. Ularning yordamida mualliflar o‘z fikrlarini va his-tuyg‘ularini yanada chuqurroq, bevosita va tasviriy tarzda ifodalaydilar. Adabiy tanqid va tahlil bu sohada metaforalarning o‘rnini aniqlashga, ularning ma’nolarini ochishga qaratilgan.

2. **Psixologiya**: Psixologlar metaforalarni inson ongini va ongosti jarayonlarini tushunishda qo‘llaydilar. Metafora psixologik jarayonlar, his-tuyg‘ular, xulq-atvorlar va ongosti qoidalarini tushuntirishda qulay vosita bo‘lib xizmat qiladi.

3. **Lingvistika**: Tilshunoslar metaforani tilshunoslikda o‘rganadilar, chunki bu tilning semantik ma’no va sintaktik jihatlari bilan chambarchas bog‘liq. Lingvistika sohasida metaforalar semantik tafsirlash, til tuzilishini o‘rganish va til orqali dunyoqarashni tushunishda katta rol o‘ynaydi.

4. **Falsafa**: Falsafada metafora ko‘pincha abstrakt tushunchalarni o‘rgatishda va dunyoni anglashda qo‘llaniladi. Falsafiy diskurslarda metaforalar haqiqat va bilimning tabiatini ifodalash uchun ishlatiladi.

5. **Kognitiv fanlar**: Kognitiv lingvistika va kognitiv psixologiya sohalarida metafora inson ongining va dunyoqarashining asosiy elementlari sifatida o‘rganiladi. Bu sohalar metaforaning kognitiv jarayonlar va tahlil qilishdagi ahamiyatini tushuntiradi.

6. **Ijtimoiy va siyosiy tadqiqotlar**: Metafora ijtimoiy va siyosiy tahlilda ham o‘rganiladi, chunki u siyosiy til va diskurslarda kuchli ta’sirga ega. Masalan, “jamiyatni tiklash”, “urushni boshlash” kabi iboralar orqali ijtimoiy va siyosiy holatlar ifodalanadi. Shu tariqa, metafora turli sohalarda asosiy tushunchalar va qarashlarni ifodalash, insonni anglash va jamiyatdagi jarayonlarni tahlil qilishda muhim vosita hisoblanadi.

Ma’lumki, o‘zbek mumtoz adabiyotida qo‘llanilgan badiiy san’atlar nomi hozirgi adabiyotshunoslikda faol ishlatilsa-da, tilshunoslikda alohida terminlar bilan nomlangan. Jumladan, so‘zlarning ko‘chma ma’nolari XV asr yodgorliklarida majoz, istiora deyilsa, hozirgi tilshunoslikda metafora, metonimiya, sinekdoxa deyiladi. Badiiy asardagi boshqa so‘zlar singari antroponimlar ham majoziy ma’nolarda qo‘llanilgan. Ularning majoziy-ramziy ma’nolari, xususiyatlari istiora san’atida yaqqol namoyon bo‘ladi. Istiora ma’naviy

san’atlardan biri bo‘lib, arabcha استعاره” oriyatga olish” degan ma’noni anglatadi. Atoulloh Husayniyning yozishicha, “Istiora majozning bir nav’idur va majoz haqiqatning ziddidur. Haqiqat lafzni, o‘z yasog‘i, ya’ni nimani mo‘ljallab yasag‘on bo‘lsalar, o‘shul ma’noda qo‘llamoqtin iborattur. Majoz lafzni o‘z yasog‘idin o‘zga ma’noda yasog‘u lafzu o‘shul ma’no orasindagi biror aloqa-yu munosabatqa asoslanaroq qo‘llamoqtin iborattur”[4]. Ma’lumki, Sharq poetikasida metafora istiora atamasi bilan qo‘llanilgan bo‘lib, u haqidagi nazariy qarashlar VIII-XV asrlarda mumtoz poetikada ilmi sanoye, ilmi badoye doirasida o‘rganilgan. Sharqning ulug‘ she’rshunoslari Ibn Xaldun, Umar Roduèniy, Rashiddin Votvot, Shamsiddin Qays Roziy, Atoulloh Husayniy va Shayx Ahmad Taroziy asarlarida she’riy san’at turi sifatida istioraning asosiy xususiyatlari talqin qilingan. Jumladan, Rashiddin Votvot u haqida: “Bu san’at hamma tillarda tez-tez uchrab turadi, qachonki yaqin va tabiiy (ikkinchi bir ma’no anglatsa, bu bilan nutq ziynatlangan bo‘ladi”, - deb yozadi.

Ijodkor metaforalardan o‘z o‘rnida mohirona foydalanish yozuvchining badiiy tafakkuri va mahoratiga bog‘liq bo‘ladi. Chunki tilda metaforaning ko‘plab ko‘rinishlari mavjud. Uning fitomorfik, zoomorfik, antropomorfik, kosmomorfik hamda abiomorfik metafora kabi turlari farqlanadi. Fitomorfik metafora – o‘simlik nomlarining ko‘chma ma’noda kelishi va ularning shu ko‘chma ma’no xususiyatlari bilan o‘zaro bog‘liq muhim til hodisasi hisoblanadi. O‘simlik nomlari tilshunoslikda fitonimlar deb yuritiladi (“fitos” – o‘simlik ; “onuma” – nom)[5]. Fitonim atamasi dastlab XX asraning 70-yillarida ilm-fanda qayd etilgan. Fitonimlar borasida turli olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, ismlar tizimidagi otlarni ilmiy tahlil qilib, A.V.Superanskaya fitonimlarning turli nomlar sababidan kelib chiqqanligini ta’kidlab, ularning turfa tarixiy shaxslar, hodisalar va shu kabi omillar ta’sirida nomlanganligini o‘zining ilmiy asarlarida keltirib o‘tadi. Shu o‘rinda biz fitomorfik va fitonimik atamalarini bir-biridan farqlashimiz lozim bo‘ladi. Fitonimik metafora deganda, faqat o‘simlik nomlari asosidagi nom ko‘chishlar nazarda tutiladi: “chinor”-uzoq umr, “sarv”-qad, “lola”-chiroy kabi. Biroq fitomorfik metaforada o‘simlik nomlari, xususiyatlari, qismlari, hosil, mahsulot nomlarining metaforik qo‘llanilishi nazarda tutiladi: “danak”-nevara, “ildiz”-ajdodlar. “meva” - farzand kabi[6]. Metaforada gap so‘zma-so‘z tarjima qilinmaydi.Taqqoslash yordamida g‘oyani anglab olish mumkin.

Mumtoz adabiyotda A.Navoiy ijodida ham metaforalarning faol qo‘llanilganligini ko‘rishimoz mumkin. Navoiy asarlari tili leksik boyligining muayyan qismini o‘simliklar dunyosini aks ettiruvchi so‘zlar tashkil qiladi. Masalan, g‘azaldagi gul va g‘uncha fitonimlari sevikli yor vasli g‘animatligini xor (tikan) fitomorfidan ko‘chma ma’noda bulbulning gulga bo‘lgan muhabbatiga uning shaydoligina emas, balki hamdardligini ifodalab kelgan. Shoir g‘azallarida sunbul zulf, yosuman (jasmin) hiylagar va makkora xarakterga ega ayol, nasrin, nastarin yorning qaddi va yuziga muqoyasa qilinsa, nargis fitonimi xohish va xudbinlikni anglatadi. Navoiy poetikasida mahbubaning qomati sarv, ra’nogul esa tasavvuf ilmida (yaratgan)ning mutlaq jamoli ko‘chma ma’nolarini izohlab kelgani kuzatildi. Shoir asarlari tilidagi fitonimlarning lingvopoetik tahlili ular, asosan, tub so‘zlardan, qisman esa o‘simlik nomlari vositasida hosil etilgan yasalmalardan tashkil topganligi ma’lum bo‘ldi [7].

G‘arb adabiyotshunosligida XX asrga kelib, ritorika, falsafa, mantiqiy, psixologiya, psixoanaliz, semasiologiya, onomasiologiya, kognitologiya, lingvistika va psixolingvistika yo‘nalishlari doirasida chuqur tekshirilgan metaforaning adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan poetik asos, obrazliligi tadqiq etilib kelinmoqda[8]. Shuningdek, bu boradagi izlanishlari ahamiyatli bo‘lgan olimlar qatorida X.O. Gasset, E. Kasserer, R. Yakobson, V. Shkalovskiy, V. Jirmunskiy, R. Bart, B. Tomashevskiy, J. Jennet, Yan Parandovskiy kabi olimlarning o‘rni beqiyosdir [9]. Rus adabiyotida metafora masalasi bir necha taniqli olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, mashhur adabiyotshunoslardan biri Mixail Baxtin metaforani va boshqa adabiy figuralarni dastlab, o‘zining “Poetika” asarlarida chuqur tahlil qilgan [10]. Baxtinning

adabiyotshunoslikdagi yondashuvi, asosan, dialogik tahlil va kontekstual yondashuvga asoslangan. Uning fikricha, metafora va boshqa obrazli ifodalar nafaqat tilning estetik vositalari, balki adabiy muloqotning asosiy vositalaridir. Baxtin metaforani “so‘zlarning chuqur ma’nolarini” ochib beruvchi vosita sifatida ko‘radi. U metaforani adabiy tilning rang-barangligini va ko‘p qatlamlilikni ta’minlovchi bir unsur sifatida tahlil qiladi.

Viktor Shklovskiy ham rus adabiyotshunosligida metaforani o‘rganishda muhim tadqiqotlar olib borgan shaxs hisoblanadi. U “Poetika” nomli asarida metaforaning “estriktsiya” (yuqoridan chiqarish) va “ostranenie” (begona qilish) kabi adabiy usullar bilan bog‘liqligini ko‘rsatgan. Shklovskiy metaforaning badiiy tilni boyitishdagi rolini va uning o‘ziga xos estetik effektini ko‘rsatar ekan, metaforani adabiyotda *noan’anaviylik va ijodiy yangilik* yaratish vositasi sifatida tahlil qilgan. Shklovskiy asarida metaforani ko‘pincha boshqa badiiy vositalar bilan o‘zaro bog‘lashga harakat qilgan. Uning fikricha, metafora, nafaqat adabiyotda, balki umumiy tilshunoslikda ham “so‘zning yangi, avvalgi ma’nolaridan ajralgan ma’nolari”ni yaratadi. U metaforaning adabiy tilni dinamiklashtirishdagi rolini ta’kidlaydi [11].

Xulosa va takliflar. Maqolada hozirgi o‘zbek she’riyatida metaforalarning o‘rni va ularning tarixiy va ijodiy tahlilidan xulosa qilish mumkinki, metafora, she’riyatda nafaqat tasvirlarni jonlantiruvchi vosita sifatida, balki chuqur ma’nolarni, his-tuyg‘ularni va g‘oyalarni yetkazish uchun juda muhim element sifatida ishlatiladi. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida shoirlar metaforani tilning estetik imkoniyatlarini kengaytirish, milliy madaniyatni va dunyoqarashni aks ettirishda samarali vosita sifatida qo‘llamoqda. Metaforalarning tarixi o‘zbek adabiyotida uzoq yillardan beri mavjud bo‘lib, ularning rivojlanishi va turli davrlar davomida shakllanishi she’riyatning boyligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи. – Термиз: Сурхон-Нашр, 2020. – Б.12.

2.Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1980. – Б. 47.

3. Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: Fan, 1977. -B.10. (152).

4. Atoulloh Husayniy. Badoyi’u-as-sanoyi’. Forschadan Alibek Rustamov tarjimasi. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1981. – 219. (400)

5. Шарқ мумтоз поэтикаси. / Нашрга тайёр: Ҳ. Болтабоев.– Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – Б. 259

6.Ходжиева Н. Х. Лексика фрукта в лирике Алишера Наваи //Современная наука: актуальные вопросы, достижения и инновации. 2021. – С. 148-150.

7.G.Muqimova. Fitomorf metaforalarning lingvopoetik, lingvokulturologik xususiyatlari va leksikografik talqini. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. –b.13. (50).

8.Гегель. Эстетика в 4-х томах. – М.:1986.– 676 с.; Потебня А.А. Эстетика и поэтика. –М., Наука, 1976. –С. 344.; Борев Ю. Эстетика. – М.: Политиздат, 1987. – 496 с.; Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Ленинград: Издателтство, Наука, 1977. – 413 с.; Теория метафоры: Сборник: Пер. с англ., фр., нем., исп., польск. яз. / Общ. ред. Н.Д.Арутюновой и М.А.Журинской. – М.: Прогресс, 1990. – 512 с.; Якобсон Р. Избранны работы по поэтике. – М.:Прогресс, 1985; Теория метафоры: Сборник: Пер. С англ., фр., нем., исп., польск. яз./Общ. ред. Н.Д. Арутюновой и М.А. Журинской. – М.: Прогресс, 1990.-512с.;

9.Блэк М. Метафора. -Models and Metaphors‖(1962) / Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990.– 153-172.; Хосе Ортега и Гассет. Две великие метафоры / Теория метафоры. – М.: Прогрес, 1990. – с. 68-81; Кассирер Э. Сила метафоры / Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990.– с. 33-43; Дэвидсон Д. Что означают метафоры. / Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990.– с. 173-194; Барт Р. Избранные работы: Семиотика: Поэтика: пер. с фр. / Г.К.Косикова. – М.: Прогресс, 1989 – 616 с.; Томашевский Б.В. Теория литература. Поэтика. – М.: Аспект-Пресс, 1996. – 334 с.; Женетт Ж. Работы по поэтике: Фигуры: том 1-2. – М.:, Изд.-во им. Сабашников, 1998. – 472 с.; Дж.Лакоффа и М.Джонсона. Метафоры, которыми мы живем. Пер. с англ. / Под ред. и с предисл. А.Н.Баранова. – М.: Эдиториал УРСС, 2004. – 256 с.; Парандовский Ян. Сўз кимёси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – 464 б.

10.Миҳаил Бахтин. Поэтика. -М., 1929.

11. Виктор Шкловский. Поэтика. - Санкт-Петербург. 1925.

LINGVOKULTUROLOGIYA XALQ MADANIYATINING KO‘ZGUSI

Yo‘ldosheva Umida Erkinovna
Turon universiteti magistranti
yuldoshevau8@gmail.com
ORCID 0009-0001-1484-0639

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya fanining o‘rni va rivojlanish tarixi tahlil qilinadi. Lingvokulturologiya – til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni o‘rganuvchi fan sifatida XX asr oxirida shakllanib, jahon tilshunosligida alohida yo‘nalishga aylandi. Tadqiqotda lingvokulturologiyaning nazariy asoslari, o‘zbek va jahon tilshunoslarining yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot usullari sifatida nazariy tahlil**,** qiyosiy tahlil**,** deskriptiv**,** diaxronik **va** semantik tahlil usullari qo‘llanildi. O‘zbek tilshunosligida Z.A. Saliyev, N. Mahmudov va D. Xudoyberganova kabi olimlarning ilmiy ishlari lingvokulturologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Frazeologizmlar, pretsedent birliklar va milliy madaniy timsollar o‘zbek xalqining mentaliteti va tarixini aks ettiruvchi asosiy birliklar sifatida o‘rganilgan. Maqola lingvokulturologiya fanining nazariy va amaliy ahamiyatini ochib beradi hamda o‘zbek tilshunosligida bu sohaning istiqbolli yo‘nalish ekanligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar. lingvokulturologiya, o‘zbek tilshunosligi, til va madaniyat, frazeologiya, qiyosiy tahlil, semantik tahlil, diaxronik tahlil, lingvomamlakatshunoslik.

LINGUOCULTUROLOGY IS A MIRROR OF FOLK CULTURE

Abstract. This article analyzes the role and history of the development of the science of linguoculturology in Uzbek linguistics. Linguoculturology, as a science that studies the inextricable link between language and culture, was formed at the end of the 20th century and became a separate direction in world linguistics. The study provides a comparative analysis of the theoretical foundations of linguoculturology, the approaches of Uzbek and world linguists. Theoretical analysis, comparative analysis, descriptive, diachronic and semantic analysis were used as research methods. In Uzbek linguistics, the scientific works of such scientists as Z.A. Saliyev, N. Mahmudov and D. Khudoyberganova are of great importance in the development of linguoculturology. Phraseologisms, precedent units and national cultural symbols are studied as the main units reflecting the mentality and history of the Uzbek people. The article reveals the theoretical and practical significance of the science of linguoculturology and emphasizes that this area is a promising direction in Uzbek linguistics.

Key words. linguoculturology, Uzbek linguistics, language and culture, phraseology, comparative analysis, semantic analysis, diachronic analysis, linguo-national studies.

Kirish. Lingvokulturologiya – XXI asr tilshunosligining muhim va tez rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Ushbu fan til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, madaniyatning til orqali ifodalanishi va tilda aks etuvchi milliy o‘ziga xoslikni o‘rganadi. Lingvokulturologiya tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga keldi. Tadqiqotchilarning qayd qilishicha, “lingvokulturologiya” (lot. lingua “til”; cultus “hurmat qilish, ta’zim qilish”; yunon. “ilm, fan”) termini V.N. Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi (Y.S. Stepanov, A.D. Arutyunova, V.V. Vorobev, V. Shaklein, V.A. Maslova) tomonidan olib borilgan izlanishlar bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘lgan.[8]

Til – millatning madaniy merosi, mentaliteti va dunyoqarashini aks ettiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya, asosan, XX asr oxiridan boshlab ilmiy tadqiqot obyekti sifatida rivojlandi. Shu jumladan, Z.A. Saliyev, N. Mahmudov, D. Xudoyberganova kabi olimlarning tadqiqotlari lingvokulturologiyaning shakllanishida asosiy rol o‘ynadi. Ma’lumki, inson tafakkuri va ongi rivojining mahsuli bo‘lmish madaniyatning lisonga, u orqali esa shaxslararo munosabatga ta’siri keng tadqiqot qilinishi shart bo‘lgan mavzulardan biridir.

XXI asrda tilshunoslikning tilni faqatgina aloqa vositasi emas, balki millatlarning madaniyatini o‘zida aks ettiruvchi vosita sifatida o‘rganuvchi sohalari paydo bo‘la boshladi. Bu sohalarning paydo bo‘lishiga V. Gumboldt, A.A. Potebnya va boshqa olimlarning ilmiy ishlari asos bo‘lib xizmat qildi. Lingvokulturologiya tilni madaniyatning fenomeni, madaniyatning tashuvchisi sifatida o‘rganadi. Madaniyatni tildan foydalanuvchi inson yaratadi. Lingvokulturologiyaning obyekti lingvistika va kulturologiya, etnografiya va psixolingvistika singari qator fundamental fanlarning kesishmasida joylashadi.[3]

Bu yo‘nalishlar jumlasiga kognitologiya, psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, lingvomamlakatshunoslik, lingvokulturologiyani kiritish mumkin.

A.M. Xaydegger tilni “mavjudlik uyi” deb atagan. Shuning uchun ham til ijtimoiy fanlar tizimida yuksak maqomga ega. Bundan kelib chiqadiki, tilning yordamisiz madaniyatni o‘rganish mumkin emas. Mazkur maqolada lingvokulturologiyaning o‘zbek tilshunosligidagi o‘rni, tarixi, rivojlanishi va o‘rganish yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

Dunyodagi istalgan til olamni aks ettira oladi. Bu tasvirning tayanch nuqtasi xalqning nuqtayi nazari bilan belgilanadi. Istalgan tilda so‘zlovchilarning nuqtayi nazari bilan boshqaradigan universal obyektiv hamda subyektiv milliy aspekt aks etadi. Bu aspektlarning ikkinchisi bizga til to‘g‘risida dunyoqarash ijodiy olamning lisoniy manzarasi haqida so‘zlagandek fikr yuritish imkonini beradi. Tilshunoslikning asoschisi V. Gumboldt bejizga “Millatim tilining chegaralari mening dunyoqarashim miqyosini bildiradi”deb aytmagan.

Tadqiqot metodologyasi. Bugungi kunda insonlar, xalqlar mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o‘zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o‘ziga xos ko‘rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o‘rtasidagi alohida spetsifik yo‘nalishi va predmetiga ega bo‘lgan yangi soha – lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Nazariy tahlil usuli ilmiy adabiyotlar, asosiy manbalar, avvalgi tadqiqotlar va nazariy konsepsiyalarni o‘rganish va tahlil qilish orqali o‘tkaziladi. Ushbu usul yordamida lingvokulturologiyaning nazariy asoslari, tarixiy shakllanishi va muhim ilmiy qarashlar aniqlanadi. Qiyosiy tahlil – bir yoki bir nechta til va madaniyatning lingvokulturologik xususiyatlarini taqqoslash orqali o‘ziga xos jihatlarini aniqlash metodidir. Bu usul yordamida tillar o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlanadi. O‘zbek va fransuz tillaridagi sentensiyalar (Z.A.Saliyev tadqiqoti) qiyoslanib, lingvokulturologik jihatdan o‘rganildi. Frazeologizmlar misolida o‘zbek va rus tillari o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklar tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil tilda madaniy konnotatsiyalar, xalq mentaliteti va dunyoqarashini solishtirish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, turli tillar va madaniyatlararo tadqiqotlarda dolzarbdir. Shuningdek, deskriptiv usul ham lingvokulturologik birliklarni tavsiflashda, ularning lingvokulturologik mohiyatini ochib berish va milliy madaniyat bilan bog‘liqligini sharhlab berishda ahamiyatli. Bu usul lingvistik hodisalarni chuqur tushunish uchun keng qo‘llaniladi. O‘zbek tili frazeologizmlari va pretsedent birliklarining lingvokulturologik tahlili. Milliy madaniyatni aks ettiruvchi tilda qo‘llaniladigan timsollar (simvolik ma’nolar). Masalan, frazeologizm: “Arslonni bo‘rttirma, kuchuging hurmay qolsin” – xalqning ma’naviy dunyoqarashini aks ettiruvchi misol. Pretsedent birlik: “Navoiydek so‘z aytgil” – Navoiy obrazining milliy ongda o‘rnini tasvirlaydi. Bundan tashqari, lingvokulturologik birliklarni ifodalashda diaxronik, semantik tahlil usullari ham samarali hisoblanadi.

Diaxronik tahlil usuli til hodisalarini tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘rganishga qaratilgan. Bu usul yordamida lingvokulturologik birliklarning kelib chiqishi va o‘zgarish dinamikasi aniqlanadi. O‘zbek tilida qadimiy davrlardan beri qo‘llanilgan maqollar va iboralar tarixiy nuqtayi nazardan o‘rganildi. Lingvokulturologik timsollar (masalan, “qizil rang” – tarixda xavf yoki shon-shuhratni anglatgan) diaxronik tahlil orqali sharhlab berildi. Qadimgi “oq yo‘l” iborasi – qadimiy turkiy xalqlarda yaxshi niyat va omadini tilash ramzi. Bugungi kundagi “o‘ng qo‘l” – yaxshi, omadli degan ma’noda qo‘llaniladi.

Diaxronik usul lingvokulturologik birliklarning tarixiy ildizlarini ochib berish va ularning evolyutsiyasini tushunishga yordam beradi. Semantik tahlil – so‘z va iboralarning ma’nosini o‘rganish, ularning lingvokulturologik qirralarini ochib berish uchun qo‘llaniladigan usul. Ushbu metod til birliklarining ma’no tizimini o‘rganish orqali milliy madaniyatni tahlil qilish imkonini beradi. “Qizil”, “oq” kabi rang nomlari va ularning ramziy ma’nolarini semantik tahlil qilish. So‘zlarning konnotativ (qo‘shimcha) ma’nolari va ularning madaniy kontekstdagi o‘rni aniqlanadi. Masalan, o‘zbek tilida **“oq”** so‘zi: “oq yo‘l”, “oq ko‘ngil” – yaxshi, poklik ramzi, rus tilida esa **“qizil”** so‘zi: “красная площадь” (qizil maydon) – tarixiy obida va sharaf timsoli. Ushbu metod yordamida so‘zlarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularning kontekstdagi qo‘llanilishi aniqlanadi. Bu usullar o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya fanining rivojlanishi va ilmiy asoslarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar va muhokama. Hozirgi kunda lingvokulturologiya tilshunoslikning eng

rivojlangan sohalaridan biri ekan, u o‘zining muayyan rivojlanish bosqichlariga ega. Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.V. Maslova ushbu sohaning rivojini uch bosqichga ajratadi:

1)fan shakllanishiga sabab bo‘lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.F. Gumboldt, E. Benvenist, L. Vaysgerber, A.A. Potebnya, E. Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);

2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;

3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi.

Lingvokulturologiyaning rivojida Moskva lingvokulturologik maktablari alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Moskva lingvokulturologik maktablari XX asr oxirlarida paydo bo‘la boshladi. Bu borada rus tilshunoslaridan Y.S. Stepanov, V.A.Vorobyovlar asos solgan bir qancha maktablar yuzaga keldi.

Y.S. Stepanov lingvokulturologik maktabi metodologiya bo‘yicha E. Benvenist konsepsiyasiga yaqin bo‘lib, o‘zida madaniyatni aks ettiruvchi til birliklarining diaxronik aspektini tekshirish bilan shug‘ullangan. Ular o‘z maqsadlarini tulri davrlarga oid matnlarni solishtirish orqali amalga oshirishgan.

Bundan tashqari, N.D. Arutyunov maktabi turli davr xalqlarga oid matnlardan olingan universal madaniy terminlarni o‘rganish bilan shug‘ullangan. V.N. Teliya maktabi esa, frazeologizmlarni lingvokulturologik tahlil qiluvchi Moskva maktabi sifatida Rossiya va chet davlatlarda tanilgan. Teliya va uning shogirdlari til va uning haqiqiy mohiyatini semantik madaniyat nigohida uni ham, tilshunoslikni ham madaniyat subyekti sifatida o‘rgandi. N.S. Trubetskoyning yozishicha, “Madaniy konnotatsiyalarsiz biror so‘z bo‘lishi mumkin emas, ya’ni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiy qismlar bo‘lishi shart. Til va madaniyatning ana shunday o‘zaro yaqinligi va aloqadorligi ularni yagona metodologik asosda o‘rganish imkonini berdi. “Til va madaniyat” muammosini o‘rganilishida bir qancha yondashuvlarni belgilash mumkin: birinchi yondashuv faylasuf olimlar (S.A. Atanovskiy, G.A. Brutyon, E.S. Markaryonlar) tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda madaniyatning tilga bir tomonlama ta’sirida borliqning o‘zgarishi natijasida milliy madaniy tipiklashtirish va tilda o‘zgarish yuz beradi, degan g‘oya yotadi.

Ikkinchi yondashuvda esa bu ta’sirning aks tomoni, ya’ni hozirgi kungacha ochiq qolib kelayotgan va munozarali masala – tilning madaniyatga ta’siri masalasini o‘rganish maqsad qilinadi. Boshqa tomondan ,,madaniyat tilda” joylashgan, ya’ni u matnda o‘z ifodasini topadi. “Lingvokulturologiya” atamasi dastlab frazeologik maktab asoschilari V.N. Teliya, V.V. Vorobyov, V.A. Maslova va boshqalarning ishlarida ko‘rinadi. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida gapirilganda, deyarli barcha taqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.F. Gumboldtga borib taqalishini ta’kidlaydilar, ushbu adabiyotlarda bu sohaning rivojlanishida A.A. Potebnya, L. Vaysgerber, X. Glins, X. Xols, E. Sepir, B.L. Uorf, G. Brutyan, A. Vejbskaya, D. Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol o‘ynaganligi ta’kidlanadi.

Bu kabi qarashlar lingvokulturologiya sohasida XX asr oxirlarida atoqli rus olimlari qatorida chet el olimlari tomonidan ham tan olindi. Bunday qarashlarga ko‘ra, til nafaqat madaniyat bilan bog‘liq, balki u o‘zida madaniyatning o‘sishini ham ifodalaydi. Til bir vaqtnining o‘zida yaratish quroli, madaniyatning rivojlanishi va saqlanishini ta’minlovchi uning bir qismidir, shuning uchun til yordamida ma’naviy madaniyat hamda borliqdagi ishlab chiqarish, materiallar real yaratiladi.

Ana shu g‘oyalar asosida ming yillarda chet elda yangi fan lingvokulturologiya vujudga keldi va XX asrning 90- yillarida maxsus soha sifatida shakllandi. Lingvokulturologiya bugungi kunda bir necha yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda lingvokulturologiya jahon tilshunosligi, jumladan, rus tilshunosligida keng rivoj topgan sohalardan biri hisoblanadi. Bu yo‘nalishda juda ko‘p qo‘llanmalar yaratilgan. Bulardan eng samaralisi V.A. Maslova tomonidan yaratilgan qo‘llanma hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida ham so‘nggi yillarda lingvokulturologiya sohasida bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari paydo bo‘la boshladi. Masalan, Z.A. Saliyevning nomzodlik ishi o‘zbek va fransuz tillaridagi sentensiya, ya’ni axloqiy-ta’limiy xarakterdagi matnlarning milliy madaniy

xususiyatlariga bag‘ishlangan. Professor N. Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab” nomli maqolasida lingvokulturologiya va antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar yoritilgan. Shuningdek, tilshunos olima D.Xudoyberganova o‘zining “Matnning antropotsentrik tadqiqi” monografiyasini yaratdi. U o‘zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o‘rganishni ochib berdi. Unda pretsedent birliklar va lingvomadaniy birliklarning matn yaratilishidagi o‘rni, jonlantirish asosida matnlarning lingvokulturologik xususiyatlariga alohida e’tibor berildi. Lingvokulturologiya yorqin madaniy aloqalarni, lingvomadaniy holatlarni, aniq ilmiy izlanishlarni o‘z ichida oladigan alohida sotsial guruh. Lingvokulturologiyaning turli o‘rganish sohalari mavjud, masalan, diaxronik lingvokulturologiya – lingvotadqiqotning etnos holatidagi aniq o‘tish vaqtining o‘zgarishlarini o‘rgatadi.Tavsifiy lingvokulturologiya, bu sohada amalga oshirilgan ishlar juda kam. Ular jumlasiga M.K. Golovanivskaning “Rus tilida so‘zlashuvchilar nazarida fransuz mentaliteti” nomli ishi katta ahamiyatga ega. Qiyosiy lingvokulturologiya sohasi lingvomadaniyatda paydo bo‘ladigan turli xil etnoslarning ikki tomonlama qiyoslash bilan shug‘ullanadi.

Lingvokulturologik leksikografiya lingvoo‘lkashunoslik lug‘atlarini tuzish bilan shug‘ullanadi. Lingvokulturologiyaning bu yo‘nalishi hozirgi kunda boshqa yo‘nalishlarga qaraganda jadal rivojlanib bormoqda. Fikrimizning dalili sifatida D.G. Maltsevaning lingvoo‘lkashunoslik lug‘atini keltishimiz mumkin. Bu lug‘at 25 bobdan iborat bo‘lib, unda Germaniya realiyalarida ifodalanuvchi til birliklari, iqlim xususiyatlari, hayvonot va o‘simlik dunyosi, mamlakatlar tarixi, qadimiy urf-odatlar, an’analar, qadimiy afsonalar, son va rangni ifodalovchi simvollar; to‘y, marosimlar, bayramlar; diniy marosimlar; valyuta tizimining rivojlanishi, uzunlik, og‘irlik, savdo-sotiq ishlari, fan, texnika, tibbiyot; pochta xizmati shaharlar qurilishi va arxitektura tarixi kabilar obyekt sifatida olingan.

Xulosa. Lingvokulturologiya – “til va madaniyatning” uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘zida aks ettirgan hodisalar til madaniyatni birgalikda o‘rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o‘rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo‘lib, til va madaniyatning o‘zaro ta’siri va bog‘liqligi, bu bog‘liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o‘rganishi bilan shug‘ullanadi. Bir tomondan lingvokulturologiya insoniyatning madaniy til faktoridagi o‘rni, ikkinchi tomondan esa, til faktoridagi insonning o‘rnini o‘rganadi.

Lingvokulturologiya o‘rganish obyektiga ko‘ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun mohiyat, o‘rganish obyektiga bo‘lgan yondashuvga ko‘ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo‘lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyligi, til ruhiyati bilan bog‘liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy madaniy spetsifik qoidalarni o‘rganadi hamda millat madaniyatning tilda aks etgan o‘ziga xos milliy tilni xususiy aniqlash, tadqiq qilish bilan shug‘ullanadi.

Ma’lumki, madaniyat tushunchalar sistemasi, muayyan xalqning hayot obrazi milliy xarakter, milliy mentalitet sifatida keng etnografik mazmun kasb etadi. Yuqoridagilardan shuni bilishimiz mumkinki, bunday lug‘atlarni yaratishda til va madaniyat munosabati xarakterini to‘g‘ri belgilash juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirtojiyev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. –Toshkent: O‘zbekiston, 1992. –110 b.

2.Mahmudov N. Til. –Toshkent: Yozuvchi, 1998. –40 b.

3.Маслова В. А. Введение в лингвокультурологию.-М.,1997. – 280 с.

4.Арутюнова Н.Д. Язик и мыр человека.-М.,1988.–180 с.

5.Воробв В.В. Лингвокультурология.- М., 2006. – 240 с.

6.Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. -T., 2019. – 280 b.

7. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. - J., 2006. – 215 b.

8.Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – 189 с.

9. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. - T., 2013.– 235 b.

10.Хроленко А.Т. Основы лингвокультурологии: Учебное пособие. Под ред. В.Д. Бондалетова. 2-е изд. –М., 2005. – 285 с.

11.Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko‘rki.- T.,1970. – 150 b.

VARIANTDOSH BIRLIKLARNING TASINFI

Bazarova Dildor Baxronovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti
bazarova.dildor@gmail.com
ORCID 0009-0005-6224-6545

Annotatsiya. Ushbu mavzu tilshunoslikda “variantdosh birliklar” tushunchasining turlari va tasinfini o‘rganadi. Variantdosh birliklar, o‘z navbatida, bir xil ma’no ifodalovchi, ammo grammatik, fonetik, semantik va uslubiy jihatdan farq qiluvchi til birliklari sifatida belgilangan. Bularning barchasi tilning ko‘p qatlamli va o‘zgaruvchan tabiatini, shuningdek, tilning tarixiy, amaliy va ijtimoiy jihatlarini o‘zida aks ettiradi. Tasinfda variantdosh birliklarning grammatik, fonetik va semantik xususiyatlari o‘rganilgan. Grammatik variantlar tilning morfologik va sintaktik jihatlari orqali, fonetik variantlar talaffuzdagi farqlar orqali, semantik variantlar esa ma’no o‘zgarishlari orqali tahlil qilinadi. Shuningdek, variantdosh birliklar adabiy til va sheva o‘rtasidagi farqlar, rasmiy va norasmiy uslublar, va zamonaviy tilda yuzaga keladigan so‘zlashuv va yozuvdagi o‘zgarishlar nuqtayi nazaridan ham tasinflanadi. Bu atamalar, tilshunoslikda faqatgina tilning strukturasini o‘rganishga qaratilmay, balki tilning o‘zgaruvchan va ijtimoiy ahamiyatga ega tomonlarini ham tushunishga yordam beradi. Variantdosh birliklarga til o‘zgarishlari, ijtimoiy qatlamlar, madaniy farqlarni ifodalovchi muhim vosita sifatida qaraladi. Mazkur mavzu tilshunoslikda variantdosh birliklarni chuqurroq tahlil qilish va ularning til va nutqdagi roli, shuningdek, ularning kommunikativ funksiyalarini o‘rganish uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: imlo islohoti, lison, til, etimologiya, fonetika, grammatika, me’yor, ma’no.

Abstract: The topic under consideration in this paper explores the types and classification of "variant forms" in linguistics. Variant forms are defined as linguistic units that express the same meaning but differ in grammatical, phonetic, semantic, and stylistic aspects. These differences reflect the multifaceted and dynamic nature of language, as well as its historical, practical, and social dimensions. The classification of variant forms examines their grammatical, phonetic, and semantic characteristics. Grammatical variants are analyzed through the morphological and syntactic aspects of language, phonetic variants through differences in pronunciation, and semantic variants through changes in meaning. Additionally, variant forms are classified from the perspective of differences between literary language and dialects, formal and informal styles, as well as changes in spoken and written language in modern times. These terms are not only relevant to the study of the structure of language but also aid in understanding its evolving and socially significant aspects. Variant forms are considered an essential tool for expressing linguistic changes, social stratification, and cultural differences. This topic is of great scientific importance for the deeper analysis of variant forms in linguistics, their role in language and speech, and the study of their communicative functions.

Key words: orthographic reform, linguistics, language, etymology, phonetics, grammar, norm, meaning.

Kirish. Variant, variantdosh, dublet atamalari tilshunoslikdagi faol va umumsathiy atamalardan bo‘lib, ham til sathlariga, ham ularning amaliy voqelanishiga daxldorligi bilan xarakterlanadi. Ular o‘zida tilning tarixi va buguni, lison va nutq, talaffuz va imlo, me’yor va uslub, til va ta’lim, adabiy til va sheva, lison va sotsium kesishuvida amal qiluvchi, bir qarashda sodda, lekin murakkab fenomen ekanligi bilan ajralib turadi. Variantdosh birliklar muayyan bir atamalarning bir necha variantlaridan iborat bo‘lib, ular bir xil ma’noni ifodalagani bilan, grammatik, fonetik yoki semantik jihatdan farqlanadi. Bu atamalarning har biri belgilangan kontekstda yoki ma’lum bir sharoitda foydalaniladi, lekin ularning asosiy ma’nosi o‘xshash bo‘ladi. Variantdosh birliklar, asosan, tildagi nomlar, harakatlar, fazo va vaqtni ifodalayotgan birliklar o‘rtasida paydo bo‘ladi va ularning tildagi ayrim holatlarda almashinishi mumkin.

Tildagi “variant” tushunchasi haqida ikki xil yondashuvni tahlil qilish, tilshunoslikda muhim bir masala hisoblanadi. Bu ikki asosiy yondashuvni quyidagicha ta’riflash mumkin.

1) etimologik jihatdan bir fonetik yoki shakliy genetik asosdan kelib chiqqan va ayni paytda birdan ortiq yoziladigan yoki talaffuz qilinadigan til birliklari (so‘z, qo‘shimcha, ibora, maqol, matal);

2) lison-nutq dixotomiyasi nuqtayi nazaridan bir lisoniy invariant asosidagi nutqiy birliklar. Shuningdek, bu lingvistik tushuncha O.S.Axmanova[1], R.Yakobson, Xalle[2], S.V.Illarionov[3], N.D.Arutyunova[4], K.S.Gorbachevich[5], S.Lem[6], V.M.Solnsev[7], D.Jones[8] kabilar tadqiqotlarida maxsus o‘rganilgan [15].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani tayyorlash jarayonida ilmiy va tahliliy

yondashuvlar asosida analiz, sintez, tavsiflash, qiyoslash, tasinflash metodlaridan foydalanildi. Bu metodlar maqoladagi fikrlarni aniq va tartibli ravishda ifodalashni ta’minlaydi, shuningdek, mavzuni chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

Natijalar va muhokama. Variantdosh birliklar ko‘pincha tilning ijtimoiy va madaniy sharoitlarida, shuningdek, nutqdagi individual xususiyatlarida (masalan, dialekt, jargon) paydo bo‘ladi. Bu birliklar, o‘z navbatida, sintaktik, morfologik va fonetik xususiyatlari bilan farqlanishi mumkin.

Turli guruhlar orasida gap tuzish, iboralar va frazeologizmlarni ishlatish **sintaktik farqlar** usulida namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, ayrim hududlarda yoki guruhlarda rasmiy va norasmiy uslublar o‘rtasida sintaktik farqlar mavjud bo‘lib, bu gap qurilishining moslashuvchanligini ko‘rsatadi.

Morfologik farqlar esa so‘z yasashda, affiks qo‘llashda yoki biron bir so‘zning shaklini o‘zgartirishda namoyon bo‘lishi mumkin. Misol uchun, ayrim dialektlarda yoki jargonlarda so‘zlarning o‘zgarishiga asoslangan morfologik o‘zgarishlar uchraydi.

Fonetik farqlar esa talaffuzdagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi, bu esa tilning fonologik tuzilishida mintaqaviy yoki guruhiy farqlanishlarni yuzaga keltiradi.

Shuningdek, variantdosh birliklar nutqning individual xususiyatlarini ham aks ettiradi. Nutqdagi individual xususiyatlar, masalan, odamning yoshiga, jinsi yoki kasbiga qarab, tilning ayrim elementlarini o‘ziga xos tarzda ishlatishiga olib keladi. Yangi so‘zlar, o‘ziga xos iboralar yoki so‘zlashuv uslubi, masalan, yoshlar orasida keng tarqalgan slang va jargonlar, tilning variantlilik jihatlarini yanada boyitadi. Shu bilan birga, variantdosh birliklarning paydo bo‘lishi til o‘zgarishi va evolyutsiyasi jarayonida ham alohida o‘rin tutadi. Ular tilning ijtimoiy qatlamlari va madaniy merosi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zaro ta’sir va muloqot natijasida yangi semantik va fonetik shakllari paydo bo‘ladi. Bu jarayonlarning har biri tilning me’yorlarini shakllantirishga ham, tilni yanada boyitishga ham xizmat qiladi.

Shunday qilib, variantdosh birliklar tilning ko‘p qatlamli, o‘zgaruvchan va ijtimoiy kontekstga bog‘liq tabiatini aks ettirib, uning ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar bilan qanday bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Lingvistik dublet yoki lisoniy dublet, yoxud shunchaki dublet (frans. “double” (ikkilanma, ikkiyoqlama) sifatidan olingan dublet atamasi ostida ma’nosi bir xil yoxud yaqin, etimologik jihatdan bir ildizdan kelib chiqqan, tadrijiy taraqqiyot natijasida semantik yoki uslubiy farq kasb etgan, fonetik qiyofasi ayrim tovush jihatidan farqlanadigan leksik birliklar tushuniladi [13].

Variantlik, varintdoshlik juda ko‘p fan sohalariga daxldor bo‘lib, u tilshunoslikda ham keng qo‘llanuvchanligi bilan xarakterlanadi. 2 tomli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da variant atamasi berilgan bo‘lib, u quyidagi talqinga ega: “VARIANT [p<lat] Proyekt, plan, ilmiy, badiiy, adabiy asar, mashina va sh.k.ning boshqacha ishlangan turi, boshqa xil ishlangan nusxasi. Ikki variantda tayyorlangan proyekt. “Alpomish” dostonining Fozil shoirdan yozib olingan varianti” [11, 173]. O‘zbek tilining 5 jildli izohli lug‘atida ham so‘zning izohi aynan shunday.

Akademik A.Hojiyev tomonidan tartib berilgan “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da variant atamasining lingvistik tabiati bayon etilgan: “VARIANT (lot. varians, variants - o‘zgaruvchi). Til birligining turli-tuman o‘zgarishlar natijasida hosil bo‘lgan shakli. Masalan, affiksning varianti, so‘zning varianti” [12, 27].

Lisoniy variantlilik tildagi ortiqchalik oqibatidir. U tilning tadrijiy rivoji natijasi va bundan keyingi taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi vositalardan sanaladi. Tilda ortiqchalikning paydo bo‘lishi uning dinamikligini va rivojlanish qobiliyatini ko‘rsatadi. Bu jarayon, ko‘pincha, kommunikativ ehtiyojlarni yanada chuqurlashtiradi va tilni boyitadi, ba’zan esa tildan samarali hamda to‘g‘ri foydalanishda noaniqliklar keltirib chiqarishi mumkin. Albatta, ortiqchalikni umuman “keraksiz” ma’nosida talqin qilish maqsadga muvofiq emas. U tilning harakatliligi va jonliligi, yashovchanligi, rivojlanuvchanligi, sharoitga moslashuvchanligi – “egiluvchanligi”ni o‘zida namoyon qiluvchi hodisadir. Til birliklarining “ortiqchalik” belgisini raqobatdoshlik xossasi sifatida baholash to‘g‘riroq. Zero, raqobat – taraqqiyotni belgilaydigan, uni tezlashtiradigan asosiy omillardan biri.

Variantdoshlik, variantlilik yoxud variantdorlik til me’yori talablari nuqtayi nazaridan baholanadi. Shuningdek, yuqorida zikr etilgan eskirganlik yoki yangilik, adabiylik yoxud shevaviylik nuqtayi nazaridan munosabatda bo‘lish ham masalani oydinlashtiruvchi, hodisaga xolis yondashishdir. Bu atamalar tilning o‘zgaruvchan va xilma-xil xususiyatlarini ifodalaydi. Tilda bir nechta shakllar, so‘zlar yoki grammatik konstruktsiyalar mavjud bo‘lishi mumkin. Masalan, biror so‘zning sinonimlari yoki grammatik shakllarining mavjudligi, shuningdek, biror dialekt yoki shevadan foydalanish bularning barchasi tilning variantlilik jihatini ko‘rsatadi. Bu til me’yorlarining talablariga mos kelmasligi yoki boshqa variantning afzal ko‘rilishi mumkin. Tildagi variantlar orasidagi farqni tushunish va ularni to‘g‘ri ishlatish lingvistikada muhim masala hisoblanadi.

Tilda vaqt o‘tishi bilan ayrim so‘zlar yoki iboralar eskirishi mumkin, boshqalari esa yangi tushunchalar yoki jamiyatdagi o‘zgarishlarga javoban paydo bo‘ladi. Tilda yangilik va eskilikni ajratish, qanday iboralar yoki grammatik shakllar yangilangan yoki eskirganligini aniqlash — bu tildagi zamonaviylik va rivojlanishning ko‘rsatkichi hisoblanadi. Bu yerda muhim masala, qanday qilib eski va yangi til shakllari orasida muvozanatni saqlash va to‘g‘ri ishlatishni aniqlashdir.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili ham, boshqa tillar kabi variantlarga boyligi bilan xarakterlanadi va yagona “invariant” shaklni tanlash hamda boshqa variantlarni inkor qilish tilning ijtimoiy funksiyasiga putur yetkazadi.

Tilda variantlarning vujudga kelishi ko‘plab tashqi va ichki omillarga bog‘liq.

– Variantlar vujudga kelishining tashqi omillari sifatida quyidagilarni sanash mumkin:
– boshqa tillarning ta’siri;
– tilning sotsial farqlanuvi;
– jamiyat hayotida yuz bergan ijtimoiy o‘zgarishlar;
– imlo islohoti;
– tilda ayrim gender omillar.
– Ichki omillar sifatida quyidagilarni sanash mumkin:
– analogiya qonuniyatining amal qilishi;
– tilda formal-semantik asimmetriya qonuniyatining mavjudligi;
– turli nutq uslublarining mavjudligi;
– tilning tarixiy taraqqiyoti;
– nutqiy tejam;
– tilning “egiluvchanligi” (moslashuvchanligi);
– nutqning individualligi;
– tilda tanlash imkoniyati mavjudligi;

Tilning tadrijiy taraqqiyoti nuqtayi nazaridan munosabatda bo‘linsa, variantlarning yashovchanligi, qo‘llanuvchanlik darajasi turlichadir. Iste’moldan chiqib ketgan imlo qoidalari va an’analarining izlari saqlanib qolishi ham variantdoshlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun variantlilikning ijtimoiy va individual turini farqlash mumkin bo‘ladi. Masalan, arab imlo an’anasi amal qilayotganligi sababli *tamagir, taqiqlamoq* o‘zlashma so‘zlarining ayn harfi mavjudligi asosida arab imlosida *ta’magir* (تعمكر) *ta’qiqlamoq* (تعققلماق) tarzida yozilishi an’anasi kirill va lotin imlosida ham, garchi imlo qoidalariga zid bo‘lsa-da, davom etib kelmoqda. Yoki kirill alifbosidagi *мўътабар, мўътадил, мўъжиза* so‘zlarining lotin imlosidagi qulaylik maqsadida *mo‘tabar, mo‘tadil, mo‘jiza* shaklida yozish qoidalashtirilganligiga qaramay, uning norasmiy variantlari *mo‘’tabar, mo‘’tadil, mo‘’jiza* shaklida ekanligini kuzatish mumkin.

Bu, albatta, mazkur so‘zlarning qonuniy emas, balki “noqonuniy” variantlari sifatida baholanishi maqsadga muvofiq. Zero, bundagi “xatolik” to‘la ma’nodagi subyektiv xatolik bo‘lmay, balki kirill alifbosi asosidagi stereotiplar asosida yuz berayotgan obyektiv xatolik sifatida baholanishi lozim. Arab alifbosidagi tamagir, taqiqlamoq so‘zlarining kirill (*таъмагир, таъқиқламоқ*) va lotin (*ta’magir, ta’qiqlamoq*) imlosidagi “xato” variantlariga ham shunday munosabatda bo‘lish mumkin.

She’riy nuqtda subyektiv variantlar ham uchraydi. Misol:

Daraxtdan uzilib

Tushadi — olma —
Oltinnn,
Ol-tinnn,
Doo-o-dey...

(Abduvali Qutbiddin, "Ko'zimdan o'pib qo'y")

Sohibdilim — diloro,
***Ayyit**, to'xtasin karvon.*

(Sirojiddin Sayyid, "Hofizga")

Ayrim so'zlar variantlari qonuniyligi va yashovchanligi bilan xarakterlanadi. Masalan: *asta – ohista, shohista – shoyista, shohi – shoyi, bugun – bukun* kabi.

Variantlardan birining siqib chiqarilishi, ular miqdorining kamayib borishida bir xillik yo'q, ayrimlari orasida bu borada "yashash uchun kurash" ketayotgan bo'lsa, boshqalarida birini siqib chiqarish jarayoni tez va shiddatli ro'y beradi. Quyidagi so'zlarda variantlararo "murosa"ni kuzatish mumkin: *adab-odob, badtar-battar, bobo-buva, bolgar-bulg'or, bugun-bukun, gadoy-gado, hillagar-hiylakor, imon-iymon, miltillamoq – miltiramoq, mulozimat – mulozamat, munaqa – bunaqa, mufti – muftiy, mo'ldiramoq – mo'ltiramoq, kaptar-kabutar, noib – noyib, nom-banom – nomma-nom, nonvoy – novvoy, norizo – norozi, noutbuk – notbuk, obro' –obro'y, masjid-machit.*

Quyida berilgan variantdosh birliklarda dominanta variant tomonidan umrini o'tab bo'layotgan variantlarning siqib chiqarilish jarayoni ketmoqda: *kafgir-**kapgir**, oqquv – **oqqush**, panjshanba – **payshanba,** parang – **farang**, parishta – **farishta**, potinjon – **baqalajon**, potiha – **fotiha,** roslamoq – **rostlamoq,** rosalik – **rasolik.***

Qatordagi qoraytirilgan so'zlar dominanta variantlar bo'lib, ular ustuvor yashovchanligi bilan xarakterlanadi. Ammo mazkur variantdoshlarning barchasi izohli lug'atlarda qayd etilganligi "siqib chiqarilish" mutlaq darajada amalga oshmaganligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar Davr har bir variantdosh so'zga o'z talablarini qo'yadi. Ulardan ayrimlari eskirgan qatlamga mansubligi, so'zlashuvga xosligi, adabiy talaffuz me'yoriga muvofiq emasligi, madaniy qatlam talabiga javob bermasligi kabi omillar ostida iste'moldan chiqariladi. Dominanta birlik esa adabiy tilning me'yorlariga har jihatdan mos ekanligi bilan xarakterlanadi va me'yor uni tanlab, qonuniylashtiradi. Albatta, siqib chiqarilayotgan variantdosh birlik o'zining konnotativ bo'yog'i "o'tkir"ligi tufayli nutqning chekka hududlarida ma'lum bir emotsional-ekspressiv vazifa bajarish imkoniyatiga ega bo'lib, bu ularning ma'lum darajada, garchi passiv qo'llanishga ega bo'lsa-da, "jon saqlab qolish"i uchun sharoit yaratadi. Ammo bu ularning mutlaq qonuniylik belgisiga egaligini ko'rsatmaydi. Umuman olganda, tilda biror unsur, u so'z, ibora, maqol yoki boshqa vosita bo'lishidan qat'i nazar izsiz yo'qolib ketishi mumkin emas. Har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari va tarixiy taraqqiyoti mavjud. Ularning evolyutsiyasi davomida, so'zlar, iboralar va grammatik tuzilmalar, ko'pincha vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi. Shunga qaramay, ular tilning taraqqiyotiga va jamiyatdagi kommunikatsiya jarayonlariga doimo ta'sir ko'rsatib, o'ziga xos iz qoldiradi. Tilda yo'qolgan yoki yo'qolib ketish xavfi bor unsurlar ko'pincha o'zining mazmuni yoki ishlatilishining eskirishi sababli o'zgarib, yangilanishi yoki boshqa shakllarga kirishi mumkin. Biroq, tilda mavjud bo'lgan har bir element tarixiy va madaniy meros sifatida o'zining izini qoldiradi, ba'zan esa yangi kontekstlarda yoki boshqa tillarda o'z aksini topadi. Shunday qilib, tilda mavjud bo'lgan barcha unsurlar, ularning vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishini yoki yo'qolishini ko'rib chiqsak, ular har doim muayyan madaniyat va jamiyatning bir qismi sifatida yangi shakllarda mavjud bo'lishi mumkin.

Albatta, davr ruhini aks ettirish, shevaviy yoki lahjaviy koloritni berish talabi, shuningdek, badiiy asarlarda qahramon nutqini individuallashtirishdan iborat badiiyat talablari bunday variantlarning o'rni bilan onda-sonda ishlatilishiga yo'l qo'yadi. Ushbu talablarga amal qilish orqali, muallif o'z asariga o'sha davr va ijtimoiy kontekstni, qahramonlarning ruhiy va intellektual olamini, shuningdek, til va nutqning imkoniyatlarini kengaytirish

imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa asarlarni yanada chuqurroq va ko‘proq estetik baholashga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахманова О.С. Фонология. –М., 1954. – С. 47.
2. Якобсон Р., Халле М. Фонология и её отношение к фонетике, пер.с англ., в кн.: Новое в лингвистике, в. 2 т. – М., 1962. – С. 94.
3. Илларионов С.В. Гносеолигческая функция принципа инвариантности // Вопросы философии, 1968. № 12. - С. 83.
4. Арутюнова Н.Д. О минимальной единице грамматической системы // Единицы разных уровней грамматического строя языка и их взаимодействие, - М., 1969. – С.74.
5. Горбачевич К.С. Вариантность слова и языковая норма. На материалах современного русского языка. – Л., 1978. Ст-67.
6. Лэм С.М. Очерк стратификационной грамматики, пер. сангл. - Минск, 1977. – С.36.
7. Солнцев В.М. Вариативность как общее свойство языковой системы // Вопросы языкознания, 1984. № 2.
8. Jones D. The phoneme, 3 ed., Gamb., 1967.
9. Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси, 1-қисм. -Т.:Фан, 1997.Б.63.
10. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш: Дорилфунун ва педагогика институтлари талабаларига қўлланма / [Махсус муҳаррир Л.Т.Бобохонова]. –Т.:Ўқитувчи, 1992. – 256 б.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томли. 60000 сўз ва сўз бирикмаси / С.Ф.Акобиров, Т.А.Аликулов, С.И.Ибрагимов ва бошқ.; З.М.Маъруфов таҳрири остида. – М.: Русский язык, 1981. Т. I. А – Р. – 632 б.
12. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати / Масъул муҳаррир: А.Мадвалиев. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2002. – 168 б.
13. Шукуров Р. Сўз вариантлари ҳақида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1987. – Б. 19.
14. Шукуров Р. Сўз вариантларининг имло луғати. –Тошкент: Фан ва технология. 2014. − Б. 100.
15. Базарова Д.Б.Ўзбек тилида вариантдош бирликларнинг нутқий қўлланиши ва услубий хусусиятлари: Фил. фанл. бўйича.фалс. докт. (PhD) дисс. –Қарши, 2020.
16. Абдували Қутбиддин. Найсон. Шеърлар тўплами. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1988. – 526 б.

RASMIY MULOQOTDA XUSHMUOMALALIKNING O‘RNI VA UNING NUTQDA TAKOMILLASHUVI

X.Sh. Narxodjayeva
Iqtisodiyot va pedagogika universitetida
professor v./b., f.f.d.
ORCID 0009-0007-9762-6913

УДК 413.164:8-83(021)

Annotatsiya. Ushbu maqola rasmiy muloqotda xushmuomalalikdan foydalanish va uni nutqda takomillashtirish borasida takliflar taqdim etadi. Xushmuomalalikning rasmiy muloqotdagi ahamiyatini tushuntirib, muloqotni samarali va professional tarzda olib borish uchun zarur bo‘lgan usullarni ko‘rsatadi. Xushmuomalalikning asosiy elementlari, so‘z tanlash, ehtiyotkorlik, konstruktiv tanqid va madaniy normativlarga hurmat ko‘rsatish kabi jihatlar yoritiladi. Shuningdek, nutqdagi xushmuomalalikni takomillashtirishga oid amaliy takliflar, muloqot usullari haqida batafsil ma’lumot beriladi. Maqola, rasmiy muloqotda ijobiy va samarali aloqalarni o‘rnatish uchun xushmuomalalikni qanday rivojlantirish mumkinligi va har bir shaxsning professional muvaffaqiyatiga ta’sir qiluvchi omil sifatida uning ahamiyatini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar. rasmiy muloqot, xushmuomalalik, muloyim nutq, so‘z tanlash, konstruktiv tanqid, jismoniy nutq, ehtiyotkorlik, ijtimoiy aloqalar, muloqot samaradorligi, til madaniyati, nutqni takomillashtirish.

THE ROLE OF COURTESY IN OFFICIAL INTERVIEWS AND ITS IMPROVEMENT IN SPEECH

Abstract. This article offers suggestions for using politeness in formal communication and improving it in speech. Explains the importance of politeness in formal communication and shows the techniques needed to communicate effectively and professionally. Aspects such as the basic elements of politeness, choice of words, prudence, constructive criticism and respect for cultural norms are covered. Also, practical suggestions for improving politeness in speech, detailed information about communication methods will be given. The article highlights how politeness can be developed to establish positive and effective communication in formal communication and its importance as a factor influencing the professional success of each individual.

Key words: formal communication, politeness, polite speech, word choice, constructive criticism, physical speech, caution, social relations, communication efficiency, language culture, speech improvement.

Kirish. Insonlarning o‘zaro muloqoti va aloqalari, jamiyatda ijtimoiy va professional hayotni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Rasmiy muloqot, ayniqsa, ish muhitida, davlat idoralarida, ta’lim muassasalarida va boshqa ko‘plab sohalarda aloqalarni tashkil etishda alohida o‘rin tutadi. Rasmiy muloqotda foydalaniladigan so‘zlar va iboralar, ko‘pincha odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni belgilaydi va ularga asoslangan tajriba tashkilotning muvaffaqiyatini ta’minlashda yordam beradi.

Xushmuomalalik va muloyimlik – rasmiy muloqotning ajralmas qismlari hisoblanadi. Rasmiy muloqotda xushmuomalalik, avvalo, qarshi tomonni hurmat qilish va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni anglatadi. Xushmuomalalik nutqda odob-axloq qoidalariga mos, tartibli va samimiy nutqni yaratadi. Bu ikki unsurning birlashishi, nafaqat professional muloqotda samaradorlikni ta’minlaydi, balki insonlarning o‘zaro hurmatini saqlashga, o‘zaro ishonchni oshirishga va muloqotdagi muammolarni samarali hal qilishga imkon beradi.

Bugungi kunda, ko‘plab ijtimoiy va professional sohalarda rasmiy muloqotda xushmuomalalik va muloyim nutqning ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, xalqaro biznesda, davlat idoralarida yoki ko‘p madaniyatli jamiyatlarda bu kabi kommunikatsiya usullari muhim rol o‘ynaydi. Chunki har bir nutq yoki harakatning ta’siri katta bo‘lishi mumkin va noto‘g‘ri ishlatilgan so‘z yoki xushmuomalasizlik nafaqat munosabatlarni yomonlashtiradi, balki ijtimoiy va professional imidjni ham buzadi. Shuning uchun, rasmiy muloqotda xushmuomalalik va muloyim nutqni o‘zlashtirish, takomillashtirish va amaliyotda qo‘llash har bir insonning professional muvaffaqiyatiga, shuningdek, ijtimoiy aloqalarining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Rasmiy muloqotda xushmuomalalik va muloyim nutqni takomillashtirish, shaxsiy va professional rivojlanishda katta ahamiyatga ega. Bu esa har bir kishiga o‘z fikrlarini aniq va hurmatli tarzda ifodalash imkoniyatini beradi. Shu maqsadda, maqolada rasmiy muloqotda xushmuomalalikni tushunish, uning ahamiyatini ochib berish va uni takomillashtirish yo‘llarini ko‘rib chiqamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ko‘tarilgan muammoni ochib berishda tavsifiy, matnda pragmatik tahlil usullari qo‘llanildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbek tilshunosligida rasmiy muloqot hurmat kategoriyasi bilan bog‘lab o‘rganilgan. Hurmat kategoriyasi – ijtimoiy-lisoniy hodisa bo‘lib, lisoniy-nutqiy, semantik-grammatik va uslubiy-intonatsion jihatdan o‘z ifodalanish usul va vositalariga, voqelanish omil va imkoniyatlariga ega bo‘lgan muhim va murakkab, e’tiborga loyiq kategoriyalardan biridir [1].

Rasmiy muloqotda ham hurmatning verbal va noverbal ifoda vositalaridan keng foydalaniladi. Masalan, hurmat ma’nosini ifodalovchi nolisoniy vositalar sifatida ma’ruzachi rasmiy muloqotni tabassum bilan boshlash, tikka turib egilib ta’zim qilish, qo‘lni ko‘ksiga qo‘yib salom berish kabi hurmat xulqi (odobi) ko‘rinishlaridan foydalanishi mumkin. Hurmat ma’nosini ifodalovchi lisoniy va nolisoniy vositalar orqali hurmat ma’nosining ifodalanish darajasi qo‘llanish doirasi bir xil bo‘lmaydi [2]. Vositalarning tuzilishi, vazifasi, ma’no xususiyatlariga qarab, ularning hurmat kategoriyasidagi mavqei, hurmatni ifodalash darajasi aniqlanadi.

“Hurmat – ijtimoiy – ijobiy hodisa sifatida til orqali ifodalanar ekan, uni lisoniy kategoriya deb atash maqsadga muvofiq”- Sh. Sodiqovaning quyidagi fikrlariga qo‘shilgan holda, hurmatning kategoriya sifatida modal munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lishi uning umumiy jihati, hurmat va u bilan bog‘liq sizlash, sizsirash, e’zozlash, ulug‘lash, e’tibor berish kabi ma’nolarni ifodalashi kabi xususiy jihatlarini rasmiy muloqotda jaranida ham kuzatishimiz mumkin.

Hurmatning lisoniy kategoriya sifatida o‘ziga xos uch tomoni mavjud: mazmun, shakl – tasvir vositalari, ifoda usullarini o‘z ichiga oladi. **Mazmun jihati:** Jamiyatdagi ijobiy – ruhiy – lisoniy voqelikni aks ettirishi; Hurmatlash va sizlash hodisalarini voqelantirishi; Muomala odobida namoyon bo‘lishi.

Hurmat rasmiy muloqotda (ijtimoiy – aloqa aralashuvda, monologik va dialogik

nutqlarda, madaniy-ma'rifiy, axloqiy-huquqiy, ruhiy-hissiy kabi munosabatlarda ham) *muloqot xulqi tarzida* voqelanadi [3].

Hurmat ijtimoiy-lisoniy hodisa sifatida, ijtimoiy yo'nalishdagi qadriyat, mehr-oqibat, sevish-sevilish, nafosat, obro'-e'tibor, sadoqat, samimiyat, do'stlik, birodarlik, bag'rikenglik, or-nomus, iffat, hayo kabi xislatlarni aks ettiradi.

Kishilarning borliq hodisalariga, eng avvalo, odamlarga bo'lgan barcha ijobiy munosabatlari (fikri, so'zi, tuyg'usi...) muloqot hulqi, muloqot odobi, muloqot madaniyati (so'z boyligi, nutqining nafis va go'zalligi…), muloqot fazilatlari (muomala odoblari, xush fe'llik, shirinsuxanlik, mayinlik, muloyimlik kabi) ko'rinishida namoyon bo'ladi. Mazkur tizim zaminida hurmat nutqi yotadi [4].

Natijalar va muhokama. Rasmiy muloqotda xushmuomalalik, eng avvalo, boshqalarga hurmat va e'tibor ko'rsatishni anglatadi. Bu nafaqat ijtimoiy aloqalarni osonlashtiradi, balki har bir munosabatni ijobiy ko'rinishda saqlaydi. Xushmuomalalikning asosiy elementlari sifatida ehtiyotkorlik, ijobiy yondashuv, so'zlarni to'g'ri qo'llay olishni ko'rsatish mumkin. Nutqdagi xushmuomalalik, o'z navbatida, shaxsning professional imidjini shakllantiradi va u boshqalarga ta'sir o'tkazadi. Xushmuomalalikdan foydalanish, ish muhitidagi salbiy ruhiyatni bartaraf etishda, ijtimoiy normativlarga hurmat ko'rsatishda va samarali aloqalarni o'rnatishda muhim omildir.

Shuningdek, xushmuomalalik, rasmiy muloqotda mas'uliyatni sezish va jiddiylikni o'rgatadi. Mulohazali nutq, ziddiyatli vaziyatlarda ham ijobiy hal qiluvchi vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Xushmuomalalik, xususan, boshqa madaniyatlar va millatlar bilan muloqotda yanada zarurdir, chunki har bir jamiyatda o'ziga xos odob-axloq me'yorlari mavjud bo'ladi.

Nutqda xushmuomalalikni rivojlantirishning birinchi va eng muhim yo'li – so'zlarni va iboralarni tanlashda ehtiyotkorlikdir. "Iltimos", "rahmat", "minnatdorman", "sabr bilan kutganingiz uchun minnatdorman" kabi xushmuomalalikni ifodalovchi so'zlar muloqotni yanada samimiy va hurmatli qilishga yordam beradi. Rasmiy muloqotda so'zlarni aniq va tushunarli tarzda tanlash, jumladan, ortiqcha so'zlardan, qasddan noxush bo'lishidan saqlanish zarur. "Iltimos", "yordamim kerak emasmi?" kabi iboralar muloqotni ko'proq ijobiy tarzda yo'naltiradi. Xushmuomalalik faqat so'zlarda emas, balki jismoniy nutqda ham ifodalanadi. Gavda tili, yuz ifodalari, qo'l harakatlari va tanadagi pozitsiya rasmiy muloqotda muhim rol o'ynaydi. Masalan, muloqotda turish yoki o'tirish pozitsiyasini to'g'ri saqlash, boshqalar bilan gaplashayotganda yuz ifodalarini ehtiyotkorlik bilan boshqarish va muloyim harakatlar qilish, kishining xushmuomalaligini ko'rsatadi.

Rasmiy muloqotda xushmuomalalik, boshqa tomonning fikrlarini tinglash va ularni hurmat qilish bilan izohlanadi. Muloqotda har bir kishining fikrini tinglash, uning nuqtayi nazariga hurmat ko'rsatish va qarorlarni jamoaviy ravishda qabul qilish, xushmuomalalikni ta'minlashning muhim usulidir.

Rasmiy muloqotda jargon va shevaga xos so'zlardan foydalanish, muloqotni noto'g'ri yo'naltirishi va hurmatni kamaytirishi mumkin. Agar muloqotda tanqid qilish zarur bo'lsa, uni muloyim va ehtiyotkor tarzda amalga oshirish lozim. Tanqidni ijobiy nuqtayi nazardan yetkazish, uning konstruktiv bo'lishini ta'minlaydi. Har bir jamiyat va madaniyatda o'ziga xos rasmiy muloqot qoidalari mavjud. Rasmiy muloqotda xushmuomalalikni takomillashtirishda, shuningdek, boshqa madaniyatlar va millatlarning an'analarini tushunish va hurmat qilish ham muhimdir. Xushmuomalalik, har bir muloqotda madaniyatlar o'rtasida muvaffaqiyatli kommunikatsiyani ta'minlashning eng muhim elementidir.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, rasmiy muloqotda xushmuomalalikning ahamiyati juda katta. Bu nafaqat samarali muloqotni ta'minlash, balki ijtimoiy va professional muvaffaqiyatni oshirishga ham yordam beradi. Nutqning sofligi, ehtiyotkorligi va madaniyatga mosligi o'zaro hurmat va ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunday malakalarni rivojlantirish, har bir shaxs va tashkilot uchun zarur va foydalidir. Rasmiy muloqotda muloyim bo'lish, nafaqat muvaffaqiyatli aloqalarni o'rnatish, balki ijobiy taassurotlar qoldirib, uzoq muddatli hamkorlik qilish va hurmatni yuzaga kelishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Содиқова Ш. Ўзбек тилида ҳурмат категорияси. Монография. – Тошкент, 2010.1. Овчарова, К. В. Электронный дискурс: общая характеристика // Лингвистическая организация дискурса: функциональные и содержательные аспекты : Межвуз. сб. тр. молодых ученых. — Краснодар, 2004. - Вып.1. - С. 108-113.

2. Ҳожиева. Ҳ. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти: Филол. фанлари номз. ... дисс. – Самарқанд, 2001. – Б. 39.2. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият.– Тошкент: Ўзбекистон, 1992.– 110 б.

3. Narxodjayeva X. “Rasmiy muloqot matnining lingvomadaniy va pragmatik tadqiqiю Monografiya. “Ilm-fan-ma’naviyat” nashriyoti. –Qarshi, 2024. -B. 78.

4. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан.д-ри. ... дисс. –Тошкент, 2000. –Б. 198-204.

5. Narxodjayeva X. “Rasmiy nutqiy muloqotda hurmatning ifodalanishi”. QarDU xabarlari. Qarshi davlat universitetining ilmiy-nazariy, uslubiy jurnali. 2024. – №4. – B. 95-96.

6. Narxodjayeva X. “Rasmiy muloqot matnining lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi”. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. – Qarshi, 2023.

7. Umurova F. Badiiy matnda xushmuomalalikning sotsiopragmatik ifodalanishi. – Qarshi, 2024.

8. Yunusova Z.Z. Ingliz va o‘zbek tillarida “Hurmat” konseptining gender xususiyatlar. – Toshkent, 2024. -36 b.

9. Narxodjayeva X. Rasmiy muloqot matnining milliy-madaniy xoslanishi. Zamonaviy tilshunoslikda madaniyatlararo muloqot. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Qarshi, 2024. –B 28-31.

10. Ларина Т. В. Категория вежливости в английской и русской коммуникативных культурах. –Москва, 2003. -315 б.

THE CONCEPT OF “JUSTICE” IN BILINGUAL TRANSLATION DICTIONARIES

Xazratova Iroda Furqat qizi
Qarshi davlat universiteti doktaranti
xazrarotairoda95@gmail.com
ORCID 0009-0005-0495-5650
UDK 413=20=943.75(021)

Abstract. This article explores the multifaceted concept of "justice" as it is represented in bilingual translation dictionaries. Examining a range of dictionaries across diverse language pairs, the study analyzes how the semantic scope of "justice" is translated, considering cultural nuances, legal implications, and philosophical dimensions. By comparing and contrasting the target language equivalents, the research identifies variations in meaning, potential translation challenges, and the underlying ideological perspectives that shape dictionary entries. Furthermore, it investigates the extent to which dictionaries capture the dynamic and context-dependent nature of "justice," highlighting the impact of lexical choices on cross-cultural communication and legal interpretation. Ultimately, this work contributes to a deeper understanding of the role of bilingual dictionaries in mediating complex abstract concepts and fostering intercultural understanding in the realm of legal and ethical discourse.

Key words: fairness, equality, cultural dimensions, qualitative and quantitative methods, semantic patterns, cognitive categorization, intricate relationship, cultural connotations, righteousness, semantic dimensions.

IKKITILLI TARJIMA LUG‘ATLARIDA “ADOLAT” TUSHUNCHASI

Annotatsiya. Ushbu maqola ikki tilli tarjima lug'atlarida aks ettirilgan "adolat" tushunchasining ko'p qirraliligini o'rganadi. Turli xil til juftliklari bo'yicha bir qator lug'atlarni o'rganib, tadqiqot madaniy nuanslar, huquqiy oqibatlar va falsafiy o'lchovlarni hisobga olgan holda "adolat" ning semantik ko'lami qanday tarjima qilinishini tahlil qiladi. Maqsadli til ekvivalentlarini solishtirish va taqqoslash orqali tadqiqot ma'nodagi o'zgarishlarni, potentsial tarjima muammolarini va lug'at yozuvlarini shakllantiradigan asosiy mafkuraviy istiqbollarni aniqlaydi. Bundan tashqari, u lug'atlarning "adolat" ning dinamik va kontekstga bog'liq tabiatini qay darajada qamrab olishini o'rganadi, leksik tanlovlarning madaniyatlararo muloqot va huquqiy talqinga ta'sirini ta'kidlaydi. Oxir oqibat, ushbu ish ikki tilli lug'atlarning murakkab mavhum tushunchalarni vositachilik qilish va huquqiy va axloqiy nutq sohasida madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishdagi rolini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: adolat, tenglik, madaniy o'lchovlar, sifat va miqdor usullari, semantik qoliplar, kognitiv turkumlash, murakkab munosabatlar, madaniy ma'nolar, to'g'rilik, semantik o'lchovlar.

Introduction. The concept of "justice" stands as a cornerstone of human societies, encompassing ethical, legal, and social dimensions. Yet, its understanding and application vary significantly across cultures and languages. When navigating cross-cultural communication, especially in legal and philosophical contexts, the accurate translation of "justice" becomes paramount. Bilingual translation dictionaries, often considered authoritative resources, play a crucial role in bridging these linguistic and conceptual gaps. However, the inherent complexity and abstract nature of "justice" present significant challenges for lexicographers. This article aims to explore how bilingual dictionaries handle the translation of "justice," examining the semantic range, cultural nuances, and potential discrepancies that arise when rendering this multifaceted concept across different language pairs. By analyzing selected dictionary entries, we seek to understand the extent to which these resources capture

the dynamic and context-dependent nature of "justice," shedding light on the crucial role they play in shaping cross-cultural understanding and legal interpretation.

Research methodology. This research employs a qualitative, comparative, and descriptive methodology to analyze the representation of "justice" in bilingual translation dictionaries. A representative corpus of bilingual dictionaries will be selected, encompassing diverse language pairs (e.g., English-Uzbek, English-Chinese, French-Arabic) to capture a range of cultural and legal contexts. Dictionaries will be chosen based on their reputation, target audience (general vs. specialized), and publication date, aiming for a balance between historical and contemporary resources. Both general-purpose and specialized legal dictionaries will be included to understand the variations in treatment. The entries for "justice" (and its related terms, such as "just," "justly," "injustice") will be extracted from each dictionary within the selected corpus. All relevant definitions, example sentences, and usage notes will be recorded for analysis. A semantic analysis will be conducted to identify the core meanings and connotations associated with "justice" in both the source and target languages. This analysis will examine the denotative and connotative meanings, as well as the presence of any cultural or legal implications within the definitions. The use of semantic frameworks like frame semantics or componential analysis may be used to identify the core features of each definition. The target language equivalents will be compared and contrasted with the source language definitions to identify similarities and differences in meaning. This comparative analysis will focus on the degree of semantic overlap between the source and target language terms and the presence of any cultural or legal nuances that are unique to either language, potential instances of semantic loss or expansion during translation and the presence of legal or philosophical definitions. The findings from the semantic and comparative analyses will be interpreted within a broader cultural and legal context. This interpretation will consider the potential impact of cultural differences and legal systems on the translation of "justice." The study will also reflect on the limitations of bilingual dictionaries in capturing the full complexity of abstract concepts.

Literature review. Studies in lexicography have long grappled with the challenges of defining and translating abstract terms. Atkins and Rundell (2008) emphasize the importance of context and usage in dictionary definitions, highlighting the limitations of simplistic one-to-one equivalencies. Similarly, Hanks (2010) discusses the role of corpus linguistics in revealing the nuanced semantic profiles of words, suggesting that dictionaries should move beyond static definitions to reflect dynamic usage patterns. Research by Fontenelle (1997) explores the problems of translating abstract nouns, showing how cultural and linguistic disparities complicate the creation of accurate equivalences. Translation studies have extensively examined the concept of equivalence, particularly in relation to culturally loaded terms. Baker (1992) proposes different levels of equivalence, emphasizing the need to consider cultural and contextual factors beyond linguistic similarity. Newmark (1988) discusses the distinction between semantic and communicative translation, arguing that the translator must strive for communicative effectiveness while remaining faithful to the source text. Bassnett (2002) highlights the inherent subjectivity of translation, emphasizing the translator's role as a cultural mediator. These works underscore the potential for cultural biases and misinterpretations when translating abstract concepts like "justice." Legal linguistics provides valuable insights into the translation of legal terminology, which is often intertwined with the concept of "justice." Cao (2007) discusses the challenges of translating legal texts, emphasizing the importance of understanding the underlying legal systems and cultural contexts. Biel (2014) focuses on legal lexicography, highlighting the need for specialized dictionaries that accurately reflect the complexities of legal terminology. Research by Harvey (2000) shows how the translation of legal terms can have significant implications for legal interpretation, emphasizing the importance of accuracy and precision.

Philosophical and sociological studies on "justice" offer crucial insights into the diverse interpretations of this concept. Rawls (1971) presents a theory of justice as fairness, while Sen (2009) focuses on justice as capability. Studies by Hofstede (2001) on cultural dimensions reveal how cultural values influence perceptions of justice and fairness. Research in cross-cultural psychology has also examined variations in justice perceptions across different societies, emphasizing the role of cultural norms and values. These studies highlight the potential for significant cultural differences in the understanding and application of "justice," which must be considered when translating this concept. While there is extensive research on lexicography and translation, relatively few studies have specifically examined the representation of abstract concepts like "justice" in bilingual dictionaries. However, existing

research on dictionary criticism and evaluation (e.g., Hartmann, 2001) highlights the potential for biases and inaccuracies in dictionary entries. Studies analyzing the representation of other complex concepts in dictionaries provide a model for this study.

Results and discussions. The analysis of bilingual dictionaries across various language pairs revealed significant variations in the representation of "justice." Dictionaries often provided multiple target language equivalents for "justice," reflecting its multifaceted nature. However, the semantic range of these equivalents varied considerably. Legal definitions of "justice" were frequently present, but their depth and accuracy differed. Some dictionaries provided detailed legal interpretations, while others offered simplified or generalized definitions. Ethical and philosophical dimensions of "justice" were less consistently represented. Many dictionaries focused primarily on legal and social aspects, neglecting the broader philosophical implications. Significant cultural nuances were observed in the target language equivalents. For example, some languages emphasized restorative justice, while others focused on retributive justice. The inclusion of culturally specific examples and usage notes varied widely. Some dictionaries provided valuable contextual information, while others offered limited or no cultural insights. The presence of religious connotations of justice was present in some language pairs, but absent in others. The abstract nature of "justice" posed significant translation challenges. Many dictionaries struggled to capture the full semantic scope of the term, resulting in oversimplification or ambiguity. Legal terminology related to "justice" was particularly challenging to translate, due to differences in legal systems and terminology. The degree of formality of the definition, and example sentences, showed variance, showing a possible bias towards formal legal definitions. The results highlight the inherent complexities involved in translating "justice" across languages and cultures. The study demonstrates the limitations of relying solely on lexical equivalence when translating abstract concepts. "Justice" is not a static concept but a dynamic and context-dependent term that requires careful consideration of cultural and legal nuances. Bilingual dictionaries often fall short in capturing the full semantic range of "justice," leading to potential misinterpretations. Cultural context plays a crucial role in shaping the understanding and application of "justice." Dictionaries that fail to provide adequate cultural information risk misrepresenting the concept. The inclusion of culturally specific examples and usage notes is essential for accurate translation. Legal systems significantly influence the translation of legal terminology related to "justice." Dictionaries must accurately reflect the complexities of different legal systems to ensure accurate translation. Bilingual dictionaries should be viewed as a starting point for translation, not as a definitive resource. Supplementary resources, such as legal dictionaries, cultural dictionaries, and expert consultations, are often necessary for accurate and nuanced translation.

Conclusion. This study has explored the complex representation of "justice" within bilingual translation dictionaries, revealing the inherent challenges and nuances involved in rendering this multifaceted concept across linguistic and cultural boundaries. The analysis has demonstrated that simple lexical equivalence often falls short in capturing the full semantic range of "justice," highlighting the crucial role of cultural context, legal systems, and even implicit ideological perspectives in shaping dictionary entries. The findings underscore the limitations of bilingual dictionaries as standalone resources for translating abstract and culturally loaded terms. While these dictionaries serve as valuable starting points, they frequently struggle to convey the depth and complexity of "justice," leading to potential misinterpretations and oversimplifications. The study emphasizes the need for lexicographers to adopt more nuanced approaches, incorporating cultural insights, legal expertise, and contextual examples to enhance accuracy and clarity.

References

1. Atkins, B. T. S., & Rundell, M. (2008). The Oxford guide to practical lexicography. Oxford University Press.
2. Baker, M. (1992). In other words: A coursebook on translation. Routledge.
3. Bassnett, S. (2002). Translation studies. Routledge.
4. Biel, L. (2014). Legal terminology. John Benjamins Publishing Company.
5. Cao, D. (2007). Translating law. Multilingual Matters.
6. Fontenelle, T. (1997). Translating abstract nouns. John Benjamins Publishing Company.
7. Hanks, P. (2010). Lexical analysis: Norms and exploitations. MIT Press.
8. Hartmann, R. R. K. (2001). Teaching and researching lexicography. Pearson
9. Harvey, M. (2000). Towards a translation model for governmental and institutional texts. Target. International Journal of Translation Studies, 12(1), 17-52.

10. Hofstede, G. (2001). Culture's consequences: Comparing values, behaviors, institutions and organizations across nations. Sage publications.
11. Newmark, P. (1988). A textbook of translation. Prentice hall.
12. Rawls, J. (1971). A theory of justice. Harvard University Press.

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA O‘SMIR BOLALAR OG‘ZAKI NUTQINING O‘RGANILISHI

Rustamova Shamshoda Nig‘monjonovna
QarDU tayanch doktoranti
azizbekshamshoda@gmail.com
ORCID 0009-0005-3621-4216

Annotatsiya. Jahon tilshunosligida og‘zaki nutqni o‘rganish borasida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, o‘smirlar nutqining tadqiqi nutq ontogenezi, bolalar nutqi va kattalar nutqining o‘rganilishiga nisbatan kamchilikni tashkil etadi. Asosiy e’tibor o‘smirlar og‘zaki nutqining leksikasiga qaratilgan bo‘lib, nutqning boshqa jihatlari e’tibordan chetda qolmoqda. Ko‘plab tadqiqotchilar o‘smirlar og‘zaki nutqiga sotsiolingvistik, psixolingvistik, neyrolingvistik jihatdan yondashganini kuzatish mumkin. Ko‘plab tillarda esa os’mirlar og‘zaki va yozma nutqining o‘rganilishini yengillashtirish maqsadida til korpuslari yaratilgan. O‘zbek tilshunosligida esa o‘smir yoshdagi bolalar og‘zaki nutqi bir necha tilshunoslar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, o‘smirlar nutqida bilingvizm hodisasi va uning muammolari, o‘smirlar o‘rtasidagi muloqot shakllari va mavzulari, o‘smirlar nutqining psixolingvistik xususiyatlarining “onlayn-muloqot”da namoyon bo‘lishi hamda “sleng” tushunchasi mavzularida kichik izlanishlar olib borilgan. Shu sababli o‘zbek bolalar og‘zaki nutqining o‘rganilishi muhimligicha qolmoqda.

Kalit so‘zlar: o‘smirlar, og‘zaki nutq, leksikon, yoshlar, nutqiy innovatsiya

THE STUDY OF ADOLESCENT ORAL SPEECH IN WORLD LINGUISTICS

Abstract. While there has been extensive research into the study of oral speech in World linguistics, the study of adolescent speech represents a disadvantage compared to the study of speech ontegenesis, children's speech, and adult speech. The focus is on the lexicon of adolescent oral speech, with other aspects of speech being overlooked. Many researchers have been observed to approach adolescent oral speech sociolinguistically, psycholinguistically, neurolinguistically. In many languages, however, language Corps have been created with the aim of alleviating the learning of adolescent oral and written speech. In Uzbek linguistics, however, adolescent oral speech has been researched by several linguists, with minor research on the phenomenon of bilinguism in adolescent speech and its problems, forms and topics of communication between adolescents, the manifestation of psycholinguistic features of adolescent speech in “online communication”, and the concept of “slang”. For this reason, the study of Uzbek children's oral speech remains important.

Key words: Teenagers, oral speech, lexicon, youth, speech innovation

Kirish. Nutq jarayoni murakkab bo‘lib, bunga ko‘plab ijtimoiy omillar ta’sir qilishi tabiiy holat. Nutqqa ta’sir o‘tkazuvchi asosiy omillardan biri so‘zlovchining yoshi hisoblanadi. “17-18 yoshgacha intellekt yoshga mos ravishda o‘sib boradi, ammo orada tez o‘sish davrini ham, jarayonning vaqtincha sekinlashishini ham boshdan kechiradi. Shunday qilib, 7-11 yosh atrofida bola intellekti tez rivojlanishi, taxminan, 12 yoshlarga kelib gormonal o‘zgarishlar tufayli o‘smir hatto natijalarini biroz pasaytirishi mumkin. Keyin bir muncha vaqt ko‘rsatkichlar o‘zgarishsiz qoladi. Shundan so‘ng yoshga qarab intellektning pasayishi kuzatiladi” [5; 172-173]. Nutqning inson shaxsiyatini, aqliy rivojlanish darajasini, ijtimoiy holatini yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita ekanligini hisobga olsak, shaxs yoshining, ayniqsa, o‘smir yoshining uning nutqiga ta’sir etishini taxmin qilish mumkin. Chunki yuqorida sanab o‘tilganlar barchasi o‘smirlik davriga kelib dramatik o‘zgarishga uchraydi va bu o‘zgarish nutqqa ta’sir etmay qolmaydi.

O‘smir yoshini belgilashda turlicha qarashlar shakllangan. Masalan, inglizlarda 13-19 yosh orasi o‘smirlik davri hisoblanadi. Bunga asos sifatida bolada kechayotgan fiziologik o‘zgarishlar emas, balki so‘zning lingvistik kelib chiqishi olingan. Ya’ni ingliz tilidagi “teenager” (“o‘smir”) so‘zi 13-19 sonlari oxiridagi “teen” birligi asosida hosil qilingan. Bundan tashqari, “adolescense” atamasi ham 10-21 yosh oralig‘idagi o‘smirlik davrini ifodalash uchun ishlatiladi. Bunda mazkur davr 3 bosqichga bo‘lib o‘rganiladi: erta o‘smirlik davri (10-13), o‘rta o‘smirlik davri (14-17) va kech o‘smirlik davri (18-21). O‘smirlik davrini bosqichlarga bo‘lishda bolalarda kechayotgan fiziologik, psixologik va ijtimoiy o‘zgarishlar inobatga olingan. L.F. Obuxovaning fikriga ko‘ra “Bugungi kunda dunyoning rivojlangan davlatlarida umrning mazkur davri doimiy kattalashib bormoqda. Oxirgi ma’lumotlarga qaraganda o‘smirlik davri o‘n yillikni – 11-20 yosh

oralig‘ini qamrab oladi”. Yana boshqa manbalarda 11-14 yosh oralig‘i o‘smirlik davri, 15-18 yosh erta o‘spirinlik davri hamda 18-23 yosh oralig‘i o‘spirinlik davri sifatida talqin qilinadi. O‘smirlik davri yosh chegarasi sohalar bo‘yicha ham farqlanadi. Masalan, rus psixiatriyasida 14-18 yoshdagi bolalar o‘smir hisoblansa, psixologiyada 16 yoshdan o‘spirinlik davri boshlanadi [10]. O‘zbek psixologik manbalarida mazkur davr quyidagicha davrlashtirilgan: “O‘smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo‘lgan davrni tashkil etadi. Akseleratsiya munosabati bilan o‘spirinlik yoshining chegarasi endi 15-16 dan 23 yoshgacha bo‘lmoqda. Bunda ilk o‘spirinlik 15-18 yosh, o‘spirinlik 18-23 yoshdagi yigit va qizlarni o‘z ichiga oladi”. Bundan tashqari, 10 yoshli bola o‘smirlik davriga o‘tish uchun yoshlik qiladi. Aksariyat bolalarda bu holat 11-12 yoshdan boshlab kuzatila boshlaydi. Yuqoridagilarni inobatga olib, bolalarda o‘smirlik davrida namoyon bo‘ladigan fiziologik, psixologik va ijtimoiy o‘zgarishlar, asosan, 11-15 yosh atrofida sodir bo‘ladi, deb hisoblash mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunosligida og‘zaki nutqni o‘rganish borasida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, o‘smirlar nutqining tadqiqi nutq ontogenezi, bolalar nutqi va kattalar nutqining o‘rganilishiga nisbatan kamchilikni tashkil etadi. Dunyo tilshunosligida o‘smir yoshdagi bolalar tili V. Farantouri, A. Potamianos, Sh. Narayanan, S.N. Ayusheyeva, I.A. Mata va boshqalar, Y.S. Klimetslarning ishlarida lingvistik, Y.N. Guts, S. Goydova, Y.Y. Matyushenko, A.V. Kosenko, N.A. Kudinova, Z. Fagyal, R. Oxbury va boshqalar ishlarida sotsiolingvistik, R.T. Neipelt, N.V. Jiginas, M.M. Aksyonov ishlarida psixolingvistik, V. Polyakov va boshqalar ishida neyrolingvistik yondashuv asosida tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada qiyosiy tahlil, klassifikatsion, analiz va struktural tahlil metodlaridan foydalanildi.

O‘smirlik davrida og‘zaki nutq turli tashqi ta’sirlar natijasida o‘zgarishlarga uchraydi. Bunday o‘zgarishlarni til sathlarining barcha qatlamlarida kuzatish mumkin. Bola nutqiga maqsadli ta’sir o‘tkazish natijasida uning og‘zaki nutq ko‘nikmasini rivojlantirish pedagogikaning asosiy maqsadlaridan hisoblanadi. O‘smirlarda og‘zaki nutq ko‘nikmasini shakllantirish, rivojlantirish alohida yondashuvni talab qiladi. Y.P. Suvorova o‘smirlar nutqini rivojlantirishdagi sa’y-harakatlar ikkita yo‘nalishga (turli shakl va uslubdagi nutqni qabul qilish va mustaqil nutq yaratish) taalluqli ekanligiga urg‘u beradi. Ya’ni bola birinchi navbatda atrofdan eshitgan ma’lumotini tahlil qila olishi, keyin esa to‘plagan bilim va ko‘nikmasi asosida mustaqil nutq hosil qila olishi lozim. Shu sababli ham muallif nutqni rivojlantirishga yechim sifatida turli fanlarda amal qiladigan nutqni rivojlantiruvchi maxsus o‘quv dasturini yaratishni taklif qiladi. Braziliya tibbiyot instituti tadqiqotchisi M.L. Torres va uning hamkasblari esa muloqot treninglarining o‘smirlarda og‘zaki nutq jarayonida aniq ma’lumot yetkazish, eshitish, tanqidiy fikr bildirish va uni qabul qilish, hissiyotlarni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir etishini isbotlashdi.

O‘smirlar jamiyatning bir qismi bo‘lgani bilan, ular bir qancha jihatlarga ko‘ra jamiyatning boshqa a’zolaridan farqlanib turadi. Eng ko‘zga tashlanadigan jihat sifatida o‘smirlarning tilini misol keltirish mumkin. Shu sababli ham o‘smirlar tilini, og‘zaki va yozma nutqini o‘rganish tilshunos olimlar uchun ahamiyatli bo‘lib qolmoqda.

S. Goydova zamonaviy rus yoshlari nutqidagi jargonlarni XX asr oxiri XXI asr boshidagi badiiy va publitsistik adabiyot, ommaviy axborot vositalaridagi o‘smirlarning jargonlashgan nutqiga qiyosan o‘rganadi. Tadqiqot ishida jargonlar tizimli ravishda tartiblashtirilgan, ularning semantik va so‘z yasalish xususiyatlari ochib berilgan. Muallif o‘smirlar nutqida uchrovchi leksik birliklar, odatda, metafora va metonimiya asosida ma’no ko‘chishi natijasida hosil qilinganini qayd etadi [10]. Ya’ni nutqiy innovatsiyalar tubdan yangi bo‘lmaydi, balki so‘zlovchi leksikonida oldindan mavjud bo‘lgan birliklar asosiga quriladi. M.Qurbonova ham bolalar nutqidagi hech bir yangi so‘z mutlaq original emasligini, bola tomonidan kashf qilingan har bir yangi so‘z ona tilida faol qo‘llaniluvchi lug‘aviy birliklarning o‘zlashtirilishi kabi uning leksikonida tayyor holda mavjud bo‘lgan fenomenologik namuna asosida hosil qilinishini ta’kidlaydi. S.V. Mamayeva 5-7-sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqining fonetik, morfemik, morfologik va sintaktik sathlari tadqiq qiladi. Shu bilan birga o‘smirlar submadaniyati va uning vujudga kelish shartlari, submadaniyatga asos bo‘luvchi omillar haqida fikr yuritiladi [14]. N.V. Aniskina tadqiqotida yuqori sinf yoshida lisoniy shaxs rivojlanishining o‘ziga xosligi, nutqiy va til refleksiyasi, maktab slengi, zamonaviy o‘quvchilar lisoniy shaxsining pragmatik darajasi, lisoniy shaxsning tipologiyasi, qizlar va o‘g‘il bolalarning nutqiy portreti xususida o‘z qarashlarini ifoda etadi. Muallifning fikricha, “o‘smirlik

davrida ijtimoiylashuv jarayonlarining kuchayishi, birinchi navbatda, asosiy yo‘nalishning o‘zgarishiga olib keladi: endi bola uchun me’yor tengdoshlarining nutqi hisoblanadi. Ikkinchidan, buning natijasida kattalar, avvalo, ota-onalarning nutq xatti-harakatlarini qayta baholash boshlanadi” [2; 35]. Mana shu ikki jarayon alohida o‘smirlar lug‘at zaxirasining shakllanishiga va nutqlari kattalar nutqidan tubdan farqlanishiga olib keladi. I. Baresova va H. Zaviszovalarning tadqiqot ishida yapon o‘smirlarining so‘z yasash jarayonidagi ijodkorlik va innovatsiyalar, masalan, so‘z hosil qilish, so‘zlarni ulash, qisqartishish, derivatsiya, neologizmlar va Xitoy iyerogliflaridan foydalanishlar hamda bunday nutqiy innovatsiyalar yoshlarning kommunikativ ehtiyojlarini qay darajada qondirishi haqida fikr yuritilgan. Olimlarning fikricha, qisqartirish va so‘zlarni bir-biriga ulash kabilardan foydalanish yoshlarga o‘zaro ta’sir etishni tezlashtirish va aloqa samaradorligini oshirishga imkon beradi. Shu bilan birga, ushbu jarayon yordamida ichki guruhga kirmaydigan shaxslar uchun cheklangan darajada tushuniladigan so‘zlarni shakllantirish mumkin [11; 157-170]. O‘smirlarning o‘ziga xos lisonining shakllanishi har doim ham kattalar tomonidan ochiqlik bilan qarshi olinmaydi. R.Drummond bunday vaziyat haqida to‘xtalib, yoshlar tili ommaviy axborot vositalari vakillari va jamoatchilik tomonidan juda salbiy kutib olinishini ta’kidlaydi. Muallif tadqiqotida o‘smirlar (14-16 yoshli o‘quvchilar) nutqini lingvistik va etnolingvistik yondashuv asosida o‘rganib chiqadi [4; 640-660]. Demak, kichik yoshli bolalarda ham, o‘smirlarda ham yangi so‘z eski birliklar tarkibiy qismlaridan foydalanish natijasida yuzaga keladi. R. Oxbury, M. Hunt va J. Cheshirelar o‘smirlar orasida ommalashgan “qasam ichish” ma’nosini beruvchi so‘zlarning variantlari va ularning qo‘llanish vaziyatlarini o‘rganishgan.

Natijalar va muhokama. O‘smirlar leksikonining kattalar nutqi bilan leksik, sintaktik, morfologik hamda fonetik jihatdan tafovuti ular uchun maxsus til korpusini yaratishni taqozo qiladi. Kompyuter lingvistikasi rivojlangan ko‘plab davlatlarda bunday korpus yaratilgan. Kadri Koreinik va uning jamoasi tomonidan yaratilgan til korpusida 9-18 yoshli o‘smirlarning 97 soatli nutqi va 60 mingta so‘zli matnlar jamlanmasi mavjud [12]. I.A.Mata boshchiligidagi bir guruh olimlar ham Yevropa partugal tilida maktab kontekstidagi o‘smirlar va kattalar nutqidan iborat korpus (CPE-FACES) yaratishdi. Mualliflarning fikriga ko‘ra, bunday korpus yaratishdan maqsad spontan va oldindan tayyorlangan og‘zaki nutqlar tadqiqi uchun yetarlicha manba hosil qilishdir. Jumladan, London o‘smirlari til korpusi, Totonto o‘smirlari korpusi (Toronto teen corpus), Ispan yoshlari til korpusi (Corpus Oral de Lenguaje Adolescente, Turk yoshlari tili korpusi[6] ko‘plab tadqiqotlar uchun manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu kabi korpuslar zamonaviy yoshlarning tilini keng ko‘lamda o‘rganish imkonini beradi. O‘zbek tili doirasida esa bunday korpusning mavjud emasligi bugungi kunda o‘smir yoshdagi bolalar og‘zaki nutqini o‘rganishni qiyinlashtirmoqda.

O‘smirlar va kattalar nutqi o‘rtasidagi farq faqatgina so‘zlar bilan o‘lchanmaydi. Ohang, pauza, ustsegment birliklar bunda alohida o‘rin tutadi. V. Farantouri va uning hamkasblari tomonidan 8-14 yoshli bolalarning kompyuter-odam tipidagi dialogik nutqi davomiylik, leksik va lingvistik aspektlarda o‘rganilgan. Bir guruh venger olimlari tomonidan bolalar, yoshlar va kattalar og‘zaki nutqidagi to‘ldirilgan pauzalarga yosh kategoriyasining ta’siri o‘rganilgan [8] bo‘lsa, Zsuzsanna Fagyal [7] hamda A. Mata va bir guruh tilshunoslar [15] o‘smirlar nutqidagi ohang ustida ish olib borishgan. I.A. Mata boshchiligidagi olimlar Yevropa portugal o‘smirlari va o‘spirinlarining oldindan tayyorlangan va spontan nutqlari intonatsiyasidagi stilistik variatsiyani o‘rganishgan bo‘lsa, Z.Fagyal tinglovchilarning mavjudligi, ularning so‘zlovchi nutqi jarayonidagi ishtiroki, tinglovchilarning ko‘pmillatliligiga qarab intonatsiyaning farqlanishi ustida tadqiqot o‘tkazgan.

Xulosa va takliflar. XXI asrda o‘zbek tilshunosligida og‘zaki nutqni antropotsentrik aspektda o‘rganishga bo‘lgan qiziqish oshgan bo‘lsa-da, o‘smirlar nutqini o‘rganish hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Jumladan, M. Qurbonova, N. Suyunova, I. Bekmuradova [3], M. Ahmadjonova [1] kabi tilshunoslar ishlarida o‘smirlar nutqi qisman tadqiq qilingan. M.Qurbonova 12-13 yoshli bolalarda intellektual-psixologik test o‘tkazish natijasida ikkinchi tilning lug‘at tizimini o‘zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarga aniqlik kiritishga harakat qilgan. N. Suyunovaning o‘smirlar o‘rtasida o‘tkazgan tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, 11-16 yoshli bolalarning muloqot shakli, muloqot mavzusi, muloqot vositasi ham bir-biridan farqlanadi. O‘smir yoshli bolalar onlayn muloqotni ko‘proq afzal ko‘rishsa, katta yoshlilar

yuzma-yuz suhbatni afzal bilishadi. Bundan tashqari, o‘smirlar o‘rtasida tik-tok va instagram kabi ijtimoiy tarmoqlar ommabop bo‘lsa, kattalar uchun telegram ommabop ijtimoy tarmoq ekanligi isbotlangan. M. Ahmadjanova XX–XXI asr ingliz yoshlari tilini o‘rganar ekan, o‘smirlar va yoshlar nutqida faol qo‘llanuvchi slenglarni adabiy lug‘atga mansub bo‘lmagan, og‘zaki nutqqa aloqador bo‘lgan, emotsional konnotatsiyaga ega leksik fenomen sifatida tavsiflaydi [1; 50-51]. Ya’ni o‘smirlar og‘zaki nutqining asosini tashkil etuvchi leksik birliklar faol o‘zgaruvchan (shu sababli adabiy til lug‘atlariga kiritilmagan), so‘zlovchining emotsional ehtiyojini qondirish xususiyatiga egaligi bilan ajrlib turadi. I.Bekmuradova esa o‘z maqolasida o‘zbek tilshunosligida “sleng” tushunchasi, uning ishlatilish ko‘lami va o‘ziga xos xususiyatlariga to‘xtalib o‘tadi. O‘smirlar nutqining innovatsiyalarga boyligi, ma’lumotni yetkazish usulining farqlanishi tufayli ularning faol o‘zgarib borayotgan tilini antropotsentrik nuqtayi nazardan o‘rganish dolzarbligicha qolmoqda.

Ko‘rinib turibdiki, dunyo tilshunosligida o‘smirlar nutqining turli jihatlari tilshunoslikning ko‘plab antropotsentrik yo‘nalishlarida o‘rganilib kelinmoqda. Ayniqsa, o‘smirlar leksikasi, o‘smirlar tili korpusi, nutq intonatsiyasi keng qamrovli tadqiqot manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Chunki aynan mana shu jihatlar o‘smirlar nutqini boshqa shaxslar nutqidan farqlovchi asosiy belgilar hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida esa, yuqorida keltirib o‘tilganidek, o‘smirlar nutqida bilingvizm hodisasi va uning muammolari, o‘smirlar o‘rtasidagi muloqot shakllari va mavzulari, o‘smirlar nutqining psixolingvistik xususiyatlarining “onlayn-muloqot” da namoyon bo‘lishi hamda “sleng” tushunchasi mavzularida kichik izlanishlar olib borilgan. Dunyo tilshunosligida o‘smirlar og‘zaki nutqini antropotsentrik yondashuv asosida o‘rganish uning turli qirralarini, o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish imkonini berdi. Mazkur yondashuv asosida o‘zbek o‘smir bolalari og‘zaki nutqini o‘rganish dolzarb mavzu bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmadjanova M. Neologisms of the English youths slang in the XX-XXI centuries. Ученый XXI века №10(91), 2022. Pp: 50-51.
2. Аниськина А.В. Языковая личность современного старшеклассника. Дисс. … канд. филол. наук. – Ярославль, 2011.
3. Bekmuradova I. O‘zbek tilshunosligida “sleng” tushunchasining mohiyati// Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida. https://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences5/article/view/796
4. Drummond R. (Mis)interpreting urban youth language: white kids sounding black? // Journal of Youth studies, Volume 20, 2017. Pp: 640-660.
5. Дружинин В.Н. Психология. Санкт-Петербург: Питер, 2001. Сс: 172-173.
6. Efeoglu-Ozcan, Esranur. The corpus of turkish youth language (coty): The compilation and interactional dynamics of a spoken corpus, 2022. 10.17605/OSF.IO/EK4Z8.
7. Fagyal Z. Prosodic style-shifting in preadolescent peer-group interactions in a working class suburb of Paris. 2011. Https://www.researchgate.net/publication/300466441
8. Farantouri V, Potamianos A, Narayanan Sh. Linguistic analysis of spontaneous children speech. Conference: Proceedings of the Workshop on Child, Computer and Interaction. 2008. Https://www.researchgate.net/publication/229439039_Linguistic_analysis_of_spontaneous_children_speech
9. Фролова О.В. Особенности развития детей подросткового и юношеского возраста. Https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-razvitiya-detey-podrostkovogo-i-yunosheskogo-vozrasta/viewer
10. Гойдова С. Молодежный жаргон в системе современного национального (общенародного) языка.: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Москва, 2004. – 24 с.
11. Ivona B., Halina Z. Creativity and Innovation in Word Formation by Japanese Young People//Language use and linguistic structure: Vol 3. Pages: 157-170.
12. Kadri K. and etc. Outsourcing teenage language: a participatory approach for exploring speech and text messaging. Linguistic Vanguard. Https://doi.org/10.1515/lingvan-2021-0152
13. Мамаева С.В. Речевой портрет коллективной языковой личности школьников 5-7-х классов: Дисс. … канд. филол. наук. – Лесосибирск, 2007.
14. Mata I.A. and etc. Stylistic variation in the intonation of European Portuguese teenagers and adults: Approaches across linguistic subfields. Https://www.researchgate.net/publication/315027386
15. Mata I.A. and etc. Teenage and adult speech in school context building and processing a corpus of European Portuguese. https://www.researchgate.net/publication/263807815

ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA QO‘LLANGAN METAFORALARNING BADIIY-ESTETIK VAZIFALARI

Shodmonova Dildor
QarDU o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti
dildorshodmonova@mail.ru
0009-0007-1461-1899
UDK 821.512.133

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Oripov she’riyatida qo‘llangan metaforalarning badiiy-estetik vazifalari har tomonlama tahlil qilinadi. Shoir asarlarida metafora nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki poetik matnning semantik qatlamini boyituvchi, hissiy ta’sirchanlikni oshiruvchi muhim ifoda vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot davomida Oripov she’rlarida uchraydigan metaforalar turlari, ularning semantik xususiyatlari, obraz yaratishdagi o‘rni va poetik nutqning badiiy-estetik qimmatini oshirishdagi roli batafsil o‘rganiladi.Shuningdek, shoir metaforalarining o‘zbek adabiy an’analari bilan bog‘liqligi, xalq og‘zaki ijodidagi tasviriy vositalar bilan uzviy aloqadorligi hamda zamonaviy she’riyatdagi yangicha badiiy tendensiyalar bilan uyg‘unligi yoritiladi. Tadqiqotda Oripov ijodida metaforalarning nafaqat estetik bezak, balki chuqur falsafiy va ma’naviy mazmunni ifodalash vositasi sifatida ham namoyon bo‘lishi asoslab beriladi. Maqola natijasida shoirning poetik uslubi va uning badiiy tasviriy mahorati haqidagi ilmiy xulosalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Oripov, she’riyat, metafora, badiiy-estetik vazifa, poetik tasvir, semantik tahlil, obrazlilik, badiiy nutq, falsafiy mazmun.

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the artistic and aesthetic functions of metaphors used in the poetry of Abdulla Oripov. In the poet’s works, metaphors are not only a means of artistic expression but also an essential tool that enriches the semantic depth of the text and enhances its emotional impact. The study examines the types of metaphors found in Oripov’s poems, their semantic characteristics, their role in shaping poetic imagery, and their contribution to the artistic and aesthetic value of poetic discourse. Furthermore, the research explores the connection between Oripov’s metaphors and Uzbek literary traditions, their links to folk oral creativity, and their harmony with contemporary poetic trends. The study substantiates that in Oripov’s poetry, metaphors serve not only as decorative elements but also as a means of conveying profound philosophical and spiritual meanings. As a result, the article presents scholarly conclusions about the poet’s unique style and his mastery of artistic imagery.

Keywords: Abdulla Oripov, poetry, metaphor, artistic-aesthetic function, poetic imagery, semantic analysis, expressiveness, artistic speech, philosophical meaning.

Kirish. Abdulla Oripov she’riyati falsafiy mazmunning zalvorliligi, badiiy ifodalarning teran falsafiy mohiyat bilan favqulodda birlik hosil qilishi, o‘xshatishlarning originalligi, ezgulikning yovuzlikka ayovsiz munosabati asosiga qurilganligi bilan ajralib turadi. Shoirning falsafiy fikri hodisalarga teran munosabati va fikr yo‘sinining mantiqiyligi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Shoir she’rlarining kompozision yaxlitligini ta’minlashda, avvalo, tafakkur tarzining mantiqiyligi bo‘lsa, qolaversa, adibning badiiy-lisoniy farosati va didining tug‘ma yuksakligi, voqelikka zukko munosabati mushtarak holda muhim rol o‘ynaydi. So‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolarini matnning badiiy yaxlitligini ta’minlashga, o‘quvchining estetik kayfiyatiga ta’sir qildirishga bo‘ysundirish holati e’tiborlidir. Har qanday badiiy hodisa aslida verbal asoslidir. Shu ma’noda badiiy asarning poetik tahlilining ibtidosi lingvistik tahlil bo‘lmog‘i lozim. “Poeziyaning lingvistik tadqiqi quyidagi ikki sababga ko‘ra ham zarurdir. Bir tomondan, verbal belgilarning rang-barang birikmalari va funksiyalarini o‘rganish lozim bo‘lgan til haqidagi fanning har qanday kishi nutqiga bolaligidan kirib kelgan va diskurs qurilishda yetakchi rol o‘ynaydigan poetik funksiyani e’tiborsiz qoldirishga haqqi yo‘q. Poetik funksiya verbal belgilarga ifodalovchi va ifodalanmishning birligi sifatida introvertiv munosabatda bo‘lishni taqozo etadi va poetik tilning g‘oyat puxta bajarilgan lingvistik tahliliga muhtoj dominanta hamdir. ... Ikkinchi tomondan, poetika sohasidagi har qanday tadqiqotchidan til haqidagi fan bilan muayyan darajada tanish bo‘lish talab qilinadi, chunki poeziya – verbal san’at, binobarin, u, birinchi navbatda, tildan o‘ziga xos tarzda foydalanish usuliga asoslanadi” (1.)

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada lingvopoetik tahlil, semantik tahlil, strukturaviy yondashuv, she’riy kompozitsiyani o‘rganish kabi metodlar qo‘llangan. Shuningdek, poetik tahlil jarayonida metaforik ma’nolarni tahlil qilish va ularning lingvistik xususiyatlarini aniqlash muhimligi asoslangan.

Natija va muhokama. So‘zning lingvistik va badiiy xususiyatlari majmuasi bo‘lgan lingvopoetik xossasi yaxlitlikda tahlil qilingandagina uning substansial qiymatiga obyektiv baho berilgan, ontologik tabiati “xira”likdan xalos etilgan bo‘ladi. Bu so‘zlarning ma’noviy imkoniyatlarining, xoh to‘g‘ri, xoh ko‘chma ma’noda bo‘lsin, badiiy voqelanishida yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Abdulla Oripov she’riyatida qo‘llangan so‘zlarning ko‘chma ma’nolari shoir she’riyati lingvopoetik mohiyatini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. U, shoir uchun aslida ikkilamchi mohiyat kasb etuvchi badiiy san’atlarni hosil qilishda faol ishtirok etsa, ikkinchidan, matn yaxlitligi, uning izchil sistemaviyligi va “pishiq”ligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Buni shoirning quyidagi misralari misolida ochishga harakat qilamiz:

Yulduzlar **o‘tiga** bardosh berurman,
Fazolar **taftiga** qilurman toqat.
Yoningga sog‘-omon qaytib kelurman,
Otash nigohingda **yongali** faqat.
To‘lqinlar **qutursin** mayli, beomon,
Mening qismatimni ko‘molmagay u.
Baribir yoningga qaytaman omon,
Moviy ko‘zlaringga **cho‘mgali** mangu.
(Yulduzlar o‘tiga...)

Avvalo, she’r intim lirikaning go‘zal namunasi ekanligini ta’kidlash lozim. U har biri to‘rt misradan iborat bo‘lgan ikki banddan iborat. Misralarning har biri 11 bo‘g‘inli barmoq vaznida yozilgan bo‘lib, ikki turoqdan iborat: *Yulduzlar **o‘tiga** // bardosh berurman, Fazolar **taftiga** // qilurman toqat.* Bandning qofiyalanish tartibi a – b - a – b tarzida bo‘lib, juft qofiyalar mukammal va toq qofiyalardan biri “aybli”dir. Chunki unda qofiyani vujudga keltiruvchi tovush so‘zning grammatik shaklida: *berurman – kelurman.*

Birinchi bandda jami 13 ta so‘z ishtirok etgan bo‘lib, undan beshtasi ko‘chma ma’no ifodalagan bo‘lib, barchasi metaforik asosdadir.

Ikkinchi bandda 16 ta so‘z bo‘lib, undan 2 tasi ko‘chma ma’no ifodalagan.

Bu ko‘chma ma’nolar – so‘zning zohiriy qatlamida namoyon bo‘lgan hodisa. *O‘t, taft, otash* so‘zlari metaforik ko‘chma ma’no ifodalagan. Shoir ta’sirchanlikni oshirish maqsadida bu darajalanuvchi so‘zlardan tegishli misralarni bog‘lovchi vosita sifatida foydalanadi.

Parvona - oshiq timsoli. U o‘zini olovga uradi. Lirik qahramon uchun yorning otash nigohi badiiy mo‘ljal. U bunga o‘zini garovga qo‘ygan holda tayyorlaydi. Otash nigohda yonish niyati uni har qanday kuchli o‘t, kuydiruvchi taftdan sog‘-omon olib o‘tadi.

Shoir so‘zlarning ko‘chma ma’nosiga asoslangan lisoniy darajalanishga qat’iy rioya qilganda, uni *taft – o‘t – otash* ko‘rinishida bergan bo‘lur edi. Buning uchun *yulduz* va *fazo* so‘zi ham, unga muvofiq *esa bardosh bermoq* va *toqat qilmoq* fe’llari ham almashgan bo‘lar edi. Bu esa shoirning badiiy maqsadiga mo‘ljallangan ifodaning rangsizlashuviga olib kelar, badiiy matn mustahkamligiga putur yetar edi.

Misralardagi botiniy mazmunga e’tibor qilinsa, shoir *yulduzlar o‘ti* deganda o‘zga nigoh, *fazolar tafti* deganda o‘zga og‘ushni nazarda tutayotgandek. Chunki mantiqiy bog‘lanish shuni taqozo qiladi. Demak, shoir bu so‘zlar orqali badiiy obraz kashf etgan.

Matn, ko‘rinib turibdiki, ikki tarkibiy qismdan iborat. Birinchi ikki band ikkinchi bandga ziddiyatda turadi. Chunki unda oshiq istagiga zid holat bo‘lsa, ikkinchi bandda istak hukmron. Demak, “istak – noistak” zidligi badiiy konflikt uchun xizmat qilgan.

Ikkinchi bandda *quturmoq* so‘zining metaforik ma’nosi asosiga qurilgan birinchi misra to‘rtinchi misra bilan tazodiy bog‘lanish hosil qiladi: *To‘lqinlar **qutursin** mayli, beomon - Moviy ko‘zlaringga **cho‘mgali mangu**.* Chunki ***quturmoq*** so‘zining metaforik ma’nosi bilan ***cho‘mmoq*** so‘zining munosabatida qarshilantirish mavjud. *To‘lqin* so‘zi esa *ko‘z* so‘zi bilan uyg‘unlik kasb etgan. To‘lqin – raqib, ag‘yor timsoli. Demak, bunda matniy tazodning yorqin namunasi mavjud. Chunki *to‘lqin* va *ko‘z* so‘zlari matndan tashqarida qarama-qarshilik kasb etmaydi.

Bu bandda ham boshqa so‘zlar metaforik ko‘chma ma’noli so‘z atrofida uyushib, ikki mikrosistemani tashkil etgan. Ikkinchi bandning birinchi qo‘shmisrasida yuqoridagi bandda

bo‘lganidek, lirik qahramon istagiga zid va keyingi qo‘shmisrada uning istagi o‘z ifodasini topgan. Demak, bunda ham “istak – noistak” zidligi badiiy konflikt uchun xizmat qilgan. Ko‘rinadiki, har bir bandda bir mantiqiy zidlik mavjud bo‘lib, uni umumiy maxraj sifatida ham qabul qilish mumkin.

Misralardagi qarama-qarshi munosabat yaxlitligidan iborat mikromatn favqulodda badiiylikka ega bo‘lgan.

Ma’lum bo‘ladiki, misralarda ko‘chma ma’noli, xususan, metaforik ko‘chma ma’noli so‘zda ko‘pincha shoirning badiiy niyati hukmron bo‘lish bilan birga, ular bandlarda badiiy yaxlitlikni ham ta’minlashga va, shuningdek, o‘quvchining estetik kayfiyatini belgilashga, tuyg‘ularini boshqarishga xizmat qiladi.

Quyidagi mo‘jaz she’rda metaforik ko‘chma ma’noning badiiy- estetik xususiyati yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi:

— Nega meni sevmading?
*— Ko‘zginang **yulduz** uchun.*
—Nega meni demading?
*— Qoshginang **qunduz** uchun.*
***Yulduzi** yo‘qqa boqay,*
***Yulduzim** talosh bo‘lur.*
***Qunduzi** yo‘qqa boqay,*
***Qunduzim** talosh bo‘lur...*

Har biri 4 misrali 2 banddan iborat (ikki turoqli (7 bo‘g‘inli)) she’rda 2 ta so‘z *(yulduz, qunduz)* 6 marta metaforik ma’noli ko‘chma so‘z sifatida qo‘llangan.

Birinchi bandda metaforik ko‘chma ma’noda qo‘llangan *yulduz* so‘zi *qunduz* so‘ziga qofiyadosh qilingan. *Uchun* so‘zlari esa radif vazifasida. Ikkinchi bandning o‘ziga xosligi va ohangdorligi shundaki, bunda 5 ta so‘z ikki martadan takrorlanib, 10 so‘zli 4 misrani tashkil etgan.

Birinchi bandda qofiyadosh bo‘lgan *yulduz* va *qunduz* so‘zlari ikkinchi bandda misralar boshida takrorlanib, anaforik vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Metaforik ma’noli so‘zlar misralardagi so‘zlarni uyushtirish bilan birga, ohangdorlik markazida turadi. Chunki birinchi banddagi toq misralardagi ohangdoshlik haqida gapirmasa ham bo‘ladi. Ularda qofiyalanayotgan so‘zdagi ikkinchi tovushlar *(e)* qofiyani vujudga keltirmoqda. Bu musiqiylikning yuqori namunasi. Juft misralarda *yulduz* va *qunduz* so‘zlarining musiqiylikka ta’siri kuchli. *Ko‘zginang* so‘zidagi z tovushi yulduz so‘zidagi z tovushi bilan hamohanglik kasb etgan, *yulduz*dagi ikki *u* tovushi esa uchun so‘zidagi *u tovushlari bilan hamohang.*

To‘rtinchi misradagi *qoshginang* so‘zidagi *q* tovushi *qunduz* so‘zidagi *q bilan uyg‘unlashsa, qunduz* so‘zidagi ikki u tovushi uchun ko‘makchisidagi u tovushi bilan sifat va miqdor jihatidan mosdir.

Ikkinchi bandda musiqiylik, mantiqiylik va badiiylik yuqori darajaga erishadi. *Y* tovushi har bir so‘zda mavjud. Birinchi so‘z *(yulduzi)* so‘zidagi *u* tovushiga ikkinchi so‘z *(yo‘qqa)* dagi *o‘* tovushi ergashadi, ikkinchi so‘z boshidagi *y* tovushiga oxirgi so‘z so‘ngidagi *y* tovushi, ikkinchni so‘z markazidagi *q* tovushlari oxirgi so‘z markazida *q* tovushini “tortadi”. Bandning ikkinchi misrasida ohangdorlikning bir oz pasayishi kuzatiladi va bunda *yulduz* so‘zidagi *u* bo‘lur so‘zidagi *u* bilan muvofiq, xolos. Bandning uchinchi misrasidagi *q* tovushlari ohangning avj nuqtasi uchun vosita. Chunki 3 ta so‘zda q tovushi 4 marta takrorlangan. Uni mustahkamlovchi vosita *u* va *o‘* tovushlari. Ular misralarda 3 ta. Bu unlilar uyg‘unligiga ikkinchi so‘z boshidagi va uchinchi so‘z oxiridagi *y* tovushi ko‘makchi bo‘lgan. Ohangdorlik va musiqiylik shu darajada kuchliki, she’rni o‘qiyotgan o‘quvchi uni beixtiyor xirgoyi qilib yuborishi tabiiy. Bu ohangdorlik, mantiqiylik xalqona ruh bilan omixtalashib ketganligi bilan izohlanadi.

Xulosa. Metaforik ma’noli so‘zlar, avvalo, misralardagi boshqa so‘zlarni fonetik jihatdan bir-biriga moslashtirib, go‘zal musiqiylik vositasi bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, istiora san’atini hosil qilib, o‘quvchining estetik zavqini ta’minlagan. Ohangdorlik shakl sifatida mantiqiylikka putur yetkazmay, aksincha, matnning shakliy-

mazmuniy yaxlitligi uchun asos bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Якобсон Р. Поэтика масалалари: монография. Сўзбоши, таржима ва изоҳлар муаллифи – профессор И.Мирзаев. – Самарқанд: НС, 2005. – 25 b.
2. Oripov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent, 2000. – 396 b.
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 110 b.
4. Yo‘ldoshev M., Yadgarov Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2007. – 164 b.
5. Mamajonov A., Mahmudov U. Uslubiy vositalar. – Farg‘ona,1996.
6. Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. –Toshkent: O‘qituvchi. 1995. – 168 b.
7. Григорьев В.П. Поетика слова. –М.: Наука, 1979. – 343 с.
8. Новиков Л.А. Художественный текст и его анализ. –М.: Русский язык, 1988. – 258 с.
9. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi: monografiya. – Toshkent: Fan, 1990. – 176 b.
10. Mamajonov A., Mahmudov U. Uslubiy vositalar. – Farg‘ona,1996.

QASHQADARYO XALQ DOSTONLARIDAGI AN’ANAVIY TURG‘UN O‘XSHATISHLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Abatov Doston Ro‘zimurod o‘g‘li
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dostonabatov1997@gmail.com
ORCID 0009-0004-2553-6984
UDK 398.0(045)

Annotatsiya. Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida milliy madaniy boyligimiz hisoblangan xalq dostonlari tilining leksik-semantik, uslubiy, lingvofolkloristik, onomastik, grammatik xususiyatlarini o‘rganish borasida qator tadqiqotlar amalga oshirildi, bugungi kunda xalq dostonlari matnining lingvokulturologik tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlarga ham e’tibor kuchaymoqda. Mazkur maqolada qashqadaryolik baxshilar tomonidan ijro etilgan “Nurali va Semurg‘”, “Kelinoy yoki Norguloy”, “Jorxun maston” hamda “Turkman dahosi yoki Maxtumquli” kabi xalq dostonlari matnidagi ho‘kiz haydaganday, selday toshmoq, bo‘taday bo‘zlamoq, daryoday toshmoq, selday jo‘shmoq, qalam qosh, ajdarhoning ko‘ziday, kiyik ko‘z, quralay ko‘z, sunbul soch, quduqdan suv tortgandek, pishgan sholini qoqqanday, uloq itday uvullamoq, itday qopmoq, quturgan itday tashlanmoq kabi an’anaviy turg‘un o‘xshatishlarning lingvokulturologik xususiyatlari tahlilga tortilgan. Shuningdek, an’anaviy turg‘un o‘xshatishlar pretsedent nomlarni ham keltirib chiqarishi mumkin ekanligi tahlilga tortilgan dostonlar matnidan olingan Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Go‘ro‘g‘li, Avaz, Yozi, Zebo kabi misollar vositasida isbotlangan. Maqolaning xulosa qismida an’anaviy turg‘un o‘xshatishlarning o‘zi mansub bo‘lgan xalqning idrok tarzi hamda o‘ziga xos madaniy xususiyatlarini namoyon etuvchi lingvokulturologik vosita sifatida muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: xalq dostonlari, lingvokulturologiya, an’anaviy turg‘un o‘xshatish, o‘xshatish, milliylik, xalq madaniyati.

Abstract. In recent years, a number of studies have been conducted in Uzbek linguistics to study the lexical-semantic, stylistic, linguistic-folkloristic, onomastic, and grammatical features of the language of folk epics, which are considered our national cultural wealth. In this article, "Nurali and Semurg," "Kelinoy or Norguloy," "Jorkhun Maston," and "Turkman Dakhosi or Makhtumkuli" folk epics, performed by Kashkadarya Bakhshis, expressions such as driving an ox, overflowing like a bush, overflowing like a river, overflowing like a flood, pencil eyebrow, dragon's eye, deer's eye, curly hair, drawing water from a well, knocking over cooked rice, howling like a goat dog, barking like a dog, and throwing away like a rabid dog have been analyzed. Also, it is proven that traditional fixed similes can also give rise to precedent names through examples such as Farhad, Shirin, Layli, Majnun, Gorogli, Avaz, Yozi, and Zebo taken from the analyzed epics. In the concluding part of the article, it is shown that traditional fixed similes are important as a linguistic and cultural tool that reflects the perception and specific cultural characteristics of the people to whom it belongs.

Key words: folk epics, linguocultural studies, traditional simile, simile, nationality, folk culture.

Kirish. Keyingi yillarda xalq dostonlari tilining lug‘aviy-ma’noviy, morfologik, sintaktik, uslubiy-statistik, lingvofolkloristik xususiyatlarini o‘rganish borasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa ham, Qashqadaryo xalq dostonlarining lingvokulturologik xususiyatlari maxsus tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmagan, shu bois

ham Qashqadaryo xalq dostonlaridagi an'anaviy turg'un o'xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etish dolzarb vazifalardan sanaladi. **"**Ikki obyekt o'rtasidagi o'xshashlik mazmunini ifodalovchi, til egalari lisoniy xotirasida ma'lum bir qoliplar shaklida saqlanadigan konnotativ turg'un birikmalar turg'un o'xshatishlar sifatida ta'riflangan" [1, 20]. Qashqadaryolik baxshilar tomonidan ijro qilingan "Nurali va Semurg'", "Kelinoy yoki Norguloy", "Jorxun maston", "Turkman dahosi yoki Maxtumquli" kabi xalq dostonlarida ham bunday o'xshatishlarning faol qo'llanishi o'ziga xos sababga ega, chunki bunday o'xshatishlar xalq turmish tarzi, urf-odatlari, marosimlari, qarashlari, bir so'z bilan aytganda, xalq madaniyatini o'zida saqlaganligi uchun milliylik kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, chog'ishtirish, lingvofolkloristik, ligvokulturologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari va muhokama. D.Ashurovning "Alpomish" dostonining lingvokulturologik xususiyatlari tadqiqiga bag'ishlangan dissertatsiyasida ta'kidlanishicha, turg'unlashgan o'xshatishlar tarkibidagi so'zlar bir-biriga shunday birikkan bo'ladiki, ularning o'rnida boshqasini qo'llab bo'lmaydi. Masalan, *egarlangan otday, tuman qoplaganday, yer ko'chganday, gurzi tushganday, ot boshiday, kulbar ilonday, och bo'riday, oy yuzli, onasidan ayrilgan chaqaloqday, mulla mingan eshakday, ho'kiz haydaganday, selday toshmoq, ko'chkiday bosmoq, bo'taday bo'zlamoq* kabi turg'un o'xshatishlarni boshqa so'zlar bilan almashtirilsa, ma'no yo'qoladi. *Bo'taday bo'zlamoq* – ho'kizday / buzoqday / toychoqday / otday / buzoqday bo'zlamoq kabi.

Turg'un o'xshatishlar tarkibidagi ho'kiz, tuya, bo'ta, nor, echki, ot, qo'y, qo'zi leksemalarining qo'llanishi xalq hayotida chorvachilik muhim ahamiyat kasb etganini; lochin, shunqor, bo'ri, kiyik, ohu, qulon, ayiq, tulki, burgut, yo'lbars, sher kabi leksemalarning qo'llanishi esa ovchilik bilan shug'ullanganini ko'rsatadi.

Qadimda cho'l hududida yashovchi ko'chmanchi chorvador xalqlarning ijtimoiy hayotida tuyalar alohida o'ringa ega bo'lib, chidamliligi, baquvvatligi, mehnatkashligi hamda qaysarligini ifodalovchi o'xshatishlar vujudga kelgan. Xalq dostonlarida baquvvat, mushohadali hamda sabr-u bardoshli yigitlar tuyaga qiyoslangan: *Go'ro'g'li Soqidan bu gaplarni eshitib, chakmonini yelkasiga yelbagay taylab, Nuralining kelar yo'lini poylab turbedi, otning tuyoq tovushi eshitildi. Qarasa, G'irotga tirday bo'lib, har yelkasi qirday bo'lib, chilladagi norday bo'lib, belining quvvati, davrining novvoti, ko'zining nuri, mulkining sururi, yuragining g'ururi Nurali kelayotir [9, 21].*

"Nurali va Semurg'", "Kelinoy yoki Norguloy", "Jorxun maston", "Turkman dahosi yoki Maxtumquli" kabi xalq dostonlari matnida qahramonlarning ruhiy holatini bo'rttirib tasvirlash maqsadida *"bo'taday bo'zlab"* turg'un o'xshatishidan foydalanilgan. Bo'ta – tuyaning bir yoshgacha bo'lgan bolasi, bo'taloq [2, 420]. Bu so'z vositasida o'xshatishlarning vujudga kelishida ham, shubhasiz, xalqning kundalik mashg'uloti turtki bo'lgan. Voha hududlarida yosh bolalarni bo'taloqqa qiyos qilib, erkalatib "bo'talog'im" tarzida foydalaniladi, biroq biz tadqiq qilayotgan dostonlar matnida bunday shakl uchramagan bo'lsa-da, *"bo'taday bo'zlamoq"* turg'un o'xshatishi ko'p o'rinda qo'llangan. Masalan, "Nurali va Semurg'" dostonida *"bo'taday bo'zlamoq"* turg'un o'xshatishi Nurali, Qubbonoy va Semurg' nutqida uchraydi. *Bo'taday bo'lib bo'zlayman, // Oting ustida xezlayman, // Dushmanni ko'rsam tuzlayman, // Yetti yoshimdan bermagan, // El-u xalqimni izlayman [9, 33]; Momojon, senga so'zlayin, // Yurak-bag'rini tuzlayin, // Bo'taday bo'lib bo'zlayin, // Menga bersinda muhlatni, // Yana bir yorim izlayin [9, 116]; Topsam deydi-da xezlaydi, // Har bir qorani ko'zlaydi, // Yurak-bovrini tuzlaydi, // Egasin qarab izlaydi, // Chirqirab shahar ustida, // Bo'taday bo'lib bo'zlaydi [9, 84].*

"Kelinoy yoki Norguloy", "Jorxun maston", "Turkman dahosi yoki Maxtumquli" dostonlarida ham *"bo'taday bo'zlamoq"* turg'un o'xshatishi uchradi. "*Do'mbiram borku-ya, lekin chertaman deb belini sindirib qo'ymasang", – deb, Ergash do'mbirani So'ltoqqa uzatdi. So'ltoq sozini sozlab, Norgulni ko'zlab, bo'taday bo'zlab, Norgulni ta'riflab bir so'z dedi [11, 20]; Avaz Soqidan duoni olib, G'irni silab-siypab qoldirib, yakka o'zi bo'tasidan ayrilgan nor tuyaday bo'zlab, Majnunni xezlab, aravaning izini olib, tov terakday irg'alib, so'ragani odam yo'q, ko'ringan giyodan Nurali so'rab ketdi [10, 82]; Sovuq kelsa, suvning beti muzlaydi, //*

Chorva odam qish qo‘nishni sozlaydi, // Yig‘lama, deb ingranadi Qulmamat, // Qizi esa bo‘tadayin bo‘zlaydi [12, 184].

Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan dostonlar matnida *“daryoday toshmoq”, “selday toshmoq”, “selday jo‘shmoq”* kabi turg‘un o‘xshatishdan foydalanilganligi xalq ongida suv bilan bog‘liq *“toshmoq”, “qaytarib bo‘lmaslik”, “ofat soluvchi”, “shoshib yuruvchi”, “tezkor”, “undiruvchi”, “vayron qiluvchi”* kabi tushunchalar mavjudligiga ishora qiladi: *Xalq misoli zo‘r daryo, // Oqsa, toshib ketadi, // Yaxshiga nurli ziyo, // Kun nuridan o‘tadi [12, 227]; Yotib-yotib kuch olar, // Dushmanidan o‘ch olar, // O‘chni doim kech olar, // Selday jo‘shib ketadi [12, 229]; Bu olamonni ko‘rgan shahar dorbozabonlari “Yov bosib keldima?” – deb darvozalarni taqa-taq yopdi. Oqibatni bilgan Ahmad mirzo: “Hay, darbozani ochinglar, Maxtumqulini ushlab, elning ko‘zini yoshlab kelayotirmiz”, – deb baqirdi. Darbozabonlar Ahmad mirzoning uch kun oldin ketganini bilar edi, shu sababli darbozaning ikki tabaqasini ham lang ochdi, sel kabi yopirilib kelayotgan olamonni ko‘rib nari qochdi [12, 231-232]; Ostida dal G‘irot, // Daryoday toshib boradi. // Ustidagi Nurxonbek, // Dengizday jo‘shib boradi [9, 26].*

Sharqda qoshni hilol, oy, qaldirg‘och, ip, kamalak, kamon, yoy kabi chiroyli o‘xshatishlar bilan tasvirlashgan. Biz tadqiq etayotgan Qashqadaryo xalq dostonlarida esa yorning qoshi *“qalam qosh”* turg‘un o‘xshatishi orqali tasvirlanadi. “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”da qalamday o‘xshatishining *ingicha, bejirim* ma’nolari berilgan [3, 287]. *Ko‘rdi Qubbon qalam qoshni, // Izzat qilib ikki yoshni, // Mehmon oldiga tashladi, // Par solingan lo‘la boshni [9, 76]; Meni so‘rgan qari-yoshlar, xush endi, // Meni ko‘rgan tov-u toshlar, xush endi, // Tol boshida turgan qushlar, xush endi, // Hammangizga birday bo‘lib cheshildim, // Menman yurgan qalam qoshlar, xush endi [9, 100).*

Mumtoz adabiyotimizda yorning tashqi go‘zalligi uning bo‘yi, beli, ko‘zi, yuzi hamda sochiga qarab belgilangan, shu bois ham xalq dostonlarida sochga nisbatan *“sunbul soch”* turg‘un o‘xshatishi faol qo‘llangan. Lingvistik lug‘atda sunbul so‘zi quyidagicha izohlangan: “Piyozgullilar oilasiga mansub, lola bargiga o‘xshash uzun bargli o‘tsimon manzarali o‘simlik va uning g‘uj bo‘lib ochiladigan xushbo‘y, chiroyli guli” [4, 759]. *Toshrabotga qaray-qaray, // Sunbul sochin taray-taray, // karvonlardan so‘ray-so‘ray, // Menglixol so‘ldi shoirim [12, 129]; Sunbul sochlar taralib, // O‘rimi belga buralib, // Immo nimchaga tiralib, // Immoli qizlar keladi, // Dummali qizlar keladi [9, 8].*

Biz o‘rganayotgan Qashqadaryo xalq dostonlari matnida *“ko‘z”* leksemasi bilan bog‘liq *“ajdarhoning ko‘ziday”, “kiyik ko‘z”, “quralay ko‘z”* kabi turg‘un o‘xshatishlar uchradi.

Shuncha nozlarning ichida, // Bormikan sencha kiyik ko‘z, // Mingta qizlarning ichida, //Bormikan encha shirin so‘z [11, 50].

Qosh-qabog‘i suzilib, // Turnadayin tizilib, // Ko‘rganning ko‘ngli buzilib, // Shirali so‘zlar keladi, // Quralay ko‘zlar keladi. Mazkur parchada ko‘z quralay, ya’ni kiyik yoki ohu yosh bolasining ko‘ziga o‘xshatilgan. Albatta, bu turg‘un o‘xshatishning vujudga kelishining o‘ziga xos sabablari bo‘lib, ulardan biri qadimdanoq ajdodlarimizning ovchilik bilan shug‘ullanganligi hisoblanadi. Demak, bu o‘xshatishda ko‘zning *“go‘zal”, “o‘ziga rom qiladigan”, “maftunkor”, “jozibali”* kabi semalari ifodalangan.

O‘zbek milliy madaniyatida ko‘z botirlik, qo‘rqoqlik, sir saqlash, fosh etish, g‘azab, sevgi, nafrat, uyat, hayrat singari ko‘plab ramziy ma’nolarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. “Jorxun maston” dostonidan olingan quyidagi parchada *“ajdarhoning ko‘ziday”* turg‘un o‘xshatishi vositasida qahramonning g‘azablangan holati bo‘rttirib tasvirlangan. *Muritining qaytishi, // Isfaxonning tig‘iday, // Bo‘riday bo‘b tiklashi, // Ajdarhoning ko‘ziday [10, 84].*

Tadqiq qilinayotgan xalq dostonlari matnida aholining shug‘ullanadigan kunlik mashg‘ulotlari bilan bo‘g‘liq *“quduqdan suv tortgandek” (KN), “pishgan sholini qoqqanday” (NS), “ho‘kiz haydaganday” (M)* kabi turg‘un o‘xshatishlar ham uchradi. *Ergash turib: “Oshiq bo‘lib qoldimmi emas, oshiq bo‘lib qolibsiz. Yo‘lda kelayotganda ham xiyli aytdingiz, ba’zilari oldingi qo‘shig‘ingizga o‘xshasa ham, ko‘plari o‘xshamaydi. Sizning qo‘shig‘ingiz quduqdan suv tortganday bo‘lib kelayotir. Hoy yigitlar, So‘ltoq akam birgina qo‘shiqchi*

emas, tayoqchil ham. Sherdanning qirq cho‘ponini bir o‘zi tayoq bilan urib yiqitib, Sherdan boyni ikkinchi birovning molini olmasday qildi”, – dedi [11, 54]; *Ingranadi dushmanlar, // Ilon-chayon chaqqanday, // Govdirab kalla to‘kilar, // Pishgan sholini qoqqanday, // Qilichdan qon tomchilar, // Qirmizi munchoq taqqanday [9, 154]; Bu gap Ahmad mirzoga rosa botgan ekan, suyagiga yetgan ekan, yurak-bag‘rini teshib o‘tgan ekan, tutqanog‘i tutib yotgan ekan. “Hayda!” – deb buyurib yubordi. Shu payt jallodlar galagovning ustiga ho‘kiz haydaganday qilib, Matam mullani otning orasiga olib, qamchiga tutaverdi, qamchi sim botganday botaverdi... [12, 224]*.

“Kelinoy yoki Norguloy”, “Jorxun maston”, “Turkman dahosi yoki Maxtumquli” dostonlarida it obrazi bilan bog‘liq o‘xshatishlar ham mavjud. Quyidagi misollar orqali it so‘zi qatnashgan o‘xshatishlarning ma’no semalarini ko‘rib chiqamiz: *Otning yoli shuvullaydi, // To‘rt tuyog‘i guvullaydi. // Jafar boshli yasovullar, // Uloq itday uvullaydi [12, 25]; Matam mulla chopadi, // Chopib nima topadi? // Yetib kelsa Jafarga, // Uloq itday qopadi [12, 34]*. Xalqimiz milliy madaniyatida it eng sadoqatli va vafodor hayvonlardan biri sifatida qadrlanadi, shu boisdan insonlarga xos bo‘lgan qator ijobiy va ba’zi salbiy xususiyatlar it so‘zi bilan bog‘liq turg‘un o‘xshatishlarda o‘z aksini topadi. Yuqoridagi misollarda keltirilgan *“uloq itday uvullamoq”, “itday qopmoq”* turg‘un o‘xshatishlarida esa yomon odamning fe’l-atvori ifodalangan.

Oyuvquloq singan joyin boylaydi, // Mertigingni mahkam qilib taylaydi, // Izzatingni bilmabsan-da, ey jallod, // Endi xalqim seni itday haydaydi [12, 225]. Parchadagi *itdek haydamoq* turg‘un o‘xshatishi *“ayanchli”, “juda yomon”* ma’nolarini bildirib kelgan.

Oyim o‘zi xutday bo‘p, // Ko‘ngillari xitday bo‘lip, // Badanining oqligi, // Yangi sovg‘an sutday bo‘p. // Ko‘kragining tuymasi, // Endi pishgan tutday bo‘p, // Nuraliga yuzlandi, // Quturayotgan itday bo‘p. // Ana kelar Gulpari, // Qirqin qizdan ilgari [9, 13]. Mazkur parchada *“quturayotgan itday”* turg‘un o‘xshatishi vositasida doston qahramonining o‘ta salbiy xarekterga ega ekanligi ta’kidlanib, tashqi go‘zallik va ichki xarakter o‘zaro zidlangan.

Hayda, deyishib boradi, // Quturgan itday irillab, // Yigitga zulm jo‘nadi, // Zulmmas o‘lim jo‘nadi [11, 80]. Parchada *“quturgan itday”* turg‘un o‘xshatishi asosida qahramonlarning vahshiyligi, shafqatsizligi itga xos bo‘lgan *“talash”, “tishlash”, “bo‘g‘izlash”* kabi holatlarga o‘xshatilgan.

Turg‘un o‘xshatishlar pretsedent nomlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, “Kelinoy yoki Norguloy” dostoni qahramoni Rahmatning mard, qo‘rqmas, botirligi Alpomishga, sevgan yorini olib kelish uchun minib borgan otini esa Alpomishning afsonaviy oti Boychiborga o‘xshatish orqali pretsedent birliklar hosil qilingan. *Men Alpomish, sen Boychibor, // Ko‘ngilda qolmasin g‘ubor, // Qattiqroq yurgin jonivor, // Sanam yordan olay xabar, // Yurgin, dilbarga boraylik, // Taqsam tumorga boraylik [11, 83]*.

Quyidagi parchalarda esa tadqiq etilayotgan Qashqadaryo xalq dostonlari qahramonlari “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Yozi bilan Zebo” hamda “Go‘ro‘g‘li” dostonlaridagi *Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Go‘ro‘g‘li, Avaz, Yozi va Zebo* kabi qahramonlarga o‘xshatilgan. *Farhodday tog‘larni qazsam qararmi, // Majnunday cho‘llarni kezsam bo‘larmi. // Men kambag‘al, boy qizini berarmi, // Yor aylansam doira chalgan qo‘lingdan [11, 31]; Shirin bo‘lsam Farhodimsiz, // Kasal bo‘lsam voy-dodimsiz, // Mol-dunyodan bezdim naylay, // Muhabbatli faryodimsiz [12, 131]; Zebo bo‘ling men Yoziman, // Bahorman deng men kuziman, // Asalimsiz Menglixolim, // Qarang Majnunning o‘ziman [12, 131]; Go‘ro‘g‘liday shaylaning, // Ulug‘ hisga boylaning, // Mehnatga kuchni berib, // Avazxonday taylaning [12, 244]*.

Xulosa va takliflar. An’anaviy turg‘un o‘xshatishlar o‘zi mansub bo‘lgan xalqning idrok tarzi hamda o‘ziga xos madaniy xususiyatlarini namoyon etuvchi lingvokulturologik vosita sifatida katta ahamiyatga ega. Xalq dostonlari matnidagi an’anaviy, an’anaviy turg‘un va individual o‘xshatishlarning barcha madaniy va lisoniy qirralari hozirga qadar to‘liq o‘rganilmagan va ularni tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish hamda ularning qisqacha izohli lug‘atini yaratish kabilarni amalga oshirish tilshunoslar oldida turgan galdagi vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон Замин зиё, 2015. – Б. 20.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1–5-жилдлар. – Тошкент: «ЎзМЭ» Давлат илмий нашриёти, 1-жилд, 2006. – Б. 420.
3. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкетнт: Маънавият, 2013. – Б. 287.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Olti jildlik. To‘rtinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 759.
5. Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил): Филол. фан. док. (DSc) дис. – Тошкент, 2017. – Б. 22.
6. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий нигоҳ // Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – Б. 171.
7. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 95.
8. Ашуров Д.А. “Алпомиш” достонининг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. фалс. док. (PhD) дис. – Наманган, 2020. – Б. 57-58.
9. Қора бахши Умиров. Нурали ва Семурғ. – Қарши, 2016. – 160 б.
10. Қодир бахши Раҳимов. Жорхун мастон // www. Ziyouz. com кутубхонаси. – 112 б.
11. Қодир бахши Раҳимов. Келиной ёки Норгулой. – Қарши давлат университети нашриёти, 2011. – 101 б.
12. Qahhor baxshi Rahimov. Turkman dahosi yoki Maxtumquli. – Qarshi: Nasaf, 2022. – 254 b.

О НЕКОТОРЫХ ЭТНООЙКОНИМАХ, СВЯЗАННЫХ С НАЗВАНИЯМИ КИПЧАКСКИХ РОДОВ (на примере топонимов Наманганской области)

Неъматова Юлдуз Одилжановна
доктор философии по филологическим наукам (PhD)
Каршинский государственный университет
кафедры узбекского языка и литературы
yulduznematova7@gmail.com
ORCID 0009-0007-5334-4818
УДК 413.13(045)

Аннотация. Топонимы - целостные и относительно устойчивые языковые единицы, имеющие естественное или искусственное происхождение, существующие в настоящее время или в прошлом и называющие определенное местоположение. Поэтому топонимы, в частности, ойконимы – названия населенных пунктов: махаллей, сел, городов, поселков, - это языковая сокровищница, которая свидетельствует об истории, географии, природе, этнографии, этническом составе и образе жизни населения территории, которую они называют. Топонимы, в том числе ойконимы, как часть языковой лексики и продукт языка, также важны для изучения фонетических, лексических, грамматических особенностей национального языка, наречий и диалектов, характерных для регионов, в которых они используются.

По мнению учёных этимология является важной и сложной областью лингвистики. Важно изучить определить происхождение, историю, этимологические источники, этимон, то есть истинное значение топонимов, в том числе ойконимов, которые являются единицами языка. В статье использованы методы лингвистического описания, лексико-семантического, сравнительно-исторического, этимологического и ареального анализа.

Этноойконимы - названия населенных пунктов отражающие этнический состав населения, его родовую, племенную, национальную и народную принадлежность, – составляют большую группу в Наманганской области. Это памятники далекого исторического периода. Известно, что узбекский народ сложился из различных родов и племен. Соответственно, топонимы узбекского языка формировались на протяжении долгих лет в результате смешения наречий различных родов и племен. Следует отметить, что в настоящее время названия многих родов и племен узбекского народа забываются.

Ключевые слова: ойконим, исторические ойконимы, этнонимы, этимон, этимология, мотив, лексическая основа, род, племя, нация.

ON SOME ETHNO-OIKONYMS RELATED TO THE NAMES OF KIPCHAK CLANS (based on the example of toponyms in the Namangan region)

Annotation. Toponyms are integral and relatively stable linguistic units of natural or artificial origin that exist in the present or the past and denote a specific location. Therefore, toponyms, in particular,

oikonyms—the names of settlements, such as mahallas, villages, towns, and settlements—serve as a linguistic treasury that reflects the history, geography, nature, ethnography, ethnic composition, and way of life of the population in the territory they designate.

Toponyms, including oikonyms, as part of linguistic vocabulary and a product of language, are also important for studying the phonetic, lexical, and grammatical features of the national language, dialects, and regional vernaculars in which they are used.

According to scholars, etymology is an important and complex field of linguistics. It is essential to study and determine the origin, history, etymological sources, and etymon—the true meaning—of toponyms, including oikonyms, which are linguistic units. This article employs methods of linguistic description, lexical-semantic analysis, comparative-historical analysis, etymological analysis, and areal analysis.

Ethno-oikonyms—names of settlements that reflect the ethnic composition of the population, its clan, tribal, national, and folk affiliations—form a large group in the Namangan region. These are monuments of a distant historical period. It is known that the

Uzbek people were formed from various clans and tribes. Accordingly, the toponyms of the Uzbek language developed over many years as a result of the intermingling of dialects from different clans and tribes. It should be noted that today, the names of many clans and tribes of the Uzbek people are being forgotten.

Keywords: oikonym, historical oikonyms, ethnonyms, etymon, etymology, motivation, lexical base, clan, tribe, nation.

Введение. Топонимы, составляющие значительную часть собственных имен существительных, представляют собой уникальное языковое и культурное богатство, рассматриваемое в мировой лингвистике как «язык земли», созданный на протяжении многовековой истории народа. Они всегда были в центре внимания науки, так как являются богатым материалом для языкознания, истории, географии, археологии, этнографии, геологии. В настоящее время растет внимание к изучению топонимов, в том числе и ойконимов, в социолингвистическом, этнолингвистическом, психолингвистическом, прагмалингвистическом, антропоцентрическом, лингвокультурологическом аспектах.

Сфера топонимики в мировом языкознании - это научное направление, получившее развитие и совершенствование. На повестку дня поставлено изучение всех единиц топонимического характера, включая ойконимические единицы, которые сейчас быстро обогащаются и совершенствуются как количественно, так и качественно. Это дает богатую лингвистическую информацию об истории, географии, природе населенных пунктов (махаллей, сел, поселков и городов), этническом составе населения и других исторических и современных аспектах, основанных на новых лингвистических парадигмах. Историко-лингвистическое исследование ойконимов имеет как научное, так и практическое значение с точки зрения возможности изучения развития, формального и содержательного совершенствования языка и его ономастической системы.

Материалы и методы. В процессе нашего исследования мы использовали несколько методов. Одним из основных принципов научного анализа в любой науке является историзм. При анализе ойконимического материала принцип историзма приобретает первостепенное значение, так как в ойконимах находят свое отражение исторические корни народа, этнография, археология. Поэтому ойконимы исследуются также с точки зрения истории и этнографии.

Исторический подход к изучению ойконимов привел к широкому применению различных исторических, археологических и этнографических данных и свидетельств.

В применение лингво-исторического метода для изучения ономастических единиц большой вклад внесли такие русские и зарубежные ученые, как В. Георгиев, В. Ташицкий, С. Роспонд, Ф. Безглай, А.М. Селищев, Б.А. Серебренников, А.И. Попов, В.А. Никонов, В.Н. Топоров, О.Н. Трубачев, Ю.А. Карпенко.

При изучении ономастических единиц с исторической точки зрения используются следующие методы:

а) метод определения изменений ономастического материала от его исторического состояния к нынешнему виду (метод перспективного анализа);

б) определение процесса исторического развития ономастического материала от его нынешнего вида к историческому состоянию (метод ретроспективного анализа).

Конечно, это относится и к ойконимическому микромиру. Основная цель обоих направлений анализа - выявление процессов развития, изменения ойконимов. В первом типе анализа выявляется языковая история, эволюция ономастических единиц, в том числе названий махаллей, сел, городов, поселков, а во втором учитывается отражение духа эпохи в тех или иных ономастических единицах.

При исследовании ономастических единиц, в том числе ойконимов, на основе ареального метода анализируется определенный выделенный ойконимический ареал – названия населенных пунктов на определенной территории. Границы распространения ойконимических единиц - полисонимов и комонимов - на территории обозначается на картах. Этим методом определяются, например, ареалы применения ойконимических индикаторов, ареалы распространения ойконимов, то есть этноойконимов, образованных на основе мотивации определенной этнической группы.

Результаты и обсуждение. Племя кипчаков - одно из самых крупных и основных племен узбекского народа. Махмуд Кашгари в своей работе “Словарь тюркских наречий” (“Диван лугат ат-турк”) высказывает следующие мысли о кипчаках: “Кипчаки пришли с Западного Алтая в VI веке и вторглись на земли Монголии и Тувы, расширив свои границы в результате объединения тюркских племен, вторая часть которых мигрировала в степи у реки Иртыш. В XI веке они занимали обширную территорию, которая называлась Дашти Кипчак. Кипчаки занимались скотоводством, родами управляли беки, племенем - хан. В грабительских войнах кипчаков участвовали и женщины.”[Санаев1996:40] Позже кипчаки были разгромлены монголами и вошли в состав Золотой Орды. Смешавшись с местным населением, кипчаки приняли участие в формировании в качестве нации узбекского народа и этнического состава казахов, киргизов, каракалпаков и других тюркских народов. На территории Узбекистана кипчаки проживали в районах между Самаркандом и Каттакурганом, на правом берегу Амударьи, в северо-восточной и северо-западной частях Ферганской долины. Профессор Карим Шониёзов пишет, что в первой четверти 20 века общая численность кипчаков, проживавших на территории республики, составляла 127 тысяч человек. Из них 52,1 тысячи человек проживали в Зарафшанской долине, 42,4 тысячи - в Ферганской долине. [Шониёзов 1974:110]

В племя кипчаков входило множество родов, таких как *кугай, бугач, кумушой, улмас, яшик, жайдок, пучугой, элатон, бугаз, огим, тоз, сирмок, еттикашка, кутлуг сеид, черик, кукбуйин, турайгир, товулди, чангарокчи, чиял, кулон, окбуйра, корабовур, бошкирт, тикон, коратикон, сарикипчок, корабуйин*. В настоящее время большинство названий этих кипчакских родов сохранились как названия территорий, на которых они проживали. Поэтому в Наманганской области встречаются следующие ойконимы, связанные с кипчакскими родами: *Яйдак, Ялангач, Яшик, Баймок, Сарой, Катагонсарой, Найманча, Арбагиш, Чунгбагиш, Довул, Курам, Найман, Уйчи, Кугайулмас, Кугай, Козоковул*.

Яйдок **–** название села в Янгикурганском районе. *Яйдак* **–** название одного из кипчакских родов, этноним. Это слово морфологически является прилагательным и имеет лексическое значение “без седла”. Этимологически образован путем прибавления окончания *–к* к форме древнетюркского глагола *йай* (имеющего значение “брось, оставь в покое”) с усилительным окончанием *–ла*; позднее согласный *-л* изменился на *–д*, а гласный а – на *ā*: *йай+лак > йайлак >йайдак >йайдāк > йайдаāк.* [Севортян 1989:79]Это слово использовалось также в форме *йайдав.* [Толковый словарь узбекского языка 1981:476]

Таким образом, ойконим *Яйдок*, сформировавшийся на основе этнонима *яйдак,* означает *место проживания кипчаков из рода яйдак*. В местных диалектах наблюдается также произношение ойконима *Яйдок* как *Джайдак.*

Ялангач **–** название села в Янгикурганском районе. Прилагательное *ялангач* образовано от древнетюркского прилагательного *йалың*, имеющего значение “*без*

ничего", путем прибавления уменьшительного окончания *-ғач*; после присоединения окончания согласный *ң* изменился на *н*; в узбекском языке гласный *а* после согласного *ғ* изменился на *â,* гласные *а* в первом и втором слоге превратились в *ä*: *йалаң+ғач>йалаңғач>йалангач>йалäнгâч.* [Севортян 1989:106]Это слово в современном узбекском языке используется в значении *неодетый, без одежды*.[Толковый словарь узбекского языка 2006:105]

По сведениям С. Губаевой, изучавшей этнонимы Ферганской долины, *ялангач* – этноним, название одного из родов племени кипчаков.[Толковый словарь узбекского языка 2006:105] Таким образом, этноним *йаланғач* в значении *"неодетый"* послужил основой для формирования ойконима *Ялангач*. Ойконим имеет топонимическое значение *место проживания людей из рода ялангач*. С таким названием есть также квартал в городе Ташкенте, село в Бувайдинском районе Ферганской области, место в городе Коканде. [Губаева 1983:73]

Яшик – название села в Учкурганском районе. Данный ойконим является этноойконимом по своей лексической основе.

Яшик – один из кипчакских родов. Местное население считает, что этимоном данного этнонима является русское слово *ящик*. Однако, эти слова между собой никак не связаны.

В словаре академика В.В. Радлова отмечается, что слово *яшик* означает *худощавый, измученный, негодный к работе, солнце*.[Охунов 1994:64] Профессор В.М. Насилов указывает, что данное слово было заимствовано из уйгурского языка (*йашук - свет, сияние)* в форме *йашу* (< йашу + к).[Радлов 1893:248]

Таким образом, ойконим *Яшик* появился на основе перехода этнонима *яшиқ,* возникшего из многозначного слова *яшиқ,* на название села. Ойконим формировался следующим образом: *яшик > село, место проживания яшиков > село яшиков > село яшик > Яшик.* По-видимому, в процессе языкового развития этноним перешел в ойконим на основе ономастической конверсии.

Сарой – название села в Чартакском районе. Местные жители связывают формирование данного ойконима со словом "караван-сарай". Якобы на территории села были караван-сараи, располагавшиеся на пути, связывающем Чартак с Киргизстаном, Заркентом и Хазратишахом. Предполагается, что сначала было три караван-сарая, остальная территория была покрыта камышом и кустарниками. Эти караван-сараи принадлежали баям: Эшонбаю, Сулаймонкулу, Хужамуроду додхо и Эшонходже. Поскольку караван-сараи находились на обочине дороги, в них заходили и останавливались на ночь караваны. Сейчас от них не осталось и следа. [Насилов 1963:23]Якобы село стало называться Сарой из-за этих караван-сараев. По нашему мнению, название сформировалось на основе этнонима *сарой*.

Сарой – название одной из ветвей племени кипчаков. Это одно из самых больших племен, вошедших в состав узбекского народа. Упоминается во всех списках узбекского народа, диалекты сароев близки к литературному языку.

Небольшая группа сароев вошла в состав казахского племени аргын. Согласно переписи населения, проведенной в 1924-1926 гг., численность представителей племени сарой на территории Узбекистана превышала 50 тыс., из них 15 тыс. жили в Бухарском оазисе, 20 тыс. - в долине Кармана, а также в Наманганской области. Они, по нашему мнению, проживают в Чартакском и Туракурганском районах.

По мнению профессора Х. Дониёрова, племя сарой разделяется на несколько родов: чем сарой, кунграт сарой, жомон сарой, можор сарой, олтин тамга сарой, сойдан туман сарой и жалангач (ялангач) сарой. [Чортоқ тумани тарихи 1995:21]

Сарой как этническая общность сформировались в XIV–XV веках в Дашти Кипчак, а в XVI веке вместе с другими узбекскими племенами переселились на территорию Узбекистана. [Дониёров 1990: 97]

Ойконим *Сарой* в системе топонимов Наманганской области сформировался на основе этого этнонима и означает *место проживания людей, принадлежащих племени сарой*.

Один из родов племени сарой назывался катагонсарой. Ойконим *Катагонсарой* в Туракурганском районе сформировался на основе данного этнонима.

Довул – название села в Папском районе Наманганской области. Данное название никак не связано со словом *довул*, означающим *"сильный ветер, буран"*. Оно сначала имело форму *товул*: затем начальный глухой *т* превратился в *д* в результате озвончения и возникла форма *Довул*. *Товул* на самом деле означает название одного из кипчакских родов Ферганской долины. Название данной этнической группы послужило основой для названия села. [Ўзбекистон Миллий энциклопедияси 2002:21]

Элатон – название нескольких сел Уйчинском, Учкурганском и Янгикурганском районах Наманганской области. Элатон – один из родов племени кипчаков Ферганской долины. Названия сел связаны с данным этнонимом.

Название села *Улжатупи* в Учкурганском районе Наманганской области также возникло на основе этнонима *ўлжа*, относящегося к кипчакам. [Охунов 1994:17]

Думор, Тумартуп – названия сел Нарынского района. С. Қораев, подчеркивая, что значение ойконима *Думор* точно неизвестно, связывает названия сел с этнонимом *думар (тумар)*, обозначающим название одного из кипчакских родов Ферганской долины. [Губаева 1983:63]

В топонимии Узбекистана встречаются также ойконимы *Туморчи* (Каршинский р-н, Кашкадарьинская обл.),[Қораев 1978:50] *Тумор* (Папский р-н, Иштихонский р-н, Самаркандской обл.). [Нафасов 2009:250]

По нашему мнению, *думар* – это, действительно, этноним, он имеет фонетические варианты *тумар // тумор*. Как уже было сказано выше, обилие одноименных сел также подтверждает наше мнение. Ойконим *Тумортуп* Нарынского района также сформировался на основе этнонима *тумор // думор*. В состав ойконима входят морфемы *тумар* и *туп*. Слово *туп* является существительным, в древнетюркском языке оно имело значение *основа, корень*. [Ўринбоев 2003:107] По мнению Ш. Раҳматуллаева, современное значение слова производное от значения «корень». [Малов 1951:435] Таким образом, название *Тумартуп* является этноойконимом, словосочетание *корень, основа тумаров* считается его этимоном. Ойконим имеет значение *место, где проживают основатели рода тумаров*. Ойконим *Думар* также сформировался как фонетический вариант слова *тумар*.

Выводы. Ойконимы сообщают о местах проживания наших предков и других тюркских племен и народов.

Наблюдая за топонимами, можно также узнать, вела этническая группа, населявшая территорию, оседлый или кочевой образ жизни в прошлом. Научные исследования показывают, что оседлые и кочевые народы использовали разные принципы называния мест. Если население оседлое, оно называет место в соответствии с его природно-географическими особенностями, и наоборот, кочевое население называет место в честь своих родов и племен.[Раҳматуллаев 2000:360]

При этимологическом анализе ойконимов наряду с народной этимологией следует уделять серьезное внимание анализу мотива наименования, лексической основы имени.

Этимологический анализ ойконимов показывает, что при наименовании сел, поселков и городов в основном учитывается характерный для данной местности признак, черта (этнический состав населения). Хотя названия-этнонимы, представляющие этнический состав коренного населения, исчезают под влиянием развития общества, наименования населенных пунктов сохраняются как особые имена собственные в топонимическом, частности, в ойконимическом лексиконе.

В Наманганской области названия населенных пунктов, отражающие этнический состав населения, его родовую, племенную, национальную, народную принадлежность, – составляют большую группу. Эти разновидности ойконимов дают много информации о различных племенах, народах, которые с древних времен жили на определенных территориях, играют важную роль при определении границ их расселенияю Важное место в возникновении территориальных ойконимов занимают

такие ономастические единицы, как этнонимы. Поселения принято называть по названию рода, племени, народности, проживавшей здесь. Среди топонимов области часто встречаются такие ойконимы, как *Бешкапа, Калтатой, Кенагас, Митан, Миришкор, Найман, Найманча, Сарой, Уйчи*, представляющие собой названия родов и племен.

Список использованной литературы

1. Губаева С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX – начала XX в. – Ташкент, 1983. – С.63.
2. Дониёров Ҳ. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент. Фан,-1990, – Б 97.
3. Жамоа. Чортоқ тумани тарихи. – Тошкент: Университет, 1995. – Б. 21.
4. Малов С. Памятники древнатюркской письменности. – М-Л., 1951. – С.435.
5. Насилов В.М. Древнеуйгурский язык. – М, 1963. – С.23
6. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б.250.
7. Охунов Н. Жой номлари таъбири. –Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б.67.
8. Радлов В.В.Опыт словаря тюркских наречий. – Санкт-Петербург, 1893, Т.III., ч.I. – С. 248-249.
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. – Б.360.
10. Санаев И. Бу кўҳна дунё. – Тошкент: Адолат, 1996. – Б. 40.
11. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – М., 1989, Т. IV. – С.79;
12. Шониёзов К. К этнической истории узбекского народа. – Ташкент, 1974. – С.110-112.
13. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. –Тошкент. 2002. – Б. 21.
14. Ўринбоев Б. Асрлардек барҳаёт номлар. – Самарқанд: Зарафшон, 2003. – Б. 177.
15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М.: Рус тили, 1981, II том. – Б.476
16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.105.
17. Қораев С. География номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – Б.50.

ТЕЗАУРУС МЕТАЯЗЫКА КАК СПОСОБ ПЕРЕДАЧИ СИСТЕМНЫХ СВЯЗЕЙ В ЛЕКСИКЕ

Ёркиной Хамраева
и.о. профессора кафедры русского языка и литературы КарГУ
yorkinoy.khamraeva@gmail.com
ORCID 0009-0004-6613-3452
UDK 81.482 (021).24

Аннотация. В статье рассматривается роль тезауруса как важного инструмента для систематизации и организации лексической информации в языке. Тезаурус – это словарь, показывающий синонимические, антонимические и другие семантические связи между словами, который служит инструментом для улучшения понимания языка, расширения словарного запаса и более точного выбора слов в речи и письме. В отличие от обычного алфавитного словаря, где приводятся определения слов, тезаурус помогает пользователю найти все лексемы в их семантическом окружении, что делает его важным инструментом как для изучающих язык, так и для носителей того или иного языка: исследователей, студентов, писателей, редакторов и лексикографов. Первые попытки создания тезаурусов относятся к античным временам, когда лексикографы пытались упорядочить синонимы и антонимы для облегчения работы с языком. Однако настоящий всплеск интереса к созданию тезаурусов произошел с появлением работы М.П.Роже, после 1852 года. Этот тезаурус был уникален тем, что слова в нем были организованы не в алфавитном порядке, а по семантическим группам, что позволяло пользователю легко находить синонимы в контексте определенного смысла. С развитием информационных технологий и лексикографического анализа, в последние десятилетия появились электронные тезаурусы, которые значительно облегчали доступ к этим источникам информации и улучшили их функциональность.

Ключевые слова: тезаурус, идеографический словарь, метаязык, системность лексики, концепт, знак, семантическое поле, парадигматические отношения, синонимы, квазисинонимы.

Annotatsiya. Maqolada tezaurusning tildagi leksik ma’lumotlarni tizimlashtirish va tartibga solishning muhim vositasi sifatidagi roli haqida so‘z yuritilgan. Tezaurus bu so‘zlar o‘rtasidagi sinonimik, antonimik va boshqa semantik munosabatlarni aks ettiruvchi lug‘at bo‘lib, u foydalanuvchilar uchun tilni tushunishni yaxshilash, so‘z boyligini kengaytirish, og‘zaki va yozma nutq jarayonida ularni to‘g‘ri tanlash vositasi sifatida xizmat qiladi. So‘zlarning faqat ta’rifini beruvchi oddiy alifbo lug‘atidan farqli o‘laroq, tezaurus foydalanuvchiga barcha leksemalarni semantik qurshovlari bilan birgalikda topishga yordam beradi, bu esa o‘zga tilni o‘rganuvchilar uchun ham, o‘z ona tilimizning imkoniyatlaridan foydalanayotgan tadqiqotchilar, talabalar, yozuvchilar, muharrirlar va lug‘atshunoslar uchun ham muhim vosita sanaladi.

Tezauruslarni yaratish yo‘lidagi dastlabgi urinishlar qadimgi davrlarga borib taqaladi, lug‘atshunoslar shu yo‘l orqali muayyan til leksikasi bilan ishlashni osonlashtirish maqsadida ma’nodosh hamda zid ma’noli so‘zlarni tartibga solishga harakat qilganlar. Zamonaviy tezauruslarni yaratishga qiziqishning ortishi esa 1852 yildan, ya’ni M.P.Rojening shu turdagi lug‘ati dunyo yuzini ko‘rganidan so‘ng sodir bo‘ldi. Ushbu tezaurusning o‘iga xosligi shundan iborat ediki, lug‘tda so‘z va iboralar alifbo tartibidan chekinilib, semantik guruhlar bo‘yicha keltiriladi va bu holat foydalanuvchiga muayyan so‘z haqidagi ma’lumotlarni hech bir qiyinchiliksiz uning ma’noviy ko‘lami doirasida topish imkonini beradi. Bugungi kunga kelib, axborot texnologiyalari va leksikografik tahlilning rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda ma’lumotlarni izlab topish imkoniyatini yanada osonlashtiruvchi elektron tezauruslar paydo bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: tezaurus, ideografik lug‘at, metatil, leksikaning tizimliligi, tushuncha, belgi, mazmuniy maydon, paradigmatik munosabatlar, sinonimlar, kvazinonimlar.

Введение. С нашей точки зрения, тезаурус метаязыка лингвистики предоставляет возможность адекватно отразить и анализировать системность языка в её наиболее полном объёме. Сам термин «тезаурус» впервые был введен в лингвистику британским лексикографом Марком Питером Роже, который назвал свой словарь «Тезаурусом английских слов и выражений» (Thesaurus of English words and phrases) [10]. Словарь был написан в начале XVII века и опубликован в 1852 году Кембриджским университетом.

Итак, рассмотрим значения этого термина, данные в различных лингвистических источниках:

«Тезаурус (от греч. thesauros – сокровище, сокровищница) – 1) словарь, в котором максимально полно представлены все слова языка с исчерпывающим перечнем примеров их употребления в текстах; 2) идеографический словарь, в к-ром показаны семантические отношения (родо-видовые, синонимические и др.) между лексическими единицами» [11, 506].

«Тезаурус (греч. thesauros – сокровище) – словарь для поиска какого-либо слова по его смысловой связи с другими словами… 1) лингвистический тезаурус – словарь, содержащий перечень слов естественного языка, отобранных в результате содержательного анализа текстов и систематизированных в соответствии с принятой классификационной системой, 2) статистический тезаурус – информационно-поисковый словарь, содержащий перечень слов, отобранных в результате статистического анализа текстов по какой-либо определен ной тематике и сгруппированных в словарные статьи на основе частоты совместной встречаемости этих слов в одних и тех же текстах (документах)» [7, 587].

«Тезаурус (от греч. θησαυρός «сокровище»), в общем смысле – специальная терминология. Более строго и предметно – словарь, собрание сведений, корпус или свод, полномерно охватывающие понятия, определения и термины специальной области знаний или сферы деятельности, что должно способствовать правильной лексической, корпоративной коммуникации (пониманию в общении и взаимодействии лиц, связанных одной дисциплиной или профессией); в современной лингвистике – особая разновидность словарей, в которых указаны семантические отношения (синонимы, антонимы, паронимы, гипонимы, гиперонимы и т.п.) между лексическими единицами. Тезаурусы являются одним из действенных инструментов для описания отдельных предметных областей. В англоязычном мире словарями-тезаурусами преимущественно называют стандартные словари синонимов (иногда с антонимами)» [12].

«ТЕЗАУРУС [др.-греч. θησαυρος сокровище, запас]. 1) Словарь идеологического типа, в котором вокруг общих понятий сгруппированы лексемы, находящиеся друг с другом в семантических отношениях; 2) словарь, включающий максимальное количество лексем с примерами употребления лексико-семантических вариантов; 3) словарь, включающий все слова того или иного языка» [3, 393].

Ю.Н.Караулов тезаурусом называет «…всякий словарь, который в явном виде фиксирует семантические отношения между составляющими его единицами». А также он отмечает, что «…при таком понимании под это определение подходят и все типы идеографических словарей – тематический, аналогический и собственно идеографический, согласно классификации В.В.Морковкина [9], и специальные тезаурусы – обще-технические и информационно-поисковые» [5].

Методология исследования. В статье были использованы такие методы, как: описательный, сравнительно-сопоставительный, дискурсивный, а также методы семантического поля и прагматического анализа.

Обсуждение и результаты. Тезаурусы играют важную роль в организации знаний и информационных системах, выступая инструментом упорядочивания терминов и обеспечения их взаимосвязи. В контексте информационно-поисковых систем тезаурус можно рассматривать как гибкий, но контролируемый лексический инструмент, способный структурировать информацию в определённой области знаний, так как он включает иерархические и неиерархические связи между терминами, что способствует точному поиску и анализу данных. Важно отметить, что, несмотря на терминологические различия, сущностные функции общеязыкового и информационно-поискового тезаурусов сходны. Оба типа тезаурусов основываются на систематическом и алфавитном подходах к организации терминов и предоставляют указания на связи между ними, что облегчает их использование в поисковых системах, а также в широком спектре задач обработки и анализа информации.

Одной из ключевых особенностей информационно-поискового тезауруса является его многовходовая структура, что отличает его от однотипного доступа в традиционных словарях, таких как толковые. В обычном толковом словаре поиск осуществляется исключительно по алфавитному принципу, что ограничивает возможности пользователя только внешними признаками слова, его написанием. В то же время информационно-поисковый тезаурус предоставляет пользователям сразу два способа поиска — систематический и алфавитный, что значительно расширяет возможности навигации по информационному массиву. Систематическая упорядоченность позволяет осуществлять поиск по семантическим связям и иерархическим структурам терминов, что особенно важно для анализа данных в специализированных областях знаний. Так, например, Марк Роже создал свой семантический словарь с целью более глубокого анализа и систематизации английского языка. Главной задачей его работы было изучение и представление многозначных слов и выражений в контексте их использования, что способствует лучшему пониманию нюансов значений и помогает в выборе наиболее точных слов для различных ситуаций. Словарь был задуман как инструмент для понимания того, как различные концепты могут быть выражены в языке, через различные значения и контексты.

«Идеографический словарь русского языка» О.С.Баранова по форме однотипен со знаменитым английским тезаурусом Роже. Его цель – проследить связь общего и частного, целого и части, для чего словарные статьи снабжены соответствующими указателями. Таким образом в основе тезауруса классификационного типа лежит таксономический принцип организации лексического материала» [6, 129].

Идеографический словарь Баранова (1990 г.) [1] представляет собой не просто словарь, а уникальный подход к классификации лексических единиц. Книга Баранова была задумана как инструмент для систематизации и классификации слов на основе их семантической характеристики. Главный словарный запас помогает пользователю понять не только значение каждого слова, но и его значение в десяти других, полезных по смыслу или использованных словах. Это позволяет создавать более полное представление о лексемах, как в изолированном виде, так и в различных контекстах.

Итак, одним из ключевых аргументов в пользу создания тезаурусов является их способность облегчать процесс выбора лексических единиц, точно передающих нужные концепты, а также парадигматические отношения между лексическими единицами. Авторы тезаурусов подчеркивают практическую значимость такой структуры, которая позволяет находить слова или выражения, наиболее подходящие для передачи определённых понятий. Особая важность тезаурусов заключается в том, что они предлагают не просто передачу лексического запаса, но тщательно организованный набор слов и терминов, классифицированных по смыслу и рангу. Это помогает пользователям, например, авторам научных работ или текстов, эффективно находить слова, соответствующие их замыслу, преодолевая трудности в подборе выражений. Таким образом, тезаурус выступает незаменимым инструментом для тех, кто стремится к точности и многообразию в использовании языка.

Важной особенностью систематической структуры тезауруса является алфавитная и иерархическая упорядоченность, где дескрипторы выполняют функцию центральных понятий, а ключевые слова выступают в качестве дополнительных терминов, играющих

роль синонимов или квазисинонимов. Такая организация не только обеспечивает гибкость в использовании терминов, но и делает тезаурус мощным инструментом для эффективного поиска и обработки информации.

Ключевые слова, будучи частью систематической структуры, часто встречаются в текстах определённых научных дисциплин, но не имеют собственного дескрипторного описания. Вместо этого они связаны с основными дескрипторами через специальные пометки, такие как «ИСП» (использовать) и «ИВ» (использовать вместо). Эти метки направляют пользователя к соответствующему дескриптору или указывают на квазисинонимическую связь, что существенно облегчает навигацию по информационной базе.

Таким образом, данная система отношений между дескрипторами и ключевыми словами позволяет формировать более точные и гибкие запросы, минимизируя риск потери релевантной информации. Это особенно важно для информационно-поисковых систем, где точность и полнота извлекаемых данных имеют ключевое значение. Систематическая часть тезауруса выступает своего рода «каркасом» для организации понятий, обеспечивая многоуровневый доступ к лексическим единицам и создавая условия для эффективного анализа и поиска данных в специализированных областях знаний. Например:

«1. Человеческое сообщество.

2. Коллектив: интересы и социальные акторы.

3. Влияние среды на личность: социальная норма, механизмы саморегуляции.

4. Личность среди себе подобных: социальное соревнование.

5. Взаимодействие людей в обществе.

6. Воздействие и подчинение в человеческом сообществе» [8, 3].

Данные понятия включают в себя по несколько концептов, которые распределяются по группам, охватывающим все лексемы относительно человека и человеческого общества до самых минимальных понятий. Значит, в общеязыковых тезаурусах введение ключевых слов в систематическую структуру играет важную роль в расширении доступности лексического материала. Основная цель этой организации – обеспечить большее количество «точек доступа» для пользователей, что позволяет более гибко и полно исследовать лексическое пространство. Включение ключевых слов способствует более полному отражению классификационных схем, а также иерархических отношений между дескрипторами, если такие отношения присутствуют.

Эта организация особенно важна в общеязыковых тезаурусах, где требуется учитывать широкий диапазон понятий и терминов, не ограниченных какой-либо одной предметной областью. Таким образом, тезаурус становится не просто инструментом для поиска, но и средством для исследования и систематизации знаний, обеспечивая доступ к иерархически организованной информации и улучшая навигацию по лексическому материалу.

Ключевые слова играют важнейшую роль в структурной организации тезауруса, выполняя функцию связующего звена между его внутренней и внешней структурой. Внутренняя структура тезауруса отражает организацию словарных статей, в то время как внешняя структура определяется парадигматическими связями между дескрипторами. Следовательно, ключевые слова обеспечивают семантические и классификационные связи, которые лежат в основе функционирования тезауруса как инструмента для поиска и систематизации информации.

Анализируя два основных подхода к организации тезаурусов – систематический и алфавитный – можно отметить, что они воплощают разные модели концептуальных связей. Систематический подход, отражающий отношения «концепт – знак», организует информацию на основе классификационных схем, где понятия связаны между собой по иерархическим и логическим признакам. Алфавитный подход, базирующийся на связях «знак – концепт», организует термины по их буквенным признакам, что упрощает поиск конкретных слов и терминов. В большинстве тезаурусов эти подходы реализуются независимо друг от друга, но остаются взаимосвязанными.

Классические примеры такой организации можно увидеть в работах испанского лексикографа Хулио Касареса, где тезаурус представлен в двух частях – «аналогической» и алфавитной [4]. В минимальном идеографическом словаре (МИС) Ю.Н.Караулова эта

структура выражена через поля с соответствующими им словами и их индексы [4, 276-337]. Алфавитный вход в таких системах может быть реализован либо в виде простого индекса, либо как более сложная структура – толковый словарь, как, например, у Касареса, где не только указывается на систематическую часть, но и даётся определение каждому слову.

Важно подчеркнуть, что основополагающая схожесть представления элементов в тезаурусе заключается в том, что оба подхода – систематический и алфавитный – дополняют друг друга. Их конструктивная совместимость позволяет эффективно решать задачи поиска и классификации, делая тезаурус незаменимым инструментом для работы с большими объемами информации и анализа данных.

Логически возможные комбинации между двумя элементами – концептом и знаком, не ограничиваются рассмотренными ранее связями «концепт – знак» и «знак – концепт». Существуют ещё два потенциальных сочетания: «концепт – концепт» и «знак – знак», которые также находят своё применение в структуре тезауруса. Эти дополнительные связи играют важную роль в обеспечении полноты лексических и концептуальных связей в рамках системы.

Комбинация «концепт – концепт» позволяет выстраивать связи между понятиями, не привязанными к конкретным знаковым выражениям. Это особенно полезно в процессе создания иерархических (ступенчатых) структур, где один концепт может быть родовым для нескольких подчинённых понятий. Такая связь помогает лучше понять семантические и логические отношения между различными идеями и категориями. Этот тип связи реализуется в систематических частях тезауруса, где понятия группируются по смысловым или иерархическим критериям.

Сочетание «знак – знак», с другой стороны, касается взаимосвязей между самими знаковыми элементами, не рассматривая их концептуальное содержание. Это может быть полезно для анализа синонимических и квазисинонимических отношений между словами, а также для анализа формальных признаков языка, таких как морфология и лексические вариации. В тезаурусах такая связь может выражаться через указание на синонимы, антонимы или другие виды ассоциативных отношений, что помогает пользователям расширить поле поиска и найти более релевантные термины для своих задач.

Таким образом, обе эти логически возможные комбинации существенно дополняют функциональные возможности тезауруса. Они обеспечивают глубокую проработку как семантических, так и формальных аспектов языка, делая тезаурус более гибким инструментом для анализа и поиска информации.

Примером рассмотренных ранее отношений между ключевыми словами и дескрипторами могут служить данные из словаря Х. Касареса. Однако, несмотря на то, что такие отношения уже присутствуют в систематической части словаря, они, наряду с перекрестными отсылками в дескрипторных статьях, ещё не формируют отдельного входа в тезаурус и не предоставляют оснований говорить о новом «измерении» словарного состава. Это особое измерение проявляется только в том случае, если тезаурус включает в себя классификационную схему понятий, которая чётко и последовательно фиксирует парадигматические связи между дескрипторами. В этом отношении идеографический словарь Ф.Дорнзайфа и В.Вартбурга, написанный на немецком языке, более подробно представляет такого рода семантические отношения [2].

Классификационная схема (или блок-схема) понятий служит структурным элементом, который позволяет организовать дескрипторы в более крупные смысловые единицы – семантические поля, классы, группы и подгруппы. Она отображает иерархические связи между дескрипторами, такие как подчинённость (например, один дескриптор может включать другой), противопоставленность (одно понятие противопоставляется другому), а также отношения части и целого. Эти так называемые «сильные» парадигматические отношения дополняются «слабыми» парадигматическими связями, такими как сходство и смежность (по форме или значению).

Метаязык науки рассматривается как язык второго порядка, используемый для описания содержания и структуры естественного или искусственного языка. Он включает в себя термины, которые могут не встречаться в языке-объекте или изменять свое значение после заимствования, а также словосочетания, характерные для определенной научной

области, и социальные аспекты, отражающие специфику различных научных эпох и направлений.

Классификационная схема играет важную роль в формировании метаязыка лексики. В отличие от других видов организации, классификационная схема обеспечивает более глубокий уровень анализа и систематизации информации, предлагая пользователям возможность ориентироваться не только на термины, но и на их семантические и логические связи. Реализация такой схемы может быть различной: от графических блок-схем до цифровых иерархий, что позволяет пользователям использовать тезаурус как инструмент для более точного и глубокого понимания структуры знаний в конкретной области.

Выводы. Таким образом, классификационная схема в тезаурусе выступает как необходимое дополнение к уже существующим структурам и способствует более комплексному пониманию и организации лексического состава языка. Такая схема представляет собой «третье измерение» лексической системы, обеспечивая структурное деление определённой области знаний или действительности и устанавливая системные отношения между концептами. Она позволяет пользователю эффективно переходить от одного понятия к другому, от дескриптора к его блоку, а затем к смежным дескрипторным областям, что существенно облегчает процесс поиска и анализа информации. Классификационная схема, как самостоятельный элемент организации тезауруса, обладает рядом уникальных особенностей. Прежде всего, она подчинена двум логикам: логике мира, которая отражает объективную структуру реальности или предметной области, и логике поиска, обеспечивающей удобство и эффективность навигации по тезаурусу. Итак, классификационная схема в тезаурусе не только дополняет его систематическую и алфавитную части, но и играет ключевую роль в создании целостной картины мира и определении связей между понятиями. А информационно-поисковый тезаурус метаязыка науки является важным инструментом для упорядочивания научной информации и повышения качества научного дискурса, позволяя создавать более доступные и понятные ресурсы для исследователей и студентов.

Использованная литература

1. Баранов О.С. Идеографический словарь русского языка. – М.: Прометей, 1990. – 256 с.
2. Дорнзайф Ф. / Dornseiff F. Der deutsche Wortschatz nach Sachgruppen. Berlin, New Jork: Walter de Gruyter, 1970. - 922 p.
3. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. – Назрань: Пилигрим, 2010. – 486 с.
4. Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. - М.: Наука, 1976. – 356 с.
5. Караулов. Ю.Н. Лингвистическое конструирование и тезаурус литературного языка. – М.: Наука, 1981. – 366 с.
6. Козырев В.А., Черняк В.Д. Русская лексикография. – М.: Дрофа, 2004. – 288 с.
7. Кондаков Н. И. Логический словарь-справочник / ред. Д. П. Горский. М.: Наука, 1975. – 721 с.
8. Леонтьева Т. В. Идеографический словарь русской социальной лексики: общество и человек. – Екатеринбург: Ажур, 2018. – 554 с.
9. Морковкин В. В. Идеографические словари. М.: МГУ, 1970. – 71 с.
10. Роже М.П. / Roget M.P. Thesaurus of English words and phrases. - https://archive.org/details/rogetsthesauruso00mawsrich.
11. Шайкевич А. Я. Тезаурус // Лингвистический энциклопедический словарь. М.: Сов. энциклопедия, 1990. – С. 506.
12. [Электронный ресурс]. Режим доступа: https://ru.wikipedia.org/wiki.

AMERIKA HINDU ADIBLARI IJODIDA MO‘JIZAVIY REALIZM RAQSLAR TALQINIDA

Muxammedova Nilufar Eliboyevna
O‘zDJTU dotsenti., PhD
nilufarmuhammedova@yahoo.com
ORCID 0009-0005-3067-0683
UDK 821.111.09

Annotatsiya. Amerika hindu yozuvchilari ijodi folklor an’analarga boyligi bilan dunyo adabiyotida keng e’tirof etiladi. Hindu qabilalarining o‘ziga xos madaniyatida raqslar muhim ahamiyat kasb etadi. Tarix, madaniyatni qamrab olgan hindu yozuvchilari asarlarida o‘zlikka intilish va tarixni tiklash asarning birinchi planida ochib beriladi. Folklor an’analar kontekstida namoyon bo‘lgan hindular raqsi tarix va bugunni

uyg‘unlashtiradi. Bu xususiyat amerika adabiyoti mo‘jizaviy realizmiga xosdir. Nemis san’atidan tug‘ilib Yevropa, qolaversa, Amerikaga ko‘chgan mo‘jizaviy realizm yo‘nalishining asosiy jihati tarixni bugungi kun nazari bilan tiklash, ajdod va avlod o‘rtasidagi rishtani mustahkamlashdir. Kitobxonni o‘ziga maftun etuvchi mo‘jizaviy realizm hindular adabiyotida Dakota hindu qabilasi, Sioks hindularining bir-biridan farq qiluvchi belgilarini ham o‘zida namoyon qiladi. Hindu qabilalaridan yetishib chiqqan Sherman Aleksi, Syuzen Pauverlar tarixni raqs orqali jonlantirishadi. Hindu adiblari ijodini tahlil etishda struktural, biografik, tarixiy-madaniy va mo‘jizaviy realizm xususiyatlariga tayanib tahlil qilingan asarlarda birgina raqs kontekstida o‘tmish isyoni hamda raqs musobaqasi keng talqin etiladi.

Kalit so‘zlar. hindu, adib, mo‘jizaviy realizm, Amerika, adabiyot, raqs, folklor

DANCE AS REFLECTION OF MAGICAL REALIZM IN THE NOVELS OF NATIVE AMERICAN WRITERS

Abstract. The novels of Native American writers are widely recognized in world literature due to the reference to rich Native American folklore traditions. One of the unique cultural and folkloristic features of Indian tribes is related with dance. In the novels of Native American writers, the pursuit of self and the restoration of history are revealed in the first plan of their work. Dance, important feature of Native American culture manifested in the context of folklore traditions, harmonizes history and modern society. This feature makes the characteristic of magical realizm in American literature. The main aspect of magical realizm, which originated in German art and came to America, is the restoration of history with the modern view that strengthens the bond between the ancestors and new generation.

Magical realizm that captivates the reader embodies the distinctive characteristics of the Dakota Indian Tribe and the Sioux Indians in Native American literature. Native American writers Sherman Alexie and Susan Power enliven history through dance. The analysis of their novels based on the structural, biographical, historical-cultural methods and magical realizm, extensively interpret and demonstrate the historical rebellion as well as the dance competition in the context of a single tribal dance.

Key words. Indian, writer, magical realizm, Amerika, literature, dance, folklore

Kirish. Folkloristika o‘zida xalq tomonidan yaratilgan va xalqlar orasida keng tarqalgan qo‘shiq, lapar, raqs va urf-odatlarni aks ettiradi. Folklor elementlarni o‘zida qamrab olgan raqslar turli xalq madaniyatida o‘ziga xos mazmun kasb etadi. Amerika hindulari madaniyati raqslarga boyligi bilan boshqa xalqlar madaniyatidan o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy Amerika hindulari raqslari davrdan davrga ko‘chib o‘zgarib borganligini hindu yozuvchilari yaratgan asarlar misolida ko‘rish mumkin.

Sherman Aleksi Amerikaning tub aholisi hisoblangan hindu adibidir. U 1966-yili Amerika Qo‘shma Shtatlari Velpinitda dunyoga kelgan. Bugungi kunda yozuvchi Amerika hindu adiblari an’analarini davom ettirayotgan yozuvchi hisoblanadi.

U yaratgan qator “Tabiat musiqasi” (1995), “Qotil hindu” (1996), “Parvoz” (2007) kabi asarlari va “O‘nta hindu bolasi” (2003), “Urush raqsi” (2009) kabi hikoyalar bevosita Amerika jamiyatida hindular o‘rni va ularning madaniyatini kelajak avlod uchun saqlab qolish xususiyati bilan xarakterlidir.

“Qotil hindu” asarida ruhlar raqsini ifoda qilgan adib “balki qotil hinduning o‘zi ruhlar raqsining natijasidir, balki, o‘nta hinduning o‘zi ruhlar raqsini ijro etgandir, balki, bu ruhlar raqsining qanday ijro etilishidir”, deb yozadi. Adib bunday fikrlarni bildirar ekan o‘z izlanishlarining natijasini kitobxonga havola qiladi. Ruhlar raqsini chuqur o‘rganishga kirishgan adib o‘z izlanishlarida yozma manbalarga tayanib obrazlar yaratadi.

1993-yilda nashr etilgan ilk hikoyalar to‘plami “The Loe Ranger and Ponto Fistfight in Heaven”da ruhlar raqsi kelajakka katta umid bilan qarashni ifoda etadi. Jumladan, “A Drug Called Tradition” hikoyasida Tomas, Viktor va Junio Pulatkin kabi obrazlarni yaratadi. Ziyofatda ichkilik ichgan uchala yigit uyga qaytarkan o‘zlari haqida hikoyalar aytishadi. Bu hikoyalarda ruhlar raqsi aks etadi: “*ularning hammasi qabilam bilan ketgan. Ular qoldirgan buyumlarda bizlarni o‘ldirayotgan buyumlar bor. Men qabilamning so‘nggi hindusiman va og‘ir kasalman. Tanamda haroratim juda baland, kiyimlarimni yechishim, sovuq suv va havoni his qilishim kerak, shunda raqsga tushaman. Men ruhlar raqsini ijro qilaman va ularni hayotga qaytaraman. Do‘mbira ovozini eshityapsizmi? Men ularni eshityapman, bu mening bobom va buvimning do‘mbiro jo‘rligida qo‘shiq kuylashi, ularni eshityapsizmi?” “Men raqsning birinchi bosqichini ijro qilaman va singlim hayotga qaytadi. Men yana raqsga tushaman, shunda baffolo osmondan tushadi, raqsning har bir ijrosidan so‘ng hindular hayotga qaytadi. Biz shunday yo‘sinda raqsga tushamiz*”[11] .

Adabiyotshunos Jeyms Koks Sherman Aleksining bunday hikoya qilishini quyidagicha

izohlaydi: “Aleksi ruhlar raqsi orqali tarixni jonlantirdi. Uning bunday uslubi o‘zlikka qaytish demakdir”[4]. Yozuvchining o‘zi esa tasavvur - bu o‘zlikni saqlab qolish yo‘lidir, deb ta’kidlaydi. Sherman Aleksiga zamondosh Susan Syuzen Paver hindu qabiblaridan yetishib chiqqan adibadir. Uning ijodida aks etgan maysalar raqsi bugungi kun nuqtayi nazaridan tahlilga tortiladi. Adiba mazkur raqs orqali o‘zligini topishga urinayotgan va tarixni tiklashga harakat qilgani kuzatiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yozuvchi 1996-yilda yaratgan “Hindu qotil” romanida ruhlar raqsi metaforik tarzda inqilobni ifoda etdi. Roman syujeti oq tanli Daniel va Oliviya Smis asrab olgan hindu bolasi Jon Smisning qayg‘uli hayotiga qurilgan. Daniel va Oliviya Smisning fikricha, hindu bolasi Jon Smis uchun eng xavfsiz joy bu oq tanli oiladir va bu oila bolakayni ko‘p balo-qazolardan asraydi. Biroq Jonning hayoti esa buning aksini ko‘rsatadi. Jon Smis hujjatlarga ko‘ra oq tanli deb ko‘rsatilishiga qaramay, uning tashqi ko‘rinishi hinduni eslatadi. Shu bois u na oq tanlilarga va na hindularga qo‘shila oladi. Voyaga yetgan sari uni qo‘rquv egallay boshlaydi. Asar voqealarida Jon yigirma yetti yoshli quruvchi, u Sietldagi so‘nggi osmono‘par bino qurilishida ishlaydi. Seetlda ko‘p qotilliklar sodir bo‘lardi. Kamgap hindu yigiti o‘zini g‘alati tutardi. Uning g‘alatiligida g‘azab yashiringan edi. Seetlda sodir etilgan jinoyat ishida birinchilardan bo‘lib shubha ostiga olinadi. Bu asarda quyidagicha ifoda etilgan: “*Oq tanli amerikaliklar o‘ldirilmoqda, ular har xil darajadagi tan jarohatlari olgan holda topilmoqda. Jasadlar oldida politsiya xodimlari qotil tomonidan qoldirilgan qush patlariga duch kelishmoqda”[12]*. Qush patlari go‘yoki qotilning tashrif qog‘ozi vazifasini o‘taydi.

Sietl shahrida vujudga kelgan vahimada kitobxon hindu qotil bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa Jon Smit bilan birga Meri Polatkin, doktor Klerens Meyser, Reggi Polatkin va Jek Vilson kabi Amerika hindu obrazlari bilan tanishadi. Meri Polatkin Spokeyn hindulari kolleji talabasi. U o‘qish bilan birga ijtimoiy hayotda juda faol bo‘lib, Sietldagi uysizlarga sendvich tarqatadi, g‘azabga tushgan vaqtlarda esa “qaniydi bu oq tanlilar yo‘qolib ketsa, ularning barchasini yoqib yuborardim va zavq olardim”[12] deya o‘zini ish bilan band qilardi. Roman syujetida qotil kim degan savol bilan birga AQSh da ro‘y berayotgan irqiy muammo ham ko‘rsatiladi. Aynan qotil kim degan savolga javob topishga uringan yozuvchi o‘z javoblarida kinoya bilan ruhlar raqsiga ishora qiladi. Yozuvchi uchun globallashgan dunyoda hinduning o‘zligini topishi murakkab va o‘zligini topishga urinayotgan hindular qayta va qayta irqiy muammoga duch kelishadi. Sherman Aleksi Ruhlar raqsiga murojati hindularning o‘zligiga qaytishi bilan birga irqiy muammo ham barham topadi. Yozuvchining ruhlar raqsiga ishora qilishi hindularning qarama-qarshiligini ifoda etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Adabiyotshunos A.Patrisia Amerika hindu yozuvchilari ijodini struktural metodga asoslanib tadqiq etdi[**1**]. Olima hindular ijodida kuzatilgan adabiy an’analarning kelib chiqishi hamda uning strukturasini keng tatbiq etadi. Tadqiqotchi H. Bhabha esa hindular adabiyotida yaratilgan asarlarni madaniy-tarixiy metodga asoslanib tadqiq etadi[3]. Uning fikricha, madaniyat hindular makonida yovvoyilashib, zamonaviy hayotda esa ularning yovvoyiligi folklor an’analarda aks etadi. H.Bhabhaga ergashgan S.Kallahen esa yovvoyi tabiat bolasining zamonaviy hayotga moslashishida vujudga kelgan to‘siqlarni madaniyat kontekstida ochib berishga harakat qiladi[5]. Bunday to‘siqlar bevosita oq tanlilar tomonidan amalga oshirilishi natijasida ularning tarixini unutishga sabab bo‘luvchi omil sifatida qayd etadi. G.Bird esa hindu yozuvchilarni biografik metodga asoslanib tahlil qiladi[**2**] va hindu qabilasidan bo‘lgan yozuvchi Sherman Aleksini o‘zligini topishga uringanini qayd etadi. M.Karlin esa hindu yozuvchilari ijodini badiiy matn tahlili asosida tatbiq etadi[6]. Adabiyotshunos hindu yozuvchilari asarlarini o‘rganar ekan, ham madaniy, ham tarixiy jihatlarga keng e’tibor qaratadi. Tadqiqotchi M.Karlin hindu yozuvchilari ijodida kuzatilgan tarixiy, madaniy, folklor xususiyatlar hindu qabilalari mif, qoaversa, afsonalariga borib taqalishini asoslaydi. Hozirgi kunda esa hindu yozuvchilari mo‘jizaviy realizm yo‘nalishida asar yaratishgani va asarlarda betakror mo‘jizaviy realizmning elementlari mujassam bo‘ganligini ko‘rish mumkin. Birgina hindu raqslarida aks etgan tarix va bugungi kun manzarasi bevosita hindularning ruhlar va maysalar raqsida namoyon bo‘lishi aniqlanadi. Mo‘jizaviy realizmning asosiy xususiyati hindular madaniyatida uchraydigan raqs turlarida aniqlanadi.

Natijalar va muhokama. Adabiyotshunos M.Hittman asar muallifi Sherman Aleksi ruhlar raqsini hindu qabilalarining an’anasi sifatida talqin etganligiga e’tibor qaratgan. Tadqiqotchi M. Hittman immigrantlar uchun tushunarsiz hindu raqsida katta ma’no mujassam ekanligini va bu ma’no yashirin tarrzda xatti-harakatlar orqali ijro etilganligini ko‘rsatib o‘tadi[7]. Asarda raqsga

ilk murojaat Jek Vilsonning hindu “og‘alari” bilan doimiy ravishda borib turadigan “Katta yurak” barida sodir bo‘ladi. Mana shunday uchrashuvlarning birida Vilson hindu qotil haqidagi sirli ma’lumotni Rejji Polatkin va uning o‘rtoqlari Xarli va Tay bilan o‘rtoqlashadi. Suhbat davomida Vilson “bu erda haqiqiy hindular ko‘p va ularda oq tanlini o‘ldirish uchun sabablar yetarlicha” deb ta’kidlaydi. Mana shu suhbatdan so‘ng ular tarqalishadi. Biroq eshikka yetmasdan ularning suhbati quyidagicha davom etadi:

“ *- Siz Big Fut haqida eshitganmisiz? O‘sha Sioks hinduni?*

- Ha, shunday, - deya javob berdi Vilson va qo‘shimcha qildi. – U, adashmasam, Vundid Ni massakreda 1890-yil o‘ldirilgan. Chunki u ruhlar raqsini boshqargani uchun o‘ldirilgan.

- Ruhlar raqsinimi?

- Ha, shunday, chunki bu raqs oq tanlilarga qarshi harakatni bildiradi. Shu bilan birga oq tanlilarga qarshiligimizni ifodalaydi. Qolaversa, urushni ham anglatadi.

- Aynan kim o‘ldirgan Big Futni?

- Askarlardan birida, anig‘ini hech kim bilmaydi.

- Sen tushunmading savolimni, Big Futni o‘ldirgan odamning irqi qanaqa edi?

- U, shubhasiz, oq tanlida.

- Shubhasiz, oq tanli bo‘ladi-da”[12].

Suhbatdan ko‘rinib turibdiki, Rejji tarixni eslatmoqda va bu bilan u qotillikning asl sababini ochishga urinyapti. Bir tomondan suhbatda hindularga bo‘lgan adolatsiz munosabat va bu munosabatga loyiq javob berish mumkinligiga e’tibor qaratilmoqda. Asar qahramonlari nega aynan qotil hindu bo‘lishi kerak degan savolga ham echim topishga urinishadi. Javobni o‘zligidan izlashadi. O‘tmish va tarixda aks etgan haqiqat go‘yo qotillikda ham aks etmoqda. Buning yechimi esa ruhlar raqsini ijro etishdir. Asarda yozuvchi aynan raqs yechim bo‘la oladimi yoki yo‘q, bu javobni bermaydi, aksincha yechim topishni kitobxonga qoldiradi. Mana shu hindu qotil orqali hindularning qonli tarixini jonlantiradi. Ahamiyatli tarafi shundaki, oradan ancha vaqt o‘tgan bo‘lishiga qaramay hindularning tarixni unutmaganligidir. Yozuvchi hindular bosib o‘tgan shonli yo‘l va adolat uchun, qolaversa, vatan uchun kurashganligini sharaf deb hisoblaydi va buni kelajak avlod unutishi mumkin emas. Yuqorida keltirilgan asar qahramonlarining suhbati ham shundan darak beradi. Ular tarixni unutishmagan va faqat adolat istashmoqda. Adolatsizlikka munosib javob topishlari kerak.

Qizig‘i shundaki, Jon Vilson aytgan sirli ma’lumot bir kunning o‘zidayoq Sietldagi barcha hindularga tarqaldi. Xabar hindular orasida baham ko‘rildi. Bu xabar bir tarafdan qo‘rquvni uyg‘otgan bo‘lsa, ikkinchi tarafdan hindularda hadiksirash ham o‘z aksini topdi. Bu sirli ma’lumot Ruhlar raqsiga o‘xshab qarshilikning avj olish ehtimolini ham ko‘rsatdi. Oq tanlilar orasida esa faqat qo‘rquvni ifoda etdi. Oq tanlilar uchun bu xabar 1890-yildagi ruhlar raqsining yangicha shakli edi.

Yozuvchi tarix bilan birga zamonaviy hayotdagi muammoni ham ustamonlik bilan ifoda eta olishini ko‘rsatadi. Uning bunday uslubiga Amerika tanqidchilari ijobiy baho berdilar. Roman syujetiga tarix bilan zamonaviy hayotni qura olgan Sherman Aleksi o‘zligini tiklash va bunga loyiq bo‘la olish e’tiqodini ifodaladi.

Asar qahramonlaridan bo‘lgan Merri “hindu qotil balki ruhlar raqsining mevasidir” deya ta’kidlaydi. O‘zligini bitta raqs orqali tub ildizigacha ochib berayotgan yozuvchi atroflicha fikr yuritadi. Obrazlarni shunga mos harakatlantiradi. Yozuvchi bu borada teran mushohada yuritadi. Obrazlarida garchand yaxshi hayotda yashayotgan hindularni aks ettirsa-da, ular o‘zligini unutishgani yo‘q. Boshqacha qilib aytganda, amerikalashgan hindu baribir o‘zligini qo‘msamoqda. Amerikalashgan hindu amerikancha hayotni afzal ko‘rmayapti. U ajdodi qanday yashagan bo‘lsa, u ham shuni qo‘msamoqda. Tabiat qo‘ynida ulg‘aygan hindu farzandlari kuni kelib ajdodini izlashi yozuvchining asl maqsadidir.

Har bir hindu obrazida ruhlar raqsining tilga olinishi, qolaversa, raqs ijrosi haqida bahslashishi bu raqsga bo‘lgan kuchli ishonchni bildiradi. Raqs ijrosini boshqargan sardorlarning o‘limi esa bunga shubhasiz isbotdir. Ruhlar raqsiga tayangan va bunga sabab bo‘lgan mif va afsonalarning ko‘pligi qayta va qayta Sherman Aleksi asarlarida keng urg‘u beriladi.

Sherman Aleksiga zamondosh yozuvchi Syuzen Paver asarlarida ham Ruhlar raqsi o‘z aksini topadi. Adibaning o‘zi ham “bizga yoqadimi yoki yo‘q biz baribir tariximizga murojaat qilaveramiz. Bu rad etib bo‘lmas haqiqatdir. Asarlarimizning nashr etilishi biz uchun katta sharaf, shu bilan birga, katta mas’uliyatdir”, deb ta’kidlaydi. Sherman Aleksidan farqli ravishda Syuzen

Paver fikricha, tarixga murojaat qilgan har bir yozuvchi har bir detalga e'tibor qaratishi kerak. Yozuvchi bo'rttirish yoki to'qimaga aylantirishi mumkin emas. Adiba bugun kimligimizni bilmoqchi bo'lsak, avvalo, o'tmishda qayerda yashaganimizni bilish muhimdir, deb aytadi.

Tadqiqotchi Rolan Volter "Magical Realizm and Amerindian Cultures in Susan Power's "The Grass Dancer" asarida maysalar raqsini tahlil qiladi[10]. Syuzen Paver mazkur asarida Dakota qabila jamiyati tomonidan har yili o'tkaziladigan Pauvau bayramini tasvirlaydi[9]. Aynan mana shu bayram munosabati bilan o'tkaziladigan maysalar raqsi muhim ahamiyatga ega. Maysalar raqsi musobaqa shaklida o'tkaziladi. Ahamiyatli tomoni shundaki, bu bayramga boshqa qabila vakillari ham taklif etiladi. Musobaqaga tayinlangan hay'at a'zolari xar bir raqqos yoki raqqosaning raqs ijrosini adolatli baholashi kerak.

Asar hozirgi hayot bilan o'tmish voqealarini tasvirlaydi. O'tmish va hozirgi hayot uzviyligi bobo-buvi, ota-ona yoki farzandlar orqali bir-biriga tutashadi. Bu Anna Merkuriy Sanda, Xarod Smol Vo, Margaret Mani Vuns bilan o'tmish, qolaversa, qabila ajdodlari voqealari hikoya qilinsa, Sharlin, Pampkin, Frenk, Xarlilar bilan zamonaviy hayot voqealari tasvirlanadi. Voqealar rivoji xarlining tushidan boshlanadi. Tushida u vafot etgan ukasi va otasi bilan suhbatlashadi. Voqealar Pauvau bayramida raqs musobaqasiga ko'chadi. Pampkin mazkur musobaqada ishtirok etadi. Uning raqsi ko'pchilikni hayratga soladi, shu jumladan Xarlini ham. Musobaqadan so'ng uyiga yo'l olgan Pampkin avtohalokatda vafot etadi. Bu xabar Xarlini chuqur qayg'uga soladi. Uning ijro etgan raqsi uni hamon hayratga solmoqda edi. Hatto unga o'xshab raqs harakatlarini qaytarishga urinadi. Ammo Xarlining raqs ijrosi qanchalik urinishiga qaramay Pampkinnikiga o'xshamas edi. Chuqur qayg'uda yurgan Xarliga o'rtog'i Frenkning bobosi Xerod Smol Vo yo'l ko'rsatadi. Xerod Smol Voning g'ayritabiiy qobiliyati bor bo'lib, u tushlarni to'g'ri ta'bir qilar va tushda qiynayotgan muammoga yechim ko'rsata olardi. Shu tufayli u Xarliga Pampkinning raqsini yana bir bor eslashi kerakligini aytadi.

Raqsni xotirlar ekan, o'zi ham beixtiyor qayta-qayta raqsga tushadi va charchab uxlab qoladi. Xarli tushida Xerod Smoll Vo bobo izidan ergashib sirli tuynuk orqali ruhlar olamiga kirib boradi. Ruhlar olamida u Red Dress, ya'ni raqs ma'budasiga duch keladi. Raqs ma'budasi Xarliga raqsning har bir harakatida isyon mavjud ekanligini va raqs harakatlarini o'rgatadi. Ajdodlar nima uchun raqsga tushganligining asl sababini ham aytadi. Ma'buda Red Dres harakatlarini kuzatarkan, Xarli raqsdan hayratga tushardi. Ma'buda atrofida qabilaning o'tmishda yashagan sardorlari, qolaversa, Dakota qabilasining ajdodlari aylana shaklda o'tirishardi. Ular raqs harakatlarining to'g'ri ijro etilayotganligini nazorat qilishardi. Raqsdan so'ng ular qo'shiq kuylashib marosimni yakunlashdi va Xarlini sirli tuynuk orqali o'z dunyosiga kuzatishdi. Uyqudan uyg'ongan Xarli Pauvau bayramida ishtirok etish uchun yana tayyorgarlik ko'rishni boshladi. U tushi haqida hech kimga og'iz ochmadi. Tushida raqs ma'budasi o'rgatgan harakatlarni ijro eta boshlaydi. Bayram vaqti kelganida Xarli bayramda raqsni mahorat bilan ijro etdi. Uning raqsi Pampkinnikidan ham a'loroq edi. Hay'at a'zolari uning raqsiga yuqori baho qo'yishdi va raqs Dakota qabilasi madaniyatining ko'zgusi ekanligini ta'kidlashdi.

Romandagi Red Dres obrazida yozuvchi Syuzen Paver raqs ijrosini o'rgatuvchi va kelajakka yetkazuvchi sifatida tasvirlaydi. Uning raqsi endilikda "ruhlar raqsi" yoki "Urush raqsi" kabi isyonni emas, balki hindu qabilasining o'lmas madaniyatini tiklovchi vosita sifatida talqin qilindi. Yozuvchi raqs orqali qabila faqat isyonkorlik bilan o'zligini izlamay, madaniyatni tiklash orqali o'zligini topishga urinayotganini ko'rsatadi. Asarga "Maysalar raqsi" deb sarlavha qo'yishining o'zi ham ijobiy ma'noni kasb etadi. Sherman Aleksining "Hindu qotil" asarining sarlavhasida salbiylik aks etsa, Syuzen Paver asar sarlavhasi kitobxonda ijobiy munosabatni uyg'otadi. Ikkala yozuvchi o'zligini tiklashga urinar ekan, ikki xil yo'l bilan buning uddasidan chiqishadi. Hindu qabilalarida ijro etilgan raqs zaminida bir necha ma'no kasb etishi va mana shu raqsni asarning tasvir obyektiga mahorat bilan ko'chirishdi. Biri oq tanlilarga bo'lgan isyon, biri esa madaniyatni asrash vazifasini ifoda etadi. Hindu obrazlarining zamonaviy Amerika hayotida ikki xil qarashini ko'rsatadi. Tadqiqotchi I.Hellel hindu yozuvchilari raqslar orqali ajdod va avlod o'rtasida ko'prik vazifasini o'taganini ta'kidlaydi[8]. Tarix, madaniyat va adabiyotni kompleks tahlil qila turib asarlarda mo'jizaviy realizmning xususiyatlari asardan asarga ko'chib, tobora yaqqol namoyon bo'lishini e'tirof etadi.

Biri hamon hindularning stereotipini ifoda qilsa, ikkinchisi zamonaviy jamiyatda hindularning boy madaniyatini aks ettirmoqda. Romanlarda talqin etilgan raqs ijrosining o'z qonun qoidalari mavjud. Ikkala romanda ruhlar dunyosiga tashrif va ulardan o'rganilgan raqs ijro etiladi.

Xulosa va takliflar. Sherman Aleksi ifoda qilgan “Ruhlar raqsi” o‘tmishni ko‘rsatsa, Syuzen Paver maysalar raqsi orqali kelajakni ifoda etadi. Hindu qabilalarining aylana shaklda chordona qurib o‘tirishi va raqqoslar ijrosida besh kun davom etgan raqs tomoshasi Zamonaviy Amerika hayotiga kelib musobaqa shaklida bosqichma bosqich ijro etildi. Amerika adabiyotida mo‘jizaviy realizmda kuzatilgan tarix va bugungi kun belgisi sifatida hindu raqslarining ijrosi o‘z aksini topadi. Insonni hayratga solish bilan birga, o‘zligini tiklashga harakat qilgan hindu adiblari asarlarida raqs ajdod bilan avlodni bir-biriga bog‘lovchi rishtadir.

Nazarimizda, o‘zligini tiklashga urinayotgan hindu yozuvchilarining maqsadi hinduligini unutmaslik va uni asrab qolishdir. Hindu yozuvchilari kelajak avlodga madaniyatni bus-butun holda yetkazish va uni to‘g‘ri talqin etishni raqs misolida romanlarda ochib berishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Angus P. Native American and Literary tradition. – Toronto: ECWP, 1999. – P. 46.
2. Bird G. The Exaggeration of Despair in Sh.Alexie’s Reservation Blues. Lincoln: Nebraska, 1995. – P. 47.
3. Bhabha H. The Location of Indian culture. – New York: Routledge, 1994. – P. 93.
4. Cox J. Muting white noise: the subversion of popular culture narratives of conquest in Sherman Alexei’s fiction. Studies in American Indian literatures 9.4 (1997): -P. 52-70.
5. Callahan S. Wynema: A child of the forest. Lincoln: Nebraska, 1997. – P. 95.
6. Carlin M. Sioux author weaves legends reality in Grass dancer. New York: Routledge. 1995. – P. 64.
7. Hittman M. Wovoka and the Ghost dance. New York: New York University Press, 1990. – P. 102.
8. Hillel I.Sherman Alexi: The Executive news service. California: California university press,2000–P.3.
9. Power S. The Grass dance. Lincoln: University of Nebraska Press, 1997.- P. 102
10. Rolan W. Magical realizm ad Amerindian cultures in Susan Powers “The Grass Dancer”. USA. Vervuert Verlag, 1993. -76 p.
11. Sherman A. A drug called tradition. New-york: Atlantic, 1993. –P. 182.
12. Sherman A. Indian Killer. – New York: Warner, 1995. – P. 62.

ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK QISSACHILIGIDA PEYZAJ TASVIRIY VOSITASINING O‘RNI

Eshmatova Yulduz Boymaxmatovna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
TDIU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti
munis_76@mail.ru
ORCID 0000-0002-5330-3529
UDK 8U

Annotatsiya. Ushbu maqolada istiqlol davri o‘zbek qissachiligida ayollar ruhiyatini ifodalashdagi yordamchi va badiiy vositalar tahlil qilingan. Unda istiqlol davri qissalarining badiiy xususiyatlari ham tadqiq etilgan. Shuningdek, ushbu qissalardagi ayollar ruhiyati talqin etilgan. Adabiyotshunoslikda tabiat tasviri va psixologizm muammosini o‘rganish doimo dolzarb mavzulardandir. Zero “yozuvchi o‘z g‘oyaviy niyatini faqat qahramonlarning xatti-harakatlari orqali emas, balki ularni o‘rab turgan tabiat manzaralarini tasvirlash orqali ham amalga oshiradi. Peyzaj tasviri orqali o‘quvchiga ta’sir etishni, undagi go‘zallik tuyg‘ularini tarbiyalashni ham ko‘zda tutadi”. Qolaversa, peyzaj tasviriga badiiy-g‘oyaviy jihatdan yondashilganda asar qahramonlari bilan peyzaj tasviri o‘rtasida ajratib bo‘lmas dialektik aloqa mavjudligini olimlarimiz, tadqiqotchilarimiz mumtoz va zamonaviy badiiy asarlar tadqiqi misolida kuzatishgan. Biz maqolada tahlil obyekti sifatida o‘rganayotgan X.Do‘stmuhammad, S.O‘nar, N.Eshonqul, A.Yo‘ldosh qalamiga mansub asarlarda tabiat manzaralari va joy tasvirlari, ularning qahramon ruhiy kechinmalari bilan uzviy ravishda bog‘liqligi har bir ijodkorda original va individual tarzda yondashilganini kuzatishimiz mumkin.

Tayanch so‘zlar: peyzaj, tabiat tasviri, intuitiv, epik qahramon, janr, obraz, uslub, syujet, psixologik talqin.

THE PLACE OF LANDSCAPE PICTURE MEDIA IN THE UZBEK SHORT STORY OF THE INDEPENDENCE PERIOD

Abstract. The article analyses the means and literary means of expressing women’s psyche in Uzbek short stories of the independence period. It also examines the artistic features of the stories of the independence period. The mentality of women in these stories is also interpreted. The study of the problem of the image of nature and psychologism in literary studies is one of the most important topics. Because “the writer realises his ideological intention not only through the actions of the characters, but also through the description of the natural scenes that surround them. He also wants to influence the student through the

image of the landscape, to educate him in the feelings of beauty. Moreover, when approaching the image of the landscape from the artistic-ideological point of view, our scientists and researchers have observed the existence of an inseparable dialectical relationship between the heroes of the work and the image of the landscape, using the example of the study of classical and modern works of art. In the works of X.Dustmuhammad, S.Unar, N.Eshonqul, A.Yuldosh, which we study as the object of analysis in the article, natural landscapes and images of places, their inseparable connection with the spiritual experiences of the hero is original in each artist. and we can observe that it is approached individually.

Key words: landscape, nature image, intuitive, epic hero genre, image, style, plot, psychological interpretation.

Kirish. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da peyzaj ta’rifi quyidagicha ifodalangan: “Adabiy asarda yaratiluvchi voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon (yopiq makon - interer) tasviri”[4, 220]. Darhaqiqat, adabiyotshunos olimlar I. Sulton, B. Sarimsoqov, T. Boboyev H. Umurov, Y. Solijonov, D. Quronovlar ta’kidlaganidek, peyzaj, avvalo, badiiy asarda tasvirlangan tabiat tasviri, ammo peyzaj nazariy adabiyotlarda ko‘rsatilganidek, faqatgina zamon va makon tasviridangina iborat emas.

Peyzaj muammosini maxsus monografik planda tadqiq qilgan M. Sultonova mazkur vositaning badiiy asardagi o‘rni masalasi haqida shunday mulohaza yuritgan: “Yozuvchi o‘z g‘oyaviy niyatini faqat qahramonlarning xatti-harakatlari orqali emas, balki ularni o‘rab turgan tabiat manzaralarini tasvirlash orqali amalga oshiradi. Peyzaj tasviri orqali o‘quvchiga ta’sir etishni, undagi go‘zallik tuyg‘ularini tarbiyalashni ham ko‘zda tutadi” [1, 9]. Kuzatganimizdek, olima peyzaj tasvirining qahramon xatti-harakatlari bilan uyg‘un kelishidan tashqari, kitobxon qalbiga ta’sir o‘tkazuvchi tarbiyaviy, ma’rifiy va estetik vazifasini ham ta’kidlab o‘tadi.

Adabiyotshunos M. Qo‘chqorova ham M. Sultonova kabi peyzaj vositasining qahramon ruhiyati bilan mos ravishda aks ettirilishini qayd etib, peyzaj – ichki kechinmalarni yanada bo‘rttirib tasvirlovchi vosita ekanligini “Ozodlik” va “Fiesta” asarlarida ramz va peyzaj” maqolasida o‘rganar ekan, shunday fikr yuritadi: “Binobarin, asardagi har bir peyzaj tasviri, fasllar, unga xos turli holatlar, mavsumiy o‘zgarishlar, qahramon holati, kayfiyati, kechinmalari va hissiyotlariga monand ifodalanadi. Shuningdek, tabiat manzaralari va lavhalari qahramon ichki kechinmalarini yanada jonlantirib, kuchaytirib ifoda etuvchi vosita hamdir” [6, 39]. Esse janrini monografik planda tadqiq etgan tadqiqotchi peyzaj tasvirining esselarda ham muhim badiiy tasvir vositasi ekanligini Sh. Xolmirzayevning shoir do‘sti Abdulla Oripovga bag‘ishlangan “Yo‘llarimiz ayro tushdi, ammo...” essesi tahlilida (kuz faslining esseda ramziy peyzaj vositasi ekanligini) ham jiddiy kuzatgan [6, 42]. Mazkur ishlar kichik maqolalar doirasida kechadi. Ammo o‘zbek adabiyotshunosligida peyzaj muammosini yaxlit ilmiy yo‘nalishda o‘rgangan M. Sultonovadan tashqari, F. Nabiyev, F.N. Malexova, N. Yo‘ldoshev ishlarini ham sanashimiz mumkin [7, 125].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada istiqlol davri o‘zbek qissachiligida peyzajning o‘rni, ahamiyati, badiiyati masalasini tadqiq qilishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, lingvistik, analitik tahlil usullaridan foydalanildi.

Biz tahlil obyekti sifatida o‘rganayotgan X. Do‘stmuhammad, S. O‘nar, N.Eshonqul, A.Yo‘ldosh qalamiga mansub asarlarda tabiat manzaralari va joy tasvirlari, ularning qahramon ruhiy kechinmalari bilan uzviy ravishda bog‘liqligi har bir ijodkorda original va individual tarzda yondashilganini kuzatishimiz mumkin.

Natijalar va muhokama. N.Eshonqulning “Momoqo‘shiq” qissasi dastlabki satrlardanoq batafsil joy va mavsum tasviri bilan boshlanadi: “Butun brigada so‘nggi uch kun hasharchilarga joy hozirlash bilan ovora bo‘ldi: har qalay, madaniyat xodimlari, yana biror kori hol yuz bermasin, bizni madaniyatsiz deb ketishmasin degan istihola bilan shiyponni obdon oqlashdi, yog‘och kart o‘rniga simto‘shaklar o‘rnatishdi, shiypon oldidagi o‘t-o‘lanlarni o‘rib olishdi, daraxtlarni butashdi, qip-qizil matoga nima uchun zarurligini o‘zlari ham tushunmay: “Xush kelibsiz, hasharchilar”, “Oq oltinning bir misqoli ham yerda qolmasin” deb yozilgan shiorlar ilib qo‘yishdi. Quduqlarni tozalashdi, atrofini qora qog‘oz bilan o‘rashib, kichkina omborxona qurishdi – hamma ishni qunt bilan berilib bajarishdi: chunki yuqoridan bu yil shiyponga madaniyat vazirligining xodimlari kelishi mumkinligi va shunga yarasha tayyorgarlik ko‘rish kerakligi haqida juda ehtiyotkorona xabar kelgan edi. Sunbula oyining endi ikki haftasi o‘tganiga qaramay, hasharchilar bu yil erta kela boshlagandi”[8, 113]. Mazkur parchada kuzatganimizdek, yozuvchi paxta yig‘im terimi davridagi shiypon tasviri, hasharchilarning kelishi munosabati bilan shiypondagi tozalash ishlari, lozinglar tasviri, kichkina omborxona qurilishi haqida batafsil tasvirlar beradiki, bu o‘quvchiga makon va zamon haqida, asarda hikoya etilmoqchi bo‘lgan taqdirlar va voqealarga

ekspozitsiya vazifasini o‘tagan. “Peyzaj nafaqat tabiatni (agar bu so‘z ostida birlamchi tabiat tushunilsa), balki u bilan birga inson tomonidan yaratilgan narsalar tasvirini ham ko‘zda tutadi. Shu ma’noda, masalan, biron-bir xiyobon yoki shahar ko‘chasining tasviri ham peyzaj holbuki, ular tabiat tasviri emas, joy tasviridir. Yozuvchi peyzajni voqealar rivojini to‘xtatib qo‘ygancha mufassal tasvirlashi (statik peyzaj) yoki unga taalluqli detallarni voqealar davomida berib borishi (dinamik peyzaj) mumkin. Asarda peyzaj bajaruvchi birlamchi funksiya voqealar kechayotgan joy va vaqt haqida tasavvur berishdir. Biroq peyzajning asardagi funksiyalari bu bilan cheklanmaydi, u polifunksionallik xususiyatiga ega. Jumladan, peyzaj qahramon ruhiyatini ochish vositasi sifatida keng qo‘llanadi” [4, 185]. Nazar Eshonqulning “Momoqo‘shiq” qissasida dinamik peyzaj tasviri yetakchilik qiladi. Qolaversa, lug‘atda e’tirof etilganidek, nafaqat tabiat manzaralari, joy tasvirlari bo‘lishidan tashqari, qahramon ruhiyatini yanada yorqin ochib beruvchi muhim vosita, shuningdek, qahramonning ham tashqi, ham ichki portretini tabiat lavhalari, hayvonat, tog‘-tosh, tiniq va zilol suv, osmon jismlariga o‘xshatish orqali ham tasvirda yanada originallikka erishiladi. Shuningdek, N. Eshonqul kinomatografik tasvir uslubidan ham keng foydalangan. Ya’ni turfa xil hissiyotlarni, xatti-harakatlarni operator singari bitta kadrda aniq va tiniq chizadi: “Nihoyat, juma kuni peshindan keyin bo‘limga qarashli dalalarga olib keladigan yagona tuproq yo‘lda peshonalariga bayroq qadalgan toshbaqaga o‘xshash uch avtobus ko‘rindi: muyulishdagi yo‘ldan to shiyponga kelguncha avtobuslar uch-to‘rt marta tantanali big‘illab qo‘ydi; birpasda hammayoq ostin-ustin bo‘lib ketdi – sovxoz markazidan samovar va qozon tashlab ketishdi: hashardan ko‘ra ko‘rikka kelishganday juda yasan-tusan qilib olgan hasharchilar avtobus to‘xtashi bilan atrofga yoyilgan chang-chungini kuhkuhlab o‘zlarini shiyponga urishdi – ular yuzga yaqin yosh-yalanglar va turli yoshdagi ayol-u erkaklar edi – ular go‘yo o‘zlari bilan bu sokin cho‘l qo‘yniga shaharning sershovqin va betartib hayotini ham birga olib kelganday edilar – shiypon tevaragi ingichka, yo‘g‘on, shirali, shirasiz, nozli, ishvador, xirildoq, sovuq, hiringlagan, charillagan, yig‘lamsiragan, kulinqiragan, bosinqiragan, hadiksiragan, cho‘chinqiragan turli ovozlarga to‘ldi”. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, adib mazkur parcha so‘ngida turli ovozlar tasvirini uyushiq bo‘lak sifatida (ingichka, yo‘g‘on, shirasiz, nozli, ishvador, xirildoq, sovuq, hiringlagan, charillagan, yig‘lamsiragan, kulinqiragan, bosinqiragan, hadiksiragan, cho‘chinqiragan) keltirar ekan, tasvirda yaxlit badiiy butunlikka erishgan.

Qissa ekspozitsiyasida shiypon, shiypondagi tozalash ishlari, hasharchilar tasviri, hasharchilarga qiziqsinib qarayotgan mahalliy aholi, yosh bolalar, kattaroq yoshli o‘smirlar, ayollar tasviridan so‘ng asarning markaziy qahramoni dramaturg Shamsi Saloh, iqtidorli yosh yozuvchi, xullas, madaniyat xodimlariga ta’rif va tavsif beriladi. Asar markazida ayol obrazi – Muazzamning ruhiyati, uning tiniq va sokin ovozi, qadim an’analarni davom ettirib, sigir sog‘ish mahalida kuylaydigan churiyasi, ya’ni momolar qo‘shig‘i, uning ona yurti, paxta dalasi deb tinim bilmay zahmat chekadigan turmush o‘rtog‘i, oilani har qanday mashhurlikdan, hoy-u havasdan ustun qo‘ya olgan o‘zbek ayolining iztirobli va ayni paytda baxtga to‘liq hayoti hikoya etiladi. Shamsi Saloh Muazzamdagi musiqaga bo‘lgan qobiliyatni sezib, qolaversa, o‘zining egri-bugri hislari ta’sirida unga o‘zgacha hayot va’da etib, Muazzamni shaharga olib ketmoqchi bo‘ladi. Shunday talantni bo‘g‘ib o‘tirgani uchun hatto uning vafodor va mehnatkash turmush o‘rtog‘ini feodallikda ayblaydi.

Muazzam aytgan qo‘shiq muallif bayonida quyidagicha peyzaj tasviri bilan bog‘liq ravishda badiiy ifodalanadi: “Mana bahor kelayapti. Chechaklar bosh ko‘taryapti, qizg‘aldoqlar qir-adirlar uzra qiyqirib, chopib yurishibdi, ana, qamish chayladan bolakay yugurib chiqdi, u onasining po‘pisasiga qaramay, yomg‘ir savalab o‘tgan maysalarga qiqir-qiqir kulgancha ag‘nayapti, uning kulgisidan uyg‘onib ketgan dunyo porillab ochilayotgan g‘unchalarning ko‘zlari orqali tevarak-atrofga razm solayapti, dunyo g‘aflatdan uyg‘onayapti... bog‘larda ishonch, xavotir, orzu daraxtlari gullayapti... Bu o‘lkaga yana muhabbat qo‘shig‘i qaytdi...” [8, 122]. Bizningcha, N.Eshonqulning “Momoqo‘shiq”, “Tun panjaralari”, “Qora kitob” qissalarida patetik tasvir, romantik-lirik hissiyot yetakchilik qiladi. Qolaversa, muallif ko‘p o‘rinlarda kitobxonga qarata hissiy-ta’sirchan ichki monolog o‘qiydi. Xususan, yuqorida biz tahlilga tortayotgan “Momoqo‘shiq” asarida ham xuddi shu holat kuzatiladi. Deyarli, bir yarim, ikki sahifalik ichki monologlar uchraydi. Eng muhimi, muallif ayol ruhiyatini kashf etishda yoki boshqa qahramonlar ruhiyatiga chuqur kirishda peyzaj tasviridan unumli foydalanadi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, N.Eshonqul Muazzam ijro etgan qo‘shiqning sirli-sehrli kuchini, ma’vosini tabiatning erka kelinchak fasli - bahorga mengzaydi. Ko‘klamda tevarak-atrofda uyg‘onish, qayta tirilish jarayoni kechadi. Chechaklar bosh ko‘taradi,

qir-adirlarda lolaqizg‘aldoqlar ochilib, nash’u namo etadi. Xuddi shu tabiatdagi go‘zal, tozargan, tiriluvchan, uyg‘onuvchan holatlar Muazzam kuylagan qadim momoqo‘shiqda mujassam edi. Mazkur qo‘shiq asar matnida juda ko‘plab sifatlashlar bilan bayon etiladi, chunonchi: “Bu ota-bobolardan meros qolgan, quvg‘in qilingan, qatl etilgan, yoqib yuborilgan, lekin oxir-oqibatda zulmlardan, qatllardan yana qayta tirilavergan, yana ham go‘zallashgan, ulug‘lashgan, zamonlar silsilasida osmonu falakdan yog‘ilgan in’om kabi yana paydo bo‘lavergan va madaniy dunyoning mafkurasi bilan zaharlab tashlangan to‘rtta san’at odamining qitig‘iga tegish uchun ularni bosib, yanchib o‘tib, yiroq-yiroqlarga oqib borayotgan kechki shafaq qo‘ynida yanada ko‘proq tovlanayotgan go‘zal qo‘shiq”[8, 122]. Kuzatayotganimizdek, shahardan paxta yig‘imiga kelgan to‘rtta san’at odami bilan sof tabiat qo‘ynida yashayotgan qishloq ayoli Muazzam bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi. Qo‘shiqqa xos tabiiylik, soflik ayol ruhiyatiga ham xos edi. Bexosdan qo‘shiqni eshitib qolgan to‘rtta hamroh go‘yoki hozirgina oldilaridan “qizg‘ish qanotli tulporlar uchib o‘tgandek” hissiyotni tuyishadi. Demak, yuqorida ta’kidlaganimizdek, qahramonlar ruhiyatida xayoliy obrazlar tasviri orqali (qizg‘ish qanotli, uchar ot) badiiy tasvirda muvaffaqqiyatga erishilgan.

Adibning ko‘pchilik qissalarida tun – peyzaj detaliga juda ko‘p murojaat qilinadi. Zero, bu o‘rinda tun obrazini – majoziy timsol darajasiga olib chiqqan “Tun panjaralari” qissasini eslashning o‘zi kifoya qiladi. Chunonchi: “Tun gullari ham bir-bir ochila boshladi. Aftidan tun o‘zining ulug‘vorligi va go‘zalligini bilsa kerak – men mana shunday oqshomlari kimnidir intiq bo‘lib kutaman. [8, 164].

Kuzatganimizdek, qissa qahramoni ijodkor shaxs uchun tun ulug‘vor va go‘zal mohiyatga ega. Aslida, bu tavsif yozuvchining dunyoqarashi va badiiy tafakkurini namoyon etib turibdi. Tun – tasviri qissada poetik tasvirlarga juda boy.

Yuqoridagi fikrimizga qaytadigan bo‘lsak, “Momoqo‘shiq” qissasida tun Shamsi Saloh uchun ko‘nglidagi yashirin hislarni to‘kib-sochishga boshpana, ikkinchidan o‘z qalbi bilan yuzma-yuz turib bahslashishga go‘yoki bir panoh vazifasini o‘taydi. Kuzatganimizdek, mazkur parchada ayol obrazi lirik-romantik uslubda ilohiylashtiriladi, ideallashtiriladi, parcha so‘ngida ayol qop-qora tunni yoritayotgan alangaga o‘xshatiladi. Umuman, ramziy ma’noda ayolning kishilik hayotidagi yashashga umid, ilinj, yorug‘lik beruvchi kuch-qudrati shirali she’riy bir uslubda bayon etiladi. Qissada Shamsi Saloh nutqiga xos ko‘p o‘rinlarni ichki-monologning “monolog-orzu” turi tashkil etadi: “Ana sen dunyoni kulgung bilan to‘ldirmoqchidek, qiqirlab kulayapsan, yuzingdan jilvalanib-jilvalanib ohanglar taralayapti. Ana sen qizg‘aldoqlar ichida yugurib borayapsan, egningda oq harir ko‘ylak, boshingda qizil durra...yo‘q... yo‘q, bu durra emas, qizg‘aldoqning bir dona bargi, egningdagi kechagina gullagan o‘rikning libosi... Ana sen billur zinalardan yuksaklikka ko‘tarilayapsan... oyoqlaring ostida baxtning, shon-shavkatning suyaklari sochilib yotibdi – sen, ana, bu qadimiy zulmat va sokinlikni ovozing bilan tilib borayapsan – ovozing yonib borayapti, bu sahroda o‘z nomini yo‘qotgan va nomsiz narsalarga nom berayapti, ism berayapti, adashgan dunyoni yana o‘z holiga qaytarayapti... Senga musiqaning keragi yo‘q, sening ovozingga yulduzlar kuy bastalay oladi... Ko‘zlaringni ochib yumishing tun bilan tong almashishiga o‘xshaydi – kipriklaring tonggi yulduzlardek yaraqlab ketadi – qani edi ko‘zlaring ayvonida uxlab yotgan kipriklardan bittasi men bo‘lsam... Yo‘q, sening makoning yer emas, sen falak qizisan... Sen oy kursisidan yerga shafqat bilan boqayotgan farishtasan, sen hurlik farishtasisan, sen orzuning, xayolning suratlarini chizib berish uchun bu dunyoga kelgansan...” [8, 122]. Demak, yozuvchi tasvirda lirik-romantik o‘rinlarga ko‘p o‘rin bergan holda har bir xatboshida “...Ana” takroriy so‘zini qo‘llash orqali emotsional bo‘yoqdorlikka erishadi. Ayol farishtaga, hurlik farishtasiga o‘xshatiladi.

Mazkur monolog-orzudan so‘ng muallif yana tun peyzaj tasviriga qaytadi: “Oy ko‘k dengizida qip-yalang‘och suzib yurardi. U tashqariga gulxan yoqib, hasharchilar qandaydir rok muzikaga dikonglashayotgan shiypon tomon borar ekan, yaqin kunlarda boshlanajak yangi hikoya haqida o‘ylardi. U bilan tun ham dalalar uzra qadam tashlab yurar, sarpo kiyib olgan qora po‘stinda zarhal ziraklar yaltirardi” [8, 138]. Ko‘kda oy qip-yalang‘och suzib yurganidek, Shamsi Saloh ham tun qo‘ynida yalang‘och his-tuyg‘ulari bilan sarosar kezardi. Shamsi Salohning pokizalik timsoli bo‘lgan - Muazzam haqidagi o‘y-xayollari u bilan shiypon tomon birgalikda odimlayotgan qora tun kabi xayollari ham tund, badbin, mavhum edi. Qahramonning egniga kiyib olgan zarhal zirakli po‘stini ham uning hoy-u havaslari kabi, mashhurlikka o‘ch, kibrli, sovuq fe’l-atvoridan darak berib turibdi. Zero, badiiy adabiyotda yaltiroq kiyimlar doimo kibr-u havoning

ramziy timsoli bo‘lib kelgan.

Qissada Shamsi Salohning Muazzam haqidagi xotiralari bevosita tun bilan bog‘liq: “Mashina yana o‘nqir-cho‘nqir yo‘llardan shiyponga qaytdi. U keyinchalik o‘sha tun qo‘ynida sariq pardali deraza ostida turib qo‘shiq eshitgan lahzasini ko‘p qo‘msagandi; bu xotira keyinchalik ham uni Muazzam qolib ketgan o‘sha tundagi olis manzilga tez-tez boshlab kelar edi”. Asarda joy tasviri, tun, sariq pardali deraza, jozibali qo‘shiq – bularning barchasi birlashib, Shamsi Salohning Muazzam haqidagi xotiralarini tiriltiraveradi.

Muallif Muazzamning ruhiy holatini tasvirlashda paxta dalasi tasviridan ham unumli foydalanib, shunday satrlar bitadi: “Muazzam undan ham atrofdagi g‘o‘zalarning shitirlaridan ham uyalayotganday yerdan ko‘z uzmas, durrachasi chetida chiqib turgan bir tutam sochi peshonasiga tushganini ham sezmasdi. O, qanchalar suluv edi bu ayol! – go‘yo bu yerlarga o‘zining tashrifi malham ekanligini sezganday qaroqchilar talab ketgan manzil kabi mung‘ayib turgan paxtazorda qishloq ayolining qismatini yopinib, milklariga yosh qalqqancha quyoshning o‘zi o‘tirardi” [8, 154]. Muazzamdagi kuchli or-nomus tasviri juda shoirona bir tarzda ifodalangan. Ya’ni adib ayolning oldida turgan Shamsi Salohdan, qolaversa, hatto g‘o‘zalarning shitirlaridan ham uyalyapti, deya ta’riflar ekan, “mung‘ayib turgan paxtazor qishloq ayolining qismatini yopinib olgan” – deya tasvirlaydi. Yozuvchi paxtazorni - oppoq, pok, iymonli o‘zbek ayolining sofdilligiga mengzaydi.

N.Eshonqulning “Momoqo‘shiq” qissasida Muazzam va Shamsi Salohning hayotiy a’mollari bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilib, aslida “baxt va baxtsizlik nima?” – degan savollarga javob izlanadi. Adabiyotshunos olima M. Mirqosimova “Yozuvchi Nazar Eshonqul ijodiga chizgilar” maqolasida: “Afsuski, cho‘kayotgan tun, qizargan shafaq, churalay aytib, sigir sog‘ayotgan suluv ayol, dala uzra yugurib yurgan kuzgi shabada... Bular hammasi naqadar uyg‘un, naqadar go‘zal va betakror ediki, Shamsi Saloh bularning bariga yot, begona odam edi. Shu bois Momoqo‘shiq ham, bu manzara, atrofdagi tabiiy go‘zallik – bari uniki emas edi, uning tasavvuriga zid o‘ta jo‘n va sodda, ayni chog‘da go‘zal edi! Shamsi Saloh uni hayratga solgan go‘zallik ana shu jo‘nlik, soddalik, samimiylikka uyg‘un ekanini idrok eta olmaydi,” – deb yozgan va obraz ruhiyatiga ishora qilgan. Darhaqiqat, N.Eshonqul “Momoqo‘shiq” qissasida kuz fasli, paxta dalalari va terimchi qizlar tasvirini tabiat tasviri bilan uyg‘un holda aks ettiradi: “Kuz tongi salqin va xush havo bo‘ladi; endi quyoshning tafti tongi qirovlarnigina eritishga zo‘rg‘a yetadi; subhi-sodiqdanoq bu yerlarni tashlab ketayotgan qushlarning sayrog‘i, qiyqiriqlari quloqqa chalinadi; uzoq-uzoqlardagi tog‘larga langar tashlagan ayoz qo‘shinlari hali quyosh kezib yurgan cho‘llarga va paxtazorlarga tajovuzkor nazar tashlaydi, sahar paytlari esa kuchi va istehkomini bilib olmoqchi kabi bu yerlarga tumanlar josusona sirg‘alib kiradi, quyosh chiqishi bilan yana tog‘lar orasiga yashirinadi. Kuz tongida yuragingda paxtazor kabi sirli va xatarli nimadir uyg‘onadi, lekin u tuyg‘uning sen hech qachon toplmaysan, zotan, bu tuyg‘uning oti ham bo‘lmaydi”. Mazkur parchada adib kuz tasvirini poetik nigoh bilan badiiy aks ettiradi: kuz tongining salqinligini – “tog‘larga langar tashlagan ayoz qo‘shinlari”, “tajovuzkor nazar”, tuman tushishini – “tumanlar josusona sirg‘alib kiradi”, kuz tongidagi tuyg‘u – “paxtazor kabi sirli va xatarli nimadir uyg‘otadi”, so‘nik quyosh nurining qizlarga tushishini – “quyosh qomatlarning qay bir yeridandir o‘z aksini topayotgandek, suqli ko‘zini tikadi”, quyoshning osmonda kezinib yurishini – “osmon ko‘shkida to‘xtab-to‘xtab kezib yuradi” va shu tarzda ifoda etadi. Bu tasvirlar esa qissa qahramonlari ruhiyatiga xos ramziy ma’nolarni ifoda qiladi.

Xulosa. Xulosa shuki, ijodkorlar tabiat manzaralarini tasvirlash – peyzaj tasviri orqali o‘quvchiga ta’sir etishni, undagi go‘zallik tuyg‘ularini tarbiyalashni ham ko‘zda tutadi. X.Do‘stmuhammad, S.O‘nar, N.Eshonqul, A.Yo‘ldosh qalamiga mansub asarlarda tabiat manzaralari va joy tasvirlari qahramon ruhiy kechinmalari bilan uzviy ravishda bog‘liq bo‘lib, har bir ijodkor original va individual tarzda mahorat bilan tasvirlaganini kuzatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Султонова М. Пейзаж санъати. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 9.
2. Набиев Ф. Пейзаж ва маънавий санъатлар. Адабий мерос, 1977.
3. Малехова А.Н. Заметки о поэтики пейзажа в поэме “Лисон-ат-тайр”. - Вестник Ленинградского университета, 1977. № 2.
4. Султонова М. Пейзаж санъати. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 88.
5. Қуронов Д., Мамажонов З., ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Akademnashr, 2010, – Б. 220.
6. Қўчқорова М. “Озодлик ва “Фиеста” асарларида рамз ва пейзаж. // Ёшлик. – Тошкент. 2010.7-

сон. – Б. 47 б.
7. Қўчқорова М. Руҳиятга мутаносиблик. // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2006. 2-сон. – Б. 39-42.
8. Малехова А.Н. Заметки о поэтике пейзажа в поэме “Лисонут-тайр, Вестник Ленинградского университета, 1977, № 2; Набиев Ф. Пейзаж ва маънавий санъатлар. Адабий мерос, 1977.
9. Эшонқул Н. Момоқўшиқ. // Ялпиз ҳиди. – Тошкент: Шарқ, 2008. – Б. 113.
10. Мирқосимова М. Ёзувчи Назар Эшонқул ижодига чизгилар. // Сўз изтироблари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2010. – Б. 51.

FOLKLORIZMNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Botirova Feruza
Qarshi davlat universiteti
Yangi o‘zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi
kafedrasi doktoranti
Botirova_Feruza95@mail.ru
0009-0005-5528-1959
УЎК 398(045)

Annotatsiya. Ushbu maqolada folklorizmga xos janr, motiv, obraz hamda tasviriy vositalar tahlil etilgan. Yozuvchi ijodining o‘ziga xosligida, poetikasida folklorizmning o‘rni masalasi tadqiq qilinib, ilmiy xulosalar chiqarilgan. Ta’kidlash kerakki, folklorizm, postfolklor, xalq og‘zaki ijodining poetikasi va motivlari stilizatsiyasi, mifologizatsiya, metaforizatsiya singari badiiy ijod bilan bog‘liq badiiy hodisalarning asoslari oydinlashmoqda hamda yozma adabiyotning og‘zaki ijod bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlanib kelayotganini antropotsentrik nuqtayi nazardan asoslashda zaruratga aylanmoqda. Chunki yozma adabiyotda folklorning ta’siri juda katta, bu orqali yozuvchi xalq og‘zaki ijodi an’analaridan foydalanish san’ati orqali o‘zining ijodkorlik mahoratining ko‘p qirralarini ochib bera oladi. Folklorning xos xususiyatlarini badiiy ijodga singdirilishi ijodkorning iste’dodiga bog‘liq bo‘ladi. Ushbu maqolada mazkur ilmiy muammo doirasida fikr yuritiladi va folkorizmning o‘ziga xosliklari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar. folklorizm, janr, mavzu, motiv, obraz, rituallar, tasviriy vositalar, traditsionalizm, mahorat, poetik yangilanish, sinkretizm.

DISTINCTIVE FEATURES OF FOLKLORISM

Abstract. This article analyzes the genre,image,and pictorial means specific to folklore.The role of folklorism in the originality and poetics of the writers work was studied and scientific conclusion were drawn.It should be noted that the basics of artistic phenomenia related to artistic creation,such as folklorism,post-folklore,poetics and motifs of folklore,stylization,mythologizing,metaphorization,are becoming clear,and it is becoming necessary to justify the development of written literature in an integral connection with oral creativity from an anthropocentric point of view.Because the influence of folklore in written literature is very large, through this the writer can reveal many aspects of his creative skills through the art of using the traditions of folk art.This article reflects on this scientific problem and analyzes the peculiarities of folklorism.

Key words. Folklorism,genre,theme,motif,image,rituals,pictorial means,tradionalism,skill, poetic renewal

Kirish. Bugungi kunga kelib jahon adabiyotshunosligi va folklorshunosligida XXI asr kishisining hozirga qadar o‘z tafakkur tarzida mifologik tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lgan obrazlar, poetik ijodda ularni zamon va makon voqeliklari bilan bog‘lab stilizatsiya va metaforizatsiya qilayotganini ijtimoiy-psixologik, badiiy-estetik omillarini ochishga va buni milliy qadriyatlar bilan bog‘lashga ko‘pdan qiziqish ortib bormoqda. Buning natijasida folklorizm, postfolklor, xalq og‘zaki ijodining poetikasi va motivlari stilizatsiyasi, mifologizatsiya, metaforizatsiya singari badiiy ijod bilan bog‘liq badiiy hodisalarning asoslari oydinlashmoqda hamda yozma adabiyotning og‘zaki ijod bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlanib kelayotganini antropotsentrik nuqtayi nazardan asoslashda zaruratga aylanmoqda. Adabiyotshunoslikda zamonaviy adabiyotning barcha ijod turlarida mifologik motiv, syujet va obrazlarning o‘z vazifalaridan ijodkorlar umumiy poetik qonuniyatlar asosida o‘ziga xos uslubiy mahoratini namoyon qilib, ijodkorning mifologik tasavvurning obrazlantirilishiga xos ijtimoiy-psixologik, lingvokulьturologik qarashlar shakllandi. Shuningdek, turkiy xalqlar mifologiyasi ham asrlar davomida xalqimizning ruhiy, ijtimoiy hayotiga chuqur singishib, bugungi kunda adabiyotshunosligimizda xalqimiz poetik dunyoqarashining mif – marosim – folklor – yozma adabiyot ko‘rinishidagi taraqqiyot jarayoni o‘rganila boshlandi.

Adabiyotlar tahlili. Mumtoz adabiyotimizdan to hozirga qadar o‘zbek adabiyotining

zabardast vakillari folklor obrazlaridan ijodiy foydalanganlar. Buni ilg‘ash ijodkor fikrini chuqurroq anglash hamda asarlarida aks etgan jozibani his etish uchun xizmat qiladi. Ijodkorning poetik mahorat darajasini yanada yorqinroq tasavvur qilish barobarida u yashagan zamon va makonning ijodkor ruhiyatida aks etgan ta’sirini teran anglashda muhimdir. Bu muammoni o‘rganishdan oldin U. Amonovning “XX asr boshlarida o‘zbek folklorining o‘rganilishi tarixi (Abdurauf Fitrat, G‘ozi Olim Yunusov va Elbek faoliyati misolida)” mavzuidagi PhD tadqiqotini esga olib o‘tish joizdir [1, 53]. Chunki unda jadidlarning, jumladan, Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Elbek (M.Yunusov) folklorizmlari tahlil va tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘z davrida jadid ijodkorlari asarlarida folklor asarlariga xos sodda shakl va ifoda uslubi, an’anaviy epik obraz va motivlar, o‘ynoqi va serjilo ohangdan foydalanib, folklorizmlarni yaratishga erisha olganlar. Shu bilan o‘zining xalq ijodiga cheksiz ixlosini namoyon etish barobarida uning katta bilimdonlaridan biri ekanini ham ko‘rsata bilganlar.

Badiiy tafakkurning mifopoetik bosqichga xos asosiy xususiyat sifatida sinkretiklik ko‘rsatiladi. Sinkretizm yunoncha “farqlamaslik” so‘zidan olingan bo‘lib, butun borliqni yaxlit tushunish demakdik. Sinkretizm – “inson tafakkurining hali bo‘linmagan holati”. Ya’ni, “tabiat bilan insonni, so‘z bilan u anglatgan narsani, “men” bilan “o‘zga”ni, hayotiy amal bilan san’atni farqlamasdan qabul qiladigan, hali abstrakt fikrlash va reflektsiya (o‘zini anglash)ga qobil bo‘lmagan ongga xos tafakkur nazarda tutiladi”.

Arxaik bosqichda san’at ham bir butun hodisa bo‘lgan. Bu davrda san’atning turlari, umuman, ularni turlarga ajratuvchi chegara mavjud emasdi. Shu ma’noda, san’atshunoslar sinkretizm istilohini san’atning qadimiy, hali turlarga xos spetsifik xususiyatlar bo‘y ko‘rsatmagan shakliga nisbatan ham qo‘llaydilar. Qadimgi odamlarning diniy rituallari sinkretizmga yorqin misol bo‘la oladi. Bunday rituallarda odamlar bir vaqtning o‘zida qo‘shiq kuylashi (tabiatga murojaat qilib omonlik yoki yaxshi o‘lja so‘rashi), raqsga tushishi, nog‘ora chalish yo sahna elementlarini ko‘rsatishi mumkin edi. E’tiborli jihati, rituallardagi san’at hodisalarining biri ikkinchisidan farqlanmagan. Boshqacha aytganda, bu “san’at” shu rituallardagina mavjud bo‘lgan yaxlit marosimning muhim elementlari hisoblangan. Bunda folklor marosimlarini tasvirlar ekan, nafaqat syujet talablariga balki asar mazmuniga hamda g‘oyasiga jiddiy aloqadorligi ham nazarda tutilgan.

Arxaik bosqichda “inson tafakkurining hali bo‘linmagan”ligi, paleolit davrining shart-sharoitlari bilan bevosita bog‘liq. Zero yuqorida ham qayd etganimizdek, bu davrda inson ongi serqirra ijtimoiy munosabatlar asosida emas, tabiatning tabiiy hodisalari, tabiiy shart-sharoitlari ta’sirida rivojlangan. Shu omil tufayli, inson o‘zini tabiatning ajralmas bir qismi sifatida his qila olardi, xolos. Biz buni eng qadimgi xalq og‘zaki ijodi namunalari misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

Yirik falklorshunos Olga Freydenberg mifga “tafakkurning beixtiyor shakli” deya ta’rif beradi. Darhaqiqat, qadimgi insonlar miflarni qasddan yaratmaganlar. Miflar odamlarning kundalik hayotidagi urf-odatlari va rituallari doirasida o‘z-o‘zidan, mavjud udumlarning bayoni sifatida paydo bo‘lgan.

Ibtidoiy odamlar uchun mif olamni bilishning asosiy vositasi hisoblangan. Shu ma’noda miflar qadimgi odamlarning fikrlash tarzi, dunyoqarashi haqida keng ma’lumot bera oladi. Inson o‘zini borliqning bir bo‘lagi sifatida anglagan kezlarda atrofidagi narsalarga ham o‘zidagi sifatlardan kelib chiqib baho bergan. Shu sababli u tabiatdagi narsalarga insonga xos xususiyatlarni ko‘chirgan. Ya’ni qadimgi odamning tasavvuricha, atrofdagi narsalar ham inson kabi fikrlaydi, inson kabi hayot kechiradi. Mifning fetishizm, animizm va totemizm kabi turlari ham ana shu tasavvurlarning mahsulidir.

An’anaviylik - mifologik tafakkur taraqqiyotida nisbatan eng uzoq muddat, qariyb, ikki yarim ming yil davom etgan shakllangan qarashlar, diniy va maishiy hayotda sinovdan o‘tgan hamda asosini topgan bosqichdir. Mazkur bosqichning bu qadar uzoq muddat davom etgani asrlar davomida ijtimoiy shart-sharoitning ibtidoiy va feodal tarzining barqarorligi, mustahkamlanib borgan diniy e’tiqod, xalqlararo aloqaning sustligi, ilm-fanning mutaassiblik qurboni o‘laroq rivojlanmagani kabi qator omillar bilan bog‘lanadi. Ta’kidlash zarurki, an’anaviylikning ikki yarim ming yillik umri dunyo madaniyati tarixidagi umumiy hisob bo‘lib, u alohida olingan tamaddunlarda uzoq yashamagan. Ijtimoiy shart-sharoitning o‘zgarishi, yangi paradigma va inson konsepsiyasining shakllanishiga qarab traditsionalizm G‘arb-u Sharqda turli davrlarda, turlicha vaqt chegaralarida dominantlik qilgan.

Mifopoetik tafakkur bosqichida sinkretizm muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, an’anaviylik san’at turlariga o‘zidagi spetsifik jihatlarni yaqqol ko‘rsata boshladi. Jumladan, adabiyot ham alohida soha sifatida shakllandi va to islomga qadar mifologik tafakkur asosida shakllandi.

Ilk yozma adabiyotdan to hozirga qadar adabiyotda traditsionalizmni farqlovchi eng muhim jihat ijodiy jarayonda an’anaviylikning ustun turishidir. Xususan, Sharq mumtoz adabiyotida ijodkor mavzuni yoritishda imkon qadar ijtimoiylikdan qochadi, ifodada zamon va makon uyg‘unligini ta’minlamaydi, qolaversa, talqinda o‘ziga xoslikka intilmaydi. Ya’ni bu davr ijodkorlari o‘zining shaxsiy kechinmalarini, an’anadan keskin farq qiluvchi fikr va g‘oyalarini ilgari surmagan. Professor D. Quronov bu haqda shunday yozadi: “…garchi mumtoz she’rda ko‘ngil izhori asosan “men” tilidan berilsa-da, haqiqatda uning ortida muayyan bir shaxs emas, ko‘proq o‘quvchiga avvaldan tanish lirik subyektlardan biri – oshiq, mutafakkir, nosih yo zamonadan kuygan jabrdiyda namoyon bo‘laveradi. Ayni hol jamiyatda shaxs maqomi kuchaygan sharoitga muvofiq emas” [10. B.192]. Xuddi shu jihatlar sharq mumtoz adabiyotida muallif shaxsiyatiga ham parda tortadi. Ba’zan muallif yozgan asariga o‘z imzosini ham qo‘ymagan. Zero, olamni faqat diniy-axloqiy mezonlar asosida tushungan inson, tabiiy ravishda, hayotini qat’iy an’analar asosiga qurgan. Bu davr estetik qarashlarining birlamchi haqiqati sifatida dunyoning foniy ekanligi aytilgan, san’atkor uchun chinakam go‘zallik esa olam va odamning botini hisoblangan.

Sharq adabiyotda estetik tasavvurlar axloqdan ajratilmagan. Zotan mumtoz mutafakkirlar nazdida insonning asl husni uning ma’naviy go‘zalligidir. Shu kabi omillar sabab bu davrda insonning realistik tasviri badiiy qiymatga ega emasdi. Ya’ni, mumtoz ijodkor qahramonlarni real voqelikdagi xatti-harakatlari vositasida emas, balki mutlaq ideal tushunchalar orqali tasvirlaydi. Ya’ni qahramonda eng go‘zal islomiy sifatlar (taqvo, ilm, odob, adolat, ma’rifat va b.) mavjudligini ta’rifda aytilganining o‘zi yetarli hisoblangan (ya’ni, masalan, taqvoli odam deyilishining o‘zida qiyofa haqidagi an’anaviy tasavvur ham bor). Shu sababli ham shoir qahramondagi shunday sifatlar ta’rifiga ko‘proq urg‘u beradi: sifat qay darajada mukammal va original ta’riflansa, shu darajada individual qiyofa hosil bo‘ladi. Natijada yerdan butunlay uzilgan, Sharqning ideal g‘oya va maqsadlariga yo‘g‘rilgan qahramon yaratiladi. Shu o‘rinda o‘rta asarlar falsafasiga rus adabiyotshunosi Yuriy Borevning: “…inson – gunohkor banda, cho‘qqilarni zabt etishga yo‘nalish olgan va kamolga yetgach, dunyo saodatiga erishish uchun dunyo ne’matlaridan voz kechgan – muqaddas zot” deya bergan ta’rifi Sharq mumtoz adabiyotidagi komil inson konsepsiyasiga ham mos ekanini qayd etmoq zarur.

Natija va muhokama. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, badiiy tafakkurdagi traditsionalizm Sharqda G‘arbga nisbatan ancha uzoq muddat davom etadi. Xususan, milliy adabiyotimizda mumtoz adabiyot an’analari XX asr boshlarigacha davom etgani ma’lum. Bu vaqtga kelib ma’rifatchilik, sentimentalizm, romantizm kabi bosqichlardan o‘tib kelgan G‘arb badiiy tafakkuri realizm va modernizm ta’sirida sayqal topayotgandi. Bizda mazkur bosqichlarning ancha kech boshlangani, balki, qurama shaklda, bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘lgani ijtimoiy shart-sharoit va kommunikatsiya bilan bog‘liq. Zero, Turkistonda XX asrning boshlariga kelibgina an’anaviy badiiy tafakkur qobig‘idan chiqish imkonini beruvchi ijtimoiy shart-sharoit vujudga keldi.

XX asr boshlarida ijtimoiy-madaniy hayotimizda sodir bo‘lgan tub burilishlar, xususan, davriy nashrlarning paydo bo‘lishi, jadidlar harakatining yuzaga kelishi, xorijiy adabiy oqimlarning ta’siri natijasida birin-ketin realistik asarlar dunyo yuzini ko‘ra boshladi. Professor D. Quronov XX asr avvalida badiiy tafakkurda kechgan yangilanishning bosh omilini shunday izohlaydi: “Hamma gap XX asr boshlari Turkiston jamiyatida shaxs maqomining o‘zgargani, insonning ijtimoiylashganida. Sodda qilib aytsak, Turkiston kishisi jamiyatning ahvoli, buguni va ertasi, mavjud holning sababi – xullas, siyosat haqida bosh qotiradigan bo‘ldi”. Haqiqatan ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan keskin o‘zgarishlar shu ijtimoiylikning bir bo‘lagi – ijodkor shaxsini chetlab o‘tmadi. Endi ijodkorning inson haqidagi, uning olamdagi o‘rni va maqomi haqidagi tasavvurlari o‘zgardi. Shunga mos ravishda, adabiyotda olam va odam munosabatlari haqidagi badiiy konsepsiya (inson konsepsiyasi) yangilanishi natijasida individual-ijodiy badiiy tafakkur bosqichiga o‘tildi.

Xulosa. Individuallikda ijodiy badiiy tafakkur bosqichning asosiy farqlovchi xususiyati realistik ifodadan iboratdir. An’anaviy qoliplar ta’siridan chiqa olgan ijodkor olamni individual tarzda badiiy mushohada qila boshladi. Adabiyot voqelikka, ijtimoiy hayotga yuzlandi. Badiiy

mushohada obyekti san’atkor ko‘nglidan chiqib, voqelikka ko‘chib o‘tdi. Bu esa tabiiy ravishda badiiy obrazning, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarning realistik ifodasini talab qiladi. Shu ma’noda biz jadid ijodkorlarining asarlaridagi induviduallikni folklorizmdan muvaffaqiyatli foydalana olganlari ham bo‘rttirib bera olgan deya olamiz.

Individual-ijodiy badiiy tafakkur zamonaviy o‘zbek adabiyoti deb ataluvchi katta bir bosqichni qamrab olgan bo‘sa-da, bu bosqichning o‘zi ham bir necha davrlarga ajralishini unutmasligimiz darkor. Zero, XX hamda XXI asrga xos ko‘plab umumiy qonuniyatlar asosida shakllangan individual-ijodiy badiiy tafakkurda folklorizmning yashovchan bo‘lib qolishi shu davrlarning turli ijtimoiy shart-sharoitida vujudga kelgan inson konsepsiyasi ta’sirida bir necha ichki bosqichlarga ham egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Хазанкович Ю.Г.Фольклорно-эпические традиции в прозе малочисленных народов России (на материале мансийской, ненецкой, нивхской, хантыйской, чукотской и звенкийской литератур):Автореф.дис…докт.филол.наук. – Москва,2009.

2.Хазов В.К. Мифологемы российской культуры постсоветского периода (1990-е годы): философский анализ. Автореф. Канд философ. наук. - Астрахань, 2009.

3. Хўжаев Т. XV аср биринчи ярми ўзбек адабиёти ва фольклор. Филол.фан.ном. … дисс. автореф. – Тошкент, 1996;

4. Халилов М. Прозамиз тараққиётида фольклорнинг аҳамияти //Ўзбек тили ва адабиёти, 1978. - №2

5.Холиқова Д. Ҳозирги ўзбек шеъриятида фольклор анъаналари ва бадиий маҳорат. Филол.фан.ном. … дисс.автореф. – Тошкент.2011.

6. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Т.: Академнашр, 2018.

7. Шарипова Л. XX асрнинг 70–80-йиллари ўзбек шеъриятида фольклоризмлар. филол фан. номз. дисс. –Тошкент, 2008.

8. Шарипова Л. XX асрнинг 70–80-йиллари ўзбек шеъриятида фольклоризм. –Тошкент: Фан, 2011.

HIKOYA JANRINING BADIIY XUSUSIYATLARI VA HIKOYACHILIKDA BADIIY XRONOTOPNING O‘RNI

Berdiyeva Zulayxo Ochilovna
Qarshi davlat universiteti 1-bosqich doktoranti
zulayxoberdiyeva1996@gmail.com
ORCID: 0009-0003-0916-7886
UDK: 894. 375-32 (045)

Annotatsiya. Ushbu maqolada hikoya janrining rivojlanishi, taraqqiyoti hamda hikoya janrining shakllanishida badiiy xronotopning ahamiyati, xronotop atamasining tub istilohiy mazmun-mohiyati yangi o‘zbek adabiyotining vakili Sobir O‘nar ijodi misolida badiiy-tadrijiy jihatdan o‘rganilgan. Adib hikoyalarida voqelikni ifodalashda shunchaki gapirib, so‘zlab berish emas, balki kitobxonni noma’lum bo‘lgan “nimagadir” ishontirishi, shu orqali ma’naviy dunyosiga “nimadir” yuqtirishi ham ijodkorning asosiy maqsadlardan biri sanaladi. Hikoya qahramonining ichki kechinmalarini yoritishda yozuvchi shunday yo‘ldan boradiki, o‘quvchi qahramon bilan yaxlitlikni o‘zida tuygandek bo‘ladi. Uning dardi bilan yonadi, yashaydi va ba’zi o‘rinlarda unga dalda bo‘lgisi keladi.

Mazkur maqolada yuqoridagi nazariy kuzatishlarimiz orqali Sobir O‘nar hikoyalarida xronotopning syujet va janriy xususiyatlar bilan uyg‘un ravishda ifodalanishi tadqiq qilinadi..

Kalit so‘zlar. hikoya, xronotop, badiiy haqiqat, makon va zamon tushunchasi, badiiy psixologizm, syujet, kompozitsiya.

ARTISTIC FEATURES OF THE STORY GENRE AND THE PLACE OF ARTISTIC CHRONOTOPE IN STORYTELLING

Abstract. In this article, the importance of the artistic chronotope in the development, development and formation of the story genre, the fundamental content of the term chronotope is studied in terms of art on the example of the work of the new Uzbek literature, the representative of the new Uzbek literature.. In the story of the author, one of the main goals of the creator is not only to speak and speak, but also to convince the reader "something" that is unknown, thereby infecting the spiritual world "something". In covering the inner experiences of the protagonist of the story, the writer goes through a way that the reader seems to feel integrity with the protagonist. He burns with his pain, lives, and in some places he wants to encourage him.

In this article, through our theoretical observations above, in the stories of Sabir Onar, the story of the

chronotope is studied in harmony with the plot and genre features.

Key words. short story, chronotope, artistic reality, concept of space and time, artistic psychologism, plot, composition

Kirish. O‘zbek adabiyotida, xususan, nasrida hikoya janri badiiy jihatdan saviyasi baland, keng qamrovli janr hisoblanadi. Hikoya epik janr bo‘lib, unda ijodkor tomonidan yoritiladigan mavzular insonlarning kundalik turmush tarzi va orzu-umidlari bilan birga ruhiy kechinmalari ixcham bayon qilinadi. Hikoya janriga oid bo‘lgan asarlar, dastavval, xalq og‘zaki ijodi namunalari tarkibida bayon etilgan. Insonlarga ma’naviy va ruhiy ozuqa beruvchi ushbu didaktik ruhdagi janrda badiiy xronotopning ham ahamiyati katta. Norvegiyalik adabiyotshunos Xuan Rulfo hikoya janri haqida ,,Mening nazarimda, hikoya romandan ham qiyin va mas’uliyatli janrdir”, deb ta’kidlaydi [1.63]. Inson ijtimoiy munosabatlarning subyekti va uning hayoti hamma vaqt makon va zamon oralig‘ida, ular bilan bog‘liq holatda kechadi. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida hamda jahon adabiyoti durdonalariga aylangan hikoyalarda xronotop bilan bog‘liq holatlar tadqiqi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada hikoya janri imkoniyatlari doirasidan kelib chiqqan holda xronotop bilan bog‘liq holatlar yangicha usul va yondashuvlar asosida tadqiq etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, analitik, germenevtik hamda sotsiologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. Hikoya janrining o‘ziga xos jihatlari, bu janrga xos bo‘lgan spetsifik xususiyatlar jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida chuqur ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganilgan. Hikoya janri epik turning kichik janri bo‘lishiga qaramasdan, inson ruhiyatiga pafosga yo‘g‘rilgan keng qamrovli ma’naviy, ruhiy ozuqani yetkazib beradi. Bu jarayon o‘z navbatida ijodkordan katta ma’suliyat hamda yuksak iste’dodni talab etadi. O‘zbek adabiyotida bir qator serqirra ijodkorlar ushbu janr rivoji va taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shganlar. Jumladan XX asr o‘zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy (,,Jinlar bazmi”, “Uloqda”), Abdulla Qahhor (“Bemor”, “O‘g‘ri”, “Anor”, “Dahshat” va sh.k), Shukur Xolmirzayev (“Zov ostida adashuv”, “Kulgan bilan kuldirgan”) kabi mohir hikoyanavislar va bular bilan bir qatorda Said Ahmad, Normurod Norqobilov, Xurshid Do‘stmuhammad, Nazar Eshonqul, Sobir O‘nar, Shoyim Bo‘tayev, Ulug‘bek Hamdam va boshqalar samarali ijod qilishgan. Bu ijodkorlarning ko‘plab hikoyalari tarbiyaviy ahamiyatga molikligi va didaktik ruhda ekanligi bilan ajralib turadi. XX asr hikoyachiligida bir qator mavzularga murojaat qilingan. Bular ko‘proq tarixiy va zamonaviy mavzulardir. Hikoyalarda sevgi-muhabbat, sadoqat, milliy urf-odatlar qalamga olingan.

Jahon adabiyotshunosligi tarixida J.London, S.Sveyg, H.Hesse, O.Genri, Mopassan singari adiblarimiz ham ilmiy-badiiy jihatdan mag‘zi bo‘liq, teran hikoyalar muallifi sifatida e’tirofga loyiqdirlar. Bu ijodkorlar bilan bir qatorda L.N.Tolstoy, U.Folkner, M.Sholoxov kabilar esa bir-ikki hikoyasi misolida betakror san’at namunasini meros qoldirgan yozuvchilar sanaladi. Tolstoyning ,,Avliyo Sergey”, Folknerning ,,Qora musiqa”, Sholoxovning ,,Xol” hikoyalari mana shunday noyob badiiy kashfiyotlar hisoblanadi [2.5].

Hikoya janrining badiiy xususiyatlari XXI asrga kelib yaratilayotgan hikoyalarda bir qadar takomillashib, rivojlanib bordi. Xususan, bu davr hikoyachiligida modernizm nafasi sezilib turadi hamda adabiy jarayon va unda ijod etayotgan ijodkorlar asarlari ham yangicha uslub va ko‘rinish kasb etdi. Bu davr hikoyachiligining o‘ziga xos jihati shundaki, inson psixologiyasini keng yoritib berish va inson his-tuyg‘ulariga e’tibor kuchaydi.

Zamonaviy adabiyotda yaratilgan hikoyalarda badiiy haqiqat har bir insonni alohida bir olam sifatida aks ettirishga urinish tarzida tasvirlanadi.

Adabiyotshunoslikning badiiy adabiyot va shu adabiyotning asosiy obyekti bo‘lgan inson obraziga bo‘lgan munosabati negizida M. Baxtinning xronotop nazariyasi ham munosib ahamiyat kasb etadi. Xronotop o‘zi nima? Uning adabiy-estetik mohiyati hamda adabiyotshunoslikdagi o‘rni qanday singari muhim savollarga javob berish va hikoya janri taraqqiyotida xronotopning ahamiyati va muhimligi haqida so‘z yuritishimiz maqsadga muvofiqdir. Xronotop adabiyotshunoslikda, ayniqsa, badiiy matnlarni tahlil qilishda qo‘llaniladigan muhim tushuncha. Xronotop, odatda, vaqt va makonning o‘zaro aloqasi va ularning badiiy matndagi ta’sirini anglatadi. M. Baxtinning fikriga ko‘ra, xronotop badiiy asar ichidagi vaqt va makonning shakllanishi, ularning bir-biriga bo‘lgan munosabati va ularni tasvirlash usullarining birligi. Xronotop har bir adabiy asar uchun o‘ziga xos bo‘lib, yozuvchi o‘z asarida qanday vaqt va makonni aks ettirsa, ular o‘zaro qanday aloqada bo‘lishini yaratadi. Misol uchun, adabiy asarda

voqealar qaysi vaqtda va qaysi makonda sodir bo‘lishi, bu voqealar orasidagi vaqt o‘tish davri, personajlar va ularning harakatlarining makon bilan bog‘liqligi kabi omillar xronotopni tashkil etadi. Olim buni badiiy asarlarning shaklini aniqlovchi muhim omil deb hisoblaydi.

Xronotopning boshqa bir tomoni shundaki, u faqat makon va vaqtni tasvirlabgina qolmay, balki bu ikki tushuncha orqali insoniyatning ijtimoiy va ruhiy holatini, uning atrofdagi olam bilan aloqasini ham aks ettiradi. Dostoyevskiy asarlarida xronotop, ko‘pincha, qorong‘i, tortishuvli va noaniq makonlarda vujudga keladi, bu esa personajlarning ruhiy holatini yoritishda yordam beradi. Joyjening “Uliss” asarida esa vaqt va makonning murakkab o‘zaro aloqasi asar strukturasi uchun markaziy o‘rin tutadi. Xronotopning o‘rganilishi, adabiyotshunoslarga asarlarni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi va yozuvchi tomonidan yaratilgan badiiy olamning tuzilishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

M. Baxtin XX asrning 30-yillarida xronotop tushunchasini adabiyotshunoslikka olib kirar ekan, uning badiiy asar negizidagi janr, kompozitsiya, syujet, badiiy matn strukturasi, obrazlar poetikasiga doir muhim qismlarni qamrab olishi, badiiy makon va zamonni uyg‘un aks ettirishini hisobga oladi [3.11]. Nima uchun bunaqa? Chunki badiiy asarning har bir tarkibiy qismi, xronotop tizimida o‘rganilmas ekan, ushbu asarni ma’no-mohiyat jihatidan mustaqil badiiy hodisa sifatida ifoda etish murakkablashadi. Kashfiyotchi olim M. Baxtinning xronotop nazariyasiga oid bo‘lgan kashfiyotlari adabiyotshunoslik uchun haqiqiy ma’noda yangilik, ilmiy-adabiy hodisa bo‘ldi. Olimning asosiy xulosalaridan shuni anglash mumkinki, xronotopning nazariy masalalari, xronotop shakllari, xronotop qiymatlari masalalari o‘rganilgan.

Hikoya janrida xronotopning o‘rni muhimdir. Xronotop, ya’ni vaqt va makonning adabiy shakllanishi, hikoyaning tuzilishi, personajlarning psixologik holatlari va umumiy mazmunini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz Sobir O‘nar hikoyalarida vaqt va makon uyg‘unligiga e’tibor qaratdik. Yozuvchi hikoyalarida xronotop odatda vaqt va makonning o‘zaro bog‘lanishiga asoslanadi. Sobir O‘narning “Jinko‘chadagi mushtipar” hikoyasini tahlil qilamiz.

„Jinko‘chadagi mushtipar”da vaqt va makon hikoyaning mazmunini chuqurlashtirish uchun ishlatiladi. Masalan, asar voqealari qaysi vaqtda va qaysi makonda sodir bo‘lishi, bu voqealarning natijalariga qanday ta’sir etishini tushinishga yordam beradi. Xronotop, ko‘pincha, hikoyaning asosiy g‘oyasi va personajlarning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Vaqt va makonning o‘zgarishi yoki voqealar orasidagi aloqalar, o‘quvchining hikoyaga nisbatan qiziqishini saqlab turadi va asarni yaxshiroq tushinishga yordam beradi. Ushbu hikoyada vaqt va makon birligi muhim ahamiyat kasb etadi. Hikoya voqealari aniq bir joyda va davrda kechadi, bu esa asarning ma’nosini ochishga xizmat qiladi.

Jinko‘cha makon sifatida mahalliy aholining tili bilan atalganda, qashshoq va og‘ir hayot kechadigan hudud.

“Jinko‘chadagi mushtipar” hikoyasida qahramonlarning ichki dunyosini ifodalashda yoki ularga nisbatan o‘quvchining empatiyasini kuchaytirishda makon va vaqt tasvirlari muhim ahamiyatga ega. Yozuvchi asar boshlanishida yoki uning o‘rtalarida vaqt va makonni aniq belgilab, hikoyaning tonini, qahramonlarning ruhiy holatini yoki voqealar rivojini kuzatishni osonlashtiradi. Yuqoridagi hikoyada makon tasviri bo‘lgan jinko‘cha qashshoqlik, ijtimoiy tengsizlik va qiyinchiliklarga to‘la makon sifatida, hikoya atmosferasini belgilab beradi. Hikoyada tasvirlangan badiiy xronotop shakllari, bevosita asar qahramonlarining ruhiy holatlari hamda botiniy kechinmalarini ochish uchun ham xizmat qiladi. Yozuvchi hikoyada tanlab olgan tor va ivirsigan jinko‘cha xronotopi tasviri ham qahramon talaba yigitning o‘y-xayollariga hamohangdir. O‘zi oddiygina talaba bo‘lgan yigit, shu torgina ko‘chada yolg‘iz o‘zi yakka-yu yagona suyanchig‘i – o‘g‘lini kutib kun o‘tkazadigan, darvozasi yonida o‘tgan-ketganga yuvoshgina termilib qarab turadigan bu soddadil kampirga bir og‘iz shirin so‘z bilan bo‘lsa-da, dalda bo‘la olmaganligidan iztirob chekadi, dunyodagi eng yomon musibatni mushtipar kampir qiyofasida ko‘rishni istamaganligidan hamisha undan o‘zini olib qochib yuradi. Hikoyadan o‘rin olgan voqealar tasvirida badiiy zamon ham qahramonlar ruhiyati va asar atmosferasini ifoda etishda muhim tirgak vazifasini bajargan. Qish, bahor, erta tong va kechgi oqshom xronotoplari bilan bog‘liq ravishda tasvirlangan voqealar negizida hikoya atmosferasi yaqqol aks etadi.

Sobir O‘nar hikoyalarida vaqtni murakkabroq, teskari yoki parallel ravishda ishlatilgan o‘rinlarga ham duch kelamiz. Masalan, hikoya o‘tmishdan kelajakga yoki kelajakdan o‘tmishga qarab rivojlanishi mumkin. Sobir O‘narning navbatdagi „Tarvuz” nomli hikoyasida xronotop

teskari va murakkab shaklda ishlatilgan bo‘lib, bu usul asarning g‘oyaviy-badiiy qatlamini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Bunday xronotop yozuvchiga voqealarni ko‘proq dramatiklashtirish, qahramonlarning psixologik holatlarini yanada aniqroq ifodalash imkonini beradi. Vaqt va makonning teskari ishlatilishi orqali, hikoyaning voqealari o‘zgacha tuzilishga ega bo‘ladi va o‘quvchi yangi g‘oyalar yoki voqealar rivojiga qo‘shilgan boshqa qatlamlarni ko‘rishi mumkin. ,,Tarvuz” hikoyasida vaqt hozirgi zamondan o‘tmishga qaytish tarzidagi tasvir orqali ifodalanadi. Buni aniq misollar orqali dalillaymiz. Hikoyaning bosh qahramoni Omondavlat dastlab hozirgi zamonda, bozorda tarvuz sotib olayotgan holatda tasvirlanadi. Ammo bu holat unga bolaligidagi voqealarni eslatib yuboradi. Bu yerda vaqtning teskari ishlatilishi yaqqol ko‘rinadi. “Dalada tarvuzlar qizargan paytlar yodimga tushdi. Otam bilan dalaga chiqqanimiz, tarvuz tanlaganimiz, ularning qarsillab yorilishi ko‘z oldimga kelaverdi”. [4.3] Bu jumlada qahramon hozirgi zamonda turgan holda, xayolan o‘tmishga qaytmoqda. Qahramonning bolalik xotiralari shunchalik jonli va u hozirgi zamon bilan aralashib ketadi. “Tarvuzning qarsillab yorilishi qulog‘im ostida yangraganday bo‘ldi. Otamning xursand kulgusi ham eshtilganday bo‘ldi. Ammo… Otam allaqachon oramizda yo‘q.” [5.3] Bu yerda qahramon bir lahzada bolalik xotirasiga, keyingi lahzada esa hozirgi zamonga qaytmoqda. Bu vaqtning teskari va murakkab ishlatilganiga yaqqol misol bo‘la oladi.

Xronotop hikoyaning psixologik va ijtimoiy aspektlarini ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sobir O‘narning “Qora chol” hikoyasida xronotop asarning ijtimoiy va psixologik qatlamlarini ham ochish uchun xizmat qiladi. Hikoya qahramoni – Qora cholning ichki kechinmalari xronotop orqali aniq ko‘rsatiladi. U tabiat va o‘zining yoshi o‘rtasidagi o‘xshashlikni his qiladi. Yillar o‘tgani sayin, tabiat o‘zgarayotgani kabi u ham o‘zgarib bormoqda. Masalan, “...uzoq-uzoqlarga qaradi. Dalalar, tog‘lar, yerlar, avvalgidek emas. Balki o‘zi ham avvalgidek emasdir…”[6.1]. Xronotop jamiyatdagi keskin ijtimoiy o‘zgarishlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan: “Avvallari dehqon yerni joni deb bilardi. Endi esa odamlar yerga yotqizilgan”. Bu joyda makon va vaqt qahramonning ruhiy o‘zgarishini aks ettiradi. Har bir tasvirlangan joy – uning hayotidagi bosqichlarni eslatadi. Qora chol tabiatdagi o‘zgarishlarni kuzatar ekan, o‘zining ham keksayib borayotganini his qiladi. Hikoyada qora chol o‘tmish bilan hozirgi jamiyatni taqqoslaydi. Ilgari odamlar tabiiy hayot tarziga yaqin bo‘lgan bo‘lsa, endi esa ularning qarashlari o‘zgargan. Bu yerda temir yo‘llarni afzal ko‘radilar” [7.1].

Sobir O‘nar hikoyalarida stereotipik yoki individual shakldagi xronotoplarni ham uchratishimiz mumkin. Yozuvchining navbatdagi “Alag‘dalik” hikoyasida qishloq muhiti, qishloq hayoti tasvirlanib, odamlarning kundalik yashash tarzi, urf-odatlari aks ettiriladi. Bu esa o‘zbek adabiyotida keng tarqalgan qishloq xronotopining na’munasidir. Alag‘dalik (adashish, sarosimalik) holati hikoyaning asosiy ruhiy xronotopidir. Bu holat qahramonning tashqi harakatlarida, balki ichki kechinmalarida ham namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Hikoya janrida xronotop nafaqat voqealar ketma-ketligini belgilash, balki hikoyaning o‘ziga xos atmosferasini yaratish, qahramonlarning ruhiy holatlarini aks ettirish va umumiy ma’no va g‘oyani chuqurlashtirishda asosiy vositadir. Hikoya vositasida insonlarga qisqa satrlarda katta ma’naviy ozuqa hamda o‘git bera olish imkoniyati mavjuddir. Vaqt va makon o‘rtasidagi aloqalar, hikoyaning syujetini shakllantiradi va kitobxonga voqealarning rivojini anglashga yordam beradi. Hikoyada vaqtning teskari va murakkab ishlatilishi qahramonning xotiralari orqali amalga oshiriladi. Ushbu uslub hikoyaga lirik ohang berib, uni yanada ta’sirchan qiladi. Sobir O‘nar hikoyalarida xronotop, nafaqat badiiy matnning tuzilishini shakllantirishda, balki asarning chuqur psixologik va falsafiy qatlamlarini yaratishda ham muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Y.Solijonov Hozirgi adabiy jarayon: o‘quv qo‘llanma .-T.:Innovatsion ziyo, 2020,- bet 63.
2. U. Jo‘raqulov. Ko‘zgu siniqlari yoxud aytilmagan so‘z qudrati./ “Yoshlik” jurnali, 2013, 5-son.
3. U. Jo‘raqulov. Mixail Baxtin kashfiyotlari /,, Jahon adabiyoti” jurnali 2014-yil 11-12-son.
4. Sobir O‘nar. “Tarvuz” hikoyasi. b.3
5. Shu manba. b.3
6. Sobir O‘nar ,, Qora chol” hikoyasi. 1.
7. Sobir O‘nar ,, Qora chol” hikoyasi. 2.
8. Normakov U. Umidbaxsh tamoyillar. –T.:Ma’naviyat, 2000. -112 bet.
9. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. Adabiy-tanqidiy maqola va risolalar. –T.: Akademnashr, 2013. -336 bet.
10. Saydulla Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. –T: Yangi asr avlodi, 2005.b 222.

11. Nasirov Azimiddin. Hozirgi adabiy jarayon. – Samarqand-2021.
12. X.Do‘stmuhammad. Milliy hikoya: izlanish, yutuqlar, istaklar. Ozod Vatan Saodati. Besh jild. – T.:ADIB, 2013. 5-jild. –B. 245.
13. Kenjayeva P. Hozirgi o‘zbek hikoyalarida qahramon ruhiyatini tasvirlash tamoyillari: Filol.fan.nom. ...diss. – Toshkent, 2008.
14. Sobir O‘nar. Chambilbelning oydalasi. Qissa va hikoyalar to‘plami. – Toshkent, 2024.
15. Sobir O‘nar. Alag‘dalik hikoyasi. – Toshkent, 2024. –B.8
16. https://Ziyo.uz.com
17. https://kh-davron.uz
18. https://kutubxona.uz

QASHQADARYO BAXSHICHILIK SAN’ATIDA IJROCHILIK AN’ANALARI

Babanazarova Gulruh Yunusovna
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi
babanazarovagulruh@gmail.com
ORCID 0009-0006-1378-5590
УЎК 398.8(045)

Anotatsiya. Jahon musiqashunosligida ma’naviy-madaniy hayotda ham butunlay yangi sahifalar ochilishi, boy tarixiy xotirasiga ega ma’naviy meros bilan haqli ravishda g‘ururlanishi xalqning o‘zligini teran anglashga olib keldi. Har bir millat madaniy merosi, shuningdek, uning o‘tmish san’atiga xos betakror xususiyatlarning e’tirof etilishi ana shu xalqning o‘zligini anglash jarayonini tadqiqi etish zarurati yuzaga keldi. Yurtimizda musiqa san’atini rivojlantirishda va ayniqsa, dostonchilik maktablari, ustoz-shogird merosini qayta tiklashda so‘nggi yillarda juda ko‘p ahamiyat berilmoqda. “Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati, eng avvalo, uning og‘zaki ijodi – folklor san’atida, doston va eposlarida mujassam topgan bo‘lib, ular millatning o‘zligini anglash, uning o‘ziga xos milliy qadriyatlari va an’analarini saqlash va rivojlantirishda bebaho manba hisoblanadi” – deya ta’kidlagan[1]. Qadimgi zamonlarda “baxshi” so‘zi xalqona usullar bilan bemorni davolovchi tabib, doira yoki boshqa cholg‘u chalib afsungarlik aytimlari orqali kasal tanasidan yovuz ruhlarni quvadigan davolovchi (hozirgacha saqlanib kelayotgan “kuch”, “qaytarma”, “jahr” marosimlarida) – shaman-baxshi yoki shaman-folbinchi, shuningdek, ayrim hududlarda “ustoz” ma’nolarini anglatgan.

Kalit so‘z. Doston, baxshi, do‘mbira, ijrochi, sozanda va bastakor.

Abstract: The opening of completely new pages in world musicology and in the spiritual and cultural life, the rightful pride in the spiritual heritage with a rich historical memory led to a deep understanding of the nation's identity. The recognition of the cultural heritage of each nation, as well as the unique characteristics of its past art, made it necessary to research the process of realizing the identity of this nation. In recent years, a lot of importance has been attached to the development of the art of music in our country, and especially to the revival of the epic schools and the heritage of the master-student. "The ancient history and culture of any nation, first of all, is embodied in its oral creation - folk art, epics and epics, which are the realization of the identity of the nation, its unique national values and traditions. it is an invaluable resource for preservation and development," he said. In ancient times, the world baxshi meant a healer (shaman-baxshi or shaman-fortune-teller) who in some ways used to cast out evil spirits from a sick person’ s body through the use of witchcraft.

Key words: baxshi, epic, performer, musician, composer.

Kirish. O‘zbekistonda dostonlar xilmaxilligi va murakkablik xususiyati nafaqat janr va mavzu nuqtayi nazaridan ham o‘rganilgan, balki an’ana va qadriyatlarga bo‘lgan munosabati va real mohiyatini to‘liq tushunib anglab yetish bilan belgilanadi. Asosiy realistik janrlar va dostondagi tendensiyalar, XIX asrdan vujudga kelgan, keyinchalik esa XX asrda rivojlandi. XX asrda esa mavjud bo‘lishni davom ettirishdi, lekin XXI asrda tamomila bu janr qaytadan kashf etildi va o‘rganilib kelinmoqda. Maqola mavzusi doirasida Surxondaryo – Qashqadaryo vohasidagi jonli folklor jarayoni qator xalq ijodkorlarini kashf etish va bir nechta xalq dostonlarini, noma va nag‘malarini yozib olish imkonini berdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola mavzusini yoritishda tarixiy-tipologik, qiyosiy-tahliliy, etnografik, semiotik tahlil usullaridan foydalanildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. San’atshunoslik fanlari doktori, professor R.S.Abdullayev “O‘zbek mumtoz musiqasi”[4] nomli o‘quv qo‘llanmasida, “Doston — o‘zbek mumtoz musiqasining yirik epik janri bo‘lib, o‘ziga xos mavqei, mazmuni, shakli, ichki qonuniyatlari va ijro uslublari bilan ajralib turadi. Xalq dostonlarida epik tasvir, ko‘pincha nasr (so‘z) bilan, lirik kechinmalar she’r va musiqa orqali ifodalanadi. O‘zbekistonda xalq dostonchiligi, shuningdek, epik hikoya, doston janri (doston, qissa, hikoya, madhiya, qasida,

sarguzasht deb nomlangan holda) o‘zining nasriy va nazmiy unsurlarini musiqa cholg‘usi jo‘rovozligida qamrab olganligida namoyon etadi”, degan fikrni bildirganlar.

Musiqiy-nazariy fanlar bo‘yicha tadqiqotchi olima, san’atshunoslik fanlari doktori, professor O.N. Azimovaning “Звуковой мир каракалпаков” nomli qo‘llanmasida “Dostonlarni to‘laqonli idrok etishda xalq tomonidan eng mashhur va sevimli dostonlarning matnlarini nashr etish ham muhim ahamiyat ega. Qoraqalpoq madaniy hayotida “Alpamish”, “ G‘or o‘g‘li”, “Qirqqiz”, “Maspatsha”, “Garip oshiq”, “Sayatxon va Hamra”, “Qon Tayim”, “Kursanbek” va boshqa ko‘plab dostonlar qoraqalpoq tilida nashr etildi, keyinroq esa o‘zbek va rus tillarida ham nashrdan chiqarildi”[5] deb qoraqalpoq dostonchiligida qilinayotgan ishlar haqida ma’lumot berilgan.

Yana bir musiqashunos tadqiqotchimiz, San’atshunoslik fanlari nomzodi, B.Matyoqubovning[9] fikri bo‘yicha “doston aytuvchisini turli hududlarda o‘ziga xos shevasida: Qashqadaryo va Surxondaryoda – yuzboshi, baxshi, shoir; Samarqandda – baxshi, Xo‘jand (Tojikiston) va O‘sh (Qirg‘iziston) viloyatlarida – soqiy yoki azanda, Farg‘ona vodiysida (Namangan) – baxshi yoki sannovchi, Xorazmda – dostonchi, baxshi yoki xalfa (ayol ijrochi); Qoraqalpog‘istonda – baksi va jirov deb aytishgan.

Ijrochilik uslublarida baxshining saviyasi, mahoratiga qarab doston mazmunini ifodalab berishda ijrochilik vositalari (artikulyatsiya, dinamika, sur’at, lad, ritm, agogika va boshqalar) yordamida turlicha ifodalanishi mumkin. Doston yaratishda voqea, davr va muhit baxshi ijrosi va badihiyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq musiqa ijrochiligida ijrochilar, asosan, o‘zining ichki hissiyotlari, amaliy tajriba va xotirasiga tayanadi. Musiqa ijrochiligi an’analari ustoz-shogird munosabatlari orqali saqlanib, rivoj topadi, baxshi esa maxsus (aruz, do‘mbira ijrosi, badihago‘yligi kabi) bilim va qoidalarga bo‘ysunadi. Musulmon Sharq mutafakkirlari va musiqashunoslari (Forobiy, Ibn Sino, Isfahoniy, Urmaviy, Jomiy, Navoiy, Bobur, Kavkabiy, Darvishali Changiy va boshqalar) musiqa ijrochiligi masalalariga bag‘ishlab risolalar yozgan. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari ham ijrochilik tomonidan farqlanmaydi. Ular doston repertuarlari bilan bir-biridan ajralib turadilar.

Natijalar va muhokama. Odatda baxshi “ijrochilik”-musiqiy namuna talqini bilan bog‘liq bir qator ichki xususiyatlarni o‘zida mujassam etadi. Iste’dod, bilim har tomonlama mukammal ovoz, sozandalik san’ati va badihago‘ylik mahorati, ijodiy yondashish, to‘g‘ri so‘z talaffuzi, izlanish va doimiy mashq kabi xususiyatlar va sifatlar shular jumlasidandir.

Qashqadaryo baxshilarining **“G‘aribnoma”** nomli nomasi bu nomani baxshilar har xil talqin qilishgan. Masalan, Qodir baxshi talqinidagi “G‘aribnoma” notaga olib tahlil qilindi. Bu “G‘aribnoma” nomasi doston qahramonlarining juda tushkun vaqtlarida, yaralanganida yoki otidan, elidan ayrilgan g‘arib bo‘lib qolgan vaqtida ijro etiladigan cholg‘u kuyidir.



Ikkinchi noma **“Quvnoqnoma”** deb nomlanadi. Bu nomani O‘zbekiston xalq baxshisi, aka-ukalar – Qodir baxshi Rahimov va O‘zbekiston xalq baxshisi Abdumurod baxshi Rahimovlar ijro etgan nomadir. Qashqadaryo nomalarida bir zamonlar do‘mbirada 32 nag‘ma kuyi bor deb bilardik, ammo bugungi kunga kelib Qashqadaryo nag‘malarining soni 200 dan ortiq darajaga yetdi. Musiqiy ma’lumotga ega baxshilar o‘zlari ham juda ko‘plab nomalar yaratishgan va shu sababli nomalarning soni ham juda ko‘payib ketdi. Masalan, Qodir baxshining o‘zi ham 100 dan ortiq noma kuylari yaratgan. Alixan do‘mbirakash 50 ga yaqin, Bekmurod do‘mbirakash 15-20 nomalar, Abdumurod baxshi 20 dan ortiq nomalar yaratgan. Qahhor baxshi Rahimov ham 10 ga yaqin nomalar yaratdilar. Bu ham baxshichilik san’atining rivojlanish yo‘lida qilingan say’-harakatlardandir.

Yana bir nomamizning nomi **“Otni qamchilash”** nomasi deb nomlangan. Bunga sabab, qahramon jangga kirayotganida otini qamchilab, jilovni burab, oyoqni uzangiga tirab ot choptirib ketayotganida aytiladigan nag‘ma kuyi.

3 Otni qamchilash



“Loqay yig‘lash” nomli yana bir noma juda og‘ir, insonni hayratga soladigan, nolakor usullarga boy nomalardan biri, shevada “Loqay jilash”deb yuritiladi. Bunga sabab Loqay degan bir urug‘ni dushmanlari ustiga ot bilan bostirib keladi va bu elatni otga boylab juda qiynagnida ulug‘ baxshilar ularga qarab yig‘lab shu nomani yozishgan.

“Ot haydash” nomasi – bu nag‘ma qahramonning boshqa bir mamlakatga ot choptirib ketayotganida otning yugurishi, yo‘nalishiga ovoziga qiyoslab yozilgan nag‘malardandir.

“Qahhornoma” nag‘masi Qahhor baxshi Rahimovning[12] dostonlarning sho‘x-shodon joylarida, qahramonning g‘alaba qilgan vaqtlaridagi xursandchiligida ijro etiladigan nag‘ma.

“Alixannoma” nomli nag‘ma doston qahramonlarining ko‘tarinki kayfiyatli vaqtlarida ijro etiladigan nag‘ma. Alixan do‘mbirakash ham 50 dan ziyod do‘mbira kuylarini yaratganlar.

“Qodirnoma” nag‘masi doston voqealariga ko‘p to‘xtalmaydi, bu noma esa baxshi dam olayotgan vaqtida, tinglovchilar tomonidan so‘ralganida ijro etiladigan nag‘ma. Ayniqsa, bu nag‘mani faqat Qashqadaryo baxshilaridan eshitish mumkin.

“Omoniyoz” – bu nag‘ma xalqimiz orasida mashhur baxshi (lo‘lilardan) Omoniyoz bobo baxshining yaratgan nag‘masi. Omaniyoz bobo baxshining nag‘malari, ayniqsa ,Qashqadaryo va Surxondaryo baxshilari orasida juda ham mashhur bo‘lib yosh baxshilar juda ham sevib ijro etiladilar.

“Eslashnoma” – bu nag‘mani baxshilar to‘y-hashamlarda ijro etmaydilar. Eslashnomaning yaratilish tarixi baxshilar o‘zlari yig‘ilib turganlarida ustozlari, ota-bobolarini eslab, xotirlab ijro etib yaratilgan nag‘ma.

“Lo‘linoma” – bu noma lo‘lilar (Qashqadaryoda jo‘gi deyiladi) haqida shuning uchun nomi Lo‘linoma deyilgan. Lo‘lilar orasida ham juda mashhur lo‘lilar o‘tgan ayniqsa Omoniyoz bobo nomli lo‘li o‘tgan va bu nag‘mani baxshi, baxshilar dam olib hordiq olayotgan vaqtida xalqni zeriktirmaslik uchun ijro etiladigan nag‘ma.

“Bekmurodnoma” – Dehqonobod tumanida Alixan do‘mbirakashdan tashqari Bekmurod Soatov degan do‘mbirakash o‘tgan. Ular do‘mbirani juda mohir ijrochisi bo‘lgan. Bu nag‘ma kuyi ham dostonlarda ijro etilmaydi, baxshilar dam olib hordiq olayotgan vaqtida ijro etiladigan nag‘ma.



“Cho‘ponchertish” – bu noma cho‘ponlarning o‘zlari yaratgan qadimiy nomalardan biri. Bir zamon bir cho‘pon – do‘mbirakash shu nomani yaratganidan so‘ng bugungi kungacha bu noma baxshilar orasida juda mashhur.

“Qo‘shshatar” nomasi yana bir nomi Qo‘ziliqo‘y nomasi ham deyiladi. Bunga sabab bu nomani Abdimurod baxshi Rahimov yaratib bir to‘yda ijro etganida bir havaskor baxshi yigit: “Abdimurod aka, shu nag‘mani menga o‘rgatsangiz bir qo‘zili qo‘y beraman“, deydi, shuning uchun bu nag‘maning ikkinchi nomi xalq orasida Qo‘zili qo‘y bo‘lib taniladi. Aslida esa bu Qo‘shshatar nag‘masi edi. Bu nag‘maning yaratilish tarixi baxshi Turkman tomonlarga xizmatga borganlarida ularning qo‘bizining chalinishini va boshqa cholg‘ularini ko‘rib ruhlanib baxshi shu nag‘mani yaratgan.

“Kuvish qaytarish” nomasi – bu nomani cho‘pon do‘mbirakashlari bir zamonlarda yaratganlar. Qo‘ylarni ertalab o‘tlatib haydab bir joyda dam olish maqsadida to‘xtaganlarida qo‘ylar ovqatni hazm qilish maqsadida kavsh qaytarishgan paytda cho‘pon shu nag‘mani chertgan va bu nag‘ma bugungi kunda ham mohir do‘mbirakashlarimiz orasida juda sevib ijro etilib kelinadi.



“Qodirnoma” – nomasi. Respublikada baxshichilik keng rivojlangan hozirgi bir paytda dostonlarga va termalarga asosan 3 kishi do‘mbira nag‘malarini yaratgan. Bular Qodir baxshi Rahimov, Alixan do‘mbirakash va Abdimurod baxshilardir. Abdimurod baxshi o‘zining otasiga bag‘ishlab yaratgan nomani dostonlardan parchalar kuylayotgan vaqtda tinglovchilar tomonidan “baxshi, o‘z nag‘malarizdan ijro etib bering” deb so‘ralganida ijro etiladigan Qodirnoma nag‘masi.

“Alixannoma” – bu Alixan do‘mbirakashning o‘zi yaratgan nag‘ma bo‘lib Qashqadaryo baxshilari dostonlarida qahramonning otidan ayrilgan holatida yoki yoridan ayrilgan holatida ijro etiladigan nag‘ma.



“Tong shamoli” – Abdimurod baxshining nag‘masi. Bu nag‘ma davralarda kayfiyatni ko‘tarish maqsadida yaratilgan Qashqadaryoda mashhur nomalardan biri.

“Qorako‘z” – men seni sevdim qorako‘z, sen kimni sevding qorako‘z degan Qodir baxshining nomasi. Bu noma Yusuf Ahmad dostonida ijro etilib, Yusuf bilan Ahmadning Misr mamlakatiga borib Qorako‘z ismli qizni ko‘rib, sevib qolib aytilgan nag‘masi.

“Qurey xayta” – Qodir baxshi yaratgan nag‘ma. Bu nag‘ma Qodir baxshi zamonida juda sevib tinglangan va ijro etilgan. Hozirgi kunda ham juda mashhur, sevib ijro etiladigan nag‘malardan biri. Ayniqsa, Alpomish dostonida Alpomishning oti Boychibor poygadan kelayotganda Oybarchinning otning oldidan chiqib “Tezroq yetib kel”, deb chorlashi tasvirlangan nag‘ma.

“Ona sen yig‘lama” – bu Qodir baxshining nag‘malaridan biri bo‘lib o‘z zamonasida juda mashhur va sevimli bo‘lgan nomadir. Bu nag‘mani hozirgacha davralarda tinglovchilar ijro etib bering deb, baxshilardan so‘raydilar. Bu nag‘ma Qodir baxshining urushda halok bo‘lgan otalarini eslab yig‘lagan onalariga “tollar yig‘lasa ham, sen yig‘lama”, deb dalda berish maqsadida ijro etgan nag‘malaridir. Bu nomaning ikkinchi nomi Qodirnoma.

Nag‘ma iborasiga “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da quyidagicha ta’rif beriladi: Sharq olimlari nag‘mani ikki turga bo‘linadi: Qavliy (inson tomog‘idan chiqadigan) nag‘ma va fe’liy (musiqa cholg‘ularida hosil qilinadigan) nag‘ma. Nag‘malar musiqiy asarning asosiy unsurlaridan birini tashkil qiladi. Kuy va qo‘shiqlar (ritm) usul bilan nag‘malar uyushmasidan tashkil topadi. Nag‘malar qo‘shilishidan bo‘l, jins, jam, maqom (lad) va nihoyat yahlit kuy, musiqiy asarlar hosil etiladi. Sharq musiqiy risolalarida aytishlaricha tovushlar bir-biri bilan maqsadga muvofiq ravishda, ma’lum oraliqda qo‘shilgandagina nag‘ma hisoblanadi.

O‘tmishda nag‘malar yunoncha va arabcha iboralar bilan ifodalangan. Arabcha atamalari asosan nag‘omot deyilgan. Nag‘malar xalq orasida kuy-ohang ma’nosida ham qo‘llaniladi. Ularning kuy yoki musiqiy asar ma’nosida qo‘llanilishi juda ko‘p manbalarda keltirilgan. Shulardan biri “Xorazm musiqiy tarixchasi” kitobida “Feruzning maqomlarga bog‘langan nag‘malari, Rizo baxshi nag‘malari, Suyav baxshining doston she’rlariga bog‘lagan nag‘malari” tarzida yozilgan[11]. Qashqadaryo-Surxondaryoda baxshi kuylarini nag‘ma deb atashadi, Xorazmda esa nola, Qozoqlarda nomad deyiladi. Bu nomlarning hammasi baxshi kuyidir. Dostonlarning eng muhim tomoni baxshilar kuylari nag‘malarining kuylanishidadir.

Ushbu dalillardan shuni tushunish mumkinki, yaqin o‘tmishda doston kuy va qo‘shiqlari nag‘ma deb ham atalgan. Qashqadaryo baxshilar ham o‘z kuylarini nag‘ma deb ataydilar. Qozoq jirovlari ijodidagi “nomad”, qadimgi yunonlardagi “Nom” (kuylarni asosini tashkil qiluvchi ohang) tushunchalari ham xuddi shunday mazmunda keladi.

Qodir baxshi Rahimov reperturining shartli belgilari:

- Qodir baxshining o‘zi yaratgan nag‘malar.

- Ustozlaridan o‘rgangan nomalar.
- O‘ynoqi nag‘malar: (doston kuylayotganda voqeaning xursandchilik yoki qahramonning zafar chog‘larida chalinib kuylanadi).
- Qayg‘uli nag‘malar: (qahramonning tushkun-sokin kayfiyatlarda, ishi yurishmayotgan pallalarda, gohida ilohiy kuchlardan madad so‘rash damlarida chalinadigan kuylar).

Xulosa va takliflar . Tadqiqotdan olingan xulosalar shuki, Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining ilm-fani, san’ati va madaniyatining rivojlanishiga asrlardan asrlarga o‘tib kelayotgan, bizning bugungi kunimizgacha saqlanib, yetib kelgan boy badiiy-madaniy merosimiz ─ dostonchilik maktabini davom ettirish, to‘plamlar va ilmiy maqolalar sifatida nashr qilish va keng ommaga targ‘ib etish asosiy vazifalardan. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Qashqadaryo, Surxondaryodan o‘z repertuari bilan farqlanadi. Qashqadaryo dostonchilik maktablarining uslubi va musiqiy tili Qodir baxshi Rahimov va uning zamondoshlari va shogirdlar repertuaridagi nomalar tahlili orqali yoritib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi 2018-yil 1-noyabrdagi PQ-3990-sonli qarorlari
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari “Baxshichilik va dostonchilik san’atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 26-apreldagi 304-sonli farmoyish
3. Abdullayev R.S. O‘zbek mumtoz musiqasi T., 2008.
4. Абдуллаев Р.С. Бойсун. Традиционная музыкальная культура. - Т.: Представительство ЮНЕСКО в Узбекистане, 2006.
5. Azimova O.N. “Звуковой мир Коракалппаков” T., 2008.
6. Бабаназарова Г. Ю. По следам учителя //Проблемы современной науки и образования. 2019. – №. 10 (143). – С. 97-100.
7. Babanazarova G. Y. Clod debussi and georgiy mushel’s musical instruments in fortepiano‘s works // Проблемы современной науки и образования. – 2018. – №. 12. – С. 99-101.
8. Гафурбеков Т.Б. Фольклорные истоки узбекского профессионального музыкального творчества. – Т., 1984.
9. Matyoqubov B. Doston ijrochiligini o‘qitish uslubiyoti. –T., 2021
10. Mirzayev T., Xalq baxshilarining epik repertuari. – T., 1978.
11. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. –T., 1998.
12. Rahimov Qahhor baxshi. Otam haqida doston. – Qarshi, 2019.

ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA “XILVAT” TALQINI

Kamolova Majnuniso Ulug‘bek qizi
QarDU doktoranti
kamolovamajnuniso@gmail.com
ORCID 0009-0004-4798-4139

UDK 894.375-1(021)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devonidan o‘rin egallagan g‘azallar tarkibida uchraydigan “xilvat” tushunchalarining tasavvufiy, ilmiy-adabiy ma’no-mazmuni atroflicha tatbiq etilgan, “xilvat”ning turli ko‘rinishlari va o‘ziga xos talqini ifodalab berilgan. “Xilvat” tushunchasining, avvalo, umumiy-psixologik ma’no-mazmuni yoritilib, so‘ngra tasavvufiy talqini haqida qisqacha to‘xtalib o‘tiladi. Shuningdek, “xilvat” ning Alisher Navoiy lirikasida uchrashi mumkin bo‘lgan turli ma’nolari ochib berishga harakat qilingan. Psixologiyada “xilvat” atamasi asosan “yolg‘izlik”, ichki xotirjamlik kabi ma’nolarda ifodalansa, Alisher Navoiyda “xilvat” ilohiy yaqinlik joyi, ruhiy xotirjamlik va ichki dunyoni idrok etish, dunyoviy hayotdan voz kechish kabi tasavvufiy ma’nolarda ifodalanadi. Tahlil qilingan misralar Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devonidan olingan bo‘lib, terminlarning ma’nolari “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”dan olingan.

Kalit so‘zlar. xilvat, go‘sha, qanoat, tasavvuf, lirika, oshiq, bodom, muhabbat, manzil.

Abstract. In this article, the mystical, scientific and literary meaning of the concept of "khilvat" found in the ghazals of Alisher Navoi's "Khazayin ul-maani" is thoroughly applied, various forms of "khilvat" and specific interpretation is expressed. First, the general-psychological meaning of the concept of "Khilvat" is highlighted, and then its mystical interpretation is briefly discussed. Also, an attempt was made to reveal the different meanings of "khilvat" that can be found in Alisher Navoi's lyrics. In psychology, the term "khilvat" is expressed mainly in the meanings of "solitude", inner peace, while in Alisher Navoi, "khilvat" is expressed in mystical meanings such as a place of divine closeness, mental peace and perception of the inner world, renunciation of worldly life. The analyzed verses were taken from Alisher Navoi's book

"Khazayin ul-Maoni", and the meanings of the terms were taken from the "Annotated Dictionary of the Language of Alisher Navoi's Works".

Key words. khilvat, corner, satisfaction, mysticism, lyrics, lover, almond, love, destination.

Kirish. “Xilvat”ning umumiy psixologik talqiniga nazar tashlaydigan bo‘lsak, u inson ruhiyati, ichki dunyosi va o‘z-o‘zini anglash jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, uni turli xil jihatlarda tahlil qilish mumkin. Psixologiyada “xilvat” atamasi asosan yolg‘izlik, ichki xotirjamlik va introspektiv tafakkur tushunchalariga yaqin bo‘ladi. Ichki xotirjamlik va o‘z-o‘zini anglash vositasi sifatida **“xilvat”** odamning tashqari muhitdan ajralgan holda, ichki dunyosiga bevosita e’tibor qaratishini ifodalaydi. Psixologiyada bu jarayon **introspeksiya** deb yuritiladi.

Xilvat vaqtida inson o‘z his-kechinmalari, tuyg‘ulari, fikrlari kabilarni tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladi. Bu, ayniqsa, shaxsiy rivojlanish hamda o‘zini anglab yetish uchun muhimdir. Bu jarayon stressni kamaytirishda, ichki muvozanatni tiklab olishda, mustaqil qaror qabul qilishni yengillashtirishda yaxshi yordam beradi.

Psixologik nuqtayi nazardan, yolg‘izlik va ruhiy sog‘lik sifatida “**xilvat**” vaqtinchalik yolg‘izlik bo‘lib, salbiy emas, aksincha, shaxs uchun qulay bir muhitni hozirlab berishi mumkin. Ammo bu jarayon, sog‘lom bo‘lishi uchun ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi lozim bo‘ladi. Majburiy yoki uzoq muddatli yolg‘izlik esa, aksincha, salbiy oqibatlarga olib keladi.

Shuningdek, “**xilvat”** insonning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Ko‘pchilik ijodkorlar yolg‘izlikni ijodiy ilhom olish va yangi g‘oyalarni shakllantirish uchun zarur jarayon sifatida ta’riflaydilar. Ya’ni inson butunlay o‘z holatiga sho‘ng‘ib ketadi va ichki resurslarini to‘liq safarbar etadi. Tasavvuf tarixida esa **xilvat** insonning ichki dunyosini boyitish va ilohiy haqiqatni anglash yo‘lidagi zarur bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat tashqi dunyodan ajralishni, balki qalbni poklash, ruhiy yuksalish va Allohga yaqinlashish jarayonini ham o‘z ichiga oladi. Xilvat tasavvufiy ta’limotda ma’naviy komillikka erishish vositasi sifatida yuksak qadrlangan va hamon o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Alisher Navoiy ijodi Sharq adabiyotining durdonasi sifatida ma’naviy va estetik yuksaklikni namoyon etadi. Uning lirikasida tasavvufiy tushunchalar muhim o‘rin egallagan bo‘lib, “**xilvat”** mana shu tushunchalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada Navoiy lirikasida “xilvat”ning tasavvufiy-psixologik talqini ko‘rib chiqilib, uning ichki ma’nosi, badiiy obrazlar tizimida tutgan o‘rni, yangi usullar, metodlar orqali o‘rganish haqida so‘z yuritiladi.

Tadqiqotning metodologoyasi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, analitik, germenevtik hamda sotsiologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. Alisher Navoiy asarlarida “xilvat” tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, tasavvuf falsafasi, ishqiy lirika va ma’naviy kamolot tushunchalari bilan bog‘langan. U o‘z o‘quvchisini tashqi xilvatni anglashga undabgina qolmay, ichki xilvatni ham anglatishga urinib ko‘radi. Bu orqali esa inson o‘zligini, hayotning chuqur ma’nosini va Haqni topishga intiladi. Odatda, “xilvat” so‘zi ibodat yoki ichki tafakkurga bag‘ishlangan joyni anglatadi.

Navoiy ijodida “xilvat” nafaqat jismoniy yolg‘izlikni, balki insonning ruhiy va ma’naviy kamolot sari safarini ham ifodalab keladi. “Xilvat”ning asosiy talqinlari Navoiyda quyidagicha beriladi: 1. Ilohiy yaqinlik joyi; 2. Ruhiy xotirjamlik va ichki dunyoni idrok etish; 3. Dunyoviy hayotdan voz kechish.

Ilohiy yaqinlik joyi sifatida “xilvat” ruhoniy holatni anglatib, banda va Xudoning yolg‘iz qolish joyi ma’nosida tasvirlanadi. Bu joyda inson dunyoviy tashvishlardan, nafs qutqusidan yiroq bo‘lib, faqat Yaratganga yuzlanadi. Navoiyning bu talqini tasavvuf ta’limoti bilan bog‘liq bo‘lib, banda o‘z “xilvat”ida nafsini poklaydi va haqiqatni topishga harakat qiladi.

Najmiddin Kubroning ta’kidlashlaricha, “Muhabbatning intihosi ishqning ibtidosi erur. Muhabbat qalb uchun, ishq esa ruh uchundir”. Shuningdek, Haq sifatlarining mushohada etilishiga muhabbat, Haq fe’llari nurining idrokiga ishq va Haq zot nurining mushohadasiga uns deyilmish.

Navoiy:

Xilvate topib, seni jismim aro jon aylasam,

Balki jon xilvatsaroyi ichra mehmon aylasam [1],-

Degan misralarni yozganida qarilik fasliga yetgan va ruhida uns holi g‘olib edi. Buni baytning umumiy mazmunidan, xususan, xilvat orzusidan ilg‘ash qiyin emas [2].

Xilvat xalqdan uzoqlashib, ulardan ayri yashash uchun biror-bir go‘shaga chekinish demak. Tasavvufiy ma’noda xilvat yoki uzlatdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad yomon axloqdan ajralish, tuban ishlardan voz kechish, qalbni jilolantirib, ruhni huzur va farog‘atga yetishtirishdir.

Bu yo‘lda oshiq bevosita go‘sha tutmoq istaydi. Xilvat shu kabi o‘rinlarda **Ilohiy yaqinlik joyi sifatida ifodalanadi.** Bunga yana bir misolni “Navodir ush-shabob”da keltirilgan “Aylama” radifli g‘azalida ham uchratishimiz mumkin.

Ey ko‘ngul, davr ahlidin ming yilchilik yo‘l go‘sha tut,
Yo alardin yetsa yuz ming g‘ussa, afg‘on aylama [3].

Bunda shoir ayni ma’noni “xilvat” so‘zi orqali bermay, go‘sha so‘ziga tayanadi. Go‘sha-burchak, chekka joy, xilvat [4], degan ma’nolarda keladi, Alisher Navoiyning Izohli lug‘atida. Ya’ni, “Go‘sha tutmoq” - o‘zni pana ya’ni xilvatga olmoq, ma’nosida keltiriladi. Nasriy bayoni quyidagicha: ey ko‘ngul, o‘zingni davr ahlidan ming yillik masofada yiroqda tutgin, yoki ulardan yuz ming g‘ussa yetsa, nola-yu afg‘on qilma. Bu o‘rinlarda “Ey ko‘ngul” orqali “Nido” badiiy san’atiga, ko‘ngilga nasihat berish orqali “Kalomi jome’” san’atiga murojaat etadi. Bundan tashqari ham bir necha badiiy san’atlar uchraydi.

Shuningdek, “G‘aroyib us-sig‘ar” dostonining 42-qit’asida ham “xilvat” so‘zini ishlatmay turib u anglatishi kerak bo‘lgan ma’noni “go‘sha” so‘ziga yuklaydi shoir.

Qanoat go‘shasin tutqilki, chun anqo bu da’b etti,
Anga qushlar ichinda qurb qofida nishimandur.
Chu parvoriy tovug‘ning og‘zi tinmas tu’madin garchi,
O‘lar oxir anga avval katak zindoni maskandur [5].

Bunda go‘sha- xilvat ya’ni chekka joy, da’b- xislat, qurb- yaqinlik, qof- yer yuzini o‘rab olgan afsonaviy tog‘, nishiman- in, parvoriy- boqilgan, xonaki, tu’ma- oziq, yem kabi ma’nolarda keladi. Unign ma’nosiga to‘xtaladigan bo‘lsak, qanoat uyini maskan tut, deydi shoir. Chunki anqo qushi bu uyni maskan tutgani uchun qurb ya’ni yaqinlik tog‘i (Qof) qushlar ichida faqat ungagina oshyon bo‘ldi. Boqilgan xonaki tovug‘ esa og‘zi (ta’ma) yemish(i)dan tinmagani uchun oxir-oqibat katak zindoni unga maskan bo‘ldi.

Demak, bu uzoq davom etadigan hodisa emas. Lekin shu qisqa muddatda ma’shuqa oshiqning jismi aro jonga aylanishi mumkin. Navoiy esa oshiqlar uchun doimiy orzu bo‘lib kelgan yor ila xilvat xususida so‘zlayotir. Ammo bu xilvat mohiyati tamoman boshqacha. Chunonchi: oshiq yorni jismi ichra jon etib “xilvat saroyi ichra mehmon” qilish bilan kifoyalanmasdan, “tanda jon yanglig‘” uni jon bag‘rida pinhon tutmoqchi;

Xilvat eldin yoshurun, xilvat aro tan yoshurun,
Tanda jon yanglig‘ seni jon ichra pinhon aylasam.

Ma’lumki, jon forsiy so‘z bo‘lib, ruh, ko‘ngil, tiriklik nafasi singari ma’nolarni ifodalagan. Tasavvuf va tasavvuf adabiyotida jon tushunchasi juda kengaytirilib, kalima tarkibiga yangi ma’nolar kiritilgan. Masalan, endigina sayri suluk yo‘liga kirgan darveshlarga mavlaviylar “jon” deyishgan. Ko‘p tariqatlarda esa jondan murod me’roji ma’naviy bo‘lgan. Bunday yuksalish holidan yiroq she’rxon visolni yashirish, maxfiy saqlash uchun “jon pardasi”ni imkoni bo‘lgani qadar har tomonga osish yoki qanday osishni umuman tasavvur qila olmaydi:

“*Vasling ixfosin nechakim, bo‘lg‘ay imkon, aylasam.*

Shu o‘rinda esa **“xilvat” dunyoviy hayotdan voz kechish** ma’nosida ifodalanadi. Navoiy tasavvufga asoslangan qarashlarida xilvatni dunyo ne’matlaridan voz kechish va oxirat haqida fikrlash joyi sifatida ko‘rsatadi. Bu xilvat insonning ruhiy poklanishida muhim bosqich hisoblanadi.

Xo‘sh, bu gaplar kimga qaratilgan va ularning haqiqatini kim to‘g‘ri anglay oladi? O‘zlik masalasida bosh qotirmagan, o‘zlikdan kechish yo‘l-yo‘riqlaridan bexabar hech kim. Mosivodan (Haqdan boshqa hammasidan) butunlay forig‘ bo‘lib Haqqa bog‘langan chin oshiq yoki orif mana bu baytda gap nima to‘g‘risida ekanligini tez va xatosiz bilib oladi.

Chu bu xilvat ichra ne o‘zluk erur mahram, ne men,
Har ne nomahram durur, o‘zdin parishon aylasam.

Aslida “O‘zluk” ham bir men. Ammo Navoiy shunday bir “xilvat”dan bahs yuritayotirki, unda o‘zlikdan nisbatan ajralgan, aniqrog‘i ishq otashida toblangan, ikkinchi “men” ham yorga to‘la mahram bo‘lishga qodir emas. Biroq, “har ne nomahram” bo‘lsa, barcha-barchasini o‘zdin yiroqlashtirishga qasd qilgan xuddi ana shu “men” g‘azalning bosh qahramonidir. Nafs va nafsoniy mayllar unga ag‘yor bo‘lganidek, Haqdan yiroq qolganlar va voqif bo‘lmaganlar ham ag‘yordir. U ishq izhoriga til nechog‘liq ojiz deb bilsa, hijron dardi shahrida ham “bezabonlig‘” “usuli”ni tanlaydi:

Daf o‘lub ag‘yor, topsam bor ul xilvat aro,

Bezabonlig‘ birla sharhi dardi hijron aylasam.

Tasavvur qilingki, oshiqning xilvatga dahldor va baytma-bayt ta’kidlanib kelingan deyarli barcha istak yohud xohishlari ro‘yobga chiqdi. U endi Mutlaq forig‘ va sokin odamga aylandi. Bunday holning hikmati nima? Birinchi hikmati, lahza mazmuni, lahza sururini o‘zida mujassamlashtirgan va lahza nuridan munavvar holga sohib bo‘lishdir. Zero, boqiy umr asrori “bir lahzalik ushbu hol aro” yashirindir. Shu bois ham oshiq hech ikkilanmasdan, “Umri boqiy topqamen, bir lahza ushbu hol aro”, deydi. Ikkinchi hikmat esa, oshiqlik kamolini belgilovchi behudlik yoki behushlik “maqomi”ga ko‘tarilishdir. Bu maqomda til ishq asroriga mahram emasligini anglagan oshiq bir umr jamol zavqi ila nafas olishni istaydi:

Umri boqiy topqamen, bir lahza ushbu hol aro,

O‘zni behud, ko‘zni ruxsoringg‘a hayron aylasam.

Sirtdan qaralganda, g‘azal maqta’sidagi fikr oldingi baytlardagi gaplar bilan mantiqan uncha bog‘lanmaydi. Chunki o‘quvchi ishq tarki iqrorini hayolga ham keltirmaydi. Aksincha, sultoniy bir holga yetishgan oshiqlikning istiqboliga o‘zicha inongisi keladi. Ammo g‘azalda talqin etilgan “xilvat” tuyg‘usini hamma ham idrok qilishga qodir emas. Ayniqsa, o‘zdin kechib, hayrat vodiysiga yetgan “behud” oshiq ahvoliga ko‘pchilik boshqacha nigoh bilan qarashi tabiiydir. Shoir masalaning shu jihatini ham hisobga oladi va ishq yo‘lidan chekinishga also iloji yo‘qligini shunday tarzda bayon etadi:

Ey Navoiy, dema iqror ayla ishqi tarkini,

Kim inong‘ay, gar o‘zumga buyla bo‘hton aylasam.

Odatda, orifona g‘azallarda hayot voqea-hodisotlari va inson qismatiga chuqur nigoh tashlash, kattadir, kichikdir, har bir narsani fano va baqo holi ila mushohada qilishga da’vat etiladi.

“Xilvat” ruhiy xotirjamlik va ichki dunyoni idrok etish ma’nosida kelganida insonning ma’naviy izlanishlar, kundalik hayotdagi oddiy lekin muhim holatlarni birlashtiradi. Xilvatda o‘zini anglash, ma’naviy huzur va ruhiy erkinlikni topish bilan birga, hayotdagi kundalik mas’uliyatlar va oddiy ehtiyojlar orasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Navoiyning “Favoyid ul-kibar” dostonidagi ushbu misrada aytilganidek:

Xilvat etkan ixtiyor ilgida bir ibriqi may,

Tong emas gar qilsa bir bodom ila har kun maosh [6].

Ya’niki, aslida ishq mayini ilgiga olib, xilvatni ixtiyor etkan inson uchun, agarda har kuni bir bodom ila maosh qilsa ham uning uchun tong emas. Tasavvufiy ma’noda bodom- qanoat ramzi. Haqiqiy tong uning uchun aynan maqsad qilgan xilvatiga erishishdir. Bu albatta uzoq va mashaqqatli yo‘l demak. Boqiylikni topmoq uchun ruhiy xotirjamlikni jam qilib, ichki dunyosini ya’ni asl “men”i, “o‘z”ini anglab yetmog‘i joiz.

Yoki uning shu dostonida uchraydigan yana bir misrasiga diqqatni qaratadigan bo‘lsak,

Ko‘zung fikri bila tan xilvatida notavon ko‘nglum,

Riyozat aynidindur kunda bir bodom ila qone’.

Baytda ishlatilgan “notavon ko‘nglum”, “riyozat ayni” va “bodom”- tasavvufiy ramzlarga ishora. Notavon ko‘ngul- notinch, betoqat, doimo yor vasliga mushtoq bo‘lgan ko‘ngil; riyozat ayni- ishq tufayli chekilgan riyozat. Bodom- qanoat timsoli ekan, bodom nafaqat Navoiyning nazmida, balki nasriy asarlarida ham takror-takror riyozat, poklik, halollik, qanoat, toqat kabi irfoniy ma’nolarda qo‘llangan [7].

Xulosa va takliflar. “Xilvat”ning psixologik talqini inson ruhiyati, ichki dunyosi va o‘z-o‘zini anglash jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, uni turli jihatlarda tahlil qilish mumkin. Psixologiyada “xilvat” atamasi ko‘pincha yolg‘izlik, ichki xotirjamlik va introspektiv tafakkur tushunchalariga yaqin bo‘ladi.

Psixologik jihatdan xilvat- insonning ichki dunyosini anglash, o‘zini yaxshiroq tushunish va ruhiy holatini tiklashga yordam beradigan foydali jarayon. Biroq, bu jarayonning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun uni ixtiyoriy va me’yorida qo‘llash muhim. Shaxsiy xilvat odamga ma’naviy, intellektual va ruhiy jihatdan o‘sishga imkon beradi.

Tasavvufda xilvat ikki qismga bo‘linadi: Majoziy xilvat va Haqiqiy xilvat. Bunda, Majoziy xilvatda inson tashqi dunyodan uzoqlashib, maxsus joyda ibodat qiladi, bu jismoniy ajralishni anglatadi. Haqiqiy xilvat esa insonning qalbida Yaratganga bo‘lgan yaqinlikni his etishi va dunyo tashvishlaridan xalos bo‘lishidir. Bunda qalb doim Allohning zikrida band bo‘ladi, hatto tashqi dunyo bilan aloqada bo‘lsa ham.

Alisher Navoiy ijodi Sharq adabiyotining durdonasi sifatida ma’naviy va estetik yuksaklikni namoyon etadi. Uning lirikasida tasavvufiy tushunchalar chuqur o‘rin egallagan bo‘lib, “xilvat” bu tushunchalardan biridir.

Navoiy ijodida “xilvat” obrazli tushuncha sifatida bir nechta ma’noviy qatlamni o‘z ichiga oladi. Navoiy “xilvat” tushunchasini tasavvufiy ramz sifatida ko‘rsatgan holda, uni inson qalbining sirli bog‘i deya talqin qiladi. Xilvatni tasavvufiy tushuncha sifatida talqin qilgan holda, uning adabiy ifodalanish usullari Navoiy lirikasining umumiy, badiiy konsepsiyasiga yondashishni talab qiladi.

Alisher Navoiy lirikasida “xilvat” ilohiy haqiqatga yaqinlashishning badiiy ramzi sifatida gavdalanadi. Mavzuni tadqiq qilishda tasavvufiy va psixologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish, kompyuter lingvistikasi va zamonaviy tahlil usullaridan foydalanish ilmiy ishlanmalarning yangi bosqichiga olib chiqadi. Shu tariqa, Navoiy ijodining ma’naviy boyligi va zamonaviylik bilan bog‘liqligi yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy, “Badoye ul-vasat”, Mukammal asarlar to‘plami, 20 tomlik. –Toshkent: Fan, 1990
2. https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/navoiyga-qaytish.html
3. Alisher Navoiy, “Navodir ush-shabob”, Mukammal asarlar to‘plami, 20 tomlik. –Toshkent: Fan, 1990
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. –Toshkent: Fan, 1983, B-434
5. Alisher Navoiy, “G‘aroyib us-sig‘ar”, Mukammal asarlar to‘plami, 20 tomlik. –Toshkent: Fan, 1990
6. Alisher Navoiy, “Favoyid ul-kibar”, Mukammal asarlar to‘plami, 20 tomlik. –Toshkent: Fan, 1990
7. “Jahon adabiyoti” adabiy-badiiy, ijtimoiy-publitsistik jurnal. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2008.
8. https://Ziyo.uz.com
9. https://kh-davron.uz
10. https://kutubxona.uz

ADABIY TANQIDCHILIK VA BADIIY IJOD QONUNIYATLARI

Yo‘ldoshev Dilmurod Ne’mat o‘g‘li
Qarshi davlat universiteti
O`zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
kumushshamshir0404@gmail.com
ORCID 0009-0008-4706-9634

UDK 821.512.133.0.09

Annotatsiya. Mazkur maqolada Matyoqub Qo‘shjonovning "Ijod saboqlari" asari badiiy ijod qonuniyatlarini yorituvchi nazariy va amaliy manba sifatida tahlil qilinadi. Asarda yozuvchi faoliyatining ijtimoiy mas’uliyati, tanqidning ijodiy jarayondagi o‘rni, avlodlar tajribasi va badiiy obraz yaratish tamoyillari singari masalalar chuqur yoritilgan. Tadqiqot davomida M.Qo‘shjonovning tanqidiy qarashlari zamonaviy adabiyotshunoslik tamoyillari bilan qiyosiy tahlil qilinib, ularning bugungi adabiy jarayondagi dolzarbligi ko‘rsatiladi. Shuningdek, tanqidchi va yozuvchi o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik, yozuvchilik mahoratini rivojlantirishda avlodlar tajribasining ahamiyati ilmiy asosda bayon etiladi. Natijalar badiiy ijodning nazariy va amaliy jihatlarini kengroq anglash, adabiy jarayonni tahlil qilish va yozuvchi faoliyatini tadqiq etish uchun muhim xulosalar beradi.

Kalit so‘zlar. badiiy ijod qonuniyatlari, yozuvchi mas’uliyati, adabiy tanqid, avlodlar tajribasi, badiiy obraz, adabiy jarayon.

LITERARY CRITICISM AND THE LAWS OF CREATIVE WRITING

Annotation. This article analyzes Matyoqub Qo‘shjonov's "Lessons of Creativity" as a theoretical and practical source that explores the laws of artistic creation. The work thoroughly examines issues such as the writer’s social responsibility, the role of criticism in the creative process, the experience of generations, and the principles of creating literary imagery. During the research, M. Qo‘shjonov’s critical views are comparatively analyzed with modern literary studies, demonstrating their relevance in today’s literary process. Furthermore, the article scientifically substantiates the creative collaboration between critics and writers, as well as the significance of generational experience in developing writing skills. The findings contribute to a broader understanding of the theoretical and practical aspects of creative writing, offering valuable insights for analyzing literary processes and studying the writer’s activity.

Keywords: laws of artistic creation, writer’s responsibility, literary criticism, generational experience, literary imagery, literary process.

Kirish. Adabiy ijod qonuniyatlarini o‘rganish har bir yozuvchi, munaqqid va adabiyotshunos oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Adabiyotning jamiyatdagi o‘rni,

yozuvchi mas’uliyati va ijodiy tajribaning avloddan-avlodga o‘tishi kabi mavzular ijod va tanqidiy fikrlarning uzviyligini ta’minlaydi. Adabiyot insoniyat ma’naviyati va madaniyatining asosiy poydevorlaridan biri sifatida jamiyat hayotining barcha davrlarida o‘ziga xos ta’sir kuchiga ega bo‘lib kelgan. Badiiy ijodning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganish adabiyotshunoslikning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon yozuvchining asarlaridagi estetik mazmunni anglash, ijodiy tamoyillarni aniqlash va adabiyotning jamiyatdagi o‘rnini belgilash imkonini beradi. Matyoqub Qo‘shjonovning "Ijod saboqlari" asari badiiy ijodning murakkab qonuniyatlarini yorituvchi muhim ilmiy-nazariy manba sifatida ajralib turadi. Mazkur asarda yozuvchi faoliyatiga doir mas’uliyat, tanqid va ijodiy jarayon, avlodlar o‘rtasidagi adabiy tajriba almashinuvi kabi muhim masalalar keng yoritilgan. M.Qo‘shjonov ijodiy faoliyatni nafaqat yozuvchining ichki dunyosi va iste’dodi bilan bog‘laydi, balki uning jamiyat hayotidagi ijtimoiy rolini ham alohida ta’kidlaydi. Bu yondashuv badiiy ijodning ijtimoiy ahamiyatini anglashga imkon berib, yozuvchi va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishga zamin yaratadi. Shu bilan birga, "Ijod saboqlari" asarida tanqidning ijodiy jarayondagi o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. M.Qo‘shjonov tanqidni yozuvchi faoliyatini rivojlantirishda va adabiy jarayonni takomillashtirishda asosiy vosita sifatida ko‘radi. Bu qarash adabiyotshunoslikda tanqid va ijodning uzviy bog‘liqligini tushunishga yo‘naltirilgan. Uning fikricha, tanqid nafaqat yozuvchini kamchiliklaridan xabardor qiladi, balki uni yangi ijodiy yutuqlarga ilhomlantiradi. Shuningdek, asarda, avlodlar o‘rtasidagi ijodiy tajriba almashinuvi va badiiy merosning ahamiyati masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Munaqqid yosh yozuvchilarning oldingi avlodlar tajribasidan saboq olishlari va o‘z asarlarida yangi davr talablarini aks ettirishlari lozimligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv badiiy ijodning uzluksiz rivojlanishini ta’minlashda adabiy an’analarning rolini ochib beradi.

M. Qo‘shjonovning ta’kidlashicha, "…adabiy ijod hayotning o‘zi kabi murakkab va javobgarlikni talab qiladi" [1.3]. Bu fikr yozuvchining hayotiy tajribasi va badiiy obrazlarni shakllantirish usullari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beradi. Masalan, u badiiy ijodda yosh ijodkorlar uchun avlodlarning o‘rnak bo‘luvchi tajribasi muhim ekanini alohida qayd etadi Ushbu yondashuvni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish avlodlar o‘rtasidagi uzluksizlik masalasini anglash imkonini beradi. Munaqqidning yozishicha, "…ijod jarayonida tanqidiy yondashuv yozuvchini to‘g‘ri yo‘ldan chiqmaslikka undaydi va uning ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi" [1.12]. Ushbu fikr adabiy tanqidning ijodkorlik jarayonidagi o‘rni va ahamiyatini ochib beradi. Masalan, V.G. Belinskiyning Lermontov va Gonkurov asarlariga yozgan tanqidiy maqolalari ham ijodkorlar kamchiliklarini aniqlab, ularning asarlariga chuqur tahliliy yondashish orqali asarlarning badiiy qimmatini oshirishga hissa qo‘shgan. Shu tariqa, olimning izchil fikrlari nafaqat badiiy ijodning nazariy tamoyillarini ochib beradi, balki tanqidning amaliy jihatlariga ham e’tiborni jalb qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Badiiy ijod qonuniyatlari haqida ilmiy-adabiy tadqiqotlar adabiyotshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ular yozuvchi faoliyatini tahlil qilishda muhim nazariy va amaliy manba sifatida xizmat qiladi. Avvalo, badiiy ijodning nazariy asoslarini ochib berishda Matyoqub Qo‘shjonovning *"Ijod saboqlari"* asari badiiy ijodga oid qarashlarni keng qamrovda o‘rganish imkonini yaratishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu asarda yozuvchining ijod mas’uliyati, tanqidning ijoddagi roli va avlodlar tajribasining ahamiyati kabi masalalar chuqur yoritilgan. Buni boshqa muhim adabiyotlar tahlili bilan qiyoslab, kengroq tahlil o`rganish mumkin. Xususan, Ozod Sharafiddinovning "Ijodni anglash baxti" asari bu borada muhim ahamiyatga ega. O. Sharafiddinovning ta’kidlashicha, “…ijod – bu hayotiy tajriba, kuzatuvchanlik va adabiy mahoratning uzviy birligidir” [2.112]. Ushbu fikr M. Qo‘shjonovning “…ijod jarayoni doimiy izlanishni va jamiyat hayotidagi dolzarb masalalarni aks ettirishni talab qiladi”[1.7] degan qarashlari bilan uyg‘unlashadi. Ushbu fikrlar shuni ko‘rsatadiki, badiiy ijod jarayoni nafaqat iste’dod, balki ijtimoiy mas’uliyatni ham talab qiladi. Shuningdek, V.G. Belinskiyning "Estetika va adabiy tanqid" asarida badiiy ijod va hayot o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi keng yoritilgan. Belinskiy yozuvchining hayotiy voqelikni estetik talqin qilish orqali badiiy haqiqatni aks ettirishiga e’tibor qaratadi. Bu qarash esa M. Qo‘shjonovning “Badiiy asar hayotning ko‘zgusi bo‘lib, u estetik me’yorlar asosida yaratiladi” degan fikri bilan uyg‘unlashadi. Bundan ko`rinadiki, "Ijod saboqlari" asarida ilgari surilgan nazariy tamoyillar zamonaviy adabiyotshunoslik uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu asar yozuvchining ijtimoiy mas’uliyatini, tanqidning ahamiyatini va avlodlar o‘rtasidagi tajriba almashinuvi jarayonini yoritishda zamonaviy qarashlarga mos keladigan yondashuvlarni taklif etadi. Shu bilan birga,

M. Qo‘shjonovning ilmiy-nazariy qarashlari adabiyotshunoslik va yozuvchilik mahorati bo‘yicha chuqur ilmiy izlanishlar olib borish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Matyoqub Qo‘shjonovning "Ijod saboqlari" asarini ilmiy tahlil qilish uchun adabiyotshunoslik fanida qo‘llaniladigan bir nechta asosiy metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Ushbu metodlar mavzuni chuqur va har tomonlama yoritish, asarning nazariy va amaliy ahamiyatini aniqlashga yordam berdi. Birinchidan, adabiy-tahliliy yondashuv orqali M. Qo‘shjonovning asardagi asosiy g‘oyalari va ijodga oid qonuniyatlari tahlil qilindi. Ushbu yondashuv asarning tarkibiy qismlarini o‘rganib, uning nazariy asoslarini aniqlashga imkon beradi. Ikkinchidan, qiyosiy-tahliliy metod yordamida M. Qo‘shjonovning qarashlari boshqa adabiyotshunoslar va zamonaviy o‘zbek tanqidchilari qarashlari bilan solishtiriladi. Bu yondashuv mavzuning o‘ziga xosliklarini aniqlashda muhim rol o‘ynadi. Uchinchidan, tarixiy yondashuv asarni yaratilgan davr ijtimoiy va madaniy sharoitlari bilan bog‘liq holda o‘rganishni nazarda tutadi va M. Qo‘shjonovning qarashlari o‘z davrining adabiy muhitida qanday shakllanganini anglash uchun bu yondashuv muhim hisoblanadi. Shuningdek, tadqiqotda strukturaviy yondashuv qo‘llanilib, asarning tarkibiy va mantiqiy tuzilishi tahlil qilindi. Bu yondashuv M. Qo‘shjonov asarlarida badiiy ijod qonuniyatlari, avlodlar o‘rtasidagi uzluksizlik va tanqidning ahamiyati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashda yordam beradi.

Natijalar va muhokama. Yozuvchi o‘z ijodiy faoliyatida nafaqat o‘z shaxsiy dunyoqarashini aks ettiradi, balki jamiyat hayotiga faol ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayon esa o`z navbatida ijodkorlik mas’uliyati chuqur anglanishi zarurligini ko`rsatadi. Yozuvchi ijtimoiy hodisalar va muammolarni asarlarida yoritib, o‘z o‘quvchilarining ma’naviy va madaniy rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu ma’noda, badiiy ijodning ahamiyati nafaqat estetik, balki ijtimoiy jihatdan ham dolzarbdir. Bu borada M. Qo‘shjonovning qarashlari zamonaviy adabiy jarayon uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi yozuvchilar ijodida ijtimoiy mas’uliyatning yetakchi o‘rin tutishi, adabiyotning nafaqat o‘tmishni aks ettiruvchi, balki kelajakni shakllantiruvchi kuch sifatidagi o‘rnini mustahkamlaydi. Bu jihat adabiyotning ijtimoiy maqsadlarini anglashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, badiiy ijodning vazifalarini belgilaydi.

Adabiy tanqid ijod jarayonining ajralmas qismidir. Tanqid nafaqat yozuvchining kamchiliklarini ochib beradi, balki u yaratgan asarlarning badiiy sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon tanqidchi va yozuvchi o‘rtasidagi ijodiy hamkorlikni taqozo etadi. Tanqidning konstruktivligi yozuvchini doimiy izlanishga undab, yangi yondashuvlar izlashga rag‘batlantiradi. Shu bilan birga. adabiy tanqid ijodiy jarayonni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynabgina qolmay, badiiy asarlarning ijtimoiy ahamiyatini oshirishga, ularning badiiy qiymatini ham belgilaydi. Shu sababli, tanqidning roli nafaqat yozuvchi faoliyatini baholashda, balki adabiyotning umumiy rivojlanishiga hissa qo‘shishda ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

Olimning badiiy ijod qonuniyatlariga oid fikrlaridan biri – avlodlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik va adabiy merosning yozuvchi ijodiy faoliyatidagi o‘rnidir. Unga ko‘ra, har bir ijodkor o‘zidan oldingi avlodlarning asarlaridan saboq olib, ularni zamonaviy talablarga mos holda yangi asarlar yaratish uchun manba sifatida ishlatishi lozim. Bu tamoyil avlodlar tajribasi va ijodiy merosning uzluksizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Adabiy meros nafaqat tarixiy voqeliklarni aks ettirishga xizmat qiladi, balki ijodkorlar uchun ijodiy ilhom manbai hamdir. M. Qo‘shjonovning fikricha, yozuvchi avlodlar tajribasidan foydalanib, yangi uslub va yo‘nalishlarni yaratishda davom etishi lozim. Bu jarayon adabiyotning rivojlanishi va yangilanishini ta’minlaydi. Avlodlar tajribasi yozuvchilik maktablarining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi, chunki u o‘zaro tajriba almashish orqali yangi ijodiy qarashlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

Yana bir muhim jihat – badiiy obraz yaratish jarayonidir. M. Qo‘shjonov badiiy obrazning o‘ziga xosligini ta’minlash uchun yozuvchi estetik mezonlarga qat’iy rioya qilishi kerakligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, “…badiiy obraz faqat voqelikni aks ettirish bilangina cheklanmay, yozuvchining dunyoqarashini ham aks ettirishi kerak”[1.13]. Bu masala badiiy ijod nazariyasida alohida ahamiyatga ega, chunki obrazning hayotiyligi asarning umumiy badiiy qiymatini belgilaydi. M. Qo‘shjonov obrazni nafaqat voqelikning aks ettiruvchisi, balki yozuvchining estetik qarashlarini ifodalovchi vosita sifatida ko‘radi. Obraz hayotiy bo‘lishi bilan birga, o‘quvchini o‘ziga tortuvchi estetik quvvatga ega bo‘lishi kerak. Bu jihat yozuvchining mahoratini va ijodiy salohiyatini belgilovchi mezondir. Badiiy obraz yaratishda yozuvchining hayot tajribasi, kuzatuvchanligi va badiiy his-tuyg‘ulari muhim ahamiyatga ega. Munaqqidning ushbu fikrlari bu

tamoyillarni nazariy jihatdan asoslash bilan birga, ularni amaliyotga tatbiq qilish yo‘nalishlarini ham ko‘rsatib beradi. Obraz yaratishdagi bu yondashuv badiiy asarlarning umumiy estetik qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

M. Qo‘shjonovning "Ijod saboqlari" asarida badiiy ijodning nazariy va amaliy jihatlari o‘zaro uzviy bog‘liq holda yoritilgan. U nazariy tamoyillarni yozuvchining ijodiy jarayonidagi real amaliyot bilan bog‘lab, ularni ijodkor uchun yo‘l-yo‘riq sifatida taklif etadi. Bu yondashuv ijodiy jarayonni faqat nazariy qoidalar bilan cheklamay, yozuvchining shaxsiy tajribasi va hayotiy kuzatuvlarini ham hisobga olishni nazarda tutadi. Adabiyotshunoslikda badiiy ijodning nazariy tamoyillarini anglash yozuvchi faoliyatining muvaffaqiyatini ta’minlovchi muhim omillardan biri sifatida e’tirof etiladi. M. Qo‘shjonovning qarashlari shuni ko‘rsatadiki, yozuvchi nafaqat o‘z iste’dodini rivojlantirishi, balki nazariy bilimlarini amaliy ijodiy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishi zarur. Bu jarayon yozuvchini yanada chuqurroq izlanishga undaydi va badiiy asarlarning estetik sifatini oshirishga xizmat qiladi. M. Qo‘shjonovning fikricha, adabiyot jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Yozuvchi o‘z asarlarida jamiyatning muhim masalalarini aks ettirib, o‘quvchiga nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki uning dunyoqarashini shakllantiradi. Adabiyotning bunday ta’sirchanligi yozuvchining jamiyat oldidagi mas’uliyatini oshiradi va uni hayotiy voqeliklarni chuqurroq anglashga undaydi. Adabiyotshunoslik nazariyasida adabiyot va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ko‘p yillardan beri asosiy mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Bu borada fikr yuritilganda, tanqidchi va yozuvchi o‘rtasidagi o`zaro hamkorlik asosiy o`rin tutadi. Bu hamkorlik badiiy jarayonning uzviy qismidir. M. Qo‘shjonovning fikricha, tanqid yozuvchiga yo‘nalish beruvchi, uning ijodiy faoliyatini rivojlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Tanqid yozuvchi uchun yo‘naltiruvchi omil bo‘lib, ijodiy faoliyatdagi kamchiliklarni bartaraf etishda va asarlarning badiiy sifatini oshirishda yordam beradi. Adabiy tanqidning asosiy vazifasi nafaqat yozuvchini baholash, balki uni doimiy ravishda o‘zini rivojlantirishga undashdan iboratdir. M.Qo‘shjonov tanqidning konstruktivligini ta’kidlab, yozuvchi va tanqidchi o‘rtasidagi ijodiy muloqotni muhim omil sifatida ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv adabiyotshunoslikda tanqidning ahamiyatini yanada kengroq anglash uchun zamin yaratadi.

Xulosa. Badiiy ijod qonuniyatlarini o‘rganish yozuvchi va adabiyotshunoslar uchun adabiyotning nazariy va amaliy asoslarini anglash imkoniyatini yaratadi. Matyoqub Qo‘shjonovning "Ijod saboqlari" asari bu borada muhim ilmiy-nazariy manba sifatida ahamiyatlidir. Ushbu asar badiiy ijod mas’uliyati, adabiy tanqidning ijodiy jarayondagi o‘rni va yozuvchi mahorati kabi muhim masalalarni chuqur yoritadi. Avvalo, munaqqidning yozuvchi mas’uliyatiga oid fikrlari uning adabiy asarlarga ijtimoiy vosita sifatida qarashini ko‘rsatadi. Yozuvchi o‘z asarlari orqali nafaqat estetik mezonlarni targ‘ib qiladi, balki jamiyat hayotiga bevosita ta’sir o‘tkazadi. Bu jihatdan, M. Qo‘shjonovning qarashlari adabiy ijod va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yoritadi. Ijodkorning o‘z zamonasini teran idrok etishi va buni asarlarida aks ettirishi adabiyotning jamiyat taraqqiyotidagi muhim omillardan biri ekanini tasdiqlaydi.

M. Qo‘shjonovning ijod jarayonida tanqidning ahamiyati haqidagi mulohazalari adabiyotshunoslikning zamonaviy talablariga hamohangdir. U tanqidni yozuvchi faoliyatining yo‘nalishini belgilovchi muhim omil sifatida ta’riflaydi. Adabiy tanqid yozuvchi ijodiy rivojlanishi va badiiy uslubining takomillashuviga xizmat qiladi. Shuningdek, tanqidni to‘g‘ri anglash ijodkorni yangi yondashuvlar izlashga va o‘z asarlarini jamiyat talablariga moslashtirishga undaydi. Bu esa yozuvchini hayotiy voqelikni yanada chuqurroq aks ettirishga rag‘batlantiradi. Olimning badiiy obraz yaratish jarayoniga doir fikrlari esa ijodiy mahorat va badiiy tasvir usullari haqidagi nazariy qarashlarni boyitadi. Yozuvchi obraz yaratishda nafaqat voqelikni aks ettirish, balki o‘zining estetik qarashlarini ham ifoda etish zarurligini ta’kidlaydi. Badiiy obrazlarning hayotiyligi asarning umumiy badiiy qiymatini belgilashi, ijodkorning o‘z uslubini topishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. M. Qo‘shjonovning avlodlar tajribasiga oid fikrlari ham badiiy ijodning uzluksizligi va adabiy meros bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. U yosh yozuvchilarga oldingi avlod tajribalarini o‘rganishni va o‘z ijodlarida zamonaviy voqelik bilan uyg‘unlashtirishni tavsiya

qiladi. Bu yondashuv badiiy ijodning rivojlanishida avlodlar o‘rtasidagi tajriba almashinuvi muhimligini ta’kidlaydi. Shuningdek, "Ijod saboqlari" asari yozuvchi va adabiy tanqid o‘rtasidagi munosabatlarning muhim jihatlarini ochib beradi. Bu jarayonda tanqidning konstruktivligi, yozuvchini ijodiy kamolotga yetaklashi va uning jamiyatdagi rolini kuchaytirishi alohida qayd etiladi. Tanqidning amaliy ahamiyati, ayniqsa, yozuvchi tomonidan tanqidga to‘g‘ri yondashish va uni ijodiy jarayonning bir qismi sifatida qabul qilishda namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, M. Qo‘shjonovning badiiy ijod qonuniyatlariga oid qarashlari nafaqat o‘sha davr adabiy jarayonini, balki zamonaviy ijod tamoyillarini ham boyitadi. Bu tamoyillar adabiyotshunoslik ilmida badiiy tasvir usullarini o‘rganish, yozuvchi mahorati va tanqidning o‘zaro munosabatlarini tahlil qilishda qo‘llanilishi mumkin. M. Qo‘shjonovning asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar zamonaviy adabiyotshunoslik uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi va shu bilan birga badiiy ijod qonuniyatlariga oid fikrlari nafaqat o‘z davri uchun, balki zamonaviy adabiy jarayon uchun ham dolzarbligini saqlab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qo‘shjonov M. Ijod saboqlari. – Toshkent, 1973. –Б. 5-15
2. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004. 112-123-b.
3. Izzat Sulton. Badiiy tanqid nazariyasi. -Toshkent: O‘qituvchi, 1978. 45-83-b.
4. Belinskiy V.G. Estetika va adabiy tanqid. –M.: Nauka, 1981. -Стр. 56-76.
5. Greymass A.J. Narrativ strukturalizm. -London: Routledge, 1990. 34-78-b.
6. Lotman Yu.M. San’at tizimi. –M.: Iskusstvo, 1992. –Стр.102-117.
7. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1970. – 298 b.
8. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1978. – 415 b.
9. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 2-tom. – Toshkent: Fan, 1979. – 444 b.
10. Abu Nasr Forobiy She’r san’ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 1979. – 67 b.
11. Adabiy turlar va janrlar. Uch tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1991. – 382 b.

TEMURIYZODALAR HAQIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIIY VOQELIK

Yaxshiyeva Zebo Rashidovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalar universiteti
Qarshi filiali Axborot ta’lim texnogoyalari va
gumanitar fanlar kafedrasi mudiri
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Mamatova Dilorom Azam qizi
TATU QF tadqiqotchisi
zebona.sevinch@gmail.com,
ORCID 0009-0006-0973-6147

UDK 821.111.091-21

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temur va temuriy shahzodalar haqida olimlar va yozuvchilar, tadqiqotchilar va muarrixlar solnomalarida keltirilgan ma’lumotlarning badiiy asarlarga ko‘chirilish asoslari o‘rganilgan. Dunyo va o‘zbek yozuvchilarining badiiy asarlariga obraz sifatida kiritilgan tarixiy shaxslar haqida tarixchi olimlarning mulohalazalari qiyosiy solishtiriladi. Maqolada qiyosiy tipologik metodlar asosida tarixiy ma’lumotlarning zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan keltirilgan talqinlariga mulohazalar bildiriladi. Ushbu maqolada, shuningdek, badiiy asarlar yaratishda yozuvchilar tayangan tarixiy manbalar bilan muvofiqlik darajasi, tarixshunoslarning Amir Temur shaxsiyati va faoliyati yuzasidan olib borgan tadqiqotlari natijalarining adabiyot namunalariga singdirilish muammolari haqida tahlillar olib borilgan. Temuriy shahzodalar orasida katta ilmiy izlanishlarga mavzu bo‘lgan Zahiriddin Muhammad Bobur haqida mana shunday tahlillar keltiriladi.

Kalit so‘zlar. muarrix, tarixiy haqiqat, poetik mahorat, harb yurishlari, xronotop, prototip, fabula.

HISTORICAL TRUTH AND ARTISTIC REALITY ABOUT TIMURIDS

Abstract. This article was written about the basics of moving information about Amir Timur and his princess into the artistic novels and plays, which presented in the Chronicles of scientists and writers, researchers and scholars. The considerations of historical scientists are comparative about historical figures, which are included as images in the fiction of writers of the world and Uzbek. In given article provided some feedback on the interpretations of historical data, which are presented by modern researchers based on

comparative typological methods. In this article also researched the level of coordination with historical sources, which writers relied on when creating fiction, the problems of absorption into literary samples of the results of the research of historians on the personality and activities of Amir Timur. Furthermore, analyzed some discussions about Zahiriddin Muhammad Babur which is the subject of great scientific research among the other members of the Timurids

Key words. historical reality, poetic skill, military deploy, chronotope, prototype, fabula.

Kirish. Amir Temur haqida u hayotlik chog‘idayoq ko‘plab muarrixlar, shoirlar, yozuvchilar bir qator asarlar yaratishga qo‘l urganlar. Shunday bo‘lsa-da, Sohibqiron Amir Temur bu yozilganlardan ko‘ngli to‘lmagan paytlari ham bo‘lgan. Ana shu “ko‘ngildagi bo‘shliq”ni to‘ldirish uchun u fors yozuvchisi, muarrix va husni malohatli kotib deya ulug‘langan Nizomiddin Shomiyni o‘z huzuriga chaqirib, “avom xalqqa tushunarli, sodda shaklda, ravon tilda va ayni paytda ma’rifatli kishilar e’tiboriga loyiq tarzda bir asar yozishini uqtirgan”[1;5]. Shu bois ham, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida Amir Temur shaxsi va uning harb yurishlari, tashqi va ichki siyosiy irodasi mufassal, go‘zal tarzda talqin qilingan, Sohibqiron Ko‘ragon Temurbekning oilasi, farzandlari va ayollari haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan.

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti vakillaridan Muhammad Ali “Zafarnoma” singari qator tarixiy asarlardan ilhomlanib, o‘z poetik mahorati, iste’dodi, talanti va tajribasini yanada charxlagani sir emas. Ushbu asarda esa yozuvchining mahorati temuriy shaxzodlarni badiiy asarda inkishof etgan “Jahongir Mirzo”, “Umarshayx Mirzo”, “Mironshoh Mirzo”, “Shohrux Mirzo” jildlari orasidagi mantiqiy bog‘lamda asar syujet chiziqlarini o‘ziga xos yo‘sinda tasvirlay olganida ko‘rinadi. Ushbu asar temuriy shahzodalar tarixiy siymosini chuqur o‘rgangan holda badiiy talqin qilingan epopik asarlar sirasiga kiradi. Har bir barpo etilgan mamlakatning boshqaruv tizimi, islohotlari va boshqa jihatlarini ijobiy va salbiy munosabatlarda izohlash yo o‘rganish xolislikni ta’minlay olmasligi shubhasiz. Ammo bizning yurtimizda sho‘rolar zamonida xolisona turli manbalar asosida o‘rganilgan tadqiqotlar “ideallashtirish” tamg‘asi bilan tanqid qilinishi masalaning boshqa tomoni.

Tadqiqot metodologiyasi. XX asr davomida Chor Rossiyasi tomonidan mustamlaka etilgan bu davlatda tarixda yashab o‘tgan ota-bobolar, buyuk tarixiy shaxslar, jumladan, Temur va temuriyzodalar haqida so‘z yuritish, ularning shonli tariximizda qoldirgan xizmatlarini e’tirof etish taqiqlab qo‘yilishining sabablari ko‘p edi. Shunga qaramasdan, vijdoni amriga bo‘ysungan holda, tarix haqiqatlarini yashirmagan olimlar ham uchrab turardi. Mana shunday olimlardan B. Ahmedov, I. Mo‘minov, R. Mukminova kabi elimizning fidoyi temurshunoslari sifatida qora ro‘yxatga kiritilgan Amir Temur shaxsi va u boshqargan davlat tamoyillari, boshqaruv prinsiplari xususida qiyosiy tahlillar asosida qator obyektiv fikrlar ayta olishgan edi. B. Ahmedov “Temur tuzuklari”ni atroflicha boshqa manbalar bilan solishtirish asnosida o‘rganar ekan, sohibqironni ne chog‘li adolatli va bag‘rikeng, tolenrantlik asosida saltanatini idora qilganini izchil tadqiq etadi. Ayniqsa, har bir viloyat, hudud sayyid, ulamo, mashoyix, fuzalo va ulug‘ din peshvolarini hurmatlab, ularni muborak tutish, olim, shayx va zohidlariga vazifa va oylik maosh tayin etilganligi, kasb qilishga qodir bo‘lmagan ojizlarga nafaqa tayinlanishi sohibqiron saltanati tolerantlik va ijtimoiy himoya tamoyillari asosida barpo etilganligini asoslaydi. Uning davlatida avliyo va din ahkomlarining muqaddas qabrlari obod etilib, ularni doimiy pok saqlash ishlariga vaqfdan mablag‘ ajratilganligi, u yerlar gilam, taom va chiroq bilan ta’minlanishini[2;121] tuzuklarda o‘qishimiz mumkin.

Rus sharqshunosi O.Chexovich tadqiqotlarini qiyosiy-tipologik asosda o‘rganish bugun o‘zbek temurshunoslari uchun muhim masala hisoblanadi. Olim “Temur zamonida umumiy ocharchilik bo‘lmagan va qonunlarning bajarilishini qattiq nazorat qilgan edi”[3;344], degan fikrlaridan Amir Temur tuzgan markazlashgan saltanatning bosh tayanchi raiyat, islomiy qonun-qoidalar ekanligi oydinlashadi. Amir Temur va uning keyingi sulola vakillari Shoxrux Mirzo, Ulug‘bek, Z.M. Bobur davrlarida taxt uchun kurashlar olib borilganligi tarix manbalarida qayd etilsa-da, aholining umumiy ahvoli osoyishta va farovon ekanligi aytiladi. Chunki sohibqiron davrlaridan oddiy fuqaroga zulm o‘tkazganlar qattiq jazolanar, xabarchilar va xufyalar orqali doimiy xolisona xalq ahvolidan xabardor bo‘linar edi. Ichki ahvoloti tinch va farovon davlatgina tashqi aloqalarini mustahkamlash sari olib borgan harakatlari odilona bo‘lishini tarix sahifalaridan o‘qish va uqish mumkin bo‘ladi. Buni Odil Yoqubovning temuriy shahzodalarga bag‘ishlangan qator asarlaridan, Nurali Qobul, Muhammad Ali, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, “Ona lochin vidosi” kabi ijod namunalaridan o‘rganish mumkin.

Temuriy shahzodalar orasida “Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idroki, ma’naviy

jasorati va diniy ilmi va dunyoqarashi, qomusiy bilimdonlikni o‘zida muajjam etganligi bilan ajralib turadigan buyuk arbob”, shubhasiz, Zahiriddin Muhammad Boburdir. Uning mashhurligi Amir Temurning o‘z farzandlari Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo. Mironshox va Shoxrux Mirzolardanda mashhur. Sohibqiron saltanati davomchisi sifatida u bobosiga izdosh, ajdodlaridanda fidoyi. U Temur saltanatidan, o‘z yurtidan quvg‘in, Hind diyorida qo‘nim topa olgan, Tangri yorlaqagan podshoh. U jaholat olamidagi jamiyat aqidalarini musulmon birodarlikka, insoniylikka bo‘ysundirgan adolatpesha shahanshoh bo‘la olgan zot. Uning tavsif-u ta’riflari bisyor bo‘lganidek, uni o‘z asarlarida bosh qahramon qilib olgan adiblar nazdida uning jozibasi ham insoniyligida. Amir Temurdan so‘ng Z.M. Bobur haqida eng xo‘p va ko‘p asarlar bitildi, tadqiqotlar olib borildi. U haqida yozilgan birgina “Yulduzli tunlar” asariga bag‘ishlab I. Sulton, G‘. Karimov, M. Qo‘shjonov, O. Yoqubov, G‘aybulla as-Salom, S.Mirvaliyev, A.Kattabekov, U.Normatov, I.G‘afurov kabi zabardast olimlar, adabiyotshunoslar ilmiy izlanishlar olib borishdi, munosabat bildirishdi. [4; 127] Bu asar yaratilishi qadar ham Z.M. Bobur hayoti va harbiy faoliyati haqida yuzlab manbalar yaratilgani ma’lum. Xususan, “Boburnoma”, “Shaybobiynoma”, “Muzakkiri ahbob”, “Habib us siyar”, “Tavorixi Guzida Nusratnoma”, “Humoyunnoma”, “Abdullanoma-Sharafnomayi shohiy”, “Samariya” va boshqa ko‘plab ilmiy va badiiy manbalar. Shuningdek, Z.M. Boburning xususida N.G. Chernishevskiy, B.G. Belinskiy, N. Rimar, S. Petrov, Fitrat, Oybek, H. Yoqubov, I. Sulton, M. Qo‘shjonov, N. Xudoyberganov, O. Sharafiddinov, B. Nazarov, H. Umurov kabi ko‘plam adabiyotshunos olimlar, tarixshunoslar ilmiy izlanishlar olib borishdi.[5; 18-25]

Natijalar va muhokama. Temuriy shahzodalardan Z.M. Bobur barpo etgan saltanat, yurishlar va quvg‘inlik davri tarixiy haqiqat bo‘lgani kabi u yashagan muhitning bunga sababkorligi, o‘sha davr muhitini so‘zlar vositasida anglatmoq adabiyotning badiiy vazifasidir. M. Gorkiy ta’biri bilan aytganda, “Muhit – bu inson, muhit – bu bir-biriga ta’sir etuvchi psixik birliklarning muayyan miqdori” ekan, badiiy asarda tarixiy muhit inson bilan bog‘liqlikda ochib beriladi. Z.M. Bobur va uning avlodlari haqida romanlari bilan elga taniqli Pirimqul Qodirov Z.M. Bobur shaxsini prototip asosida o‘z asarida Bobur yashagan davr muhitini ishonarli, kitobxon tasavvurlariga singib ketadigan tarzga keltirguniga qadar ham, o‘zi bitganidek, “talabalik yillarimdan beri “Boburnoma”ni qo‘ldan qo‘may o‘qidim, Boburning qadamjolarini borib ko‘rishga intildim. Hindiston, Pokiston bo‘ylab sayr qildim, hammasidan chiqargan xulosam shu bo‘ldiki, hali-hanuz Boburni bizga jozibali qilib ko‘rsatayotgan tomoni uning oliyjanob insoniy fazilatlari va noyob iste’dodidir”. [6;2] Muallif romanida tarixiy sharoitning real tasviri asosiy o‘rinlarni egallagan bo‘lsa, ushbu tarixiy voqealarning Boburning xarakteri, qarashlari, hayot yo‘liga ta’siri asarda badiiyatni belgilovchi mezon sifatida baholanadi. Aynan tarixiy sharoitni badiiy talqinga hamohang va o‘zaro uyg‘unlikda ochib bera olingani asarning eng katta yutug‘i sifatida baholangan. Demak, tarixiy muhit ta’siri ostida asardagi obrazlar ruhiyati, ularning o‘y-xayollari, oilaga munosabatlari, bizga ma’lum tarixiy faktlarni asarda badiiy jonlantirgan holda, o‘sha zamon ruhining haqiqatini badiiy inkishof etishda yozuvchi bor mahoratini ishga soladi. Ushbu Temuriy sulola vakili haqida bitilgan deyarli barcha badiiy asarlarda Bobur o‘zi yashagan davr taqozosiga ko‘ra, o‘z istagiga zid harakat qilishga, vatanini tashlab qochishga, ota-bobolaridan unga meros qolgan podshohlik, oila a’zolari taqdiriga mas’uliyati o‘laroq harakat qilishga majbur ekanligi, bu muhitdagi uning botiniy iztiroblari, rang-barang va murakkab ichki dunyosi, iqror va taskinlari, tasalli va afsus-nadomatlari tarixiylik faktlarini inkor etmagan holda uning insoniylik tuyg‘ulari bilan hamohang tarzda ifodalangan. P.Qodirov ham yozuvchi sifatida Boburdek buyuk siymo xarakteri va ichki tug‘yonlarini, qalbidagi savol-javoblarni o‘sha tarixiy davr ruhidan, muhit taqozosidan kelib chiqib, badiiy inkishof etadi. Adabiyotshunos H. Umurov ta’kidicha, “asar fabulasi asosida adabiyotda tarixiy sharoit ijtimoiy munosabatlar tasviriga bog‘liqligi bilan xarakterni aks ettiruvchi obraz, sharoitni ham yaqqol gavdalantiradi. Xarakter va sharoit, vaqt dialektik aloqada rivojlanadi. Mana shu dialektikaga izchil amal qilgandagina xarakterni yorqin, tipik xususiyatlarini ham, davrning mohiyatini ham haqqoniy idodalay oladilar. Badiiy asarning g‘oyaviy va badiiy sifati ham asardagi xarakter bilan sharoitning bog‘lanish darajasiga va poetik tahlilning chuqurligiga bog‘liqdir.” [7;144] Temuriylarning bu zabardast vakilining badiiy siymosini yaratar ekan, P.Qodirov tarixiy haqiqatni inkor etmagan holda, mantiqiylikka, badiiy me’yorga, tarixiy davr haqiqatiga asoslanadi, shoh va shoirni asarida obraz sifatida tiriltiradi. Umarshayx Mirzoning o‘limi tufayli shohlikni qabul qilgan Z.M. Boburning bu tarixiy sharoitdagi holati badiiy asarda bolalik davrini undan yulib oladi, og‘ir sharoitlarda uni

toblaydi. Mana shu o‘rinda, muallif bosh qahramon qalbidagi alam va qayg‘ularni ruhshunos olimdek badiiy chizgilarda ifodalashi, tarixiy sharoitdan, davrning achchiq haqiqatidan kelib chiqib, qahramonning yoshlik yillaridagi og‘riqli tashvishlari-yu fikrlarini, to‘la ziddiyatli hayot yo‘llarini yorita olganki, bir so‘z bilan aytganda, asar “o‘qimishli” chiqqan. [8] Roman sahifalarini o‘qigan kitobxon muallifning o‘zi ham o‘z qahramoniga achinish hissi bilan yondashganini sezib turadi: “Boburning o‘n ikki yoshida taxtga o‘tirishi bir tomondan uning taqdiri siylovi bo‘lsa, ikkinchi tomondan fojiasi edi. O‘n ikki yoshli shahzoda hali taxtga tayyor emas, uzluksiz davom etayotgan urushlar mamlakatni boshqarishni yanada qiyinlashtirgandi. Shunday og‘ir sharoitda Boburning atrofidagi beklar birlashish, tinchlikni saqlash o‘rniga, tinimsiz kurash yo‘liga o‘tdilar.” [9;443]

Asar voqealari Z.M. Bobur haqida bitilgan tarixiy manbalar bilan solishtirish asnosida ishonch hosil qilish mumkinki, P.Qodirov eng ishonchli manbalarni taqqoslab, tarix haqiqatiga yaqin, tarix fantaziyasini inkor etmagan ma’lumotlargagina badiiy tus berishga intiladi. Jumladan, Gulbadanbegimning “Humoyunnoma” asarida keltirilgan voqealardan, xronotop nomlaridan xabardor kitobxon, “Yulduzli tunlar” da o‘qiganlari bilan tafovut sezmaydi, aksincha, bu voqeliklar yanada badiiy tahrirlanganiga, o‘quvchining qalbiga qadar kirib borishga harakat qilinganiga amin bo‘ladi. Tarixiy faktlar, hujjatlar bilan badiiy kashfiyotni qiyoslashgina yozuvchini qanchalik xayolotlarga berilib ketganligini asoslab beradi. Ammo har bir asarda bosh qahramon bilan parallel yashaydigan, u bilan yonma-yon bo‘lsa-da, begona muhitdan yulib olingan to‘qima obrazga ehtiyoz sezadi. “Yulduzli tunlar” da Tohir, “Ulug‘ saltanat”da Axiy Jabbor obrazlari mana shunday qahramonlardir. Ular, ijodkor bu badiiy obrazlariga o‘zgacha bir muhabbat bilan, o‘zining aksariyat ideallarini mana shu ikkinchi darajali obrazga singdirgan holda asarni yanada o‘qimishli qilishga erishadi. Ko‘zda tutilgan sharoit, zamon va makoniy talablar, bosh qahramonni olisdan boshqa bir voqelikka bog‘lab ketish uchun ham ular zarur. “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasidagi Axiy Jabbor obrazi orqali muallif Amir Temur haqida unut bo‘lib ketayozgan “Sarbadorlar” harakatini eslab o‘tishni asar voqeliklariga ulab ketadi. Bu ikki qahramon xalq tantiligi, oliyjanobligi, sodiqlik va yozuvchi qalbidagi orzularini o‘zida tashiydi. Haqiqatdan ham adabiyotshunos olim P.Shermuhammedov ta’kidlaganidek, bu obrazlar bo‘lmaganida bosh qahramonlar obrazi “xira chiqqan bo‘larmidi?”[10;165]

Temuriylar sulolasining faxrli vakili Z.M. Bobur haqida bitilgan ushbu asar bir necha marotaba o‘zbek va rus, shuningdek, dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilindi. Asarni o‘qigan har bir kitobxonning ijodiy jasoratiga ushbu asar bosh qahramoni yanada jasorat qo‘shdi, har qalbda “tarix haqiqatiga sadoqat”ni (U.Normatov) saqlab qola oldi. Ammo shunga qaramasdan, ushbu asar qator tanqidlarga ham uchradi. Ko‘p orinlarda Bobur ichki dunyosini izchil ifodalash o‘rniga, voqealar silsilasini faktlarga ko‘mib, harbiy yurishlar izohiga berilib ketishda, romanning syujet-kompozitsiyasi e’tirozlar uyg‘otishi aytib o‘tildi. “Pravda Vostoka” gazetasida “Tarix haqiqatiga zid” nomli maqola e’lon qilindi. Bu asarga yonma-yon Aziz Qayumovning “Zahiriddin Muhammad Bobur” maqolasi tanqid ostiga olindi. M.Vahobov tomonidan esa muallif tarixiy haqiqatni no‘to‘g‘ri badiiy talqin etilgan deb qoralandi. [11] Bobur obrazi ideallashtirilganligi, asarda jangovar hayot targ‘iboti kuchli ekanligi, lekin shunga qaramasdan, Boburning lashkarboshilik iste’dodi sust yoritilganligi borasida munosabatlar bildirildi.

Fikrimizcha, Z.M. Bobur yashagan zamon shart-sharoiti, ushbu tarixiy siymoni ochib berishdan, badiiy inkishof etish maqsadidan kelib chiqqan holda, shoh va shoirning badiiyatdagi obraz sifatidagi talqini muvaffaqiyatli chiqqan. Chunki inkor etib bo‘lmas haqiqat bor – Boburning to‘liq umri jang-u jadallarda, yurtini qaytarib olish, sargardonlik, o‘zga yurtlarda ildiz otish harakatlarida o‘tdi. Shunga qaramasdan, asarda tarixiy siymo bo‘lgan Z.M. Bobur olib borgan asl janglarning yarmi ham tasvirlangani yo‘q, aks holda asar tarixiy jangnoma tusiga kirib qolgan bo‘lardi. Ammo berilgan janglar lavhalaridan “Laho‘r, Panipat, Dehli” bo‘limida Boburning bobosi Temurbek singari harbiy sarkardalik salohiyati, harbiy siyosat va zarb berish borasidagi mohirligi yetarlicha badiiy yetkazib berishga harakat qilingan. Yuz minglab askar, bir yarim ming harbiy filga ega Dehli sultoni Ibrohim Lodiga qarshi o‘n ikki ming askar bilan jangga kirishi,[12;378] jasorati, harbiy taktikasi asarni yetarlicha ta’sirchan bo‘lishiga hissa qo‘shgan.

Z.M. Bobur singari temuriyzoda shahzodalar haqida bitilgan Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” asari ham tarixiy haqiqatni badiiy adabiyotga olib kirgan asarlardan sanaladi. Asar yozilgunga qadar adibning “Ona tarix kamoli”, “Xalq yaratgan daho”, “Sohibqiron farzandlari”, “Amir Temur chamani”, “Buyuk obida”, “Odamiylikning buyuk timsoli”, “Qutlug‘ xonadonning

ulug‘ sohibi”, “Amir Temur haqida so‘z” kabi maqolalari chop etilgan bo‘lib, bu borada u to‘plagan tajriba ham P.Qodirovniki singari boy ekanligini ko‘rsatadi. “Ulug‘ saltanat” epopeyasi yaratilgach, u haqda juda ko‘plab ilmiy kuzatishlar yuzaga keldi. Bular orasida adabiy tanqidning deyarli barcha janrlarini o‘zida jamlagan “Ulug‘ saltanat vasfi” nomli to‘plam o‘zining ilmiy ahamiyati bilan ajralib turadi. To‘plamdan joy olgan Matyoqub Qo‘shjonov, Begali Qosimov, Baxtiyor Nazarov, Akmal Saidov, Pirimqul Qodirov, Ubaydulla Uvatov, Damin To‘rayev, Islomjon Yoqubov, Nusratullo Jumaxo‘ja kabi taniqli adabiyotshunoslarning maqolalarida tarixiy voqelikning badiiy talqini, mazkur tetralogiyani yaratishdagi adib izlanishlari borasida so‘z yuritilgan. Xususan, “Sohibqiron tashrifi” hikoyasi, ikki jilddan iborat “Sarbadorlar” romani “Ulug‘ saltanat” epopeyasining yuzaga kelishida muhim rol o‘ynagani ta’kidlanib, temuriyzodalar hayoti va faoliyatini yaratishda adibning badiiy kashfiyotlari tahlil etiladi. Adabiyotshunos olim Damin To‘rayevning “O‘zbek tetralogiyasi”[13;212] nomli kitobida Muhammad Alining mazkur roman epopeyasi tarixiy-qiyosiy metod asosida o‘rganilib, asosiy e’tibor tarixiylik va xronotop tasviri tahliliga qaratiladi. Yozuvchi tarixiy mavzuga qo‘l urar ekan, ko‘z o‘ngida buyuk fotih va sarkardaning shaxs va saltanat tuzish borasida qilgan mehnatlari turganligini diqqat markazida ushlab tura olishi bilan o‘z mahoratini ko‘rsatib bera oladi.

Xulosa. Amir Temur davlatining tashqi aloqalari xususida qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan izlanishlar olib borilgan bo‘lib, Parijda saqlanayotgan Amir Temurning YYevropa hukmdorlari bilan yozishmalari asosida bir nechta ilmiy izlanishlar olib borgan I. Umnyakov XX asrda bu boradagi ilk qadamlarni tashlagan edi. Olim tadqiq etgan yozishmalari A.Temurning xalqaro aloqalari xususidagi ishonchli va asoslangan ilmiy tadqiqot sanaladi. Bu yozishmalar orasida ingliz qiroli Karl VI nomiga bitilgan maktub Sohibqironning Boyazid ustidan qozongan g‘alabasi haqida xabar keltirilgan. Bu xat garchi elchi Ioanning o‘z qiroli didiga moslab bitilgani bo‘lsa-da, “Franslar faoliyatining mudom qaydlari” yilnomasida bu maktub 1403- yilda Parijga yetib borganligi, maktubda, shuningdek, Boyazid tomonidan asir etilgan nasroniylarning Temur tomonidan ozod etilganligi, Frans qirolini ko‘rish istagi bayon etiladi[14;154]. Alohida qayd etish kerakki, o‘zbek adabiyotshunosligida Amir Temur va Temuriy shahzodalarga bag‘ishlab, uch yirik epik polotno yaratilgan: Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi”, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat”. Ularning barchasi uchun umumiylik kasb etgan xususiyat bu polotno asarlarda XV-XVI asr boshlaridagi temuriylar davri tarixiy muhiti, sharoiti to‘liq va haqqoniy tasvirga olingan bo‘lib, murakkab tarixiy sharoitda yashagan bu tarixiy shaxslarning murakkab, ruhiy kechinmalariga, dramatik voqealarga boy hayot yo‘llari tasvirga olingan. Aynan mana shu fikr barcha adabiyotshunos olimlar mulohazalarining asosiy pafosi, o‘zak nuqtasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўринбоев А. Низомиддин Шомий ва унинг “Зафарнома” асари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б. 5.

2. Temur tuzuklari. –Toshkent, 1996. – B.121.

3. Чеович А. К вопросу о громотах Ходжа Ахрар. - М., 1949. - 344 с.

4. Nosirov A. Tarixiy haqiqat va uning badiiy talqini. Fil.fan.nomz.diss. –Toshkent, 1999. 127 b.

5. Yaxshiyeva Zebo Rashidovna. Jahon adabiyotshunosligida Amir Temur obrazi talqinlarining qiyosiy tadqiqi**.** Нововведения современного научного развития в эпоху глобализации: Проблемы и решения. Volume1. Essue 3. www.uzresearchers.com. 18-25.

6. Qodirov P. Til, tarix va muhabbat. // Yoshlik, 1989. №5. – B.2.

7. Umurov H.Tahlil san’ati. – T.: Adabiyot va san’at, 1978. 144 b.

8. Yaxshiyeva Z.R. G‘arb va Sharq adabiyotida Amir Temur prototipi asosida yaratilgan asarlar tadqiqi. O‘zbekiston: til va madaniyat. Adabiyotshunoslik. 2024 Vol. 1[2] ISSN 2181-92-2x. www.literature.tssull.uz 120-138.

9. Qodirov P.Yulduzli tunlar. Bobur. –Toshkent: O‘zbekiston. 1990.- 443b.

10. Shermuhammedov P. Ruhiy dunyo ko‘zgusi. –T.: Adabiyot va san’at, 1971. –B.165.

11. Вахабов М. Правда истории вопреки. // Правда востока. 1986, 4 декабря

12. Qodirov P.Yulduzli tunlar. Bobur. – Toshkent. O‘zbekiston. 1990.- 378 b.

13. Тўраев Д. Ўзбек тетралогияси. – Тошкент: Akademnashr. 2017. – Б. 212.

14. Uljayeva Shoxistaxon Mamajonovna. XX asrning 50–60- yillarida Amir Temur va Temuriylar davri tarixshunosligi. Tarix fan. nomz. diss. – Toshkent, 1999. 154 b.

BADIIY ASAR VA IJODIY NIYAT

Damin To‘rayev
filologiya fanlari doktori, professor(QarDU)
daminturayev01@gamil.com
ORCID 0009-0000-1532-0152
UDK 8*И*-83

Annotatsiya. Maqolada badiiy asar yaratilish jarayonida yozuvchi ijodiy laboratoriyasining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, hayotiy haqiqatning badiiy haqiqatga aylanish jarayoni va undagi ijodiy niyatning roli o‘rganilgan. Har qanday badiiy asarning asosida hayotiy voqelik yotadi va bu voqelik yozuvchining maqsadi hamda ijodiy qarashlari asosida badiiy syujetga aylantiriladi. Ijodiy niyat yozuvchining kuzatuvlari, hayotiy tajribasi hamda dunyoqarashidan kelib chiqib shakllanadi. Yozuvchi hayotda sodir bo‘layotgan voqealardan ilhomlanib, ularga estetik baho berish va ma’naviy mazmun yuklash orqali o‘ziga xos badiiy olam yaratadi. Maqolada aynan shu jihatlar mashhur adib Pirimqul Qodirovning “Erk” qissasi misolida tahlil qilingan. Ushbu asar orqali yozuvchining hayotiy voqelikni qanday kuzatishi, uni o‘z ijodiy niyatiga mos ravishda qayta ishlashi va badiiy haqiqatga aylantirishi yoritib berilgan. Asarda tarixiy va hayotiy haqiqat uyg‘unligi, badiiy tasvir vositalari, obrazlar tizimi va muallifning badiiy niyatining aks etishi kabi masalalar muhokama qilingan. Maqolada badiiy ijod jarayonining murakkab tabiati, yozuvchi mahorati va badiiy niyatning ahamiyati haqida fikr yuritilib, badiiy haqiqat va hayotiy haqiqat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar. ijod, badiiy asar, obraz, qahramon, real voqelik, hayotiy material, ijodiy niyat, prototip va obraz.

ARTISTIC WORK AND CREATIVE INTENTION

Annotation. The article analyzes the role and significance of the writer’s creative laboratory in the process of literary work creation. In particular, it examines the transformation of real-life truth into artistic truth and the role of creative intent in this process. Every literary work is based on real-life events, which are transformed into a literary plot according to the writer’s purpose and creative perspective. Creative intent is shaped by the writer’s observations, life experiences, and worldview. Inspired by real-life events, the writer evaluates them aesthetically and assigns them spiritual meaning, thereby creating a unique artistic world. The article specifically explores these aspects through the example of the renowned writer Pirimqul Qodirov’s novella *Erk*. This work illustrates how the writer observes real-life events, adapts them to his creative intent, and transforms them into artistic truth. The novella discusses the harmony between historical and real-life truth, artistic imagery, the system of characters, and the reflection of the author’s creative intent. The study delves into the complex nature of the creative process, the writer’s mastery, and the importance of creative intent. Additionally, it highlights the intrinsic connection between artistic truth and real-life truth from a theoretical and scientific perspective.

Key words. creativity, artistic work, image, hero, real reality, vital material, creative intention, prototype and image.

Kirish. Badiiy asar yaratishning u qaysi janrga aloqador bo‘lmasin yo‘llari va imkoniyatlari turli-tuman bo‘lib, ular yozuvchining hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, davrga munosabati, ijodiy uslubi bilan bog‘liqdir. Ustoz A.Qahhor asarlarining yaratilish tarixi buning yorqin misolidir. Xususan, yozuvchining “Bemor”, “Anor”, “Ko‘r ko‘zning ochilishi”, “Adabiyot muallimi” kabi hayotiy real voqealar asosida yaratilgan hikoyalaru xalq hayoti va davr manzarasining to‘laqonli tasviri namunasidir. Yoki ulug‘ alloma ijodkorimiz G‘afur G‘ulomning xalqimiz hayoti va turmush tarzi hamda o‘z davrining dolg‘ali voqealarini aks ettirgan “Yodgor”, “Mening o‘g‘rigina bolam”, “Tirilgan murda”, “Vaqt” kabi asarlari yaratilish tarixini eslaylik.

Mashhur yozuvchilarning asarlari yaratish borasidagi tajribalarga asoslanib shuni aytish mumkinki, badiiy asarning tez nishona berishi yoki yozuvchi tafakkurida uzoq vaqt ishlanishi syujetda ifodalanadigan g‘oyaning qay yo‘sinda topilishiga bog‘liqdir. Agar biror mavzuda asar yaratish niyati tug‘ilib, hayotiy materiallar ham yozuvchi ixtiyorida yetarli bo‘lsa-yu, syujetda ifodalanuvchi g‘oya hamli aniq bo‘lmasa, haqiqiy san’at asari yuzaga kelmaydi.

Tadqiqot metadologiyasi. Davr qahramonlarini yaratish va real voqeliklarni hamda bu voqeliklardagi murakkab muammolarni, hayotning turli sohalaridagi ijtimoiy siljishlarni, zamondoshlar tafakkuridagi o‘zgarishlarni asarlarida o‘ziga xos tasvirlagan

yozuvchilarimizdan biri atoqli adib Pirimqul Qodirov edi. U yoshlar hayoti va ma'naviyati haqida hikoya qiluvchi "Studentlar", "Qadrim", "Uch ildiz", "Qora ko'zlar"kabi asarlari bilan XX asr o'rtalaridagi o'zbek nasri taraqqiyotida yangi sahifalar ochgan edi.

Albatta, har bir yozuvchi u yoki bu mavzuni qalamga olganda kitobxonga hayot haqida qandaydir yangi bir narsani aytishni maqsad qilib qo'yadi. Hayotdagi yangilik esa hamma vaqt taraqqiyot tendensiyasini o'ziga pafos sifatida singdiradi. Adibning "Erk" (1968) qissasi ham g'oyaviy yo'nalishi, syujetning real voqealar asosida shakllanishi jihatidan adabiyotimizda o'ziga xos bir yangilikdir. Qissa syujetiga asos bo'lgan voqea-faktlar va prototiplar haqida so'raganimizda (1973 yil 26 oktyabr) muallif bizga quyidagicha hikoya qilib bergan edi: "Voqealar aynan bir joyda sodir bo'lgan emas, qahramonlarim ham hayotdagi bor odamlardan nusxa sifatida aynan ko'chirilgan emas. Shu ma'noda ularning aniq prototiplari yo'q. Lekin men biron-bir jihati bilan Sattorga, yo Oyshaxonga yoki Roziyaga o'xshagan yoshlarni ko'rganman, hayotda ko'zatganman. Turli odamlarda uchragan, lekin mohiyat e'tibori bilan bir-birlariga mos tushadigan insoniy xususiyatlarni ijod jarayonida saralab, bir-biriga payvand qilganman. Xullas, qissadagi qahramonlar hayotdagi bor odamlardan va faktlardan umumlashma tarzida yaratilgan obrazlardir".

Demak, qissasining syujeti hayot materialidan o'ziga xos yo'sinda, ya'ni Sattorlar, Oyshalar, Roziyalar turmushi, taqdiri, ruhiy olam uzoq yillar o'rganilib, umumlashtirilib olingan.

Natijalar va muhokama. Yozuvchini xalqimizdagi ba'zi urf-odatlarning oila qurishda farzandlar erkini bo'g'ib qo'yishi, ularning taqdirini qarindoshchilik rishtalari sabab ota-onalar o'zlaricha hal qilishlari, qishloq va shahar o'rtasidagi tafovut oqibatidan kelib chiquvchi kishilar xarakteri, turmush tarzi o'rtasidagi farqlar o'ylantirib yurgan. Bundan tashqari, yozuvchiga yoshlardan kelgan xatlar, "Yoshlik" radio to'lqinlarida o'tkazgan suhbatlar ham oilaviy masalalar ustida mushohada yuritishga undagan. Yozuvchining aytishishicha, unga kelgan xatlar orasida oila qurishda mas'uliyatni sezmagan shoshqaloq yigitning mulohazalari, yosh turmush qurish oqibatida qizning o'qishdan qolib ketishi haqidagi fikrlar bayon qilinadi. Bunday voqealar yozuvchining yaqin kishilari hayotida ham bo'lgan. Jumladan, yozuvchining oliy o'quv yurtida o'qiyotgan xo'jandlik kursdoshi va do'sti o'qishga kelgunga qadar uylanganligi tufayli keyincha ancha qiynalgan.Ana shular asosida qissada yaratilajak asosiy obrazlar – sattor, Oysha va Roziyalarning qiyofalari tayyor holga kelib qolganiga qaramasdan yozuvchining ijodiy niyatidagi masalalarni yoritishda xizmat qiladigan voqea o'rnini badiiy makonni tanlashda juda ko'p izlangan.

Muallifning hikoya qilishicha, asardagi voqealar sodir bo'ladigan badiiy makon sifatida dastlab yadro fizika institutini tanlagan. Yaratmoqchi bo'lgan asar qahramoni atom reaktori bilan shug'ullanuvchi kishi bo'lishi kerak edi. Shu sababli u shu sohaga oid ilmiy manbalarni o'rganishga kirishadi. Biroq, atom reaktori oshkor qilib bo'lmaydigan soha ekanligi yozuvchiga qo'l kelmaydi. Natijada ijodiy niyatni amalga oshirish muayyan vaqt to'xtab qoladi. Shunday bir paytda hukumatning Toshkent metrosi qurilishi haqidagi qarori chiqadi. Xalqimiz ijtimoiy hayotida muhim voqea bo'lgan metro qurilishi yozuvchi badiiy talqin qilmoqchi hayotiy muammolar va yaratmoqchi bo'lib yurgan tipik obrazlarga monand kelib qoladi. "Erk"ni yaratishga to'liq imkoniyat topiladi. Transport kutib qiynalgan yo'lovchilar holati, triband bo'lib ketgan shahar ko'chalarining ishonarli ko'rinishlarini tasvirlash orqali asardagi muammolarning muhimligi dalillanadi.

Badiiy asarga hayotiy material to'plash usullari xilma-xildir. Manbalardan ma'lumki, Pushkin Orenburg guberniyasiga uzoq safar qilib "Pugachev tarixi" va "Kapitan qizi" uchun material to'plagan. L.Tolstoy "Urush va tinchlik" asari ustida ishlagan vaqtida mukammal xarita bilan qurollanib, Borodino maydonidagi jang bo'lgan joylarni ko'zdan kechirgan A.Kuprin esa baliqchilar kasbi, mehnatining butun zahmatlarini teran o'rganmoq uchun bir necha kunlar mobaynida kichik qayiqchalarda ular bilan o'lim xavfi ostida dengizlarda suzgan.

Pirimqul Qodirov ham qissa syujetiga material to'plash va ijodiy niyatini amalga oshirish uchun loyihalash institutlaridagi arxitektorlar va metro qurilishidagi muhandislar ishlari bilan tanishadi. O'ziga notanish bo'lgan yer osti ishlarining xususiyatlarini o'rganadi. Natijada

yozuvchining yoshlarning oila qurishi haqidagi o‘ylab yurgan dardli tashvishlari, xotiralarinining qissa syujetiga singishida metro qurilishidagi yoshlarning faoliyati qo‘l kela boshlaydi. Metro qurilishining zarurligini dalillash va kitobxonda shubha qoldirmasli uchun Maksimich, Roziya, Sattorlarning shahar bo‘ylab kezish manzaralarini yaratadi.

Kichkinagina bir soxtalik badiiy asar syujetiga dog‘ tushirishi mumkin. Bu haqda yozuvchi “O‘ylar” nomli kitobidagi badialardan birida shunday degan edi: “Yozuvchi ko‘p odamlarda ko‘rgan fazilatlarni bir qahramonda umumlashtirib berayotganida bu qahramonning psixologiyasi, insoniy, milliy, ijtimoiy xususiyatlari bilan, ya’ni xarakteri bilan hisoblashishi, bu xarakterga to‘g‘ri kelmaydigan xususiyatlarni unga zo‘rlab yopishtirishdan o‘zini tiyishi kerak”.

Xulosa va takliflar. Muallif o‘z fikrlariga to‘liq amal qilgan holda, qissadagi voqealar yo‘nalishdagi Sattor va Oyshalar taqdiriga munosabatida ham qahramonlarning psixologiyasiga asosiy e’tiborni qaratadi, ularning insoniy, milliy, ijtimoiy xususiyatlariga ziyon-zahmat yetkazmaydi, hayot materialini badiiy syujetga aylantirishda eng to‘g‘ri yo‘lni topadi. Asarda badiiy makon sifatida Toshkent metro qurilishining tanlanishi, Markaziy Osiyo yagona bo‘lgan qudratli inshoatning xalqimiz iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzidagi o‘rnining ko‘rsatilishi ham, mamlakatimiz hayotidagi bu ulkan voqelikning davrning ilg‘or qahramonlari obrazi orqali badiiy talqin qilinishi ham muallifning hayotni kuzatishdagi ijodkorlik iste’dodining yorqin namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Добин Е. Жизненный материал и художественный сюжет. Ленинград, “СП”, 1956, стр. 40-50.
2. Мели С. “Ўғригина боланинг иззати”. “Ўзбек адабий танқиди” китобида. Тошкент: “TURON-IQBOL”, 2011, 366-371 бетлар.
3. Теория литературы. Москва: “Наука”, 1964, стр. 422.
4. Норматов У. Ижод сеҳри. Тошкент: Адабиёт нашриёти, 2007, 118-161 бетлар.
5. Цейтлин А. Труд писателя. Москва, “СП”, 1968, стр, 219.
6. Қодиров П. Эрк. Тошкент: Адабиёт нашриёти, 1968.
7. Қодиров П. Ўйлар. Тошкент: Адабиёт нашриёти, 1971, 119 бет.

ZEBO MIRZO IJODIDA MUHABBAT MAVZUSINING ASK ETTRILISHI

Sh. Usmonov
Qarshi davlat universiteti
Yangi o‘zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi
o‘qituvchisi
usherzod140@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek she’riyatining o‘ziga xos shoirasi Zebo Mirzo she’rlarining mazmun mundarijasidagi betakrorliklar tahlil etiladi. Mustaqillik davr o‘zbek she’riyati ham adabiyotimiz gulshanida o‘zining salmoqli o‘rniga egadir. Bugunning shoir va shoiralari she’riy asar yaratishda butunlay yangicha ruh va kayfiyat bilan qalam tebratmoqdalar. Yaratilayotgan har bir yangi ijod mahsuli shaxs ruhiyati, uning ichki kechinmalarining yorqin ifodachisi sifatida namoyon bo‘ladi. Istiqlol davr she’riyatinig boshqa davrlar she’riyatidan farqli jihati shundaki, bu davr she’riyatida milliy o‘zlikni anglash, erkin fikrlash ruhi yetakchilik qiladi. Shoira she’riyati tahlili bilan birga hozirgi davr o‘zbek she’riyatida badiiy konsepsiya masalalari, shoir va shoiralar she’riyatidagi o‘ziga xosliklar, ijodkor “men” ining she’riyatda aks etishi haqida ham mushohada yuritilgan. Shoira she’rlarida yetakchi mavzu ishq mavzusidir. Bunda Zebo Mirzoning rangin bo‘yoqlar bilan yo‘g‘rilgan she’rlari hamda eng sara ijodiy na’munalari asosida badiiy konsepsiyaning mohiyatini ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar. adabiyot, san‘at, shoir, badiiy tafakkur, estetik ideal, obraz, so‘z sehri, lirik qahramon

Abstract. In this article, each era leaves its mark on literature with its essence and meaning. Uzbek poetry of the independence era also has its own significant place in the flower of our poetry. Today's poets and poetesses are writing with a completely new spirit and mood when creating poetic works. The psyche of each new creative product is a vivid expression of the individual's inner experiences. What distinguishes the poetry of the independence era from the poetry of other eras is that the poetry of this era is dominated by the awareness of national identity and the spirit of free thinking. This article discusses the issues of artistic conception in Uzbek poetry of the current era, the peculiarities in the poetry of poets and poetesses, and the reflection of the creative "I" in poetry. If we look at the work of Zebo Mirzo, his work is a vivid example of today's Uzbek poetry. The leading theme in the poet's poems is the theme of love. In this, we tried to reveal the essence of the artistic concept based on Zebo Mirzo‘s colorful poems and the most exquisite creative

examples

Keywords. literature, art, poet, artistic thought, aesthetic ideal, image, word magic, lyrical hero.

Kirish. Muhabbat haqida yozmagan shoir-u yozuvchining o‘zi yo‘q. Ammo gap uni qanday yoza olishda. Ammo Zebo Mirzo she’rlarida bu mavzuda musavvirona ruh bor, dard bor, olov bor. Bu so‘zlarni ushlab ko‘ramiz, haroratini his qilamiz, ranglaridan hayratlanamiz. Va ko‘nglimizga kirib borayotgan Tirik So‘zning tovushlarini eshitamiz. Alloh yuqtirgan buyuk iste’dod egasi Zebo Mirzoshe’rlarida sog‘inch go‘yo nurga belanganga o‘xshab ko‘rinadi. Shoiraning she’rlarini o‘qiganimizda qalbimizda bir sog‘inch paydo bo‘ladi. Unda ayolning dardi, sog‘inchi, iztiroblari ko‘rinadi. Uning qalbini shunchalik o‘rtaydiki, hatto u bilan tushida bo‘lsa ham, ko‘rishishga, yorug‘ dunyoga tushlari orqaligina bo‘lsa ham, uning kelishini istaydi.

Zebo Mirzo ijodiga nazar soladigan bo‘lsak, uning ijodi bugungi o‘zbek she’riyatining yorqin namunasidir. Shoira she’rlarida yetakchi mavzu ishq mavzusidir. Uning ishqi shunchaki zaminiy muhabbat emas, balki ilohiyotga yaqin bo‘lgan ishqdir. Shuning uchun ham shoira she’rlaridagi lirik qahramon Haq oshig‘i va u o‘z holini, ishqini Yaratganning inoyati, deya qabul qiladi. Oshiq mana shu ishq sabab Allohdan najot kutadi, gunohlaridan o‘tishini so‘raydi, panoh tilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola asosan germenevtik, bibliografik va biografik tahlil metodlaridan, badiiy psixologik tahlil usullaridan foydalangan holda yozilgan. Bibliografik tahlil orqali tegishli mavzudagi ilmiy maqolalar, kitoblar va boshqa manbalarni o‘rganib, ularning mazmuni, asosiy g‘oyalari va xulosalar keltirildi.

Natijalar va muhokama. O‘zbekiston xalq shoiri Normurod Narzullayev shoira haqida shunday yozadi: “So‘z ichida yonayotgan ayol qalbining iztiroblari biznida yondiradi. Biz bu she’rlar bilan azoblanamiz, yuksalamiz va poklanamiz. U bizni buyuk bir ishq qoshiga yetaklaydi. Bir lahza bo‘lsa-da, ko‘ngil bilan yashash baxtini taqdim etadi”[1],– degan fikrni keltirib o‘tadi. Darhaqiqat, shoir bergan bu fikrlar to‘g‘ri ekanligiga Zebo Mirzo she’riyatini kuzatish jarayonida amin bo‘lamiz.

Uning sog‘inchdan ko‘zlariga hech narsa ko‘rinmaydi, ko‘zlarida “nurli sog‘inch” tushsagina u to‘lishadi. Ya’ni unda ishq porlaydi. Sog‘inchlari otashin yonganidan dengizga sig‘may, samolarga tomon boshlaydi. Samolarga sig‘magan sog‘inch yana nurga aylanib, uning borlig‘iga, jism-u jahoniga qaytadi-yu uni Xudodan so‘rayveradi. So‘raganda ham oshiqona haqiqat bilan so‘raydi. Sevish gunohmi?,-deb sevgilisining ko‘zlaridan uni qidiradi. Ko‘ngliga ishqning nur kabi kirib kelishini Ollohdan sog‘inadi. U yorning vasliga yetishish uchun do‘zax yo‘llaridan o‘tishga-da tayyor, shunchaki bir ishqning emas, buyuk ishqni sog‘inganidan shunday yo‘l tutadi:

Kelgin tushlarimdan yorug‘ dunyoga,
Qorong‘u ko‘zimni to‘ldirgani kel!
Yoki
Do‘zaxlardan o‘tmoqda yo‘lim,
Bir buyuk ishqni sog‘inadurman!

U ishqning bag‘riga bahor bo‘lmoqchi edi. Yorning sog‘inchi uning borlig‘ini hazin va xasta kuzga aylantirib, umid barglarini xazonrezgidek so‘ldirishga ulgurdi, lekin u sog‘inishdan to‘xtay olmaydi. Xazonrezgidek umidlari bilan sog‘inaveradi. Uning muhabbati shunchalar buyukki, u o‘z jismi bilan emas, yorning jismi bilan yashaydi. Uning jo‘shqin qonida oqadi. U bilan o‘tgan damlarini bir nurli xayolga mengzaydi. Yordan bir lahzalik bo‘lsa ham, uning haloli bo‘lishini, bir lahzagina bo‘lsa ham, o‘zini dunyoning eng baxtli ayoli, deb his qilishga izn so‘raydi:

Bilaman,
Men uning qonida oqdim,
Yillarning eng Nurli xayoli bo‘lib
Izn ber,
Qolayin shu lahza haqqi,
Uning, faqat uning haloli bo‘lib,
Dunyoning eng baxtli Ayoli bo‘lib! (“Nur kukunlari” 7-bet)

Shoira yana bir she’rida ishqqa shunday bir ta’rif beradi. Zulmat nurga qanchalar muhtoj bo‘lsa, ko‘ngil ham ishqqa shunchalar zordir:

Sevish gunoh, sevmaslik yana gunoh!

Ko‘ngilga nur qo‘yiladi –Xudo guvoh.

She’rlarda keltirilgani kabi u sevmaslikni gunoh, deb tushunadi. Chunki Olloh insonlarning qalbiga muhabbat soldi. Bir-birlarini sevib, ardoqlab yashashni iroda etdi. Shundan kelib chiqilganda, shoiraning fikrida jon borga o‘xshaydi. Uning she’rlari ishq ahlining qalbini junbushga keltiradi, nurni Ollohning jamolidan taralayotgan mehr, deb olsak, uning sog‘inch bilan ko‘ngilga kirib borishi insonning mehr-muhabbatli bo‘lishga undaydi.

Shoiraning ko‘pchilik she’rlari muxlislariga muhabbat va o‘kinch oralig‘ida turib yozilgandek, shoiraning lirik “men”i baxt va baxtsizlik chegarisida turgan odamday tuyuladi. Ya’ni u Tangriga sevilib, ammo ma’shuqiga sevilmagan oshiq. Z.Mirzoning she’rlarida hayot ana shunday o‘z holicha yolg‘onsiz, dardli, iztirobli holatda gavdalanadi. Adabiyotshunos olim B.Yo‘ldoshev e’tirof etganidek: “Zebo nazmining, hatto biror satrida ham men farog‘atni ko‘rmadim, uning she’riyati farog‘atdan darig‘, shoira nazmida bezovtalik, katta bir tashvish xalq dardi bilan o‘z dardini mushtarak qilib yuborgan eng yuksak fazilatlar bor, qolaversa, unda yuragi pora-pora bo‘lib, bevafolik dunyosida javobsiz qolayotgan beg‘ubor ezgu tuyg‘ular bo‘rtib turadi”[2].

Zebo Mirzo buyuk va safoli, ma’sum va dardchil Ishq kuychisi. Bu ishq gohida baxtdan mast, mamnunlikka limmo-lim, zavq kuylariga oshno, goh esa ayriliqdan ko‘zi yoshli, ko‘ngli dog‘li, nafrati qilichdek keskir. Shoira bu mavzuda qalam tebratar ekan, «Bilaman: men uning tenggi emasdim»,-deb boshlanuvchi she’rida ishq tashbehini shunday chizadi:

Qachondir yurakka jazillab bosgan
Ishq edi –Quyoshning tosh uzra yo‘li.[3]

Yoki “Yolg‘izlik” she’rida qushdek erkin umri shu tuyg‘uning tutquniga aylanganligini aytib, “Ishq – umrimga qafas”,-deya yozadi shoira.

“Iltijo” she’rida esa “Ishq yog‘dudir yurakka oqqan…”,-deya uni qalbni nurlarga ko‘mib, vujudni poklashini e’tirof etsa, “Sargashta ruhlar…” dostonida

Asl Ishqdir do‘zax o‘tida
Yonayotib “Sevaman!” demoq!..

-deya jasoratga to‘la, mardonavor dil izhorini baralla kuylaydi. Ba’zan esa mana shu aziz tuyg‘uning alamli nidosi, hayqirig‘i kitobxon borlig‘ini titratar darajada isyonkor ovoz bilan bong beradi:

Meni sog‘in, ming yil yasha, ming yil sog‘in…
Sevgim qattiq, qattiq hajr-u azobim ham.
Betaskin kut,beqadr kut,bir umr kut,
Meni senga qaytarmasin qodir Egam!
Garchand sen deb ko‘z yummasdan o‘tay,
Garchand Yuragingga hech kim mendek qaytolmasin!
Ammo qasam, shu ko‘nglimni bir Xudodan
O‘zga kimsa meniki,deb aytolmasin! (“Ilohiy bir sevgi bilan”)

She’r lirik qahramoni dunyosi besarhad. Oxiri yo‘q og‘riqlar, javobi yo‘q so‘roqlar, sabrni yo‘ldosh qilgan kutishlar, sarobni umidga aylantirgan sohir xayollar dil osmonini chaqmoq yanglig‘ yorib chiqadi. Vujudni larzaga keltirib, ruhiyatingizda to‘zon ko‘taradi. Hattoki javobsiz sevgi iztirobi ham uning tomirlarida oqayotgan hayot kabi. U shunda ham ishqini ko‘ksida tumordek saqlaydi. Mumtoz shoiramiz Nodirabegim :

Muhabbatsiz kishi odam emasdir,
Gar odamsen, muhabbat ixtiyor et,

-deb yozgandi.

Zebo Mirzo ham faqat anduhlar guldastasini bo‘yniga gulchambar kabi abadga taqqan yor uchun yellarda uchib, unut bo‘lib ketgan ro‘mol yanglig‘ ko‘nliga qizg‘aldoqlardek lovullab yonayotgan ishqi ila taskin bog‘laydi:

Yuragimda ishq qo‘ng‘irog‘i
Dunyolarni oralab o‘tdim.
O‘tgansan bu xor yo‘llardan deb,
Izlaringni qoralab o‘tdim. (“Yuragimda ishq qo‘ng‘irog‘i”)

Shoirani orzuli lahzalarga bo‘lgan umidvorlik hissi, umrining qaysidir bekatlarida qolib ketgan baxtga yetishmoqlik ishonchi, hatto xayollarida bo‘lsa ham, bir zum tark etmaydi. Sog‘inch, yor diydoriga bo‘lgan intiqlik she’rdan

she’rga gullab boradi:
O‘tdi bahor,O‘tdi xazonlar,
Uzun tunlar ko‘z yummay o‘tdim.
Kelmasingiz bilsam-da, ammo
Kelasiz, deb umidvor kutdim…
Bir men bildim,bir Xudo bildi,
Unga ne deb sig‘inganimni.
Hech kimsaga ayta olmadim
Sizni qanday sog‘inganimni! (“U ishq edi...”)

Butun borliq: osmon-u zamin, dala-yu bog‘lar, oy-u quyosh, hatto ko‘kdan yog‘ayotgan yomg‘irlar tomchisida ham uning aksi, nafasi bordek izlarini izlaydi:
Tuni bilan yoqqan yomg‘irlar
Yuvib o‘tdi tonglar yuzini.
Men izladim
o‘zim uchun sir
bo‘lgan baxtning yorug‘ izini… (“Intiqlik”)

“Yolg‘izning yori –Xudo”,-deydi. G‘am sevgisining piligini yoqib turgan asrdek lahzalar iskanjasi aro hijron sahrolarida jundek, sog‘inch etaklaridan tutib, visol elini qidirib ketayotgan ko‘ngilga sukunat soya, Olloh esa darddosh-u dildoshga aylanadi. Totar adabiyotining yirik vakili A.To‘qay shunday yozgandi:
Parpirab yulduz yonodir tun qaro bo‘lgan sayin,
Yodima Tangrim tushar, baxtim qaro bo‘lgan sayin.

Shoira yillar bo‘yi bag‘rini goh yozdek yashnatib, goh kuzdek xazonlarga o‘rab kelgan sevgisidan ozorlansada, aslo tonmaydi. Balki unga takror-takror qaytib, “men uchun baxt, men uchun hayot”, “Xudoning ko‘nglimga bergan ne’mati”, “Ismingni o‘paman…”,- deya muhabbatining qanchalar nafis va sof, qanchalar o‘xshashi yo‘q, samimiyatga yo‘g‘rilganligini quyidagichi bayon qiladi:
Ismingni o‘paman… Kimga g‘alati
Baxtsiz tunlarimning baxtiyorligi.
Xudoning ko‘nglimga bergan ne’mati –
Bu dunyoda sening sevging borligi… (Go‘zal hislarimiz etdilar barbod)

Shoira “Ishq” nomli she’rida “Bir dilni Xudoni sevgandek sevdim”,-deydi. Uning sevgisi jimlik va sukutga sherik bo‘lsa-da, lek shu jimlik, sukut ichra “bitta hurlik, ming isyon va dod” yashirin. U bu ishqidan azob, iztirob, sitamlar ko‘rgan esa-da, achinish, muruvvat nigohlariga muhtoj emas:
Nigohingiz ko‘zimga to‘kmang
Va umrimni atamang sabot…
…Yo‘q, shafqat-la boqmang, iltimos
Og‘rimasin ko‘ngil qushlarim. (“Nigohingiz ko‘zimga to‘kmang”)

Zebo Mirzoning yuqorida keltirilgan she’rlaridagi dil dardiga oshnolik, mehr-u muhabbatga tashnalik; hijron shamollari, visol xayollari, vujudni tirnab, ruhni tilkalab yashayotgan armon; sevmoq-u sevilmaganlikning achchiq, alamli o‘ylari, yoki olis xotiraga aylanib borayotgan farahbaxsh, sururli, munavvar lahzalar hech bir kitobxon qalbni junbushga keltirmay iloj yo‘q. Uning she’riyatidagi badiiy mahorat, bokira qalbning pokiza tuyg‘ulari, eliga dardkash farzandning achchiq nolalari, vatanparvar insonning ilohiy sadolari qalbimizni tobora o‘ziga rom eta boradi.Chunki ko‘ngilning ming bitta tomirlarini uzib dunyoga kelgan she’r, albatta, ko‘ngillarning ming bir tomirlariga otashin harorat bo‘lib kirib borgusidir.

Shoiraning otash yuragida shunday kuchli muhabbat bor-ki, B.Yo‘ldoshev aytganidek, “qo‘limga qalam olaman-u, ammo she’r alangasi qo‘limni kuydirib, yozishga ojiz qolaman”. Qarang:
Gar o‘n ming yig‘lasam, o‘n mingdan bir anglamas.

Muhabbat shunday kuchli-ki, u hatto g‘ururni ham sindiradi. Yor visoliga yetish emas, sevuvchi uchun yorning yuzini ko‘rib turmoqlik ham bir inoyat. Majnuna shoira o‘z yoriga “ketma” deb iltijo qiladi:
Bo‘m-bo‘sh ko‘zlarimda hasratning yuki
Charchadim...

Beholman...
Tolg‘inman...
Ketma...
Ketma...
Bu *tunda million yil yo‘l yurib*
O‘lar burchagini topmagan “it”man.

Zebo Mirzo lirik “men” i baxt va baxtsizlik chegarasida ishq ilohiy ishqqa yaqin tushuncha, Ollohga muhabbat esa shoiraning so‘zlari bilan aytganda, umr ekan ! Nodira bir g‘azalida:

Analhaq majorasin aylading fosh ,
Kel , ey Mansur, istiqboli dor et.
-deya tasavvufona ohangda kuylaydi .

Ilk sevgi pokiza va sirli hislarga chulg‘aydi , eng toza va ardoqli o‘ylarga oshno etadi. Ko‘p hollarda esa ayriliq azobini,bedillik jafosini totasan, natijada shoirning “o‘kinchli toleimda sen bo‘lmading baxtli muhabbat “ so‘zlarini bir umr takrorlab o‘tasan .Qaysi biri qimmatli sevgi safosimi yoki sevgi jafosimi? To‘g‘ri , safosiz jafoni bilmaysan , jafosiz safoni . Biroq negadir jafokash satrlar ko‘proq hamdardlik uyg‘otadi O‘ziga hamfikr etadi. Ayniqsa, she’riyatda, hatto shoirani unutasan muallifi –guyoki sen .

Go‘yoki oyning sharpasi seni tashlab ketayotganday , tunlar gunohingni kechirayotganday, bugunlaring-ma’sud tunlaringday, lablaring beumid iltijo bilan , “sevgim , ketma ,qol , bag‘rimda qol ,”deb yolvorayotganday . Bu sirning ibtidosini qidirasan . Topolmaysan . Topishing ham dargumon .

Tashlangiz oq ro‘molim , omon yora do‘st yor ,
Yor-yor ayting , yor bilan shu kun bitta qabrda
Nikohlab qo‘ysa o‘lim , omon yora do‘st yor.
Asl yoring bo‘lsa-yo , omon yora do‘st yor .

Hech qanday izoh, hech qanday toshqin ular o‘rnini bosa olmaydi.
She’rga she’rning o‘zi o‘lchov, o‘zi maqtov. Shoirada azaliy mavzularga qiziqish kuchli, shu boisdan u zamonaviylik bayrog‘i ostida ta’magirlik bilan she’r bitishdan qochadi. Yaratgan, hayot, sevgi, sog‘inch, yurak, tun, iztirob kabi umumminsoniy va umumbashariy mavzularga murojaat qiladi, ularni o‘z kechinmalari bilan to‘ldirib, pardozlab har biri haqida betakror falsafiy mushohadalar yuritadi. Falsafa she’riyatdan tug‘ilgan deyishadi. Uning qanchalik to‘g‘riligini bilmadim-u, lekin falsafa she’riyatga yo‘g‘rilgani shubhasiz. Ayniqsa, sharqda shoiraning she’rlari ham bunga ishonchli misol. Zebo Mirzo she’rlarida chinakam umuminsoniy bir dard bor, uning nazmida shoiraning dil og‘riqlari sirqirab turadi. Shoiraning qalbidagi muhabbat olovining alangasi qanchalik kuchli ekanligi uning she’rlarida ham ko‘rinib turadi:

Vujudingni ruhim olovi,
Kuydiraru berolmassan dosh.
Shunda meni izlab yugurma,
Qaytmaslikka top sabru bardosh.

Umuman, shoira she’rlarining aksariyat qismi mungli bir sevgi-muhabbat tuyg‘ulari bilan yo‘g‘rilgan. Shoiraning “Tun malikasi”, “Baxtsiz qizning ertagi”, “Men sizni sevmagayman”, “Muhabbat –qabrtosh”, “Umrimni o‘tkinchi saboga berdim”, “Muhabbat”, “Visol”, “Men hanuz o‘shaman”,”Bag‘ring menga ochilgan qabr” kabi she’rlari bir-birini to‘ldiruvchi o‘ziga xos bir uyg‘unlik, mushtaraklik fazilatlariga ega bo‘lgan lirik-falsafiy mushohadalarga yo‘g‘rilgan. “ Shoir umr bo‘yi bitta she’rni –“Ishq” sarlavhali she’rni yozayotganday. Har bir she’r oldingi she’rning davomidek tuyuladi, uni to‘ldiradi, uning yanada kuchliroq porlashiga quvvat beradi”[4].

Isming- yuragimga urilgan xanjar,
Sug‘urib olsalar o‘laman.
Men seni shu qadar muhabbat
Va azob bilan...
Jim sevaman!
Sevaman...
O‘limni sevganday
Har lahza ruhimni pichoqlab,

Men mangu yashayman,
Go‘rda ham
Dilimda ismingni
Quchoqlab!...

Shoira ko‘pgina she’rlarida, ishqiy ehtiroslar, sevgan ko‘ngil tug‘yonlari, visol ishtiyoqi va hijron azoblari tarannum etiladi. Xullas, shoir sevgi muhabbat mavzusini kuylashda o‘ziga xos poetik yo‘llar izlaydi, o‘zicha ishq gulistoni va bo‘stoni yaratmoqchi bo‘ladi, ishqish she’rlarida insonlarning ma’naviy bedorlikka chorlaydi. Muhabbat qudratli, muhabbat boqiy, u insonlarni yuksaklikka ko‘taradi, deya inson ruhiyatini, kamolini ulug‘lovchi she’rlar bitadi. Shoiraning she’rlarida o‘ziga xos ohang ravonligi, mazmunga mos shakl bor. Shoir dunyoga oshiq nuqtai nazaridan boqib, sof muhabbatni, vafoni ulug‘laydi, ba’zida esa sevib sevilmagan qalbning alamli to‘lg‘anishlarini , yorning shoir qalbi va ruhiga yetkazgan jaraohatlarini kuylaydi:

Xulosa va takliflar . Olamga zohirdagi emas, botindagi nigoh bilan qarasak, u naqadar jozibali va rangin. Shoira she’rlari orqali o‘z olamini allaqachon yaratib olgan. Uning olami ishq sohillarida joylashgan. Uning uchun muhabbat, sevgi „Jannat azobi’’dir. Zebo Mirzayeva ijodida shaxsiylik ko‘proq kuylanadi. Go‘yo u ishq uchun yaralib, butun vujudi ishqqa botirib olingandek. „Sevgi – bu jonimda chirqillagan qush’’ deb uni ilohiy ekanligini yana bir bor ta’kidlaydi.

Shoira she’riyatda o‘z she’rlari orqali dardini yengillashtiradi. Dardlarini, og‘riq va azoblarini unutib, hamma-hammasini qog‘ozda qoldiradi. Ijodini o‘rganar ekanman o‘zi bilan uchrashish, dildan suhbatlashish istagi paydo bo‘ldi. Inson qiziquvchan-da.

She’riyatga o‘z ixtiyoring bilan kirish bor, chiqish yo‘q. Demak, kuylar shoiraning hayot va muhabbat haqidagi o‘ylari hali oldinda. Ha, shoira o‘zbekning yetmish bir ming tomiri va suyak-suyagida sirqirab yotgan dard-alamlarini, ohu-nolalarini anglay bilgan va uning dardiga malham bo‘lmoqni istagan bir dardkash Shoira (inson) bo‘lib dunyoga keldi va shunday yashay oladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirzo Z. Nur kukunlari. –Toshkent:, Yangi asr avlodi. 2004.
2. Mirzayeva Z. “Ishq” nomli she’riy to‘plami. “Mumtoz so‘z” T.: 2012 y
3. Yo‘ldoshev. B. “Qashqadaryo badiyati” Qarshi “Nasaf” 1998-y, 106-bet
4. X. Davron Z.Mirzo “Ishq” “Akademnashr” T.: 5-bet
5. Zebo Mirzo She’rlari https://tafakkur.net/sherlar/zebo-mirzo
6. Zebo Mirzo (1964) - www.ziyouz.uz https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/zebo-mirzo/
7. A.Fitrat. Tanlangan asarlar. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006. IV J.

QALMOQLAR OBRAZLARINING O‘ZBEK XALQ QAHRAMONLIK EPOSIDAGI BADIIY TALQINI ASOSLARI

Yarmatov Isamidin
Filologiya fanlari doktori
Angren universiteti Tillar va ularni o‘qitish
metodikasi kafedrasi professori
auni1975as@gmail.com

UDK 82-131;

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek xalqining buyuk qahramonlik eposi – “Alpomish” dostonining badiiy to‘qimasida qalmoq konseptining shakllanishi, uning paydo bo‘lish sabablari va mazkur konseptning doston mazmun-mohiyatiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ushbu konseptning tarixiy, etnolingvistik hamda madaniy jihatlari chuqur o‘rganilib, ularning epos kontekstida qanday namoyon bo‘lishi izohlab beriladi. Shuningdek, maqolada germenevtik tahlil usuli asosida qalmoqlarning “Alpomish” dostoni badiiy to‘qimasiga kirib kelish jarayoni va bu jarayonning doston voqealar rivoji, qahramonlarning xarakteri hamda eposning umumiy g‘oyaviy-badiiy tuzilishiga qanday ta’sir ko‘rsatgani ochib beriladi. Maqolada o‘zbek xalqining tarixiy xotirasi, milliy o‘zlikni anglash jarayonlari hamda doston poetikasining evolyutsiyasi kabi masalalar ham muhim tahlil obyekti sifatida qaraladi. Ushbu tadqiqot “Alpomish” dostonini nafaqat adabiy va badiiy yodgorlik sifatida, balki tarixiy-madaniy hodisa sifatida ham o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, epos matnida aks etgan tarixiy dalillarni va ularning xalq ongidagi aks-sadosini tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar. Doston, variant, etnos, Boysun-Qo‘ng‘irot eli, Kashal yurti, Chilbir cho‘li, Toychixon mamlakati, Jung‘oriya xonligi, o‘yrot tili, qalmoqlar.

ON THE ISSUE OF THE ETHNONYM KALMAK IN THE UZBEK HEROIC EPIC

Abstract. This article explores the integration of the Kalmyk concept into the artistic structure of the great Uzbek heroic epic, "Alpomish", analyzing the reasons behind its emergence and its impact on the overall meaning of the epic. The study delves deeply into the historical, ethnolinguistic, and cultural aspects of this concept and examines how it is manifested within the context of the epic. +Furthermore, using the hermeneutic analysis method, the article investigates how the Kalmyk concept was introduced into the artistic fabric of *"Alpomish"*, and how this process influenced the development of the plot, the characterization of the heroes, and the general ideological and artistic structure of the epic. Additionally, the research addresses key issues such as the historical memory of the Uzbek people, the process of national identity formation, and the evolution of the epic's poetics. This study aims to examine *"Alpomish"* not only as a literary and artistic monument but also as a historical and cultural phenomenon, helping to understand the historical realities reflected in the epic and their resonance in the collective consciousness of the people.

Keywords. Epic, varietu, ethnicitu, ancestral home of Bausun-Kungrat, countru of Kashal, Chilbir steppe, region of Taichihan, Dzungar khaganate, oirot langiage, kalmuks.

Kirish. "Alpomish" dostoni Oltoy, O'rta Osiyo va Volga bo'yida yashab kelayotgan bir qancha xalqlarning mushtarak adabiy merosi bo'lishi barobarida, Evroosiyo kengliklarida kamida ming yildan buyon kechgan tarixiy va etnik jarayonlar izlarini qomusiy darajada mukammal saqlab kelayotgan og'zaki manba sifatida ham badiiy-estetik va ilmiy qimmatga ega ekanligi sir emas.

Shu boisdan mazkur asar eposshunoslik tarixida eng ko'p o'rganilgan hamda olimlar o'rtasida bahsu munozaralarga sabab bo'lgan adabiy meros namunasi sanaladi [1]. Chunonchi, doston modusiga xos tarixiylik tamoyili genetik fabulat ochiqlanishi sari yo'l boshlovchi vosita ekanligi bir qator ilmiy manbalarda qayd etilgan [2]. Quyida muhokamaga qo'yilayotgan ilmiy muammo ilgari nazariy jihatdan maxsus tadqiq etilgan emas.

Tadqiqot metodologiyasi. "Alpomish" dostoni badiiy to'qimasiga qalmoq kontseptining kirib kelishi bilan bog'liq tarixiy va etnolingvistik omillar germenevtik tekshiruv usuli vositasida yoritiladi.

Tadqiqot natijasi. Biz ushbu maqolada dostonning o'zbekcha variantlari matniga "qalmoq" etnonimi va xoronimining kirib kelishi bilan bog'liq masalalarga e'tiborni qaratmoqchimiz. O'zbek folklorshunosligining asoschisi X.T.Zarifov shogirdlariga aytgan o'gitlarida "folklor asarlarida har bir kichik detal, har bir so'z, hatto har bir tovushning o'z o'rni, o'z funktsiyasi bor"ligini [3.155] ta'kidlay turib, "Alpomish" dostonining badiiy jihatdan eng mukammal deb topilgan Fozil Yo'ldosh o'g'li variantiga "qalmoq" mavzui keyin kirib kelgani"ni [3.83] ishonch bilan qayd etganligi muhokama uchun qo'yilayotgan ilmiy muammo mohiyatini belgilaydi. Ya'ni ushbu masala doston bosh qahramonining raqiblari sifatida qalmoq alplari tilga olinmaydigan boshqa o'zbekcha variantlarga nisbatan "qalmoq mavzui keyin kirib kelgan" Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti qadimiymi yoki yangimi, degan dastlabki savolni o'rtaga ko'ndalang qo'yadi.

Muhokama. Shu asnoda eposda zakot talabini eshitib akasidan arazlagan Boysari nega, aytaylik, Chin yoki Ajam o'lkalari sari otlanmadi, u nega epik talqinga ko'ra yovuzlik dunyosining vakillari bo'lmish qalmoqlar diyoriga yo'l oldi? Kashal yurti - Chilbir cho'li - Toychixon mamlakatiga o'n besh kunlik yo'l yaqin masofami yohud qalmoqlar Boysun Qo'ng'irot eliga biron jihatdan birodar edilarmi, degan mantiqiy savollar ham paydo bo'ladi. Tarixchi va geograf olim H. Hasanovning bir maqolasida bildirilgan "qalmoqlar Dashti Qipchoq o'zbeklaridan oldin Movarounnahrda yashaganlar va turkiylarning mo'g'ul qabilalarining avlodlari bo'lsa kerak", degan faraz [4.54] oradan ellik yil o'tib, tadqiqotchilar Sh. O'ljaeva [5.] hamda B. Yunusovalar maqolalarida [6.391] takrorlanadi. Bu farazning zamirida "Alpomish" eposi og'zaki holda endigina shakllanib, Sir va Amu oralig'ida yashagan aholi o'rtasida milliy variant va versiyalarga ega bo'layotgan zamonlardayoq qalmoqlar Orol dengizi janubidagi Jiydali Boysun va boshqa joylardagi qo'ng'irotlarga yaqin hududlardagi yaylovlarda yashaganlar, shu boisdan o'zbek va qoraqalpoq baxshilari "arazlagan ukaning ko'chishi" an'anaviy motivining vektorini qalmoqlar mamlakatiga yo'naltirganlar degan ilmiy nuqtai nazar paydo bo'lishi uchun asos beradi. Qolaversa, O'zbekistonning turli maskanlaridagi qalmoq mahalla (Toshkent shahri), Qalmoq qir (Olmaliq shahri), Qalmoq qirilgan (Bekobod shahri), shuningdek, Buxoroning Jondor, Qashqadaryoning Kitob, Farg'onaning Quva tumanida "qalmoq" yoki "qalmoqlar" etnonimli qishloqlarning mavjudligi millatlararo tarixiy konsolidatsiyaga ishora qiladi. Demak, hozir oramizda to'qson ikkita urug'lar qatorida sanaladigan o'zbeklashgan qalmoqlarning avlodlari

yashab kelmoqdalar. Tilshunoslik nuqtai nazaridan olib qaralganida, bitta millatga taalluqli bo‘lgan uchta tushuncha, ya'ni “o‘yrot” so‘zi - etnonim, “qalmoq” termini - xoronim, “Jung‘oriya” atamasi esa politonim sanaladi (tarixda Jung‘oriya xonligi 1635-1758 yillarda mavjud bo‘lgan).

O‘yrotlar kimlar? Akademik Rustam Abdullaevning yozishicha: “OYRAT bir qismi Chingizxon Jo‘ji ulusiga ajratib bergan 4 ming kishidan iborat mo‘g‘ul urug‘lari bilan aralashib ketgan turk urug‘idir. Shuning uchun ham ular musulmon dinini qabul qilmay, O‘zbekxon o‘z hokimiyatining yakunida ulusining harbiy xizmatdan ozod qilingan boshqa musulmon qismini... o‘z vatanlari Movarounnahr va Xorazmga qaytarganidan so‘ng Oltin O‘rda hududida QOLGAN. O‘z vataniga qaytgan o‘zbeklar ichida esa OYRATlarning, musulmonchilikni qabul qilgan boshqa qismi ham bor edi. Shuning uchun ham u erda qolib ketgan OYRATlarni QOLMOQlar deb atashgan [7].

R. Abdullaev tayangan tarixiy manba Mirzo Ulug‘bekning “Tarix-i arba' ulus” (“To‘rt ulus tarixi”) kitobida qalmoqlar to‘g‘risida quyidagicha yozilgan: “O‘zbekxon o‘zining el-ulusi bilan ilohiy saodat va fazilatga etishgach, hazrati Sayid Otaning g‘ayb ishorati va Ollohning inoyati bilan ularning barchasini Movarounnahr diyoriga olib keldi. Hazrati Sayid Otaga, unga Ollohning rahmati va roziligi bo‘lsin, quloq solishdan bosh tovlaganlar, bu saodatdan bebahra holda u erda (Dashti Qipchoqda) qoldilar va “qalmoq” degan nomga mansub bo‘ldilarki, buning ma'nosi “qolgan” demakdir. Hazrati Sayid Ota, unga Ollohning rahmati va roziligi bo‘lsin hamda Sulton Muhammad O‘zbekxon bilan hamrohlikda kelgan kishilardan: “Bu kelgan kim?” - deb so‘rardilar. Ularning sardori va podshohi O‘zbekxon bo‘lgani uchun ularni “O‘zbek” deb atadilar. Shu sababdan o‘sha zamondan boshlab Movarounnahrga kelgan kishilar “O‘zbek” deb atala boshlandi. Dashti Qipchoqda qolib ketgan kishilar esa “qalmoq” bo‘ldilar” [8.121].

Darhaqiqat, o‘yrot xalqining XIII asrda musulmonlikni qabul qilmagan qismi otashparastlarning burhoniylik e'tiqodini davom ettirgan. XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Tibetdagi Dalay Lama ta'sirida buddaviylik dinini qabul qilgan [9.].

Mazkur xalqqa nisbatan ishlatiladigan uchinchi nom Ulug‘bekning yuqoridagi asari, “Temur tuzuklari”, “Boburnoma” va boshqa tarixiy asarlarda qo‘llanilgan “juvong‘or” (“so‘l qanot”) degan harbiy terminning “jung‘or” shaklida o‘zgargan ko‘rinishidir. M.I. Akilbaev, B.R. Naymanbaev va N.N. Oteuov singari qozoq olimlari “jung‘or” atamasini “etnik jihatdan yaqin” ma'nosida qo‘llab: “Djungar yavlyaetsya terminom-politonimom (samonazvanie perevoditsya kak «blizkiy»), pod kotorim podrazumevaetsya oyratskoe naselenie Djungarskogo xanstva” deb izohlaydilar [10.190].

O‘yrot (qalmoq, jung‘or) lar XII asrdan XIX asrgacha hozirgi Xitoy, G‘arbiy Mongoliya, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, O‘zbekiston va Rossiya hududlarida yashab, ko‘chib yurganligi, etnik va lisoniy chatishuvlar sababidan mavjud ayrim ilmiy tadqiqotlar, lug‘at va qomuslarda ularning tili dunyo tillarining qaysi oilasiga mansubligi masalasida xilma xillik kuzatiladi. Jumladan, “Vikipediya”ning “Jung‘oriya xonligi” kontentida 1635-1758 yillar mobaynida Urga degan shahar uning poytaxti sanalganligi, moliyaviy muomala vositasi “pul” (qizg‘ish mis tanga) deb atalganligi, fuqarolararo muloqotda o‘yrot va chig‘atoy tillari qo‘llanilganligi, ammo o‘yrot tili xonlikning rasmiy tili bo‘lganligi, aholi tangrichilik, shomoniylik va islomga oid kultlar singib ketgan Tibet buddaviyligiga e'tiqod qo‘yganligi uqtiriladi [11.].

“Vikipediya”ning boshqa bir kontentida o‘yrot tili shimoliy mongol tillari oilasining g‘arbiy mongol guruhiga mansubligi ta'kidlanadi. So‘ngra bu tilning derbet, xo‘tan, bayot, zaxchin, to‘rg‘ut, myangat, xoshut, kukunor, olyot, manjur, sart-qalmoq va uryanxay lahjalari (dialektlari) sanab o‘tiladi [12.].

E'tibor bersangiz, ushbu ro‘yxatdagi o‘n ikkita lahjadan oltitasi: xo‘tan, xoshut, bayot, to‘rg‘ut, sart-qalmoq va uryanxay dialektlari Oltoy tillari oilasiga kiruvchi ayrim turkiy xalqlar tarkibida ham mavjud. Shu boisdan biz O‘yrot tili to‘liq holda mo‘g‘ul tillari oilasiga kiritilishi masalasiga qo‘shilmaymiz. Ushbu nuqtai nazarimiz uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan N.A. Baskakov va T.M.Toshchakovalarning o‘n ming so‘zli quyidagi o‘yrotcha-ruscha lug‘atiga va unga ilova tarzida berilgan 92 sahifali “O‘yrot tili grammatikasining ocherki”ga murojaat qilaylik [13.221-314]. Mazkur ocherkni yozgan mashhur turkolog olim N.A.Baskakov bizning o‘yrot tili to‘g‘risidagi yuqorida keltirilgan qarashimizni dalillovchi quyidagi mulohazalarni bildirgan (bizni o‘zbekchaga o‘girish jarayonida o‘zgartirganlikda ayblamasliklari uchun iqtibosni rus tilida aynan keltiramiz): “Otnosyas k tyurkskoy sisteme yazikov, oyrotskiy yazik geneticheski svyazan prejde vsego s sovremennim kirgizskom yazikom, s kotorim imeet mnogo obshix chert v oblasti fonetiki,

morfologii i otchasti leksiki, a zatem s prochimi tyurkskimi yazikami kipchakskoy gruppi`" [13.221.].

N.A.Baskakovning ilmiy xulosasiga ko‘ra, o‘yrot tili monolit til bo‘lmay, oltita asosiy dialektlardan tashkil topgan. Jumladan, janubiy guruh tarkibiga oltoy, telengit va teleut lahjalari kirsa, shimoliy guruh to‘ba, kumondin hamda chalqon dialektlaridan iboratdir [13.223.]. Ahamiyat bersangiz, mazkur dialektlar biz yuqorida “Vikipediya” ma'lumotnomasidan keltirgan “derbet, xo‘tan, bayot, zaxchin, to‘rg‘ut, myangat, xoshut, kukunor, olyot, manjur, sart-qalmoq va uryanxay“ lahjalarining birortasiga muvofiq kelmaydi. Bu masalada kim haq: “Vikipediya”ga qisqacha ma'lumotlarni yozgan olimmi yoki “O‘yrotcha-ruscha lug‘at” (M.,1947), “Ruscha-oltoycha lug‘at” (M.,1964), “Oltoy tillari oilasi va uning tadqiqi” (M.,1981) va boshqa yana 30 ta ilmiy tadqiqotlar muallifi bo‘lgan N.A.Baskakovmi degan o‘rinli savol tug‘iladi.

1947 yilda Moskva shahrida nashr etilgan “O‘yrotcha-ruscha lug‘at” ning faktik materiallari 1941-1946 yillar mobaynida V.I.Lenin nomidagi Moskva davlat pedagogika institutining yuqoridagi olimlari etakchiligida filologiya fakultetining o‘yrot tili va adabiyoti bo‘limida ta'lim olgan o‘yrot millatiga mansub talabalar bilan birga to‘plangan.

Keltirilgan misollardagi gaplar o‘zbekcha jonli so‘zlashuv nutqida “Ie, bu sizlarmisiz?”, “Sen nimani aytding, a?”, “U degan bo‘lsa, nimalarni aytmadi”, “Sen ertan kelasanmi, kelmaysanmi, a?” holida qo‘llanilmaydimi? Albatta qo‘llaniladi. Umuman turkiy tillarga, xususan qirg‘iz tilining fonetik, morfologik va sintaktik tizimiga yaqinligi o‘z-o‘zidan ayon bo‘lib turgan ushbu va yana quyida keltiriladigan lisoniy faktlar N.A.Baskakov xulosasining to‘g‘ri ekanligini tasdiqlaydi.

Ushbu o‘yrotcha gaplar mazmuni “oqar” yoki “oqarmoq” fe'llarining izohiga qaratilgan. Bog‘lovchisiz bog‘langan “Qorli qish keldi, yalangliklar oqardi” qo‘shma gapi yoki keksa odam sochining oqarishi bilan bog‘liq “boshi oqara berdi” sodda gapi o‘zbeklar uchun tarjimonsiz tushunarli emasmi? Yoki tubandagi ayrim o‘yrotcha so‘zlar ma'nosiga e'tibor bering:

Bizningcha, N.A.Baskakov qalmoqlar orasida oltoy dialektida so‘zlovchi aholi mavjudligini bekorga tilga olmagan. Tarixiy ildizlari o‘zaro yaqin bo‘lgan bu ikki xalqning etnolingvistik jihatdan o‘xshash jihatlari ko‘p ekanligi shubhasizdir. Oltoy o‘lkasi tumanlariga ilmiy safar uyushtirib, mazkur xalqning tarixi, urf-odatlari va til xususiyatlariga doir materiallarni to‘plab, qiziqarli tadqiqot yaratgan o‘zbek olimi A.Bo‘ronovning yozishicha, “Bu xalq vakillari 1948 yilgacha o‘zlarini «o‘yrotlar» deb ataganlar. Bu nom aslida millat nomi bo‘lmay, Jung‘or xonligi davrida o‘yrotlar tarkibida bo‘lgan barcha xalqlarga umumiy tarzda qo‘llanilgan. Bu xalqqa mansub teleutlar Kemerovo viloyatida, ...to‘langitlar esa ko‘proq Teles (Oltinko‘l) ko‘lining atrofida tarqalgan. Etnograflar janubiy oltoy tilini turkiy tillarning qirg‘iz-qipchoq guruhiga mansub deb topishgan [14.10.].

Fakt uchun yana N.A.Baskakov va T.M.Toshchakovalar yaratgan “O‘yrotcha-ruscha lug‘at”ga murojaat qilamiz:

Aytib o‘tilgan fikrlar va keltirilgan lug‘at materiallaridan ko‘rinadiki, o‘yrot (qalmoq, jung‘or) tili mo‘g‘ul tillari oilasiga emas, Oltoy tillari oilasiga mansubdir. Abu Rayhon Beruniy dastlabki mashhur asarida Xorazm vohasiga qalmoqlar ko‘chib kela boshlaganini ta'kidlaydi [15.10.]. N.A.Aristov ham bir etnografik tadqiqotida alohida uqtirgan ediki: “Imya kalmakov, ne upotreblyaemoe samimi zapadnimi mongolami, veroyatno, dano im tyurkami, tak kak oni, glavnim obrazom, sostavilis iz ostavshixsya (kalgan) v Mongolii ix soplemennikov (kireev, naymanov i t.d.), imya je oyratov, kotorim zapadnie mongoli sami sebya nazivali, proizoshlo, nado polagat, ottogo, chto znachitelnuyu chast pogranichnix voysk i naseleniya sostavlyali oyrati, glavnoe iz lesnix plemen i sostoyavshee iz chetirex (durben) tisyach, otkuda moglo istekat nazvanie durben-oyrat”. [16.14.].

Umuman olganda, qalmoqlar XII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Mavorounnahr yaylovlariga kelib o‘rnashganlar va mahalliy aholi bilan sekin-asta etnik assimilyatsiyaga kirishganlar. Dunyoga mashhur tarixchi va etnograf Zaki Validiy To‘g‘on 92 ta o‘zbek qabilalari safida qalmoq va o‘yrotlarni ham sanab o‘tadi [17].

O‘zbek baxshilari ijrosida kuylab kelingan “Alpomish” dostoni variantlarida XVIII asrgacha dushman qalmoqlar obrazlari bo‘lmagan. Qalmoq sesenlarining bu hududga Oltoyda yaratilgan “Alip Manash” eposini og‘zaki holda olib kelganlari “Alpomish” dostoni o‘zbek variantlarining mazmunan yanada boyishiga sabab bo‘ldi. Shunday qilib, etnik va lisoniy jihatdan olganda qalmoqlar turkiy xalqlarga juda uzoq va begona etnos bo‘lmagan.

Maqolamizning boshida “Boysari nega, aytaylik, Chin yoki Ajam o‘lkalari sari otlanmadi, u

nega epik talqinga ko‘ra qalmoqlar diyoriga yo‘l oldi?”, - degan masalaning mantiqiy javobi shu bo‘ladi.

Ikkinchi masalaning mohiyati shundan iboratki, “qalmoq” xoronimi (mamlakat, yurt nomi) “Alpomish” dostoni o‘zbek versiyasining aksariyat variantlarida nima uchun va qanday qilib dushman tomon talqinini topdi?

Ma'lumki, XVIII asrning birinchi yarmida Xitoy Sharqiy Turkistonni bosib olgan vaqtda qalmoqlar qozoq xonliklari va Mavorounnahrga hujum qiladilar. O‘yrotlar 1624-1625 yillarda Urganch va Mang‘ishloqqa, 1649 yilda Kot qal'asiga, 1653 yilda Xazoraspga hujum qilganlar. Ular 1683-1684 yillarda Taroz, Sayram, Chimkent va Toshkent shaharlarini bosib oldilar, 1722 yilda esa qoraqalpoqlar yurtini, 1723 yili qozoqlar yashaydigan shahar va yaylovlarni zabt etdilar. Qalmoqlardan quvg‘indi bu davr qozoq tarixshunosligiga “Aqtaban shubirindi” (“oq tovon chuvrindi”) degan nom bilan kirgan. 1741-1745 yillar mobaynida jung‘orlar Qo‘qon xonligiga uch marta bostirib kirganlar. Shu yo‘sinda jung‘orlar XVII-XVIII asrlarda sodir etgan tarixiy qirg‘inlar izi o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq xalqlarining eposlarida badiiy tajassumini topdi. Bizningcha, “Alpomish” dostonining eng mukammal deb topilgan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantiga qalmoq mavzui keyin kirib kelganligining sababi mana shu tarixiy voqealar ta'siri bilan izohlanadi. Ya'ni “Alpomish” dostoni mazmunidagi qalmoqlar O‘rta Osiyo xalqlari bilan bir necha asrlardan buyon yonma-yon yashab kelgan qalmoqlar emas, balki XVII-XVIII asrlarda Shimoliy Mo‘g‘uliston hududidan kelgan shu millatga mansub bosqinchilarning to‘qima obrazlaridirlar. Shu sababga ko‘ra Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va boshqa o‘zbek baxshilari eposdagi qalmoq yurtining vakillari bo‘lmish Surhayil kampir va uning alp o‘g‘lonlari, Toychixon hamda qizi Tovka oyim va boshqa personajlarni badiiy so‘z vositasidagi qora bo‘yoq bilan tasvirga olganlar.

Xulosa. XX asrga xos o‘yrot adabiy tili ba'zi tadqiqot va elektron ma'lumotnomalarda qayd etilgani kabi mo‘g‘ul tillari oilasiga emas, oltoy tillari oilasining turkiy tillari guruhiga kiradi. Oltoy va o‘yrot tillari leksik tarkibiga ko‘ra o‘zbek va qozoq yohud o‘zbek va uyg‘ur tillari singari bir-biriga yaqin. “Qalmoq” yoki “o‘yrot” deb atalgan ayrim etnik guruhlar o‘zbek xalqi va adabiy tilining shakllanish bosqichlarida to‘qson ikki urug‘ tarkibida ishtirok etgan. Shu sababli ming yil avval yaratilgan “Alpomish” eposi syujetida epik qahramonga raqib kuchlarning milliy mansubiyati mazkur etnik nomlar bilan qo‘llanilmagan. XVII-XVIII asrlarda Shimoliy Mo‘g‘uliston hududida mavjud bo‘lgan Jung‘oriya xonligi (1635-1758) lashkarlari hozirgi Qirg‘iziston, Qozog‘iston, O‘zbekiston va Rossiyaning janubiy viloyatlarini bosib olib, dahshatli qirg‘inlarni amalga oshirish barobarida o‘troqlashib, avtoxton aholi bilan tujjoriy va madaniy aloqaga kirishgan. Natijada “Alpomish” eposi va boshqa ayrim dostonlarda yovuz qalmoqlar obrazlari paydo bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jirmunskiy V. M., Skazanie ob Alpamishe i bogatirskaya skazka, M., 1960. Ss.17-36; Jirmunskiy, V.M. Tyurkskiy geroicheskiy epos. -L.: Nauka, 1974. -Ss.114-116; Jirmunskiy V.M., Zarifov XT., Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos, M., Gosudarstvennoe izdatelstvo xudojestvennoy literaturi. 1947; -Ss.34-48; Ob epose «Alpamish», T., 1959; Kireev, A.N. Bashkirskiy narodniy geroicheskiy epos. -Ufa: Bashkirskoe knijnoe izdatelstvo, 1970. - 304 s.; Urmancheev, F.I. Epicheskie skazaniya tatarskogo naroda. Sravnitelno-istoricheskie ocherki. - Kazan: KGU, 1980. - 120 s.; . Sagitov I. Karakalpakskiy geroicheskiy epos [Tekst]. - Tashkent, Fan, 1962

2. Mirzaev T. Epos i skazitel.-Tashkent: Fan, 2008. -S. 70; Mirzaev T. Dostonlar gultoji. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. -B.6; Mirzaev T., «Alpomish» dostonining o‘zbek variantlari, T., 1968; Xoshniyazov J., Qaraqalpaq qaharmanliq dastani «Alpamis», Nukus, 1992;

3. Mirzaev T. Xodi Zarif suhbatlari. - Toshkent. 2013;

4. Xasanov X. Istoriko-toponimicheskaya sxema Sredney Azii. // Sbornik Toponimika Vostoka. - Moskva: Nauka, 1969;

5. O‘ljaeva Sh. Oyratlar va ularning harbiy san'ati.
https: www.facebook.com.groups.246149995752425.posts.1444517105915702.

6. Yunusova B. «Alpomish» dostonidagi etnonimlarning etnolingvistik va lingvokulturologik tahlili. - NamDU ilmiy axborotnomasi - Nauchno‘y vestnik NamGU 2020 yil 3-son;

7. Abdullaev R. O‘zbeklar - turkiy xalqlarining zodagonlari, sortlar esa - Markaziy Osiyoning tadbirkorlaridir. “Tsentraziya.ru” saytida 2011 yil 19 oktyabr kuni e'lon qilingan;

8. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. Toshkent “Cho‘lpon” nashriyoti. 1994;

9. Gaban Sharab. Skazanie ob oyratax Kalmikskie istoriko-literaturnie pamyatniki v russkom perevode. Elista, 1969; Batur-Ubashi Tyumen. Skazanie o derben-oyratax Kalmikskie istoriko-literaturnie

pamyatniki v russkom perevode. Elista, 1969 Satirov B. P. Oyrati v sostave Mongolskoy imperii Mongolskaya imperiya: etnopoliticheskaya istoriya. Ulan-Ude, 2003; Zlatkin I.Ya. Istoriya Djungarskogo xanstva. 1635-1758. Izdanie vtoroe. M. 1983;

10. Akilbaev M.I., Naymanbaev B.R., Oteuov N.N. Kazaxskie i oyrotskie (kalmik, djungar) rodstvenno‘e otnosheniya. Sotsialno-ekonomicheskiy i gumanitarno‘y jurnal. 2022. № 2. S.189-197;
11. https: ru.wikipedia. org. wiki. //cite._n. ote_4.;
12. https:`ru.wikipedia. org. wiki. //cite._n. ote_5.;
13. Baskakov N.A., Tohakova T.M. Oyrotsko-russkiy slovar. M., Gosudarstvennoe izdatelstvo inostrannix i natsionalnix slovarey. 1947;
14. Bo‘ronov A. Oltoylar. Toshkent. “Muharrir” nashriyoti. 2017;
15. Beruniy. Osor al-boqiya an-alqurun al-xoliya (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”). Tanlangan asarlar. Sakkiz jildlik. 2-jild. Toshkent. “Sharq” NMAK. 2023. -B.132;
16. Aristov N.A. Zametki ob etnicheskom sostave tyurkskix plemen i narodnostey i svedeniya ob ix chislennosti. // Jivaya starina. Spb., 1896. Vo‘p. III-IV. S. 277-456;
17. Validov Z. O‘zbek urug‘lari. //https: www.facebook.com.group.sposts.

SHAVKAT RAHMON IJODIDA CHO‘LPON SHE’RIYATI AN’ANALARI

Mo‘minova Gavharoy
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
gavkharoy97@gmail.com
ORCID 009-0005-8965-2105
UDK 894.375-1(045)

Annotasiya. Ushbu maqolada she’riyatda an’anaviylik va Shavkat Rahmon she’riyatida jadid an’analarining davom etishi, shu an’analar asosida o‘zining yangi ijodiy qonuniyatlarini yaratganligi ko‘rib chiqilgan. Har bir ijodkor o‘z qonuniyatlarini yaratarkan, o‘zidan oldingi adiblar an’analarini ham davom ettiradi. Shavkat Rahmon jadid she’riyatining eng yaxshi an’analarini davom ettirgan holda, o‘z ijodiy prinsiplari va g‘oyalarini badiiy bayon qildi. Uning ijodi jadid shoirlari, ayniqsa, Cho‘lpon she’riyati bilan sug‘orilib, she’rdan she’rga o‘tib, mukammallashib bordi. Undagi g‘oyalar, mavzu, poetik obrazlar Cho‘lpon ijodi bilan hamohang ekanligi, tahlilga tortish uchun ham ahamiyatli ko‘rinadi. Shavkat Rahmon poeziyasida jadid she’riyati an’analarini tadqiq qilish, shoir adabiy xazinasi ildizlariga chuqurroq nazar tashlash imkoniyatini beradi.

Kalit so‘z va so‘z birikmalari: an’anaviylik, jadid she’riyati, an’anaviy obrazlar, poetik obrazlar, lirik qahramon kechinmalari, ozodlik g‘oyasi, estetik ideal;

Abstract. This article examines the traditionalism in poetry and the continuation of modern traditions in the poetry of Shavkat Rahman, who created new creative laws based on these traditions. Each creator, while creating his own laws, continues the traditions of his predecessors. Continuing the best traditions of modern poetry, Shavkat Rahman expressed his creative principles and ideas artistically. His work was influenced by modern poets, especially Cholpan's poetry, and went from poem to poem and became perfect. The fact that the ideas, theme, and poetic images in it are consistent with Cholpon's work seems to be important for analysis. The study of the traditions of Jadid poetry in the poetry of Shavkat Rahmon provides an opportunity to take a deeper look at the origins of the poet’s literary treasure.

Key words and phrases:traditionalism, modern poetry, traditional images, poetic images, lyrical hero‘s experiences, idea of freedom, aesthetic ideal;

Kirish. XX asr so‘nngi choragi o‘zbek she’riyati jadid an’analariga yanada yaqinlashdi. Asr boshida jadidlarning millatni ma’rifatlashtirish bilan hurriyatga erishtirish g‘oyasi, asr so‘nngiga kelib, milliy o‘zlikni anglash, milliy mustaqillikga erishish g‘oyasiga aylanib ko‘plab ijodkorlarning she’riyatida tarannum etildi. Shular orasida millatsevar, chinakam iste’dod egasi Shavkat Rahmon she’riyati alohida o‘rin kasb etadi. Uning ijodi isyonkor juratkorligi, keskir tili bilan ajralib turadi, u voqelikka shunchaki yuzaki qarayolmaydi, u buni o‘z yuragidan o‘tkazib kuylaydi. Bunday she’riyatga oshnolik o‘z-o‘zidan tug‘ilmagan, bunga jadidlarning erk va ozodlik kurashlari hamda Cho‘lponning isyonkor she’riyatini tasiri katta. Ko‘p taraflama Shavkat Rahmon ijodi Cho‘lpon poeziyasi bilan yaqin turadi “... asrimiz avvalida Cho‘lpon “Kishan kiyma bo‘yin egma, Ki sen ham hur tug‘ulg‘onnsen!” deb hayqirgan bo‘lsa, asr poyoniga yaqinlashganda Shavkat Rahmon “So‘rilar bu temir pardalar, Istibdodning tug‘lari qular” deb bashorat qildi”[1.91]. Undagi erkparvar ruh bevosita Cho‘lpon she’riyatini yodga soladi. Shavkat Rahmon ijodida jadid an’nanalarini tekshish jarayonida, adabiy an’ana tushunchasini adabiyotshunoslikda ahamiyati to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish to‘g‘ri ko‘rinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni yoritishda tarixiy-qiyosiy, struktural-semantik va

biografik usullardan foydalanildi. Adabiyot borki, o‘zining taraqqiyoti davomida tarixiy-madaniy yangilanish sharoitida o‘zigacha o‘tgan badiiy merosga tayanadi, o‘tmish adiblari ijodini qayta idrok etadi va ularning ijodiy xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi. Adabiy an’anaga “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da shunday ta’rif berilgan: “Adabiy an’ana – o‘tmish adabiyoti to‘plagan ijodiy tajribalar qaymog‘i, davrlar o‘tishi bilan ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotmagan, boqiy qadriyatga aylanib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan qismi. Demak, adabiy an’ana doirasiga o‘tmish adabiyoti erishgan yutuqlar, to‘plagan tajribalarning hammasi xam emas, balki uning muayyan davr ijodkorlari tomonidan dolzarb deb topilgan, boqiy qadriyat sifatida baxolangan va o‘z ijodiy faoliyatlarida namuna deb hisoblagan qismigina kiradi. Har bir avlod o‘tmish adabiyotiga saylab munosabatda bo‘ladi, unga faol ijodiy yondashadi, salaflar tajribasini o‘z davri qo‘ygan badiiy-estetik vazifalarni bajarishga xizmat qildiradi. Shunga ko‘ra, adabiy an’ana va yangilik hamqadamligi qonuniy hodisa bo‘lib, bu ikkisi dialektik aloqadagi birlikni tashkil etadi va adabiyot taraqqiyotining muhim ichki omiliga aylanadi”[2.12]. Shavkat Rahmon ijodida jadid adabiy an’analarining eng yaxshi xususiyatlari davom etadi, o‘z davrida mavjud muammolar yechimida jadid she’riyati qadryatlaridan oqilona foydalanadi. Adabiyotshunos Naim Karimov ta’kidlab aytganidek: “O‘zbek mumtoz she’riyatining eng go‘zal namunalari ajoyib poetik topilmalari, chuqur ma’noli obrazlari, tashbehlari, musiqiy navolari bilan tovlanib turadi. XX asrning 20-yillari mumtoz aruzdan zamonaviy barmoqqa o‘tilganda, ana shu ranginlik “feodal davr lirikasi”ning belgisi sifatida sho‘ro davri she’riyatiga yo‘naltirildi. Cho‘lpon sof lirik tuyg‘u bilan yo‘g‘riligan she’rlarida shu ranginlikni ta’minlovchi ayrim poetik unsurlaridan mahorat bilan foydalandi. Oybek Cho‘lpon an’anasini davom ettirib, istiorani o‘z lirikasinig ranginligini belgilovchi muhim vositaga aylantirdi. Oradan bir qancha yillar o‘tib, “sof lirika”ga qarshi kurash alangalari so‘ngach, dastlab Erkin Vohidov va Abdulla Oripov, so‘ngra Rauf Parfi, Shavkat Rahmon va Usmon Azimlar avlodi o‘zbek she’riyatidagi fikr va tuy g‘u ifodasining nafislashishiga yordam beruvchi tasvir usuli va vositalariga keng murojaat etdi”[3].

Natijalar va muhokama. Jadidlar ilgari surgan g‘oyalar 80-yillar she’riyatida ham dolzarbligini yo‘qotmagandi. Asr boshida o‘zbek she’riyatida ijtimoiy-siyosiy jarayon yetakchi mavzuga aylangan, bu esa mustaqillik arafasi she’riyatiga yaqinligining asosiy sabablaridan edi. Cho‘lponning bosh g‘oyasi – milliy istiqlol g‘oyasi, uning she’rlarida yangicha badiiy ifodasini topdi. Bir tarafdan g‘arb she’riyatidagi ramziylik vositalari, ikkinchi tarafdan mumtoz lirikadagi tasvir va ifoda uslublarini yangicha jilolari shoir ijodida o‘zini namoyon qiladi. U mumtoz she’riyatni isloh qilib, ifoda usulini o‘zgartirdi, buni natijasida she’riyat xalq hayotiga yaqinlashdi. Cho‘lpon she’riyati boshidan oxirigacha Vatan ozodligiga, millat manfaatlariga qaratilgan. Undagi voqea, har bir hodisa shu nuqtai nazardan yoritiladi. Shavkat Rahmon she’riyatida ham bosh mavzu Vatan mavzusi bo‘ldi. Adabiyotshunos olim I. Haqqulov shoir ijodini tahlil qilar ekan shunday deb yozadi: “Vatanni anglash – Shavkat she’riyatidagi bosh g‘oya, sarbon tuyg‘u”[4.202]. Bu sarbon tuyg‘u shoirning boshqa mavzudagi she’rlarida ham sezilib turadi, garchi shoir vatan so‘zini tilga olmasada uni vatan haqidaligini his qilib turish qiyin emas. Vatan ozodligi esa birinchi o‘rinda turadi. Bu jihatdan ham Shavkat Rahmon she’riyatida Cho‘lpon an’anasi seziladi. Cho‘lpon ziddiyatli davrda ijod qildi. Zamon o‘ta qorishiq: to‘rt tarafda ayovsiz kurash ketayotgan payt, har bir kurash bir-biriga uzviy bog‘liq holda hayot-mamot kurashi edi. Ammo, eng muhimi milliy istiqlol uchun ketayotgan kurash edi. Cho‘lpon she’rlarida bu kurashni ulug‘ yo‘l deb atadi va she’r shu nom bilan nomladi:

Yo‘limizda cho‘llar, suvlar, dengizlar,
Bosguvchisin tanib bo‘lmas izlar.
Shul izlarni bosib dengizlar kechib,
Buyuk amal bilan boramiz bizlar[5.12].

She’rning keyingi misralarida Ulug‘ yo‘l – ozodlik yo‘lida, suvlar, dengizlar, cho‘llarni ya’ni qiyinchiliklarni yengib o‘tish, kamarlarni mahkam bog‘lab, shitob bilan qush yang‘lig‘ uchish lozimligi aks etgan:

Mahkam qilib bog‘lanilgan kamarlar!...
Tezrak!
Qanot!
Qushlar yang‘lig‘ uchaylik.
Keng cho‘llardan, dengizlardan kechaylik
Sharqning eski chigalini yechaylik[5.12]!

Cho‘lpon va Shavkat rahmon ijodining hamohangligi g‘oyaviy jihatdan ko‘rinib, undagi obrazlar va ular tashiydigan ma’no bir-birini rad etmaydi. Jumladan Shavkat Rahmon poeziyasidagi yo‘l obrazi ham shoirning oliy maqsadiga yetkazuvchi bo‘lib xizmat qiladi. Bu yo‘l mashaqqatli hamda qiyinchiliklarga to‘la Cho‘lpon bu qiyinchiliklarni cho‘l-u, dengizlarga mengazgan bo‘lsa, Shavkat Rahmon qiyinchilik-u, g‘ovlarni yirtqich bo‘rilarga qiyoslaydi. “Inqilob yo‘llarida” she’rida bo‘rilar orqali o‘sha g‘ov kimsalar ko‘rsatiladi. Bu kimsalar xalqni taladi, jasadlarga to‘ldirdi. Hatto diyonatni oyoq-osti qildi:

Ko‘rsam deyman –
Qahr-u g‘azabdan
murdalar ham tursa go‘ridan,
diyonatning qasosin olsa,
bitta bo‘lsa bitta bo‘ridan[6.170].

Yo‘l obrazi Shavkat Rahmon she’riyatidagi an’anaviy obrazlardan biri hisoblanadi. Shoir ijodidagi boshqa an’anaviy obrazlar kabi yo‘l obrazi ham boshqa davr she’riyatida ham qo‘llaniladi. “Masalan, mumtoz Sharq va XX asr o‘zbek adabiyotining turli janrlarida yo‘l obrazi keng qo‘llanilgan. Yo‘l obrazining an’anaviy ramziy poetik ma’nolari qaysidir jihatdan umumiylikka ega bo‘lsada, o‘z o‘rnida yangi poetik qirralari ochilgan. Aks holda har qanday obrazning shunchaki qo‘llanishi ortiqcha”[7.101]. Xususan, mumtoz adabiyotda yo‘l obrazi keng qo‘llanilgan va unga ko‘ra yo‘l – “ishq yo‘li, sir yo‘li, hurriyat yo‘li”dir[8.109]. Jadid she’riyatida bu yo‘l ozodlik yo‘lidir. An’anaviy obrazlar taxlilida ularning ma’nolari va g‘oyalari tekshirilarkan, unga bir ma’noni yuklash xato hisoblanadi. Bu ijodkorning badiiy olamini cheklab qo‘yadi. Shoir o‘z she’rlarida an’anaviy obrazlardan foydalanib, uning ma’no qatlamlarini boyitib, o‘z davriga hamohang tarzda yoritadi. Cho‘lpon she’riyatida ko‘p murojat qilinadigan yo‘l obrazi – “bu ma’rifatdir”[9.114]:

Bir yiroq yo‘l, kim uning yo‘qdir keti – yo‘qdir keti;
Chang va turoq bo‘ldi, keti, unda ko‘plarning beti[10.68].

“Yo‘l” obraziga “qush” obrazi Shavkat Rahmon ijodida ham uzviy bog‘liq. So‘zimiz avvalida oliy maqsadga – erkga eltuvchi yo‘lni qiyinchiliklariga to‘xtalgan edik, bu g‘ovlarni yengishda Cho‘lpondek Shavkat Rahmon ham qushdek parvoz etish kerakligini ta’kidlaydi. Uning poeziyasida qush obraziga ko‘p ma’nolar yuklanadi, gohida qushdek, nurdek tez maqsad sari ildam odim tashlash kerakligiga urg‘u bersa, gohi odamni qushga o‘xshatib ularni ko‘zlarinini ochib o‘zligini unutmaslikka chaqirmoqchi bo‘ladi.

Shavkat Rahmon estetikasidagi tarixiy she’rlarni olib qaralsa ham, uning g‘oyaviy asosi jadid an’analariga borib tarqaladi. Jadid she’riyatida tarixga murojat orqali millatni o‘zligini anglash va mustabid tuzumga qarshi kurashga chorlash Shavkat Rahmon tarixiy she’rlarida akslanadi. Uning Mahmud Tarobiy tilidan “Bir xoin xususida” she’rida o‘z ichki isyonini ko‘rsatadi. U ona yurt tarixini ruhiy tayanch sifatida qadrlaydi:

Jonim jigarimsan,
sen-da odamsan,
Loaqal ko‘zingda bir yosh ko‘rsaydim,
Loaqal qovushib qolgan qo‘linda
yovlarga atalgan bir tosh ko‘rsaydim[6.226].

Zamon har doim ham oshkoralikka yo‘l qo‘ymadi, ba’zan isyonni ramziy shaklda olib borishga to‘g‘ri keldi. Tarixiy shaxs tilidan keltirilgan yuqoridagi misralar shoir ruhiyati, kechinmalari tashuvchisi sifatida namoyon qilinadi. Yoki “Afshonadagi Ibn Sino haykaliga” she’rida buyuk hakimga yuksak hurmati-yu, ona zaminga muhabbati bayoni aks etadi. Ammo shunday “buyuklar” ni yaratgan yer holdan toygan:

Ming yilki yer
bor orzusini,
bor havasin ko‘ksida yoqdi,
qora terga botib ming yilki
diyonatsiz kaslarni boqdi...[6.200].

Fitratning “Yurt qayg‘usi (Temur oldinda)” sochmasida ham shu ruh yotadi. “Lirikada voqelik subyekt his-tuyg‘ulari orqali akslanadi, uning uchun badiiy nutq obyekti emas, subyekti birlamchidir”[2.152], shu sababdan lirika avvalambor ruhiyatni akslantiradi. Unda ijodkorning tuyg‘u va kechinmalari manzaralari tasviri ustuvor ahamiyat kasb etadi. Fitrat ijodida o‘sha yillar kishisining

ruhiyati buyuk ajdodimiz ruhiga murojat qilib yozilgan asarning tub mohiyatini ochib beradi, lirik qahramon buyuk ajdadodimizdan milliy ozodlik uchun kurashda yurtdoshlariga madad bo‘lishini so‘raydi. O‘sha yillar she’riyatida Amur Temur obrazi kurash timsoli sifatida qo‘llanilgan:

Yuz yillardan beri jafo ko‘rub, g‘am chekib, kelgan turkning qonli ko‘z yoshlarini etaklaringga to‘karga keldim.

Qorong‘uliklar uchra yog‘dusiz qolgan o‘zbek ko‘zlari uchun tuprog‘ingdan surma olg‘ali keldim...[11.33]

Bu so‘zlar mustamlaka tuzumdan ezilgan xalqning yurak-yuragiga yetib borishi shubhasiz. Cho‘lponning ham ijodiy olamida tarixga murojat qilish, unga nazar tashlab, xatolardan o‘rnak olish g‘oyalari ilgari suriladi. U “Yorug‘ yulduzga” she’rida yulduzga murojat qilib undan ko‘hna tarix haqida bilmoqchi va ota-bobolar xatolarini anglatmoqchi bo‘ladi:

Go‘zal yulduz, nurli yulduz, tez so‘yla,
Otalarning tarixdagi xatosin,
Shul xatodan osug‘lanib, yovlarning
El ko‘ksida surgan ishrat safosin[10].

Cho‘lponning bu misralari asr so‘ngiga kelib Shavkat Rahmonning “Turkiylar” she’riga bog‘lanib ketgandek ko‘rinadi. Shavkat Rahmon shu she’ri orqali xalqimiz tarixini gavdalantirib, millatning dard-u, quvonchlarini va butun fojiasini, xalqining qay yo‘sinda yovlar tomonidan ezilganligini ifodalaydi:

Ilvasin yigitlar,
Bobir yigitlar,
Sajdaga bosh qo‘ydi teskari qarab,
G‘ullarni kemirib yig‘ladi itlar,
Buyuk boshni kesdi qilich yaraqlab[6.419].

Xulosa. Jadid adabiyoti zamonaviy adabiyotimiz shakllanishida muayyan miqiyosda asos bo‘ldi. Shavkat Rahmon nafaqat jadid she’riyatidagi g‘oya, motiv va obrazlarga izdoshlik qilgan, balki ularning mohiyatini davr talabi bilan yangilagan, boyitib kengaytirgan ijodkor hamdir. Uning poeziyasida jadid she’riyati an’analarini tadqiq qilish, shoir adabiy xazinasi ildizlariga chuqurroq nazar tashlash imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamdamov Ulug‘bek. Badiiy tafakkur tadriji. – T.: Yangi asr avlodi, 2002. -B.91
2. Qurbonov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T: Akademnashr, 2010. – B.12.
3. Karimov N. Nekbin ruh, hayotsevar g‘oya. // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2010. 19 noyabr, №47.
4. Haqqulov I. Badiiy so‘z shukuhi. -T.; Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. – B.202.
5. Cho‘lpon. Oydanda go‘zal... She’rlar.; Andijon nashriyoti, 1997. – B. 80.
6. Shavkat Rahmon. Zulfiqor ruh. – Toshkent. “Anorbooks”, 2023. – B. 512.
7. Mullaxo‘jayeva R. 80-yillar o‘zbek she’riyatida poetik tafakkurning yangilanishi va Shavkat Rahmon ijodi: fil.fan.nomz. ...dis. – Toshkent: 2020. 101 b.
8. Haqqulov H. Irfon va idrok. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998. – B. 109.
9. Tojiboeva M. Jadid adiblari ijodida mumtoz adabiyot an’analari: Filol. fanlari d-ri. ... diss. – Toshkent, 2017. – B. 114.
10. Cho‘lpon. Asarlar.1jild. – T. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1993.
11. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – B. 256.

SHE’RIY KINOYA VA UNING IJTIMOIY ASOSLARI

Ernazarova Gulnoza Hamrayevna
F.f.d.,prof. Qarshi davlat universiteti
gulnoza.ernazarova8181@mail.ru
ORCID 0009-0007-9970-1868

УДК: 821.512,133-1(043.3)

Annotatsiya. She’riyatda kinoya, sarkazm va ironiya kabi munosabatlarningqo‘llanishini, aytilayotgan gapning “kosa tagida nim kosa” tarzida berilishini ijtimoiy va yoki siyosiy adolatsizliklarga qarshi shoir isyonining o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida talqin qilish mumkin. Kinoyaviy munosabat unga xos turli xil shartli vositalarni qo‘llash orqali yuzaga keladi: masalan, mubolag‘a va uning bo‘rttirilgan va kichraytilgan formasi - grotesk, giperbola; bundan tashqari paradoks, parodiya, kontrast, hozirjavoblik, serfahmlilik, kulgi (kulgining turlari: quvnoq, zaharxanda, hazil, mug‘ombirona, masxaraomuz, nimtabassum, miyig‘ida...), kalambur (so‘z o‘yinlari - omonimiya, polisemiya, tovush ohangdoshligi), dialogizm, o‘z-o‘zini kinoya qilish, absurd kayfiyat, satira, yumor elementlari movjuddir. Yuqoridagi nasriy asrlarga nisbatan aytilgan fikrlarni qo‘shilgan holda kinoya lirik asarda shoir shaxsiy “MEN”ining voqea va hodisaga bevosita munosabati ekanligini ta’kidlash lozim.

Kalit so‘zlar: Ironiya, kinoya, A. Oripov she’riyati, millatparvar she’riyat, milliy shuur, hissiy kechinma, she’riy jasorat, kinoyaviy lirika.

IRONIC POETRY AND ITS SOCIAL FOUNDATIONS

Annotation. The use of such attitudes as irony, sarcasm, and irony in poetry, the presentation of the spoken word in the form of "half a cup under a cup" can be interpreted as a specific manifestation of the poet's rebellion against social and or political injustice. The ironic attitude is created through the use of various conventional means characteristic of it: for example, exaggeration and its exaggerated and diminished forms - grotesque, hyperbole; in addition, there are elements of paradox, parody, contrast, responsiveness, wit, laughter (types of laughter: cheerful, venomous, humorous, mocking, half-smiling, in a trance...), pun (word plays - homonymy, polysemy, assonance), dialogism, self-mockery, absurd mood, satire, humor. In addition to the above-mentioned thoughts about prose ages, it should be noted that irony in a lyrical work is a direct reaction of the poet's personal "I" to the events and events.

Key words: Irony, sarcasm, A. Oripov's poetry, nationalist poetry, national consciousness, emotional experience, poetic courage, ironic lyrics.

Kirish: She’r favqulodda shaxsiy hodisadir aslida. Biroq u ijtimoiy munosabat kasb etadigan va mavjudligi bilan ijtimoiy –tarixiy haqqoniyatni o‘zida mujassam etadigan shaxsiy hodisadir. Shoir shaxsi, voqealikni idrok qilish qudrati qanchalar yuksak bo‘lsa, uning she’riyati ham shunchalar jasoratli va isyonkor bo‘ladi. Shoir bir inson o‘laroq yashashi mumkin, biroq u ilhom tabiatining mo‘jizasi, hislar buhronining jazbasi sabab insoniy fitratidanda yuksakka ko‘tarila oladi. Zolim tuzum va mazlum xalq munosabatidan tug‘iladigan isyon qilishning kuchli istagi va ruhoniy portlashdan tug‘ilgan she’r millat tiliga tez ko‘chib, dilida yashab qolishining sababida ham millatning o‘zligini anglash jaroyonlari va millatparvar shoir jasoratining uyg‘unlashuvi muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni yoritishda tarixiy-qiyosiy, struktural-semantik va biografik usullardan foydalanildi. Abdulla Oripovning ilk she’rlaridan tortib to jahoniy falsafa hamda xalq donishmandligi sintezidan o‘tgan xulosalar bilan hayratga soluvchi ijod namunalariga qadar millat dardini his qilish, qalb og‘riqlarini o‘z dardiga aylantirish, o‘z vaqtida va o‘z o‘rnida betakror so‘z san’ati namunasi darajasida ekanligi bilan o‘ziga asir qiladi. Ijodining ilk davrida yozilgan she’rlarida milliy uyg‘onishni sog‘inish, millat istiqloli umidida yongan yurak bilan, vatan muhabbatiga aylangan iymon bilan sog‘inish hissi bo‘rtib turadi.

Tahlil va natijalar. A.Oripovning lirik qahramoni notinch, bezovta shaxs. Uning hissiyoti va kechinmalari ko‘zga unchalar ham tashlanmaydigan kichik hayotiy hodisalar zamiridagi mustabidlik va qullik tahqirini anglagani sabab g‘alayon qiladi, umum e’tiboridagi voqealarning zaminidagi xalq fojealarini ko‘radi, millat hayotidagi har bir hodisani millat manfaati nuqtai nazaridan kuzatadi. U o‘zini tashvishga solayotgan ijtimoiy –iqtisodiy ziddiyatlar, xalqlar do‘stligi niqobi ostida yuz berayotgan adolatsizliklaridan iztirob chekadi. Shoirning “Sovg‘a” nomli she’rida aynan shu jihatlar qabarib turadi va o‘quvchi qalbiga qattiq botadi. Bu she’r “mexmon joy so‘rasa, ayamay hatto unga jonini ham beradigan o‘zbek”ning dil tubidagi hasratlaridan tug‘ilgan she’rdir aslida. SHe’r Buxoro gazining Moskvaga yetib borishi munosabati bilan yozilgan. Ana shu xabarning o‘ziyoq shoirning hasrat bulog‘i ko‘zini ochadi. Yer ostidan chiqqan boyligini hotamtoylik bilan Moskovdagi qardoshiga uzatayotgan lirik qahramon kinoya bilan o‘zini tanishtiradi:

Baxtini bus-butun topgunicha to,
Ne-ne balolarni ko‘rgan o‘zbekman.
Mehmon joy so‘rasa, ayamay hatto,
Unga jonini ham bergan o‘zbekman.

“Ironiya” - grekcha so‘z bo‘lib, so‘zma-so‘z tarjima qilinganda “mug‘ombirlik, odamning o‘zini go‘llikka solishi”- deyiladi[1]. O‘zbek adabiyotshunosligida “Ironiya”ning muqobil varianti sifatida “Kinoya” termini ham ishlatiladi. Bunday asar qahramonlarini romantik kinoyaviy obraz va realistik kinoyaviy obraz kabi tiplarga ajratishimiz mumkin. Kinoyaviy munosabat unga xos turli xil shartli vositalarni qo‘llash orqali yuzaga keladi: masalan, mubolag‘a va uning bo‘rttirilgan va kichraytilgan formasi - grotesk, giperbola; bundan tashqari paradoks, parodiya, kontrast, hozirjavoblik, serfahmlilik, kulgi (kulgining turlari: quvnoq, zaharxanda, hazil, mug‘ombirona, masxaraomuz, nimtabassum, miyg‘ida...), kalambur (so‘z o‘yinlari - omonimiya, polisemiya, tovush ohangdoshligi), dialogizm, o‘z-o‘zini kinoya qilish, absurd kayfiyat, satira, yumor elementlari movjuddir. Yuqoridagi nasriy asrlarga nisbatan aytilgan fikrlarni qo‘shilgan holda

kinoya lirik asarda shoir shaxsiy “Men”ining voqea va hodisaga bevosita munosabati ekanligini ta’kidlash lozim.

Bu she’rda ham shoirning absurd kayfiyatini va kinoyasini payqash qiyin emas. “Mehmon joy so‘rasa” jon berish shartmi? Joni savilmi bu millatni? Bu qanaqa millat o‘zi o‘z qadrini bilmagan-degan achchiq savollar keladi shuurimizga. Faxrlanish emas o‘ksinish qadaladi yurakka. SHe’r dinamikasida kinoya yana ham kuchayib boradi:

Dilbar Farg‘onadan sohibqor halqim
Har yili uzatar tonnalab meva,
Bundayin bisotni ko‘rmagan balkim,
Makkaga qatnagan millionlab teva,
Tomdi yaylovida ma’sum qo‘zichoq,
Inson deb ko‘z ochmay berar jonini,
Hisoblab chiqishga son yetmas bu choq
Muruntovdan oqqan nur tug‘yonini.
Bundayin bisotni ko‘rmagan balkim,
Makkaga qatnagan millionlab teva...

Qulning o‘z xojasiga sovg‘a berib rohatlanishi “qullik kishanlariga o‘rganib qolgan millat ruhiyatining” bir ko‘rinishi xolos. Shoirning lirik qahramonida yaltoqlanish niqobi ostida achchiq zaxarxanda qiladi. SHe’rdagi o‘tkir sarkazm va kinoya ruhi satrlar osha keskinlashadi. Shoirning g‘azabga qorishgan iddaosi ochiq va shavqatsiz tus oladi. Beixtiyor mustabid dasturxoniga tortilayotgan sarxil mevalaru paxta, uning xonimchalarini bezash uchun dunyoga kelmayoq onasining qornini yorib olinayotgan qo‘zichoqlar mo‘ynasiyu minglab tonna oltinning g‘arbga tomon oqib borishi ko‘z oldingizga keladi. “O‘ris og‘a oldida yuzimiz yorug‘”-deya mamnun tirjaygan davlat rahbarlarining chehralarini eslaysiz beixtiyor. Millatparvarlik shuurida hali butun bolig‘i bilan isyon qilishni boshlamagan bo‘lsa ham uning yonishga shaylanishdan oldingi achchiq tutunlarini his qilasiz: qulga aylangan millatining xojasi mustabidga ehsoni bandaning Olloh yo‘lida qilgan ehsonidan ham ortib ketdi” deya qilingan shamani payqashga aqlingiz yetadi.

Bizning paxtaga-ku barcha muntazir,
Yer yuzi o‘rtada ko‘rmoqda baham
Qanday bayon etay fikrimni axir,
Mana, olib keldik o‘timizni ham.

Jasorat nima degani? U qanaqa bo‘ladi? Erk bayrog‘i boshingizda hilpirab turganida kekirdak cho‘zish oson. Millatning tafakkuri kishanlangan, tili bog‘langan, oyog‘i tushovlangan vaqtida jonni garovga qo‘yib haqso‘z bo‘la olish uchun shunchaki jasorat emas, ilohiy madadga tayangan jasorat lozim.

O‘zbek ayoli shom qorong‘usida bolalariga bir qoshiq issiq tayyorlay deb o‘chog‘i ostidagi ho‘l o‘tinni puflaydi. O‘zbekning gazi moskvaga qarab oqadi. Millat ayoli pajmurda va ezilgan jismini egatlardagi har bir ko‘sakka fido qiladi, millat ziyolilari tillarini yutib yuborgan kabi jim. Va nihoyat 80-yillarning oxiriga kelibgina “milliy faxrimiz” deb ko‘klarga ko‘targanimiz paxta “milliy fojeamiz”ga sabab bo‘lyapti” - deb bong urushdi. Paxta deb bog‘larni yakson qilgan, Orolni quritgan millatning bulbullar, gullar bilan ishi bo‘lmay qoldi. O‘zbek xalqi paxta deb jonini ayamay mexnat qildi. Paxtaga sepilgan kimyoviy moddalar millat tanasini zaharladi. “Qashqadaryoning ikkita paxtakor rayoni -Qamashi va G‘uzor ayollari tibbiy tekshiruvdan o‘tkazilganda 27,3 % yosh ayol sog‘lom bo‘lib chiqdi xolos”[2].

Gaz degan dustlarim, nima bo‘libdi,
Azaldan jonimiz sizga sadag‘a.
Jahon –ku rost gapni ko‘rib turibdi,
Bizlar shundoq edik, bizlar shunaqa.

A. Oripov bu she’rini 1967 yili yozgan edi. SHe’rdagi ironiya-kesatiq tuzum ta’qiq va tayziqlaridan alamzadalik bilan qorishib ketgan. Bunda tafakkurdanda ko‘proq norozi hissiyotlar isyoni ustivorlik qiladi. “Chin iste’dodga davrning tazyiqu cheklovlari to‘sqinlik qilolmaydi. Iste’dod davrdan, vaziyatdan marhamat kutmasligi, har qanday to‘siqni yenga olishi bilan iste’doddir. O‘ta noqulay sharoitda ko‘nglidagisini yuzaga chiqara olish iste’dodning ilk belgisi sanaladi. Har bitta o‘zbekning ichki olamiga teran kirib borgani uchun ham mustaqillikkacha

bo‘lgan davrda yashagan o‘zbeklarning fikrlovchi qismi ma’naviy olamini Abdulla Orif she’riyati shakllantirgan deb aytsa bo‘ladi” [3].

Yoz payti saraton qizdirsa lov-lov,
Sizdan ham shabboda kelgusi bizga.
Va lekin shamolday sargardon yurib,
Baxtimni axtarib kezmasligim chin.
Men bu kun Moskva bag‘rida turib
Seni ulug‘layman, ey ona xalqim.

“Yoz payti saraton qizdirsa lov-lov, Sizdan ham shabboda kelgusi bizga”... Shoir kesatiqli paradoksdan o‘z o‘rnida mohirona foydalanadi. Yuborilayotgan sovg‘alarga javoban berilayotgan va’dalar va ta’nalar shabbodasiga ishora qiladi go‘yo. Umuman chuqur ijtimoiy adolatsizdan tug‘ilgan dardni biror munosabat bilan yozilgan “kalendar” she’rga yuksak badiiy topqirlik bilan singdira olish faqatgina betakror iste’dodga nasib etadigan baxtdir.

Bir ne’mat bo‘lsin deb qalbda qonni ham
Anor donasiga joylagan jonsan.
Agar qo‘yib bersa, keng jahonni ham
Zarga o‘raguvchi O‘zbekistonsan.

“Agar qo‘yib bersa, keng jahonni ham zarga o‘raguvchi” iborasiga e’tibor qiling: Millatning, zahmatkash halqning ixtiyori o‘zida emas. “Agar qo‘yib bersa...” qullikning ko‘rinmas kishanlariga bundan ortq ishora qilmoq mumkinmi?! Shoirning kinoyalarida nafaqat mustabid tuzum zulmiga, balki o‘z-o‘ziga kinoya qilishning nodir namunasini ham uchratamiz.

Yurtim tashvishlari tushib yelkamdan
Agar Rossiyaga boshlasa havas,
Mening Sasha do‘stim, senga o‘lkamdan
Tag‘in sovg‘a bilan borajakman, bas.

Xulosa va takliflar. Zotan shoir “Nurli istiqbolda barchaning ko‘zi, Oldinda kelajak turar alomat” deya “kommunizm” deb nomlanmish alomat davrga ishora qilayotgan bo‘lsada, o‘zbek o‘ziga bek bo‘lajak kunlarni, hech kimga sovg‘a eltmaydigan hech kimga qulluq qilmaydigan kularni –“nurli istiqbol”ni tilaydi xalqiga. Chaqmoqdek yorqin fikr, o‘ylar va tuyg‘ularning hamohangligi, shaxsiy o‘y –mulohazalarning ijtimoiy yuk bilan zalvorli tus olishi A.Oripov lirikasidagi vatan qismati va xalq istiqboliga doir javobgarlik hissini yorqin namoyish etadi. “Shoir obrazlar bilan zamondoshi shuurini uyg‘otishga urinadi. A.Oripov har bir she’rida o‘ziga zamondosh insoning ruhiy dunyosiga chuqurroq kirib borishga, uning boy va murakkab hislari, fikrlarini anglab yetishga va shu orqali o‘zining hayotga munosabatini ifodalashga intiladi”[4] deb yozgan edi O. Sharofutdinov. Darhaqiqat, shoir nafaqat obrazlar, balki har qanday siyosiy voqealar va hodisalar zamiridan millat manfaatiga daxldorlikni izlaydi, topolmagach esa achchiq kinoyali tafakkur, alamli hislar qorishig‘idan yaralgan she’r bilan xalqni uyg‘otishga, mustabid siyosat mohiyatini ifodalashga intiladi. Ana shu his chuqur lirizm bilan sug‘orilgan mushohadani, achchiq kinoyani yuzaga chiqardi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Djorj Oruel.Esse,stati, Retsenzii. Tom II, Izd. “Progress”, 1992.
2. Erkayev A. Abdulla Oripov dahosi. – Toshkent, “Oltin nashr” nashriyoti, 2021.
3. Jabborov N. Zamon, mezon she’riyat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2015.
4. Hamdamov U. XX asr o‘zbek she’riyati badiiy tafakkur tadrijining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent, 2017
5. Literaturniy ensiklopedicheskiy slovar. - Moskva: Sovetskaya ensiklopediya, 1987 g.
6. O.Sharofutdinov. Talant xalq mulki. T.Yosh gvardiya. 1979 y.
7. Qashqadaryo haqiqati gazetasi. 1989 yil 18 fevral.
8. Qozoqboy Yo‘ldosh. Milliy ruh suvratlari. Abdulla Oripov ijodining ilmiy ilmiy-m’rifiy ahamiyati mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. Toshkent – 25.11.2020y.
9. Qo‘shjonov M., Meliyev S. Abdulla Oripov. – Toshkent, Ma’naviyat, 2001y.
10. Quronov D., Mamajonov Z., SHeraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati.– Toshkent: Akademnashr, 2010y.
11. G‘aniyev I. Afoqova N. Abdulla Orif falsafasi. – Toshkent: “Muharrir”, 2021.

O‘ZBEK FOLKLORIDA TERMA JANRI VA UNING AREAL SPETSIFIKASI

Saida Kadirova
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlatpedagogika instituti
Ellik qal’a filiali o‘qituvchisi
Kadirova8614@gmail.com
ORCID 0009-0008-5493-6492
UDK 398.81(575.1)(09)

Annotatsiya. maqolada terma janrining o‘zbek folklorida mustaqil ijro xususiyatiga egaligi, baxshilar tomonidan ijro etilishi, mavzulari, g‘oyaviy-badiiy xususiyati, areal spetsifikasi, struktural-kompozitsion jihatlari ilmiy nazariy asosda tahlil qilingan. Termalar badiiy-funksional xususiyatiga ko‘ra baxshini doston ijro etishga va auditoriyaning doston tinglashga, baxshi repertuari haqida axborot berish hamda shogirdlarga doston ijro etish kabi vazifalarni bajarsa-da, ular ijro etilishi va tarqalishi nuqtayi nazaridan areal xususiyatlarni ham tashkil etadi. Dostonchilik maktablari ijro repertuari turli tuman bo‘lganligi bois ijrodagi ba’zi jihatlar terma mavzusi va uning lokal xususiyatlariga aloqadorlikni yuzaga keltiradi. Ushbu masalalar maqolada ilmiy muammo sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: terma, janr, areal, badiiy-funksional, mavzu, g‘oyaviy-badiiy, baxshi, repertuar.

Abstract. The article analyzes the independent performance of the terma genre in Uzbek folklore, its performance by bakhshis, its themes, ideological and artistic characteristics, areal specification, and structural and compositional aspects on a scientific theoretical basis. Although the terms, according to their artistic and functional characteristics, perform tasks such as enabling the bakhshi to perform the dostan and the audience to listen to the dostan, providing information about the bakhshi repertoire, and performing the dostan for students, they also constitute areal characteristics in terms of performance and distribution. Since the performance repertoire of the schools of epic poetry is diverse, some aspects of the performance create a connection between the theme of the term and its local characteristics. These issues are analyzed in the article as a scientific problem.

Key words: term, genre, areal, artistic-functional, theme, ideological-artistic, Bakhshi, repertoire.

Kirish. O‘zbek folklorida terma mustaqil janr bo‘lib, uning ijro etilishi xalq baxshilari ijodi bilan bog‘lanadi. Demak, termalar o‘ziga xos ijod namunasi bo‘lib, baxshilar repertuarining asosini tashkil etadi va bir qator funksional vazifa bajarishi bilan alohida ajralib turadi. Xalq termalarini yozib olish, to‘plash va nashrga tayyorlash ishlari XX asrning boshlaridan H. Zarifov, H.Razzoqov, M.Alaviya, T.Mirzayev, M.Murodov, A. Musaqulov va boshqa bir qator olimlar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ularning janr xususiyati, g‘oyaviy-badiiy va mavzu turlari borasida T.Mirzayev va A. Musaqulovlarning nazariy qarashlari mavjud. Jumladan, A. Musaqulov: “O‘zbek xalq termalari dostonchi va termachilar tomonidan yaratiladigan, badiha tarzida ijro etiladigan, lirik va epik turga mansub, kompozitsion jihatdan bir necha tipga bo‘linadigan, g‘oyaviy-badiiy, tarbiyaviy, baxshi tayyorlash, informativ, dostonchi doston aytishga, tinglovchilarni doston tinglashga hozirlash funksiyalariga ega, muzika bilan munosabati barqaror bo‘lgan”[1:262] ligini aytib o‘tsa, M.Alaviya esa: “Dostonchi shoir, jirov, baxshi, sozanda, sannovchilar to‘y hashamlarda, sayr-sayohat, sayillarda, umuman, ko‘pchilik yig‘ilgan joylarda dostonlardan parchalarni, turli mavzulardagi 10-12 misradan 320-350 misragacha bo‘lgan she’rlarni kuylaydilar. Buni terma deb yuritiladi”[2:48] deb ta’riflaydi. Ammo terma janrining areal tamoyillari borasida u yoki bu nazariy qarashlar uchrasa-da, ularning o‘ziga xos jihatlari maxsus tadqiqotni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Terma o‘zbek folklorining alohida janri bo‘lib, uni o‘rganish va tahlil qilish jarayonida tarixiy-qiyosiy, struktural va kontekstual, etnofolkloristik metodlardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Terma janrini ilmiy jihatdan o‘rganish, birinchidan, janrning yuzaga kelishi, tarqalish o‘rni va ijro funksiyalariga xos belgilarni ko‘rsatsa, ikkinchidan, ijroning badiiy-estetik hamda ma’lum hududga xos bo‘lgan mahalliy tafovutlarini aniqlashga imkon beradi. Bu holat o‘z-o‘zidan ayonki, terma janriga doir lokal xususiyatini ko‘rsatibgina qolmay, balki uning tarqalish doirasidagi o‘zgarishlar va xalq maishiy turmushi va an’analariga xos farqli tomonlarini ham qiyoslash orqali ijroga xos janr transformatsiyasi va dinamik o‘sish masalalarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish imkoniyatini ko‘rsatib beradi. Bu kabi xususiyatlar esa termalarning tarqalish hududi, lokal va areal jihatlarini har tomonlama o‘rganish, o‘xshash va farqli tomonlarini tadqiq etish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Bir janrga xos ijroning turli hudud va maktablardagi o‘xshash hamda farqlari esa tarixiy-folkloriy jarayon dinamikasidagi o‘zgarishlar jarayonida sodir bo‘lgan muhim omillarni tahlil qilish imkoniyatini belgilaydi.

Misol uchun slavyan folklori namunalarini areal o‘rganish va kartalarini tuzish bilan bog‘liq konsepsiyalar XX asrning 50-yillaridan boshlangan bo‘lib[3:169], o‘zbek folklorshunosligida bu borada keyingi yillarda bir qator ishlarda ko‘zga tashlana boshladi. Ayniqsa, bu borada I.Gurvichning ma’lum folklor janriga doir areal xususiyatlarni tadqiq etishning nazariy masalalariga bag‘ishlangan ilmiy kuzatuvlari diqqatga sazovordir.

Olim yoqut, aldan-uchur, buryat, kamchatka evenklari, nanaylar, arochlar, ketlar, xakaslar, koryak-itelmanlar, maniylar, nenetslar, yukagirlar, chukchilar, eskimoslarning qahramonlik eposlarini epik makon, qahramon, epik maishiy hayot, kasb-kor, kiyim va jang qurollari, epik dushman, jangovar ot, mavzu, syujet va kompozitsiya jihatidan qiyosiy o‘rganish asosida umumlashtiruvchi ikki xulosaga keladi. Birinchisi – Sibir arealida turkiyzabon hamda mo‘g‘ulzabon xalqlarning ancha rivojlangan qahramonlik eposlari mavjud. Ulardan biri – G‘arbiy Sibir, Sharqiy Sibir va Uzoq Sharq regionlaridan iborat bo‘lib, u yerda yashovchi tungustilli xalqlar, ketlar, ob ugrlari va samodiylar o‘zlari bilan turk-mo‘g‘ul epik an’analari ta’siriga tushgan rivoyatlarni olib kelganlar. Ikkinchi region Kamchatka, Chukotka va Yoqutistonning shimoli-sharqiy hududlarida yashovchi xalqlar bo‘lib, ular o‘zlarida avtoxton (o‘zgalarda uchramaydigan alohida) eposning kurtaklarini yaratganlar. F. Ikromxo‘jayeva esa “Kelin salom” salom qo‘shiqlarining areal o‘rganish borasidagi kuzatuvlarida quyidagicha fikr-mulohazalarini bildirib o‘tadi: “Areal o‘rganish materialni palapartish muqoyasa qilish emas, balki uni muayyan taksonomik birliklar asosida qiyosiy tekshirishdan iborat. Buning uchun avval folklorga xos takson nimadan iborat ekanligini aniqlab olish kerak bo‘ladi. ...Agar taksonlar aniq belgilab olinmas ekan, folklor materialining zamoniy va makoniy holati, g‘oyaviy va badiiy qimmatini to‘g‘ri belgilab olishning imkoni bo‘lmaydi. Shu bois har bir taksonni belgilashda ana shu birlikning tarqalish maydonini, ya’ni ekstensional miqyosiga asoslangan holda, uning intensional miqyosini aniqlab olish zarur. Folklorga xos taksonning eng yirik – maksimal birligi janr hisoblanadi. ...Areal o‘rganish uchun obyekt tanlangan uning ekstensional holatini belgilab olish zarur. Bunda muayyan janr yoki unga mansub asar boshqa regionlarda yashovchi xalqlar og‘zaki ijodida ham mavjudligi aniqlanadi”[5:46]. Mana shu xususiyatlarga tayangan holda xalq termalarining areal tarqalish xususiyatlarini biz quyidagi regional hududlar bo‘yicha tasniflashimiz mumkin:

1. Samarqand dostonchilik maktablari.
2. Surxondaryo – Qashqadaryo dostonchilik maktablari.
3. Toshkent – Farg‘ona dostonchilik maktablari.
4. Buxoro dostonchilik maktablari.

Bu o‘rinda shuni ham ta’kidlash lozimki, dostonchilik maktablari bugungi kunda Toshkent, Farg‘ona va Buxoro viloyatlarida unutilgan bo‘lsa-da, dostonchilik an’analari jonli og‘zaki ijroda davom etgan vaqtlarda mavjud bo‘lgan. Xorazm va Qaroqalpog‘iston baxshilari repertuari esa farqlanadi. Ayniqsa, Xorazm baxshilari doston ijrosidan oldin dutorda biror kuy (hozirgi kunda torda), keyin esa Mahtumquli she’rlaridan yoki dostonlardan parchalar ijro etishgan. Termachi baxshilar esa bundan mustasno. Qashqadaryo va Surxondaryo baxshilari repertuari misolida quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratsak.

Terma janrining badiiy-funksional vazifasi, birinchidan, baxshini doston ijro etishga va auditoriyani doston tinglashga, axborot beruvchilik vazifasini o‘tashi, uchinchidan, shogirdlarga doston o‘rgatish vazifasini o‘taydi. Xalq termalarining mavzusi ham turli-tuman bo‘lsa-da, baxshi-shoirlar repertuarida eng ko‘p qo‘llanuvchi namunalari “Do‘mbiram” va “Nima aytay?” termalaridir. Shu boisdan ham folklorshunoslar V.M.Jirmunskiy va H.Zarifovlar: “Odatda o‘zbek xalq dostonchisining repertuari janr jihatidan qat’iy cheklangan bo‘ladi: epik poemalar ijrochilari doston aytishdan avval ijro etiladigan doston ijrosi uchun kirish rolini o‘ynaydigan terma”larga alohida e’tibor qaratganlarida yuqoridagi mavzu asosidagi termalarni nazarda tutadilar. Umuman olganda, terma janri Qashqadaryo, Surxondaryo baxshilari repertuarida o‘ziga xos ijroga ega bo‘lib, ushbu hudud ijrochilari doston aytishdan oldin albatta, ikki-uch kuy (nag‘ma) va “Nima aytay?” termasi asosida auditoriyaga murojaat qilgandan so‘ngina doston ijro etgan. Baxshi ijodidagi doston namunalariga tinglovchilar e’tiborini jalb etadi. Bunda baxshi ustozidan o‘rgangan va repertuarida mavjud dostonlarini tinglovchilar auditoriyasiga havola qiladi va auditoriyaning talabiga ko‘ra biror doston namunasini ijro etadi. Ana shu zaylda baxshi va auditoriya o‘rtasidagi jonli muloqot amalga oshadi. Doston voqealari va qahramonlariga xos ayrim xususiyatlar tinglovchilar yodiga tushiriladi hamda auditoriyani ruhiy jihatdan doston qahramonlari bilan bog‘laydi, ularni doston tinglashga tayyorlaydi.

O‘n beshida oyday to‘lgan,
Olmosini belga cholgan,
Go‘ro‘g‘liga xizmat qilgan,
Qirq yigitni girdiga olgan,
So‘rab o‘tdi Avaz polvon
Avazxondan aytayinmi?[6:218].

An’anaviy termalar Qashqadaryo, Surxondaryo baxshilari repertuarida ma’lum bir tarkibda kompozitsion tuzilmaga egaligi, mavzularning yaxlit kompozitsion tarkibi ularni an’ana va badiha jo‘rligida ijro etilishini ta’minlagan. Shuning uchun ham baxshilar repertuarida “Nima aytay?”, “Do‘mbiram”, “Kunlarim”, “Keltirar”, “Ko‘rsatar” va boshqa shunday biografik, avtobiografik hamda didaktik termalar mavjud bo‘lib, g‘oyaviy umumiylik, shakliy va mazmuniy birliklar jihatidan qat’iy an’analar asosida ijro etilgan. Ushbu holatlar umumo‘zbek baxshilari repertuari uchun umumiy xususiyat kasb etsa, Qashqadaryo, Surxondaryo baxshilari repertuarida ko‘proq didaktik termalar yetakchilik qilgan. Bu holat Qodir baxshi Rahimov, Qora va Chori Umirovlar, Shoberdi Boltayev, Abdunazar Poyonov, Qahhor Rahimov, Shodmon baxshi va boshqa ko‘plab baxshilar repertuarida yanada ijtimoiylashib, lirik yo‘nalish kasb etmoqda. An’anaviy tarzda ijro etilgan va dostonchilik jonli jarayonlarda ijro etilgan, doston kuylash usullarini og‘zaki o‘zlashtirgan Abdulla Nurali o‘g‘li, Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li, Umir shoir Safarov, Zohir shoir Qo‘chqorov va boshqa bir qator baxshilar repertuarida yetakchi mavzu hisoblangan. Buning asosiy sababi didaktik termalar faqatgina doston aytishga tayyorlash emas, balki mustaqil ham ijro etila borilgan. Ko‘pincha to‘ylar, sayllar va boshqa xalqning maishiy hayotiga aloqador tadbirlarda ham ijro etilgan. Shuning uchun ham axloqiy mavzular ushbu jarayonda muhim ahamiyat kasb etgan va baxshilar auditoriyaga o‘git, pand-nasihat berish, uning ruhiy olamiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida mana shu mavzularga e’tibor qarata borgan.

Айниқса, Umir shoirning “Ayrilsa” termasida мана шундай тарбиявий хусусиятлар saqlangan.

Baland tog‘ning boshi qorayib qolar,
Bag‘ridagi bo‘ktar qordan ayrilsa.
Savdogarning yuki qalanib qolar,
Qatordagi qora nordan ayrilsa[7:47].

Termada baxshining ustozlari repertuaridan o‘zlashtirgan uslub va an’ana o‘ziga xos saqlangan hamda olam va insoniy munosabatlar “ayrilsa” so‘zi misolida komponent bo‘lib davomiyligini saqlaydi. Baxshi o‘git berishni baland tog‘ misolida ko‘rsatib, uning bo‘ktar qordan ayrilishi kabi savdogar, podshohlar, mard yigit, bulbullar, lochinlar timsolida yigitning mardlik jasoratini ifodalash yetakchilik qiladi. Hatto, ayrilsa radif holatida mavzu darajasiga ko‘tarila boradi. Bu kabi termalar turli axloqiy mezonlarni badiiy ifodalashi bilan alohida ajralib turadi.

Xulosa va takliflar: o‘zbek folklorida terma janrining shakllanishi va taraqqiyoti, struktural-poetik va areal spetsifikasi masalalarini Janubiy O‘zbekiston dostonchiligi misolida tahlil va tadqiq etish folklorshunoslikning epik ijodiyot bilan bog‘liq jonli jarayonlaridagi dinamik o‘zgarishlarni o‘rganish, bugungi postfolklor sharoitida ijroning individuallashib borishi va mavzularning ijtimoiylashuv holatini o‘rganish masalalarini ilmiy asoslash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Musaqulov A. Terma // O‘zbek folklori ocherklari. Uch tomlik. 1-tom. –Toshkent: Fan, -B.262
2. Alaviya M. O‘zbek marosim qo‘shiqlari. –Toshkent: Fan, 1974. –B.48.
3. Чистов К.В. Проблемы картографирования обрядов и обрядового фольклора. Свадебный обряд // Проблемы картографирования в язикознании и этнографии. –Л., 1974. –Стр. 72-75; Гурвич И.С. Ареальное изучение эпических произведений народов Северной Сибири и Далнего Востока // Фольклор и историческая этнография. –М., 1983. Стр. 152-169; Октябрьсая И.В. Ареальные исследования в Российской этнографии: традиции и современное состояние // Вестник Томского государственного университета. 2020.№68. –Стр.103-108.
4. Гурвич И.С. Ареальное изучение эпических эпических произведений народов Северной Сибири и Далнего Востока // Фольклор и историческая этнография. – М., 1983. Стр. 152-169.
5. Ikromxo‘jayev F. “Kelin salom” qo‘shiqlarini areal o‘rganishning ayrim muammolari O‘zbek tili va adabiyoti, 2001. – №6. – B.46.
6. Oq olma, qizil olma // Qo‘shiqlar. O‘zbek xalq ijodi. Ko‘p tomlik. – Toshkent, 1972. – B.218.
7. Jumanazarov U, Ergashev A. An’anaviy termalar. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – B.47.

“ALPOMISH” DOSTONI VA UNING TURKIY XALQLAR EPOSI TARAQQIYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Navbahor Kamolova
Osiyo texnologiyalari universiteti o‘qituvchisi
navbahor.kamalova@mail.ru.
ORCID 0009-0007-9811-9411
UDK 39(575.1) 08

Annotatsiya. Maqolada “Alpomish” dostoni va uning turkiy xalqlar eposi taraqqiyotida tutgan o‘rni, o‘ziga xosligi, versiya va variantlari, g‘oyaviy-badiiy xususiyati, dostonning postfolklor sharoitidagi ijro va ijrochilik bilan aloqadorligi, epik ijro bilan bog‘liq dinamik o‘zgarishlari borasida fikr yuritiladi. “Alpomish” turkiy xalqlarning qahramonlik epos namunasi bo‘lib, unda qahramonlik xarakteri, oila, yor va vatan himoyasi uchun qahramonlik ko‘rsatish doston voqealarining asosiy g‘oyaviy maqsadini belgilaydi. Dostonning o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq, oltoy versiyalari doston holida, bir qator versiyalari esa ertak va rivoyat tarzida keng tarqalgani, o‘xshash farqli tomonlari qiyosiy jihatdan o‘rganiladi. Turkiy xalqlar ijodiyotida esa doston shaklida alohida ahamiyatli bo‘lib, uzoq asrlik tarixiy taraqqiyot bosqichida xalqlarning umum maqsadini birlashtirish, e’tiqodiy tafakkuriga aloqador masalalarni badiiy yuksak tarzda kuylab kelinganligi, epik kuychilar ijro va ijod etish ko‘nikmasida shakllanib, yaxlit syujet va kompozitsion tuzilmadagi epos namunasi sifatidagi ahamiyati ilmiy nuqtayi nazardan ko‘rsatib berildi.

Kalit so‘zlar: doston, epik kuychi, badihago‘ylik, taraqqiyot, dinamik o‘zgarish, syujet va kompozitsiya.

THE EPIC OF "ALPOMISH" AND ITS PLACE IN THE DEVELOPMENT OF THE EPIC OF THE TURKISH PEOPLE

Abstract. In the article, the epic "Alpomish" and its place in the development of the epic of the Turkic peoples, its uniqueness, versions and variants, ideological-artistic features, the connection of the epic with performance and performance in post-folkloric conditions, the dynamic related to the epic performance changes are discussed. "Alpomish" is an example of the heroic epic of the Turkic peoples, in which heroic character, heroism for the defense of family, country and homeland defines the main ideological goal of the epic events. The fact that Uzbek, Karakalpak, Kazakh, Altai versions of the epic are widely spread in the form of a epic, and a number of versions in the form of fairy tales and narratives, and their similarities and differences are studied comparatively. In the art of Turkic peoples, it is especially important in the form of an epic, in the stage of long-century historical development, the common goal of unifying the peoples, issues related to their religious thinking have been sung in an artistic way, formed in the performance and creative skills of epic singers, and in the integrated plot and compositional structure. The importance of epic as a sample was shown from a scientific point of view.

Key words: epic, epic poem, narrative, development, dynamic change, plot and composition.

Kirish. Ma’lumki, “Alpomish” dostoni turkiy va unga yondosh xalqlar ijodiyotida turli versiya va variantlarda yashab, jonli og‘zaki an’analarda saqlanib kelmoqda. Katta bir hududiy jarayonda syujetga xos o‘xshashlikning tarqalishi, birinchidan, xalq va millatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va geografik yaqinligi hisoblansa, ikkinchidan, syujetga xos jihatlar ma’lum bir xalq ijodiyotiga transformatsion jarayon asosida u yoki bu ko‘rinishda ta’sir ko‘rsatadi. Dostonning o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq, oltoy versiyalari doston holida; tojik, tatar, boshqird, O‘rta Osiyo arablari versiyalari ertak va rivoyatlar tarzida mashhurdir. O‘rta asr o‘g‘uz eposining muhim yodgorligi “Kitobi Dada Qo‘rqut” tarkibidagi “Bamsi Bayrak” asari syujet voqealarining o‘xshashligi bilan yaqinlikka egadir[1, 252]. “Alpomish” eposi borasida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ular orasida H.Zarifov, V. Jirmunskiy, T.Mirzayev, K.Rayxl va boshqa olimlarning tadqiqotlari alohida ajralib turadi[2]. Ushbu tadqiqotlar dostonga xos versiya va variantlar borasida fikr yuritsa-da, ammo doston syujetiga asos bo‘luvchi genezis, motiv va obrazlarning tarixiy asoslari, g‘oyaviy-badiiy jihatlarini o‘xshashlik asosida to‘ldirib boradi.

Tadqiqot metodologiyasi: “Alpomish” eposining nazariy muammolarini ilmiy tadqiq etish jarayonida struktural, tarixiy-qiyosiy, etnofolkloristik va xaritalash metodlaridan foydalanilib, ular versiya va variantlar tipologiyasi, syujet, motiv va obrazlar genezisini tadqiq etishda muhim ekanligi ko‘rsatildi.

Natijalar va muhokama. Turkiy xalqlarning kelib chiqishidagi tarixiy-genetik mushtarakliklari bir bo‘lib, qachonlardir turli ijtimoiy jarayonlardagi tabaqalanish, tarixiy-dinamik o‘sish va kengayish, millat va elatlar o‘rtasida yuzaga kelgan nizolar geografik hududning alohida-alohida bo‘linishiga sabab bo‘lganligini ko‘rsatmoqda. Ammo epik syujet sifatida shakllangan “Alpomish” voqeasi, uning kelib chiqishiga aloqador omillar bir mohiyat borasidagi g‘oyaviy

maqsadning turlicha bayoniy ifodasini tashkil etadi. K. Rayxl “Alpomish” dostoning versiya va variantlaridagi o‘zaro o‘xshashlik jihatlariga to‘xtalgan holda qo‘ng‘irot variantining ma’lum ma’noda yuzaga kelishi va tarqalishi borasida fikr yuritib, uning aniq yaratilganligi borasida aniq bir to‘xtamga kelaolmaganligini ta’kidlasa-da, ammo Alpomish ertagi syujeti O‘rta Osiyo turkiy xalqlariga o‘g‘uzlardan oldin ham ma’lum bo‘lganligini in’kor etib bo‘lmasligi, Dashti Qipchoqdan Eronga, oqibatda Anadoluga ko‘chib o‘tganligini qayd etadi. “Qo‘ng‘irot va o‘g‘uz versiyalari o‘rtasidagi o‘xshashlik haqiqatdan ham hayratlanarli, shuning uchun ham ular bir xil syujetning rivojlanishini taqdim etishga deyarli shubha yo‘q” ekanligiga urg‘u beradi [3,334].

Akademik V.M. Jirmunskiy ta’biricha: “Alpomish haqidagi epik doston, o‘zbek, qozoq va qoraqalpoqlarda (qo‘ng‘irot versiyasi) qahramonlik eposi shaklida mashhur; tog‘lik oltoyliklarda (”Alp-Manash”) – qadimgi bahodirlik afsonasi sifatida shuhrat qozongan; boshqird va qozon tatarlarida (“Alpomish” yoki “Alpamisha”) esa ma’lum ma’noda yangilik kiritilgan va bir qadar zamonaviylashgan tarzda “kechmish-kechirmish”ga oid og‘zaki hikoyalari tariqasida mavjud; XV – XVI asrlardayoq adabiy jihatdan qayta ishlangan o‘g‘uz bahodirlik qo‘shiqlari turkumida yoki mashhur “Dada Qo‘rqut haqida kitob” (“Qo‘rqut kitobi”) tarkibiga kirgan epik afsonalar tarzida Ozarboyjon va Onado‘lida “Kam-Buraning o‘g‘li Bamsi Bayrak haqida hikoya” nomi bilan yozib olingandi va shu paytgacha Onado‘lida XIX asrning 30-yillarida yozib olingan xalq ertaklari tariqasida yashab keladi[4, 144]. Demak, epik syujetning tarqalish hududlari va versiyalari Oltoy va o‘rta Osiyodan Volgagacha bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Kichik Osiyo hududlarigacha tarqalganligi ilmiy mulohazalarda ko‘zga tashlanib, qahramonlik syujetlarining eng qadimiysi hisoblanadi.

Garcha dostonning turli versiyalari turli ko‘rinishlarda saqlanib, jonli og‘zaki an’anlarda yashab kelgan bo‘lsa-da, uning qaysi versiyasi qadimiyroq yoxud doston syujetiga xos bo‘lgan qadimiylik xususiyatlarini alohida alohida o‘rganish emas, balki versiyalar tizimi va ularning o‘xshashlik alomatlaridagi qadimiylik jihatlarini tarixiy-folkloriy jarayon dinamikasi asosida qiyosiy o‘rganish eposshunoslikning syujetlar genezisi masalalaridagi o‘xshash tomonlarni bir o‘zakdan kelib chiqqanligini aniqlash imkoniyatini tahlil etishda muhim manba vazifasini o‘taydi. “Chunki har qanday epos syujeti xalqning yetakchi dunyoqarashi asosida shakllanadi va xalqning tarixda tutgan ijtimoiy mavqei unda yaqqol namoyon bo‘ladi. Epos syujetida voqelikni asoslovchi epik dunyoqarash, epik mafkura va tarixiy davr qatlamlarini ajratib tadqiq etmay, uning genezisini aniqlab bo‘lmaydi”[5,13]. Misol uchun qo‘ng‘irot versiyalaridagi mana shu holatlarni umummushtaraklik nuqtayi nazaridan qiyosiy o‘rganish eposshunoslikda bir qator nazariy muammolardagi yechimlarning tadqiqiy imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, qo‘ng‘irot versiyalari bilan o‘g‘uz versiyalari o‘rtasidagi o‘xshash va farqlar borasida ham bir qator tadqiqotlar amalga oshrilgan bo‘lsa-da, ammo ba’zi epizodlar, kompozitsion tarkibning ijrodagi ma’lum xususiyatlarini tahlil qilish versiya va variantlarning lokal va areal tarqalishdagi tadqiqiy imkoniyatlari masalasida ko‘plab yangi qarashlarni shakllantirishi mumkin. Hattoki, dostonning o‘zbek variantlari o‘rtasidagi farqlarda ham mana shu kabi holatlar borasida fikr yuritish mumkin. Uni maxsus tadqiq etgan olim T. Mirzayevning fikriga ko‘ra: “O‘zbek folklorshunoslarining dostonchilar repertuarini kuzatishlari, u yoki bu variantni qiyosiy o‘rganishlari shuni ko‘rsatdiki, bir necha baxshilarning, hatto ayni bir maktabga mansub ijodchilarning repertuaridagi dostonlar bir-biriga o‘xshasa-da, ularning matnlarida muhim farq bo‘ladi. Bu esa har bir baxshining mahorati va dostonchilikdagi darajasi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham “Alpomish” dostoni variantlari kompozitsion qurilishi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari va syujet tarkibi jihatidan bir-biriga juda yaqin va o‘xshash bo‘lsa-da, ularning matnlari boshqa-boshqadir, tekstual moslik yo‘q darajadadir” [6,59]. Hattoki, ushbu farqli xususiyatlarni biz Fozil shoir va Umir shoir variantlaridagi Barchin shartida ham kuzatishimiz mumkin. Fozil shoir variantida Barchin sharti to‘rtta bo‘lsa, Umir shoir variantida uchtadir. “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlari va o‘g‘iz versiyasi hisoblangan “Qo‘rqud ota kitobi” ning “Kom Bo‘ra bek o‘g‘li Bomsi Bayrak”dagi uchinchi hikoyasida Chechakning va Barchin shartlarida bu holat uchta bo‘lib, u an’ana doirasida saqlangan[7]. Shundan xulosa chiqarish mumkinki, Fozil shoir dostonida shartlarning to‘rtta bo‘lib shakllanishi Samarqand dostonchiligi maktabi baxshilari repertuari yoxud Fozil shoirning ustoz-shogird an’anasi davomida epizoddagi o‘zgarishlar bilan bog‘lanadi.

Umir shoir Safarov varianti Janubiy O‘zbekiston baxshilaridan yozib olingan variantlar ichida an’analarni saqlagani va badiiy mukammali hisoblanadi. “Umir Safar o‘g‘li varianti Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida aytib kelinayotgan “Alpomish” dostoni xususiyatlarini

o‘zida saqlagan bo‘lib, bu vohadan yozib olingan variantlar orasida eng mukammali hisoblanadi”[8,48]. Dostonda baxshi qahramonlar ruhiy holati, xatti-harakatini tasvirlash maqsadida o‘xshatishlardan mahorat bilan foydalana boradiki, bu holat tinglovchiga ko‘taringki kayfiyat berish bilan bir qatorda voqealarga munosabat ifodalash, ularning qiyoslanish orqali kuchli ekanligini ham anglatadi. Ayniqsa, dostonda Alpomishning qalmoq yurti tomon yo‘l olish epizodida Boychiborning safarga ketish tasviri baxshi tomonidan juda o‘rinli ifodasini topa boradi.

Ko‘zi lovullab yonar
Havoning yulduziday.
Bo‘ktargi go‘shtiga qarasa,
Chillaning qotgan muziday[9, 94].

Boychibor harakatda ekan, uning chopqirligi baxshi tomonidan birma bir jonli tasvirini ko‘rsata boriladi. Ushbu misralarda Boychiborning chopqirligiga xos xususiyatlarni ko‘rsatish asosida sodir etilib, ayniqsa, ko‘zining lovullab yonishi osmonda charoqlab turgan yulduzlarga o‘xshatilmoqda. Baxshi Boychibor ruhiyatini tinglovchiga ko‘rsatish uchun turli-tuman o‘xshatish usullaridan mahorat bilan foydalana boradiki, bu tasvirning real ko‘rinish holatini ifodalashga harakat qiladi. Dostonning ikkinchi qismida Alpomishning Boysari boshliq yurtdoshlarini qalmoqlardan qutqarish maqsadida safarga otlanishi, tutqunlikka tushishi, undan ozod bo‘lib, dushmanni mag‘lub qilishi va ona yurtiga qaytib dushmandan o‘ch olish tasvirlari mavjud. Ayniqsa, epik qahramon Alpomishning Boysun yurti tomon kelayotgan tasvirida otasi Boybo‘rining Ultontoz boshchiligidagi raqib kuchlar ta’sirida ruhiy ezilishi, bu esa doston strukturasidagi ruhiy ta’sirning dinamik jihatdan doston voqealariga ta’sirini ko‘rsatishi badiiy mahorat asosida tasvirlanadi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Umir shoir variantida Alpomish oldiga chiqqan tuya enchi Ko‘kalcha hisoblanadi hamda Ko‘kalcha Alpomish va Boychiborni hidlab, ot oldiga yiqiladi. Qodir baxshi dostonni ustozi Umir shoir Safarovdan og‘zaki o‘rgangan bo‘lsa-da, Fozil shoir varianti voqealari tasvirida ijro etgan. Baxshining savodxonligi, qolaversa, Fozil shoir va boshqa variantlarni o‘qib o‘zlashtirishi natijasida doston voqealariga bir qator o‘zgartirishlar kiritgan. Misol uchun Alpomishga peshvoz chiqqan Ko‘kalcha emas, Fozil shoir variantidagidek Tarlon biyadir. Bu kabi tasvirlar doston voqealarining keyingi o‘rinlarida ham ko‘zga tashlanadi. Doston matnida bu kabi epizodlar ko‘plab o‘rinlarda tasvirlangan bo‘lib, ushbu holat alohida tadqiqotlarni talab etadi.

Xulosa va takliflar: “Alpomish” eposi turkiy xalqlar ijodiyotida muhim ahamiyat kasb etib, xalq va millatlar o‘rtasidagi adabiy aloqalar, ularning tarixiy-tadrijiy rivoj topishi, olam va odam munosabatlarining poetik ifodasi bo‘lib, versiyalar tizimi asosida o‘rganish orqali epos syujeti rivojlanishiga aloqador ramziy ifodalarning poetik tafakkur rivojidagi ahamiyatini belgilashda muhim adabiy yodgorlik sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Imomov K. va boshq. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. Darslik. –Toshkent: O‘qituvchi, 1990. –B. 252.
2. Жирмунский В. М., Зарифов Х. Т. Узбекский народний героический эпос. – М., 1947. – С.60-112; Боровков А.К. Героический поэма об Алпамыше // Об эпосе Алпамыш. – Ташкент,1959. – С.61-86; Мирзаев Т. Бессмертный памятник узбекского героического эпоса // «Алпамыш»– узбекский народный эпос. – Л, 1982. – С.5-32; “Alpomish” o‘zbek xalq qahramonlik eposi. – Toshkent: Fan, 1999.
3. Jirmunskiy V. “Alpomish” va “Odisseya” // Jahon adabiyoti, 1999. №3. –B.144. (N.Rahimjonov tarjimasi).
4. Райхл К. Тюркский эпос: традиции, форми, поэтическая структура. – М.: Восточная литература, 2008. –Стр. 334.
5. Turdimov Sh. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. – Toshkent: Fan, 2011. – B.13.
6. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. –Ташкент: Фан, 2008. –Стр. 59.
7. Kitobi dada Qo‘rqud. Asil va soddalashtirilgan matnlar. Nashrga tayyorlovchi T.Hojiyev. – Boku, 2004.
8. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. –Ташкент: Фан, 2008. –Стр. 75.
9. Alpomish. Doston. Aytuvchi Umir shoir Safarov. –Toshkent: Akademnashr, 2019. -B. 94

SHARQ VA G‘ARB ADABIYOTIDA HAJVIYOT VA MUTOYIBA

Rizayev Baxtiyor Xalliyevich
Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti dekani
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
baxtirizo_64@mail.ru
ORCID 0009-0004-8902-4013
UDK 82-7+82.091

Annotatsiya. Mazkur maqolada jahon adabiyotshunosligida hajviy yo‘nalish, satira va yumorning ijtimoiy- estetik funksiyalari, unda realistik va shartli tasvir xususiyatlarini aniqlash va bu boradagi ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirish masalasiga alohida diqqat qaratilgan. Natijada hajviyotning badiiy adabiyotdagi vazifalari, hajviy tip va ijodkor estetik ideali, grotesk usuli kabilar haqida qator ilmiy tadqiqotlar yaratilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada G‘arb va Sharq adabiyotshunosligida hajviyot genezisi, tadriji, kulgi ko‘rinishlari va uning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni kabi muammolar haqida qator ilmiy tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa-da, hajviy tipga xos muhim jihatlar, hajviy pafos va badiiy mahorat, individuallik muammolarini muayyan ijodkor asarlari misolida yaxlit tarzda tekshirish lozim bo‘lgan masalalar ham mavjud. Shu ma’noda hajvnavis ijodkor uslubi va uning poetik o‘ziga xos muammolari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Satira, yumor, hajviy asar, hajviy tip, xarakter, g‘oyaviy-estetik ideal, yechim, estetika, ijtimoiy illat, sinkretik holat, pafos.

COMPARATIVE ANALYSIS OF HUMOR AND POETRY IN WESTERN AND EASTERN LITERATURE

Abstract. The article focuses on the socio-aesthetic functions of comedy, satire and humor in world literature, the definition of realistic and conditional image features. Moreover, it analyses the generalization of scientific theoretical views in this regard. As a result, it is important to note that a number of scientific studies have been created on the functions of comedy in fiction, the comic type and creative aesthetic ideal, the grotesque method.

Although a number of scientific studies have been conducted in world literature on issues such as the genesis, evolution, humor, and role of comedy in social life, important aspects of the comic type, humorous pathos, and artistic mastery are examples of individual problems. There are also issues that need to be examined as a whole. In this sense, the comedian’s creative style and his poetic peculiarities are highlighted in the article.

Keywords: satire, humour, comic book, comic type, character, ideological and aesthetic ideal, solution, aesthetics, social flaw, syncretic state, pathos

Kirish. Jamiyat hayotida ma’naviy musaffolanishga ehtiyoj sezilganda, yanada aniqrog‘i, jamiyat taraqqiyotiga xalaqit beruvchi turli ijtimoiy illatlarga qarshi kurashuvchi, xalqni yuksak ma’naviyatga chaqiruvchi iste’dodli ijodkorlar paydo bo‘lganida shaxs va ijod erkinligiga erishilgan demokratik jamiyatlar hayotida hajviyot va mutoyiba rivojlanadi.

Agar jahon adabiyoti tarixiga nazar tashlansa, ijodkorning voqelikka tanqidiy ko‘z bilan boqishi an’anasi Ezop, Aristofan, Menandr va Yuvenaldan tortib, Servantes va J.Svift, N.V.Gogol va M.YE.Saltikov- Shchedrin, M.Zoshchenko va A. Qodiriy, G‘.G‘ulom va A.Qahhor, S.Ahmad va Ne’mat Aminovgacha uzluksiz davom etib kelganligini ko‘rish mumkin. Biroq hajv va yumorning badiiy adabiyotdagi o‘rni, ahamiyati haqida yagona bir nuqtai nazar hukmronlik qilgan emas. Ayrim tanqidchi va adabiyotshunoslar hajv adabiyotning ijtimoiy hayotdagi taraqqiyot oldida g‘ov bo‘luvchi to‘siqlarni bartaraf etuvchi buyuk vazifasi ekanligini e’tirof etsalar, ayrimlar bunday e’tirofdan o‘zlarini tiyadilar.

Hajviyot va mutoyiba (hajv va yumor) jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Eng qadimgi adabiyot nazariyasining nodir yodgorliklaridan biri – Arastuning «Poetika» asarida hajviyot namunalaridan hisoblangan sahna asari – komediyaga bunday ta’rif berilgan: “San’atkorlar muayyan shaxslarni tasvirlaydilar, ular esa yaxshi yoki yomon bo‘lishi mumkin. (Negaki, ... hamma odamlar xarakterlaridagi illatlari yoki fazilatlari jihatidan farqlanadilar). Ular (odamlar) bizdan yaxshiroq, yoki bizdan yomonroq yoki hatto bizdek bo‘ladi. (Xuddi rassomlardagidek. Polinot, masalan, eng yaxshi kishilarni, Pavson – yomonlarni, Dionisiy esa bizga o‘xshash kishilarni tasvirlaydi) Tragediya va komediya orasida ham xuddi shunday tafovut mavjud: komediya hozirgi vaqtda yashayotganlardan ko‘ra yomonroq, tragediya esa yaxshiroq kishilarni tasvir etishga intiladi” [1.56]. “Komediya esa ta’kidlaganimizdek, yomon kishilarni butunlay

badnom qilish ma’nosida bo‘lmasa-da, gavdalantirishdir. Zero, kulgili holat xunuklikning bir qismi xolos”[2.32].

Yunon donishmandining komediya haqidagi bu fikrlari faqat dramatik turga emas, balki epik turga, xususan badiiy nasrga ham taalluqlidir.

Antik adabiyot gullab yashnagan Esxil, Sofokl, Evripid, tragediya janrini yuksaltirgan davrda (miloddan avval V asr, Perikl davri) Aristofan kabi hajv dahosi ham faol ijod qildiki, uning “Bulutlar”, “Qushlar”, “Qurbaqalar” kabi komediyalarida hajv va mutoyiba (satira va yumor) o‘zining yuksak cho‘qqisiga ko‘tarildi. Jumladan, Aristofan “Bulutlar” komediyasida bir dehqon aslzoda bo‘lishga intiluvchi boyvachcha xotinga uylanganini, dehqonning halol mehnat bilan topgan boyliklarini xotini to‘y-tomoshalarga, yasan-tusanga, mehmondorchilik va ko‘ngilxushliklarga sarflab, sovurganini, o‘g‘li esa o‘qishni tashlab, otchoparda poyga otlariga pul tikib, yengiltak hayot kechirayotganini, dehqon shular sababli og‘ir ahvolga tushib qolganini tasvirlaydi. Agar voqea mazmunidan kelib chiqilsa, bu kulgili emas, qayg‘ulidir. Lekin Aristofanning hajviy iste’dodi shu qadar qudratliki, u asarda zaxmatkash dehqonga hamdardlik uyg‘otish bilan birga uni shunday komik, kulgili holatlarda va kulguli so‘zlar orqali tasvirlaydiki, bu qahramon va unga yordam bermoqchi bo‘lib, ahvolini badtar qiyinlashtirgan shaxslar tomoshabin va o‘quvchida beixtiyor kulgi va zavq-shavq kabi estetik his-tuyg‘ular uyg‘otadi. Qizig‘i shundaki, Aristofanning bu komediyasida masxara qilingan shaxslar orasida donishmand Suqrot ham bor. Aristofan tasavvurida, Suqrot barcha yunonlar sajda qiluvchi Zevs, Apollan, Afina, Afrodata, Gefest kabi ma’budlarga ishonmaydi, u o‘zining sofistlik maktabida haqni nohaq va nohaqni haq qilib isbotlash mumkinligini o‘rgatadi. Xullas, u yoshlarni ma’budlarga ibodatdan qaytarib, axloqini buzgan, odamlarni yolg‘onga o‘rgatgan salbiy qahramon qilib ko‘rsatiladi. Suqrot aslida ham ko‘p xudolikni tan olmagan. Shu sababli chindan ham o‘limga mahkum etilgan.

Hajvning ijtimoiy hayotni yaramas illatlardan tozalash, inson ma’naviy axloqiy qiyofasini takomillashtirishdagi o‘rni va ahamiyati juda ham kattadir. Shu bois hajviy ijod G‘arb va Sharq adabiyotida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hajv ijodkorning voqelikka estetik munosabatining bir shaklimi, ya’ni pafosning ko‘rinishlaridan birimi yoki ayrim tanqidchi va adabiyotshunoslar ko‘rsatgandek alohida adabiy turmi? Bu masala V.G.Belinskiydan tortib hozirga qadar uzil-kesil hal etilmay kelinadi. U XIX asrning 40-yilarida N.V.Gogol va M.Lermontov asarlari haqida yozgan maqolalarida hajvni adabiy tur sifatida ta’riflaydi. V.G.Belinskiydan keyin XX asr olimlaridan L.I.Timofeyev, Y.Elsberg, Y.Borev kabilar ham hajvni adabiy tur sifatida talqin qiladilar. Yuqoridagi qarashga qarama-qarshi o‘laroq, juda ko‘p adabiyotshunoslar hajvga ijodkorning voqelikka bo‘lgan estetik munosabatining bir shakli, ya’ni pafosi sifatida qaraydilar. Biz ham hajv ijodkorning voqelikka estetik munosabatining bir shakli ekanligi haqidagi qarashga qo‘shilamiz.

Darhaqiqat, bu yerda buyuk tanqidchining oddiy kulgi bilan komizmning o‘ziga xos tomonlari haqidagi fikrlari hajviyotning obyekti va uni ifodalash usullarining dialektik aloqasini to‘g‘ri anglashga, yumor, hajv (satira)ning xarakterli belgisi vositasi, ijtimoiy hayotdagi g‘oyaviy-estetik vazifasini anglashga da’vat etayotganini ham tushinish qiyin emas.

N.V. Gogol bu so‘zlari bilan hajv va mutoyiba (satira va yumor) yuksak rivojlangan Uyg‘onish davri mutafakkir adiblari (Italiyada Jovanni Bokkacho, Fransiyada Fransua Rable, Angliyada V.SHekspir, Ispaniyada Michel de-Servantes) asarlarida ko‘ringan hurfikrlikni, avval til tekizish mumkin bo‘lmagan din arboblarining ayyorligi, axloqsizligi, munofiqligini, goh hazil-mutoyiba ohangida, goh hajv qamchisi bilan fosh etilganini, quvnoq kulgi va istehzoli qahqahani nazarda tutgan edi. Jovanni Bokachchoning “Dekameron” asarida, ayniqsa, ayrim ruhoniylarning makkorligi, tuban qilmishlari qattiq hajv qilingan. “Dekameron”ning bir hikoyasida avvallari turli shaharlarda buzuqlik, o‘g‘rilik, tovlamachilik qilib yurgan, ko‘p marta dordan qochgan bir qallob Chapolettoni din ahli avliyo deb, muqaddas cherkovni uning nomi bilan ataganlarini tasvirlanadi. Boshqa bir hikoyasida ruhoniy otaxonning ibodatga kelgan soddadil bir qizni aldab, sening nozik joyingga shayton kirib olgan, uni haydab chiqarish kerak, deb, har kecha u bilan buzuqlik qilganini tasvirlanar ekan, bu bilan din arbobi niqobidagi tovlamachilarga qattiq zarba beradi, xalqqa ularning haqiqiy basharasini tanitadi. “Dekomeron” ayni vaqtda mayin lirizmga, psixologizmga, dramatizmga va fojealarga ham boy bo‘lib, jahon adabiyotida gumanizm-insonparvarlik, adolat va haqiqat-realizmning yuksalishiga xizmat qildi.

Natija va muhokama. Yangi o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalari Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor singari adiblarimiz o‘z ijodlarida mumtoz adabiyotimiz va xalq og‘zaki ijodidagi hajvning hayotbaxsh an’analarini yangi tarixiy sharoitda rivojlantirish, adabiyotimizni ijtimoiy mazmun kasb etadigan hajviy xarakterlar hisobiga boyitishlari bilan birga hajviy ijodning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning xususan, yumorning rang-barang ko‘rininshlari, undagi mavzu va g‘oya birligi, obrazlarning individual tomonlariga alohida e’tibor berish lozimligini ko‘rsatuvchi mulohazalari ham qimmatlidir. Masalan, Abdulla Qodiriy “Yozg‘uvchilarimizga» sarlavhali maqolasida tanlangan mavzu «ijtimoiy va siyosiy manfaat” kasb etsagina qo‘lga qalam olish lozimligini ta’kidlasa, “26 nchi yilda kuldiruvchilarimiz” nomli maqolasida yumor (kulgi) ning jamiyat nafas olishi bilan birga yashashi lozimligini o‘qtiradi. “Kulgi va uning turlari” deb ataluvchi 1926-yilda bo‘lib o‘tgan suddagi nutqida esa yumorning milliy xususiyatlari uning rangbarang ko‘rinishlari haqida to‘xtaladi.

G‘afur G‘ulom ham hajvchi yozuvchining mayda va siyqasi chiqqan mavzudan uzoqlashishni maslahat beradi: “Bizda eng ko‘p boylar, eshonlar, mullalar ustidan kulindi. Qachon qarasa bitta eshonning yo bitta domlaning xususiy qilig‘i, sallasi, kallasi bizga mavzu, axir bu o‘quvchilarni zeriktiradi”[3.91]. Donishmand yozuvchimizning bu fikrlaridan hajv, xususan yumorning mavzui jamiyatdagi xavfli bo‘lgan, uning olg‘a qarab ketishiga to‘sqinlik qiluvchi illatlarni fosh qilish asnosida yaxshi narsalarni ulug‘lashga qaratilishi lozimligini anglash qiyin emas.

Abdulla Qahhorning “Hozirgi satiramiz ustida” nomli maqolasida hajvning ijtimoiy hayotdagi kuchi va qudrati o‘zining haqqoniy ta’rifini olgan. “Satiramizning hozirgi ijtimoiy mohiyati shundaki, – deb yozadi adib, u – hayotimizdagi barcha manfiy hodisalarni ochadi. Ijtimoiy qurilishimizdagi barcha yaramasliklarni oydinlashtiradi, mehnatkashlar ommasiga zavq bag‘ishlaydi”[4.36].

Abdulla Qodiriy “Kalvak Mahzumning xotira daftaridan”, “Toshpo‘lat tajang nima deydi?” degan asarlarida yengiltak, ahmoq odamlar ilm-ma’rifatga intilgan yoshlar ustidan kulayotganini, bularning kulgisi naqadar mayda, bachkana, ibosiz, qabih ekanligini ko‘rsatadi. Abdulla Qodiriyning bu asarlari hajviyot nazariyasida “vaziyat kulgisi” va “xarakter kulgisi” kabi holatlarni aniqlashga imkon beradi. Bizningcha, Qodiriyning bu asarlarida vaziyat kulgisi ham, xarakter kulgisi ham bor. Avvalo, Kalvak Mahzum va Toshpo‘lat tajang eski zamon odamlari, xon davridagi, yarim jaholatda qolgan xalqning savodsiz vakillari, ular o‘zlari ilmsiz ekanligidan uyalmaydilar, ilmga intilgan yoshlarni, o‘quvchi qizlarni esa, “Ko‘kraging chiqib qolibdi, o‘ynashing ham bordir?” deb masxara qiladilar. Boshqacha aytganda, yangicha hayotda bu shaxslar begona bo‘lib, noqulay, kulgili vaziyatga tushib qolganlar. Ularning o‘zlari kulgili holatda ekanligini anglab yetmaydilar. Shu sababli yangi hayotni tushunganlarni masxara qiladilar, bu esa ularning yangi jamiyatga begonaligini yanada kuchaytiradi. Ular boshqalarni mazax qilar ekan, so‘zlarining zamirida bu hayotda ularga o‘rin yo‘qligi, bo‘lsa ham vaqtinchaligi sezilib turadi.

Badiy adabiyot siyosat emas, san’atdir, lekin haqiqiy san’at jamiyat hayotini badiy tahlil qiladi, shu ma’noda u istasa-istamasa siyosatga aralashadi, jamiyatning siyosiy manzarasini aks ettiradi. Lekin xuddi shu sohada haqiqiy badiiy asar, san’at asari bilan iste’dodsiz, soxta asar farqlanadilar. Chinakam badiiy asarda siyosat obrazlarda, qahramon ruhiy kechinmalarida, nutqida, tilida vositali, botiniy holatda bo‘lib, ko‘rinmay turadi. Soxta badiiy asarda esa siyosat ochiq-oshkor, deklarativ tarzda bayon qilinadi, endi u oddiy, jo‘n maqolaga o‘xshaydi. Demoqchimizki, kulgi g‘oyani, siyosatni ham badiiylashtiradi va jonlantiradi.

Hajviy asarda yozuvchining ijodiy niyati, maqsadi, poetik g‘oya jamiyat hayotidagi katta-kichik illatlarni aniqlash va bu ijtimoiy illatlarga qarshi kurash olib borish qanchalik muhim bo‘lsa, ijtimoiy g‘oyani bayon qilmay, badiiy, xalqona jonli, shirali til bilan, xarakterlar to‘qnashuvi – kuchli ijtimoiy konfliktlar, obrazlar vositasida tasvirlash ham shunchalik muhimdir. Abdulla Qodiriy yosh yozuvchi sifatida endigina ijodga qadam qo‘ygan vaqtlarida jadid adiblari ta’sirida yozgan “Juvonboz” hikoyasida kuchli ijtimoiy g‘oyani yetarli darajada badiiy yetuk qilib tasvirlayolmaganini (hozirgi adabiy tanqid tili bilan aytganda, estetik ta’sir kuchi kamligini) o‘zi ham e’tirof qilgan edi.

Abdulla Qodiriyning munosib shogirdi va izdoshi bo‘lgan Oybek o‘zining “Abdulla Qodiriyning ijodiy yo‘li” nomli tadqiqoti (asari)da shunday yozadi: “Turkistonning “o‘z” chirik odatlari – nasha, ko‘knori, bachchabozlik, jaholat va boshqalar yetmaganday, mustamlakachi rus

burjuaziyasi “madaniyat” nomi bilan mustamlaka xalqiga qimorxona, alkagol, fohishaxonalar keltirildi”.

Adabiyotshunos Bahodir Karim fikricha, “Juvonboz – badiiy jihatdan yuksak emas, ammo unda Turkiston boylari va bolalari hayotining naqadar tubanlashib ketganligi namoyishi bor”.

Lekin Abdulla Qodiriy hajviyotining durdonalari bo‘lgan “Tinch ish”, “Toshpo‘lat tajang nima deydi?”, “Kalvak Maxzumning xotira daftaridan” hikoyalari ham ijtimoiy-g‘oyaviy va badiiy-estetik jihatdan juda yuksak asarlardir. G‘oyaviy mazmuni, bosh qahramon xarakterining tanlanishiga ko‘ra, Abdulla Qodiriyning “Tinch ish” hikoyasi bilan Sadriddin Ayniyning mashhur “Sudxo‘rning o‘limi” qissasi o‘rtasida umumiylik, yaqinlik bor. Har ikki asarda ham chorizm mustamlakachiligi davrida mahalliy xalq bo‘lmish “o‘ziga to‘q” mulkdorlar sinfi vakillarining o‘z ahvolini yaxshilash uchun, buning iloji topilmasa, bor mavqeini asrab qolish uchun harakati, tirishuvi ishonarli, tabiiy, hayotiy bo‘yoqlarda tasvirlangan. Ammo bu ikki asar bir-biridan jiddiy farqlanadi ham. Agar S. Ayniy qahramoni Qori ishkamba milliy burjuaziya vakili, pulini boshqalarga qarzga berib, foyiz-foyda oluvchi, aksiyalar, veksellar bilan ish ish ko‘ruvchi bo‘lsa, A.Qodiriy qahramoni domla Sharif Oxund – milliy ziyolilar toifasi vakilidir. Ziyoli bo‘lganda ham hozirgi ma’nodagi dunyoviy ilm-fanlardan mutaxassis emas, balki XX asr boshlarida yashagan diniy ulamolardan biri.

Bahodir Karimov “Abdulla Qodiriy” nomli monografiyasida o‘zbek adabiyotshunosligida birinchilar qatorida jahon adabiyotining eng yaxshi namunalari (F.Rable “Gargantyua va Pantagryuel”, T.A. Gofman “Kichik Saxes”, N.V. Gogol “Revizor”) da ham ijtimoiy, ham estetik ta’sir kuchining yuksakligining asosiy sababi xalq kulgisi nuqtai nazaridan yozishda degan M.Baxtin fikrini Abdulla Qodiriy hajviyotiga ham tatbiq etadi. Muhimi, Bahodir Karimov kulgining ijtimoiy va estetik mohiyati haqida M.Baxtindan yarim asr avval Abdulla Qodiriy o‘z asarlarida shu kabi adabiy-estetik qarashlarini bayon qilganligiga e’tiborimizni qaratadi. Darhaqiqat, Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanida M.Baxtin aytgan xalq kulgisining birinchi shakllaridan – xalq bayramlari, masxarabozlik o‘yinlaridan unumli foydalangan. Shu o‘rinda romanning alohida bir bobi – “Tomoshaqovoq”ni eslaylik. Unda adib xalq kulgisi orqali Qo‘qon xonligidagi mansabdorlarning kirdikorlarini fosh etadi. “26-yilda kuldiruvchilarimiz” nomli maqolasida esa o‘zining adabiy-tanqidiy, estetik, nazariy fikrlarini bunday ifoda qilgan edi: “Tanqidning ikkinchi xili bo‘lgan hajviy (satira ma’nosi bilan) ommaviy deyilsa bo‘ladi. Chunki kulgi tanqid (ilmiy, jiddiy tanqiddan farqli o‘laroq – B.R.) turmush bo‘lib uchquvchi burgutdir. Hayot sharoitiga yaramagan zaif, qizg‘anch, manfur, muzir (zararli) va shuning singari unsurlar unga yemdir.

Hajviy tanqid avomning ruhiga yaqin va uning his etgan, ammo ifoda qila olmagan masalalariga tarjimondir. Xulosa: hajviy tanqidning tabiatidagi kulgilik unsuri avomning mahbubi, uning o‘z ijodidir”. Bu fikrning to‘g‘riligini adibning o‘z asarlari ham isbotlaydi. Xususan, uning bir qator hajviy hikoyalarida xalq kulgusidan foydalanib turli ijtimoiy illatlarni – Turkiston xalqi yangi tuzum davrida jaholatdan qutilmaganini, dunyoviy madaniyat, ilm-fanlarga yuz burmaganini, sho‘rolar hukumati mahalliy, xalqni tahqirlab, xo‘rlayotganini, salbiy qahramonlarning kulgi gaplari va qilmishlari, xarakterlari orqali chuqur yoritib beriladi.

Xulosa va takliflar. Albatta, har bir davrning o‘ziga xos muammolari, qolaversa, dolzarb g‘oyalari bo‘ladi. Badiiy adabiyot esa uni mujassam etishda davom etaveradi. XX asr o‘zbek adabiyotida Hamza, A.Fitrat, A.Qodiriy hajvchiligiga xos bo‘lmagan fazilatlar o‘z davrida G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmadlar tomonidan izchil davom ettirildi. XX asr o‘zbek adabiyotidagi hajviy yo‘nalish taraqqiyotiga e’tibor bersak, Ne’matAminov asarlarining sezilarli o‘rni borligini payqash mumkin. Uning asarlari o‘z davrining muhim ijtimoiy muammolarini hajv tig‘i orqali tasvirlagani bilan xarakterlidir. U jahon va o‘zbek adabiyoti klassiklari ijodidan hajviy, tasvirlash tili va uning sirlarini, xarakterlarni yaratish mahoratini o‘rganishga intildi.

Ne’mat Aminovning hikoyalarida yumor ham, hajviy ruh ham bir-birini to‘ldiradi. Adibning “O‘zbek hikoyalari antologiyasi” ga kirgan “Xo‘tikning balog‘ati” hikoyasini olaylik. Bu hikoya bir qarashda adressiz, badiiy felyetonga o‘xshaydi. Chunki unda qahramonlar, jonli, tirik odamga xos kamchiliklari ham, fazilatlari ham bo‘lgan obrazlar sifatida emas, balki felyeton qahramoniga xos ashaddiy jinoyatchilar sifatida ko‘rsatiladi. Hikoyaning boshlanishi ham felyetonga o‘xshaydi. “Odam bolasi balog‘atga yetsa, uy-joy qiladi, bola-chaqa orttiradi. Pushti kamaridan bo‘lgan farzandlarini halol non bilan boqqisi, el orasida izzat-obro‘ orttirgisi keladi”. Shundan so‘ng hikoyada “Xo‘tik balog‘atga yetsa nima bo‘ladi?” degan savol qo‘yiladi va

yozuvchi bu juda qiyin savolga o‘quvchi javob topolmaydi, deb o‘ylab, shu bilan kulgi uyg‘otmoqchi bo‘ladi. Bu esa bir oz sun’iylikni keltirib chiqargan. Keyinchalik Ne’mat Aminov bu hikoyada aytilgan qisqa ma’lumotlarni keng ko‘lamda tasvirlab, uni romanga aylantiradi.

Xulosa o‘rniga shuni aytish lozimki, hajviyot uchun hayotning o‘zi cheksiz mavzu. Biroq hayotdagi ana shu hajvbop hodisani ijodkor ko‘ra bilishi, uni o‘ta ortiqcha bezagu soxta bo‘yoqlarsiz tasvirlay olishi zarur. Bunda hajvga imkon beradigan fakt hayotiy voqea bag‘rida yashiringan bo‘ladi. Ana shu yashirin narsani adib yorqin tasvirlab berishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арасту. Поэтика.Ахлоқи кабир. –Т:, Янги аср авлоди,2016. – 28 б.
2. Бурхонов И. Абдулла Қаҳҳор комедияларининг адабий манбаларихақида.Журнал.-Ўзбекистон. 1987.
3. Баҳодир Карим. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. – Т.: Фан, 2006. – 231 б.
4. Борев Ю. Сатира//Теория литературы. Основные проблемы в историческом освещении. Роды и жанры литературы. – М.: Наука, 1964. – 363-407 с.
5. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Т.: 2004. –127 б.
6. Аминов Неъмат. Елвизак. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – 174 б.
7. Норматов У. Сержило кулги // Шарқ юлдузи, 1991. – 3-сон. – Б.187 -192.
8. Шарафиддинов О. Ҳажвиётга садоқат // Неъмат Аминов. Қаҳқаҳа. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б.5-18

PERSONAJLI LIRIKA USLUBIYATI

Umida Abdullayeva
QarDU doktoranti
abdullayevaumida792@gmail.com
ORCID: 0009-0003-6554-8712

УДК 894.375:808(045)

Annotatsiya. Hozirgi adabiy jarayon, ijtimoiy voqelik, tafakkurning o‘zgarib borayotganligi, qolaversa, shoirlarimiz tomonidan amalga oshirilayotgan badiiy-estetik izlanishlar mohiyati xilma xil ifoda shakllarini yuzaga chiqarmoqda. So’nggi yillar she’rshunoslikda “falsafiy she’riyat”, “fikriy she’riyat”, “meditativ lirika”, “emotsional-intellektual lirika”, “ijroviy lirika”, “personajli lirika” singari ifodalar keng qo’llanmoqda. Bu kabi istilohlar adabiy-ilmiy muomalada faollashmoqda. Bular, albatta, bejiz emas. Sababi, bu kabi turli xil ifodalarning yuzaga kelishini adabiy jarayonning o‘zi taqozo qilmoqda. O‘zbek adabiyotshunosligida personajli lirika nazariyasi masalalari tizimli va har tomonlama o‘rganilmagan. Professor Dilmurod Quronov tomonidan adabiyotshunoslik termini sifatida adabiyot nazariyasiga kiritilgan. Shuningdek, Ulug‘bek Hamdam doktorlik dissertatsiyasida personajli lirika atamasiga qisqacha izoh berib o‘tgan. Ijodkor hissiy kechinma tasvirini ifodalashda subyekt bilan bir qatorda personajlarni ham “gapirtiradi”. Bu esa, o‘quvchiga tasvir holatini his qildiradi, kitobxon she’rda tasvirlangan holatni anglab tushunadi, garchi o‘zi real hayotida bunday voqelikka duch kelgan bo‘lmasa-da, har bir inson qalbida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha o‘zgarish va tuyg‘ular imkoniyat tarzida yashaydi. Mazkur maqolada personajli lirikaning nazariy xususiyatlari ochib berilgan bo‘lib, nazariy tuhunchalar dalili uchun jadid ijodkorlar va yangi o`zbek she’riyati vakillari ijodidagi personajli lirika namunalari ochiqlangan.

Kalit so`zlar: Subyekt, kechinma, lirika, personajli lirika, dialog, polifoniya

Abstract. The current literary process, social reality, changing thinking, as well as the essence of artistic and aesthetic research carried out by our poets, are giving rise to various forms of expression. In recent years, expressions such as “philosophical poetry”, “intellectual poetry”, “meditative lyrics”, “emotional-intellectual lyrics”, “executive lyrics”, “character lyrics” have been widely used in poetics. Such terms are becoming more active in literary and scientific circulation. These are, of course, not without reason. The reason is that the literary process itself requires the emergence of such various expressions. In Uzbek literary studies, the issues of the theory of character lyrics have not been systematically and comprehensively studied. It was introduced into literary theory by Professor Dilmurod Kuronov as a literary term. Ulugbek Hamdam also briefly explained the term personified lyrics in his doctoral dissertation. When expressing an image of an emotional experience, the creator “makes” the characters speak as well as the subject. This makes the reader feel the state of the image, the reader understands and comprehends the situation described in the poem, even if he has not encountered such a reality in real life, all the changes and feelings that may exist in the soul of every person live as a possibility.

This article reveals the theoretical characteristics of personified lyrics, and to prove the theoretical concepts, examples of personified lyrics in the work of modern creators and representatives of new Uzbek poetry are revealed.

Key words: Subject, experience, lyrics, personified lyrics, dialogue, polyphony

Kirish. O‘zbek adabiyoti, xususan, lirikada badiiylik, peyzaj, ruhiyat, badiiy tasvir usullari va yo‘llari yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Ammo, subyektning tashkillanishi, subyektniing harakatlanishi muammosi yuzasidan yirik planda deyarli tadqiqotlar olib borilmagan. She’rda subyekt hissiyoti ifodalanishini hisobga olib, she’riyatda personajlarni to‘liq o‘rganish masalasi o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Personajli lirika subyektiv shakllantirilishiga ko‘ra farqlanuvchi lirika ko‘rinishlaridan biri, lirik kechinma hamda lirik kahramon, ham o‘zga bir shaxs tilidan ifodalanuvchi she’r. Ya’ni bunday she’rda lirik qahramon bilan bir qatorda personaj (O‘zga bir shaxs)ning ishtiroki ham ko‘zda tutiladi. Personajli lirikaning ildizlari xalk ogzaki ijodi va mumtoz adabiyotga borib taqaladi, ularda personajli lirikaning kurtaklari mavjud. Jumladan, mumtoz adabiyotimizdagi ko‘plab she’rlarda yor, ag‘yor kabi personajlar ishtirok etadi. Biroq, yor obrazi mavjud she’rlarning barini ham personajli lirika namunasi deyish to‘g‘ri emas, ularning aksariyatida yor tavsiflanadi, xolos.

Maqolada lirikaning subyektivligi nuqtayi nazaridan ajratilgan personajli lirika turi va unda qo‘shsubyektivlik masalasi ilk bor tadqiq qilinmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. She’r personajli lirika bo‘lishi uchun ijodkor o‘zga shaxs she’r subyektlaridan biriga aylanishi, uning tilidan ifoda etilgan lirik kechinma mustaqil g‘oyaviy-badiiy qimmat kasb etishi lozim. Shoir estetik mushohada obyektiga o‘zga nazar bilan qaray olganda, personajli lirika hosil bo‘ladi. Personajli lirika namunalari nazariyasi haqidagi ilmiy qarashlar rus adabiyotshunosi G.N.Pospelovning “Lirika” asarida, o‘zbek adabiyotshunosi D. Quronovning “Adabiyotshunoslik lug‘ati”, “Adabiyot nazariyasi asoslari” darsligida, professor U.Hamdamning “Yangi o‘zbek she’riyati” monografiyasida keltirib o‘tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni yoritish jrayonida personajli lirika namunalarida subyektivlikning dialogik, polifonik xususiyatlari biografik, analitik, tarixiy-tipologik, psixoanalitik usullardan foydalangan holda yoritib beriladi.

Natijalar va muhokama. Ushbu maqolada hozirgi o‘zbek she’riyatidagi lirik kechinma subyekti va obyekti nuqtayi nazaridan tasnif etilayotgan personajli lirika nazariyasi va uslubiy xususiyatlari ilmiy asosda yoritilgan.

Adabiyotshunos olim D.Quronov hozirgi she’riyat janrlarini yuzaga kelgan o‘zgarishlar, yangilanishlarni e’tiborga olib, lirik kechinma subyekti va obyekti nuqtayi nazaridan quyidagicha tasniflaydi: 1) ijroviy lirika; 2) personajli lirika; 3) meditativ lirika; 4) tavsifiy lirika (uning ko‘rinishlari: peyzaj lirikasi, voqeaband lirika). [3, 394] Lirikaning spetsifik xususiyatlari rus olimi Pospelovning “Lirika” nomli asarida ham tadqiq qilingan. Olim tavsifiy lirika bilan umumiy xususiyatlarga ega bo‘lgan personajli lirikani ajratadi. [2, 103]

Bizningcha, olim D.Quronovning tasnifi rus adabiyotshunosi G.N.Pospelovning tasnifiga uyg‘un ravishda she’riyatdagi subyektivlikning mohiyatini to‘liqroq ochib beradi. Sababi, lirikaning bosh xususiyati subyektivlik, shoir qalbida kechadigan kechinma, ana shu kechinma uyg‘otgan sezgilarni voqe qilish san‘atidir. “Lirikada shoir shaxsiyati birinchi planda namoyon bo‘ladi, biz hamma narsani faqat u orqaligina qabul etamiz va anglaymiz. Ammo lirikadagi subyektivlik ijodkorning birgina o‘z shaxsiy fikr va hislari bilan cheklanib qolishni bildirmaydi. Adabiyot insonshunoslik, yozuvchi esa o‘z zamonasining faol fuqarosi, vijdoni va hakami ekan, uning asarlarida faqat umumxalq, ko‘pchilik uchun muhim, xarakterli hodisa va kechinmalar in’ikos etsagina, keng kitobxonlar ommasining qalbidan joy olishi mumkin. Shu sababli lirika oldiga qo‘yiladigan zaruriy talablardan biri – mazmunning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lishidir. Bu – lirik asar ijtimoiy va axloqiy mavzular bilan cheklanib qolishi kerak, yoki mumkin, degan so‘z emas. Insonga nimaiki taalluqli bo‘lsa, uning xushnudligi, orzu va alamlarini ifoda eta olsa, shularning hammasi lirikaning mazmuniga kiradi”.[4, 173] Aytish mumkinki, lirikada u qanday mazmun, qaysi detallar vositasida ifodalanmasin, unda bosh g‘oya sifatida inson omili turadi.

Personajli lirikada lirik kechinma ham lirik qahramon, ham boshqa bir shaxs (personaj) tilidan ifodalanadi. Bunday she’rlarda lirik qahramon bilan birga personaj ishtiroki ham kuzatiladi. Personajli lirikada ”o‘zga shaxs she’r subyektlaridan biriga aylanadi, uning tilidan ifoda etilgan lirik kechinma (o‘y-fikr, his-tuyg‘u) mustaqil g‘oyaviy-badiiy qimmat kasb etib, she’r dialogiklik(polifoniklik) xususiyatiga ega bo‘ladi. [3, 224]

Rersonajlarning ishtirokiga ko‘ra, personajli lirika dialogik yoki polifonik xarakterda bo‘ladi.

Personajli lirikaning dialogik xususiyati kechinma ifodasida subyektiv tenglikni yuzaga keltiradi. Adabiyotshunoslikda tarixiy va nazariy poetika sintezi asosida yangi ilmiy-nazariy qarashlarni kashf etgan M.Baxtin[1,8]ning dialog nazariyasi personajli lirikaning metodologik asosi hisoblanadi desak, xato bo‘lmaydi. M.Baxtingacha dialogik nutq shakli tarixan har uchala adabiy tur doirasida yashab kelgan bo‘lsa-da, uning spetsifik jihatdan dramatik turga yaqinligi deyarli barcha nazariy adabiyotshunoslik manbalarida qayd etib kelingan. Dialog hodisasi, asosan, ikki qutbaro munosabatning dialektik birligi deb tushunilgan. Bunda dialogik vaziyatdagi aks ta’sir va buning natijasida paydo bo‘ladigan harakatga urg‘u berilgan. Baxtin dialog nazariyasining yangiligi shundaki, u ayni hodisaning yagona qutb doirasida voqe bo‘lish qonuniyatini badiiy asar va undagi inson obrazi tahlili misolida ochib berdi. [1, 12]

Baxtinning dialog nazariyasi nasriy asar misolida tahlil etilgan bo‘lsada, bevosita tirik jarayon, jonli so‘z, ayniqsa, faoliyatdagi spiralsimon munosabatini yuzaga keltirishi badiiy asar dunyosida harakatlanuvchi odam obrazining doimiy muloqot vaziyatida yashashi, unga oid har qanday nutq mohiyatida dialog turishi subyekt hissiyotini personajlarga ko‘shish orqali ifoda etadigan personajli lirikaga ham tegishli deyish mumkin.

O‘zbek adabiyoti rivojinng har bir davriga oid adabiy manbalarda personajli lirika namunalarini uchratish mumkin. Xususan, XX asr boshlarida yashab ijod etgan jadid ijodkorlaridan Avloniyning “Oila munozarasi” she’ri, Hamzaning “Oq gul” to‘plamidan “Erlar va qizlar aytishuvi”, “Bir kishining bor edi to‘rt bolasi”, “Mevalar Mojaro Fitrat, Cho‘lpon, Usmon Nosir hamda shoir Hamzaning ijodida personajli lirika namunalari mavjud. Yangi o‘zbek she’riyati vakillari Erkin Vohidovning “Kosmonavt va shoir”, “Lola”, “Sharq ertagi”, “Qalamhaqi va oylik” kabi she’rlari dialogik xarakterdagi personajli lirika namunasidir.

Xulosa va takliflar. Adabiyotshunos U.Hamdamovga ko‘ra, personajli lirika teatr san’atining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog‘liq adabiy hodisadir.[6, 274] Personajli lirikada subyektlar polifoniyasi kuzatiladi. Bu personajlar harakatini ta’minlovchi asosdir. Hamzaning “Bir kishining bor edi to`rt bolasi…”, Erkin Vohidovning “Ona tilim o‘lmaydi”, “Tushlik tanaffus”, “Shum bola”, Abdulla Oripovning “ Tulki falsafasi”, “Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi”, “Sharq hikoyasi” kabi she’rlari polifonik xarakterdagi personajli lirika namunasi hisoblanadi. Bugungi kun she’riyatida paradoksal holat kuzatilmoqda, unga ko`ra, tasvir bilan birga, subyekt tuyg‘u, hissiyot, voqea yoki voqelik haqida “gapira” boshladi, ayni holat lirikada dramatizmni, dramatik unsurlarning kuchayishiga olib kelmoqda bu esa, an’anaviy she’rga nisbatan modifikatsiyani paydo qiladi. Shu paytgacha poema va dostonlarda mavjud bo‘lgan bunday sinkretik usul bugungi kunda tasniflanayotgan ijroviy, personajli va voqeaband lirika namunalarida ham uchraydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, personajli lirika namunalari subyektning ko‘chishi bilan xarakterlanadi va she’rda hissiyot, kechinma tasvirida epik elementlarni hosil qiladi. Bu xususiyat o‘quvchining she’r mazmun mohiyatini to‘liq anglashi uchun zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baxtin M., Romanda zamon va xronotop shakllari. – Тошкент: Akademnashr , 2015 - Б. 8.
2. Поспелов Г.Н. Лирика. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1976. – С.103.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 394.
4. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi NM1U, 2005. B.173.
5. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr , 2013 - Б. 224., 248.
6. Улуғбек Ҳамдам. Янги ўзбек шеърияти. – Тошкент: ADIB, 2012. – Б.274., 270.
7. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2022. – 252 b.
8. To‘xliyev B. va boshqalar. Adabiyot (majmua): akademik litseylar ikkinchi bosqich o‘quvchilari uchun. – Toshkent: Bayoz, 2018. – 207 b.
9. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979. – 365 b.

ENHANCING CRITICAL THINKING SKILLS IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: STRATEGIES AND OUTCOMES

Juraeva Gulkhayo Bakhodir kizi
Turin Polytechnic University in Tashkent
Acting associate professor, PhD
gjuraeva77@gmail.com
ORCID 0009-0000-9194-571X
UDC:378.1:811.111.

Abstract. Critical thinking skills are vital for academic success and effective communication in the globalized world. This article explores strategies for enhancing critical thinking in English language learning, examining contemporary approaches and their impact on student outcomes. Through a comprehensive literature review, innovative methods for fostering critical thinking are discussed, followed by an analysis of results from recent studies and practical applications. The article concludes with a summary of findings and recommendations for educators.
Key words: critical thinking, Bloom's Taxonomy, Project-Based Learning, Task-Based Learning.

INGLIZ TILINI O‘RGANISHDA TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI OSHIRISH: STRATEGIYALAR VA NATIJALAR

Annotatsiya. Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari globallashgan dunyoda akademik muvaffaqiyat va samarali muloqot uchun juda muhimdir. Ushbu maqola ingliz tilini o‘rganishda tanqidiy fikrlashni kuchaytirish, zamonaviy yondashuvlar va ularning talabalar natijalariga ta’sirini o‘rganish strategiyasini o‘rganadi. Keng qamrovli adabiyotlarni o‘rganish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning innovatsion usullari muhokama qilinadi, so‘ngra so‘nggi tadqiqotlar va amaliy qo‘llanmalar natijalari tahlil qilinadi. Maqola o‘qituvchilar uchun topilmalar va tavsiyalarning qisqacha mazmuni bilan yakunlanadi.
Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, Bloom taksonomiyasi, loyihaga asoslangan ta’lim, vazifalarga asoslangan ta’lim.

Introduction. In today's globalized world, proficiency in English extends beyond mere communication; it encompasses the ability to think critically and engage in complex problem-solving. Critical thinking—defined as the ability to analyze, evaluate, and synthesize information—plays a crucial role in effective communication and academic success. For English language learners (ELLs), developing these skills is particularly important, as it not only enhances their language proficiency but also prepares them for diverse and dynamic environments. The demand for critical thinking skills is evident across various sectors, including academia, business, and technology. Educational systems worldwide are increasingly recognizing the need to foster these skills from an early age. However, integrating critical thinking into English language learning presents unique challenges and opportunities. While traditional language instruction often emphasizes rote memorization and grammatical accuracy, contemporary educational approaches advocate for more holistic and interactive methods that promote higher-order thinking [1].

This article explores effective strategies for enhancing critical thinking in English language instruction. By examining contemporary teaching methods and their impact on student outcomes, we aim to provide a comprehensive understanding of how educators can cultivate these essential skills. The discussion includes a review of relevant literature, an analysis of recent research findings, and practical recommendations for implementation in the classroom.

Literature review. The importance of critical thinking in education has been widely recognized, and its relevance to English language learning has been the focus of various studies. This literature review discusses the theoretical frameworks, instructional strategies, and empirical findings.

Critical thinking is rooted in cognitive development theories that emphasize the importance of higher-order thinking skills. According to Bloom's Taxonomy [2], critical thinking encompasses skills such as analysis, evaluation, and synthesis, which are essential for higher-level cognitive processes. Ennis [3] defines critical thinking as the process of thinking reflectively and actively, with the intention of making informed decisions. Several instructional strategies have been identified as effective in promoting critical thinking among ELLs: Task-Based Learning (TBL): TBL focuses on using meaningful tasks to engage students in real-world problem-solving. Willis [4] highlights that TBL encourages students to use language creatively and critically by completing tasks that mimic authentic situations.

Socratic Questioning: Socratic questioning involves asking open-ended questions that challenge students to think deeply and articulate their reasoning. Paul and Elder [5] argue that this method helps students develop analytical skills and engage in reflective thinking. Project-Based Learning (PBL): PBL involves students working on extended projects that require critical thinking and collaboration. Thomas [6] asserts that PBL fosters student engagement and deeper understanding by connecting learning to real-life contexts. Debate and Discussion: Structured debates and discussions allow students to explore different perspectives and develop argumentative skills. According to McPeek [7] , these activities promote critical thinking by encouraging students to analyze and defend their viewpoints[8].

Research has shown that incorporating critical thinking strategies into English language instruction can lead to significant improvements in student outcomes. For example, a study by Yang and Kuo [9] found that task-based activities enhanced students' ability to use language critically and creatively. Similarly, Lee [10] reported that Socratic questioning improved students' analytical and reflective skills, leading to better language proficiency.

Methods. To assess the effectiveness of various strategies for enhancing critical thinking in English language learning, this study employed a mixed-methods approach. The research design included qualitative and quantitative components to provide a comprehensive analysis of instructional practices and their impact on student outcomes. The study involved 60 English language learners from Turin Polytechnic University in Tashkent. Participants were divided into experimental and control groups, with 30 students in each group. The experimental group received instruction incorporating critical thinking strategies, while the control group followed a traditional English language curriculum.

Data collection. Data were collected through pre- and post-intervention assessments, including: Critical Thinking Tests: Standardized tests were administered to measure students' critical thinking skills before and after the intervention. Language Proficiency Tests: Tests were used to evaluate improvements in students' language proficiency, including reading comprehension, writing, and speaking. Surveys and Interviews: Students and teachers completed surveys and participated in interviews to provide qualitative insights into the effectiveness of the instructional strategies. The experimental group engaged in a 12-week intervention that included: Task-Based Activities: Students completed projects and problem-solving tasks designed to stimulate critical thinking and language use. Socratic Questioning Sessions: Teachers incorporated Socratic questioning into regular lessons to encourage deeper analysis and discussion. Debate and Discussion Sessions: Structured debates and discussions were held to develop students' argumentative and analytical skills.

Results and discussions. Quantitative Results. The quantitative data revealed significant improvements in critical thinking skills and language proficiency among the experimental group: Critical Thinking Scores: The experimental group showed a 25% increase in critical thinking test scores compared to a 5% increase in the control group. Language Proficiency: The experimental group demonstrated notable improvements in reading comprehension and writing, with average scores increasing by 20% compared to 10% in the control group. Qualitative Findings. Surveys and interviews provided further insights into the effectiveness of the strategies:

Student Feedback: Students in the experimental group reported increased engagement and satisfaction with their learning experience. They valued the opportunities to explore different perspectives and apply their language skills in practical contexts.

Teacher Observations: Teachers noted that the critical thinking strategies led to more dynamic and interactive classroom environments. They observed improved student participation and deeper understanding of the material.

Discussion. The findings support the effectiveness of integrating critical thinking strategies into English language instruction. Task-based learning, Socratic questioning, and debate activities not only enhanced students' critical thinking skills but also positively impacted their language proficiency. These methods encourage active engagement and provide students with opportunities to apply language skills in meaningful ways.

Conclusion. Enhancing critical thinking skills in English language learners is crucial for their academic and professional success. This study demonstrates that incorporating strategies such as task-based learning, Socratic questioning, and debates can significantly improve both critical

thinking and language proficiency. Educators are encouraged to adopt these methods to create more engaging and effective learning environments.

Recommendations. Curriculum Design: Integrate critical thinking activities into the English language curriculum to promote higher-order thinking skills.

Teacher Training: Provide professional development for teachers to effectively implement critical thinking strategies and foster a supportive learning environment.

Further Research: Conduct longitudinal studies to explore the long-term effects of critical thinking interventions on language learning outcomes.

By adopting these recommendations, educators can better support students in developing the critical thinking skills necessary for success in an increasingly complex and interconnected world.

References

1. Rusdi O., Narentheren K., Kamarul A. (2021) Learning Approach in Graduate Studies: International Journal of Information and Education Technology, Vol. 11, No. 11, November, p. 546

2. Bloom, B. S. (1956). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. New York: David McKay Company.

3. Ennis, R. H. (1987). A Taxonomy of Critical Thinking. In J. Baron & R. Sternberg (Eds.), Teaching Thinking Skills: Theory and Practice. New York: W. H. Freeman.

4. Willis, J. (1996). A Framework for Task-Based Learning. London: Longman.

5. Paul, R., & Elder, L. (2001). Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. Upper Saddle River, NJ: Pearson Education.

6. Thomas, J. W. (2000). A Review of Research on Project-Based Learning. San Rafael, CA: Autodesk Foundation.

7. McPeek, K. (2005). Debate and Discussion in the English Language Classroom. English Teaching Forum, 43(3), 22-29.

8. Pinker S. (2015) Words and Rules: Ingredients of Language.-New York: Basic Books, p. 40

9. Yang, Y., & Kuo, S. (2013). The Impact of Task-Based Learning on English Language Learners' Critical Thinking Skills. International Journal of Language and Linguistics, 1(1), 45-55.

10. Lee, J. (2018). The Effectiveness of Socratic Questioning in Enhancing Critical Thinking and English Proficiency. Journal of Language Teaching and Research, 9(2), 304-314.

THEMATIC CLASSIFICATION OF TERMS IN THE FIELD OF FINE ARTS AND DESIGN

Fazilat Kodirova
Advisor to the Director of the Agency
of innovative development, dotsent
fazilatkodirova@gmail.com
ORCID 0000-0003-0098-4903
UDK 7.01:003.4

Annotation. This article explores the thematic classification of terminology used in the field of fine arts and design. Through this approach, specialized terms developed in various subfields—such as painting, sculpture, architecture, graphic design, industrial design, fashion design, digital art, web design, and others—are systematized. The study aims to identify the origins, meanings, application areas, and functional features of these terms by grouping them thematically. Moreover, the article highlights the significance of thematic classification in organizing terminological fields, enhancing interdisciplinary integration, and simplifying practical design processes. The paper serves as a theoretical and practical foundation for the systematic study of visual arts and design terminology.

Keywords: Visual arts, design, terminology, thematic classification, painting, sculpture, architecture, graphic design, industrial design, word formation, artistic heritage, decorative arts, interior design, landscape design, contemporary art, digital art, multimedia design, fashion design, web design, eco-design, conceptual art.

TASVIRIY SAN’AT VA DIZAYN SOHASIDAGI ATAMALARNING MAVZUVIY TASNIFI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasviriy san’at va dizayn sohasida ishlatiladigan atamalar mavzuviy tasnif asosida o‘rganiladi. Mazkur yondashuv orqali turli yo‘nalishlar — rangtasvir, haykaltaroshlik, me’morchilik, grafik dizayn, sanoat dizayni, moda dizayni, raqamli san’at, veb-dizayn va boshqa sohalarda shakllangan maxsus terminlar tizimlashtiriladi. Tadqiqotda atamalarni guruhlash orqali ularning kelib chiqishi, mazmuni, qo‘llanish sohasi va funksional xususiyatlari aniqlanadi. Shuningdek, mavzuviy tasniflashning terminologik maydonlarni tartibga solish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish va amaliy

dizayn faoliyatida yondashuvni soddalashtirishdagi roli yoritiladi. Maqola tasviriy san'at va dizayn terminologiyasini tizimlashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, dizayn, atamashunoslik, mavzuviy tasniflash, rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilik, grafik dizayn, sanoat dizayni, so'z yasash, badiiy meros, bezak san'ati, interyer dizayni, landshaft dizayni, zamonaviy san'at, raqamli san'at, multimedia dizayn, moda dizayni, veb-dizayn, ekologik dizayn, konseptual san'at.

Introduction. Terminology plays a crucial role in various fields, including visual arts and design. The classification of terms within these disciplines is essential for understanding their structure, historical evolution, and professional applications. In visual arts and design, thematic classification is particularly important due to the diverse subfields that exist within these disciplines. Each subfield—painting, sculpture, architecture, graphic design, and industrial design—has developed its own specialized terminology. This paper aims to examine the thematic classification of visual arts and design terminology, emphasizing the role of systematic categorization in structuring terminological fields.

Literature review. The thematic classification of terms is the first and essential stage in studying the system of terms in the fields of fine arts and design. It is well known that in the classification of terms, attention is often given to their semantic analysis and expression. In this regard, the perspective of D.N. Shmelev is noteworthy. According to him, the study of thematic groups contributes to revealing the processes of general lexical development, while the differentiation of thematic groups helps determine the interconnection of words and their accurate reflection of reality[1].

Linguists take different approaches to the classification of terms. In particular, A.A. Reformatsky argued that the grouping of terminology should be carried out based on the system of a specific field of science or industry and should form a distinct paradigm[2]. R. Doniyorov identifies the following objectives in determining thematic groups:

1) Forming an understanding of the overall terminological richness of the studied system;

2) Providing information about the word-formation possibilities of the studied system.

3) Identifying the specific word-formation models within each thematic group of the studied system[3].


In the thematic grouping of terms, the opinion of E. Begmatov can be taken as a basis. According to the scholar, thematic groups represent two concepts: one of the linguistic methods of classifying words and the lexical groups formed from the classified linguistic material using this method. First and foremost, the division of words into thematic groups, as well as the number, richness, or scarcity of these groups, depends on the linguistic material. Many thematic groups of words (such as the names of food, clothing, household items, kinship terms, etc.) are found in many languages or are common across languages. However, at the same time, some thematic groups present in one language may not exist in another or may be narrower in scope. For example, thematic groups denoting plant and tree names are absent in the language of the Nenets people living in the far north or are significantly narrower compared to Uzbek[4].

The creation of a classification of specialized terms, especially one based on precise thematic principles, is of great importance. Such a classification allows for the organization of words and terms according to their meanings based on semantic similarities, helping to identify the similarities and differences among individual groups and subgroups included in the general terminological field.

Below, we will discuss the thematic classification of terms that are directly or indirectly related to the fields of fine arts and design. Thematic classification is carried out by dividing terms into main groups consisting of smaller subgroups. When grouping terms, attention is given to the similarity or commonality of the objects, phenomena, and processes they represent.

Thematic groups of fine arts terms. Fine arts are distinguished by their aesthetically valuable works that express vivid and visually engaging imagery. Fine art pieces can be both imaginary and even realistic (such as screen decorations or illustrated letters in books). However, regardless of their significance or realism, these works always possess a visible and specific theme, despite the constraints of space and time. Creativity is a fundamental characteristic of fine arts, as each artistic image is connected to its history of creation and ensures its development. The main types of fine arts include painting, graphics, sculpture, and architecture (see Diagram 1.3.1).

1.3.1- Diagram



Main types of fine arts. Terms Belonging to the Painting Group: Here are the English translations of the Uzbek painting-related terms: *painting: easel painting, monumental painting, miniature, decorative painting, theatrical-decorative painting.*

Painting Genres are Expressed Through the Following Terms: *portrait; still life; self-portrait; landscape; botal genre, the genre of morena; anamalistic genre; household genre*.

Graphics Group : Graphics is an international term derived from the Greek word "grapho", meaning "I write" or "I draw"[5].

Thematic Groups of the Graphics Direction are Divided into the Following Types: Note: "Machine graphics" is not the correct translation for "дастгоҳли графика." The appropriate term is "Easel graphics.

Terms Related to the Sculpture Group: Sculpture originates from the Latin words "sculptura" and "sculpo," meaning "I carve, I cut." Sculpture is the art of creating forms and shapes..

The art of sculpture, like other forms of visual art, can depict both real and unreal, imaginary and real events.

The English terms welding, patina, lost-wax casting, carving, and glaze are related to sculpture techniques and surface treatments but do not directly correspond to the given Uzbek terms. Let me know if you need a more precise list![6].

Another branch of visual art is architecture. The word architecture originates from the Latin "architectura", meaning the art of designing and constructing buildings, structures, and architectural complexes.

Terms Related to the Architecture Group: Uzbek to English Translation of Architecture-Related Terms: Construction and building projection, urban planning, landscape design, interior design, small-scale architecture, paper architecture. инглиз тилида: *facade,grilles, molding, panel, slate, tower, setback*[7].

Some of the terms related to the architecture group (such as landscape design and interior design) are also associated with design activities, highlighting the interconnection between architecture and design.

One of the fundamental concepts of visual art is painting. The word originates from the Greek "zographia", meaning "a copy transferred onto transparent paper or fabric."[8].

Types of Painting Art:Monumental Painting (Panno, fresco, wall paintings), Decorative Painting (Illustrations, ornaments, decorative art objects such as fabric, items, dishes, jewelry, artistic objects), Scenic Art (Theatrical painting), Easel Painting (Independent artworks), Miniature Painting (Small-scale paintings on paper, book pages, parchment, papier-mâché, decorative items, jewelry). Each branch of painting art has its own system of terms. Painting-related terms can be divided into two categories:

1) Fundamental concepts that express the role and significance of artworks in history and culture. These include style, movement, school, genre, and other defining aspects.

2) Professional terms used among specialists (craftsmen, artists, art historians, cultural experts, etc.) to describe artistic activities and the characteristics of the creative environment (e.g., palette knife, gesso).

In conclusion, the terminology of the visual arts field is classified into smaller thematic groups. This classification is related to the existence of various internal directions within the field, with each subcategory distinguished by its own system of terms.

Thematic Groups of Design Terminology. The smaller thematic groups of design terminology provide a clear understanding of the artistic and practical aspects of project-based

creative activity. These groups categorize design concepts based on their functional and aesthetic applications, ensuring a structured approach to studying the field.

In recent years, the field of design has been expanding its internal directions. Beyond the widely established "Industrial Design," new branches have emerged, such as: Architectural Environment Design, Landscape Design, Interior Design, Robotic Design, Puppet Design, Computer Design, Futurodesign, Fashion and Apparel Design.

The emergence of these new directions has led to the formation of specialized terminology, contributing to the evolution and development of design-related vocabulary. As these fields continue to grow, design terminology will adapt to reflect innovations, interdisciplinary collaborations, and technological advancements. The thematic classification of design-related terminology can be defined as follows:

Industrial Design Terminology Group: In Uzbek: Jihozlar dizayni (household appliances, furniture, equipment), maishiy texnika (home electronics), mebel (furniture), asbob-uskuna (tools and equipment), avtomobil dizayni (automobile design), and others.инглиз тилида: *industrial design: furniture design, home appliances, cables, equipment, car design*.

Graphic Design Terminology Group: In Uzbek: Tipografiya (typography), fotografiya (photography), illyustratsiya (illustration), and others. In English: *graphic design: typography, photography, illustration* кабилар.

Landscape Design Terminology Group:

In Uzbek: Kichik me’moriy shakllar, yoritishni tashkil etish, bog‘dagi akvarium, hovuz, daraxt, yashil bo‘shliqlar. In English: Small architectural forms, lighting arrangement, garden aquarium, pool, trees, green spaces.

Web Design Terminology Group: In Uzbek: Sayt, kollaj, maket, vёрстка, dastur, marketing. In English: Site, collage, layout, typesetting, software, marketing.

Eco-Design Terminology Group:

In Uzbek: Shahar, atrof-muhit, projektlash. In English: Urban, environment, projection..

Clothing Design Terminology Group:

In Uzbek: kiyim-kechak, korset, model, aksessuar, brend.

In English: clothing, corset, model, accessory, brand.

In recent years, many modern design types have emerged in our country. As a result, the Uzbek design terminology system has incorporated terms such as ergodesign, futuroidesign, applied design, exhibition design, engineering design, art design, computer design, lighting design, and phytodesign.

Notably, lighting design has developed as the art of decorative illumination for buildings, structures, fountains, courtyards, and parks. Additionally, using Japanese-style compositions, the art of decorating flowers, leaves, branches, roots, stones, buildings, and residential areas has given rise to phytodesign or floristic design. The traditional applied decorative arts, such as wood carving, coppersmithing, and jewelry making, which have long been part of craftsmanship, are now referred to as blacksmith design and jewelry design.

Similarly, the mastery of creating original and intricate hairstyles has begun to be expressed by the term hairdressing design. In our country, the application of traditional "Chorbog" and "Khiaban" styles in garden-park construction and landscape architecture has led to the emergence of new terms in these fields. For example, within the Chorbog style, the following terms have emerged: Stepped Chorbog, Chorbog-Khiaban, Chorchaman, Chorchinor

Landscape architecture and horticultural design have contributed to the development of gardening and landscape design.

Conclusion. The classification of terminology in visual arts and design plays a fundamental role in structuring knowledge, ensuring effective communication, and preserving artistic heritage. By categorizing terms thematically, professionals and researchers can better understand the evolution, application, and significance of different artistic disciplines. As visual arts and design continue to evolve, the development of new terms reflects emerging trends, technological advancements, and cultural transformations. A systematic approach to terminology classification not only aids in academic research and professional practice but also facilitates interdisciplinary collaboration, contributing to the ongoing advancement of the field. Therefore, maintaining a structured and well-defined terminological system is essential for fostering innovation and preserving the integrity of visual arts and design.

List of used literature

1. Шмелёв Д.Н. Проблемы семантического анализа лексики (на материале русского языка). Наука, 1973. – М., 1973. – 9 с.
2. Реформатский А.А. Термин, как член лексической системы языка // Проблемы структурной лингвистики. – М., 1968. – С. 102-105.
3. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 76-78.
4. Кадирбекова Д.Х. Инглизча-ўзбекча ахборот технологиялари терминологияси ва лексикографик муаммолари. Филоло.ф.д..... дисс. – Тошкент, 2017. - 22 б.
5. https://qomus.info/encyclopedia/cat-g/grafika-uz/
6. https://www.yourdictionary.com/sculpture.
7. https://architecturaltrust.org/outreach/education/glossary-of-architectural-terms/
8. Ҳасанов Р. Тасвирий санъат асослари. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодийт уйи, 2009. – 12 б.

O‘ZBEK XALQ PSIXOLOGIYASI (O‘ZBEK XALQ MAQOLLARI) YOSHLARDA IRODAVIY SIFATLARNI TARBIYALASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Jabborov Azim Meyliqulovich
Qarshi davlat universiteti professori
psixologiya fanlari doktori
jamshidshoh@gmail.com
ORCID 0009-0001-4856-9496
UDK 159.925

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek xalq psixologiyasi (o‘zbek xalq maqollari va hikmatlari)ga tayanib o‘smirlarda irodaviy sifatlarni tarbiyalashning muhim jihatlari haqida so‘z boradi. *Xalq donishmandligida ayniqsa maqollar ixcham shaklga, ammo chuqur mazmunga yega bo‘lib, ularda xalqning turmush tarzi, ma’naviy qiyofasi, hissiy-irodaviy holati, dunyoqarashi, jamiyat va tabiatga bo‘lgan munosabati yorqin ifodalangan.* Hozirgi paytda milliy xususiyatlar va irodaviy sifatlarning shakllanish bosqichlari, uning tarkibiy qismlari, ularga ta’sir etuvchi muhim omillar, milliy ongning ontogenezi, o‘ziga xos xususiyatlari va o‘zini-o‘zi anglash kabi muammolarning o‘rganilishi psixologiya fani uchun dolzarb masalalar sirasiga kiradi. *O‘zbek xalq maqollari shu xalq psixologiyasining amaldagi in’ikosi bo‘lganligi uchun hozirgi ta’lim tizimining hamma bosqichlarida undan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.*

Tayanch tushunchalar. Xalq psixologiyasi, o‘zbek xalq maqollari, irodaviy sifatlar: maqsadga intilish, intizomlilik, o‘zini tuta bilish, o‘ziga ishonganlik, chidamlilik, sabotlilik, qat’iyatlilik, botirlik, mustaqillik, mardlik.

UZBEK FOLK PSYCHOLOGY (UZBEK FOLK PROVERBS) AS AN IMPORTANT FACTOR IN EDUCATING WILL-POWERING QUALITIES IN YOUTH

Abstract. This article talks about the important aspects of training voluntary qualities in teenagers based on Uzbek folk psychology (Uzbek folk proverbs and wisdom). In folk wisdom, especially proverbs have a compact form, but a deep meaning, and they vividly express the people's lifestyle, spiritual image, emotional-will state, worldview, attitude to society and nature. At the present time, the study of problems such as the stages of formation of national characteristics and voluntary qualities, its components, important factors affecting them, the ontogenesis of national consciousness, its characteristics and self-awareness are urgent issues for the science of psychology. Since Uzbek folk proverbs are a practical reflection of the psychology of this nation, it is appropriate to use them effectively at all stages of the current education system.

Key words. Folk psychology, Uzbek folk proverbs, willful qualities: striving for a goal, discipline, self-control, self-confidence, endurance, perseverance, perseverance, bravery, independence, courage.

Kirish. O‘zbek xalqining o‘tmish tarixiga e’tibor berganimizda psixologiya va badiiy adabiyot bir-biri bilan bog‘liq holda taraqqiy etganligini guvohi bo‘lamiz. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi va xalq psixologiyasida bu uzviy bog‘liqlik asrlar osha rivojlanib kelganligini ko‘ramiz. Psixologiya bilan badiiy adabiyotning asosi – xalq og‘zaki ijodi tarixan va mantiqan uzviy bog‘liqdir. «Adabiyot» - odob, xulq, axloq, «yot» - ilm, ya’ni adab yoki xulq – atvor haqidagi ta’limot ma’nosini anglatadi. Adabiyot - ma’naviyat, hayot darsligi yoki jamiyat hayotiga xos tarbiyashunoslikdan iboratdir. Xalq donishmandligi namunalari ichida ayniqsa maqollarning yoshlarda irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyati beqiyosdir.

Psixologiyada xalqimizning milliy xususiyatlari va hissiy-irodaviy holatlari kam o‘rganilganligi bilan alohida ajralib turadi. Hozirgi paytda milliy xususiyatlar va irodaviy sifatlarning shakllanish bosqichlari, uning tarkibiy qismlari, ularga ta’sir etuvchi muhim omillar, milliy ongning ontogenezi, o‘ziga xos xususiyatlari va o‘zini-o‘zi anglash kabi muammolarning o‘rganilishi psixologiya fani uchun dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda suhbat, intervyu, biografik metod, M.V.Chumakovning «Shaxsning irodaviy sifatlari» testi (savolnomasi) – E.G‘.G‘oziyev tomonidan modifikatsiya qilingan varianti, R.S.Nemovning «Iroda kuchini aniqlash” so‘rovnomasi va YE.P.Ilin va YE.K.Feshenkoning “Chidamlilik bo‘yicha o‘zini-o‘zi baholash” metodikasi hamda matematik-statistik metodlardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Dunyo fanlari taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ mutafakkir bobokalonlarimiz avvalo mudarris, murabbiy, adib va mashhur ilm darg‘alari bo‘lganlar. Ular uchun xalq og‘zaki ijodi va badiiy adabiyot ham darslik, ham ma’naviy oziq manbai, ham ijod mahsulini yorituvchi vosita bo‘lgan.

Darhaqiqat, Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri”, Abu Rayhon Beruniyning

“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Abu Ali Ibn Sinoning “Donishnoma”, “Tibbiy doston”, Sa’diy SHeroziyning “Guliston”, “Bo‘ston”, Yusuf Xoc Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Ahmad Yassaviyning “Devoni Hikmat”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbatul xaqoyiq”, Alisher Navoiyning “Mahbub-ul-qulub”, “Hayratul abror” kabi asarlarida badiiylik va psixologik uyg‘unlik mustahkam o‘rin topgan.

Ta’lim-tarbiyada milliylik va umuminsoniylik birligiga erishish avvalo psixologiyaning milliy asosga ega bo‘lishiga bog‘liq. Psixologiya ilmidagi inqirozning tub ildizlari, eng avvalo, uning milliy zaminidan, ko‘hna Sharqning ming yillik teran an’analaridan uzilib qolganligidadir. Psixologiya bilan badiiy adabiyotning tarixan bir-biri bilan bog‘liqligi va o‘zaro aloqasining metodologik va metodik tizimini yaratish psixologiya tarixiga doir tadqiqotlarning samaradorligini ta’minlaydi, deb ishonamiz

Shu bois, millat madaniyati, turmush tarzi va tarbiya tizimi, xalqning milliy ongi, milliy xarakteri, hissiy-irodaviy holati millatning o‘ziga xosligini belgilovchi asosiy mezonlardir.

Psixologiya insonning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadigan fan sifatida milliy psixologiyaning asosiy manbai sifatida o‘zbek xalq og‘zaki ijodini psixik rivojlanishning asosi sifatida qarashni taqozo etadi. Bu bog‘liqlik psixologiya muammolarini xalq og‘zaki ijodida aks ettirilishida va psixologik ta’limda xalq og‘zaki ijodidan keng foydalanishda namoyon bo‘ladi.

Shu paytgacha o‘zbek xalq og‘zaki ijodining psixologik asoslari, rivojlanish qonuniyatlari, o‘quv – tarbiya jarayonlaridagi ahamiyati va yoshlar kamolotidagi o‘rni psixologik nuqtayi nazardan o‘rganilmagan.

Shunga ko‘ra biz, o‘smirlar (11-15 yosh) irodaviy sifatlarini shakllantirishda o‘zbek xalq og‘zaki ijodining ahamiyatini (o‘zbek xalq maqollari va hikmatlaridan foydalanish tizimini) ilmiy asoslashga harakat qildik.

Maqollar ixcham shaklga, ammo chuqur mazmunga ega bo‘lib, ularda xalqning turmush tarzi, ma’naviy qiyofasi, dunyoqarashi, jamiyat va tabiatga bo‘lgan munosabati yorqin ifodasini topgan. Maqollar xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelganligi sababli ular o‘zida kishilar hayotining g‘oyat xilma-xil tomonlarini mujassamlashtirgan, ayniqsa, turmush tarzining qiyin, og‘ir va muammoli, shu barobarida meyoriy – axloqiy jihatlarini aks ettirishi bilan bog‘liq zarur irodaviy sifatlar va irodaviy barqarorlikni taqozo etadi.

Maqollar inson psixologiyasining, unda shakllangan insoniy sifat va fazilatlarning (shuningdek, irodaviy sifat va fazilatlarning) yoki insoniy sifat va fazilatlarga bo‘lgan munosabatning til vositasidagi ifodasidir. Har bir xalq yoki millat tomonidan yaratilgan xalq og‘zaki ijodi, jumladan xalq maqollari va hikmatlari shu xalq farzandlari uchun tarixning hamma davrlarida inson hayoti uchun zarur bo‘lgan hissiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalash uchun xizmat qilgan va takomillashib kelgan.

O‘zbek xalq maqollari shu xalq psixologiyasining amalda sinalgan in’ikosi bo‘lganligi uchun hozirgi ta’lim tizimining hamma bosqichlarida undan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim maktalarida tahsil olayotgan o‘smirlarda ijtimoiy fanlarni o‘qitish jarayonida o‘zbek xalq maqollariga tayanish mavzu mohiyatini, ya’ni inson psixikasi mohiyatini, insonga xos sifat hamda fazilatlar, eng muhimi shaxsga xos hissiy-irodaviy sifat va fazilatlarning shakllanish qonuniyatlarini ilmiy va hayotiy xulosalarga tayangan holda tushuntirishga imkon beradi.

Maqollar ixcham shaklga, ammo chuqur mazmunga ega bo‘lib, ularda xalqning turmush tarzi, ma’naviy qiyofasi, dunyoqarashi, jamiyat va tabiatga bo‘lgan hissiy- irodaviy munosabati to‘liq ifodasini topgan. Hozirgi Markaziy Osiyo hududida yashagan xalqlar doimo yuksak axloqiyligi, uzoqni ko‘ra bilishi, mardligi, qatiyatliligi va olijanobligi bilan ajralib turgan. «Tinchlik va xotirjamlikni bersin» degan ibora xalqimizning azaldan tinchliksevar va mard ekanligini ifodalovchi dalildir. Vatanga sodiqlik, mardlik, qatiylik, dadillik, xalqqa muhabbat, qahramonlik, kamtarlik, haqgo‘ylik, samimiylik, halollik kabi yuksak axloqiy va irodaviy fazilatlar bizda doimo qadrlangan. Zero, taniqli rus yozuvchisi L.N.Tolstoy maqollarning xalq hayoti, ruhiy dunyosi bilan naqadar yaqinligi haqida to‘xtalib: «Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalqning siymosini ko‘raman», deb yozgan edi.

Tadqiqotning boshlanishida o‘zbek xalq og‘zaki ijodi – milliy ongning in’ikosi ekanligi nazariy jihatdan o‘rganilib tahlil qilindi. Unda milliy ongning psixologik talqini haqidagi ilmiy qarashlar, o‘zbek xalq milliy psixologiyasi tarkibiy qismi bo‘lgan hissiy-irodaviy holatlarning

o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi talqini yoritildi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodining muhim sohasi o‘zbek xalq maqollari o‘rganildi, o‘smirlarda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida misollar va namuna sifatida foydalanishi zarur bo‘lgan maqollar to‘plandi, tizimlashtirildi va tahlil qilindi hamda ijtimoiy- tarbiyaviy fanlarni o‘qitishda ulardan o‘rinli foydalanish rejalashtirildi. Shundan so‘ng, o‘qitish jarayonida foydalanish nazarda tutilgan o‘zbek xalq maqollarining quyidagicha tasinfi yaratildi va ularning irodaviy sifatlarni rivojlantirishdagi mohiyati psixologik nuqtayi nazardan talqin qilindi.

Zamonaviy psixologiyada irodaning tarkibiy qismlari yoki muhim sifatlari qatoriga maqsadga intilish, intizomlilik, o‘zini tuta bilish, o‘ziga ishonganlik, chidamlilik (sabr-toqat), sabotlilik, qat’iyatlilik (dadillik), botirlik (matonatlilik), mustaqillik, mardlik va boshqalar kiritiladi.

Maqsadga intilish — shaxsning o‘zidagi barcha kuch-quvvatlarni oldiga qo‘ygan maqsadiga qaratish, o‘z xatti-harakatlarini ko‘zlagan maqsadiga erishish vazifasiga bo‘ysundirish, har qanday qiyinchilik va to‘siqlarga qaramay maqsadni amalga oshirish uchun intilish qobiliyatidir. “Azob ko‘rmay – rohat yo‘q”, “Barvaqt qilingan harakat – hosilga berar barokat”, “Baxt yalqovga begona”, “Bir yil tut ekkan kishi, yuz yil gavhar terar”, “Bog‘ jamoli – bog‘bondan”, “Yerga oshatsang osh bitar, oshatmasang – tosh”, “Yozgi mehnat – qishgi rohat”, “Ishning o‘zini bilgincha, ko‘zini bil”, “Ko‘z – qo‘rqoq, qo‘l – botir”, “Mehnat qancha qiyin bo‘lsa, keti shuncha shirin bo‘lar”, “Mehnatdan kelsa boylik, turmushing bo‘lar chiroylik”, “Oltin o‘tda bilinar, odam – mehnatda”, “Tek turmasang – to‘q bo‘lasan”, “Tekinning minnati ko‘p – mehnatning ziynati ko‘p”, “Tog‘ni baland dema, talab qilsang chiqasan”, “Chumchiqdan qo‘rqqan tariq ekmas”, “Halol mehnat – yaxshi odat, berur senga saodat”.

Intizomlilik (mas’uliyatlilik) – jamiyat qonunlariga, axloq normalari va qoidalariga, milliy (umumbashariy) urf-odatlarga, ixtiyoriy hamda ongli ravishda bo‘ysunishda ifodalanuvchi inson sifatidir. “Har yerni qilma orzu, har yerda bor toshu tarozi”, “O‘g‘lingni sevsang, qulingdek ishlat”, “Qo‘nimi yo‘qning unimi yo‘q”, “Bor-bor ishga bor, ishlamagan nonga zor” “Gap bilguncha – ish bil”, “Yer egasi bo‘lma, mehnat egasi bo‘l”, “Ishlab topganning oshi lazzatli”, “Ko‘klam – mehnat bilan ko‘rkam”, “Erinchoqni er olmas”, “Yutuqning kaliti – mehnat”, “Yalqovlik – oxiri xo‘rlik”, “Qo‘rqoqning ko‘zi katta, dangasaning – so‘zi”, “Harakat, harakatda – barakat”.

O‘zini tuta bilish – odamning o‘z xatti-harakatlari, his-tuyg‘ulari, xulq-atvori kabilarni boshqara bilishda aks etuvchi iroda sifatidir. “Egri ko‘chadan yursang ham, to‘g‘ri yur”, “Yo‘ldan chiqsang ham, ko‘pdan chiqma”, “Boylik boylik emas, birlik boylik”, “Dasturxonga boqqan do‘st emas”, “Dil og‘ritgan do‘st emas”, “Ichdan buzilmay, qo‘shin yengilmas”, “Sen tinch – qo‘shning tinch”, “Ishdan qo‘rqmagan qishdan qo‘rqmaydi”, “Avval o‘yla, keyin so‘yla”, “Axmoqqa javob – sukunat”, “Kim gapirganiga boqma, nima gapirganiga boq”, “Nodon so‘zlar, dono ibrat olar”, “Odamning tizgini – aql”, “Oz so‘zla, ko‘p tingla”, “Yomonga yaxshilik qilsang, yoqangni yirtar”.

O‘ziga ishonganlik – o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarni amalga oshirish jarayonida jamiyatda amaldagi qadriyatlar va meyorlarga amal qilish hamda o‘zaro munosabatlarga kirishishda o‘zidagi mavjud bilim, malaka va mahoratlarga ishonish, shuningdek, mazkur faoliyatda aniq muvaffaqiyatga erishishga yo‘nalgan sifatlardir. “Botar kunning otar tongi bor”, “Bug‘doy eksang – bug‘doy o‘rasan, arpa eksang – arpa o‘rasan”, “Yaxshi niyat – yarim davlat” “Arslon bolasini tutmoq uchun, arslon uyasiga kirmoq kerak”, “Bilagidan ko‘ra, yuragiga qara”, “Bitmas ishning boshiga, botir kelar qoshiga”, “Jasur bo‘lsang yov qaytar”, “Ziyrakning aqli tosh yorar, nomardning mushti – bosh”, “Yigit so‘zidan qaytmas, arslon – izidan”, “Yigitning botirini maydonda sina”, “Odam safarda bilinar, botir – xatarda”, “To‘g‘ri yurdim, yetdim murodga,egri yurdim qoldim uyatga”.

Chidamlilik (sabr-toqatlilik) – maqsadga erishishda odamning ko‘pincha sovuq va issiqqa ham, ochlik-tashnalikka ham, betoblik va boshqa shu singari qiyinchiliklarga qaramay, barcha to‘siqlarni yengib, o‘z maqsadini ro‘yobga chiqarishga intilishda aks etuvchi ijobiy sifatdir. “Sabr qilsang g‘o‘radan halvo bitar, besabrlar bosh-oyog‘idan yetar (yo‘qolar)”, “Sabrning tagi – sariq oltin”, “Tindim tunda, tinmadim kunduzi, bo‘ldi qo‘y telpagim qunduzi”, “Azob ko‘rmay – rohat yo‘q”, “Terga botgan rohatga botar”, “Tirishgan tog‘dan oshar”, “Aqlinga aql qo‘sh, jahlinga – sabr”, “Odob bilan baxt topilar, sabr bilan taxt”, “Sabr achchiq mevasi shirin”, “Boyga kelin bo‘lguncha, kambag‘alga qiz bo‘l”, “Boylik murod emas, yo‘qlik uyat emas”, “Boyning ishi farmon bilan, yo‘qning ishi armon bilan”, “Odamni g‘am chiritar, temirni – nam”, “Ochlik ko‘cha

kezdirar, yalang‘ochlik uyga kirgizar”, “Yuragi to‘lganni yig‘isi ko‘p”.

Sabotlilik – shaxsning qabul qilgan qarorini bajarish va o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishish uchun, ko‘p vakt hamda muayyan qiyinchiliklarni yengish talab etilishiga qaramay, og‘ishmay intilishida gavdalanuvchi iroda belgisidir. “Salobatli bo‘lma – sabotli bo‘l”, “Boshliq bo‘lsang, boshli bo‘l”, “Yetti o‘lchab bir kes”, “Aslning xatosi yo‘q”, “Baxl avliyo bo‘lmas, avliyo – baxl”, “Insofli oshini yer, insofsiz – boshini”, “Non qadrini och bilar, kiyim qadrini – yalang‘och”, “Nomardga ishi tushmagan – mardning qadrini bilmas”, “Oriyatsiz odamdan qoch”, “O‘limdan xo‘rlik yomon”, “Qadrlasang qadring oshar, qadrsizdan hamma qochar” “Ofat ko‘rmay desang hushyor bo‘l”.

Qat’iyatlilik (dadillik) – shaxsning vaziyatni tezda baholab, o‘z vaqtida asosli, o‘ylangan va mustahkam qaror qabul qilishi, hech qanday ikkilanishsiz uni bajarishga kirishishidan iborat fazilatidir. “Oltovlon ola bo‘lsa, og‘zidagin oldirar, to‘rtovlon tugal bo‘lsa, tepadagin endirar”, “Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt”, “Vaqting ketdi – baxting ketdi”, “Farosatni befarosatdan o‘rgan”, “Farosatsiz falokatga yo‘liqar”, “Yaxshining nasihatiga kirmagan, yomonni yo‘liga yurar”, “O‘zi yuzsiz, so‘zi tuzsiz”, “O‘yidagini tilidan bil”, “O‘qish boshqa, uqish boshqa”, “Izzat tilasang ko‘p dema, sihat tilasang ko‘p yema”, “Och holini to‘q bilmas, kasal holini – sog‘”, “Salomatlik tuman boylik”.

Botirlik (matonatlilik) – odam sog‘lig‘i yoki hayoti uchun xavfli va murakkab sharoitda ham biron qarorga kelishi va uni bajarishning uddasidan chiqa bilish xislatidir. “Arslon bolasini tutmoq uchun, arslon uyasiga kirmoq kerak”, “Bilagidan ko‘ra, yuragiga qara”, “Bitmas ishning boshiga, botir kelar qoshiga”, “Botirdan o‘lim ham qo‘rqar”, “Botirlik shahar olar”, “Botir qiyinni yengar, nomard bo‘ynini egar”, “Jasur bo‘lsang yov qaytar”, “Ziyrakning aqli tosh yorar, nomardning mushti – bosh”, “Yigit so‘zidan qaytmas, arslon – izidan”, “Yigitning botirini maydonda sina”, “Odam safarda bilinar, botir – xatarda”, “Yantoqdan atir chiqmas, qo‘rqoqdan – botir”.

Mustaqillik – insonning o‘zicha biror qarorga kelishi va uni amalga oshirishidan, qarorni amaliyotga tatbiq etishning usul va yo‘llarini o‘zi mustaqil ravishda tanlashidan, har bir ishda o‘zining bilimlari, dunyoqarashi va e’tiqodlariga amal (rioya) qilishidan iborat iroda sifatidir. “Hashar qildim – uy qurdim, unda ko‘p hikmat ko‘rdim” “Ko‘p bilsang ham, ko‘pdan ortiq bilmaysan”, “Ko‘mak bo‘lsa har ishga, bitadi qolmay qishga”, “Sen bo‘rini ayasang, bo‘ri seni talar”, “Sir saqlaganga balo yo‘q, saqlamaganga – davo”, “Sihat tilasang, ko‘p yema, izzat tilasang, ko‘p dema”, “Tomchi sel bo‘lmas, dushman el bo‘lmas”, “O‘zingni er bilsang, o‘zgani sher bil”.

Mardlik – oliy maqsadlarni ko‘zlab ish ko‘ruvchi, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishda qat’iylik, vazminlik, sabr-matonat, chidamlilik, bardoshlilik, mustaqillik va dadillik ko‘rsatuvchi xislatlar majmuasidir. “Jasur bo‘lsang, yov qaytar”, “Yigitni botirini maydonda sina”, “Mard yigit so‘zidan qaytmas, arslon-izidan”, “Nolish bilan ish bitmas, mard nomardga tiz cho‘kmas”, “Odam safarda bilinar, botir – xatarda”,”O‘z aybini bilgan mard”, “Qo‘rqqanni ajal quvlar” “Ko‘p bo‘lsa seplab ko‘r, oz bo‘lsa – eplab”, “Otni ayagan ot minar, to‘nni ayagan to‘n kiyar”, “Pulni topguncha hisob top”, “Saqlasang ming kunlik, saqlamasang bir kunlik”, “Baland tog‘da qor bo‘lar, er kishida or bo‘lar”.

Yoshlarda yuksak irodaviy sifat va fazilatlarni shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida o‘zbek xalq ijodidan foydalanishning ijtimoiy-psixologik ahamiyati beqiyosdir. Jumladan, o‘smirlik davri psixologiyasi qonuniyatlariga amal qilib ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida o‘smirlarni yuksak hissiy-irodaviy holatlarini, xarakter fazilatlarini, temperament tiplari va qobiliyatning noyob tomonlarini tarbiyalash uchun o‘zbek xalq psixologiyasi aks etgan maqollardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbek xalq maqollari orasida kishilar fe’l–atvorida uchraydigan irodaviy sifatlarning salbiy illatlari (distruktiv xulq-atvor) zarari va oqibatlaridan ogoh etuvchi maqollar keng o‘rin topgan bo‘lib, ulardan ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida o‘smir yoshlar tarbiyasini to‘g‘ri tashkil etish maqsadida psixoterapevtik vositalar sifatida o‘rinli foydalanish mumkin.

Xulosa va takliflar. O‘zbek xalq maqollari to‘plamidan shaxslararo munosabatlarni meyorlashtirish, yashash va turmush farovonligini ta’minlashga yo‘nalgan maqolar keng o‘rin olgan bo‘lib, ular o‘smir yoshlar irodaviy harakatlariga xos muomala - munosabat odobini shakllantirishga, yashash va turmush farovonligini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida odamning narsalar, hodisalar va mehnatga bo‘lgan irodaviy munosabatlarini tarbiyalashga

xos maqollar anchagina bo‘lib, ulardan ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida hayotiy misollar sifatida foydalanilsa, yoshlarda narsalarga to‘g‘ri baho berish, voqealarni real va obektiv baholash, halol mehnat qilishga o‘rganish, mehnat qilishga xos irodaviy bilim, malaka va mahorat kabi insoniy sifat va fazilatlar (konstruktiv xulq - atvor) shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абульханова-Славская К.А. Типология активности личности// Психология личности и образ жизни. –М.: 1997. - С.10-11.
2. Бобнева М.И. Социальные нормы и регуляция поведения. – М.: 2004. - 310 с.
3. Быков А.В. Генезис волевой регуляции: Монография // М., 2003. – 248 с.
4. G‘oziyev E. G‘. Umumiy psixologiya. –T.: 2010. -544 b.
5. Jabborov A.M. Milliy psixologiyaning shakllanish manbalari. Q.: "Nasaf". 2017.72 b.
6. А.М. Жабборов, Социально-психологическая значимость использования узбекских народных пословиц при совершенствовании учебно-воспитательного процесса. //Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, 2016. – С. 93-95.
7. А.М Жабборов, Ж.А. Жабборов. Этнические стереотипы и психология самобытности узбекского народа. //Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, 2015. – С. 80-83.
8. Маслоу А. Мотивация и личность. – СПб.: Питер. 2006. - 324 с.
9. Мерлин В.С. Структура личности. Характер, способности, самосознание. – М.: Пермь. 1991. - 336 с.
10. Селиванов В.И. Воспитание воли школьника. - М.: Издательство: Концептуал, 2020. – 208 с.
11. Шапкин С.А. Экспериментальное изучение волевых процессов. - М.: Смысл, 2008. – 144 с.

ILK SHARQ RENESSANSI DAVRIDA SIYOSIY-HUQUQIY TAFAKKUR RIVOJI

Bexruz Sobirovich Turdiyev
Buxoro davlat universiteti
Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi professori
b.s.turdiev@buxdu.uz
ORCID 0000-0003-3260-3327
UDK: 32.019.52

Annotatsiya. Markaziy Osiyo o‘rta asrlarda Sharq Uyg‘onishining yirik markazlaridan biri sifatida butun dunyoda shuhrat qozonib, mintaqada Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib kabi ulug‘ mutafakkirlar siyosiy-huquqiy rivojlanishga ulkan hissa qo‘shdilar. Ushbu maqolada o‘sha davr mutafakkirlarining siyosiy va huquqiy qarashlari chuqur tahliliga bag‘ishlanib, jamiyat taraqqiyoti, davlat va adolat masalalari borasidagi ilmiy qarashlari yoritilgan. Xususan, Forobiyning “fozil shahar” haqidagi ta’limotida mukammal jamiyat qurilishining mezonlari o‘rganilgan. Fozil shaharda ijtimoiy tenglik, axloqiy kamolot va tinchlikning muhimligi, davlat rahbari fazilatli, adolatli va bilimdon bo‘lishi kerakligi asoslab berilgan. Shuningdek, Beruniyning ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligini jamiyat barqarorligining asosi sifatida ko‘rganligi, davlatning xalq manfaatlariga xizmat qilishi zarurligi haqidagi siyosiy qarashlari tahlil etilgan. Maqolada, shuningdek, Ibn Sinoning davlat boshqaruvi, huquq va iqtisodiy faollikni tartibga soluvchi qonunlarning ahamiyati haqidagi fikrlari yoritilgan. Xullas, maqolada Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino singari qomusiy olimlarning ilmiy merosi bugungi kunda ham ijtimoiy taraqqiyot, adolat va tinchlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi keltirilgan. Ularning siyosiy-huquqiy ta’limotlari zamonaviy siyosiy va huquqiy qarashlar bilan uyg‘unlashib, jahon ilm-fan va huquqiy tafakkur taraqqiyotining ajralmas qismiga aylanganligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar. fuqaro, jamiyat, davlat, adolat, xalq, qonun, boshqaruvchi, tinchlik, harbiy, siyosatchi

DEVELOPMENT OF POLITICAL-LEGAL THOUGHT DURING THE EARLY EASTERN RENAISSANCE

Abstract. In the Middle Ages, Central Asia emerged as one of the leading centers of the Eastern Renaissance, where renowned scholars such as Al-Khwarizmi, Al-Farghani, Abu Nasr Al-Farabi, Abu Rayhan Al-Biruni, Ibn Sina (Avicenna), and Yusuf Khass Hajib made significant contributions to the development of political and legal thought. This article provides a comprehensive analysis of their political and legal perspectives, highlighting key issues related to societal development, the functions of the state, and principles of justice. Special attention is given to Al-Farabi's doctrine of the “Virtuous City,” where the criteria for constructing an ideal society are examined. The doctrine emphasizes the importance of social justice, moral perfection, and peace, arguing that the head of state must possess virtue, fairness, and profound knowledge. The article also examines the political views of Al-Biruni, who regarded social justice and the rule of law as the foundation of societal stability. He emphasized that the state should serve the interests of its people and highlighted mutual assistance as a crucial principle of social life. Additionally, the ideas of Ibn Sina are explored, particularly his emphasis on the significance of laws that regulate governance, protect human rights, and ensure economic activity. His scholarly works on household management, the supremacy of law, and social protection are analyzed in detail. In conclusion, the article underscores that the scientific legacy of such outstanding scholars as Abu Nasr Al-Farabi, Abu Rayhan Al-Biruni, and Ibn Sina continues to play a vital role in promoting social progress, justice, and peace. Their political and legal teachings harmonize with modern political and legal perspectives, forming an integral part of the world's intellectual and legal heritage.

Key words. citizen, society, state, justice, people, law, ruler, peace, military, politician.

Kirish. IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xurosonda sodir bo‘lgan o‘ta murakkab siyosiy vaziyatning rivoji, ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar ushbu hududlarda siyosiy va huquqiy ta’limotlarning keyingi rivojiga turtki bo‘lgan. IX asrda Bag‘dodda “Bayt ul-hikma” (“Donishmandlar uyi”) – Islom Sharqining o‘z davridagi Fanlar Akademiyasi tashkil etilgan edi.

Xorazmshoh Abul Abbos Ma’mun ancha bilimli, ma’rifatparvar hukmdor bo‘lib, o‘z davrida olim va shoirlarni qo‘llab quvvatlagan. Urganchda Xorazmshohlar saroyida zamonasining yirik mutafakkirlari Ibn Sino va Beruniydan tashqari Abu Sahl Masihiy, Abu Nasr ibn Iroq, Abul Xayr ibn Hammor, Abu Abdulloh al-Xorazmiy kabi olimlar to‘planishgan. Xorazmshoh Ma’mun homiyligida “Bilimdonlar uyi” tashkil etilgan.

Bag‘dodda ilmiy ijod qilgan vatandoshlarimiz yaratgan olamshumul ixtiro va kashfiyotlar Sharq Uyg‘onishiga, shu orqali YYevropa Uyg‘onishiga katta ta’sir etgan. Uyg‘onish davri ideologlarining ta’birlaricha, inson taqdiri uning aslzodaligi, kelib chiqishi, unvoni bilan emas,

balki shaxsning fidokorligi, faolligi, olijanobligi va vijdonliligi bilan belgilanadi. O‘rta Osiyo xalqlarining mashhur allomalari jahon madaniyatiga ulkan hissa qo‘shganlar. Ushbu davrda faylasuf-qomuschilar ijodida siyosat va huquq masalalari katta rol o‘ynaydi. Bu masalalar ularning asarlarida asosan, hurfikrlilik, insonparvarlik nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Ular jamiyatning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga, davlat va uning vazifalariga, huquqning paydo bo‘lishi, mohiyatiga katta e’tibor berishgan.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Markaziy Osiyo hududi Sharq Renessansining yirik markazlaridan biri sifatida butun dunyoda ma’lum va mashhur bo‘lgan. Bu haqida gapirganda, avvalo, ulug‘ vatandoshlarimiz – algoritm asoschisi Al-Xorazmiy, qomusiy olim Al-Farg‘oniy, geodeziya va mineralogiya fanlari rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Abu Rayhon Beruniy, G‘arbda Avitsenna nomi bilan tanilgan Ibn Sino, davlat arbobi va buyuk astronom Mirzo Ulug‘bek singari mutafakkir zotlarning nomlarini hurmat bilan tilga olamiz” [1].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Ushbu maqolada ilk Sharq renessansi davrida siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksalishiga oid Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-qarashlarini o‘rganishda ilmiy bilishning analiz va sintez, retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik usul, sinergetik usullaridan foydalanilgan. Ushbu metodologiya asosida Forobiy, Beruniy va Ibn Sino singari mutafakkirlarning siyosiy-huquqiy qarashlari chuqur tahlil qilinib, ularning jamiyat taraqqiyoti, davlat boshqaruvi va adolat tamoyillarini shakllantirishdagi o‘rni oydinlashtirildi.

Natijalar va muhokama. Jamiyatning paydo bo‘lishi, ularning fikricha, hayvonlardan farqli ravishda, ongli mavjudot bo‘lgan inson tabiatidan kelib chiqadi. Inson uchun o‘ziga o‘xshaganlar bilan muloqotda bo‘lish, birlashishga intilish xos xususiyatdir. O‘z moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun odamlar birlashadilar va jamiyat tashkil etadilar. Jamiyat o‘z taraqqiyotida esa yana ham mukammal darajaga ko‘tariladi. Bu mukammallik davlatga xosdir. Davlatning paydo bo‘lishi va rivojlanishi Sharq Uyg‘onish davrida Abu Nasr Forobiy siyosiy-huquqiy ta’limotida yuqori darajada ilmiy o‘rganilgan.

Abu Nasr Forobiy yunon falsafasini chuqur bilganligi, unga sharhlar bitganligi va jahonga targ‘ib qilganligi hamda zamonasining ilmlarini chuqur bilganligi, fanlar rivojiga ulkan hissa qo‘shganligi uchun “Al-muallim as-soniy”, “Ikkinchi muallim” (Aristoteldan keyin), “Sharq Arastusi” kabi nomlarga sazovor bo‘ldi.

Forobiyning dunyoqarashida ijtimoiy-siyosiy va axloqiy fikrlar ham muhim o‘rin egallaydi. Buyuk faylasufning ijtimoiy – siyosiy qarashlari gumanistik ruh bilan sug‘orilgan. U o‘zining ijtimoiy, axloqiy va gumanistik qarashlarida jamiyatning va insonning o‘zaro munosabati, insoniylik, odamiylik, adolat, mukammal jamoa, komil inson, baxt-saodatga erishuv kabi masalalarni tahlil qilganda, ularga nazariy–falsafiy, ratsionalistik, gumanistik va umuminsoniy mezonlar nuqtayi nazaridan yondashadi.

Forobiyning qimmatli fikrlaridan biri shuki, u Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari faylasuflari orasida birinchi bo‘lib, jamiyatning kelib chiqishi, uning maqsad va vazifalari haqidagi ta’limotni ishlab chiqdi. Forobiy o‘rta asrlar sharoitida jamiyat tabiiy ravishda kelib chiqqanligini, inson faqat boshqalar yordamida hayot qiyinchiliklariga qarshi kurasha olishi mumkin emasligini asoslab beradi. “Har bir inson, - deydi Forobiy – o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi... Bunday jamoa a’zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun insonlar ko‘paydilar va yerni aholi yashaydigan qismiga o‘rnashdilar” [2]. Shaharlar, uning fikricha, insonlarning jamoa bo‘lib uyushishining oliy shakli bo‘lib, unda insonni barkamol bo‘lib yetishishi uchun zaruriy sharoitlar bo‘ladi. Forobiy insonlar tabiiy ehtiyojlar natijasida o‘zaro birlashib, jamoani tashkil qilganligini alohida ta’kidlaydi.

Forobiy ulug‘ gumanist, insonparvar faylasuf sifatida inson qadr-qimmatini kamsituvchi va o‘zga mamlakatlarni bosib olishga asoslangan jamiyatga qarshi chiqadi. Mutafakkir odamlarni tinch-totuv va o‘zaro hamkorlikda yashashga, insonparvar bo‘lishga da’vat etadi. “Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang‘ich asos insoniylikdir, shuning uchun odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari uchun o‘zaro tinchlikda yashamoqlari lozim” , – deydi mutafakkir.

Forobiyning e’tiborga sazovor fikrlaridan biri jamiyat taraqqiyotida geografik muhitning o‘rni masalasidir. Faylasufning o‘ylashicha, geografik muhit, ya’ni kishilarning muayyan hududda

yashashi ularning turmush tarzi, urf-odatlari, axloqi, xulq-odobiga ta’sir ko‘rsatadi, jamoaga birlashuviga yordam beradi. U mukammal jamiyat to‘g‘risidagi ta’limotida odamlarni turli guruhlarga ajratadi. Bunda u insonlarni qaysi dinga e’tiqod qilishiga, irqiga qarab emas, balki aqliy qobiliyati, bilimi, ilm-fanga qiziqishini inobatga oladi.

Forobiy shahar-davlatlarni fozil va johilga ajratadi. Fozil shahar o‘z xalqini baxt-saodatga eltishi, uning boshlig‘i esa adolatli, yuksak axloqli va ma’rifatli, o‘zida butun ijobiy xislatlarni to‘plagan bo‘lishi lozim. Lekin, Forobiyning aytishicha, shahar yoki mamlakatlar bo‘ladiki, ularning aholisi nafsga berilgan, butun fikri-zikri boylik to‘plash bo‘ladi. Forobiy bunday shaharlarni johil shaharlar deb ataydi. Johil shaharlarning boshliqlari ham faqat boylik to‘plashga ruju qo‘ygan bo‘ladi. Forobiyning fikricha, haqiqiy baxtga erishish uchun harakat qiluvchi, o‘zaro yordam qiluvchi, xalqini birlashtirgan shahar – fozil shahar hisoblanadi. Baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam bergan va birlashgan kishilar fazilatli jamoa bo‘ladi.

Forobiy fikriga ko‘ra, davlatni idora etuvchi shaxs o‘zining fazilati, xulqi va odobi bilan ajralib turishi, ayniqsa, u oltita xislatni egallagan bo‘lishi lozim. Bunday davlat boshlig‘i adolatli va dono bo‘lishi, boshqalarga g‘amxo‘rlik qilishi, qonunlarga to‘la rioya qilishi va qonunlarni yarata olishi, kelajakni oldindan ko‘ra bilishi kerak.

Forobiyning talqinicha, fozil shahar yuqori madaniyatli bo‘ladi. Unda yashaydigan xalq o‘zi istagan kasb-hunarga ega bo‘ladi. Bunday jamiyatda to‘la erkinlik va teng huquqlilik hukm suradi.

Mutafakkir o‘z davrining buyuk gumanisti, insonparvari edi. U o‘zining ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va axloqiy qarashlarining markaziga insonni, uning maqsad, muddaolarini o‘rganishni, axloqiy kamolot va baxt-saodatga erishuv yo‘llarini ko‘rsatishni qo‘yadi.

Forobiy o‘z asarlarida adolat masalasiga ham keng to‘xtaladi. Adolatlilik, uning nazarida kishilar o‘rtasidagi tenglikni anglatuvchi tushunchadir. Olim tomonidan bu tushuncha, xuddi yaxshilik kabi keng ma’noda tushuntiriladi. Ushbu tushuncha faqat moddiy tenglikni anglatmasdan, balki ma’naviy tenglikni ham o‘z ichiga oladi. Inson o‘zining butun faoliyatida, boshqalar bilan bo‘lgan munosabatida adolat qoidalariga to‘la rioya qilishi zarur. Forobiyning quyidagi fikrlarida adolatning keng tushunchaligi yaqqol ko‘rinadi: “Adolatlilik, avvalo, shahar aholisining hammasiga tegishli bo‘lgan xayrli narsalarning to‘g‘ri taqsimlanishida va shu taqsimlanganlarning boylikni to‘la saqlanib qolishida ifodalanadi. Bu xayrli narsalar, boyliklar, salomatlik, hurmat, ehtirom, martabalar va shunga o‘xshash narsalar bo‘lib, bulardan har bir kishi o‘ziga yarasha bo‘lagini olishi kerak, bulardan ko‘p yoki oz olish adolatsizlikdir. Agar oz tegsa, u odamga nisbatan adolatsizlikdir, agar ko‘p olsa, xalqqa, ya’ni boshqalarga nisbatan adolatsizlikdir”.

Alloma, garchi “boyliklarni taqsimlashdagi adolatlilik o‘z ulushini saqlashdagi adolatlilik”ni adolatni keng tarqalgan ommaviy ko‘rinishlaridan biri, deb hisoblasa ham uning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy jihatlarini esdan chiqarmaydi. Masalan, olim adolatlilikni mehribonlik bilan chambarchas holda talqin qiladi. Shahar aholisi bir-biri bilan mehribonliklari tufayli birlashadi. “Adolatlilik ham mehribonlik bilan bog‘liqdir, fazilatli shahardagi mehribonlik avvalo fazilatli ishlarda va fikrlarda ko‘rinmog‘i kerak”, – deydi Forobiy.

Forobiyning ijtimoiy-falsafiy va siyosiy g‘oyalari XVI-XX asrlarda ham musulmon mamlakatlarida keng yoyildi, bu mamlakatlar olimlari Forobiyning falsafiy merosini katta qiziqish bilan o‘rgandilar. Mutafakkirning gumanistik va axloqiy g‘oyalari hozir ham insoniyatni baxt-saodatga erishuvi, jahonda tinchlik o‘rnatish ishiga, kelajak avlodni yetuk va barkamol inson bo‘lib yetishuviga, ilm va ma’rifat yuksalishiga xizmat qilmoqda.

Abu Rayhon Beruniy jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlash zarurligini, qonun ustuvorligini talqin etgan. Beruniy davlat shaklini shohlarning mutlaq hokimligida emas, balki ma’rifatparvar shohlar boshqaruvida, deb bilgan. Beruniy fikricha, davlatning muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi uchun o‘zaro yordam, tinch-totuv yashash va umumjahon farovonligi singari qoidalarga rioya qilinishi lozim. U, ayniqsa, davlatlarning hamjihatlikda, tinch-totuv yashashini ko‘p targ‘ib qildi, buni xalq baxt-saodati va farovonligining garovi deb bildi.

Beruniy o‘zining “Hindiston” asarida musulmonlar bilan hindlarning urf-odatlari o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilib, ular geografik sharoitlarga ham bog‘liq, degan fikrni ilgari surdi. Beruniy geografik omilning rolini tahlil qilishni davom ettirib, hatto tillarning turlichaligi ham geografik sharoitlarga bog‘liq deb qaradi. “Tillarning turlicha bo‘lishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi”, degan. Beruniy bu o‘rinda tillar va ularning

rang-barangligini inson hayotining har xil bo‘lishi bilan izohlaydi. Mutafakkir insoniyat hayotida va jamiyatda geografik omilning muhim rol o‘ynaganligini e’tirof etadi.

Beruniyning buyukligi shundaki, u jamiyat yuzaga kelishi asosida kishilarning rang-barang ehtiyojlarini ko‘ra oldi. “Inson yalang‘ochligi va madorsizligi tufayli, himoya qiluvchi tayanchlari bo‘lmaganligi sababli boshqalar tomonidan musibat chekardi. Uning ehtiyojini qondira oladigan, talabini himoya qiladigan doimiy zaruriyatni his etardi”. Shunday qilib, ko‘rib turibmizki, himoya qilish zaruriyati boshqa ehtiyojlar (ovqat, kiyim-kechak va h.k.)ni qondiruvchi zaruriyatlar kabi moddiy omillar insonlarni birgalikda yashashga da’vat etadi. “Ehtiyojlar turli-tuman va son-sanoqsizdir. Faqat ularni bir qancha kishilar birgalikda ta’minlay olishlari mumkin. Buning uchun kishilarda shahar yaratish zaruriyati tug‘iladi”. “Gap shundaki, odam ehtiyojining ko‘pligi, tiyilishi kamligi, himoya qilish quroliga ega bo‘lmaganligi va dushmanning ko‘pligi tufayli, bir-birini himoya qilish zarurligi, o‘zini va boshqalarni ta’min etishga zarur bo‘lgan biror ishni bajarish uchun o‘z qarindosh-urug‘i bilan jamiyatda birlashishga majbur bo‘lgan”, -degan xulosaga keladi.

Beruniy jamiyatning haqiqiy yuzaga kelish jarayonini ta’riflab, ijtimoiy hayot o‘ziga xos “shartnoma” asosida tuzilishini e’tirof etadi. Inson bu ehtiyojlarni tushunib, o‘ziga o‘xshash kishilar bilan birga yashashi zarurligini tushuna boshlaydi. Shuning uchun o‘zaro kelishuvchanlik qabilidagi “shartnoma” tuzishga kirishadi. “Xudoga ming qatla shukurki, kishilarga o‘z ixtiyorini, ya’ni birlashish, yig‘ilish va joylashish huquqini o‘zlariga berish uchun, xohishlarining turlichaligini yaratdi”. Bu gapda odamlar o‘zlarining ijtimoiy hayotlarini barpo etishda katta rolini ta’kidlab, o‘zlari jamiyat yaratishda, boshqa odamlar bilan birgalikda hayot kechiradilar, degan ma’no yotadi.

Shunday qilib, bu o‘z navbatida, inson o‘zining turli-tuman ehtiyojlarini qondiradigan qishloq va shahar kabi ijtimoiy hayot kechiruvchi markazlar paydo qilishiga olib kelgan. Xudo tomonidan insonga ato qilingan ong kishilarning birlashishiga olib keladi. Ularning birgalikdagi turmushi insonga haqiqiy qudrat va uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun yana mehnat qilish ham zarurdir.

Beruniy bularga qarama-qarshi turib, aql, mehnat, erkin tanlov insonning hayotini va ijtimoiy holatini belgilaydi, degan. Faylasuf olim jamiyatning yuzaga kelishi asosida insonning eng sharafli motivlarini - o‘zaro yordamining zarurligini, o‘zaro foyda, birgalikda ehtiyojlarni qondirish zaruriyatlarini tushungan, odamlarning umumiy manfaatlarini ko‘rgan. Beruniy insonning jamiyatdagi o‘rni va funksiyalarini yuqorida aytgan motivlar bilan chambarchas bog‘liqlikda ko‘radi. Shunga asoslanib, jamiyat kishilarning hamkorlikda faoliyat olib borish zaruriyatidan kelib chiqqan, deydi u.

Beruniy pulning paydo bo‘lishini gumanistik g‘oyalardan kelib chiqqan holda, dastavval mehnat taqsimoti bilan bog‘liq deb bildi: “Ehtiyojning ortib borishi va uning turli vaqtda yuzaga kelishi kishilarni har xil vaqtda qiymat uchun olinadigan turli ekvivalentlar o‘rniga umumiy o‘lchov qidirishga olib keladi. Buning uchun odamlar shunday narsa tanladilarki, o‘zining ko‘rinishi va yarqiroqligi bilan kishilarning ko‘zini qamashtiradi hamda noyob bo‘lib, uzoq saqlanadi” [3].

Beruniy jamiyatni boshqarishda davlat homiylari o‘ylagancha, jamiyat podshohga xizmat qilmay, podshoh jamiyatga xizmat qilishi kerakligini tushungan: “Idora qilish va boshqarishning mohiyati – bu boshliq zolimlardan aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, birovlarning tinchligi yo‘lida o‘z tinchligini yo‘qotishdir. Bu ularning oilasini, ularning hayoti va mol-mulkini himoya qilish va qo‘riqlash yo‘lida badan charchashidan iborat” [3.31-32].

“Tabiatni boshqarishga moyil” bo‘lgan hokim o‘z fikri va qarorlarida qat’iy bo‘lishi kerak, o‘z ishlarini amalga oshirishda faylasuflarning qonunlariga, Aleksandr Makedonskiy Aristotelning falsafiy donishmandligiga amal qilganidek, bo‘ysunishlik lozim [4]; shohning o‘zi ham “yaratuvchanlik ongiga” ega bo‘lmog‘i, ayniqsa, dehqonlar to‘g‘risida ko‘proq g‘am yeyishi kerak. “Podshohlik dehqonchiliksiz yashay olmaydi”, deydi Beruniy. Beruniy shunday fikrlarni ham aytib o‘tgan: odil hokimning asosiy vazifasi oliy va past tabaqalar, kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik, adolat o‘rnatishdan iboratdir [5]. Hokimning muhim vazifalaridan biri fan taraqqiyotiga, olimlarga g‘amxo‘rlik qilishdir.

Beruniyning fikriga ko‘ra, davlat va qonunlar inson baxt-saodati uchun xizmat qilishi,

davlatni esa ma’rifatli podshoh boshqarishi lozim. Abu Rayhon Beruniyning e’tirof etishicha, jamiyatning insoniylik mezoni odamlarning kundalik ehtiyojlari qanchalik qondirilganligi bilan belgilanadi. Jamiyatda fuqarolarning farovonligini ta’minlovchi eng muhim omil ijtimoiy adolat qoidalariga amal qilishdir.

Abu Ali ibn Sino (970-1037) o‘zining ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlarida antik va Islom ilmiy tafakkuri an’analarining turli yo‘nalishlarini birlashtirib, o‘zining oila, jamiyat va davlat boshqaruv masalalarining huquqiy asoslarini ishlab chiqdi. Ayniqsa, Ibn Sinoning inson huquq va erkinliklari, uning davlat tomonidan ijtimoiy himoyalanishi, ijtimoiy adolat va adolatli davlat boshqaruvining o‘rni haqidagi qarashlari mutafakkirning “Ash-Shiffo fi al-ilohiyyot” asarida o‘z ifodasini topgan. Jumladan, ushbu asarda mutafakkir:


birinchidan, davlat va huquq masalasini tahlil etib, huquqiy jamiyatning vujudga kelishida din va payg‘ambarning o‘rniga to‘xtalib o‘tgan;

ikkinchidan, payg‘ambar, uning fikricha, ilohiy va an’anaviy qonunlarni, shuningdek, uni millat va shaharga yetkazuvchi qonun ijodkori sifatida gavdalantirilgan;

uchinchidan, shaharda istiqomat qiluvchi jamoani uchta iyerarxik toifaga bo‘lgan: boshqaruvchilar, hunarmandlar va harbiylar [6].

Ibn Sinoning siyosiy-huquqiy qarashlarini tahlil qilar ekanmiz, unda mutafakkir davlatning mavjudligini jamiyat bo‘linishi bilan bog‘lab, o‘zaro uchta tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta’kidlaydi. Qonun ijodkorining qonun ishlab chiqarish va mamlakat boshqaruvidagi asosiy maqsadi jamiyatni uch toifaga bo‘linishi lozimligi bilan bog‘lab o‘tadi. Bular: 1) boshqaruvchilar; 2) hunarmandlar va 3) harbiylar. Mutafakkir, davlatda barqarorlik va tinchlikni saqlash uchun barcha narsa qonun bilan tartibga solinishi va bunga mas’ul bo‘lgan shaxslar jamiyatning uchta tarkibiy qismini qamrab olishi lozimligini uqtiradi: birinchidan, mutafakkir hokimiyatning o‘z tarkibiga ko‘ra, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatidan iborat bo‘lishi, ular boshqaruv qoidalarini ishlab chiqish orqali davlatni boshqarishga mas’ul ekanligini ta’kidlaydi; ikkinchidan, tadbirkor va ishbilarmonlarni mamlakatdagi iqtisodiy ishlarni rejalashtiruvchi, tashkil etuvchi va amalga oshiruvchilar sifatida tavsiflaydi; uchinchidan, davlat qo‘riqchilari (soqchilar), harbiylar, siyosatchilarni davlat xavfsizligini muhofaza qilishga javobgar bo‘lgan tashkilotlar sifatida talqin etadi [7].

Ibn Sino jamiyatning davlatga aylanish jarayonini iqtisodiy uy xo‘jaligi va ushbu faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lgan shaxslar va guruhlar bilan bog‘lab o‘tadi. Uning fikricha, iqtisodiy uy xo‘jaligi bu er, xotin, bolalar va xizmatchilar kabi oila elementlaridan tashkil topib, ushbu har bir element iqtisodiy uy xo‘jaligining barcha oila a’zolariga foyda keltirishi uchun mas’uliyatli ekanligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari u, iqtisodiy jamiyat xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar va guruhlardan iborat ekanligini uqtiradi. U shaxs ehtiyojlarining xilma-xilligi jamiyatda turli kasb va mashg‘ulotlarni yuzaga keltirgan deb hisoblaydi. Davlat iqtisodiy xo‘jaligi orqali boshqariladigan iqtisodiy faoliyati jamiyatda adolat va farovonlikka erishishga xizmat qiladi [8].



Keling, davlatning boshqaruvdagi yuqorida keltirilgan roliga siyosiy-huquqiy jihatdan batafsil to‘xtalib o‘tsak.

Birinchidan, hukumat jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash maqsadida davlatda iqtisodiyotni barqarorlashtirishni ko‘zlovchi iqtisodiy siyosat sohasidagi normalarni ishlab chiqishi lozim. Agar bunday qilinmas ekan, jamiyatda majburiy mehnat, ta’qib, zulm va korrupsiya kabi ko‘plab muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun ham hukumat iqtisodiyotga oid normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishi va uni kafolatlashi lozim. Ibn Sino fikricha, hukumat iqtisodiy faoliyatga doir bitimlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tovlamachilik va adolatsizlikni oldini oluvchi qonunlar ishlab chiqarishga mas’ul bo‘lishi lozim.

Agar davlat xavfsizligi barqaror bo‘lmasa, bunda xorij investorlari yoki tadbirkorlarning davlatda o‘z tadbirkorlik faoliyatini yuritishda ikkilanishlariga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun davlatdagi siyosiy iqtisodiy barqarorlikka erishishda, Ibn Sino o‘zining “madina al-fazila”sida jamiyat tuzilishini tartibga solishi lozimligini uqtiradi. Davlatning asosiy uch tarkibiy qismi, ya’ni hukumat, iqtisodiy faoliyat yurituvchilar va davlat qo‘riqchilari “madina al-fazila”ga erishish uchun mas’uldirlar, deb aytib o‘tgan.

Ikkinchidan, davlatning bo‘sh ish o‘rinlari bilan ta’minlash siyosati. Ibn Sino davlatda bandlik masalasi xususida to‘xtalib o‘tar ekan, shaharda har bir kishi o‘ziga tegishli ma’lum bir vazifa, kasb-kor va o‘ziga xos joyga ega bo‘lishi, har bir shaxs o‘ziga yuklatilgan vazifadan kelib chiqib, shahar uchun foyda keltirishi lozimligini asoslab bergan. Jumladan, u jamiyatda bekorchilik va ishsizlikni qonun yo‘li bilan taqiqlanishini taklif etadi. Qonun inson uchun zarur bo‘lgan kundalik ehtiyojlarini boshqa birovning hisobidan qondirishiga yo‘l ochib bermasligi va bunda har bir kishining o‘zini ortiqcha harakatdan tiyishi lozimligini sharhlab bergan. Agar shaxsning jismoniy nuqsoni yoki kasalligi aniqlansa, qonun chiqaruvchi bunday holatlardagi shaxslar uchun alohida joy ajratishi lozimligini asoslab bergan[9].

Ibn Sino davlat o‘z fuqarolarini ish bilan ta’minlash maqsadida quyidagi siyosatni amalga oshirishi lozimligini ko‘rsatib o‘tgan:

- fuqarolarning mehnatga layoqatli va sog‘lom bo‘lgan davrda foydali va haq to‘lanadigan mehnat bilan shug‘ullanishining kafolatlanishi;
- samarali ishlash uchun malaka oshirish tizimining yo‘lga qo‘yilganligi;
- kasallik paytida bepul va samarali tibbiy xizmatlardan foydalanishning kafolatlanishi;
- kasallik, bevalik, ishsizlik, shuningdek, keksalik va voyaga yetmaganlik kabi shaxslarning irodasiga bog‘liq bo‘lmagan yurdik faktlar tufayli nogironligi bo‘lgan fuqaroning asosiy ehtiyojlarini ta’minlash [10].

Xulosa va takliflar. Ma’lumki, Islom dini ijtimoiy dunyoqarash sifatida keng tarqala borishi bilan uning nazariy, falsafiy, huquqiy tomonlarini ishlab chiqishga e’tibor ham tobora ortib borgan. Shu tariqa IX–XII asrlar Movarounnahrda ilm-fan, madaniyat, Islom falsafasining nazariy jihatdan yuksak darajada rivojlangan davri bo‘ldi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Al-Moturidiy, Mahmud az-Zamaxshariy, Burhoniddin al-Marg‘iloniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Abdulholiq G‘ijduvoniy, Bahovuddin Naqshband, Jaloliddin Rumiy kabi buyuk allomalar o‘zlarining ilmiy tadqiqotlari bilan jahon madaniyatiga ulkan hissa qo‘shdilar. Diniy va ilmiy tadqiqotlarda borliq, ilohiy qudrat, inson komilligi, adolat, insof, diyonat, vijdon kabi g‘oyalar inson ruhiyatini poklash orqali erkin jamiyatga olib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkilotining fan va texnologiyalar bo‘yicha birinchi sammitidagi nutqi// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 yil 11 sentyabr, №181 (6875).
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. - T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
3. Абу-Райхан Мухаммад ибн Ахмад ал-Бируни. Собрание сведений для познания драгоценностей (минералогия). -Ленинград, 1963.
4. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар, I том. -Т.: “Фан ”, 1968.
5. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар, II том. -Т.: “Фан ”, 1965.
6. Турдиев, Б. (2023). Ibn Sinoning huquqiy ta’limotlar rivojida qo‘shgan hissasi. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences, 3, 214-220.
7. Turdiyev, B. S., & Wekke, I. S. (2024). Illuminating the Legacy of Al-Farabi, Ibn Sina, and Al-Biruni: Exploring Political and Legal Philosophies in Transoxiana. Asian Journal of Basic Science & Research, 6(2), 159-166.
8. Turdiyev B. S. Siyosiy ta’limotlar tarixi. -Toshkent: “Impress media”, 2023.
9. Siyosiy-huquqiy ta’limotlar tarixi. -Toshkent: “Dimal”, 2024.
10. Turdiyev, B. S. (2021). Cultural and educational development of society in the scientific heritage of world philosophers. Academic research in educational sciences, 2(4), 443-451.

QarDU XABARLARI

Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal

Qarshi davlat universiteti kichik bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: 180003, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17.

Indeks: 4071

Terishga 2025-yil 25.03.da berildi.

Bosishga 2025-yil 30.03. da ruxsat etildi.

2025-yil 02.04.da bosildi.

Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84, 1/8.

Times New Roman garniturasi. Nashriyot hisob tabog‘i 22,35.

Buyurtma raqami: № 35.

Adadi 50 nusxa. Erkin narxda.